



# ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 4-son (122) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.  
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR  
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor  
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent  
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

|                           |  |
|---------------------------|--|
| <b>S. S. G'ULOMOV</b>     | - O'zFA akademigi                                      |
| <b>A. SAGDULLAEV</b>      | - O'zFA akademigi                                      |
| <b>T. MIRZAYEV</b>        | - O'zFA akademigi                                      |
| <b>SH. A. HASANOV</b>     | - fil.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>S. A. KARIMOV</b>      | - fil.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>M. MUXIDDINOV</b>      | - fil.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>N. SH. SHODIEV</b>     | - ped.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>M. M. MAXMUDOVA</b>    | - ped.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>S. K. KARIMOV</b>      | - fals.f.d., professor (SamDU)                         |
| <b>J. YA. YAXSHILIKOV</b> | - fals.f.d., professor (SamDU)                         |
| <b>N. U. ARABOV</b>       | - i.f.d., professor (SamDU)                            |
| <b>B. E. ERGASHEV</b>     | - t.f.d., professor (SamDU)                            |
| <b>B. S. G'OYIBOV</b>     | - t.f.d., professor (SamDU)                            |
| <b>TAMIR KLEIN</b>        | - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil) |
| <b>NAZIF SHAHRANY</b>     | - Indiana universiteti professori (AQSh)               |
| <b>HIROAKI HUZIE</b>      | - Osaka universiteti professori (Yaponiya)             |
| <b>KIM SUNGHAЕ</b>        | - Daeju universiteti professori (Koreya)               |
| <b>BYLAPPA MANJUNATH</b>  | - Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston)   |

## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

| FILOLOGIYA / PHILOLOGY                      |  |          |
|---|--|----------|
| <b>Sultonmurod Olim</b>                     | Ishq talqini: “Mahbub ul-qulub” va “Lison ut-tayr” majozdan maqsad – haqiqat   | 4        |
| <b>Малиновский Е.А.,<br/>Ткебучава И.Г.</b> | О новом фразеологическом словаре современного русского языка   | 8        |
| <b>Hasanov Sh. A.</b>                       | Kinoqissalar poetikasiga bir nazar   | 11       |
| <b>Xatamov Z.,<br/>Sanaqulov U.</b>         | Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari o‘rganilishi va unga berilgan baho  | 14       |
| <b>Sulaymonov I. I.</b>                     | Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va esse imkoniyatlari   | 17       |
| <b>Aslanova H. A.</b>                       | Ijodiy mutanosiblik va Gadoiy ijodi  | 22       |
| <b>Шералиева Ш. А.</b>                      | Проблемы эквивалентности религиозных фразеологизмов в английском, русском и узбекском языках   | 25       |
| <b>Sulaymonova D. A.</b>                    | Murojaat lingvistik tadqiqotlar ob‘ekti sifatida   | 28       |
| <b>Timirov A. M.</b>                        | Omonim so‘zlarning tarjimadagi roli  | 31       |
| <b>Саттарова С. О.,<br/>Туйчиева Д. Р.</b>  | Основные аспекты изучения грамматических особенностей предложения  | 34       |
| <b>Xudoyorova S. T.</b>                     | Frazeologik va paremiologik birliklar semantikasida tarixiy ijtimoiy voqealar (ingliz va o‘zbek tillari misolida)                    | 37       |
| <b>Ташбекова Д. И.</b>                      | О взаимосвязях и взаимоотношении словообразования и лексики в русском языке  | 40       |
| <b>Soliev A.</b>                            | Tarixiy drama va xarakter  | 43       |
| <b>Rahimov M. R.</b>                        | Nemis tili ilova konstruksiyasining ayrim strukturaviy xususiyatlari   | 46       |
| <b>Jo‘raxolova B. Q.</b>                    | O‘zbek va nemis tillarida «Ayol» va «Erkak» tushunchalarining gender farqlari, stereotiplari o‘zbek va nemis xalq maqollari misolida | 50       |
| <b>Mirsanov B. M.</b>                       | Nemis tilida hayvon va uning a‘zosi nomi orqali voqyelangani qo‘shma terminlar   | 53       |
| <b>Musurmanov E.<br/>Sobitova T.</b>        | O‘zbek va xitoy mifologiyasida bosh totemistik tushunchalar talqini<br>"Orzigul" dostonidagi ma'naviy va lafziy san'atlar            | 57<br>60 |
| <b>Sultonova N. N.</b>                      | Isajon Sulton nasri poetikasi  | 67       |
| <b>Mamatqulov M. R.</b>                     | Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonida tashbih san’ati  | 71       |
| <b>Вохидова Н. А.</b>                       | Персизмы в русском языке   | 75       |
| <b>Yaxshiyeva Z. R.</b>                     | Tetralogiyada poetik g‘oya va pafos uyg‘unligi   | 78       |
| <b>Атаева Г. М.,<br/>Умарова О. С.</b>      | Репрезентация структурных особенностей междометных фразеологических единиц в английском языке  | 80       |
| PEDAGOGIKA / PEDAGOGICS                     |  |          |
| <b>Taylakov U. K.</b>                       | «Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan elektron darsliklarni yaratish bosqichlari  | 83       |

|   |  |     |
|---|--|-----|
| <b>Xasanova X. N.</b>                       | Umumiy o'rta talim maktablarida organik kimyoni o'qitishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish usullari                    | 86  |
| <b>Madatov I. Y.</b>                        | Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish (blended learning texnologiyasi misolida) | 91  |
| <b>Nurboboyev Sh. B.</b>                    | Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda reflektiv yo'naltirilgan ta'lim muhitining ilmiy-metodik jihatlari                         | 96  |
| <b>Ilxomov B. I.</b>                        | Professional ta'lim muassasalari boshqaruv xodimlarining raqamlashtirilgan iqtisodiy faoliyatdagi kompetentligi                  | 99  |
| <b>Sharipov E. O.,<br/>Shodiyev S. Yu.</b>  | O'qituvchining pedagogik texnikasi va innovatsion faoliyatining o'quvchilar bilan muloqotidagi roli                              | 103 |
| <b>Ibraymov A. Y.</b>                       | Masofaviy o'qitishning zamonaviy modellari   | 108 |
| <b>Egamov M. X.</b>                         | Texnika oliy ta'lim muassasalarida sferik trigonometriya fanini fuzyonizm g'oyasi asosida o'qitish usullari                      | 112 |
| <b>Davronova G. M.</b>                      | Bo'lajak musiqa o'qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida                                  | 115 |
| <b>Kipchakov B. B.,<br/>Ismoilova F. I.</b> | Badminton bo'yicha sport tayyorgarligi bosqichlari va uning mazmuni  | 119 |
| <b>Yadgarova O. I.</b>                      | Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari                       | 123 |
| <b>Kadirov T. B.</b>                        | Malaka oshirish ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish masalalari                              | 127 |
| <b>Oqnazarov T. J.</b>                      | Integratsiyalashgan axborot ta'lim muhitini yaratishning didaktik-texnologik shartlari   | 130 |
| <b>Mannabov J. T.</b>                       | Masofaviy ta'limda o'qituvchilarning kasbiy texnologik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari                    | 132 |
| <b>Axmedov F. Q.,<br/>Utayev Z. M.</b>      | Sport mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g'oyalarni singdirishning pedagogik asoslari  | 137 |
| <b>Tojiyeva X. B.</b>                       | Adabiyotda sharqona o'qitish usullari  | 140 |
| <b>Azimov A.</b>                            | Buyuk alomalarning yoshlar tarbiyasiga doir fikrlari   | 144 |
| <b>PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY</b>             |  |     |
| <b>Saidov A. I.</b>                         | Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari                        | 148 |
| <b>Xalbayeva G. A.</b>                      | Zamonaviy psixologiyada bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligining psixologik muammolari                                       | 151 |
| <b>Isakova M. T.</b>                        | Davlat boshqaruvi va shaxs ruhiy salomatligi   | 158 |
| <b>Toxirova M. U.</b>                       | Ko'rishda nuqsoni bor shaxslarning xarakter xususiyatlariga psixologik tasnif  | 162 |
| <b>Урунов А. Ш.</b>                         | Моделирование процесса профилактики девиантного поведения (социально-психологический аспект)                                     | 165 |
| <b>Eshmurodova Z. R.</b>                    | Sharq va g'arb xalqlari tilida bola tug'ilishi bilan bog'liq marosim va urf-odatlar  | 169 |

**Mualliflarga**

UDK: 891.709

**ISHQ TALQINI: “MAHBUB UL-QULUB” VA “LISON UT-TAYR”  
MAJOZDAN MAQSAD – HAQIQAT****Sultonmurod Olim***“Naqshbandiya” jurnali bosh muharriri*

**Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiy(Foniy)ning, asosan, “Mahbub ul-qulub” va “Lison ut-tayr”, qisman, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlari ishq va uning turlari tasviri jihatidan o‘zaro qiyosiy tarzda o‘rganiladi, haqiqiy va majoziy ishq talqinida sho‘ro davri olimlari qarashlarining xato jihatlari ko‘rsatiladi, ishq talqinlari asosida buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri asarlari mohiyatini ochishda bir qator yangi nuqtayi nazarlar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** Ishq, ilohiy ishq, haqiqiy ishq, majoziy ishq, dunyoviy ishq, Xudo, inson, adabiyot, diniy-mistik adabiyot, dunyoviy adabiyot, Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr”, “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy”, baqo, fano, pir.

**ТРАКТОВКА ЛЮБВИ: “ВЛЮБЛЁННЫЙ СЕРДЕЦ” И “ЯЗЫК ПТИЦ”  
ЦЕЛЬ СИМВОЛИЧЕСКОЙ ЛЮБВИ – БОЖЕСТВЕННАЯ ЛЮБОВЬ**

**Аннотация.** В статье в сопоставительном плане изучаются произведения Алишера Навои (Фани), как “Возлюблённый сердце” и “Язык птиц”, а также “Смятение праведных”, “Фархад и Ширин”, “Лайли и Меджнун”, “Семь планет”, “Стена Искандара” по освещению темы любви и её разновидностей, критикуются ненаучные толкования советских учёных божественной и светской любви, излагаются некоторые новые научные выводы на основе исследования любви в творчестве великого узбекского поэта и мыслителя.

**Ключевые слова:** Любовь, божественная любовь, настоящая любовь, символическая любовь, светская любовь, Бог, человек, литература, религиозно-мистическая литература, светская литература, Навои, “Влюблённый сердце”, “Язык птиц”, “Смятение праведных”, “Фархад и Ширин”, “Лайли и Меджнун”, “Семь планет”, “Стена Искандара”, единение с вечностью, отрешение, духовный наставник.

**INTERPRETATION OF LOVE: “LOVING HEARTS” AND “LANGUAGE OF BIRDS”  
THE PURPOSE OF SYMBOLIC LOVE AS A DIVINE LOVE**

**Abstract.** In this article comparatively studied the works of Alisher Navoi (Fani) such as “Loving Hearts”, “The Language of the Birds” and “Confusion of the Righteous”, “Farhad and Shirin”, “Laili and Majnun”, “Seven Planets”, “The Wall of Iskandar” on the topic of love and its varieties, unscientific interpretations of Soviet scholars of divine and secular love are criticized, some new scientific conclusions based on the study of love in the work of the great Uzbek poet and thinker are presented.

**Keywords:** Love, divine love, true love, symbolic love, secular love, God, human, literature, religious mystical literature, secular literature, Navoi, “Hearts in Love” “The Language of the Birds”, “The confusion of the righteous” “Farhad and Shirin”, Laili and Majnun, Seven Planets, The Wall of Iskandar, union with eternity, renunciation, spiritual mentor.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”i – oxirigacha mag‘zi to‘liq chaqilmagan o‘ta muhim va noyob adabiy-badiiy yodgorliklardan biri hisoblanadi. Unda, jumladan, shoirlar va oshiqlar juda nozik darajada, navoiyona aniqlik bilan tasnif qilib berilgan (1).

Asardagi “*Xaloyiq ahvol va af‘ol va aqvolining kayfiyati*” degan avvalgi qismning “*Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida*” deb nomlangan 16-faslida shoirlar tasnif qilinadi. Qiziqki, bu tasnifda ular ijodiga aynan tasavvuf nuqtayi nazaridan turib yondashiladi. Dadil turib bunday deyishimizga asos bo‘ladigan sabab shuki, tilga olingan 1 arab va 20 fors-tojik shoiri orasida malik ul-kalom Abu Abdullo Rudakiy bilan ustodi suxan Abulqosim Firdavsiy yo‘q. Chunki ularning she‘riyatida tasavvuf unsurlari mavjud emas-da.

Shunday qilib, shoirlar guruhlar quyidagilardan iborat:

1. “*Ishlari maoniy xazoyinidin ma‘rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm termak*” (2): Amir ul-mo‘minin Hazrat Ali; Shayx Farididdin Attor; Mavlono Jaloliddin Rumiy (3).

Muallif bularni *“haqiqat tariqining suxanvari”* (4) deb ataydi va avliyoyi ogoh, mashoyix va ahlulloh orasida bularga tatabbu’ (o’xshatma, javobiya, nazira, payrav) qilganlar borligini ham qayd etadi: *“Yana ham avliyoyi ogoh va mashoyix va ahlulloh borkim, bularg’a tatabbu’ qilibturlar va bular kalomi adosin va haqoyiqi ma’nosin mutahsan bilibdurlar. Bu xayldur haqiqat tariqining suxanvari, balki kimyogari va kibriti ahmari”* (5). Demak, bu – adabiyotdagi bir toifa yo’li.

2. *“Yana bir jamoatdurlarkim, haqiqat asrorig’a majoz tariqin mahsul qilibdurlar va kalomlarin bu uslubda marbut etibdurlar”* (6): Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Zahiriddin Sanoiy, Shayx Avhadiddin va Shamsiddin Muhammad Hofiz (Sheroziy, 7).

Mazkur parchada aniqlik kiritilishi zarur bo’lgan bir nozik nuqta bor. Bu – *“mahsul qilmoq”* qo’shma fe’li nimani anglatishini bilib olishdan iborat. *“Mahsul”* so’zi *“natija”*, *“hosil”* degan ma’noni ifodalaydi. Demak, tilga olingan ikkinchi guruh shoirlari haqiqat asrorini, ya’ni Xudoning sirlarini majoz, ya’ni uning suvrati, nusxasi, ramzini tasvirlash, aniqrog’i, vosita qilish yo’li bilan aks ettirgan. Shunday tushunish kerakki, haqiqat va majoz aralash, ya’ni sintez tarzda namoyon bo’lgan. Demak, ikkinchi guruhning xususiyati birinchi guruh xususiyatidan ana shu nozik jihati bilan farq qiladi.

3. *“Yana jam’e bordurlarki, majoz tariqi adosi alar nazmig’a g’olib va alar bu shevaga ko’prak rog’ibdurlar. Andoqkim, Kamol Isfahoniy va Xoqoniy Shervoniy va Xojuyi Kirmoniy va Mavlono Jaloliddin va Xoja Kamol va Anvariyy va Zahir va Abdulvose’ va Asir va Salmon Sovajiy va Nosir Buxoriy va Kotibiy Nishopuriy va Shohiy Sabzavoriy”* (8).

Anglashilib turibdiki, bu 3-guruhda nomlari sanab o’tilgan shoirlar asarlarida majoz – birlamchi. O’rni kelgani uchun shuni ham qayd etib o’tish kerakki, bu guruhda tilga olingan Mavlono Jaloliddin aslo Mavlono Jaloliddin Rumiy emas. Bu Mavlono Jaloliddin – 1336 yili vafot etgan Ibni Ja’far Farohoniy. Devon tuzgan, Nizomiy Ganjaviyning *“Maxzan ul-asror”*ga javob tarzida doston yozgan (9).

4. *“Yana haqiqat va majoz tariqida komil va ilmi ikalasi tariqida vofiy va shomil, nazm ahlining muqtado va imomi hazrati shayx ul-islom Mavlono nur ul-millati va-ad-din Abdurahmon al-Jomiy(navvarallohu marqadahu va quddisa sirrahu)durkim, avvalg’i tabaqa ravishi va kalomida ham sharifmaqol va so’ngg’i tabaqaning ham adosi latoyifida sohibkamoldurkim, olamda zavqu hol ahli bular latoyifi bila masrurdurlar va bular maorifi bila huzur qilurlar”* (10).

Demak, Abdurahmon Jomiy ijodining o’zigina bir guruhni tashkil etib turibdi. Uning asarlarida ham haqiqat, ham majoz haddi a’losida tarannum etilgan.

Bu yerda jiddiy hal qilib olishimiz kerak bo’lgan bir masala bor. Navoiy ustoz va piri Jomiyning ham *“avvalg’i tabaqa”* va ham *“so’ngg’i tabaqa”* yo’lida kamolot darajasida asarlar yozganini ta’kidlaydi. *“Avvalg’i”* deganda haqiqat kuychilari bo’lgan shoirlar, ya’ni bu tasnifdagi birinchi guruh, *“so’ngg’i”* deganda majoz kuychilari bo’lgan shoirlar, ya’ni tasnifdagi uchinchi guruhni ko’zda tutadi. Bu – tushunarli. Demak, Jomiy ham haqiqat tasviri yo’lida, ham majoz tasviri yo’lida kamolot kasb etgan.

Gap shundaki, Navoiy ijodi ham – mantiqan va mohiyatan ana shu piri va ustoz doxil bo’lgan guruhga mansub. Birinchidan, bu tasnifotda turkiy adabiyot qamrab olinmagan. Ikkinchidan, muallif kamtarlik qilib, o’zini ana shu to’rtinchi guruhda qayd etib ketishni lozim topmagan. Biroq, *maqsadi kelajak avlod kitobxonlariga shunday aniqlik kalitini topshirib ketish ham bo’lgan edi*, deyishga to’la asosimiz bor.

Garchi turkiy adabiyot qamrab olinmagan bo’lsa ham, bu tasnifni turkiy shoirlarni guruhlashtirishda ham bimalol qo’llashimiz mumkin. Navoiy zamonasida aynan shunday yoki shunga yaqin tasnifdan foydalanilganini tasdiqlash uchun qo’limizda yetarli dalil ham mavjud. Bu – Navoiyning *“Holoti Pahlavon Muhammad”* asarida keltirilgan hazilga yo’g’rilgan bir suhbat.

Tasvirlanishicha, Pahlavon Muhammad shogirdi Alisherdan turkigo’y shoirlardan qaysi birini ko’proq tan olishini so’raydi. Shoir avvaliga hammasini tan olishini aytadi. Ustoz ular hammasi birdek emasligini, ijodlari orasida tafovut borligini, shuning uchun to’g’risini aytishini so’raydi. Navoiy Lutfiyni tilga oladi. Shunda nima uchun Nasimiyni aytmagani sababini surishtiradi. Navoiy ikki sabab ko’rsatadi: birinchisi – esiga kelmagani, ikkinchisi esa – Nasimiyning haqiqat tariqida she’rlar bitgani. Chunki Pahlavon Muhammad majoz shoirlarini ko’zda tutgan edi: *“Xotirg’a kelmadi va bar taqdir kelmoq, Sayyid Nasimiyning nazmi o’zga rang tushubdur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur, balki haqiqat tariqin ado qilibdur. Bu savolda sening g’arazing majoz tariqida aytur el erdi”* (11).

Pahlavon Muhammad Alisherga kinoyatomuz e’tiroz qiladiki: *“Sayyid Nasimiyning nazmi zohir yuzidin majoz tariqig’a shomildur va ma’ni yuzidin – haqiqat tariqig’a”* (12). Gapning isboti sifatida esa bugun ertalab Navoiy bitgan, hali hech kimga ko’rsatmagan g’azali maqta’sini *“Navoiy”* taxallusini *“Nasimiy”* tarzida o’zgartirib aytadi:

*Gar Nasimiy siymbarlar vaslin istab ko’rsa ranj,*

*Yo'q ajab, nevchunki, xom etgan kishi ranjur erur.*

Chunki ustoz shoira bildirmay qoralamani cho'ntagidan olib, yodlagan va yana joyiga solib qo'ygan, hatto, o'sha oqshom bir necha shogirdiga ham o'rgatib ulgurgan edi. Navoiy bu baytda "Navoiy" so'zidan ko'ra "Nasimiy" kalimasi munosibroq ekanini tan olib, yozadi ham (13). Sababi – "Nasimiy" so'zi bilan "siymbarlar" so'zi o'rtasida nozik ohangdoshlik bor.

Bu yerda bizga eng kerakli nuqta shundan iboratki, Pahlavon Muhammad: "...Zohir yuzidin majoz tariqig'a shomildur va ma'ni yuzidin – haqiqat tariqig'a..." – deganida Nasimiy ijodigagina emas, amalda aynan Navoiy ijodiga ham baho bergan edi. Hazilning mohiyati shuni taqozo etar edi.

5. "Yana adno tabaqasi jamoatedurlarkim, nazm bila faqat (14) ko'ngullar xushnud va xursand va roziyu bahramanddurlar va yuz mashaqqat bila bir baytkim, bog'lashturg'aylar, da'vo ovozasin yetti falakdin oshurg'aylar. So'zlarida ne haqoyiq va maorif no'shidin halovat va nazmlarida ne shavq va ishq o'tidin harorat. Ne shoirona tarkiblari ahsan va ne oshiqona so'zu dardlari shu'laafgan. Ba'zidin agar gohi birar yaxshi bayt voqe' bo'lur, ammo o'n oncha yamon da'vo zohir bo'lurki, u ham zoe' bo'lur. Agar biri bir nozuk ma'nida pisandida pech qilur, ammo o'n oncha nopisand da'vo bila ani ham hech qilur. Go'yo o'zlariga aqidada muvofiqdurlar va so'zlariga e'tiqodda muttafiq. Turfaroq bukim, har birining so'zida ma'no ozroq va o'zida da'vo ko'proq (nauzu billohi min shururi anfusino va min sayyoti a'molino)" (15).

Sezilib turibdiki, Navoiy oldingi to'rt guruhga mehr, ya'ni simpatiya bilan qaraydi, ammo beshinchi guruhga nisbatan kuchli nafrati, ya'ni antipatiyasini aslo yashirib o'tirmaydi. Hatto, bu guruhni "adno (past) tabaqa" deb hisoblaydi. Nima uchun? Demak, garchi buyuk mutafakkir tasnifda shoirlarni besh guruhga bo'lgan bo'lsa ham, mantiqan va mohiyatan ular ikki katta qismga ajraladi. Birinchi qismga muallif simpatiya bilan qaragan dastlabki to'rt guruh, ikkinchisiga esa muallif antipatiya bilan qaragan beshinchi guruh kiradi. Bugungi tushunchalar bilan ifodalashga to'g'ri kelsa, shartli ravishda aytish mumkinki, birinchi qismda ilohiy ishqni, ikkinchi qismda esa dunyoviy ishqni kuylagan shoirlar kiritilgan.

Afsuski, Navoiy dastlabki to'rt guruhga kimlar kirishini aniq qilib aytib o'tgani holda beshinchi guruhga mansub biron-bir shoirning nomini tilga olmaydi. Ular nomini qayd etib o'tganida edi shu shoirlar asarlarini o'rganish orqali bu tasnifot sirini yanada aniqroq tarzda ochish imkoni paydo bo'lar edi. Mantiqan o'ylash mumkinki, Navoiy beshinchi guruhga kiradigan zamondosh shoirlar toifasini ko'zda tutgan. Aks holda, bu qadar achchiq-quruq gaplarni yozmagan bo'lar edi.

Shoirlar haqidagi ana shu tasnifni "Mahbub ul-qulub"dagi "Hamida af'ol va zamima xisol xosiyatida" deb nomlangan ikkinchi qismning "Ishq zikrida" sarlavhasi ostida 10-bobi bo'lib kelgan parchadagi tasnifotni ko'rib o'taylik.

Ishqni ta'riflab kelib, buyuk mutafakkir uning o'jarligi oldida podshoh ham, gado ham, jabri qoshida fosiq (axloqsiz) ham, porso (xudojo'y) ham tengligini, oshiq ko'ngliga ma'shuqqa yetish niyatini solguvchi ham, bir jilvasi bilan uning hayoti naqdini oluvchi ham – shu ekanini aytadi.

Keyin biz uchun juda qiziq joyi keladi – muallif to'rt oshiqni tilga oladi: "Ishq ko'histoni bedodining noshodlaridin biri Farhodur va sahroyi junun zabunlaridin biri Majnundur va shabiston savdosi devonalaridin biri – parvona va guliston havosi noshikeblaridin biri – andalibi devona va otashgoh harorati garmravlaridin biri Xusravi nomiy va maykada dardmandligi nomiylaridin biri Jomiy (navvarallohu marqadahu nuran vaffaqanallohu)" (16). Ana shu to'rt oshiqning hammasi – adabiyot bilan bog'liq. Ikki nafari, ya'ni Farhod va Majnun – inson oshiq timsoli, ikki nafari, ya'ni parvona (pashsha, u shamga oshiq) va andalib (bulbul, u gulga oshiq) – ramziy oshiq, ikki nafari, ya'ni Xusrav (Dehlaviy) va Jomiy – ishqni haddi a'losida kuylagan shoirlar. Shu tariqa asar muallifi ishqni oldindan so'z san'atiga vobasta qilib qo'ydi. Chunki bu unga keyin yana kerak bo'ladi.

"Mahbub ul-qulub"dagi bu parchalarda ishq va ahli ishq, ya'ni oshiq masalasi tahlili qisman amalga oshirildi. Endi ma'shuqni tushuntirishga navbat keladi. Xo'sh, ma'shuq – kim? Mana, uning talqini: "Bu ta'rif qilg'on ishq va bu bayon etgan ahli ishq ma'shuq vujudi birla qoimdurlar va bu ado topqon holotg'a mansubluklari doim. Va ul ma'shuq husnedin (17) iboratdurkim, "Innalohu jamilun yuhubb ul-jamol" (18) andin xabar berurkim, ishq bu e'tiboru jaloli bila va bu ixtiyoru istiqloli bila husn saropardayi kibriyo va borgohi istig'nosi tegrasida bir bandayi chovush va bir kamina halqa ba go'shdurkim, har qachon husn sultoni mahbublug' niqoblaridin va masturlug' hijoblaridin chiqmoq asbobin tuzsa va zuhur tajalliysi bila jilva gar ko'rguzsa, ul nur oshiqi mahjur ko'zi ravzani shishalari ravzan ko'zi shishalaridek hayron qilib, ishq bebob ayyori ul ravzan yo'lidin o'zin ko'ngul ma'murasig'a tashlar va ul ma'murada xarobliq og'oz qilib, xirad va hush xaylig'a qo'zg'alon sola tashlar. Ul ma'lum emaskim, husn sultonining bu zolim chovushi bedodidin ul mulk ahlining mazlumlari netgay va hollari aning tashaddudi suubatidin ne yerga yetgay. Bovujud bu hol ul kishvarning asirlari va ul mulkning qatlu toroj ko'rgan ahli faza' va

*nafirlari ul jilva mayidin masti bexud va ul jamol tamoshosidin volavu hayron bo'lib, aning havosig'a mash'uf va aning tamoshosig'a mag'lub bo'lurlar*" (19).

Keltirilgan parchada ikki bor "*husn sultoni*" birikmasi ishlatiladi. Bu – "*Tangri taolo*" degani. Demak, haqiqiy ma'shuq – Xudoning o'zi. Keyingi parchada muallif uni "*ul sulton*" (20) tarzida yana tilga oladi.

Eng muhimi, shoirlar tasnifida buyuk mutafakkir aynan qalam ahlini ishqni tasvirlash nuqtayi nazaridan guruhlarga ajratgan edi. Bu yerda esa endi ishqning o'zini turlarga ajratadi.

Lekin endi boshqa bir o'rinli savol o'rtaga tushadi: xo'sh, ishq ikkiga – haqiqiy va majoziyga bo'linsa, nega Navoiy "*Mahbub ul-qulub*"da oshiqnlarni tasnif qilar ekan, bu tayyor tasnifotdan, umuman, foydalanmadi, ya'ni bu masalada tamoman boshqa istilohlar qo'lladi? Bundan tashqari, ana shu tasnifotda dunyoviy ishqning o'rni qayerda?

Bu savollarga javob bermay turib, "*Lison ut-tayr*" dostonida yashirin tilsimning kalitini topib bo'lmaydi. Ya'ni: "*Lison ut-tayr*"da majoziy ishq kuylanganmi yoki haqiqiy ishq tarannum etilganmi?" – degan masala mohiyati ochilmaydi.

Mazkur savolga javob berish uchun avval haqiqiy ishq – nima-yu, majoziy ishq – nimaligini aniqlab olishimiz kerak. Haqiqiy ishq ham, majoziy ishq ham – mohiyatan bitta tushunchaning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ikkalasi ham – ilohiy ishq. Shuning uchun "*haqiqiy ishq*" bilan "*ilohiy ishq*", bizningcha, teng tushunchalar emas. Boshqacha aytganda, "*haqiqiy ishq*" va "*majoziy ishq*" adabiyotdagi hodisani anglatadi. Ilohiy ishq – Xudoga ishq. Uni adabiyotda to'g'ridan-to'g'ri tasvirlash usuliga "*haqiqiy ishq*", biror allegorik, ya'ni majoziy yo'l bilan tasvirlash esa "*majoziy ishq*" deyiladi. Demak, ilohiy ishq tushunchasi haqiqiy ishqni ham, majoziy ishqni ham qamrab oladi.

Bu mulohazalarimizdan shunday xulosa kelib chiqadiki, demak, "*majoziy ishq*" degani "*dunyoviy ishq*" degani emas ekan. Chunki, axir, dunyoviy ishq zamirida Xudoga ishqqa ishora ko'zda tutilmaydi-da.

Majoz va haqiqatga munosabat sho'ro davrining oxirlariga kelib o'zgarib bordi. Shu ma'noda navoiyshunos Yo. Ishoqovning: "*Navoiyning ishq masalasidagi kontseptsiyasining asosiy mohiyati shundan iboratki, majoziy ishq haqiqiy ishqdan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo'yilmaydi. Balki majoziy ishq ishq haqiqiyning bir ko'rinishi yoki haqiqiy ishq yo'lidagi o'ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma'naviy komil inson uchun majozning o'zi ayni haqiqatdir*" (21), – degan nuqtayi nazarni ilgari surishi sho'ro davridayoq oldingi tamoman xato qarashlarga bir qadar zarba bergan edi.

Haqiqiy va majoziy ishqqa to'g'ri baho berish sari intilishlar jarayoni mustaqillik yillarida izchil davom etdi (22). Jumladan, S. S. Rafiddinov Atoiy ijodini o'rganar ekan, shunday deb yozadi: "*Atoiy g'azallarida majoziy ishq haqiqiy ishq yo'lidagi bir vosita, ko'prikdir. Chunki Atoiy "majoz tariqi bila haqiqat asrori"ni kuyladi. U "ishq"ni "saodati abadiy" deb biladi va benazir, benuqson Yor jamolini "jumla olam partavi"da mushohada etadi. Atoiy g'azallaridagi so'fiyona haqiqatlarda o'zlikni anglash hamda Yaratuvcchini tanishga da'vat bor*" (23).

Xullas, "*Mantiq ut-tayr*"da ham, "*Lison ut-tayr*"da ham mohiyatan haqiqiy ishq kuylangan. Biroq bu ikki dostonda to'g'ridan-to'g'ri Xudo timsoli yo'q. Simurg' ramzan Xudoni anglatib kelgan. Demak, biz bu ikki dostonni har qancha ishq haqiqiy ta'rifidagi asar sifatida baholasak ham, ularda majozning ham alohida o'rni bor. Shuning uchun Navoiyning o'zi "*Muhokamat ul-lug'atayn*"da: "*Chun "Lison ut-tayr" ilhomli bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorin majoz suratida ko'rguzupmen*" (24), – deb yozadi.

Bu "*Lison ut-tayr*"da ishq haqiqiy qalamga olish asosiy maqsad bo'lganini isbotlaydigan muhim asos hisoblanadi.

#### Adabiyotlar

1. Ushbu satrlar muallifining quyidagi maqolasida bu tasnif qisman tahlil qilingan: Qarang: *О л и м С. "Махбуб ул-кулуб"да шоирлар ва ошиқлар таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010, № 6. – Б. 38 – 47.*
2. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 14. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 24.
3. О'sha nashr. – Б. 25.
4. О'sha nashr. – Б. О'sha.
5. О'sha nashr. – Б. О'sha.
6. О'sha nashr. – Б. О'sha. Nashrda "*kalomlari*" bo'lib ketgan, biz tuzatib ko'chirdik.
7. О'sha nashr. – Б. О'sha.
8. О'sha nashr. – Б. О'sha.
9. Qarang: О'sha nashr. – Б. 279.

10. O'sha nashr. – B. 25 – 26.
11. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 15. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 116.
12. O'sha nashr. – B. O'sha.
13. Qarang: O'sha nashr. – B. O'sha.
14. Nashrda “*faqat bila*” tarzida so'zlar o'rni almashtirib yozilgan, biz, mantiq taqozosiga ko'ra, tuzatib ko'chirdik.
15. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. Т. 14. – Б. 26.
16. O'sha nashr. – B. 66.
17. Nashrda “*husnidin*” tarzida xato ketgan, uni “*husnedin*” (ya'ni “*bir husndan*”) deb o'qish kerak, biz tuzatib ko'chirdik.
18. Bu hadisi sharif nashrda: “*Haqiqatda, Alloh go'zaldur va go'zallikni sevadi*”, – tarzida tarjima qilingan. Qarang: O'sha nashr. – B. 288.
19. O'sha nashr. – B. 66 – 67.
20. Qarang: O'sha nashr. – B. 67.
21. *Исхороков Э.* Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 25.
22. Qarang: *Хажқулов И.* Занжирбанд шер қошида (Навоий сабоқлари). – Тошкент: Юлдузча, 1989; *Yana shu muallif.* Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007; *Олим С.* Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: Фан, 1992; *Yana shu muallif.* Мажоздан мақсад – ҳақиқат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993 йил, 10 сентябрь; *Воҳидов Р.* Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро: Бухоро, 1994; *Муҳиддинов М. Қ.* Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси. Филол. ф. д. ... дисс. – Тошкент: Нашриётсиз, 1995; *Yana shu muallif.* Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005; *Yana shu muallif.* Нурли қалблар гулшани. – Тошкент: Фан, 2007; *Комилов Н.* Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005; *Yana shu muallif.* Тасаввуф. – Тошкент: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009; *Yana shu muallif.* Маънолар оламига сафар (Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар). – Тошкент: Tamaddun, 2012.
23. *Рафиддинов С. С.* Атоийнинг поэтик маҳорати. – Филол. ф. н. ... дисс. автореф. – Тошкент: Нашриётсиз, 1993. – Б. 10.
24. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 16. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 26.

УДК: 491.7

## О НОВОМ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОМ СЛОВАРЕ СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА

Е. А. Малиновский, И.Г. Ткебучава

*Самаркандский государственный университет*

**Аннотация.** В статье рассматривается кодификация наиболее употребительных в современных газетных текстах и других средствах массовой информации фразеологических единиц русского языка, представленных в «Словаре современной русской фразеологии» (М., 2016).

**Ключевые слова:** фразеологическая единица, неологизм, перифраза, клише, литературная цитата, семантика, стилистика, экспрессия.

### Zamonaviy rus tilining yangi frazeologik lug'ati to'g'risida

**Annotatsiya.** Maqolada asosan zamonaviy gazetalar, matnlar va boshqa ommaviy axborot vositalarida ishlatiladigan, hamda “Zamonaviy rus frazeologiyasi lug'ati”ga kiritilgan frazeologik birliklarni ma'nosi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, neologizm – yangi so'z, ibora, klishe adabiy sitata, semantika, uslubshunoslik-stilistika, ekspressiya-ta'sirchanlik.

### About a new phraseological dictionary of the modern Russian language

**Abstract.** The article is considered the codification which is mostly used in Mass Media phraseological turns of the Russian language in the “Dictionary of the Modern Russian phraseology” (M.2016).

**Keywords:** phraseological, neologism, paraphrase, cliché, literare quote, semantics, stylistics, expression, transformation.



В середине десятых годов XXI столетия русская лексикография пополнилась новым «Словарем современной русской фразеологии», авторами которого являются известные фразеологи проф. А. В. Жуков и М. Е. Жукова. Словарь вышел под грифом «Институт русского языка имени В. В. Виноградова РАН» (Далее - Словарь).

Его основу составили свыше 2100 фразеологических единиц, наиболее употребительных в современных газетных текстах и в других средствах массовой информации, в том числе неологизмов. Этим, вероятно, объясняется небольшое количество представленных в нем словарных статей, в которых отдельные фразеологические единицы описываются впервые.

В тоже время материал свидетельствует, что авторы Словаря ничем не мотивировали отбор активных в газетных и художественных статьях фразеологических единиц из огромной сокровищницы русской фразеологии. Так, например, такие фразеологические единицы, как: *драть глотку, душа в душу (жить), в упор не видеть, головная боль, одержать победу, кислой патриотизм, как стеклышко (трезвый), на крючке (быть), молочные реки и кисейные берега, в ажуре, взятки гладки* в Словаре нашли себе место, а не менее употребительные: *дрожать от страха, дрожать мелкой дрожью, дрожать как (осиновый) лист, дрожать за свою шкуру, малиновый цвет, малиновый звон, молоко (материнское, материно) на губах не обсохло, всасывать с молоком, кровь с молоком, как от козла молока, молоть чепуху, молоть языком, мели Емеля, твоя неделя* и мн. др.

Более того, в Словаре вошли без каких-либо помет такие фразеологические единицы, которые ныне стали (или становятся) малоупотребительными и почти забытыми. Ср. : *домоклов меч, авгиевы конюшни, аллилуйя петь, альфа и омега, ангел во плоти, в тартарары провалиться, вожжи отпустить, восходить (взойти) на голгофу, выделявать кульбиты, глас вопиющего в пустыне, голый король* и др. Лишь в исключительных случаях авторы дают помету «Устар.». Ср. : *Бить челом кому. Устар.- Просить о помощи, поддержке, обычно жалуясь на кого-либо.*

Но если данный Словарь признан отражать наиболее активные фразеологические единицы (в том числе и устойчивые неологизмы), то, вероятно, не было необходимости включать в него полузабытые и устаревшие устойчивые словесные комплексы русского языка.

Вместе с тем, кодифицированный здесь материал свидетельствует, что авторы Словаря, придерживаясь широкого взгляда на объем фразеологии, включили в него все разновидности устойчивых сочетаний слов. Их они именуют по-разному.

Так, под *фразеологизмами* понимаются «воспроизводимые и семантически целостные образования, построенные по образцу словосочетания или (реже) предложения, а в грамматическом и смысловом плане соотносимые со словом».

В лингвистической литературе - это идиомы, т.е. фразеологические сращения и единства. Например: *Железный конь*. Нов., разг. шутил.- Автомобиль; *Мимо кассы*. Нов., прост.- Безрезультатно. Попутно заметим, что идиомы могут быть соотносительны не только со словом, но и получать более развернутые описания. Ср. : *Белый и пушистый*. Нов., разг.- Невинный, добрый, руководимый в своих поступках исключительно чистыми помыслами и мотивами; *Блондинка в шоколаде*. Нов.- Обеспеченная и привлекательная молодая женщина, как правило, из высших слоев общества; *Бразильское «мыло»*. Нов., пренебр.- Бразильские сериалы, удовлетворяющие вкусам домохозяйек и обывательской аудитории.

От фразеологизмов авторы отличают с одной стороны, фразеологические сочетания, в которых слова (в том числе со связанным значением) «в той или иной мере сохраняют свои лексико-семантические свойства» (*вносить ясность, возлагать вину, одерживать победу, производить впечатление* и т.п.) и, с другой стороны, от пословиц и поговорок, являющихся предложениями и передающими не отдельные значения (как фразеологизмы), а заключительные смыслы (*Баба с возу - кобыле легче; Рыба гниет с головы; Цыплят по осени считают; Щи да каша - пища наша*). Эти типы фразеологических единиц по классификации проф. Н. М. Шанского с точки зрения их семантической слитности получили название «фразеологические выражения».

В Словаре нашли себе место не только устойчивые сочетания слов, состоящих из двух и более полнозначных компонентов, но и отдельные устойчивые обороты, «восходящие к соответствующим предложно-падежным или сравнительным сочетаниям» (*в глаза, до лампочки, за бугор, как огурчик, на крючке, без прибабасов, без изюминки, без обиняков* и т.п.)

Авторы Словаря сочли также необходимым включить в него и «широкоупотребительные в современном газетном тексте описательные выражения, перифразы (*белый дом, виновник торжества, голубое топливо, коричневая чума* и т.п.), журнально-газетные клише образного характера (*вертикаль власти, вражеские голоса, высшие эшелоны власти, железная леди, шоковая*

терапия, двойные стандарты и т.п.), литературные цитаты (*вперед планеты всей, свадебный генерал, квасной патриотизм* и т.п.), эвфемизмы (*лицо кавказской национальности, включить печатный станок, рука Москвы* и т.п.).

Отдельно отметим, что данный Словарь отличается от предшествующих фразеологических сборников тем, что в него вошли фразеологизмы - жаргонизмы. Ср.: *Гнать (прогнать) пургу*. Прост. – Говорить вздор, пустословить; *Гнать (пороть) туфту*. Жарг., презр.- Говорить полный вздор, намеренно вводя в заблуждение, обманывая кого-либо; *Воровская феня*. Жарг.- Особый жаргон, имеющий хождение в преступном мире; *Мочить в сортире*. Нов., жарг. – Застигнуть врасплох и беспощадно уничтожать, убивать (бандитов, террористов); *По понятиям*. Нов., жарг.- В соответствии с нормами и законами преступного мира.

Достоинствами «Словаря современной русской фразеологии» являются то, что при построении словарных статей, которые начинаются фразеологизмом в исходной форме (заголовочной единицей), авторы прибегают: а) к использованию ударения ( в тех случаях, когда при употреблении фразеологизмов говорящие испытывают акцентологические трудности ( в стрóку, валóм валить, из всех щелéй, пускать пó миру, сыт (-á, -í) по горло и др.); б) к использованию грамматических и стилистико- экспрессивных помет ( с *точностью до наоборот* Обст. Разг. чаще ирон.; *ждать у моря погоды* разг.употр. при подлежащем со значением лица; *Пиши пропало*. Только в повелительной форме разг.); в) к толкованию предметнопонятийного значения фразеологических единиц с помощью так называемых развернутых определений, способных также обозначить её частные и особенные признаки (*рыльце в пуху (в пушку)* у кого. В безл. употр. Разг. Неодобр.- Кто-либо причастен к неблагоприятному поступку, замешан в каком-либо бесчестном деле). О пристальном рассмотрении смыслового содержания фразеологических единиц свидетельствуют и указания на многозначность, синонимию, антонимию варианты. Ср. синонимы: *Два сапога пара*. Сказ. Разг. неодобр. – Один другого лучше. Ср.: *Одного поля ягоды; одним миром мазаны; один покрой; на одну колодку*. Ср. антонимы: *Гладить по голове (головке)* – баловать, давать волю и *гладить против шерсти* – поступать грубо, сурово, вопреки. Ср. многозначные: *Выставлять (выставить) за дверь (за ворота)*. 1) Выгонять из дома. Ср.: *Указывать (указать) на дверь*. 2) Лишать работы. Ср. варианты: *Брать (забирать, хватать) за душу (за сердце); взять за душу(за сердце)*- глубоко трогать, волновать. Ср.: *задевать за живое; детский (младенческий) лепет* – наивное, несерьезное суждение; г) к использованию иллюстративных примеров, подчеркнутых из текстов следующих газет наших дней: «Российская газета», «Известия», «Труд», «Литературная газета», «Аргументы и факты», «Новая газета» и нек.др. После цитаты указывается её автор, название статьи и газеты, точные выходные данные. Ср.: *Выпадать из обоймы*. Нов., разг.- Не выдержав трудностей, оказываться несостоятельным, лишним в каком-либо деле, ненужным. Как научная специальность теология существует давно. Просто с поголовным атеизмом она *выпала из обоймы* Светлана Сосина. Кто лодку раскачивает?- Советская Россия, 9 августа 2007 (№109).

Следует, однако, признать, что основным достижением рассматриваемого Словаря является, на наш взгляд, отражение в нем широко употребительного в газетных текстах неологического фразеологического материала. Причем, неологизмы представлены здесь с разной степенью стилистической окраской и экспрессией («уточняющих и дополняющих категориальные каннотативные свойства фразеологизмов»), а также с различной структурной организацией (от одноворшинных до двух и более полнозначительных компонентов).

Сравните: *Однорукий бандит*. Нов. Прост.- Игровой автомат; *Оборотень в погонах*. Нов. разг. презр.- Высокопоставленный работник правоохранительных органов, уличенный в коррупции; *В одном флаконе* Нов. Разг. Шут. – Одновременно, заодно; *Вертикаль власти, властная вертикаль* Нов. книжн.- Централизованная форма управления государством, представляющая собой систему последовательного подчинения низших органов высшим; *С минусом (в минусе)*. Нов. Разг. – Без прибыли, в ущерб себе (работать); *Для понта*. Нов. Жарг.- С целью произвести впечатление; ради куража; *Для прикола*. Нов. Жарг.- Ради шутки, развлечения; *Накрыться медным тазом*. Нов. Прост.-Прекратить свое существование; *Выпрыгивать из штанов*. Нов. Разг. Ирон.- Чересчур усердствовать, пытаюсь сделать, доносить что-либо; *Хромая утка*. Нов. Полит. Неодобр. – Государственный деятель, политик, утративший былой авторитет в глазах общественного мнения избирателей.

В отдельных случаях в Словаре представлена и такая разновидность новых фразеологических единиц, которые являются результатом различных трансформаций устойчивых словесных комплексов, давно бытующих в языке (расширение состава, замена компонента (или компонентов), создание по существующим моделям и др.). Ср.: *пир во время чумы* (канон.) и *пир во*

*время СПИДа* (нов.) ; *сидеть на игле* (канон.) и *сидеть на нефтяной игле* (нов.), *грести как раб на галерах* (канон.) и *пахать как раб на галерах* (нов.), *отделять зерна от плевел* (канон.) и *отгонять мух от котлет* (нов.) и нек.др.

Лишь в редких случаях встречаемся с таким новым устойчивым оборотом, который возник (с новым значением) от также нового (или сравнительно нового) фразеологизма. Ср.: *По полной программе*. Нов. Разг.- В полной мере и *оттягиваться по полной программе*. Нов. Прост. Шут. – Приятно проводить время, отдыхая, расслабляясь.

В целом, можно констатировать, что включенные в Словарь фразеологизмов - неологизмов выгодно отличают его от предшествующих фразеологических словарей. Его создание важно по двум причинам. Во-первых, он знакомит читателей с новейшими понятиями, отражающими современные реалии различных сфер жизнедеятельности нынешнего общества. Во-вторых, Словарь демонстрирует активные процессы современного фразеобразования в русском языке, к тому же в ряде случаев приводя историко - лингвистические, исторические, культурологические и этимологические комментарии.

Недостатками Словаря современной русской фразеологии является лишь незначительное количество словарных статей (в частности, отсутствие в нем многих новых и новейших фразеологических единиц) и включение в него устаревших устойчивых словесных комплексов.

#### Литература

1. Жуков А.В., Жукова М.Е. Словарь современной русской фразеологии. – М., АСТ- Пресс книга, 2016.
2. Вишневецкая М. Словарь перемен 2015-2016.-М., Три квадрата, 2018.
3. Мокиенко В.М. , Никитина Т.Т. Большой словарь русского жаргона. – СПб., Норинг, 2000.
4. Шанский Н.М. Фразеология современного языка. – М., Высшая школа, 1985.
5. Фразеологический словарь современного русского языка. – Под ред. Проф. А.Н. Тихонова. Состав.: А.Н. Тихонов, А.Г. Ломов, А.В. Королькова. В 2 т. – М., Флинта, Наука, 2004.

UDK: 891.709

### KINOQISSALAR POETIKASIGA BIR NAZAR

Sh. A. Hasanov

*Samarqand davlat universiteti*  
hasanovshavkat724@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kinoqissalarning zamonaviy qissachilikda uslubiy-shakliy izlanishlar mahsuli ekanligi, xususan, Erkin A'zam kinoqissalarining sintetik tabiati, poetikasiga oid ilmiy-nazariy qarashlarga aniqlik kiritilgan hamda taraqqiyot tendentsiyalari atroflicha o'rganilgan.

**Kalit so'zlar.** Kinoqissa poetikasi, kino senariy, psixologik tahlil, dramatik situatsiya, elitar adabiyot, tarjima va talqin, uslubiy-shakliy izlanish.

#### О ПОЭТИКЕ КИНОПОВЕСТИ

**Аннотация.** Настоящая статья исследует хорошо изученные тенденции развития жанра повествовательного кино Эркин Азема, а также вносит ясность теоретическим взглядам поэтики и синтетической природе повести в современной киноповести.

**Ключевые слова.** Поэтика киноповести, киносценарий, психологическое ситуация, элитарная литература, перевод и интерпретация, индивидуальное стил и форма.

#### HAVING A LOOK AT THE POETICS OF FILM STORIES

**Abstract.** This article clarifies comprehensively the role of methodical and formal researches of film stories in modern stories, and especially here it can be seen about the scientific and theoretical views on the synthetic nature and poetics of Erkin A'zam's film stories as well as the tendencies in development.

**Keywords:** the poetics of film stories, film scenario, psychological analysis, dramatic situation, elite literature, translation and expression, methodological – formal research

“Kinoqissa” atamasi XX asrning ikkinchi yarimidan so'ng adabiyotimizda bot-bot uchrab turadi. Jumladan, Sharof Rashidov, Jamol Kamol, Usmon Azim ba'zi bir asarlarini shu nom ostida taqdim etishgan. Erkin A'zamning xizmatlari tufayli bu xildagi asarlar mustaqil janr sifatidagi xususiyatlarini

namoyon etdi. Avvalo, kinoqissaning janr poetikasini tushunish uchun uning kino senariy va qissadan farqli jihatlariga e'tibor qaratish zarur.

Ma'lumki, nasriy asarlarni kinoga aylantirish juda katta mehnat talab qiladi. Ikkinchidan, kino san'ati yozuvchi taqdim etgan nasriy asarning barcha jozibasini o'zida aks ettirmaydi, chunki nasr individual idrokka moslab yoziladi, kinoda esa unday emas. "Anna Karenina", "O'tkan kunlar", "Shum bola" asarlarining kitob va kinovariantlarini solishtirib ko'rganda, bu farqli jihatlar aniqroq ko'zga tashlanadi. Jumladan, "Anna Karenina" kinofilmida roman syujetidagi syevgi uchburchagi bilan bog'liq epizodlar asos qilib olinadi.

Gabriel Garsia Markes "Yolg'izlikning yuz yili" romani asosida kinofilm olishlariga rozilik bermagan edi. Yozuvchining fikricha, Ursula timsolida kimdir buvisini, kimdir ammasini, kimdir biror bir tanishini ko'rgandek bo'ladi, ya'ni kitobxonlar ongida obrazning rang-barang qiyofalari naqshlanadi. Agar kinoga olinsa, o'sha obrazni tomoshabin rol ijro etgan aktrisa qiyofasida tasavvur qiladi, aytish mumkinki, obrazning siy mosi yakranglik kasb etadi.

Nasriy asarning atay kinoga moslab yozilishi esa boshqa masala. Bunda har ikkala san'at xususiyatlari hisobga olinadi. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, badiiy asarning poetikasiga putur etmaydi. Shubhasiz, kino san'ati badiiy asarni ommalashtirishda, reklama qilishda muhim bir vosita. Tan olish kerakki, chinakam badiiy asar ommaviy bo'lavermaydi. Masalaning boshqa tomoni ham borki, bo'lmag'ur asardan yaxshigina kinofilm ham yaratish mumkin, go'yoki o'ziga yarashashe'rni boshqa bir tilga yaxshigina tarjima qilgandek (Bunda rejissyor, tarjimon, shuningdek, Erkin A'zam aytgandek "adabiy mardikor" nazarda tutilyapti).

Bu masalada Erkin A'zam shunday yozadi: "Shuncha kitob-daftarimiz bir bo'ldiyu, boshqa bizga yoqmagan, allaqanday erish tuyulgan "Chantirimore"ning telyevizordagi kutilmagan ilk namoyishi bir bo'ldi! Ertasigayoq shuhrat tojini kiydik. Ovora bo'lib, kitob yozib yurganimizni qarang, gap bu yoqda ekan-ku". Yozuvchining keyingi jumllarida ozgina kinoya bor, albatta. Biroq Erkin A'zam ijodini xronologik tarzda ko'zdan kechirganda shunga guvoh bo'lishi mumkinki, ayni shu asar ekranlashtirilgandan so'ng, adib har ikkisan'atni sintez qilishga jiddiy kirishganligi seziladi. Shuning uchun professor Umarali Normatov "Chunonchi, "Suv yoqalab", "Zabarjad" asarlari kinoqissa deb yuritilgan, "Jannat o'zi qaydadir" esa dramatik qissa deb atalgan, "Suv yoqalab", "Zabarjad", "Jannat o'zi qaydadir" asosida ajoyib filmlar yaratildi, ammo uchala asar ham ayni paytda etuk qissa namunasi tarzida shavq bilan o'qiladi", – deb yozadi. Shu bilan birga kinoqissalarni boshqa san'at turlaridan farqlanuvchi bir qator muhim alomatlar ham bor. Birinchidan, kinoqissa dramatik asarlardagi sahna ko'rinishlaridek alohida epizodlardan, manzaralardan tashkil topadi; ikkinchidan, nasriy asarlardagidek, batafsillikni ko'tarmaydi; uchinchidan, diologlarning dramatism asosiga qurilishi va tomoshabopligi bilan dramatik asarlarga yaqin turadi. Shuningdek, nasriy asarlarda ekspozitsiya syujet tarkibiy qismlaridan oldin, keyin, oxirida, ba'zan aralash tarzda kelishi mumkin. Kinoqissalarda, asosan, dramatik asarlardagi kabi muqaddimada keladi.

She'riy asarni kino tasmasiga ko'chirish oson emas. Chunki kino imkoniyatlari o'qib, uqiladigan badiiy so'zning jilosini, tarovatini, zavq-shavqini qismangina ko'rsatishi mumkin, xolos. Erkin A'zam qissalari va romanida uchraydigan chuqur psixologik tahlil, ruhiy kechinmalarning tafsiliy ifodasi kinoqissalarida uncha muhim o'rin tutmaydi. Kinoqissalarda psixologik holatning avj nuqtalari qisqa satrlarda, xarakterli chizgilarda ifodasini topadi. Boisi tomoshabinga "hazmi og'ir" narsalar singishmaydi.

Fabula deyilganda, syujet voqealarining hayotdagi ketma-ketlik tartibi nazarda tutiladi. Masalan, latifa, masallarda voqea-hodisa xronologik tartibda beriladi. Erkin A'zam kinoqissalari kompozitsiyasi to'g'risida so'z ketganda, ana shu fabulalikka e'tibor qaratish kerakki, bu xususiyat ham uning tomoshabopligidan kelib chiqqan alomatdir.

Adabiy turlar va janrlar o'rtasida Xitoy dyevori o'rnatilmagan. Muayyan tur va janr xususiyatlari o'zga tur va janrlarda ham uchrayveradi. Biroq ma'lum nazariy asoslarning ustivorligi o'sha janrning tabiatini belgilab keladi. Jumladan, Erkin A'zamning kinoqissalarida ham shunday holatni ko'rish mumkin. Kinoqissalar shaklan nasriy janr talablariga muvofiq kelsa-da, ichki pafos nuqtai nazaridan dramatik janrlarga hamohanglik kasb etadi. "Suv yoqalab", "Zabarjad", "Parizod", "Tanho qayiq" kabi kinoqissalarda dramatism va dramatiklik xususiyatlari asos bo'lib xizmat qilgan. Ma'lumki, tamoshoboplik dramatik janrlarning muhim belgilaridan hisoblanadi. Ana shu xususiyat kinoqissalarning ham poetik tarkibida qonuniylashib borayapti. Boshqa tomondan, kinoyaviylik singari voqea-hodisalarning eng avj dramatik nuqtalariga alohida e'tibor Erkin A'zam individual uslubining o'ziga xosligini ham tayin etadi. E'tibor qilinsa, kinoqissalar va dramatik qissalardagi asosiy qahramonlarning hayot yo'li, taqdirleri fojialar girdobida kechadi. Bolta Mardon, Zabarjad, Parizod, Jo'raqul domla, Orol bobo... Kinoqissalar poetikasiga

xos xususiyatlardan biri dramatik asarda bo'lganidek, har bir epizod o'zidan oldingi epizoddan o'sib chiqadi va o'zidan keyingisiga mantiqiy zamin hozirlaydi.

XX asr g'arb modern dramaturglari va rejissyorlari mumtoz teatr an'alarini eskirgan, bugungi talablarga javob bermaydi deya hisoblab, o'z tomoshalariga turlicha o'zgarish va yangilanishlar kirita boshladilar. Ular teatr san'atiga jiddiy raqib bo'lib, kundan kunga katta auditoriyani qamrab olayotgan kino san'atiga imkoniyatlarni boy berib qo'ymaslik uchun turli-tuman san'atlarning, jumladan, kino san'atining xususiyatlarini ham o'z teatrlari repertuariga singdira boshladilar. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib kino san'ati nafaqat teatr, balki badiiy adabiyot kelajagiga ham jiddiy xavf tug'dira boshladi. Xose Ortega-i-Gasset ta'kidlagandek, o'quvchini mushohadaga chorlaydigan, unga ruhiy oziq beradigan elitar adabiyotga mansub romanlarni mutolaa qiladigan kitobxon qolmadi, oldi-qochdi mavzuidagi ommabop adabiyotning bozori chaqqon bo'la boshladi. Postmodern adabiyot davrida teatr bilan kinoning birikuvidan teleseriallar paydo bo'lgan bo'lsa, so'ngroq kino va adabiyot imkoniyatlarini uyg'unlashtirish natijasida kinoqissalar yaratila boshlandi.

Umuman olganda, Erkin A'zam nasrida keyingi asrda jahon adabiyotida kechgan o'zgarishlar va yangilanishlar o'z izini qoldirganiga guvoh bo'lish mumkin. "Javob" qissasidagi Nuriddin Elchiyevning hayotiy pozitsiyalari atrofda qilarga tomosha, ermak bo'lishi bilan Frants Kafkaning "Jarayon" asaridagi Yozef K.ni esga solsa, "Bayramdan boshqa kunlar"dagi Bakir o'zining jamiyat uchun begonaligini anglab borayotgan xarakter sifatida ko'rinadi. Yozuvchi "Tanho qayiq"da globallashuv davri muammosini absurd ifodalarda tasvirlaydi. Asar qahramoni Orol bobo tushib qolgan hayotiy mantiqsizliklardan ma'ni izlab yashaydi. Aksariyat qahramonlar xarakterlarining barqarorligi, hayotiy e'tiqodlarining sobitligi tufayli dramatik situatsiyalarga tushadilar.

"Parizod" asarida ovloqroq tog'li qishloqlarimizda uchrashimumkin bo'lgan voqealarqalamga olinadi. Milliy dunyoqarash va kundalik turmushhaqiqatlari bilan to'yingan, qay bir jihatlari bilan Gabriel Garsia Markesning "Oshkora qotillik qissasi"ga yaqin turadigan bu asari bilan yozuvchi bugungi davr kishisiining loqaydlik botqog'iga tobora chuqur kirib borayotganligini ko'rsatib beradi.

Yosh bolaga odatda ko'p tanbeh berishadi: haddingdan oshma, joyingni bil, mundoq deyish kerak qabilida. Yosh bola – yosh bola-da, hali jamiyatning temir qoliplariga tushmagan: samimiy, beg'ubor, ko'ngliga kelganini qiladi, aytaveradi. Kattalar qanday "yurish-turish" kerakligini o'rgatishsa ham "o'rganish"ni hech istamaydi. Erkin A'zamning ko'p qahramonlari ana shu bolalarga o'xshaydi! Bu, ayniqsa, "Tanho qayiq"da maromiga etkazib tasvirlangan. Ushbu asarni tahlil qilgan adabiyotshunos B.Nazarov Orol bobo holatidagi, fikrlash tarzidagi tabiiylik, soddalik, milliylik sifatleri bilan Chingiz Aytmatovning "Oq kema"sidagi Mo'min cholni, Ernest Xemengueyning "Chol va dengiz"idagi Santyagoni eslatadi, deb yozadi. Chindan ham hush va tush, reallik va ro'yo aroo'zi e'tiqod qo'yan, o'zi yaratgan xayolot olamida quvonib, qayg'urib, goh tushkun, goh umidvor yashayotgan Orol bobo keyingi yillar adabiyotimizda yaratilgan eng ajoyib va mukammal xarakterdir. Yozuvchining aytmoqchi bo'lgan poetik g'oyasi kinoqissa shaklida o'zining yorqin ifodasini topgan. Asarda mazmun va shakl elementleri shunday uyg'unlashib ketganki, ayni syujet ifodasini o'zga janrda tasavvur qilish imkonsiz. Badiiy asarning mazmuni shakli bilan birga tug'iladi, albatta. Bu ijod psixologiyasi bilan bog'liq murakkab ruhiy jarayon, shunday ekan, kinoqissabop materialdan boshqacha turdagi asar yaratish o'zini oqlamagan bo'lardi.

"Tanho qayiq" Erkin A'zam kinoqissachiligining, shuningdek, adabiyotimizning jahon adabiyoti namunalari bilan bo'ylasha oladigan jiddiy yutug'i. Yangi davr yangi g'oyalarni, yangi g'oyalar yangi shakllarni talab qiladi. O'tgan asrning 60-yillarida doston janri shunday yangilanishlar an'anasini boshdan kechirgan edi. Dostonchilikdagi lirik doston, liro-epik doston, dramatik doston kabi ichki ko'rinishlar o'sha davrlarda o'zligini namoyon etgan edi. Bugun qissa janrining shunday o'zgarishlarga yuz tutishi ham tabiiy va qonuniydir. Bu borada, kinoqissalarning o'ziga xos janr sifatida tarkib topishi va takomillashishida Erkin A'zamning munosib xizmatlari bor.

"...nomi qayd etilgan o'sha o'n filmning birortasidan oxirigacha ko'nglim to'lmagan, - deb yozadi Erkin A'zam. – Shunday bo'lishini oldindan bilganim uchun ham men ularga oz-moz kino tusini berib, dangal kinoqissa atab, ammo-lekin boshidanoq kitobga mo'ljallab yozaman: kino qilinsa qilinar, bo'lmasa o'qilar-ku".

Har xolda yozuvchining keyingi davrdagi uslubiy-shakliy izlanishlari, kinorejissyorlar bilan hamkorligi adabiyotimizda yangi janrning istiqbolini belgilab berdi.

Kinoqissa janri bir qadar dramatik asarlarning tarixi va taqdirini yodga soladi. Azaldan dramatik tur janrlari faqat sahnaga qo'yish uchun mo'ljallab yozilgan, o'qiganda unchalik qiziqish uyg'otmagan. Adabiyotshunoslarning fikricha, Uilyam Shekspirning xizmatlari tufayli dramatik asarlar o'qiganda ham qiziqish uyg'otadigan bo'ldi. Shu kabi qissachilik ham o'zining yangi imkoniyatlarini namoyon etmoqda, janr tarkibi va tabiatida o'ziga xos o'zgarishlar kechmoqda.

Erkin A'zamning "Jannat o'zi qaydadir", "Shajara" asarlarini dramatik qissa atash to'g'ri bo'lardi, boisi bu asarlar ko'proq qissa talablariga bo'ysundirilgan. Ulardagi dramatiklik, asosan, shakliy xarakterda bo'lib, o'zagida nasriy belgilarning salmog'i baland.

Adabiyot tarixidan ma'lumki, har qanday janr davrningshaklu shamoyilini, zamondoshlarning o'y-kechinmalari va intilishlarini yorqinroq ifodalash istagi tufayli paydo bo'ladi. Ana shu istak va izlanishlarning samarasi o'laroq Erkin A'zam kinoqissalari o'quvchining ham, tomoshabinning ham yangilanib borayotgan talablariga javob berayotganligi bu xildagi asarlarning kelajagiga umid bilan qarashga undaydi.

#### Adabiyotlar

1. Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. –Т.: “Шарқ”, 2007.– Б. 272.
2. Аъзам Э. Гули гули. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – Б. 232.
3. Аъзам Э. Танҳо қайиқ. –Т.: “Шарқ”, 2017.– Б. 256.
4. Эркин Аъзам бадий олами: / Тўплам. – Т.: “Турон замин зиё” нашриёти, 2014. – Б. 304.
5. Глобаллашув: Бадий талқин, замон ва қаҳрамон. Монография. - Т.: “Фан” нашриёти, 2018. – Б. 352.

UDK: 491.3

### MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARI O'RGANILISHI VA UNGA BERILGAN BAHO

Z. Xatamov, U. Sanaqulov  
*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XI asrning buyuk mutafakkir olimi Mahmud Koshg'ariyning lingvistik me'rosi – "Devonu lug'otit turk" asari va unda o'z davridagi turkiy tillarning leksik, fonetik, grammatik sohalarini o'rganishga doir fikr-mulohazalarining mohiyati, ahamiyati haqida va asosan fonetik bilimiga xos ilmiy-amaliy hamda nazariy qarashlari qisqacha tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** "ishbo", "imola", "ishmom", "g'unna", "xashum", "muhmad", tovush, harf, fonema.

#### Изучение произведения Махмуда Кашгари "Девону лугатит турк" и её оценка

**Аннотация.** Статья посвящена изучению лингвистической наследии великого тюркского мыслителя Махмуда Кашгари и его книги "Девону луготит турк" в XI веке. В этой книге написана теория о конструкции тюркского языка, а так же изучения лексикологии, фонетики, грамматики. Также в этой статье рассматриваются научно-практические и теоретические знания Махмуда Кашгари о фонетике.

**Ключевые слова:** "ишбо", "имола", "ишмом", "гунна", "хашум", "мухмат", звук, буква, фонема.

#### The research and rating of the work "Devonu lug'atit turk" by Mahmud Kashgari

**Abstract.** This article is devoted to book on linguistics "Divani lugatit turk" of great Turkic thinker Makhmud Kashgari in XI century. The theory about construction on Turkic language, and also studying its lexicology, phonetics and grammar. Also, scientific-practical and theoretical knowledge of Mahmud Kashgari on phonetics is investigated in this article.

**Keywords:** "ishbo", "imola", "ishmom", "gunna", "hashum", "muhmad", sound, letter, phoneme.

Mahmud Qoshg'ariy birgina "Devonu lug'otit turk" asari bilan jahon tilshunosligi tsivilizatsiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shgan va turkiy xalqlar ma'naviy-madaniy merosining ming yillar avvalgi darajasini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qila olgan, turkiy lingvistika tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk qomusiy olim hisoblanadi.

Uning "Devonu lug'otit turk" asarida XI asrda milodiy asr boshlarida yashagan turkiy qavmlar foydalangan til va unga xos badiiy, lug'aviy birliklar qiyosiy metod asosida talqin etilgan. Boshqacha aytganda, bu asar leksikografik, ya'ni oddiy lug'at emas, balki qadim-qadimdan O'rta Osiyoda yashagan turkiy qavmlar tilida iste'molda bo'lgan so'zlarning ma'naviy va funksional-stilistik, fonetik, grammatik xususiyatlarini o'zida mujassam etgan lingvistik asar hamdir. Shunchaki, lingvistik asar emas, balki umumturkiy tilshunoslikda til nazariyasi va qiyosiy-tarixiy metodning yuzaga kelishiga ilk asos, ildiz

bo'lgan ilmiy-amaliy manba ham hisoblanadi. Bu asarning mohiyatan ahamiyatli yana bir muhim tomoni borki, unda hozirgi turkiy xalqlarning o'tmish tarixi, etnogenezi, etnologiyasi [shajarasi], qadimiy etnografiyasi [turmush tarzi, urf-odatlar, folklori] kabilari bilan bog'liq bo'lgan g'oyatda ishonli muhim ma'lumotlar mavjud. Shu bois o'ziga xos bu qomusiy asardan nafaqat lingvistika tarixida, balki adabiyotshunoslik folklorshunoslik, tarixshunoslik, geografiya-o'lkashunoslik, etnografiya, etnologiya, va falsafa kabi juda ko'p sohalar bo'yicha o'tmishda ham, hozir ham tadqiqotchilar o'zlarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha samarali foydalanib kelishgan va kelmoqdalar.

Masalan, ushbu asarni tadqiq etgan o'tmish olimlaridan biri Ali Amiriy quyidagilarni yozib qoldirgan edi: "Kitobni qo'lga olishim bilan o'zimni yo'qotib qo'ydim. Bu kitob dunyoda qiyosi yo'q, ham ma'lum bo'lmagan bir turk qomusi va grammatikasi edi. Arab tili uchun Sibavayxiyning kitobi qanday muhim bo'lsa, bu ham turk tili uchun shunday ahamiyatlidir. Hozirga qadar turk tilida buning kabi kitob yozilgani yo'q. Bu kitobning haqiqiy bahosini aniqlamoqchi bo'lsangiz, jahonning xazinalari bunga teng kelolmas"[2].

Xususan, ushbu qomus so'nggi yangi davr olimlari tomonidan tadqiq etilib, uning ilmiy qiymati haqida ko'plab fikrlar bayon etilgan. Masalan, bular orasida mashhur sharqshunos olim P.K.Juzening "Devonu lug'otit turk" asari haqidagi quyidagi fikrlari xarakterlidir: "Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto bunday asar XIX asrda yozilganda ham, unga shon-sharaf bo'lardi. Mahmud Qoshg'ariyning devoni singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli "Turkiy qomus"dir".

Bu asarga bo'lgan munosabatning birinchi bosqichida tadqiqotchilar uni tarjima qilish bilan mashg'ul bo'ldilar. Natijada uning o'zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, uyg'ur, shuningdek, eron, ingliz, nemis, rus, xitoy tillaridagi tarjima variantlari yuzaga keldi. Bu borada ulkan xizmatlari bo'lgan turkiyalik Besim Atalay, o'zbekistonlik Solih Mutallibov, ozarbayjonlik Ramiz Esker, qozog'istonlik Asqar Agaboev, uyg'uristonlik Muhammad Fayziy va Ahmad Ziyo, eronlik Husayn Muhammadzoda Siddiq, rossiyalik turkolog S.E.Malov, angliyalik Robert Denkoff va Jizm Makkali, germaniyalik Karl Brokkelman va boshqalarning ishlarini qayd etish mumkin. Bu xayrli ishlar hamon davom etmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti tufayli endilikda asarning elektron nusxalari internet saydlaridan joy olgan. Ushbu asar oradan o'n asr vaqt o'tganligiga qaramasdan bugun dunyo ilm-u ma'rifat ahlining hamon diqqat-nazarida turibdi. "Devonu lug'otit turk" asari jahon bo'yicha, jumladan, O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar haqida J.Xudoyberdievning "Mahmud Qoshg'ariy hayoti va «Devonu lug'otit turk» asarining o'rganilishi" nomli ilmiy ommabob risolasida juda yaxshi ma'lumotlar berilgan [2].

"Devonu lug'otit turk" asariga bo'lgan munosabatning ikkinchi bosqichida uni ilmiy tadqiq etish bilan bog'liq ishlar amalga oshirilgan. Bu borada olib borilgan va olib borilayotgan ishlar ko'lamini dunyo miqyosida belgilash mumkin. Zero O'zbekistonlik olim J.Xudoyberdiev xayrli bir ishga qo'l urib, Mahmud Qoshg'ariy va uning devoni tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzasidan kuzatishlar olib borgan, uning natijasi o'laroq «Mahmud Qoshg'ariy xayoti va «Devonu lugotit turk» asarining o'rganilishi» asarini hamda "Mahmud Qoshg'ariy hayoti va "Devonu lug'otit turk" bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi" nomli muhim ilmiy ommabob risolasini chop qilgan. Xususan, "Mahmud Qoshg'ariy hayoti va "Devonu lug'otit turk" bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi" kitobida Mahmud Qoshg'ariy faoliyati bilan bog'liq 1800 ga yaqin yuzaga kelgan ishlar ro'yxati keltirilgan. "Ko'rsatkich"da keltirilgan ma'lumotlarda bo'yicha quyidagicha statistik raqamlar havola etilgan: eng ko'p amalga oshirilgan tadqiqotlar turk tilida 501 ta, rus tilida 393 ta, o'zbek tilida 309 ta, ozarbayjon tilida 164 ta, turkman tilida 147, ingliz tilida 126 tani tashkil etadi. Jumladan, 20 tadan 40 tagacha bo'lgan ishlar; nemis [37], uyg'ur [26], qozoq [22], xitoy [20] tillarida; 1 tadan 9 tagacha bo'lgan tadqiqotlar qirg'iz [9], tatar [5], fransuz [3], venger [3], yapon [3], boshqird [2], italyan [2], qoraqalpoq [2], tojik [2], ukrain [2], fors [1] tillarida chop etilgan. Bizningcha, bu ko'rsatkich hali mukammal emas, chunki, birgina o'zbek olimlarining barchasi bo'yicha qilingan ishlar to'liq aks etmagan. Balki horijiy olimlarning ishlari bo'yicha ham shunday xulosaga kelish mumkin. Hozirgi paytda, har qaysi ilmiy dargohlarda yozilgan ilmiy ishlar va tadqiqotlarni to'liq ro'yxatini hisobga olinsa Mahmud Qoshg'ariy faoliyati bilan bog'liq yuzaga kelgan ishlarning soni 2000 dan oshib ketadi, balki undanda ortar. Zero turkologiyada, jumladan, o'zbek tilshunosligida har yili Mahmud Qoshg'ariy faoliyati va "Devonu lug'otit turk asari bo'yicha o'nlab tadqiqotlar, ilmiy maqolalar yozilmoqda. Bunday ishlarning amalga oshishi turk tilshunosligidan keyin, o'zbek olimlarining ishi ikkinchi o'rinda deyinimiz mumkin. Chunki rus tilida yozilgan ishlarning 60 ga yaqini o'zbek tilshunoslari tomonidan amalga oshirilgan, buning ustiga O'zbekistondagi chop etilgan ishlar ko'rsatkichi mukammal hisobga olinmagan.

Hozirgi davrlarda Mahmud Qoshg'ariy buyuk lingvist olim sifatida tilshunoslikning barcha sathlari bo'yicha ishonchli ma'lumotlar berganligi haqida va uning ilmiy xulosalari hamda nazariy fikrlarini ilmiy asosda turli hajmda ilmiy ishlar, maqolalar yozilgan va yozilmoqda. Birgina Samarqand shahridagi bilim

dargohlarida o'tgan asrning oxirlari va hozirgi davrlarda o'nlab maqolalar va malakali bitiruv [diplom] ishlari, magistrlik dissertatsiyalari yozildi. Masalan, keyingi uch-to'rt yil orasida ham Mahmud Qoshg'ariy hamda uning devoni bo'yicha malakaviy bitiruv ishi va 10 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi. Bu ishlar SamDU va SamDChTI ilmiy to'plamlarida, axbarot nomalarida ham chop etilgan. Har bir chop etilgan ilmiy ishlarda, anjumanlardagi ma'ruzalarda Mahmud Qoshg'ariyning ilmiy merosini talqini bo'yicha aytilgan fikr-mulohazalarda olimning til bilmidagi qarashlari qanchalik yoritilmasin, hamon bu borada o'rganilmagan qirralar mavjudligi seziladi. Jumladan, bugungi kunda biz Mahmud Qoshg'ariyning til bilmiga xos nazariy qarashlarini o'rganish hali juda muhim masala ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Birgina uning fonetik olim sifatidagi nazariy qarashlarining o'zi to'liq tavsif asosida o'rganish lozim deb bilamiz. Bu masala hozircha maxsus tarzda tadqiq etilmagan.

Zero, Mahmud Qoshg'ariy, o'z davri darajasida eng avvalo, fonetika sohasida ham yuksak bilimga ega bo'lgan olim sifatida qimmatli nazariy fikrlarini bildira olgan. Eng ahamiyatlisi shundaki, olimning mazkur sohaga doir g'oyalari, nazariyalari, qarashlari hozirgi turkiyshunoslik va o'zbekshunoslik fonetikasida o'z qimmatini yo'qotganicha yo'q. Bu masala quyidagilar bilan asoslanadi:

Birinchidan, Mahmud Qoshg'ariy turkiyshunoslikda ilk bor nutq tovushlarning fonemalik mezonini seza olgan va o'ziga xos fikrlari bilan belgilagan ["ishbo'" – tovushlarning qattiq va yumshoqlik talaffuzi, "imola" - cho'ziq talaffuzi, "ishmom" yumshoq yoki ingichka talaffuzi, "g'unna" – ng[n] kabi birikma tovushlar, "xashum" – burun, dumog' tovushlar, "muhmad" – iste'moldan chiqqan tovushlar [so'zlar] va h. [MQ. I, 45-50-bb.]. Olim fonema bilan variant orasidagi chegarani sezgan. Nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi holatini ko'rsatgan. Nutq tovushlarini nutq a'zolarining holatiga va harakatiga qarab guruhlashtirgan. Demak, olim fonema va harf munosabatini ham turkiyshunoslikda ma'lum darajada ilk bor belgilagan.

Ikkinchidan, til bilmi bilan shug'ullangan olimlar orfografiya va orfoepiya masalasi fonetikaning g'oyat muammoli nuqtasi deb bilganlar. Shuning uchun fonetika bilan shug'ullangan olimlarning aksariyati uni chetlab o'tmaydilar. Bu masalaga ham ular bevosita yoki bilvosita o'z munosabatini bildirib o'tganlar. Garchi Mahmud Qoshg'ariy ham o'z asarida yozuv masalasiga maxsus bo'lim ajratmagan bo'lsa-da, bu sohaga o'z munosabatini bildirgan. Eng e'tiborlisi, orfografiya masalasidagi muammolarni orfoepiya bilan bog'lab sharhlaydiki, bunday usul orfografiyadagi ayrim nazariy jihatlarni echishda manbaning yordami katta ekanligini ko'rinadi. Ayni paytda, turkologiyada orfografiya prinsiplari orfoepiya qonuniyatlaridan kelib chiqib belgilanganligini ta'kidlaydi.

Mahmud Qoshg'ariy turkiyshunoslikda ilk bor imlo talaffuzdagi tovushlarni ifodalashdan arab yozuvi asosidagi alifbo turkiy til uchun ojiz ekanini ochib berdi. Zero uning o'zi birinchi bo'lib yozuvdagi kamchilikni to'ldirish maqsadida ayrim harflarni belgiladi: "Turkiy tillar yozuvida qo'llangan harflar 18 ta bilan belgilangan. Holbuki, turkiy til nutq tovushini bu harflar to'liq aks ettirib bo'lmaydi, balki tilda qo'llaniladigan tovushlarni berish uchun yana ettita harf etishmaydi.... [qarang: MQ,I, 21, 47-48-bb.].

Uchinchidan, Mahmud Qoshg'ariy turkiyshunoslikda ilk bor tovushni maxsus kuzatdi, ularni ilmiy jihatdan o'rganadi. Tovushlarning kombinatsiya natijasidagi mavqelarini akustik va fiziologik holatlarini belgilaydi. Olim fonetikaga doir juda ko'p yangiliklar ochdi, bu sohani yangi-yangi qoidalar bilan boyitdi. Olim unillarni belgilash, xususan, undoshlar va ularning jarangli va jarangsiz kabi farqini ajratar ekan, ulardagi kenglik va torlik, cho'ziqlik va qisqalik holatlaridagi qonuniyatlarni ochadi. Tovushlardagi ana shu xususiyatlarni asos qilib, muallif turkiy tillardagi umumiylik va ular orasidagi xususiylikni belgilaydi. Masalan, Mahmud Qoshg'ariy turkiy so'zlarning unli tovushlarini tavsiflab shunday yozadi: «Unlilarni cho'ziq yoki qisqartirib talaffuz qilish so'zga zarar bermaydi» [MQ,I,385-b.]. Boshqa bir joyida yana ham aniqroq qilib yozadi: *yig'ach* deyish ham mumkin, *yig'ach* deyish ham mumkin. Bu variant [*yig'ach*] to'rt tilda qo'llanilgan [MQ,III,34-bet]. Bundan seziladiki, cho'ziq unlilar o'sha davr urug'-qabila tillarida bir xil qo'llanilmagan, u ayrim urug'-qabila tillari [shevalari] da mavjud bo'lgan va ayrimlarida esa cho'ziq qo'llanmagan. Shunisi xarakterliki, turkiy tildagi birlamchi cho'ziqlik masalasi murakkab hodisadir. Olimlar taxminiga ko'ra juda qadimgi yozma yodgorliklari bizgacha etib kelmagan davrlarda [umumturkiy tilda] – turkiy so'zlarda cho'ziq va qisqa unlilar farqlangan. Lekin manbalarda bu masala haqida aniq bir fikr aytilmagan. To'g'ri, turkiy tilda cho'ziq va qisqa unlilarning farqlanishi, bo'yicha ba'zi fikrlar aytilgan, ammo ularning fonologik ahamiyati haqida qarama-qarshi ma'lumot mavjud. Bu masalada Mahmud Qoshg'ariyning yuqoridagi fikrlari bu masalaga ancha aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi. Biz Qoshg'ariyning fonetikaga doir fikrlariga batafsil to'xtalishga imkoniyatimiz chegeralangan.

To'rtinchidan, Mahmud Qoshg'ariy e'tiroficha, fonetik jarayon g'oyat ko'p holatlar bilan bog'liq. Shuning uchun uni izchil va to'g'ri talqin qilish ham unga katta imkoniyat yaratadi. Olim undan shu maqsadlarda foydalangan. Chunonchi, u fonetik jarayonlarning ko'p holatda so'zlar etimologiyasini aniqlashga yordam berishini ham qayd etadi. "Devonu lug'otit turk"da Mahmud Qoshg'ariy shu usul orqali juda ko'p so'zlarning etimologiyasini belgilaydi. Bu albatta, hozirgi umumturkologiya va o'zbek tilshunosligi



uchun soʻzlar etimologiyasini aniqlash, xususan, etimologik lugʻatlar tuzish yoʻlida gʻoyat ahamiyatlidir. Devondagi misollar milodgacha va milodiy VI asrlar tilini eslatadi: *arqadi-alqadi* [MK.I-tom, 28-bet], *irra – izza – uyalish* [MK.I-tom, 74-bet], *aznadi* [MK.I-tom, 234-bet] - *aynidi, kedin-keyin* [MK.I-tom, 230-bet] *azgʻir-aygʻir* [MK.I-tom, 121-bet], *azri-ayri* [MK.I-tom, 146-bet], *azakligʻ- oyoqli* [MK.I-tom, 167-bet] kabi misollarda melodgacha va milodiy asr boshlarida mavjud boʻlgan "r > z; r > l, d > z, z > y va h. fonetik xususiyatlar kuzatiladi. Bunday maʼlumotlarni oʻsha davr qabila-urugʻ tillarini qiyoslanishida yanada aniq kuzatish mumkin: "Yagʻmo, tuxsi, qipchoq, yabaqu, tatar, qayjumul va oʻgʻuzlar har vaqt "z"ni soʻzda "y" (yoyga) aylantiradilar va hech mahal "d" [dz] bilan soʻzlamaydilar. Chunonchi ulardan boshqalar qayin daraxtini qadziy desalar, bu qabilalavr qayin deyilar.... chigillarda "d" [dz] bilan aytiladigan soʻzlar yagʻmo, tuxsi, oʻgʻuz va Chinga qadar choʻzilgan erlarda yashovchi baʼzi argʻularda "y" [yoy] bilan almashadi. Rungacha boʻlgan qipchoq va boshqa qabilalarda bu harf "z"ga aylantiriladi... xoʻtanliklar... baʼzan "z" harfini "l" almashtiradilar [MK.I-tom, 68-bet].

Turkiy tillarda undoshlar juftligi, undosh tovushlarning juft holda qator kelishi yoki kelmasligi haqida turkologiya va oʻzbek tilshunosligida xilma-xil fikrlar mavjud. Ayrim olimlar undosh tovushlarning takrorlanib kelganligini tan olmasalar, ayrimlar uni choʻziq undoshlar deb ataganlar. Baʼzilar uni boshqa tillarning taʼsiri sifatida koʻrsatishgan. Mahmud Qoshgʻariyning ushbu fonetik jarayon yuzasidan tahlili bu boradagi qarashlarga ham oydinlik kiritishi mumkin. Olimning qayd etishicha, tovushlardagi ikkilik turli maqsadda yuzaga keladi. Chunonchi, mubolagʻa, taʼkid, kuchaytiruv maqsadlari sabab boʻlishi mumkin. Baʼzan bir tovushning ikkinchi tovushga singishi ham ushbu fonetik jarayonni yuzaga keltiradi. Muallif undoshlardagi juftlik tilda keyin yuzaga kelgan fonetik jarayon ekanligi haqida gʻoyasini olgʻa surar ekan, ularning soʻz turkumlari boʻyicha ham turlicha ekanligini qayd etadi. Mahmud Qoshgʻariy bu jarayonni qoidalashtirib, aslida bir harf ikki qayta takrorlangan soʻz turkiy tillarda sira yoʻqdir. U faqat oxirgi harfi "r" boʻlgan feʼllardagina paydo boʻladi. Ismlarda esa bu holat juda ozdir, deydi.

Xullas, Mahmud Qoshgʻariyning nafaqat oʻzbek tilshunosligida, balki umumturkologiyada fonetikaga doir nazariy fikrlari haligacha mukammal oʻrganilgan emas. Yuqorida qayd etilgan qisqacha nazariy-tavsifiy fikrlarni davom ettirish mumkin, albatta. Ammo buni birgina maʼruza yoki maqolada batafsil talqin etib boʻlmaydi.

#### Adabiyotlar

1. Mahmud Qoshgʻariy. "Devonu lugʻotit turk"(S.Mutalibovning oʻzbek tilidagi tarjimasini va nashrining, 1,2,3-tomlari). -T.: 1960-1963.
2. Xudoyberdiyev J. Mahmud Qoshgʻariy hayoti va «Devonu lugʻotit turk» asarining oʻrganilishi. – Toshkent, "Fan", 2010, (-48 b.).
3. Xuloyberdiyev J. Mahmud Qoshgʻariy hayoti va "Devonu lugʻotit turk" boʻicha yaratilgan asarlar koʻsatkichi.- T.: "Akademnashr", 2011 (-158 b.).

UDK:891.709

### ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHAXSIYATI VA ESSE IMKONIYATLARI

I. I. Sulaymonov

Samarqand davlat universiteti  
isroil-8103@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga yangicha talqinda ham ilmiy, ham badiiyat nuqtai nazaridan murojaat qilgan olim Aziz Qayumovning "Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti"ga bagʻishlangan asari tahlil etilgan. Unda Bobur hayoti va ijodi haqida muallifning oʻziga xos tasvir usuli, tarixiy faktlar asosida badiiy tasvir yaratish mahorati kabi masalalar yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", Aziz Qayumov, tarixiy fakt, badiiy talqin.

#### Личность Захириддин Мухаммада Бобура и возможности для эссечества

**Аннотация.** в этом статье анализирован произведение выдающегося литературоведа Азиза Каюмова «Творчество Захириддина Мухаммада Бобура», в котором автор обращал внимания к жизни и творчеству Бобура по-новому научным и художественным взглядом. В статье речь идёт о тех вопросах, так как спецификационные методы описания и мастерство автора по созданию художественного описания по исторических фактов.

**Ключевые слова:** Захириддин Мухаммад Бобур, «Бабур-наме», Азиз Каюмов, исторический факт, художественная трактовка.

**Zahiriddin Muhammad Bobur's personality and essay opportunities**

**Abstract.** This article deals with the work of Aziz Qayumov, "Zahiriddin Muhammad Babur's work", which addresses the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur in a new interpretation, both from a scientific and artistic point of view. It covers the life and work of Babur, as well as the author's unique style of description and his ability to create an artistic image based on historical facts.

**Keywords:** Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", Aziz Qayumov, historical fact, artistic interpretation.

Keyingi yillar o'zbek nasrida esselashuv jarayoni kechmoqda. Bu xususiyatni ilmiy maqolalar misolida ham ko'rishimiz mumkin. A.Qayumov, I.Haqul, S.Olim va boshqa adabiyotshunoslarning keyingi o'n yillik maqolalarining esse janriga tobora yaqinlashayotganligi bugungi adabiy jarayonning tabiiy mahsulidir. A.Qayumovning Bobur ijodiyotiga bag'ishlangan asari shu jihatdan xarakterlidir. A.Qayumov ushbu asariga yozgan so'zboshida mazkur bitiklarini risola ataydi. «Kitobxonni zeriktirib qo'yimaslik uchun uchun tasvir shakli badiiylashtirildi», - deb izoh ham beradi. Bizningcha, ushbu asarni esse janri talablariga muvofiqligini hisobga olgan holda shunday atash, ma'qulroq. Chunki esseda ham ilmiy, badiiy, publitsistik xususiyatlar shu tarzda uyg'unlashadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga yangicha talqinda, ham ilmiy, ham badiiyat nuqtai nazaridan murojaat qilgan olim akademik Aziz Qayumov sanaladi. Bobur tarjimai holi va ijodini o'rganishda, asarlarining nashr etilishida, ularning dunyo yuzini ko'rishida, keng ommaga etib borishida bu insonning xizmatlari benihoyadir. Ushbu tadqiqotda olimning so'nggi yillarda nashr etilgan [4] tadqiqotiga murojaat qilindi. Bu tadqiqotni yaratishda, muallif aytganidek, «Boburnoma»dagi tarixiy voqealar va faktlar asos bo'lgan va uni ilhomlantirib, badiiy-ilmiy asarlar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Yuqorida tadqiq doirasiga tortilgan adiblar ijodidan farqli o'laroq A.Qayumov «Boburnoma»dan konkret tarixiy voqea va faktlarni misol sifatida keltirib fikr bildirmaydi. Bobur asarlarini obdon o'rgangan olim o'zining asarlarida bulardan o'rinli foydalanadi. Shu sababdan o'quvchi ulardan Bobur hayoti va ijodining kichik epizodlarigacha aniq, hayotiy ma'lumotlarni bilib oladi.

A.Qayumov asarining «Zafar va mag'lubiyat» nomli qismida muallif aynan yuqoridagi uslub – tarixiy voqelarni ilmiy jihatdan umumlashtirib, uni badiiy talqin etadi va aytish mumkinki, bu ilmiy umumlashtirish olimga davr voqea-hodisalarini aniq tahlil qilish, uni kezi kelganda badiiy tasvirlash orqali maqsadga erishishni ta'minlaganki, bu uslub hozirgi boburshunoslikda, bayon tarzi bilan faqat Aziz Qayumovgagina xos, desak xato bo'lmaydi. Albatta, olim uslubiga ma'lum darajada ergashib, o'zlarining ayrim tadqiqotlarini, badialarini yaratish tajribasi zamondosh boburshunoslarimiz, yozuvchilarimiz ijodida ham kuzatiladi, ammo ularning birortasi hali bu qadar ixchamlik, ilmiy ko'lam va badiiy mukammallikda akademik A.Qayumov darajasiga etganlari yo'q, deb o'ylaymiz.

Asarining «Zafar va mag'lubiyat» qismida muallif shunday yozadi: «905 (1499-1500) yili Bobur Farg'onadagi ichki kurashlar davomida Andijon, Axxi, O'shni qo'ldan berdi. Uning ahvoli juda tang bo'ldi. Shu payt Samarqand hokimi Muhammad Mazid Tarxon Boburni Samarqand viloyati hokimiyatiga chaqirdi. Bobur bu taklifni darrov qabul qildi. U Axxiga odam yuborib o'z g'animlari bilan sulh tuzdi va shu yili zulqa'da oyida Farg'onadan Samarqandga yo'l oldi. Muhammad Mazid Tarxon uning istiqboliga chiqdi. Ular hali Samarqandga etganlaricha yo'q ediki, Samarqandni Shayboniyxon egalladi, degan xabar keldi. Bobur Keshga ketdi. Bu erda Muhammad Mazid Tarxon Boburni qoldirib, Hisorga, Xisravshoh xizmatiga o'tib ketdi» [4; 212-213].

Muallif shuncha tarixiy dalillarni keltirsa-da, «Boburnoma»ni tilga olmaydi. Vaholanki, bu tarixiy faktlar aynan «Boburnoma»dan olingan. O'sha paytdagi mavjud siyosiy, ijtimoiy holatni tarixiy faktlar asosida qisqa umumlashtirib, o'quvchiga o'sha davr siyosiy holati, Samarqand taxti uchun kurash ishtirokchilari haqida umumiy ma'lumot bermoqda, xolos. Bu o'rinda muallif «Boburnoma»dagi faktik ma'lumotlarni keltirmasdan umumiy ma'lumot berish bilan kifoyalanadi. Ushbu matnning davomida ham shu aqidasi sodiq qolib, Boburning g'oliblik va mag'lublik holatini faqat sharh berish orqali bayon etadi, xolos. «Boburnoma»dan biron bir iqtibos, parcha keltirmaydi. Bu uslub muallifning shu asari uchun qo'llagan bayon tarzi, tarixiy voqelikni ilmiy-badiiy talqinda berish uslubidir. Yuqoridagi matnning davomini ko'radigan bo'lsak: «Bobur va uning odamlari shahar va viloyatdan mahrum bo'lib, tentirab qoldilar. Ba'zi navkarlar Boburdan ajralib har tarafga keta boshladilar. Bobur o'ziga sodiq qolgan odamlar bilan tog'lar osha yaylovlarga o'ta Ko'hak daryosi bo'yiga etib keldi. Bu vaqtda Boburda ikki yuz qirq kishigina qolgan edi. Shu askar bilan Bobur 906 (1500) yili Samarqandga hujum qilib, uni egalladi. Shunda Bobur o'n to'qqiz yoshda edi. Bu Bobur tomonidan Samarqandni ikkinchi qayta egallashi edi. Samarqand a'yonlari Boburga sadoqat izhor qildilar... Atrof viloyatlardan Boburga yordam uchun

qo'shinlar kela boshladi. Bobur katta kuch yig'ib, Saripul degan joyda Shayboniyxon qo'shini bilan to'qnashdi. Bu jangda Shayboniyxon qo'shini ustun chiqdi. Bobur o'z odamlari bilan shaharga kirib, darvozalarni berkitdi. Shayboniyxon Samarqandni qamal qildi. Bobur qo'shini va Samarqand xalqi qamalda og'ir azoblarni boshdan kechirdilar. Shaharda oziq-ovqat qolmadi. Hech qaerdan yordam kelmadi. Boburning ba'zi lashkarboshilari o'z odamlari bilan shahardan chiqib qocha boshladi...» [4; 212-213].

A.Qayumov Bobur tarjimai holi uchun o'ta muhim bo'lgan bu tarixiy faktdan foydalanib, turli darajadagi badiiy obrazlarni yaratishga muvaffaq bo'ladiki, bu tarixiy faktlar badiiylik kasb etadi, kitobxonni muallif fikriga hamohang tarzda ko'hna tarix voqealariga oshno qiladi: «899 (1494) yil. Seshanba, ramazon oyining beshinchi kuni. Shahar hovlilarida baholi qudrat iftor tadoriki. Shohi to'quvchi Mulla Alijonning tashqari hovlisidagi mehmonxonada bugun iftor uchun kichik bir jamoa jam bo'lgan. Ular Qiyosiy, Jur'ar, Asiriy va xonanda Soatxon. Bu jamoat hammalari kosiblar, ammo tab'i nazm ahliga mansub kosiblar...» [4; 208].

Bu parcha A.Qayumovning «Asarlar»idan kiritilgan «Kutilmagan yangilik» nomli hikoyasi bo'lib, yuqorida nomlari keltirilgan shaxslarning barchasi muallifning tafakkuridagi xayoliy, badiiy obrazlaridir. Ular haqida «Boburnoma»ning biror bir o'rnida ma'lumot berilmaydi.

Muallif bu suhbatdoshlarning fikrini davom ettirar ekan, ularning nutqida qadim andijoniylarning shevasi yaqqol sezilib turadi. Bu bilan muallif asariga hayotiylik va haqoniylik baxsh etish maqsadida shunday yo'l tutadi: «Suhbatdoshlar turkiy (eski o'zbek) tilida so'zlashar edilar. Ularning talaffuzi, ifoda uslubi juda adabiy edi. Bu faqat tab'i nazm egalariga emas, balki butun Andijon xalqiga bir odat. Har bir savodli xonadonda, bunday xonadonlar Andijonda ko'p, kishilar Mir Alisher Navoiyning she'rlari turkiy tilning Andijon lahjasida yozilganini qayd etar ekan, bu bilan iftixor qilar edilar: yana mashhur musiqiy ustodi Xoja Yusufning Andijondan ekanini g'urur bilan eslatardilar... Suhbatdoshlarning iltimosiga ko'ra, Sabriy o'zining yangi bir she'rini o'qib berdi. Bu Navoiy g'azaliga bog'langan muxammas edi. Asiriy, Qiyosiy, Jur'at ham o'zlarining yangi she'rlarini o'qidilar [4; 209].

Bu bilan muallif Boburning «Boburnoma»da Andijon haqida keltirgan ma'lumotlariga ishora qiladi, go'yo: «Eli turkdur. Shahri va bozorida turkiy bilmas kishi yo'qdur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudki Hirida nash'u namo topibdur, bu til biladur» [1; 34].

Boburning Samarqand va Andijon orasida sargardon bo'lib yurgan payti. Mag'lublikka yaqin bu holat Boburga siyosiy bir xulosaga kelish, kimni do'stu kimni dushman ekanligini bilolmay sarson bo'lgan mahali: «Dakbusiyda Boqi tarxonni bosib Buxoro ustiga boribtur. O'roteppadin Bo'rka yaylog'i yo'li bila Sangzorg'a kelduk. Sangzor dorug'asi qo'rg'onni berdi. Qanbar Ali chun tutturub, oldirub keldi, ani Sangzorda qo'yub, o'ttik» [1; 77].

A.Qayumov ana shu tarixiy voqelik va dalillardan foydalangan tarzda badiiy yo'sinda Bobur va beki Qosimbekning badiiy obrazini to'ldirishga harakat qiladi: «Sangzor daryosi quvnaq oqar edi. Sangzorning zilol suvlari toshdan-toshga urilib o'ynashayotgan to'lqinlar bilan to'la. Atrofdagi tog'lar keng dalalar bag'rida daryo yoqalab horg'in yo'l bosayotgan odamlar va otlarga beparvo boqadilar. Ularning ketidan otlari horg'in qadam tashlaydilar. Otlar ham ochlikdan shunday toliqqanlarki, endi ular odamlarni emas, odamlar otlarni tashimoqdalar.

– Faqat shukrona bilan yashamoq kerak, - deydi Qosimbek holdan toygan Boburga, – eng muhimi o'lim xavfi ortda qoldi. Dizakda Hofiz Muhammadbek do'ldoyning o'g'li Tohir do'ldoy hokimlik qiladi. U ko'p insofli va musulmonvash yigit. Kecha unga kishi yuborganman. Inshaolloh u sizni lozim hurmat bilan kutgisidir.

– Umidvormiz, - dedi Bobur g'amgin jilmayib, ammo mundin nari ne bo'lg'usini yolg'iz Allohu taoloning o'zi bilur.

– Mundin buyon ham Tangri inoyatiga umid bog'lab, o'z hokimiyatingizni barqaror etmoq sa'yingizda turingiz. Yoningizdagi beklar va yigitlar muhim sinovdan yaxshi o'tdilar. Ularga hamisha tayanmog'ingiz mumkin, - dedi Qosimbek qavchin. Shu payt uzoqdan bir guruh otliqlar ko'rindi... Kelayotgan otliqlarning boshida Tohir do'ldoy ko'rindi. Qosimbek uni darhol tanidi va buni Boburga aytdi... Shohona uchrashuv marosimining barcha qoidalariga binoan u Boburni kutib, Dizakka o'zi olib kirdi» [4; 214].

A.Qayumov «Boburnoma»da keltirilgan tarixiy shaxslardan Xoja Kalon haqida so'z yuritadi. U shaxsning Hindistondagi faoliyati davrida Bobur bilan bo'lgan munosabati, ular o'rtasidagi voqealar «Boburnoma»da ham batafsil berilgan. Jumladan: «Xoja Kalon chun Hinddin mutanaffir edi, borurida Dehlining uyining imoratlarning tomida bu baytning bitiburkim:

Agar ba xayru salomat guzar zi Sind kunam,  
Siyahro'y shavam, gar havoi Hind kunam.

Biz Hindistonda turub bunday zarofatomiz bayt aytmoq va bitmoq besuratdir. Ketmakdin bir kudurat bo'lsa bu nav' zarofattin ikki kuduratdur, men dag'i bir ruboiy aytib bitib yubordim:

Yuz shukr de, Boburki, karimu g'affor,  
Berdi senga Sindu Hindu mulki bisyor.  
Issig'lig'ig'a gar senga yo'qdur toqat,  
Sovuq yuzini ko'ray desang G'azni bor» [1; 210].

Mazkur parchada ifodalangan Bobur va boshqa tarixiy shaxslar tasviridan muallif badiiy obraz yaratadi, tarixiylikni badiiylikka aylantiradi: «Bobur Kobulg'a sovg'alarni eltmoqni Xoja Kalong'a topshirdi. Uning qo'shini qalin bo'lganligi uchun G'azna, Gardiz, Sul-ton Mas'udiy hazorani, Hinistondagi Ko'hrom parganasini Xoja Kalonga berdi... A.Qayumovning «Boburnoma»da mavjud bo'lmagan bu ma'lumotlarni keltirishdan maqsadi – Boburning Xoja Kalonga shunchalik himmat ko'rsatib Afg'oniston, Hindistonda ulkan shaharlar hadya etsa-da, u Boburga qarshi ish qiladi, uning davlatdorligiga ma'naviy ziyon etkazadi, noshukurlik qiladi: «...Oradan uch-to'rt kun o'tdi. Yana Agradagi daraxtzor. Uning bag'ridagi salqin yo'lakda Bobur va uning mo'ysafid arbobi sayr qilib suhbat tutmoqdalar. Bobur o'zining uzoq yillar sinalgan do'sti Xoja Kalonning ketmoq qaroridan xafa. Eng yaqin do'stlar ham, vaqti kelib o'zlikni do'stlikdan ustun qo'yadilar. Kun asta-sekin muhitga cho'kmoqda. Osmon yuzasini qorong'ulik tumani qoplash vaqti yaqinlashmoqda.

Bobur o'z suhbatdoshiga dedi:

– Xoja Kalon Hinddan mutanaffir edi. Uning ketar chog'i uyining devoriga yozgan baytini eshitdingizmi?

– Yo'q, taqsirim.

– Bo'lmasa mana o'qingiz.

Bobur qo'ynidan bir qog'oz olib suhbatdoshiga uzatdi.

Mo'ysafid kishi podshohning qo'lidan qog'ozni odob bilan oldi va uni ko'ziga yaqinlashtirib, o'qidi:

Agar ba xayru salomat guzar zi Sind kunam,  
Siyahro'y shavam gar havoyi Hind kunam.

Qofiyani xo'b tushirgan. Ehtimol, yuzi qoraligidan tavba qilayotgandir, - dedi muysafid kishi, bu she'rdan tug'iladigan yoqimsiz taassurotni yumshatmoq maqsadida.

– Yo'q, dedi Bobur qat'iy ravishda, - bu bayt Xoja Kalonning yuzi qoraligiga iqroridir. Chunki, davom etdi o'z fikrini sharh etib, – biz Hindistonda turib, mundaq zarofatomez bayt aytmoq va bitmoq ko'rinmagan bir hol. Ketmog'idan bizga og'irlik bo'ldi, bu xil zarofatdan ikki bor malol etdi» [4; 244-245].

Bu o'rinda Bobur tarixiy shaxs bo'lsa-da, Mo'ysafid to'qima obraz bo'lib Bobur badiiy obrazini to'ldirishga, muallifning ushbu «Boburnoma»da keltirgan ruboiysidagi maqsadni ochishga xizmat qilmoqda. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu ruboiy tahlilida A.Qayumov ijodkor adib emas, balki adabiyotshunos olim sifatida fikr yuritadi.

«Boburnoma»da No'yon Ko'kaldosh haqida keltirilgan tarixiy ma'lumotni X.Sulton va A.Qayumov asarlaridagi badiiy talqinlarini qiyosan tahlil etsa, ularda mualliflarning o'ziga xos yondashuvi ko'zga tashlanadi. Yuqorida «Boburiynoma» tasvirida ko'rilgan ushbu parchani A.Qayumov asarida berilishi holatiga e'tibor qaratsak: «Bobur o'z kishilari bilan Piskentga kelgan payti bir fojea yuz bergan edi... Bobur Samarqand hokimiyatini egallaganda Mo'min uning huzuriga kelgan edi. Ammo bu qilg'i sovuq, yoqimsiz odam Boburga yoqmad. Uning g'iybat gaplarni ko'p gapirishi, qo'lidan bir ish kelmagani holda o'zgalarni qilgan yaxshi ishlarini o'ziniki qilib ko'rsatishga urinmog'i darhol bilinib qoldi. Boburning sadoqatli odamlaridan biri No'yon Ko'kaldosh Mo'minning yaramas ishlari to'g'risida Boburni mutaassil xabardor etib turgan edi» [4; 216], - deb badiiy manzara yaratgan muallif ushbu sirli fojining asl ildizini aniqlashga harakat qiladi. Bu shubhali o'limning asosiy tashkilotchisi Piskent hokimining ukasi Mo'min degan qat'iy xulosaga keladi.

X.Sulton No'yon Ko'kaldosh haqidagi tafsilotlarni berishda «Boburnoma»dagi tarixiy faktlarga tayanib, unga badiiy obraz sifatida yondashgan bo'lsa, A.Qayumov tarixiy haqiqatni xolisona izohlaydi, voqeaylikka o'zining munosabatini bildiradi. Bu voqeaga aloqador tarixiy shaxslarning badiiy tasvirini berib, ular yashagan davrdagi siyosiy jarayonlar, ularning Bobur bilan bog'liq tomonlarini tahlil etishga harakat qiladi. Bu muallifning o'ziga xos uslubi – tarixiy voqealarni ilmiy sharhlash, ularni umumlashtirgan holda tasvirlab berishdan iborat. A.Qayumov tasviriga e'tibor bersak, birinchidan, ushbu sahna «Shubhali o'lim», - deb nomlanishidanoq ma'lum bo'ladiki, muallif tarixiy faktlarga tayanib, uni badiiy tasvirlashga kirishadi. Xayriddin Sultonda bu shaxsga oid tasvirlar Bobur badiiy obrazining atrofidagi kishilar bilan suhbat chog'ida bayon etiladi, unda badiiy tasvirlar A.Qayumovdan ko'ra kengroq bo'lib, muallif badiiy to'qimadan keng foydalangan. A.Qayumov tasvirida o'qiymiz: «Sadoqatli sipohi va do'sti No'yon Ko'kaldoshning bu shubhali o'limi yosh Boburga qattiq ta'sir qildi. Mo'minning qilg'iliqlarini tekshirish

va haqiqatni aniqlashning vaqti emas, bunga imkoniyat ham yo'q edi. Shuning uchun alamini o'zidan olib yosh yigit uzun qish kechalari yum-yum yig'lab chiqar edi. Bir hafta-o'n kungacha shu ahvol davom etdi. Nihoyat Bobur o'zini qo'lga oldi...» [4; 217]. Muallif Bobur badiiy obrazini umumlashtirgan tarzda voqealarni ilmiy tahlil etadi va mazkur voqea mazmunini ilmiy bayon uslubida tugatadi. Shu bilan birga, A.Qayumov Boburning sodiq do'sti No'yon Ko'kaldoshning vafoti Boburning ma'naviy mag'lublik paytiga to'g'ri kelishini badiiy tarzda, chiroyli tasvirlar bilan bayon etadi. Boburning raqiblari uni mag'lub etish, ma'naviy ruhiy zarba berish maqsadida uning yaqin kishilaridan judo qilishini Bobur taqdirida juda ko'p bor kuzatamiz. Shu kabi taqdir sinovlarida toblangan Bobur o'zining buyuk maqsadlari sari dadil odimlaverdi, bu kabi sinovlar uning zohirini, ruhiyatini chiniqtirib, uning hayot haqidagi, insonlar haqidagi qarashlarini shakllantirdi: «Bobur hayotning achchiq va chuchuklaridan bir qismini tatidi. Andijon va Samarqand taxtida g'oz o'ltirdi, g'alaba jomidan kayf qildi. So'ng mag'lubiyat zaharini tottdi; ochlik, quvg'in, xiyonat nayzalaridan jarohatlandi» [4; 220]. Bobur yosh bo'lsa-da hayotning ko'p sinovlarini boshidan kechirdi, gohida g'alabadan masrur bo'lgan, undan sarxush lahzalarni ko'rgan bo'lsa, ba'zida mag'lublik alamini ham totib ko'rdi, hayotning naqadar beshafqat va bebaqoligini tushunib etdi. Yosh bo'lishiga qaramay, Bobur dunyoning o'tkinchi hoyu havaslari, shohlik minnati va insonlarning o'zaro munosabatlari xususida bir qarorga keldi. Shu lahzalarni xayolidan kechirayotgan Bobur Andijon va Samarqand o'rtasida sarson-sargardon kezgan, hech kimdan na yaqin qarindoshlaridan, na do'st birodarlaridan yordam bo'lmay aftoda holda yurgan damlarida Obburdan atrofidagi bir buloq boshiga keladi. Boshidan o'tgan voqealarni eslarkan, shu buloq boshida Sa'diyning «Bo'ston»idagi baytlar xayolidan o'tib, uni o'sha buloq bo'yidagi bir toshga yozib qo'yishga qaror qiladi. Mana o'sha bayt:

Shunidamki, Jamshidi farruxsirisht,  
Ba sarchashmae bar cange navisht:  
«Bar in chashma chun mo base dam zadand,  
Biraftand to chashm bardam zadand.  
Giriftem olam bo mardiyu zo'r,  
Valekin naburdem bo xud ba go'r» [1; 88].  
Harraru Bobur 917.

Mazmuni:

Eshitganim borki, Jamsheddek nomdor,  
Boshbuloq toshiga yozdirdi yodgor:  
«Bu buloq boshida ko'plar tin oldi,  
Ko'z yumib ochguncha yitdi-yo'qoldi.  
Mardligu zo'rlik-la jahonni oldik  
Lekin qabristonga quruq yo'l soldik»

Men Bobur yozdim 1511-12.

Bu satrlardan anglash mumkinki, yosh Bobur fors tilini mukammal bilgan va Sharq mumtoz adabiyotidan yaxshi xabardor bo'lgan. Uning bu kabi falsafiy mazmundagi baytlar yozdirishining boisi, yuqorida aytganimiz, bir tarafdin do'sti No'yon Ko'kaldoshning o'limini unutilmayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan uning ma'naviy mag'lubiyati umidsizlik tuyg'ularini uyg'otgan edi. Yuqoridagi baytlar mazmuniga e'tibor bersak, u dunyoning yarmini egallagan Iskandar Zulqarnayn o'lgandan keyin qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishini vasiyat qilgan falsafiy fikrlarga hamohang keladi. Bobur bu vaqtda garchi hech narsasi yo'q, na mol mulki, na borar joyi bo'lmay turib bu mazmundagi baytni yozdirishi uning hayotiy xulosalari natijasidir desak, yanglishmaymiz. Balki shu lahzalarda Bobur shohlik minnatidan darveshlik qismatini afzal ko'rgan bo'lishi ham mumkin. Sababi u keyinchalik barcha narsaga – hisobsiz mol mulkka, cheksiz hududga ega davlatga erishgan paytlarida ham o'zini darveshona tutgani uni hayotida yuz bergan shu kabi sinovlar, o'zidan oldin o'tgan hukmdorlarning qismati bir umr saboq bo'lgan bo'lishi, ehtimol. Shuningdek, Bobur insondan faqat yaxshi nom, ezgu ishlargina meros qolishi lozimligini anglab etadi, go'yo Alisher Navoiy aytgan:

Bu gulshan ichra ki yo'qdur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.  
tarzidagi fikrlariga monand yo'l tutadi.

Ushbu vaziyatdagi holati haqida «Boburnoma»da ma'lumot bergan Bobur o'zining quyidagi baytni keltirib, «Bu matla'ni o'shul ayyomda aytib erdim», - deydi:

Takalluf har necha suratta bo'lsa ondin ortuqsen,  
Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsen [1; 88].

Xulosa o'rnida aytsak, A.Qayumov o'zining dunyoqarashi, badiiy mahorati va tasvirlash uslubidan kelib chiqqan holda «Boburnoma»ga murojaat qiladi. Muhimi, «Boburnoma»ga murojaat qilar ekan,

muallif uning eng xarakterli, Bobur shaxsiyatini ochib beruvchi, unga bevosita daxldor bo'lgan voqealarga e'tibor qaratadi, qahramonning ichki kechinmalarini yoritib berishga harakat qiladi.

#### Adabiyotlar

1. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Хасанов. Тошкент. Шарқ. 2002. – 335.
2. Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент.: Шарқ. 2014. – 744.
3. Султон Хайридин. Бобурийнома. Маърифий роман. Иккинчи нашр. Т.: Маънавият, 2019. – 463 Б.
4. Қаюмов А. Асарлар. 10-жилдлик, 5-жилд. Захириддин Мухаммад Бобур ижодиёти. Тошкент, «Мумтоз сўз», 2009. – 303.

UDK: 891.709

### IJODIY MUTANOSIBLIK VA GADOIY IJODI

H. A. Aslanova

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada Gadoiy ijodiy merosi va uning poetikasi tahlil etiladi. Uning badiiy san'atlardan foydalanish mahorati haqida so'z yuritiladi. Zamondoshi Lutfiy ijodi bilan badiiy qiyosiy tahlili bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy san'atlar, poetika, devon, g'azal, tuyuq, qit'a, ruboiy, qasida, janr, doston.

#### Творческий баланс и Гадоиское творчество

**Аннотация.** В статье анализируется творческое наследие Гадои и его поэтика. Речь идёт о его навыках использования художественных средств. Анализ художественного сравнения с творчеством своего современника Лютфи.

**Ключевые слова:** художественное искусство, поэтика, диван, газели, туюк, китъа, рубои, касида, жанр, поэма.

#### Creative proportionality and Gadoi creativity

**Abstract.** The article analyzes the creative heritage of Gadoi and his poetics. It is said about his mastery in the use of artistic skills. An artistic comparative analysis with the work of his contemporary Lutfi is described.

**Keywords:** figurative language, poetics, diwan, ghazal, tuyugh, qit'a, (classical forms of poetry found in classical Turkic poetry) and rubai (quatrain), ode, genre, poem.

Gadoiy ijodida tasvir ob'ektiga nisbatan o'xshatish san'ati yetakchi o'rinda turadi. Ularning ham o'ziga xos istiora, tashbeh turlari borki, so'z san'ati vositasida betakror jilolanadi. Gadoiyning ijodiy mahsullari badiiy san'atlarning serqirraligi bilan ham o'quvchining dilidan joy oladi. Ayniqsa, intoq, tashxis san'atlaridan foydalanar ekan, ma'shuqaning yuzi, ko'zi, qoshi, labi nutq so'zlaydiki, beixtiyor unga ishonasan. Qolaversa, so'z qo'llash mahorati bilan muallif o'zining ichki hissiyotlarini oshkor etadi. Gadoiy shunday g'azallarida poetik san'atlarni nihoyatda nozik so'z sehri bilan yaratganki, ular orqali Gadoiyning naqadar nozikta'b ijodkor ekanligini anglash mumkin. Lirik mahorat shoirning «men»i orqali namoyon bo'ladi. Shu bois ham, Gadoiyning poetik uslubi davrga nisbatan an'anaviy va ayni paytda individual yo'nalishga ega.

Gadoiy o'z lirikasida ishq va oshiq-ma'shuqalarning qalb iztiroblari, hijron alamlari, visol quvonchlarini kuylash bilan birga muhabbatga va uning ne'matlaridan bahramand bo'lishga to'siq bo'lgan *ichi qora, yovuz, xudbin, ag'yor, raqib, zohid, o'zini dono, eng aqlli odam deb hisoblovchi, aslida esa eng befarosat, aqli past nosih, hosid, fosiq* obrazlarini yaratgan. Bu kabi xudbin, nodon, firibgar tabiatli kishilar obrazining o'zaro munosabatini bayon etish orqali shoir o'z davrining ijtimoiy shaklini aks ettirgan.

Badiiy san'atlar ijodkorlarning she'riyatida nafis chizgilarda o'z aksini topadi. Badiiy adabiyotning nazariy qo'llanmasi dastlab arab va forsiylarda paydo bo'lgan, keyinchalik XIV asrlarda esa, turkiylarda Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» («Yetuklik ilmlari») asari ilm maydoniga kelgan. «Ilgari o'tgan adabiyotshunos olimlar adabiyot nazariyasi bo'yicha kitob yozganlarida, ko'pincha, she'r turlari, yoki vazn, yoki badiiy san'at masalasiga to'xtalganlar yoki biror she'riy janr xususiyatlarini yoritib berganlar.

Shayx Ahmad esa, bu sohada mukammal bir qo‘llanma yaratishni, o‘z «risola»sida nazariy masalalarining barchasini yoritib, tahlil qilib berishini niyat qiladi, toki uni o‘qigan kishilar nazariyadan mumkin qadar to‘la ma‘lumot va foyda olsin». [6. 71] Aynan shu asarning uchinchi qismi ilmi bade‘, ya‘ni she‘riy san‘atlarga bag‘ishlangan. Asarda badiiy san‘atning nazariy ma‘lumotlari o‘sha davr ijodkorlari namunalari misolida asoslangan. «Funun ul-balog‘a» o‘zbek tilidagi adabiyotning nazariy masalalari bo‘yicha ilk mukammal qo‘llanma. Bu kabi nazariyalar Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», Boburning «Muxtasar»larida ham to‘liq sharhlangan. Asarlarda, albatta, ilmi bade‘ nazariyasi yoritilib, g‘azallar bilan dalillanadi. Yuqoridagi asarlarda keltirilgan tamoyil va talablar asosida qo‘plab ijodkorlar g‘azaliyoti tadqiq etilib kelinmoqda. Jumladan, Gadoiy she‘riyatida ham so‘z san‘ati namunalari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lgan.

XV asrning II yarmida yashab ijod etgan bir qator turkiyzabon shoirlarning adabiy merosida to‘rtlik shaklidagi she‘r namunalari uchraydi. Xususan, Yusuf Amiriy, Sakkokiy, Lutfiy hamda hozircha shaxsiyati va adabiy me‘rosi aniqlanmagan Muhammad Temur Bug‘o va Hoji Aqcha Kindiy kabilar shular jumlasidan. Biroq to‘rtlik shaklidagi mazkur she‘rlarning janrini belgilashda ruboiy, tuyuq, qit‘a, to‘rtlik kabi atamalar ba‘zan bir-birini almashtirgan holda qo‘llanadi. Bu hol nafaqat hozirgi adabiyotshunoslikda balki XV asr manbalarida ham kuzatiladi. Gadoiyning to‘rtlik shaklidagi she‘rlari ham bir o‘rinda qit‘a, yana birida to‘rtlik tarzida nomlangan. E.Ahmadxo‘jaevning ilmiy ishlarida esa, qit‘a-tuyuq tarzida e‘tirof etiladi.

Gadoiy she‘riyatida an‘anaviylikka individual yondashishlik mahorati ilmiy asosni talab etadi. Uning har bir g‘azalida ilmi bade‘ning ko‘plab namunalari davriy an‘anaga mos va shu bilan bir qatorda, individual uslub kasb etadi. Shu bois ham, Gadoiy o‘z she‘riyatida ijodiy o‘ziga xoslik xususiyatlari, ijtimoiy masalalar talqini, badiiy san‘atlar va timsol yaratish mahoratlari, vazn, qofiya, badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalangan. Ishqning badiiyatda qo‘llanilishi, uning uchun esa, qofiya va vazn tizimining muvofiqligi, she‘riy san‘atlarning qo‘llanilish doirasi chuqur tahlillarni keltirib chiqaradi.

Navoiy o‘zining «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida o‘zbek shoirlaridan bir qanchasining nomini sanaydi, hatto, ulardan Lutfiy fors-tojik adabiyotining Hofiz kabi buyuk liriklari darajasiga qo‘yadi». [5. 285] Bu sirada, ayniqsa, avvalgi sahifalarda ko‘rsatib o‘tilganidek, Gadoiyning ham e‘tirof qilinishi bejiz emas.

O‘zbek adabiyoti tarixida g‘azallar bir davr adabiy muhiti vakillari ijodida ajib naqqoshlik bilan jilolanadi. Jumladan, Gadoiy va Lutfiy ijodiy merosini qiyoslasak, bir-biriga o‘xshash baytlar –tatabbu‘ san‘ati tarzida ifodalanganining guvohi bo‘lamiz. Aytish joizki, baytlarning mazmunan bir xillik kasb etishi ikki ijodkorning adabiy aloqalarini ifodalaydi. Qolaversa, davr badiiyati jarayoni ham, devon tartib berish an‘analari ham bunga sabab bo‘lgandir. Quyida shu kabilarning qiyosini keltiramiz:

| № | <b>Gadoiy</b>  | <b>Lutfiy</b>  |
|---|--|--|
| 1 | Ulki, ishq etti bahona bizni rasvo qilg‘ali,<br>Qildi paydo ko‘rk elin o‘z sirin ifsho qilg‘ali.     | Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg‘ali,<br>Ko‘zgudek qildi seni, o‘zini paydo qilg‘ali.          |
| 2 | Gar husnunga ko‘nglum nigoron bo‘ldi, ne<br>bo‘ldi?<br>Oshufta-vu rasvo-yi jahon bo‘ldi, ne bo‘ldi?  | Ko‘zdin meni solding, sevarim, netti ne bo‘ldi?<br>Gar husnunga tushti nazarim, netti ne bo‘ldi?     |
| 3 | Latofat burji ichra moh sensen,<br>Ko‘ngulga jon kibi dilxoh sensen.                                 | Latofat qibla‘si olamda sensen,<br>Pari yuzluk bani odamda sensen.                                   |
| 4 | Yoz fasli bog‘ agarchi ravzayi rizvon erur,<br>Sensiz, ey huri pariypaykar, manga zindon erur.       | Yoz fasli barcha shodu ko‘nglumiz g‘amnok erur,<br>Gul bikin jon ko‘nglaki hijron elindin chok erur. |
| 5 | Sunbul sochingki, ol ila gulbarg-i tar quchar,<br>Horut erurki, sehr ila kurs-i qamar quchar.        | Sunbul sochingni el ila gulbargi tar quchar,<br>Davlat ko‘zung boshindaki shamsu qamar quchar.       |
| 6 | Alloh-Alloh, bu pariy yo hur, yo inson erur?<br>Bu ne shakl-u ko‘z u qosh u g‘amzayi fatton<br>erur! | Yo rab, ul dilbar malak yo hur, yoxud jon erur,<br>Haq nazar ondin ko‘tarmas, xalq anga hayron erur. |

Ko‘rinib turibdiki, Gadoiy va Lutfiy ijodidagi bunday o‘xshashlik ikki ustoz shoirning mahoratini belgilaydi. Qolaversa, bu g‘azallarining faqat matla‘larigina o‘xshash. Demak, mavzuning boshlanmasi bir xildir. Rivojlangan baytlar ijodkorlarning individual g‘oyalariga sug‘orilganligini o‘qishimiz mumkin. Gadoiy va Lutfiy tatabbu‘dan bevosita va bilvosita foydalanib, go‘zal san‘atkorligini yuzaga keltirgandir. Yana shuni aytish mumkinki, bunday holat shu davrning yana boshqa bir qator shoirlarning ijodida ham uchraydi. Masalan, Mavlono Lutfiy va Sakkokiy ijodidagi taqqoslanishlar g‘azallarining bir-biriga to‘liq o‘xshashligi bilan e‘tiborlidir. Hatto, Alisher Navoiy «Majolisun-nafoyis» asarida Mavlono Lutfiy va Sakkokiy haqida shunday yozadi: «Mavlono Sakkokiy Movarounnahrdir. Samarqand ahli anga ko‘p mu‘taqidur va bag‘oyat ta‘rifin qilurlar. Ammo faqir Samarqandda erkanda mu‘arriflardin har necha

tafahhus qildimkim, aning natoyiji tab'idin biror nima anglayin, ta'rif qilg'onlaricha nima zohir bo'lmadi. Barchadin qolsalar so'zlari budurkim, Mavloni Lutfiyning barcha she'rlari aningdurkim, o'g'urlab, o'z otig'a qilibdur. Ul erlarda bu nav' o'xshashi yo'q, mazasiz muqorabalar gohi voqe' bo'lur. Bore ba'zisi ta'rif qilibkim o'qurlar bu matla'ni anga isnod qilurlarkim:

Ne nozu bu ne shevadur, ey jodu ko'zruk sho'x-shang,

Kabki dariy tovsuda yo'q, albatta, bu raftoru rang.

(Mavloni Sakkokiy Movarounnahrdir. Samarqandliklar unga e'tiqodli va yuksak baho bilan ta'rifini qilishadi. Ammo faqir (Navoiy) Samarqanddaligimda ta'rif qiluvchilardan surishtirdimki, uning natijasidan biror nima anglayin deb, ta'rif qilganlaricha biror nima zohir bo'lmadi. So'zlari shuki, Mavloni Lutfiyning barcha she'rlari uningdirkim (Sakkokiy) o'g'irlab, (Lutfiy) o'z nomiga qilibdi. U erlarda bunday o'xshashi yo'q mazasiz bahslar gohida bo'lib turadi...)» [7. 54].

Gadoiy g'azallarida Sharq poetikasining fikrni ravon va nafis ifodalash yo'llari va vositalari, badiiy san'atlarning turlari hamda xususiyatlari kabi muhim masalalarni o'z ichiga oluvchi sohasi bo'lmish ilmi bade'ning mazmunning ta'siri va hayajonlilikini oshiradigan, fikrni bo'rttirib, ohangdorlikni kuchaytiradigan tazod, talmeh, tashbeh, tanosib, itfoq, husni ta'lil, irsoli masal, tajohilu orif, laff va nashr, tarse', tardu aks, tajnis, iyhom kabi qator poetik shakllaridan mahorat bilan foydalangan». [1. 54]

Gadoiyning ijodiy mahsullari badiiy san'atlarning serjiloligi bilan ham o'quvchining dilidan joy oladi. Qolaversa, so'z qo'llash mahorati bilan muallif o'zining ichki hissiyotlarini oshkor etadi. Gadoiyning ijodiy merosi ilmi bade'ning majmuidir. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, E.Ahmadxo'jaevning «Gadoiy» nomli kitobida qayd etilganlardan tashqari, shoir she'rlarida *takrir va uning turlari, ishtiyoq, munozara, iqtibos, radif, iltifot, ig'roq* singari badiiy san'atlarga ham tez-tez murojaat etilgan. Ayniqsa, bular orasida *iqtibos* san'atining qo'llanishi alohida ajralib turadi. U shoir she'rlarida eng faol qo'llangan badiiy vositalardan ekanligi o'rganishimiz jarayonida ma'lum bo'ldi. Devondagi 237 she'rdan 46 tasida mazkur san'at aks etgani kuzatiladi. Ularda Qur'oni Karim oyatlari she'r ichida keltirilgan yoki ularning mazmuni she'rda ifodalangan.

Professor A.Hayitmetov ishq mavzusidagi g'azallarning ijtimoiy ahamiyati haqida shunday yozadi: «G'azalning sevgi temasi bilan bog'langanligi bu she'riy formaning qasidaga nisbatan g'oyaviy-tematik jihatdan xalqchilligini ko'rsatar va tobora uning xalqchilligini oshirar edi. G'azalning bu sohadagi muvaffaqiyati fors-tojik adabiyoti tarixida, xususan, Sa'diy va Hofiz she'riyati misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu gigant liriklarning ijodlarida shu formaga ko'p o'rin va e'tibor berganliklarining o'zi, ularning o'z xalqlari manfaatlar va og'zaki poeziyasiga yaqinligini namoyish qilar edi. Chunki sevgi temasi aslida hammaga yaqin, hammaga tushunarli, demokratik xarakterga ega bo'lib, undan har qaysi ijtimoiy guruh manfaatdor va unga aloqadordir. Shuning uchun ham bu mavzu keng xalq ommasi ahamiyatiga, jamiyat ahamiyatiga ega bo'lib, bu temadagi lirik asarlar doim katta ijtimoiy ahamiyat kasb etib keldi» [4. 107] Albatta, mazkur fikr Gadoiyning oshiqona g'azallariga ham xosdir. So'z muqaddas ne'mat ekan, uni badiiy talqinidan bashariyat ta'lim-tarbiya topadi. XV asrning birinchi yarmida etishgan Xorazmiy, Xo'jandiy, Sayfi Saroyi, Durbek, Amiriy, YAqiniy, Ahmadiy, Atoiy, Mavlaviy, Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy kabi shoirlar ijodi turkiy she'riyatning taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Bu davr shoirlari ijodida majozdan haqiqatga jilvalangan sof va pok ishqni kuylaganlar. G'azallarda inson kamoloti tarannumida ifodalangan ma'rifiy-tasavvufiy badiiy talqin etilgan. Munozara va doston kabi katta hajmli asarlarida ham yorqin bayon etishgan. Ayni shu davr adabiy muhiti o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga va mustahkamlanishiga ham katta hissa qo'shdi. Adabiy tur va janrlarning ravnaq topishida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, qasida, noma, munozara, doston va boshqa janrlarda xilma-xil asarlar yaratildi. XV asr she'riyati o'zining xalqchilligi bilan ahamiyatlidir. Aynan turkiy she'riyat turlari va ularning shakliyl xillari XV asrning I yarmi turkiy-o'zbek she'riyati tarkibida bo'lgan, Alisher Navoiy ijodigacha ham o'zbek shoirlari xalq og'zaki she'riyati va aruz orqali paydo bo'lgan rang-barang janrlardan foydalanganlar. XIV asrdan so'nggi davrlarda ham badoe'ga, sanoe'ga, aruzga, lug'atga oid asarlarda adabiy turlar, shakllar haqida fikrlar, sharhlar bayon etilgan. She'riy janrlar orasida eng keng tarqalgani g'azal bo'ldi. Shu bilan birga, boshqa janrlar ham taraqqiy etdi, bunda, ayniqsa, g'azal, qasida, qit'a kabilar rivojida Gadoiy she'riyatining ham alohida o'rni bor. Mustazod janrining ilk namunasi esa uning ijodi bilan bog'liqdir.

#### Adabiyotlar

1. Аҳмадхўжаев Э. Гадоий (Ҳаёти ва ижодий мероси). – Т.: Фан, 1978.
2. Аҳмадхўжаев Э. Гадоий ижодининг ўрганилишига доир, Гадоий девонининг нодир нусхаси //«Адабий мерос». 2 – китоб. – Тошкент: Фан, 1971.
- 3.«Девони Гадо» (ديوان گادو) 981-рақамли инвентарь. Қўлёзма. 153 варак.



4. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси, 1961. Т– Б.107.
5. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Тошкент: Фан, 1970. – Б.285.
6. Ҳайитметов А. Адабиётдан туркийда биринчи назарий қўлланма//Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. – №1. – Б. 71.
7. Ҳасанова М.Мавлоно Лутфий шеърятти ва давр адабий муҳити муаммолари //Илмий мақолалар тўплами, Самарқанд, 2010.– Б.84.

УДК 81'44

### ПРОБЛЕМЫ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ РЕЛИГИОЗНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Ш. А. Шералиева

*Узбекский государственный университет мировых языков  
shirin.3009@mail.ru*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются некоторые проблемы эквивалентности религиозных фразеологизмов в английском, русском и узбекском языках, их общие источники и типы эквивалентности. Несколько работ ученых на эту тему были исследованы. Различные взгляды на концепцию (ученые) были показаны в качестве примеров. В данной исследовательской работе была предпринята попытка изучить проблемы эквивалентности во фразеологии на основе узбекского, русского и английского языков. Кроме того, актуальность работы обусловлена глубоким интересом языковых специалистов к лингвистическим особенностям множественных выражений, их типам и способам формирования, а также сложностям их перевода и перевода на другие языки.

**Ключевые слова:** язык; религия; фразеология; фраза; фразеологическая единица; ФЕ; эквивалент

#### Инглиз, рус ва ўзбек тилларидаги диний фразеологик бирликларнинг эквивалентлик муаммолари

**Аннотация.** Ушбу мақолада диний фразеологик бирликларнинг инглиз, рус ва ўзбек тилларидаги эквивалентлик хусусиятлари, уларнинг умумий манбалари ва эквивалент турлари ҳақида баъзи муаммолар муҳокама қилинади. Олимларнинг ушбу мавзу бўйича бир қатор ишлари ўрганилди. Тушунча хусусида турли хил олимларнинг фикрлари мисол сифатида кўрсатилди. Ушбу тадқиқот фразеологияда эквивалентлик тушунчасини инглиз, рус ва ўзбек тиллари асосида ўрганишга уринди. Бундан ташқари, ишнинг долзарблиги тил мутахассисларининг белгиланган ибораларнинг лингвистик ўзига хосликларига, уларнинг турлари ва шаклланиш усулларига, шунингдек уларни бошқа тилларга таржима қилишда дуч келадиган қийинчиликларга чуқур қизиқиши билан боғлиқ.

**Калит сўзлар:** тил; дин; фразеология; ибора; фразеологик birlik; ФБ; эквивалент.

#### Problems of equivalence religious phraseological units in English, Russian and Uzbek languages.

**Abstract.** This article discusses some of the problems of equivalence of religious phraseological units in English, Russian and Uzbek languages, their common sources and types of equivalence. Several works of scientists on this topic have been investigated. Different views on the concept (scientists) have been shown as examples. This research work attempted to examine the concept of equivalence in phraseology based on English, Russian and Uzbek languages. Besides that, the topicality of the work is conditioned by the profound interest of language specialists in the linguistic peculiarities of set expressions, their types and ways of forming, as well as the difficulties of their translation and rendering into other languages.

**Key words:** language; religion; phraseology; phrase; phraseological unit; PhU; equivalent.

Язык и религия – это те фундаментальные факторы, которые определяют народный менталитет, формируют национальные, языковые, религиозные картины мира разных народов. Религия как специфическое мировоззрение принадлежит человеческому обществу во всем мире. Значительная часть его истории и религиозные верования на сегодняшний день присущи большинству людей.

В данной статье рассматриваются некоторые проблемы эквивалентности религиозных фразеологизмов в английском, русском и узбекском языках.

Как отмечает Мечковская, религия – это особая форма осознания мира, обусловленная верой в сверхъестественное, включая набор моральных норм и типов поведения, ритуалов, религиозных действий и унификации людей в организации (церковь, религиозная община). Н.Б. Мечковская в работе «Язык и религия» писала о том, что «все начала человеческой культуры» коренятся в двух важных составляющих – в религии и языке. Несомненно, язык и религия, являясь двумя разными по содержанию формами выражения духовной культуры этноса, обнаруживают тесную связь [1, с.25].

Изучение связи языка и религии, необходимо для отражения религиозной картины мира. Во фразеологизмах репрезентируются национальная культура, менталитет, история, быт и религия народа. Так как религия занимает важное место в жизни людей, среди фразеологизмов, широко употребляющихся народом, можно увидеть единицы на религиозную тему. Религиозные фразеологизмы вобрала в себя мудрость, отражали место веры в жизни узбекского, русского и английского народов. Фразеология дает возможность проникнуть во внутренний мир человека, выявить особенности национального характера. Фразеологизмы придают речи образность, выразительность, делают ее богаче, красивее. Они выражают те или иные мысли образно, эмоционально, неся при этом отпечаток неповторимого национального колорита.

Под религиозными фразеологизмами мы понимаем фразеологизмы, цитаты и крылатые выражения религиозного происхождения. Нельзя думать, что Библия – источник только религиозный; это источник общекультурный [2]. Это те единицы, в которых отражаются национальная культура, менталитет, история, быт так и религия народа. Так как религия занимает важное место в жизни людей, поэтому среди фразеологизмов, широко употребляющихся народом, можно увидеть единицы на религиозные темы.

Ученые неоднократно отмечали взаимосвязь фразеологизмов с религией и традициями. К примеру, Ковшова М.Л. отмечает связь фразеологизмов с историческим и духовным опытом людей, их культурными традициями [3]. «Язык есть материальное воплощение религиозного сознания, непосредственная реализация религиозного мышления в устных и письменных текстах на разных языковых уровнях» [Бугаева 2008: 4].

Религиозные фразеологизмы имеют значения, отличие от их первоначальной семантической способности, из-за семантического расширения в последующих фразах, и эти значения согласуются с лингвопрагматическим состоянием медиа-дискурса, в котором практикуется религиозная фразеологическая единица. Во фразеологическом фонде единицы, восходящие к религиозным текстам, играют важнейшую роль в формировании языковой личности. Л. Л. Григорьева рассматривает фразеологизмы, отражающие религиозный мир носителей русского, английского и арабского языков как источник ассоциаций, сопровождающих определенную религиозную концепцию в этих культурах [5].

Перевод фразеологических единиц является независимым и достаточно сложная проблема, которая может быть решена различными способами в зависимости от характера и особенности этих подразделений. Семантическая структура языка имеет прямое отношение к переводу, поскольку основа эквивалентности зависит в основном от семантической структуры, отдельно взятые слова. Фразеологический перевод предполагает использование в тексте перевода устойчивых единиц различной степени близости между единицей иностранного языка и соответствующей единицей языка перевода - от полного и абсолютного эквивалента до приблизительного фразеологического соответствия. Фразеологический эквивалент - это такая образная фразеологическая единица, которая по смыслу полностью соответствует любой английской фразеологической единице и основана на одном изображении с ней. Как правило, нерегулярный контекст должен иметь такой же денотационные и коннотационные значения, то есть не должно быть никаких различий в отношении семантического содержания, стилистического значения, метафоричности и эмоционально-экспрессивной окраски между соответствующими фразеологизмами, они должны иметь приблизительно одинаковую компонентную структуру, обладать рядом идентичных лексические и грамматические параметры, такие как: сочетаемость, принадлежность к одной грамматической категории, общее использование и т. д. ; и еще одно весьма важное свойство - отсутствие национального колорита.

Теория перевода отражает необходимость учета как системных – семантических, так и текстообразующих особенностей языковых единиц, что проявляется в различии эквивалентности и

адекватности. В свою очередь, сравнение на уровне текста предполагает предварительное сравнение фразеологизмов как элементов системы.

Фразеологические единицы, в частности религиозные фразеологизмы, могут не иметь прямых аналогов в других языках, определяя национальную специфику народа. При этом религиозные фразеологизмы имеют свои семантические эквиваленты. Любая ФЕ имеет в любом языке свой смысловой или логический эквивалент. Так как у каждого народа свои образные слова, свой юмор, своя история, свои традиции и свой клад мудрости.

Фразеологические единицы в других языках, в частности в английском, носят специфический характер, поэтому их буквальный перевод на узбекский и русский язык не всегда отражает выражение, коннотацию, то яркое значение, которое ФЕ имела в языке оригинала. Различия в картине мира, культуры, мировоззрения разных людей делают невозможной в некоторых случаях взаимозаменяемость фразеологизмов в переводе.

В.С. Виноградов понимает под эквивалентностью «сохранение относительного равенства содержательной, смысловой, семантической, стилистической и функционально-коммуникативной информации, содержащейся в оригинале и переводе»[6].

А. В. Кунин отмечает, что Библия является важнейшим литературным источником ФЕ [Кунин 2005: 7]. Мы поддерживаем мнение автора, так как история происхождения многих фразеологизмов, которые использовались людьми, дают о себе знать, что они имеют отношение к религиозному фразеологизму. Смит Л.П. также утверждает что: «О колоссальном влиянии, которое оказали на английский язык переводы Библии, говорилось и писалось много; в течение столетий Библия была наиболее широко читаемой и цитируемой в Англии книгой; не только отдельные слова, но и целые идиоматические выражения (часто буквальные переводы древнееврейских и греческих идиомов) вошли в английский язык со страниц Библии. Число библейских оборотов и выражений, вошедших в английский язык, так велико, что собрать и перечислить их, было бы весьма нелегкой задачей» [8].

Возникновение ФЕ, восходящей к библейскому сюжету, в котором есть только один компонент фразеологической единицы. К библейскому сюжету восходит поговорка *forbidden fruit is sweet* – запретный плод сладок и оборот, от которого она, вероятно, произошла *forbidden fruit* – такикланган, ман этилган нараса-запретный плод. Выражение возникло из библейского мифа о древе познания добра и зла, плоды которого были запрещены богом для еды Адаму и Еве. В примере на русском и английском языках можно увидеть полный эквивалент, так как английский пример дословно переведен на русский язык и оба примера имеют одинаковую окраску и значение. Однако пример на узбекском языке является частичным эквивалентом, так как со структурной точки зрения он отличается от тех двух, но имеет одинаковое значение и окраску. Как известно, вне зависимости от контекста полные эквиваленты обладают одинаковыми денотативными и коннотативными значениями. Они должны иметь приблизительно одинаковый компонентный состав, обладать рядом одинаковых лексико-грамматических показателей: сочетаемостью, принадлежностью к одной грамматической категории, употребительностью, связью с контекстными словами – спутниками и т.д., а также отсутствием национального колорита.

К таким оборотам также можно отнести ФЕ *a doubting Thomas* – Фома неверующий – ҳеч кимга ва ҳеч нарасага ишонмайдиган одам.

Из приведенных выше примеров ФЕ можно заметить, что примеры на английском и русском языках совпадают, поскольку эта ФЕ принадлежит библейской истории. Термин «Фома неверующий» является прямой ссылкой, на библейскую историю рассказанной в Евангелии апостола Фомы, который отказывался верить, что воскресший Иисус был замечен другими апостолами, пока он не смог увидеть и почувствовать раны, полученные Иисусом во время его распятия. Но в узбекском языке, по сравнению с английским и русским, такие фразеологизмы не представлены. Поэтому он переводится по-другому, но смысл тот же. В отличие от двух примеров в узбекском примере религиозное значение не наблюдается и относится к словосочетанию, а не к фразеологизму.

Ещё один пример, который также относится к частичным эквивалентам: *a leopard can't change his spots* – букрини гўр тузатар – горбатого могила исправит; Эта ФЕ также была использована в Библии: *Can the Ethiopian change his skin, or the leopard its spots? (Jer. 13:23)*[9]. Может ли Ефиоплянин переменить кожу свою и барс – пятна свои? (Иер. 13: 23)[10].

Как мы видим, примеры на узбекском и русском языках дают одно и то же значение, но со структурной точки зрения примеры на английском языке отличаются.

На английском языке существуют фразеологические единицы, как из Библии, так и из Корана. К примеру, во многих языках имеется фразеологическое выражение — *in the seventh heaven* — быть на седьмом небе — еттинчи осмонда учмоқ. Священный Коран говорит: «Он – Тот, кто сотворил для нас все, что на земле, а затем обратился к небу и сделал его семью небесами» [11]. Как мы видим, Коран является неиссякаемым источником не только мудрости, но и многочисленных фразеологических единиц которые используются на английском и русском языках.

При сравнении фразеологических единиц английского, узбекского и русского языков мы рассмотрели некоторые типы межъязыковых отношений как полные эквиваленты и частичные эквиваленты. Следует отметить, что полные соответствия встречаются редко. Иногда фразеологизмы соответствуют частичным эквивалентам в структуре фразеологизмов в их лексическом или грамматическом значении. Основной тип фразеологизмов не имеет соответствия, и поэтому мы можем использовать дословный перевод и описательный перевод. К последнему можно прибегнуть к случаю, когда фразеологизм имеет специфические национальные реалии.

Мы пришли к выводу, что фразеологические единицы часто могут переводиться эквивалентами, когда они образно близки, но отличаются по лексическому составу, морфологическому числу и синтаксическому расположению из-за частичного соответствия. Кроме того, многие английские фразеологизмы не имеют фразеологических соответствий на русском и узбекском языке. В первую очередь, это касается фразеологических единиц, которые основаны на реалиях. Обилие религиозных фразеологических единиц, отражающих духовный мир человека, говорит о том, что религиозная мораль стала нормой народной жизни, что и находит свое отражение в данных единицах.

#### Литература

1. Мечковская Н.Б. Язык и религия. М.: Агентство «ФАИР», 1998. 352 с.
2. Миркина З.А., Померанц Г.С. Великие религии мира. М., 1995. 256 с.
3. Ковшова М.Л. Анализ фразеологизмов в кодах культуры как лингвокультурологический метод исследования // Слово, фразеологизм, текст в литературном языке и говорах. Орёл, 2010. С. 87–93.
4. Бугаева И.В. Язык православных верующих в конце XX – начале XXI века: монография. М.: Изд-во РГАУ – МСХА имени К.А. Тимирязева, 2008. 240 с.
5. Григорьева Л. Л. Фразеологическая репрезентация религиозного мира человека (на материале русского, английского и арабского языков): автореф. дисс. ... к. филол. н. Казань, 2009. 21 с.]
6. Виноградов В.С. (2001). Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы) (с. 224). М.: Российская академия образования, Институт общего среднего образования.
7. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. Дубна: Феникс +, 2005. 488 с.
8. Смит Л.П. Фразеология английского языка / Пер. с англ. А.Р. Игнатъева. - М., 1959. 208 с.
9. Священный Коран. Перевод З. Буньядова, В. Мамедалиева. Баку, 2005, 678 с. Аль Бакара, 29.
10. Библия: Книги Священного Писания Ветхого и Нового Завета. В Синодальном переводе с комментариями и приложениями. М.: Рос, библейское общество, 2004. 2047 с.
11. Holy Bible: King James Version (KJV). London: Collins, 2011. 1152 p.

UDK 81'44

#### MUROJAAT LINGVISTIK TADQIQOTLAR OB'EKTI SIFATIDA

**D. A. Sulaymonova**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*awesome-ds@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada murojaat tushunchasining tilshunoslikda o'zbek va jahon olimlari tomonidan turlicha talqin qilinib, muloqotning muhim bir tarkibiy bo'lagi sifatida qaralib kelinayotganlik masalasi yoritiladi. Shuningdek, murojaatning nutqdagi ifoda ko'rinishlari o'zbek va ingliz tillari materiali orqali izohlab o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** murojaat, zvatel'niy padej, vokativlar, muloqot jarayoni, so'zlovchi, suhbatdosh.

**Обращение как объект лингвистического исследования**

**Аннотация.** В статье рассматривается вопрос о понятии обращения в лингвистике, которое по-разному трактуется узбекскими и мировыми учеными и рассматривается как важная часть общения. Выражение обращения в речи также объясняются на узбекском и английском языках.

**Ключевые слова:** обращение, звательный падеж, вокативы, коммуникационный процесс, говорящий, собеседник.

**Address as an object of linguistic research**

**Abstract.** The article discusses the issue of the concept of address in linguistics, which is interpreted in different ways by Uzbek and world scientists and is considered as an important part of communication. The expression of address in speech is also explained in Uzbek and English.

**Keywords:** address, vocative case, vocatives, communication process, speaker, interlocutor.

Insonlar o'zaro muloqotga kirishishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiluvchi til universaliyasi deya tilshunoslar tomonidan e'tirof etib kelinayotgan murojaat atamasi bir necha yillardirki, mahalliy va jahon olimlari tomonidan bir necha bahs-munozaralar shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Uzoq davr mobaynida u alohida hodisa deya tasniflanib, boshqa til birliklari asosida ishlab chiqilib, nazariyalarga muvofiq baholab kelinmoqda.

Aksariyat rus tilshunoslari "murojaat" termini 1875-yillardayoq F.I.Buslaevning "Istoricheskoy grammatike russkogo yazika" asarida birinchi marotaba qayd etilganini ta'kidlaydilar. Buslaev mazkur grammatik nashrining sintaksis bo'limida shaxslar orasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalashda jumlada qo'llaniluvchi vositalar sirasiga murojaatni ham kiritgan va aniqrog'i, "zvate'l'niy padejdagi so'zlovchi shaxsi tomonidan tinglovchining ismi bilan ifodalanadigan murojaat" deya ta'rif beriladi [4, 31-32].

Murojaat tadqiqi borasida e'tiborlisi shu bo'ldiki, rus tilshunoslari fikriga zid ravishda ingliz olimi Jakob Mey "Concise Encyclopedia of Pragmatics" lug'atida "murojaat" atamasi an'anaviy lingvistikaga rus olimi Mixail Baxtin tomonidan kiritilganligini, murojaat nutq manbalari-lug'aviy ma'nolarni, grammatika, sintaksis, kontekst qoidalari-barchasini o'z ichiga olgan holda ularni so'zlarda aks ettirishini qayd qilib o'tadi [14, 13].

Mixail Baxtinning 1986 yil nashr etgan asaridagi ta'rifga etiborni qaratadigan bo'lsak, muallif nutqning muhim (tarkibiy) xususiyati uning kimgadir murojaat qilinishida, uning kimgadir yo'naltirilganligidadir deb hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda, har qanday nutq o'z muallifi va qabul qiluvchisiga ega ekanligi, til tizim sifatida rasmiy murojaatni ifodalash uchun katta qamrovli til vositalari: leksik, morfologik va sintaktik vositalarga boyligini ta'kidlab o'tadi [3, 471].

Biroq, unga qadar grammatik asarlarda "murojaat" atamasi zvate'l'niy padej tarzida uchray turgan va qadimgi rus tilida sintaktik vazifani ifodalovchi morfologik vosita sifatida xizmat qilgan, keyinchalik F.I.Buslaev grammatikasida "murojaat" nomini olgan. Bundan ko'rinib turibdiki, biz ham haqli ravishda "murojaat" termini ilk bor tilshunoslikka F.I.Buslaev tomonidan kiritilgan deya olamiz.

Zvate'l'niy (vokativ) padej borasidagi dastlabki g'oyalar rus tilshunoslari L.V. Lomonosov, A.X.Vostokov, A.A.Shaxmatovlar ishlarida ilgari surilgan. Bu doiradagi tadqiqotlar bir necha yillar mobaynida jahonning turli tilshunoslari tomonidan o'rganilib kelindi.

Ensiklopedik lug'atda berilgan ta'rifga ko'ra, zvate'l'niy padej so'zning tom ma'nosida haqiqiy kelishik emas, u jumladagi boshqa bo'laklarga nisbatan sintaktik munosabatdan tashqarida turadi [6].

V.V.Ivanov grammatikasida berilgan ma'lumotda qadimgi rus tilida boshqa kelishik shakllardan farqlanuvchi alohida zvate'l'niy shakl mavjud bo'lgan va u yozma yodgorliklarda qayd etilgani ko'rsatilgan. Shuningdek, XIV-XV asrlarda mazkur shakl yo'qolib, rus grammatikasida uning hech qanday belgisi saqlanib qolmaganligi, zvate'l'niy shakl yoki murojaat sifatida endilikda bosh kelishik shakllari ishlatilayotganligi borasidagi fikrlar izohlab o'tiladi [7, 273].

Yuqoridagi zvate'l'niy padejga berilgan ta'riflardan anglashilishicha, u qadimgi rus va slavyan tillarida murojaat termini yuzaga kelgunga qadar ishlatilib kelingan, farqli jihati shundaki, boshqa kelishiklar kabi alohida semantik ma'noga ega bo'lmaganligi sabab grammatik olimlar tomonidan yettinchi kelishik deya tan olinmagan va zvate'l'niy shakl o'z ahamiyatini yo'qotgan.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, "murojaat" termini "apellyativ", "vokativ", "adresativ" kabi bir necha sinonimlar orqali ham talqin etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur atama yagona bir qat'iy nomga ega emas.

O.S.Axmanova tahriri ostidagi lingvistik atamalar lug'atiga ko'ra, vokativlar gapirilayotgan shaxs e'tiborini tortish maqsadida ishlatilishi, rasman ular jumladagi so'z yoki so'z birikmasi tarkibiga kiritilmasligi izohlab o'tiladi [2, 83].

V.I.Karasik esa vokativlar haqida quyidagicha fikr yuritadi: "Murojaat sifatida ishlatiladigan so'zlar faqatgina so'zlovchining qabul qiluvchiga munosabatini ifodalamay, balki so'zlovchining o'zi, ijtimoiy mavqaida o'zini tutish qobiliyati borasida ham ma'lumotlarni etkazib beradi. Vokativlar barcha tillarda mavjud, xususan, ular tillarning milliy va madaniy xususiyatlarini aks ettiradigan murakkab tarkibiy tuzilishga egadir" [8, 219].

Endi e'tiborimizni "murojaat" atamasi borasidagi ta'riflarga qaratamiz. Rus tilshunosi V. Goldin ta'riflaganidek, murojaat universal xarakterning inson muloqotiga xizmat qilishi uchun, muloqot sub'yekti va nutq o'rtasida aloqa o'rnatish uchun, aloqaning turli jihatlari va tarkibiy qismlarini yagona nutq aktiga birlashtirishni faollashtirish uchun tilda ishlab chiqilgan asosiy vositasidir. Shu qatorda u muhim kommunikativ yukni ko'taruvchi va to'g'ridan-to'g'ri muloqot jarayonida bir qator nutqqa xos vazifalarni bajaradi [5, 4].

F. Braun turli tillardagi murojaatlar muammosiga bag'ishlangan monografiyasida qayd etilishicha, murojaat atamasi so'zlovchining suhbatdoshiga nisbatan lingvistik munosabatini anglatadi. Shuningdek, u o'zaro munosabatlarni ochish yoki dastlabki aloqani amalga oshirishning lisoniy vositalarini o'z ichiga olmaydi. Murojaat shakllari aloqa o'rnatish uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin, ammo ko'pincha boshqa shakllar ishlatiladi. Murojaatlar nafaqat so'zlovchining qabul qiluvchiga bo'lgan munosabatini namoyish etibgina qolmay, balki qabul qiluvchining o'zi, uning ijtimoiy mavqei, tarbiyasi, shaxsiy fazilatlar va hokazolar to'g'risidagi ma'lumotlarni ham qamrab oladi [13, 36].

Murojaat aloqaning muhim tarkibiy qismidir, chunki vaziyatga qarab murojaat kommunikatsiyaning samaradorligini aniqlashi yoki bo'lmasa muvaffaqiyatsiz muloqotning sababi bo'lishi mumkin. N. I. Formanovskayaning so'zlariga ko'ra, "kommunikativ jarayonlarda murojaat eng muhim aloqa o'rnatish funksiyasini bajaradigan muloqot birliklaridan biri hisoblanadi" [12, 84].

O'zbek tilshunosligida murojaat tushunchasi "undalma" termini orqali anglashiladi. Undalmalar so'zlashuv uslubigagina xos bo'lib, boshqa nutq uslublarida shu uslubning in'ikosi sifatida ishlatiladi. Buning sababi shundaki, undalma ishtirok etgan gapda, albatta, tinglovchi bo'lishi shartdir. Bu esa undalmalarning til hodisasi emas, sof nutq hodisasi ekanini ko'rsatadi.

"Gapning uchinchi darajali bo'lagi" deya o'zbek olimlari tomonidan talqin etilgan sintaktik birliklardan biri hisoblangan undalmalar borasida ham o'ziga xos davriy qarashlar kuzatiladi. XX asr boshlarida A. Fitrat tomonidan chop etilgan "Naxv (Sintaksis)" asarida undalmaga quyidagicha ta'rif misoli bilan izohlab o'tiladi: "Gap kimgadir qaratib aytilgan bo'lsa, shuning oti gapning bosh tomonida yo orasida, yo oxirida aytilsa, ana shunday gapga undashli gap va shul otning o'zi "undash oti" bo'ladi: *Yigitlar, qo'lingizdan kelgancha bilimingizni orttiringiz*" [11, 205-206].

Ko'rib turganimizdek, A. Fitrat "undash ot" atamasi orqali hozirgi tilshunoslikda mavjud bo'lgan undalmaga ta'rif keltirgan va qo'llanilgan misoldagi "yigitlar" so'zi esa undashli gapning undash oti ya'ni undalmasi vazifasida kelgan.

O'zbek tilshunosi G'ani Abdurahmonov qayd etishicha, undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan, boshqa bir shaxs yoki predmetni ifodalagan so'z yoki so'z birikmasidir. Undalma bosh kelishidagi ot yoki ot ma'nosidagi so'zlar orqali ifodalanib, gapning umumiy mazmunini to'ldiradi, gapning kimga qarashli ekanini ko'rsatib turadi Undalma dialogik nutqda, monologda, muallif nutqida, murojaat, shior, buyruq, chaqiriq, e'lonlarda ishlatiladi: — *Otajon deyman, o'yinga usta ekansiz-ku,- dedi O'rmonjon kulib. — Shuni aytgin, o'g'lim, o'yinga usta ekanman. Bir menmi? Shu odamlarga ham o'yin-kulgi yarashar ekan-ku!* — *Bu odamlarga juda-juda ko'p narsalar yarashadi, otajon. (A. Q.)* [1, 95-96]

Aytish joizki, an'anaviy o'zbek tilshunosligida ham undalmalar olimlarimiz tomonidan bir necha talqinda ko'rib chiqilib, yillardirki bu boradagi tadqiqotlar -undash munosabatiga oid bahslar davom etib kelmoqda.

Murojaat nutqda so'zlovchi va uning suhbatdoshi o'rtasidagi muloqotdan va vaziyatdan kelib chiqqan holda turli ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin bo'ladi:

- so'zlovchining oila a'zolari bilan suhbatida;  
o'zb.t.: *Bolaginamga so'yib bering. Yesin. Tursunboy, bolaginam, qanisan? Dadang handalak olib keptilar, yeb olgin, bolaginam* [9, 9].  
ing.t.: "Well, cousin," she said, laughing, "and how can I be of service to you?"
- barcha tillarda keng tarqalgan antroponimlarni qo'llash yordamida;  
o'zb.t.: *Tanishing, Berkinboy aka, Hamid Olimjon degan shoir shu yigit bo'ladi* [9, 66].  
ing.t.: *Come with me, Maxime; I have something to say to you.*
- ijtimoiy, siyosiy, kasbiy mavqei va unvoniga xos xususiyatlarni anglatganda;  
o'zb.t.: *Rais buva, bu atlasning nomi nima?* [9, 161].  
ing.t.: *Ah! my good neighbor, I am as much a son and brother as you are a father.*
- suhbatdoshining yoshini inobatga olgan holda murojaat yo'llashda:

o'zb.t.: *Ummatali amaki, tez uyga borarkansiz. O'g'lingiz mahallani boshiga ko'tarib aravakashlar bilan mushtlashyapti* [9, 17].

ing.t.: *"That's the way, young man," returned he of the forty years and the dyed whiskers*

- turli jinsdagi insonlar bilan muloqotga kirishganda;

o'zb.t.: *Janob, hujjatlarinigizni xonada qoldirdim.*

ing.t.: *Nothing whatever, madame," he answered; "on the contrary, it is made of the best quality of corn; flour from Etampes.*

• suhbatdoshining tabiati, o'zini jamiyatda tuta olish qobiliyatiga, adresatning adresantga munosabatini baholashda: [10, 19].

o'zb.t.: *Qizni top, nomard! O'ynashi bor singlingni menga pullamoqchimiding. Xotinimni top!* [9].

ing.t.: *"Dear me, why should I want anything better?" he replied, with seeming carelessness.*

- so'z birikmasi ko'rinishida;

o'zb.t.: *E, nodon xotin, menda pul nima qiladi. Sigir-buzoqni sotaman* [9, 33].

ing.t.: *"You are very dull, my lord Marquis," said Vautrin, with one of the shrewd glances that seem to read the innermost secrets of another mind.*

Muloqot jarayonida adresatga to'g'ri murojaat qila olish bu inson nutqining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Murojaatning har qanday turi uni faqatgina qabul qiluvchisiga yetkazishni tashkillashtirishdan iborat bo'libgina qolmay, balki odob-axloq me'yorlariga rioya etgan holda suhbat chog'ida adresat bilan og'zaki nutqni mazmunli va samarali tus olishiga zamin yaratishdan iboratdir.

Shunday qilib, murojaatga biz til universalialaridan biri sifatida e'tibor qarata olamiz, garchi u yaqin davrlargacha tilshunoslikda muhim muammolar sirasiga kiritilmagan bo'lsa-da. Vaholanki, murojaat nutq faoliyatini to'g'ri tashkil etib, uning faol jarayonga aylanishida asosiy omillar sifatida muhim til birligi funksiyasini bajarmoqda.

### Adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi: (Sintaksis). — T.: O'qituvchi, 1996.—248 b.
2. Axmanova, O.S. Slovar' lingvisticheskix terminov / O.S. Axmanova. — M.: URSS, 2004. — Izd. 5-e. — S.83.
3. Baxtin M.M. Literaturno-kriticheskiye stat'i. — M.: Xudojestvennaya literatura, 1986, 543 s.
4. Buslaev, F.I. Istoricheskaya grammatika russkogo yazika / F.I. Buslaev. — M., 1959. S. 31-32.
5. Goldin V. E. Obrasheniye: teoreticheskkiye problemi. Saratov, 1987
6. Zvatelniy padej // Ensiklopedicheskiy slovar' Brokgauza i Efrona : v 86 t. (82 t. i 4 dop.). — SPb., 1890—1907.
7. Ivanov V.V. Istoricheskaya grammatika russkogo yazika. M., 1990, S. 273.
8. Karasik, V.I. Yazik sotsialnogo statusa / V.I. Karasik. — M.: Gnozis, 2002a. — 333 s.
9. S. Ahmad. Ufq (Trilogiya). — T.: G'.G'ulom, 1976. -685 b.
10. Serebrennikov A.M. Yazikovaya nominatsiya. M., 1982. — S. 19.
11. Fitrat. Tanlangan asarlar. IV tom. — T.: Ma'naviyat, 2006. -336 b. B. 205-206.
12. Formanovskaya N. I. Obrasheniye s tochki zreniya kommunikativno-pragmaticheskogo podxoda / N. I. Formanovskaya // Spetsializirovanniy vestnik KrasGU. — 2000. — Vip. 11. — S.84.
13. Braun, F. Terms of Address: Problems of Patterns and Usage in Various Languages and Cultures / F. Braun. — Berlin: de Gruyter, 1988. — 372 p.
14. Concise Encyclopedia of Pragmatics, second edition/ Jacob L. Mey.- Oxford: Elsevier Ltd, 2009.- 1183p.

UDK: 81.26

### OMONIM SO'ZLARNING TARJIMADAGI ROLI

A. M. Timirov

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada omonim so'zlarning tarjima-dagi roli haqida fikr yuritildi. Tarjimada, shu jumladan xorijiy tilni o'rganayotgan paytda ba'zi bir murrakkab holatlarga duch kelamiz. Bunday qiyin holatlardan chiqishning eng muqobil uslublarini, misollar yordamida yoritib berishga harakat qilindi. Ayniqsa, maxsus mutaxassislikka oid matn tarjimalarida, grammatik tahlil va qiyosiy tarjima juda muhim ekanligi ko'satib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** ot, kul, yuz, qirq, tahlil, gayka(yong'oq), yorug'(yengil), ishqiboz, (parrag, tex. vo s.) parcha (quvur)

### Роль одноименных слов в переводе

**Аннотация.** В данной статье обсуждается роль одноименных слов в переводе. При переводе в том числе при изучении иностранного языка мы сталкиваемся с некоторыми сложными ситуациями. Были предприняты попытки проиллюстрировать наиболее альтернативные способы решения таких сложных ситуаций с помощью примеров и методы перевода.

**Ключевые слова:** лошадь, пыл, стрелять, смеяться, лицо, резать, орех, свет, лёгкий, отрывок, канализация

### The role of homonymous words in translation

**Abstract.** The role of homonymous words in translation are discussed in this article. When learning a foreign language, or in translation, we encounter some complex situations. Attempts have been made to illustrate the most alternative ways of dealing with such difficult situations with the helping of examples of the translation methods.

**Keywords:** horse, name, noun, laugh, ashes, face, surface, cut, forty, nut, fan, passage;

Mavzu yoki matnni tarjima qilqanda biz gaplarning sintaktik va semantik strukturasi va gaplarning tartibiga e'tibor berishimiz zarur. Chunki tarjimada bu juda muhim. So'z tartibi boshqa tillarda bo'lgani kabi ingliz tilida ham o'ziga hos xususiyatga ega. Ingliz tilida so'z tartibi juda qat'iy, ya'ni hammamizga ma'lum, ega va kesim tartib bilan keladi. O'zbek tilida bir muncha boshqacha. Kesim gapning oxirida ham keladi, ingliz tilidagi kabi so'z tartibi juda qat'iy emas.

Muddao shundaki tarjimada bu ko'p narsani aniqlaydi. Omonim so'zlarni ingliz tilidan tarjima qilganda, albatta aniqlab kelgan so'z brikmalarga yoki birikib kelgan so'zlarga e'tibor qaratiladi. Biz bilamizki ingliz tilida ommonim so'zlarni ko'p hollarda fe'l yoki sifatdosh, ravishdoshlar aniqlab keladi. Ozbek tilida ham shunday, biroq gaplarning tartibi farq qiladi, shuning uchun ham omonim so'zlarni tarjima qilganda qiyosiy tarjimaga murojaat qilgan maqul.

Tarjimada o'zbek tilidagi omonim so'zlar, ingliz tilidagi omonim so'zlarga mos kelavermaydi. Misol;

Qirq-(biron narsani kesib olish), ikkinchi ma'nosi qirq - (son so'z turkumi)

Vaholanki "qirq" so'zi "Ingliz tiliga tarjima qilinganda" "forty" yoki "cut" bo'ladi, ammo biz bilamizki bu so'zlar ingliz tilida omonim bo'la olmaydi. Demak, ommonim so'zlarni tarjima qilganda qiyosiy tarjima juda muhim ekanligini anglab yetamiz.

Agar tarjimada ommonim so'zlarning asl mohiyatini anglab yetmasa, matn tushinarsiz ahvolga kelib qoladi. Hamma tillarda omonim so'zlar mavjud va ular gaplarning tarkibiy qismida tutgan o'rniga va funksiyasiga, birikib kelgan so'z brikmalarining mazmuniga qarab aniqlanadi, bunda sifatdosh, ravishdoshlar gaplarning sintaktik yoki semantik strukturasi ifodalab keladi bular hammasi omonim so'zlarni aniqlashga yordam beradi.

Misol tariqasida "ot" so'zini ko'rib chiqamiz;

I. Aytilgan so'z otlangan o'q. "Otilgan" - ravishdoshining asl mohiyatini "o'q" so'zi ochib beradi. Demak "o'q" so'zining grammatik tahlili "ot" so'zining mazmun, mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, omonim so'zlar gapda ega vazifasida kelganda, uning asl ma'nosini kesim aniqlaydi;

Otlar uyur-uyur bo'lib o'tlab yuribdi, ba'zilar to'da-to'da bo'lib turibdi. Ikkinchi misolda ko'rib turganingizdek, "Ot" – ot so'z turkumi, "o'tlab yuribdi" – kesim vazifasida "ot" so'zining hayvonga mansub ekanligini ko'rsatadi.

Ular chaqaloqqa mard bo'lsin deb, Jasur deb ot qo'yishdi.

Bu gapda esa "Jasur" ismi, "ot" – so'zining asl ma'nosini ko'rsatadi. Bilganimizdek ism predmetning nomini bildirib keladi. Ismlar, nomlar atoqli ot bo'lib, hayvon turiga mansub bo'lgan "ot" so'zidan ajratib olish mumkin bo'ladi. Shu o'rinda navbatdagi misolga to'xtalamiz:

U mo'ljalga oldi va bor kuchi bilan toshni otdi.

Bu misolda "ot"- so'zining harakatni ifodalab kelayotganini "tosh" so'zi ko'rsatadi. "Tosh" – ot so'z turkumi bo'lib, gapda to'ldiruvchi vazifasida va "ot" – so'zining asl mohiyati fe'l so'z turkumidagi kesim ekanligi ko'rinadi. Fikrimizning isboti sifatida yana bir qancha misollarga to'xtalamiz.

II. U darmonsizlikdan gandarab ketdi va yuz tuban yiqildi.

Bu gapda "yuz" – aft, bashara ma'nosida ekanligini, "yiqildi"- fe'li ko'rsatadi. Harakatni ifodalab kelgan kesim, ayni bir paytda "yuz" so'zining aniq ma'nosini ham ko'rsatadi.

Bola sanab keldi-da, yuzga kelib adashib ketdi.

Bunda esa "yuz" omonim so'zi, son so'z turkumi vazifasini bajarib kelayotganini "sanab" so'zi ko'rsatadi. Bizga ma'lum raqamlar sanaladi.



Idishning yuzi eskirib qolgan edi.

“Yuz” - omonimi bu gapda idishning sirtqi qismi manosida ekanini ”idish” so’zi ko’rsatdi. Insonning yuzi eskirib qolmasligini biz bilamiz va navbatdagi misolga etiborimizni qaratamiz.

III. Yonib bo’lgan ko’mirdan qolgan kul, yengil shabada ta’sirida atrofga sochilib ketdi.

“kul” so’zining gapdagi muqobil ma’nosini “ko’mir” so’zi ifodalaydi. Tafakkurimizda olovda yonib bo’lgan ko’mirning qoldig’i namayon bo’ladi. Boshqa bir ma’nosini quyidagi misolda ko’ramiz;

Xursand bo’lib kul, toki ichingda g’ubor qolmasin.

Bu yerda “kul” – so’zining tub ma’nosini ”xursand bo’lib”- so’z brikmasi ifodalaydi. Bu insonning ichki his-tuyg’u, ko’tarinki kayfiyati ifodasidir.

Demak ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilishda, ayniqsa omonim so’zlarning matndagi tarjimasi, tarjima qilinayotgan tilni ham chuqur bilishni taqazo etadi. Yuqorida ko’rib chiqqan misollar buning yaqqol isbotidir. Mutaxassislikka oid fanlardagi yoki maxsus kasbga doir tarjimalar fikrimizni yanada oydinlashtiradi. Buni ingliz tilidagi bir qancha misollarda ko’rib chiqamiz.

I. There are nuts and some sweets on the plate.

Gapdagi “nut” so’zi hayotimizda tez-tez uchrab turadigan va dasturxonimizni bezaydigan mevalardan biri tafakkurimizda gavdalanadi. ”On the plate” so’z brikmasi “nut” so’zining tub ma’nosini ochib beradi. Endi “nut” so’zining mutaxassislikka oid matn tarjimasiga to’xtaladigan bo’lsak vaziyat ancha keskinlashadi;

In some cases, in addition to an ordinary nut being fitted to a bolt, another nut is fitted, to provide extra security.

”Nut”- so’zini bu misolda “yong’oq” deb tarjima qilib bo’lmaydi, bunday paytda bizga grammatik tahlil va qiyosiy tarjima qo’l keladi. ”Fitted to a bolt” - so’z brikmasi “nut” - so’zining asl mohiyatini ifodalaydi. Muhandislarga tanish bo’lgan “gayka” so’zini “bolt” so’zi to’ldirib keladi va uning matndagi mazmunini ochib beradi. Shunga monand quyidagicha tarjima qilishga jazm qilamiz;

“Ba’zi hollarda boltga odatdagidan tashqari, qo’shimcha gayka o’rnatiladi havfsizlikni yanada mustahkamlash maqsadida”. Agar “nut” – so’zining asl ma’nosi topilmasa mazmun tushinarsiz ahvolga kelib qoladi.

Bu jarayon mutaxassislik fanlarida yoki maxsus kasbga oid matn tarjimalarida yanada murakkablashadi. Quyidagi misolda masala oydinlashadi:

He rose his head in silence but he said nothing.

Misolda ko’rib turgnimizdek “head” inson tanasining bir qismi ekanligini ”he rose” gap bo’lagi orqali tushinib yetsa bo’ladi, “in silence” to’ldiruvchi vasifasida kelib, fikrimizni yanada mustahkamlaydi. Mutaxassislikka doir matnlarda “head” boshqa bir ma’noni beradi. Albatta, yuqorida ko’rib chiqqan misollardagidek, grammatik va sintaktik tahlillar, bunday paytda bizga qo’l keladi.

There are many forms of the nuts, each of which designed for a specific purpose.

Bu gapda “head” inson tanasining bir qismi emas ekanligini “specific purpose” so’z brikmasi ifodalaydi va “head” so’zi muhandislik komponentlardan biri “gayka”ning bosh qismi ekanligini ko’rsatadi va shunga asoslanib;

“Gaykalarining turli formadagi bosh qismi mavjud, bunda maxsus maqsadlar hisobga olinadi”,- deb tarjima qilishga jazm qilamiz.

Omonim so’zlarning ingliz tilidan o’zbek tiliga qilingan tarjimalarida, grammatik va sintaktik tahlillar juda muhim ekanligi quyidagi misollarda yanada oydinlashadi, ayniqsa mutaxassislikka doir matnlarda. Bunga bir qancha misollar keltirish mumkin:

He is a football fan, for that he often goes to the football match.

“fan” – ishqiboz, jonboz ma’nosida, uning asl manosini “he” kishilik olmoshi ifodalaydi, “a football fan” so’z brikmasi fikrimizni mustahkamlaydi. Endi boshqa bir ma’nosini quyidagi misolda ko’ramiz;

As temperature rises, the inside thermostat turns on the fan only if the outside temperature is below inside temperature.

“fan”- uskunaning parragi ma’nosida ekanligini, “thermostat” – so’zi ifodalaydi, texnik uskunada “ishqiboz” bo’lmasligini tushinib yetamiz;

“Harorat ko’tarilganda ichkaridagi termostatik uskuna parragi ishga tushadi va ichkaridagi harorat mo’tadillashadi” – deb tarjima qilishimiz lozim bo’ladi.

Navbatdagi omonim so’zi bir paytda turli so’z turkumida keladi. Bunga aniqlik kiritishda bizga grammatik tahlil yordam beradi;

There was not light in the room, I couldn’t see nothing in the dark.

“light”-yorug’ ma’nosida ”room” - so’zi buni ifodalaydi, shunga asoslanib gapni quyidagicha tarjima qilamiz; ”Xonada yorug’ yo’q edi, men qorong’uda hech narsani ko’ra olmagan edim”. ”light” – gapda ot so’z turkumi vazifasida.

The light boxes were on the table. Tarjimasi: “Yengil qutilar stol ustida edi”;

“boxes” - bu gapda”light” - so’zining asl ma’nosini ochib beradi, chunki “yorug’ quti”lar bo’lmasligi tafakkurimizda o’z aksini topadi va “light” - gapda, funksiyasiga ko’ra “yengil”-manosidagi sifat otni aniqlab kelganligini anglab yetamiz. Yana shunga o’xshash bir misol;

Listen to the passage and translate.

Biz tez-tez eshitib turadigan gap ”parchani eshiting va tarjima qiling”. Fe’l so’z turkumiga oid ”translate” so’zi gapdagi “passage”- omonim so’zining mazmun-mohiyatini ochib beradi.

A bottom of the wall air passage, a triangular wall flue permits lateral movements of the air. Tarjimasi; “Devor tagidagi uchburchakli havo yo’lagi quvuridan havo o’tishi mumkin bo’ladi”.

Anglaganimizdek “passage” yuqoridagi misolda ko’rganimizdek “parcha” manosida emas, agar shunday deb tarjima qilsak, umuman gapning mazmun-mohiyatini yo’qotamiz va qiyin ahvolga tushib qolamiz. “wall air” so’z brikmasi” “passage” so’zining tarjimaga mos ma’nosini ochib beradi. Omonim so’zlarning asl ma’nosini topishda grammatik, sintaktik tahlil va qiyosiy tarjima to’laqonli to’g’ri uslub ekanligini yuqoridagi misollar ko’rsatadi. Biz o’z ona tilimizni shartli ravishda o’rganamiz, bolalikdan eshitib, his qilib va ko’rib tafakkurimizga joylaymiz. Xorijiy tilni o’rganishda va tarjima qilishda esa tahlil, qiyosiy tarjima muhim.

### Adabiyotlar

1. HVAC: Hadbook of heating, Ventilation and Air-conditioning for Design and Implementation. By Ali Vedavarz, Ph.D. PE, Deputy director of Engineering, New York City housing Authority and Industry Professor. 2013, 998 pp.
2. Ingliz va Uzbek tillari qiyosiy grammatikasi. J. Bo’ronov, Toshkent -1973., 70 bet.
3. Английский язык. Ю. Голицынский – 2013, С. 300.

УДК: 491.7

### ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ГРАММАТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРЕДЛОЖЕНИЯ

С. О. Сагтарова, Д. Р. Туйчиева

*Самаркандский государственный университет*

*Ilhom70@bk.ru*

**Аннотация.** Основная мысль современного учения о предложении — это утверждение его сложного, многоаспектного, многопланового характера. При изучении предложения можно обращать внимание на его отдельные стороны, например на форму главных членов, на порядок слов, на интонацию и т. д. Любое предложение представляет собой единство конкретного содержания и абстрактной грамматической формы.

**Ключевые слова:** Предложение, речь, мысль, содержание, абстракт, модальность, аспект, грамматика, предикат, форма.

#### Gapning grammatik xususiyatlarini o’rganishning asosiy jihatlari

**Аннотация.** Gap haqida zamonaviy ta’limotning asosiy g’oyasi – bu uning murakkab, ko’p jihatli, ko’p rejali tusda ekanligini ta’kidlanishidir. Gapni o’rganishda uning alohida tomonlariga, ya’ni bosh bo’laklarining shakllariga, so’zlar tartibiga, ohangiga va h.k. asosiy e’tiborni qaratish mumkin. Har qanday gap o’zida aniq mohiyat va abstrakt grammatik shaklning birligini namoyon etadi.

**Калитso’zlar:** Gap, nutq, g’oya, mohiyat, abstrakt, modallik, jihat, grammatika, predikat, shakl.

#### Main aspects of studying the grammatical features the sentence

**Abstract.** The main idea of modern study about sentence is statement of his complex, multi-aspect, melt character. At studying of sentence must draw attention to his separate sides, for example: on the form if the main members, on the word order, on the intonation and e.t.c. Any kind of sentence represents unity of specific content and abstract grammar form.

**Keywords:** sentence, speech, idea, content, abstract, modality, aspect, grammatik, predicate, form.

Предложение - важнейшая единица речи. Нельзя овладеть речью, не умея строить предложения. «Всякая речевая деятельность заключается в образовании предложений» Только с помощью предложения оформляется и выражается мысль. Сообщение мысли собеседнику, выражение вопросов и ответов, передача побуждения - общение людей друг с другом, невозможны без предложения.

Предложение занимает центральное место в грамматической системе языка; слово с его лексическими и грамматическими значениями и формами служит для построения предложений.

Основная мысль современного учения о предложении - это утверждение его сложного, многоаспектного, многопланового характера. При изучении предложения можно обращать внимание на его отдельные стороны, например, на форму главных членов, на порядок слов, на интонацию и т. д. Но в каждом предложении все его стороны неотделимы друг от друга, неразрывны. Остановимся более подробно на этом положении.

Предложение выполняет в речи две важные роли. Во-первых, оформляет мысль - это функция выражения. Во-вторых, с помощью предложения мысль передается - это функция сообщения (коммуникативная). В определенных условиях употребления конкретного предложения одна из функций может оказаться более важной, чем другая. Так, при выражении побуждения на первый план выдвигается коммуникативная. Напротив, размышления человека наедине с собой (оформленные устно или письменно) определяют преобладание функции выражения: «Куда, куда вы удалились, весны моей златые дни? Что день, грядущий мне, готовит?» (А.С.Пушкин. Евгений Онегин). Однако и в указанных случаях другая функция только отодвинута, заслонена либо представлена потенциально: нельзя сообщить мысль, не выразив ее; выражение в предложении мысли «для себя» означает и возможность восприятия ее другим человеком, то есть потенциальное сообщение.

Любое предложение представляет собой единство конкретного содержания и абстрактной грамматической формы. Содержание определяется отбором слов, соотношением их смысла, для каждого предложения оно индивидуально, неповторимо. Грамматическая форма является общей для множества предложений, повторяется в них, воспроизводится. Предложения День был пасмурным; Море было спокойным; Встреча была короткой имеют различное содержание, но тождественны по форме. Между содержанием и грамматической формой нет органической связи. Не только разные по содержанию предложения могут иметь одинаковую форму, но и, наоборот, одно и то же содержание может быть передано предложениями различной формы: Волна опрокинула лодку; Волной опрокинуло лодку; Лодка была опрокинута волной.

Содержание предложений бесконечно разнообразно, поэтому конкретные предложения нельзя перечислить, установить их существующее или возможное количество. Содержание предложений не рассматривается в грамматической науке. Грамматика, синтаксис изучают структуру, форму предложения.

Таким образом, в каждом предложении, прежде всего, нужно видеть две стороны: содержание (высказывание) и грамматическую форму.

Обобщенный, абстрактный характер грамматической формы позволяет изучать эту сторону не в каждом отдельном предложении, а устанавливая типы предложений.

Тип предложения - это тождественная грамматическая форма, которая проявляется, реализуется во множестве конкретных предложений. В небе прогремело; Пахло цветами; В щель дуло; Ветром повалило сосну относятся к типу безличных предложений.

При отнесении конкретных предложений к тому или иному типу не учитываются, игнорируются частные, особенные черты их строения. Анализируя форму предложения «Я не скоро, не скоро вернусь» (С.Есенин. Я покинул родимый дом...) - предложение двусоставное, глагольное, с обстоятельством времени, - можно не придавать значения повтору не скоро, не скоро, а для содержания высказывания этот лексический повтор очень важен.

Сложный, многосторонний характер предложения, наличие в нем конкретного и абстрактного, отдельного и общего, выполнение предложением двух важнейших функций - все это показывает, что в предложении проявляется несколько аспектов. Основными, на наш взгляд, являются: а) грамматический, б) логический, в) актуальный.

Грамматическая сторона предложения - это его форма, структурный тип, синтаксическое членение (наличие членов предложения, определенным образом-связанных друг с другом). Грамматический аспект предложения имеет свою внутреннюю (грамматическое значение) и внешнюю сторону (грамматические показатели).

Основное грамматическое значение предложения - предикативность. Она складывается из трех частных значений - времени, модальности, лица.

Синтаксическое время - это отнесенность высказывания к моменту речи. С помощью грамматических показателей выражается совпадение высказывания с моментом речи (настоящее время: Солнце сияет; Я молод; Мой брат — учитель; Тишина) утверждение высказывания как предшествующего (прошедшее: Солнце взошло; Я был молод; Отец Ломоносова был рыбак; Рассвело)

или последующего (будущее: Солнце взойдет; Я буду учителем.) Наконец, высказывание может быть представлено как вневременное, не соотнесенное с моментом речи: Насильно мил не будешь; От добра добра не ищут; Курить - здоровью вредить.

Модальность - это оценка говорящим высказывания как реального, соответствующего действительности (Это врач; Разговор откладывается) или нереального, не соответствующего действительности, а только предполагаемого, желаемого или требуемого (*Это врач? Отложить бы разговор до вечера; Отложим разговор до вечера*).

Синтаксическое лицо - это отнесенность высказывания к говорящему (первое лицо: Я не скоро вернусь), к собеседнику (второе: Ты молчишь? Тебе больно?) или к остальным лицам, к предметам, не участвующим в общении (третье: Она была бледна; Птицы поют; Кругом тишина).

Предикативность как совокупность синтаксических значений времени, модальности и лица представляет собой отнесенность высказывания к действительности. Выражение предикативности грамматическими средствами (формами слов, интонацией) есть грамматическая форма предложения.

Предикативность может быть выражена разными способами, поэтому предложения имеют существенные различия в грамматической форме. На основании этих различий противопоставляются грамматические типы предложений.

Учение о типах предложений - особый раздел синтаксической науки, рассказать о нем в этой статье нет возможности. Ограничимся одним примером.

Основные грамматические типы предложений в русском языке - двусоставные и односоставные. В двусоставных предложениях опорой предикативности являются два главных члена - подлежащее и сказуемое (Огни зажглись; Море было спокойно; Я пионер). В односоставных предложениях один главный член, употребление второго невозможно (В доме зажгли огни; В комнате было тихо; Здесь не пройти).

**Логический аспект** предложения - выражение основных элементов формы мысли. Бесконечное разнообразие мысли проявляется в содержании ее. Формы мысли универсальны. В строении мысли повторяются общие черты. Здесь главные элементы - субъект и предикат (иначе: предмет мысли и высказывание о нем).

Между основными элементами грамматической формы предложения (членами предложения) и основными элементами логической формы мысли нет тождества, нет постоянного и строгого соответствия. В одних случаях грамматическая схема «подлежащее - сказуемое» и логическая «субъект - предикат» в конкретном предложении совпадают: «Грушицкий - юнкер» (М.Ю.Лермонтов. Герой нашего времени). В других - одна и та же грамматическая форма предложения может быть использована в конкретных предложениях для выражения разных мыслей и одни и те же члены предложения будут соответствовать разным элементам формы мысли. В предложении Отец приехал подлежащее отец обозначает субъект, сказуемое приехал - предикат, однако в ином контексте (Кто приехал? Приехал отец) субъект соответствует сказуемому; предикат - подлежащему (суждение: «Приехавший есть отец»).

Основные средства выделения в предложении элементов формы мысли - интонация (логическое ударение, паузы) и порядок слов. Эти средства могут варьировать грамматическую форму в разных конкретных предложениях. Самый типичный пример варьирования - перемещение логического ударения в пределах предложения. При этом основные черты грамматической формы не меняются (члены предложения, их отношение друг к другу), изменяется только интонация. Но для логического членения, для выражения основных элементов формы мысли изменение интонации является решающим средством. Перенос логического ударения на новое слово позволяет выразить новое суждение, изменить предмет мысли и высказывание о нем.

В предложении Отец вернулся вчера утренним поездом при основном, нейтральном строении интонации, без резкого выделения отдельных слов, субъект представлен подлежащим отец, остальной состав предложения выражает предикат, то есть содержит высказывание о предмете мысли. С помощью логического ударения можно изменять логическую форму мысли: выделяемое слово будет соответствовать предикату. Логическое выделение подлежащего отец в качестве предиката создает суждение «Приехавший вчера утренним поездом есть отец». Соответственно изменится форма мысли при переносе логического ударения на слова вчера, утренним, поездом.

Таким образом, на вопрос, изменяется ли предложение при перемещении логического ударения, ответ не может быть однозначным. Одна сторона предложения - грамматическая форма - не изменяется. В другом отношении (в логическом аспекте) получаемые единицы будут различными, будут соответствовать разным суждениям.

Логический аспект предложения до сих пор мало изучен. Многие вопросы очень сложны. Например, трудно установить особенности выражения формы мысли (в частности, субъекта и предиката) в таких односоставных предложениях, как Светает; Тишина; От судьбы не уйдешь. Сложность вопроса усугубляется тем, что он затрагивает две науки - лингвистику и логику. Лингвисты охотно уступают его философам, логикам, а философы - лингвистам.

**Актуальный аспект** - это та сторона предложения, которая отражает употребление его в речи, в определенной обстановке, в окружении других предложений, это выделение в предложении той части, того элемента высказывания, которые говорящий считает основными для передачи сообщения, содержащими новое, неизвестное собеседнику. Эта часть обычно выделяется в предложении относительно другой, которая является основой для выражения нового, содержит уже известное. «Да уж чего хорошего, коли любимое забыл. В любимом - вся душа...» (М.Горький. На дне.). В выделенном предложении первая часть (в любимом) содержит известное (о нем говорилось в предшествующем предложении), вторая (вся душа) - новое.

Расчленение предложения по указанному принципу получило в лингвистике название «актуального членения» («коммуникативного», «смыслового членения»), а представление части предложения как несущей новой называют «актуализацией». Для обозначения двух элементов актуального членения предложения употребляется несколько терминов: основа - ядро, тема - рема, данное - новое и другие.

«Данное» и «новое» - являются соотносительными, предполагают друг друга. Это необходимые звенья высказывания в речи: сообщение (коммуникация) идет от известного («данного») к неизвестному («новому»). Предложение как единица общения обязательно несет в себе новое, без этого не может быть осуществлена коммуникативная функция (сообщения). Поэтому любое предложение или членится на «данное» и «новое», или содержит только «новое».

Таким образом, в изучении актуального аспекта особенно важны два вопроса - о способах, средствах актуального членения и о соотношении его с грамматической формой предложения.

### Литература

1. П.А.Лекант. Издательство «Наука». Москва. 1995 г., с.69.
2. Русский язык. Энциклопедия. М.1989г., с.670.
3. Грамматика современного русского литературного языка, М., «Наука», 1990 г., с.516.

UDK: 491.3:49

### FRAZEOLOGIK VA PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR SEMANTIKASIDA TARIXIY IJTIMOY VOQEALAR (ingliz va o'zbek tillari misolida)

S. T. Xudoyorova

*Samarqand davlat chet tillar instituti  
safuraxudoyorova@yandex.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola ingliz va o'zbek xalqlari tarixidagi ijtimoiy voqea-hodisalar, madaniy-tarixiy o'ziga xosliklarni ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada bayon qilingan nazariy qarashlar bir qator ingliz va o'zbek iboralari va maqollari misolida dalillangan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tuzum, tarix, tarixiy fakt, jamiyat, frazeologik birlik, paremiologik birlik, madaniy, semantika.

### Исторические общественные события отражающие в семантике фразеологических и паремнологических единиц (на примерах английского и узбекского языков)

**Аннотация.** Статья исследует английские и узбекские фразеологические и паремнологические единицы, отражающие историю, социальные и культурные особенности английского и узбекского народов. Теоретическая часть статьи подтверждается соответствующими примерами английских и узбекских выражений и пословицы.

**Ключевые слова:** социальная система, история, исторический факт, общество, фразеологическая единица, паремнологическая единица, культурный, семантика.

### Historical social events reflected in the semantics of phraseological and paremiological units (on the examples of English and Uzbek languages)

**Abstract.** The article deals with English and Uzbek phraseological and paremiological units which reflect historical background, social and cultural peculiarities of English and Uzbek people. Theoretical part of the article is proved by corresponding examples of English and Uzbek set expressions and proverbs.

**Keywords:** social structure, history, historical fact, society, phraseological unit, paremiological unit, cultural, semantics.

Ma'lumki, har bir millatning madaniyati, tarixi va urf-odatlarini uning tili va adabiyotida aks etadi. Til va adabiyotning rivojini ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijtimoiy tuzum, ma'lum sohalarning rivoji, urushlar va

ijtimoiy islohotlar tilning leksik qatlamiga o'z ta'sirini o'tkazib, jamiyat ijtimoiy hayoti bilan bog'liq yangi so'zlar, so'z birikmalari, terminlar va iboralarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Til bu til sistemasida "o'ralgan" yoki "bog'langan" g'oyalarni yetkazish vositasidir. Bunda qo'llanilgan bilim nafaqat til balki, butun dunyo, ijtimoiy vaziyatlar, nutq tamoyillari va turli bilimlar haqidadir [5,4].

Ta'sirli fakt shundaki, til va jamiyat o'rtasida o'zaro munosabatlar mavjud. O'zining ijtimoiy va material tabiatiga ko'ra, til jamiyatda sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy voqea-hodisalarni aks ettiradi. Tilda aks etgan barcha yangi hodisalar shu tilda so'zlashuvchilarning hayot tarzi, ijtimoiy tuzumi, urf odatlari, qadriyatlarini va madaniy o'ziga xosliklariga asoslangan bo'ladi [1,74].

Lakunar (sinonimi bo'lmagan) frazeologik birliklar ma'lum bir tilda mavjud bo'lib, shu tilda so'zlashuvchilarning lingvomadaniy qadriyatlarini namoyon etadi. Bunday birliklarning paydo bo'lishida ikkita asosiy sabab bor: birinchisi – bu hayotiy yoki tarixiy realiya bo'lib, faqat shu xalqqagina xos va uning frazeologik fondida o'z o'rniga ega, lekin boshqa etnos uchun noma'lum va uning frazeologik zahirasida mavjud bo'lmaydi. Ikkinchisi – u realiya universal bo'lib, ko'pgina xalqlar uchun ma'lum va ularning leksik-terminologiyasida mavjud bo'ladi. [4,61-62]. Iboralar avval boshdanoq madaniyat bilan bog'liq bo'lib, madaniy belgilar yetkazuvchisidir. Ular paydo bo'lgandan boshlab til va madaniyat chorrahasidan to'ntutqda madaniy ma'noni jonlantirishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Haqiqatdan ham frazeologik birliklar madaniyatning ajralmas bo'lagidir. Shuningdek, madaniyatni jamiyatdan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. V.A. Maslova ta'kidlaganidek "madaniyat ma'lum darajada jamiyatdan mustaqil bo'lishi mumkin, lekin u jamiyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, jamiyat ichida kashf etiladi." [6,15]. Sotsiolingvistik tadqiqotlar har bir lisoniy voqeani ijtimoiy vaziyatda: turli tildagi yangiliklar qaysi lisoniy guruh yoki qaysi til jamiyatida yaratilganligini hisobga olgan holda o'rganishi kerak [1,75].

Ingliz va o'zbek tillarida jamiyat va ijtimoiy muammolarga oid tarixiy frazeologik va paremiologik birliklar turli vaziyat va holatlarni qamrab oladi va ularni quyidagi semantik guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1) Tarixda xonlar, qirollar va boshqa davlat boshqaruvchilarining ijtimoiy-siyosiy o'rni juda muhim bo'lgan va bu bir qancha frazeologik va paremiologik birliklarda aks etgan. Ikkala xalq tarixida ham shohlar, qirollar mutlaq hukmdor bo'lishgan: *Podshoning kuragi uzun*. Ingliz tilida xuddi shu ma'nodagi maqol: *Kings have long arms; king's chaff is worth more than other men's corn* – podshoning somoni boshqalarning bug'doyidan afzal. Ko'pincha xalq ularning zulmidan noroziligi kuzatilgan: *Podsholik – qonxo'rlik; Xon bor yerda qon bor; war is the sport of kings* – urush qirollar ermagi; *kings go mad and the people suffer for it* – podshoning axmoqligidan boshqalar jabr chekishadi. Ko'rinib turibdiki, kishilar qadimdan ijtimoiy tuzum, siyosiy voqealarga o'zlarining munosabatlarini bildirib olishgan.

2) Insonlarni ularning ijtimoiy sinfiga ko'ra guruhlash. Odamlarni turli ijtimoiy guruhlarga bo'lish qadimdan mavjud bo'lgan lekin bu turli jamiyatlarda turlicha bo'lgan: *blue blood / high blood* – aslzoda kelib chiqish. Angliya va Amerika xalqlari madaniyatida aristokratlar jamiyatning eng muhim kishilari hisoblangan va hattoki "jamiyat egalari" hisoblanishgan: *the (upper) four hundred* – to'rt yuz oila (Amerikaning eng yuqori iqtisodiy va sanoat kapitalistlari, XIX asrning 80-yillari U. Makalisterning "jamiyat to'rt yuz oilaga tegishli" degan so'zlar bilan bog'liq). Zamonaviylik ham aristokratiyaning bir belgisi hisoblangan: *the rank and fashion* – ulug' jamiyat, aslzodalik. O'zbek xalqi tarixida bilim olish va jamiyatda o'z o'rnini egallash dastlab diniy bilimlarga asoslangan. Shuning uchun qozi, eshon, mulla va so'filar hurmat e'tiborida bo'lishgan: *mulla bo'lmoq* – bilim olmoq, o'qimishli bo'lmoq; *madrassa tuprog'ini yalamoq* – madrasada ko'p yillar qiyinchilik bilan ta'lim olmoq (madrassa dastlab diniy keyinchalik dunyoviy bilimlar o'qitiladigan ta'lim maskani bo'lgan). Lekin vaqt o'tishi bilan bu guruh vakillaridan ba'zilari ayyor, ikkiyuzlamachi va manfaatparast bo'lib borgan. Shuning uchun din vakillari haqidagi ko'pgina maqollar salbiy ma'noda:

*Mulla, mullaning ishi hiyla.*

*Mullaning sallasi oq, Yuragi – qora.*

*Qoziga bora berma, pora ber.*

*Mulla holvani ko'rsa, Qur'onni unutar.*

*Mulla folbinni ko'rolmas, Eshon – ikkalasini ham.*

*Mullaning aytganini qil, Qilganini qilma.*

3) irqiy diskriminatsiya bahsli ijtimoiy muammolardan biri edi. Qora tanlilar faqat terisining rangi uchungina qattiq kamsitilgan va ba'zan hatto oddiy inson huquqlaridan ham mahrum etilgan: *Jim Crow* – qora tanlilar uchun alohida vagon;

Bu vaziyat ijtimoiy ixtiloflar keltirib chiqargan: *a vigilance (or vigilante) committee* – "ogohlik komiteti" (terroristlarning boshqa qo'llab quvvatlovchilar bilan birgalikdagi qora tanlilar ozodligi uchun kurashuvchi tashkiloti); *a race riot* – qora tanlilar to'poloni (bir joyda istiqomat qiluvchi turli irq vakillarining nizolari); *Crow Jim* – qora tanlilarning oq tanlilarga nisbatan fikri (noto'g'ri tushunchasi). *The Black Belt* – AQSH janubidagi qora tanlilar yashovchi viloyatlar. Ko'pincha qora tanlilar madaniyatsiz sifatida haqoratlangan: *the white men's burden* – "oq tanlilar missiyasi" (mustamlakachilarning madaniyatni targ'ib qiluvchi missiyasi – imperialistlarning ikkiyuzlamachi badnafs siyosati).

4) Kambag'allik, iqtisodiy inqirozlar va boshqa qiyin yashash sharoitlari yangi frazeologik va paremiologik birliklarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Kishilar tarixda turli qiyinchiliklarni boshdan kechirishgan: *adversity (misery or poverty) makes strange bedfellows* – qiyinchilik kimlarga duchor qilmaydi (Angliyada o'rta asrlarda, shuningdek XVI va XVII asrlarda alohida krovatlar kamyob bo'lganligi sababli bir xil jins vakillari bir biriga yuzma yuz yotishga majbur bo'lganlar). Iqtisodiy o'sish hududning rivojlanishida muhim omil bo'lgan, shuning uchun ham iqtisodiy tanglik og'ir musibat sifatida qaralgan: *a depressed area* – 1) Angliyaning dunyo iqtisodiy inqirozidan jabr chekkan tumanlaridan biri 2) iqtisodiy jihatdan mushkul ahvoldagi tuman 3) ishsizlikdan qiynalgan hudud. Qadimda ba'zan yangi qonun-qoidalar kambag'allar uchun vaziyatni og'irlashtirgan: *One law for the rich, and another for the poor* – boyga bir qonun, kambag'alga boshqasi; *Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi* – kambag'al kishilarga doim qiyin bo'lgan; *the poor man pays for all* – kambag'allar hammasi uchun to'lashga majbur. Ko'pgina maqollarda boy va kambag'allarning holati, kayfiyati va xarakteri solishtirilgan:

*Boy bo'lsang, kunda hayit, kunda to'y,*

*Yo'q bo'lsang, kunda xasrat, kunda o'y*

*Boyning ko'zi nonda, kambag'alniki - iymonda.*

*Bulutning qadri yo'q, oy yonida, Faqirning qadri yo'q, boy yonida*

O'zbek madaniyatida bir xil ijtimoiy sinf vakillari bir-birlarini tushunib, qo'llab-quvvatlashga moyil bo'lishadi:

*Och qayg'usini ochiqqan bilar, Yo'q qayg'usini tariqqan*

*Boy boy uchun tirishar, kambag'al kambag'alga bo'lishar;*

*Kasal dardini sog' bilmas, och qadrini to'q bilmas.*

5) qulchilik va ishsizlik muammolari ikkala xalq tarixida ham sodir bo'lgan: *the Black Code* – qulchilik bekor qilinguncha amaldagi qulchilik qonunlari (bu taxminan 1723-yilda Luizina shtatining gubernatori Benvellin tomonidan ishlab chiqilgan). Eng achinarlisi qullar bir buyumdek qaralgan, sotilgan va sotib olingan: *sell somebody down the river* – janubga sotish (qora tanli qullar haqida); *The Blanket Code* – Prezident F.D. Ruzvelt tomonidan ishlab chiqilgan sanoatning barcha sohalarida maoshlar va ish vaqtlarini nazorat qiluvchi qonun. Ishchilar ko'pincha quruq va'dalar va yomon ish sharoitlaridan azob chekkan: *a pie in the sky* – "osmondagi Jannat", puch va'dalar. Qullar og'ir mehnat va zulmdan jabr chekishgan: *Tirik qulga tinim yo'q;*

*Yuz yil qul bo'lib yashagandan, Bir kun hur bo'lib yashagan yaxshi.* Qullarning xo'jayinlari ularga shafqatsiz munosabatda bo'lishgan: *Xo'jamizning qorni to'q, quli bilan ishi yo'q.* Yuqoridagi frazeologik va paremiologik birliklardan ko'rinib turibdiki, insonlar zo'rovonlik va ekspluatatsiyaga qarshi bo'lganligi sababli bunday birliklarning ko'pchiligi salbiy ma'noda.

Jamiyat a'zolarining ijtimoiy tuzumga munosabatlari ham muhim bo'lgan:

*angry young man* – "g'azablangan yosh kishilar" (XX asrning 50- yillaridagi burjuaziya jamiyatini tanqid qilgan yosh shoirlar).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bunday frazeologik va paremiologik birliklar har bir millatning tarixi, madaniyati, dini va qadriyatlarini bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli boshqa tillarda ularning aynan muqobillarini uchratish mushkul. Hozirgi kunda bunday frazeologik va paremiologik birliklarning ba'zilari deyarli qo'llanilmaydi, ba'zilari esa majoziy ma'noda qo'llaniladi. Ko'rinib turibdiki, tarixda ko'plab adolatsizliklar, irqiy discriminatsiya va ekspluatatsiya kishilarni jamiyatda qonun va teng huquqlilikka kurashga undagan. Ingliz va o'zbek tillariga xos frazeologiya va paremiologiyalarni ushbu faktorlar misolida qiyosiy tahlil etish bugungi kunda tilshunoslik fani oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

#### Adabiyotlar

1. Баласанова А.Л. Вопросы фразеологии романских и германских языков. – Самарканд: 1981. – С. 74 - 78.
2. Ковшова М.Л. Семантика и прагматика фразеологизмов (лингвокультурологический аспект): автореферат дис. ... доктора филологических наук: 10.02.19. – М.: Ин-т языкознания РАН, 2009. – 48с.
3. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – Москва: Русский язык, 1984. – 944 с.
4. Максимец С. В. Ценности лингвокультурного сообщества в зеркале фразеологии. – Ростов-на-Дону, 2015. – 166 с.
5. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика: Учебное пособие - Минск: ТетраСистемс, 2004. - 256 с.
6. Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
7. Xudoyorova S.T. Historical Facts Reflected in the Semantics of English and Uzbek Phraseological and Paremiological Units. Актуальные научные исследования в современном мире. Украина, 2019.- 7(51), 76-80 р.
8. Ўзбек ва турк мақоллари ва иборалари. – Тошкент: О'z-silm o'zbek-turk litselari, 1998. – 192 б.
9. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр, 1989. – 512 б.

УДК: 491.7

## О ВЗАИМОСВЯЗЯХ И ВЗАИМООТНОШЕНИИ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ И ЛЕКСИКИ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Д.И. Ташбекова

Самаркандский государственный университет

**Аннотация.** В статье рассматривается взаимосвязи и взаимоотношения словообразования и лексики, роль словообразования в системной организации лексики, а также парадигматические и синтагматические отношения слов, и системообразующая роль производной лексики в русском языке.

**Ключевые слова:** словообразование, лексика, грамматика, производное слово, семантические, стилистические, суффиксы, глагол, морфологическое, парадигматики.

## Rus tili soʻz yasalishi va leksikaning aloqasi va oʻzaro munosabatlari haqida

**Annotatsiya.** Maqolada rus tilida soʻz yasalishi, leksikaning aloqasi va oʻzaro munosabatlari, leksikaning sistemali tashkil boʻlishida soʻz yasalishining ahamiyati, shuningdek, soʻzlarning paradiigmatikva sintagmatik munosabatlari va leksikaning tizimni hosil qiluvchi roli koʻrib chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** soʻz yasalishi, leksika, grammatika, yasama soʻz, semantik, stilistik, suffikslar, feʼl, morfologik, paradiigmatik.

## On the relationships and relationships of word-formation and vocabulary in russian

**Abstract.** The article discusses the relationships and relationships of word formation and vocabulary, the role of word formation in the systemic organization of vocabulary, as well as the paradigmatic and syntagmatic relations of words, and the system-forming role of derivative vocabulary in Russian.

**Key words:** word formation, vocabulary, grammar, derivative word, semantic, stylistic, suffixes, verb, morphological, paradigmatics.

Словообразование и лексика – соседи в уровневой структуре языка – активно взаимодействуют на базе различных типов значений – лексических, словообразовательных, грамматических. В организации системных связей этих уровней языка важную роль играет грамматика.

Каждое новое производное слово сразу становится частью лексической системы языка и занимает в ней свое место — входит в то или иное лексическое объединение слов, т. е. в одну из тематических или лексико-семантических групп слов. Например, слова *биатлонист, брассист, баттерфляист, батутист, аквалангист, бадминтонист, авторалист, байдарочник, гандболист, картингист* и т. п. пополнили группу названий лиц (спортсменов); *аллергология, анестезиология, астрогеология, атлантология, аэрономия, биоценология, вирусология, витаминология, гелиобиология, геотермия, геронтология, гистохимия* и т. п. влились в группу наименований наук; *соломосилосорезка, стеблеподъемник, стогообразователь, турбмашина, аквамобиль, аэробус, аэроход, атомоход, газотурбоход, газотурбовоз* и т. п. пополнили группу названий машин, механизмов, приспособлений и т. д.

Новые слова вступают в системные (синонимические, антонимические и т. п.) отношения с другими, уже существующими в языке словами. Так, с возникновением слов *античастица, антивещество, антипротон, неэффективный, неоперативность, неоперабельный, некоммуникабельный* обрели в языке свои антонимы их производящие *частица, вещество, протон, эффективный, оперативность, операбельный, коммуникабельный*. С появлением слова *некоммуникабельный* пополнился синонимический ряд *необщительный, малообщительный, нелюдимый, замкнутый*. Новообразование *декодирование* вошло в синонимический ряд *дешифровка, расшифровка*. Глагол *закодировать* вступил в синонимическую пару со словом *зашифровать*. Существительное *дискомфорт* вступило в синонимическое отношение со словом *неудобство*.

Связь словообразования с лексикой проявляется и в других аспектах. Так, слова, относящиеся к одной и той же тематической или лексико-семантической группе слов, имеют частично или полностью совпадающий набор производных, обладают одинаковым или близким словообразовательным потенциалом. Ср. по составу производных имена существительные, образующие разнообразные тематические группы. Например, в группе названий животных:

*олень волк медведь*

*олен-их-а волч-их-а медвед-их-а*

*олен-ух-а волч-иц-а медвед-иц-а*

— — —

— *волч-иц-е медвед-иц-е*

*олен-ин-а — медвеж-атин -а*



*олен-енок волч-енок медвеж-енок*

*олен-ий волч-ий медвеж-ий*

Лексика определяет диапазон действия словообразовательных типов, их продуктивность и словообразовательную активность в современном русском языке. Каждый словообразовательный тип имеет свою лексическую базу, от узости или широты которой зависят его словообразовательные возможности. Например, диапазон действия словообразовательного типа названий детенышей предопределен составом в русском языке имен существительных со значением животных. Слов типа *слоненок, орленок* и т. п. не может быть больше, чем самих названий животных. Количеством названий животных определен и другой словообразовательный тип, куда входят слова *телятина, свинина, гусятина, осетрина* и т. п. Образование таких слов ограничено количеством названий животных, мясо которых употребляется как пища.

Обычно словообразовательные типы полностью не реализуют свои лексические возможности, не охватывают все слова, образующие их лексическую базу. Препятствуют этому различные факторы-семантические, формальные, стилистические, словообразовательные. Из них наиболее существенны словообразовательные ограничения. Они главным образом проявляются в конкуренции словообразовательных типов. Одна и та же лексическая база своеобразно распределяется между разными конкурирующими словообразовательными типами. Таковы словообразовательные типы отглагольных наименований лица с суффиксами *-ник, -тель, -щик*. Все эти суффиксы сочетаются с глаголами, т. е. делят между собой одну и ту же глагольную лексическую базу: с одними глаголами сочетается суффикс *-тель*, с другими *-ник*, с третьими *-щик*.

Лексическая база - важное условие функционирования и развития словообразовательных типов. Многосторонняя и прочная связь лексики и словообразования особенно четко проявляется при больших перестройках обеих систем, вызванных глубокими социально-историческими переменами. Об этом свидетельствуют наблюдения Ю. С. Сорокина над развитием словарного состава русского языка в 30-90-е годы XIX в. Он отмечает, что «в эпохи особенно интенсивной общественной жизни» происходят «белее или менее значительные перестройки лексической системы языка в сравнительно ограниченные отрезки времени».

Появление новых производных слов ведет к изменениям не только в лексической, но и в словообразовательной системе. «Слово самим актом своего рождения связано с другими словами,— пишет Ю. С. Сорокин.— Словопроизводственные связи дают слову жизнь и определенную физиономию, создают его «внутреннюю форму». Они привязывают слово к определенному грамматическому, структурному (словообразовательному) разряду»<sup>3</sup>. Конечно, новые слова обычно оформляются по образцу существующих, но они не просто «привязываются» к тому или иному словообразовательному типу, а расширяют диапазон его действия, делают его более влиятельным в современной системе словообразования в различных отношениях. Естественно, группы новых слов нередко или формируют новые словообразовательные гнезда или вносят существенные изменения в их формальную и семантическую структуру.

Наибольшее влияние на упорядочение лексических отношений слов оказывает словообразование. О связях и взаимоотношении лексики и словообразования написано много, и все наблюдения в этой области так или иначе касаются вопроса, как словообразование служит пополнению, обогащению лексики вообще, а также тех или иных ее лексико-семантических и тематических групп. Однако действующие каналы связи и взаимодействия словообразования с лексикой очень разнообразны, и все они заслуживают специального внимания.

При этом важно обратить внимание и на другие моменты, свидетельствующие о высокой системообразующей роли производной лексики. Е. А. Иванникова справедливо пишет: «Только у производных слов семантические отношения имеют формальное выражение. Общие словообразовательные аффиксы как часть структуры производных слов - единственное морфологическое средство парадигматики плана содержания, в результате чего словопроизводство является одним из существенных внутриязыковых источников системности лексики». «К тому же,— по ее мнению,— семантические связи производных слов отличаются большей широтой по сравнению со связями непродucedных слов. Если эти связи у последних являются однонаправленными, осуществляются в горизонтальном направлении, реализующем тематические группы и синонимические ряды, то связи между производными словами проходят в двух направлениях: 1) по горизонтали, аналогично связям непродucedных слов,— связи, организующие словообразовательно-семантические группировки, включающие синонимы и словообразовательные варианты; 2) по вертикали — специфические связи производных слов с производящим словом и словами всего словообразовательного гнезда. Производные слова в силу этих особенностей образуют существенные группировки лексики. Поэтому показ системности лексики в словаре — это прежде всего показ семантических взаимоотношений производных слов».

Действительно, разнообразные связи и отношения производных слов занимают в системном устройстве лексики особое место. И не без основания Д. Н. Шмелев выделяет их в самостоятельный тип отношений между лексическими единицами. Он пишет: «Слово находится, помимо парадигматических и синтагматических отношений, также в определенных ассоциативно-деривационных отношениях с другими словами. Например, слово *земля* в разных своих значениях по-разному связано деривационными отношениями со словами *земляной*, *землистый*, *земной*, *наземный*, *земельный*, *земляк*, а также *землекоп*, *землечерпалка*, *землемер*, *земледелец*, *землепроходец* и т. д.». Эти типы отношений в слове взаимосвязаны и взаимообусловлены. Они вместе формируют лексические значения слова. В приведенной выше группе однокоренных слов «значение, которое определяется парадигматическими противопоставлениями *земля-песок-глина...*, синтагматическими сочетаниями *рыть землю*, *сыпать землю*, *комоч земли* и т. п., закреплено в деривационном ряду *земля - земляной - землистый - землекоп* и т. д.; значение, определяемое парадигматическими противопоставлениями *земля - вода*, *земля - море...*, синтагматическими сочетаниями *увидеть землю*, *близость земли* и т. п., - закреплено в деривационной ряду *земля - земной - наземный - земноводный* и т. д.»

Еще в большей степени присущи системообразующие способности, проявляющиеся в области лексики, основным объединениям производных слов-словообразовательным типам и словообразовательным гнездам. В этом аспекте большой интерес представляют наблюдения Ю. С. Сорокина: «Уже одни словообразовательные связи и отношения слов придают словарному составу определенный системный характер. Многие факты свидетельствуют об определенной зависимости судьбы отдельных слов от судьбы известного их гнезда или словообразовательного разряда. В определенную эпоху перестройка ряда сходных словообразовательных гнезд имеет единое направление, даже целые разряды слов аналогического образования активизируются или, напротив, ослабевают». Это положение продемонстрировано в его монографии на многочисленных примерах заимствованных слов, их производных и исконно русских образований.

Словообразовательные типы как системообразующие единицы объединяют разное количество производных слов. Среди них немало таких, которые включают многие сотни и даже тысячи единиц. К ним относятся, например, производные глаголы с постфиксом *-ся*, суффиксом *-овать*, прилагательные на *-н(ый)*, *-ск(ий)*, *-ов(ый)*, имена существительные на *-ние*, *-изм*, *-ист*, *-ость*, наречия на *-о* и др. Это свидетельствует о большой организующей силе словообразовательных типов.

В системообразующей функции словообразовательные типы выступают как на словообразовательном, так и на лексическом уровнях. Они, как единицы языка, обслуживают обе подсистемы. Такая способность их закономерно вытекает из природы производных слов, которые в своей семантике совмещают лексическое и словообразовательное. Кроме того, следует иметь в виду, что словообразовательные значения производных слов формируются на базе лексических значений их производящих, поэтому в производном слове нередко они так сложно переплетаются, что сливаются в единый клубок.

О важной роли словообразовательного типа как средства связи лексики и морфологии (в широком ее понимании, т. е. включая и словообразование) справедливо пишет М. Н. Янценецкая: «Связь производного слова с однокорневыми словами позволяет ему войти в лексический состав языка. Объединение же новообразований со словами одинакового с ними аффиксального оформления, в конечном итоге, включает его в морфологию языка. Оба вида связей являются обязательными для производной единицы; их взаимодействие определяет место нового слова в словообразовательной системе. Словообразовательный тип представляется специфической формой, через которую осуществляется связь лексической и морфологической языковых систем, что, как кажется, должно быть признано одним из основных назначений словообразовательной системы наряду с такими ее функциями, как создание унифицированных способов пополнения лексического состава и морфо-семантическая организация последнего».

В еще большей степени, чем словообразовательным типам, системообразующая функция присуща словообразовательным гнездам. Они являются крупными объединениями производных слов. В одном гнезде может быть более 500 однокоренных образований, связи которых в его структуре строго упорядочены.

Словообразовательное гнездо-сложная единица языка. В нем закономерно переплетены, воедино слиты лексические, словообразовательные и грамматические явления. Слово-компонент гнезда-связано с лексическим, словообразовательным и грамматическим уровнями языка. Одновременно оно выступает как носитель лексического, словообразовательного и грамматического значений. Причем, исходные (непроизводные) слова обладают только лексическим и грамматическим значениями, а производные слова выражают все три типа значений. В структуре слова они взаимосвязаны и взаимодействуют в различных планах.

Все слова в гнезде семантически связаны. Смысловые связи производных слов не исчерпываются отношениями друг к другу. Кроме внутригнездовых, родственных связей, они обладают

внешними смысловыми связями. Как внутри, так и вне гнезда они могут вступать в синонимические, антонимические и омонимические отношения. Причем, нередко в системные отношения вступают не отдельные слова гнезда, а значительные группы или большинство слов. Хотя и редко, в синонимических, антонимических и омонимических отношениях оказываются целые гнезда слов. В таких случаях словообразовательные гнезда упорядочивают лексические связи слов, участвуют в системной организации лексики.

Таким образом, отражая лексические отношения производящих слов в их производных, словообразование в этом случае трудится на благо лексики, выполняет системообразующую функцию в области производной лексики.

#### Литература

1. Сорокин Ю.С. Развитие словарного состава русского литературного языка 30-90-е годы XIX века. М; Л, 1965 С.12
2. Новиков Л.А. Семантика русского языка. М., 1982. С. 60-61.
3. Жирмунский В.М. О соотношении синхронного анализа и исторического изучения языков. С.70.
4. Земская Е.А. Производные слова в толковых словарях русского языка// Современная русская лексикография. 1976. Л.,1977. С. 111.
5. Иванникова Е.А. О производных словах как объекте лексикографии// Современная русская лексикография. 1975. Л., С. 66.
6. Шмелев Д.Н. Современный русский язык. Лексика. М., 1977. С. 225.
7. Янценецкая М.Н. Несколько замечаний по поводу словообразовательной структуры слова// вопросы словообразования в индоевропейских языках. Выпуск 3. Томск, 1979. С. 73-74.

UDK: 891.709

#### TARIXIY DRAMA VA XARAKTER

A. Soliev

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Usmon Azimning “Kunduzsiz kechalar” dramasi misolida taniqli yozuvchi Abdulhamid Cho’lponning xarakteri ifodasigina emas, o’tgan asrning 30-yillaridagi mash’um qatog’on davr ham tahlil etilgan.

**Kalit so’zlar:** drama, Cho’lpon xarakteri, badiiy xarakter, mavzu, g’oya.

#### Историческая драма и характер

**Аннотация:** В настоящей статье анализируется характер писателя Абдулхамида Чулпана на основе драмы Усмана Азима «Вечера без дней». Вместе с тем анализируется эпоха репрессии 30-годов прошлого века.

**Ключевые слова:** драма, характер Чулпана, художественный характер, тема, идея.

#### Historical drama and character

**Abstract.** In the following, it is analyzed by the example of drama of Usmon Azim namely “Nights without days” not only character Abdulhamid Cholpon but also period of repression in the last centuries.

**Keywords:** Drama, Cholpon's image, character, creation, theme, idea.

«Kunduzsiz kechalar» – tarixiy drama. Cho’lpon asarning bosh qahramoni. Butun voqelik uning taqdiri bilan bog’liq holda ro’yobga chiqadi. Shuningdek, asarda Cho’lpon bilan bir davrda yashagan Fitrat, Fayzulla Xo’jaev, Akmal Ikromov, Soliha, Oybek va Botu kabi tarixiy shaxslar ham ko’zga tashlanadi. Bugina emas, o’sha davr haqida to’g’ri tasavvur uyg’otish maqsadida Rais, Sezgir, Naganli odam, Zamonqul, Ko’zoynak, Do’st, Tengdosh, Hofiz, Mashshoq, Ko’rinmas odam, Galdir, Chekistlar kabi to’qima obrazlar ham kiritilgan.

Asar muqaddimasi qisqa va sodda:

Parda ochilmagan. Sahnada qo’lida sham tutgan Cho’lpon paydo bo’ladi. U tomoshabinlarga qarab so’z boshlaydi.

Cho’lpon. Adabiyot yashasa, millat yashar, adabiyoti gullamagan va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotidan, o’yidan fikran mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo’lur.

Ana shu qisqa va soddalikda ko’p gap bor. Unda asar qahramonining qayg’usi, intilishi, orzusi mujassam. Bu shunchayiki, orzu intilish bo’lmay asar qahramoni hayotining ifodasi, mujassami hisoblanadi va u keyingi faoliyatida tasdiqlanadi.

Shundan so'ng asosiy ko'rinish boshlanadi. Cho'lpon xonadonida do'stu yorlar jamuljam. Cho'lpon tamonidan ziyofat uyushtirilgan edi. Hammaning unga nisbatn do'stona hurmati umumiy vaziyatdan sezilib turibdi. Shunday paytda Cho'lpon she'ri «Galdir»ning ashula qilib aytilishi barchani xushnud etadi. Bu shunchayiki she'r emas, unda Cho'lponning dil istagi, qalb tug'yorlari mujassam etilgan edi.

«Men dutor birlan tug'ishgan ko'hna bir devonaman,  
Ul tug'ushgonim bilan bir o'tda doim yonaman.  
Dillariga g'am to'la bechoralarga yorman,  
Vaqti xush, g'am ko'rmaganlardan tamom begonaman.»

Ma'lumki, dutor xalqimzning eng qadimiy cholg'u asboblardan biri bo'lib, u elga dardkash, el uning kuyini eshitib, o'z g'amini unda zuhur etganini ko'rib orom oladi, shundan Cho'lpon dutorni qalbiga yaqin ko'radi va dardkash biladi, unga hamma vaqt dil bog'laydi. Bu shunchayiki dil bog'lash emas, balki o'zining holatini ham dutor kuyidagi holat bilan bir sezish:

«Men dutorning har yeriga bekinib olsam agar,  
Pardalarning har biri bergay bo'lak g'amdan xabar.»

Buning ustiga, xalq kuyi o'z she'ri bilan omuxta kelib, uning dilini dutor tiliga qo'shib yuborganligidan mamnun shoir: «Ikki torni qaqshatib, barmoqlar o'tsa to'xtamay, G'amli o't chiqmas o'shal torlarda «Galdir» yig'lamay.» deydi.

Bu o'rinda «Galdir» so'zining ma'nosi ulug'. Uch ma'noda ishlatilmoqda. Galdir – xalq kuyi. Galdir – «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ta'kidlanganidek, «Boshiga ishq savdosi tushgan odam; telba, devona» [4]. Galdir – tili so'zga kelmay, g'uldurab gapiradigan inson. Ha, dutor g'amli oshiqqa hamroh. Dutor va oshiq dardi el dardidir. Shundan shoir Cho'lpon she'ri:

«Ahli g'amlar men kabi majnunsifat galdir bo'lar,  
Shu sababdan bandaning nomini galdir qo'ydilar...  
Yo'q ishim hokim, amaldor, shohu hoqonlar bilan,  
Birgaturman doimo hamdard bo'lg'onlar bilan!...» – deb nihoyasiga yetkazadi.

Cho'lpon she'ridagi dard yig'ilganlarning barchasiga manzur bo'lganligi turgan gap, lekin Cho'lpon bu bilan qanoatlanmaydi, bu dardni dunyo bilishini, san'at va madaniyatimiz, adabiyotimiz dunyo bo'ylab taralishini istaydi.

Cho'lpon: «...xalqimizning madaniyati va ma'rifati qancha baland bo'lsa, shuncha Vatan ozodligiga yaqin kelamiz», – deb, madaniyat va ma'rifatning yuksalishi xalq uchun ozodlik uchun kurash yo'lini yaqinlashtirishi haqida baralla fikr bildirsa, yig'ilganlardan biri Zamonqul madaniyatning sinfiyligi haqidagi yangi hukumat tomonidan singdirila boshlagan aqidani qo'zg'aydi va «Milliylik bir shakl bo'lgach...», – deb Cho'lponga e'tiroz bildirmoqchi bo'ladi. Cho'lpon esa, «Milliylik o'zlikdir!» – degan fikrni bildiradi. O'tirganlardan biri Hofiz ham Zamonqulning fikrini yo'qqa chiqarib, Cho'lpon fikrini ma'qullaydi.

Hofiz. Musiqada qanday sinfiylik bor? Agar tanbur yig'lasa, dardi borning hammasi qo'shilib yig'laydi! Bedard esa, boylar orasida ham, kambag'al orasida ham topiladi...

Ko'rinadiki, Cho'lponning madaniyatimizni dunyoga olib chiqish haqidagi istagi boshqalarga ham manzur bo'ladi, bugina emas ular jahon madaniyatini ham o'rganish lozimligiga e'tibor qaratadi Faqat Moskva ta'limini olgan Zamonqul, jahon madaniyatini o'rganishga shubha bilan qaraydi, Ko'zoynak esa, dunyo madaniyatini o'zlashtirish o'zlikni yo'qotish hisobiga bo'lmasligi lozimligini uqtiradi.

Gazetada Cho'lpon haqida maqola chiqqanligi haqidagi xabar, davra xushnudligiga nuqta qo'yadi. Maqola boshida Cho'lponning xalq tiliga yaqin san'atkorligini to'g'ri ta'kidlanadi va so'ngra: «...Cho'lpon, ming afsuski, boylar, millatchi ziyolilarning mafkurachisi, shularning shoiridir...» deb ayblaydi. Bunday tanqiddan hamma lol qoladi. Cho'lpon kishilar e'tiborini chalg'itish uchun oshni olib kelishga chiqib ketadi. Shunda birinchi bo'lib, Cho'lponga madhiya aytib turgan Sezgir ishi borligini aytib, juftakni rostlaydi. Uning ketidan Ko'zoynakli mening ham majlisim bor edi degan bahona bilan xonani tark etadi. Kolganlar ham birin-ketin chiqib ketishadi. Yolg'iz Oybek qoladi. Oybek ham Cho'lpon va Soliha tashrif buyurgach, chiqib ketadi.

Oshga to'plangan do'stlarning Cho'lpon haqida gazetadan noxush xabar eshitgach, barchasi juftakni rostlab qolganligi ularning do'stligi yuzaki ekanligini ko'rsatib beradi. Ularning bu yuzaki do'stligi keyingi ko'rinishlarda ham tasdiqlana boradi.

Keyingi ko'rinish majlis zaliga o'tib ketiladigan faeda Oybek va Botuning Cho'lpon haqidagi bahsidan boshlanadi. Botu garchi Cho'lpon ustoz bo'lsa-da, u haqdagi gazetadagi chiqishlardan so'ng Cho'lpondan yuz o'g'irganligi, yangi jamiyatni, partiyani qo'llab-quvvatlovchi bir shoirliqi anglashilib turadi. Ilk ijodida Cho'lponga ergashib she'rlar yozgan, uni ustoz deb bilgan yosh shoir Botuning bunday keskin o'zgarib ketganligi, o'sha davr mafkurasining qanchalik tezkorlik bilan kishilar qalbini zabt etayotganligining natijasi deb bilmog kerak. U yangi mafkura ta'siri millatni ham tan olmasligi, hatto yaratganga ham shak keltirish darajastga yetganligi buning isbotidir. Buni ustoz yuziga ko'r-ko'rona oyoq bosish desa bo'ladi, albatta bunday behuda chirinish, halokatga olib kelishi turgan gap,

Endi faedagi Sezgir va Cho'lpon muloqotiga nazar tashlaylik.  
Cho'lpon. Assalomalaykum! (Sezgir salomga alik olmaydi).

Sezgir. Men sizni tanimayapman.

Cho'lpon. Nima?..

Sezgir. Meni oldimda turmang, iltimos! Men sizni tanimayapman.

Cho'lpon. Hazillashmayapsanmi?

Sezgir. Hazilga balo bormi? Sizni tanimayman? (Ovozini pasaytirib) Abdulhamid... Iltimos, oldimda turma! Hammaning ko'zi bizda... Iltimos, zalga o't!

Kechagina o'zini do'st ko'rsatib, Cho'lpon ijodiga hamdu sano aytib turgan bir zotning bunchalik tubanlashuvi kishining qahr-g'azabini qo'zg'atmasdan qolmaydi, kitobxon va tomoshabin qalbini junbushga keltiradi.

Sarosimadagi Cho'lpon zalga kiradi. Majlis ahli joy-joyini egallagan. Hamma Cho'lponga qaraydi. Minbarda Akmal Ikromov nutq so'zlayapti. Cho'lpon bo'sh o'ringa cho'kadi.

Akmal Ikromov nutqi bor bo'yicha Cho'lpon ijodini qoralashga yo'naltirilgandi. Bu taniqli bir ijodkorni yer bilan teng qilish edi. Bu faqat Cho'lpon emas, edigina adabiyotga qadam qo'yayotganlarni ham o'z izmiga yuritishga erishishning birdan bir yo'li edi. Cho'lponni yakkayu yagona bir o'zi himoya qilib chiqqan – Oybekdek bir yosh ijodkorni ham endigina zavq-shavq bilan tashlagan ijodiy qadamini yo'qqa chiqarish edi. Shunday qaqshatqich zarba yegan Cho'lpon baribir o'zini tutib oladi va himoyaga o'tlanadi. So'z olishga oladi-yu, Sezgir uning nutqini bo'lib, «Hech narsani bilgani yo'q. Aldayapti. Cho'lpon o'zining aksilinqilobiy faoliyatini davom ettirayapti... Mana... Masalan... (Papiros qutisini cho'ntagidan olib), ushbu «Epoxa» papiros qo'tisiga yozgan to'rtligida o'zining dushmanligini yaqqol namoyish etgan!» – deydi.

Rais. Nima deb yozibdi?

Sezgir. Uning yozganlarini men o'qishga jur'at etolmayman.

Rais. Cho'lpon, o'zingiz o'qing!

Cho'lpon (birdan yelkasidan tog' ag'darilgandek jaranglatib o'qiydi. U asliga qaytganday – ovozida masxaralash ohanglari...).

Bunday «Epoxa»ni chekib tugating,

Kullari ko'klarga sovrilib ketsin!

Bu tutqin ezilgan o'zbek bolasi

Olovsiz, tutunsiz kunlarga yetsin!..

(Hamma qotib qolgan, Cho'lpon ularga bir razm solgach, hech narsa bo'lmaganday davom etadi) Xo'sh, buning nimasi yomon? Nimasi dushmanchilik? Men boy-feodallar davrining kuli ko'klarga sovrilsin deyaapman! O'zbek yorug', tutunsiz kunlarga yetsin deyaapman! Buning ustiga, o'rtoq Rais, papiroslarga ham shunaqa nom qo'yiladimi? Men papiroslar bunday ulug' so'zlar bilan atalishiga qarshiman. Bu noroziligim tufayli ham bu to'rtlikni papiros qutisiga yozdim. Mana, Fayzulla Xo'jaev va Oxunboboev nomi va suratlari tushirilgan papiroslarni «Fayzulla Xo'jaev – besh tiyin», «Oxunboboev – to'rt tiyin», deb ko'chayu kuyda baqirib-chaqirib yuribdilar. (Rais va Kommunistga) Sizlarning nomingiz esa... Kechirasiz, nomlaringiz bitilgan papiroslar esa bir tiyin-ikki tiyin bo'lib qolgan... Nima, men bu ahvolga qarshi chiqsam, millatchi bo'lib qolavmanmi?.. (Yana jimlik. Kimdir kuladi. So'ng og'ir sukunat cho'kadi.)

Ma'lumki, bu to'rtlik muqaddimadan keyingi ko'rinishdayoq keltirilgan edi, hatto o'sha yerda yig'ilganlar bunga ofarin aytishgacha muvaffaq bo'lishgandi, endi esa, o'zgaruvchan xarakter egasi Sezgir tomonidan buni Cho'lponga aybnoma sifatida tirkaganligi, Sezgirning ikkiyuzlamachiligiga bo'lgan nafratni yanada oshirsa, Cho'lponning shunday tahlikali paytda ham o'zini himoya qila olish qobiliyatini ko'rib, kitobxon ham, tomoshabin ham tasanno aytadi. Yuzaki do'st va shogirdlarning sotqinligidan g'azabi oshadi.

Keyingi ko'rinishda Cho'lpon o'z uyiga xafaxon kelib, boshiga tushgan falokatdan garangsigan holda qo'lyozmalarini yig'ishtira boshlaydi. Xotini Soliha unga madadkor bo'la boshlaganini sezgach, endi Solihaning tinchligini o'ylab, uni Andijonga uyiga jo'natish yo'lini axtaradi. Soliha ko'navermagach, farzandsizligini bahana qilib, ajralishi lozimligini uqtiradi va Solihaning jo'nab ketishiga erishadi.

Cho'lponning yig'ishtirinish holati keyingi ko'rinishda ham davom etadi. Uning huzuriga avval Fitrat, keyin Fayzulla Xo'jaev kirib keladi. Ular Botuning qamoqqa olinganligini aytadilar. Shunday o'zini zamonga safarbar qilgan inson taqdiri fojiasidan Cho'lpon lol bo'ladi. Fitrat ham Fryzulla Xo'jaev ham Cho'lponning xavfsizligini ta'minlash maqsadida uni 2-3 yilga Moskvaga jo'natishga muvaffaq bo'ladi. Hatto Fayzulla Xo'jaev unga moddiy yordam ham ko'rsatadi.

Oxirgi ko'rinish. Cho'lpon Moskvadan qaytib kelgan. Tahlikali hayot davo etmoqda. Hovlida hamma vaqt kuzatuvchi sharpasi sezilib turadi. Hayotdan umidsizlana boshlagan Cho'lpon endi ijodini ham o'tga tashlash darajasiga yetib, ta'sirlangan qiyofada ko'zga tashlanadi. Oybek kirib keladi. Oybek qo'lyozmalar yonayotganligini ko'rib tashvishlanada va: «Bekor yoqyapsiz!» – deydi.

Cho'lpon. Uka, gulday yurtimiz yonganda, bu qo'lyozmalar yonsa nima bo'пти! (Ohista). Sendan bir iltimosim bor... O'zingni ehtiyot qil! Bular shubha qilganlarni omon qoldirmaydi. Agar kerak bo'lsa, «qayta tarbiyalangan»ga o'xshab yur.

Hayoti tahlikada turgan Cho'lpon, shu damda ham o'zi haqida emas shogirdi haqida qayg'uradi. Ustoz va sodiq shogird muloqoti payti Sezgir kirib keladi va o'zining nohaqligi, butun kirdikorlari uchun Cho'lpondan

uzr so'raydi. O'zining ham hayoti tahlkada ekanligini aytib, yig'laydi. Kayta-qayta kechirim so'ragach, Cho'lpon uni kechirgan bo'ladi. Sezgir ketgach, Oybek ham ketadi. Cho'lpon bir o'zi boshiga tushishi mumkin bo'lgan qismatni kutayotgandek, she'rdil bo'lib, she'r o'qiydi.

Tiriksan! O'lmagansan!

Sen-da odam, sen-da insonsan!

Kishan kiyma! Bo'yin egma!

Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!

Shundan so'ng chekistlar paydo bo'ladi, uyda tintuv boshlanadi. Shunday tahlkali paytda Soliha ham kirib keladi. Bu ahvoldan hayratga tushadi. Cho'lpon va Soliha bir-birlari bilan zor-intizor xayr-xo'shlashadi.

Umuman, asar XX asrning yigirma va o'ttizinchi yillari qatag'oni haqida bo'lib, Usmon Azim o'zining bu tarixiy dramasi Cho'lponning tahlkali hayoti va xarakteri fonida uni ta'sirchan aks ettirishga muvaffaq bo'lgan.

#### Adabiyotlar

1. Usmon Azim. Adibning umri. Dramatik asarlar. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 13-42 betlar.
2. Soliev A. O'zbek dramaturgiyasida inson talqini. – T.: "Zar qalam", 2006. – 286 b.
3. Soliev A. Hayot va inson talqini. O'zbek dramaturgiyasi misolida. – T.: "Turon zamin ziyo", 2015. – 248 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli, 1-jild. – T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 478-b.

UDK: 81

#### NEMIS TILI ILOVA KONSTRUKSIYASINING AYRIM STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI

M.R.Rahimov

*Samarqand davlat universiteti*

*mirzali.rahimov.74@mail.ru.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nemis tilida ilova konstruksiyalari haqida hikoya qilinadi. Shu bilan birga ilova aloqalarining leksik-semantik omillari asosida aniqlanishi, ilova element va asosiy ifoda o'rtasidagi munosabat tilga olinadi. O'z navbatida, bir qator tilshunos olimlarning ilova elementlarini qo'llashda ishlatiladigan bog'lovchilar, ularning strukturaviy xususiyatlari haqidagi fikrlari ham keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** ilova aloqalarining semantik omillari, stilistik ta'sirchanlik, hodisasining mantiqiy o'ziga xosligi, through, whereas, because, so, that, и, но, да, und, aber bog'lovchilari, emotsional baho, ifoda funksiyasi, murakkab sintaktik butunlik, sintaktik aloqa.

#### Некоторые структурные особенности присоединительных конструкции немецкого языка

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются присоединительных конструкции в немецком языке. А также речь идет об определении связей приложений на основе лексико-синтаксических факторов, об отношениях между элементом приложения и основным выражением. В свою очередь, приведены взгляды некоторых лингвистов об употреблении союзов в присоединительных конструкции, их структурных особенностей.

**Ключевые слова:** семантические факторы присоединительных связей, стилистическая чувствительность, свойственность логических происшествий, союзы through, whereas, because, so that, и, но, да, und, aber, эмоциональная оценка, функция выразительности, сложное синтаксическое целое, структурный, синтаксическая связь .

#### Some structural features of German language application construction

**Abstract.** This article discusses the construction of sentences in German, and also deals with determining the connection of sentences based on the lexical and relationship between the elements of the proposal and the main expression, in turn, the ghost views of some Ministers about. Here we are talking about determining the relationships in the application based on toxic factors about the relationship between the element of the sentence and the main expression. Well turn ghost views of some linguists using unions in elements of the app.

**Keywords:** semantic factors of application connection, stylistic sensitivity, the logical character of event, emotional assessment, conjunctions through, whereas, because, so that, и, но, да, und, aber function of expression.

Ilova aloqalarining semantik omillari asosida aniqlanishi ilovali element va asosiy ifoda o'rtasidagi ma'no va struktura jihatdan mustaqillikka borib taqaladi. Asosiy ifodaning birinchi qismidan ilovali elementlarning mazmunan ajratilishi har qanday ilova konstruksiyada ularning postpozitsiyada (keyingi o'rinda) kelishi uchun zamin yaratadi. Mantiqan va ohangiga ko'ra ajratib ko'rsatilishi tufayli ilovali element katta sintaktik salohiyatga va stilistik ta'sirchanlikka ega bo'ladi.

Ularning strukturasi haqida gapirilganda, ilovali elementning o'z asosiy ifodasiga grammatik jihatdan tobe bo'lishini ta'kidlash lozim. Eng avvalo bu ilovali element ilovali butunlikning asosiy qismidan to'liq ajratilishi mumkin emasligida namoyon bo'ladi. Yu.V.Vannikovning fikricha, ilova hodisasining mantiqiy o'ziga xosligi shu narsada ko'zga tashlanadiki, ilova aloqalarida mavjud bo'lgan gaplarda ikki xil fikrlash ifoda etiladi, ularning ikkinchisi "qo'shimcha tavsif"ga ega bo'ladi. Ilovali elementning qo'shimchalik xususiyati (belgisi) sintaktik ilova hodisasiga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlarda o'zining tasdig'ini topgan [1-180 b].

Ta'kidlash kerakki, qo'shimcha (natijasida) paydo bo'lgan ilovali elementning funksiyasi uning butun asosiy ma'nosini qamrab ololmaydi. Ilovali element nafaqat qo'shimcha (xabar) qilish xususiyatiga ega, u asosiy ifoda (gap) mazmunini aniqlashtirish, tushuntirish va rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu aytib o'tilgan hamma xususiyatlar ilova konstruksiyalarni o'ziga xos sintaktik-stilistik hodisa deb hisoblash imkonini beradi, ularning qo'llanilishi esa nutqqa o'ziga xos ma'no va ekspressiv-stilistik nozikliklarni berishni va ifodaning ayrim komponentlariga katta mazmun hamda emotsional baho berishni taqazo etadi [9 -115 b].

Murakkab sintaktik butunlik komponentlari o'rtasidagi ilova aloqalarining paydo bo'lishini aniqlashda bog'lovchilar tahlili yoki gap strukturasi tahlili birinchi o'ringa qo'yiladi. Ilovali element va asosiy ifoda o'rtasidagi ilova aloqalarining mavjudligini aniqlashga bunday yondashuv turli tillar sintaksisi bo'yicha olib borilgan dastlabki tadqiqot ishlari o'z ifodasini topgan.

Ilova hodisasi sintaktik aloqaning faqat o'ziga xos turi sifatida qaralmaydi, balki gipotaksis va parataksis o'rtasidagi farqni neytrallashtirish shakli sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, V.M.Milk ta'kidlashicha, for, tough kabi bog'lovchilarda bog'lanish va ergashish o'rtasidagi appozitsiya neytrallashadi, ular murakkab sintaktik butunlik doirasiga mustaqil gaplarni kiritish imkoniyatiga ega. Teng bog'lovchilar ergashtiruvchi bog'lovchilar rolini bajarib kelish hollari ham kuzatiladi [3-15 b]. N.A.Kobrinaning ko'rsatib o'tishicha, teng bog'lovchilar o'rniga ergashtiruvchi bog'lovchilar through, whereas, because, so that kabilar kelishi mumkin. Aksincha, ergashtiruvchi bog'lovchilar o'rniga damit, denn singari teng bog'lovchilar qo'llanilishi mumkin [2-32 b].

Ilova konstruksiyalarda teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar ma'nolarini anglab yetishga turli tillar materiallari asosida ilova konstruksiyalarni tadqiq qilgan ko'plab tilshunolar o'z e'tiborlarini qaratganlar: rus tilida i, no, da bog'lovchilari (L.M.Loseva), fransuz tilida mais, et, or, ou, car, parceque, si bog'lovchilari (I.A.Boevets va I.A.Vintman), ingliz tilida and, but, if, whele bog'lovchilari (G.M.Timoshenkova), nemis tilida und, aber bog'lovchilari (M.Ya.Vays).

Aytish lozimki, ko'p hollarda to'ldiruvchi vazifasidagi ilovali element nisbatan ko'proq uchrasada ma'lum bog'lovchilar bilan birga kelishini ko'rish mumkin. Natijada o'zining ko'rinishlari va hususiyatlari bilan aytilayotgan fikr ilovali elementdan boshqacharoq ega orqali ifodalanadigan ilovali elementning alohida struktural ko'rinishini hosil qiladi. Masalan: Es war schon nachts und sie hatten etwas mehr getrunken als sonst. Auch auf den unvermuthen Sieg des Sportklubs Chemie. Auf unsere Freundschaft. Und später auf den Schornstein. Und dich.

Ushbu misol tahlili shuni ko'rsatadiki, ilovali elementda qo'llangan **und** bog'lovchisi, **auf** predlogi asosiy ifoda va ilovali element o'rtasidagi sintaktik aloqaning yanada mustahkamroq bo'lishi uchun xizmat qiladi. Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari haqida misolda berilgan tahlildan kelib chiqib, nemis tilida ilova element sifatida qo'llanilishini misol yordamida ko'rib chiqdik va bu yerda ba'zi struktural ko'rinishdagi gap bo'laklarining har biri alohida ilovali element sifatida bo'ladi hamda ilovali konstruksiya tarkibida o'ziga hos vazifalarni bajarib keladi.

Ilovali elementlar ilova konstruksiya tarkibida bajarib kelayotgan vazifalari bilan bir-birlariga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zlarida takrorlabgina qolmasdan, balki yangi xususiyatlar bilan bir-birlarini boyitib, kengaytirib boradi. Bu holni parallel birikishga moslangan ushbu ilovali elementlar tahlilida ham kuzatish mumkin. Chunki, bu ilovali elementlar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: birinchidan, ilovali elementning yetakchi komponenti, ya'ni ilovali elementning o'zi takrorlanish jarayoni bilan hosil bo'ladi va so'ng unga tobe bo'lgan qismlar bilan kengaytiriladi; u yoki bu gap bo'lagining takrorlanib kelishi bu uslubiy hodisadir. Vaholanki, yozuvchi kitobxonning diqqat e'tiborini tasvirlayotgan voqea-hodisaga yana bir bor qaratish maqsadida uni takrorlaydi, takrorlanuvchi komponent doimo mantiqiy urg'u oladi, natijada uning ta'sirchanligi, voqeiyli oshadi [6 -18 b]. Demak, bunday ko'rinishda shakllanish xususiyatiga ega bo'lgan ilovali elementlarning stilistik funksiyalari nihoyatda salmoqli bo'ladi; ikkinchidan, ilovali element tarkibida inversiya hodisasini kuzatamiz, chunki takrorlanuvchi komponentlar oddiygina takrorlanib qolmasdan, balki o'zgaradi, demak bu yerda qandaydir sinonimik holat namoyon bo'ladi; uchinchidan, ilovali elementning strukturaviy shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan holat, ya'ni biz bu yerda til elementlarini tejash usuliga duch kelamiz. Natijada, ilovali elementlar yetakchi gap tarkibida tushirilib qoldirilgan komponentni to'ldirish, tiklash

maqsadida namoyon bo'libgina solmasdan, ularning o'zi ham shu asosiy ifoda tarkibida keluvchi komponentlar yordamida tiklanishi mumkin degan xulosaga ega bo'lamiz. O'zaro bog'liqlik ilova konstruksiya komponentlariga xos bo'lgan yana bir muhim xususiyatni, ya'ni asosiy ifoda bilan ilovali elementlar o'rtasidagi sintaktik-semantik bog'liqlikni yana isbotlaydi. Ilovali elementlar oldida keluvchi biriktiruvchi bog'lovchilar bunday vazifalarni bajarmaydi. Bu ilova komponentlar orasidagi sintaktik aloqalar ularsiz ham ifodalanib kelishi mumkin. Lekin shunga qaramasdan ilovali elementlarga xos bo'lgan xususiyatlarni alohida ta'kidlash o'rinli deb hisoblaymiz, chunki biriktiruvchi bog'lovchilarga ega bo'lgan bunday ilovali elementlar shu turdagi ilovali elementlarning alohida olingan strukturaviy guruhlarini tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu strukturaviy guruh alohida ta'kidlanishi lozim.

Ba'zi bir hollarda murakkab strukturaviy ilova konstruksiyalarni tashkil etishda bir xil sintaktik xarakterga ega bo'lgan predloglar ishtirok etishi mumkin:

Er ist in der Nähe der Eldbrücke. Er kaut langsam. Welt er nachdenkt. Über Fanselow. Und über sich.

Bunday tartibda hosil bo'luvchi ilovali elementlar doimo polifunksional xarakterga ega bo'lishadi, chunki birinchi ilovali element bunday hollarda ikki xil vazifada keladi: asosiy ifoda uchun ilovali element vazifasida, ikkinchi ilovali element uchun asosiy ifoda vazifasida. Murakkab ilova konstruksiya tarkibida asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning soni ikkitadan ham ortiq bolishi mumkin. Bunday murakkab strukturaga ega bo'lgan ilovali elementlarni quyidagi tahlil qilinayotgan misollar tarkibida kuzatib borish mumkin:

Sie sah an sich herunter. Dunkles Leinenkleid. Ein wollnes Umschlangtuch. Schuhe von der gewöhnlichsten Art.

Yuqoridagi ilovali elementlarning tahliliga tayanib, ularga xos bo'lgan yana bir sintaktik xususiyatni alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq, u ham bo'lsa ilova konstruksiya tarkibida keluvchi asosiy ifoda bilan ilovali elementlarning strukturaviy shakllanishidir. Boshqacha qilib aytganda, asosiy ifodaning strukturaviy shakllanishi hamma vaqt ham ilovali elementlarning strukturaviy shakllanishiga mos kelavermaydi. Bu xulosaning isboti sifatida T.M.Timoshenkoning ingliz tili materiallari asosida olib borgan izlanishidan quyidagi mulohazani keltiramiz: "Asosiy ifoda ham, ilovali element ham kommunikativ nuqtai nazardan bir xil strukturaviy shaklga ega bo'lmaydi, shu sababli ilova konstruksiya na bog'langan qo'shma gapga va na ergashgan qo'shma gapga o'xshaydi, ular o'zgacha struktura kashf etadi" [5-98 s].

Haqiqatdan ham, agarda biz bu yerda tahlil qilingan va tahlil qilinishi lozim bo'lgan ilova konstruksiyalarning strukturaviy shakllanishini bir-biriga qiyos qilib o'rgansak, yuqoridagi mulohazaning to'g'riligiga to'lig'icha ishonamiz, chunki ilova konstruksiyalar har-xil strukturaviy shakllanishga ega. Bunday shakllanishda yo asosiy ifoda, yo ilovali element ma'lum murakkablashgan shaklga ega bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi asosiy ifodaning strukturaviy shakllanishi boshqa misollardagi ilovali elementlarning strukturaviy shakllanishidan keskin farq qiladi. Demak, ilova konstruksiya tarkibida asosiy ifoda ilovali elementlarga nisbatan qanday strukturaviy shakllanishga ega bo'lmasin, bu ilova konstruksiya ham strukturaviy va ham ma'noviy tomondan ana shu ilovali element yordamida yakunlanadi, demak ilovali element har qanday strukturaviy shakllanishda yakunlovchi, tugallovchi komponent sifatida yuzaga keladi.

Agar biz transformatsion uslubdan foydalanib, yuqorida keltirilgan misoldagi bu ikkala ilovali elementni asosiy ifoda vazifasida keluvchi gap tarkibida joylashtirsak, u holda –weil er über Fanselow und auch über sich nachdenkt -bitta ergash gap hosil bo'ladi. Biroq, yozuvchi shu ergash gap tarkibidagi ayrim komponentlarning muhimroq ekanligini ko'rsatish, ularni alohida ta'kidlash maqsadida ana shu ilovali elementlarga murojaat qiladi va ularni ilovali element funksiyasida qo'llaydi. Natijada, bu ilovali elementlar kitobxonning ham diqqat e'tiborini o'ziga jalb qiladi, chunki sintaktik jihatdan ilovali elementlar yolg'iz kelishi mumkin emas, lekin kelganda ham nimagadir bevosita bog'liq bo'lishi shart. Bu bog'liqlik ikki tomonlama sodir bo'lmoqda, ya'ni strukturaviy va ma'noviy. Strukturaviy bog'liqlik ilovali elementning asosiy ifodadan keyin turishi, ya'ni ikkinchi darajada turishini ta'kidlasa, ma'noviy bog'liqlik esa ilovali elementlarning asosiy ifodasiz mavjud bo'la olmasligini ta'kidlaydi, sabab oldingi gap tarkibida tushirilib qoldirilgan fikr ilovali elementlar yordamida tiklanadi, to'ldiriladi, aniqlashtiriladi. Demak, asosiy ifoda bilan ilovali elementning bunday ikki tomonlama bog'liqligi har qanday ilova konstruksiya sintaktik yaxlitligini kashf etadi, natijada bunday ilova konstruksiyalar murakkab sintaktik butunlik ramkasida talqin qilinadi. Bu holat ilova konstruksiya - bu murakkab sintaktik butunlik, yoki aksincha murakkab sintaktik butunlik - bu ilova konstruksiya, degan tushunchani taqozo etadi. Shu sababli biz ish jarayonida bu ikkala terminologik tushunchalardan parallel ravishda foydalanishni doimo ijobiy deb qaraymiz.

Ta'kidlash kerakki, ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday xususiyatlar, ilovali elementlar soni beshtadan iborat bo'lgan ilova konstruksiya tarkibida ham takrorlanib kelishi mumkin.

Die Schuhe, nun, die hatte er mitgebracht, dass waren seine. Auch die Hose. Aber den Militärrock. Einen blauen, ganz neuen. Und dann die Weste. Und den weißen Gürtel mit den Taschen.

Bu yerda ilova konstruksiya tarkibidagi asosiy ifodaga beshta ilovali element birikib kelgan. Ilovali elementlarga xos bo'lgan bunday birikish yuqorida aytilgan bu turdagi fikr va mulohazalarimizni yana bir bor isbotlamoqda. Chunki, ilovali elementlar bilan asosiy ifoda o'rtasida ham parallel va ham ketma-ketlik mavjud.



Boshqacha qilib aytganda, ilovali elementlar o'zlari bevosita bog'liq bo'lgan asosiy ifodaga parallel va ketma-ket birikib kelishadi. Bunday birikish ilovali elementlarga xos bo'lgan vazifalarni yanada kengaytiradi, to'ldiradi va boyitadi. Demak, ilovali elementlar o'zlari bevosita shakllanib kelayotgan ilova konstruksiyalarda xilma-xil vazifalarni bajarib keladi. Bu vazifalarning ba'zi birlarini shu oxirgi misol tahlilida ham takrorlash mumkin: birinchidan, ilovali elementlar ilova konstruksiyaning faqatgina sodda strukturaviy shaklini xosil qilmasdan, balki ularning murakkab strukturaviy shakllarini uch xil bo'lishida ham ishtirok etadi; ikkinchidan, ilovali elementlar polirematik va polifunksionallik xarakteriga ega; jumladan, joylashish o'rni jihatidan uchinchi o'rinda keluvchi ilovali element, joylashishi jihatdan ikkinchi o'rinda turuvchi ilovali element orqaligina –die hatte er mitgebracht- kabi asosiy ifodaga birikib kelishi mumkin; chunki bu ilovali elementning mazmuni bilan uzviy bog'liq, ya'ni uning davomchisi sifatida yuzaga keladi. Xuddi shunday holni qolgan ilovali elementlar tarkibida ham kuzatish mumkin.

Bunday murakkab strukturaviy shaklga ega bo'lgan ilova konstruksiya komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqa vositalari ham, asosan kontaktli so'z vazifasida keluvchi "mitbringen" leksik birligi yordamida tiklanadi. Ilovali elementlarning kommunikativ vazifalari esa asosiy ifoda tarkibida keluvchi -die-ning mazmunini konkretlashtirish, to'ldirish, izohlash va aniqlashtirish uchun yo'naltirilgan. Shuning uchun ham, ilova hodisasini o'rganishga bag'ishlangan juda ko'plab ilmiy-tadqiqot izlanishlarida ilovali elementlar tomonidan asosiy ifoda mazmuniga bildirilayotgan "qo'shimcha" ma'no nihoyatda salmoqli, ta'sirchan, muhim ekanligi alohida qayd qilinadi [4- 344 s].

Shunday qilib, ilova konstruksiyalari o'ziga xos sintaksik hodisa bo'lib, ular qo'shimcha sifatida paydo bo'lgan ifoda funksiyasini bajarib keladi, ular strukturasi ko'ra ilovali element deb ataladi. Ana shu ilovali element asosiy ifoda (asosiy gap) ma'nosini aniqlashtirib, rivojlantirib keladi, ma'lum darajada izohlab beradi. Bunday sintaktik strukturalar odatda ikki qismdan iborat bo'ladi, birinchi qism asosiy axborotni, ikkinchisi esa qo'shimcha xabarni ifodalab keladi [7 -44 b]. Ular nutqda birliklarning funksional qo'llanilishi birlashtiradi, ularning yordamida so'zlovchining ongida va uning nutqida asosiy ifodadan keyin, asosiy fikr bildirilgandan so'ng yuzaga keladigan qo'shimcha ma'no beradigan ifoda keltiriladi.

Bir qator germanist olimlar murakkab sintaktik butunlikning strukturasi ko'ra turlarini aniqlashda nafaqat sintaktik belgilarga, balki stilistik belgilarga ham asosiy e'tiborni qaratadilar. Shunday olimlar qatoriga B.T.Tursunovni ham kiritish mumkin. U nemis tili materiallari asosida ilova hodisasini sintaktik aloqaning o'ziga xos turi sifatida tadqiq qilib, murakkab sintaktik butunlikning struktur turlarini aniqlashda sintaktik belgilar bilan birga statistik belgilarni ham hisobga olish kerakligini ta'kidlaydilar [8 -44 b]. B.T.Tursunov ilovali element larning quyidagi struktur turlarini ajratib ko'rsatadi:

- 1) bog'lovchili ilovali elementlar;
- 2) bog'lovchisiz ilovali elementlar;
- 3) leksik takrorga asoslangan ilovali elementlar;
- 4) ma'lum masofada joylashgan ilovali elementlar;
- 5) javob replikasi sifatida qo'llanadigan ilovali elementlar;
- 6) murakkab strukturali ilovali elementlar.

Ta'kidlash lozimki, bog'lovchili va bog'lovchisiz hamda boshqa strukturali konstruksiyalar har qanday murakkab sintaktik butunlikning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi, ularni murakkab sintaktik butunlikning ko'rinishlari qatoriga kiritish mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Ванников Ю.В. Существует ли присоединительная связь предложения? Труды ун-та Дружбы народов им.П.Лумумбы –М., 1965, Т. 8. Вып. 2. С. 1963-180
2. Кобрин А.А. Стилистические средства связи между самостоятельными предложениями в английском языке. Автореф. дисс...канд. Фил. Наук. – Л., 1963, -32с.
3. Мильк В.М. Интонация присоединения в современном английском языке в сравнении с русским. Автореф. дисс... канд. филол.наук. – М., 1960, -155.
4. Moskalskaja O.I. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. -М., 1983. -344 S.
5. Тимошенко Т.М. Присоединение как особый вид синтаксической связи. Вестник Харьковского гос.ун-та, №159, вып. 1977. -с. 96-100 .
6. Сидорова Е.Г. Место присоединительных предикативных конструкций в синтаксической системе современного русского языка / Е.Г.Сидорова // Вопросы филологии. Спецвыпуск: VI Междунар. науч. конф. "Язык культура, общество". – М., 2011. –С. 18-19.
7. Бегматов М.Б. Иловали элементларнинг матнда ифодаланиши. Таржима, ахборот, мулоқот-сиёсий ва ижтимоий кўприк. Халқаро илмий амалий анжуман материаллари. Смарақанд. 2018, 403-404 бетлар.
8. Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи. Автореф. дисс. док. филол. наук. Санкт-Петербург, 1993 – 44 с.
9. Раҳимов М.Р. Немис тилида илова конструкциялари ҳақида. Таржима, ахборот, мулоқот – сиёсий ва ижтимоий кўприк. Халқаро илмий амал. анжум. материаллари. Самарқанд 2019, 115-117 б.

10. Бушуй А.М. Язык и его основные функции. Заонавий лингвистик тадқиқотлар ва чет тилларни ўқитиш дидактикаси. Республика илмий амалий анжуман материаллари. Самарқанд, СамДЧТИ нашри. 2017, 72-75 б.

11. www.all-referats.ru

12. www.nauka-shop.com

13. www.dissforall.com

**UDK 81: 81-44: 81-33**

**O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA «AYOL» VA «ERKAK» TUSHUNCHALARINING GENDER FARQLARI, STEREOTIPLARI O‘ZBEK VA NEMIS XALQ MAQOLLARI MISOLIDA**

**B. Q. Jo‘raxolova**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

bahora\_88@mail.ru

**Annotatsiya.** Bugungi kunda gender tilshunosligida ko‘plab tadqiqotlar olib borilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, maqolada o‘zbek va nemis tillarida “ayol” va “erkak” tushunchalarining genderlik xususiyatlari va farqlari keng yoritib beriladi. Ushbu maqolada gender tadqiqotlarining qisqacha tarixi, bugungi kundagi roli, rivojlanish bosqichlari, gender stereotiplarining keng qo‘llanilishi, ayol va erkak tushunchalariga doir nemis va o‘zbek xalq maqollari misolida tushuntirib beriladi. Maqollar yordamida har ikki jins vakillarining his-tuyg‘ulari, shaxslararo o‘zaro munosabatlari, xulq-atvori, axloq-odobiga tegishli bo‘lgan barcha hislatlar genderlik tadqiqotlari yuzasidan tahlil qilinadi. Bundan tashqari maqolada feminist olimlarning gender tushunchasini farqlashning ijtimoiy jihatlariga ham to‘xtalib o‘tiladi: ya‘ni, “ayol” va “erkak” ning ijtimoiy o‘xshashlik va farqli jihatlariga o‘zaro solishtiriladi. Bunda o‘zbek va nemis tillaridagi gender tushunchalar, turli qarashlar va fikrlar o‘rganib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** gender stereotiplari; gender tadqiqot; gender farqlar; “ayol” va “erkak” stereotiplari; gender xususiyatlari; gender ta‘limi.

**Гендерные различия, стереотипа концепций «Женщина» и «Мужчина» на узбекском и немецком языках, на примере узбекском и немецком пословицах**

**Аннотация.** Мы видим, что сегодня существует много исследований по гендерной лингвистике. В частности, в статье подробно рассматриваются гендерные различия в понятиях «женский» и «мужской» в узбекском и немецком языках. В этой статье представлен обзор гендерных исследований, их текущей роли, этапов развития, широкого использования гендерных стереотипов и примеров немецкого и узбекского фольклора о женских и мужских концепциях. В статьях анализируются характеристики обоих полов, их межличностные отношения, их поведение, их поведение и их пол. В статье также освещаются социальные аспекты гендерно-феминистской гендерной дифференциации: проводится сравнение социальных сходств и различий между «женским» и «мужским». Он исследует гендерные концепции, различные точки зрения и идеи на узбекском и немецком языках.

**Ключевые слова:** гендерные стереотипы; гендерные исследования; гендерные различия, стереотипы «женский» и «мужской»; гендерные характеристики; гендерное образование.

**Gender differences, erases of concepts of “Women” and “Men” in uzbek and in german, examples of uzbek and german people's proverbs**

**Abstract.** We see that today there are many studies on gender linguistics. In particular, the article discusses in detail the gender differences in the concepts of “female” and “male” in the Uzbek and German languages. This article provides an overview of gender studies, their current role, developmental stages, the widespread use of gender stereotypes and examples of German and Uzbek folklore about female and male concepts. The articles analyze the characteristics of both sexes, their interpersonal relationships, their behavior, their behavior and their gender. The article also highlights the social aspects of gender-feminist gender differentiation: a comparison is made of social similarities and differences between “female” and “male”. He explores gender concepts, various points of view and ideas in Uzbek and German.

**Keywords:** gender stereotypes; gender studies; gender differences, stereotypes of “female” and “male”; gender characteristics; gender education.

Bugungi kunda gender tadqiqotlari barcha gumanitar fanlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, ushbu soha ilmiy qo‘llanmalarga xos atamashunoslikni o‘z ichiga oladi. Gender ta‘limining mavzusini jamiyatda

mavjud bo'lgan ayollar va erkaklar, ular o'rtasidagi farqlar, bu ikki jins vakillarining o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi. Ushbu mulohazalar "erkak" va "ayol" degan nomga ega bo'lib, ba'zan "ayollik"(ayol) atamasini ham uchratish mumkin.

Bundan tashqari, gender tadqiqotlarining vazifasi–ikki jins vakillari o'rtasidagi turli xususiyatlarni ko'rib chiqishi va ijtimoiy tadqiqotlar mavzusini siyosiy jihatdan ijobiy va demokratik tamoyil sifatida neytral va xolis baholashdir.

Shu sababdan gender tadqiqotlari odamlarni his qilishning o'ziga xos stereotiplari, shaxslararo munosabatlar, ularning xulq–atvorini shakllantiruvchi stereotiplar va ularni baholash, ideal insonni yaratish stereotiplari–ma'lum bir jinsga tegishli bo'lish nuqtai nazar bilan shug'ullanadi.

Gender stereotiplari–ma'lum bir tarixiy davrda jamiyat uchun barqaror bo'lgan, erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'zaro farqli xususiyatlar to'g'risidagi g'oyalardir. Gender stereotiplarini insonlar orasida ham, jamiyatda ham uchratish mumkin. Shuning uchun gender tadqiqoti asosan psixologik (psixanalitik), iqtisodiy, siyosiy nazariyalarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, gender stereotiplarini o'rganishning ikki bosqichi mavjud bo'lib, ular: 1. Jinsiy identifikatsiya, 2. Gender rollari.

Gender stereotiplari «ayollar» va «erkaklar»ning xususiyatlari to'g'risida ijtimoiy bilimlarni o'z ichiga olgan kognitiv tuzilmalardir.(16. Thomas Eckes: Geschlechterstereotype: Mann und Frau in sozialpsychologischer Sicht) Ushbu ta'rif gender stereotiplarining ikki tomonlama xususiyatini ko'rsatadi: bir tomondan, ular "individual bilimlarga ega bo'lish" ga tegishli bo'lsa, boshqa tomondan ular "jinslarning tipik xususiyatlarini madaniy jihatdan birgalikda tushunish" ning asosini tashkil etadi.(17.Ruth Becker: Handbuch Frauen- und Geschlechterforschung: Theorie, Methoden, Empirie)

Gender stereotiplari bilimga asoslangan bo'lsada, stereotiplar–bu ma'lum bir odamlarga, stereotipga asoslangan bilimlarni qo'llash jarayonidir.(17.Ruth Becker: Handbuch Frauen- und Geschlechterforschung: Theorie, Methoden, Empirie)

Gender stereotipi va roli atamaları bir–biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Dorote Alfermanning ta'kidlashicha gender roli adabiyotda nomuvofiq tarzda ishlatiladi.(5.Dorothee Alfermann: Geschlechterrollen und geschlechtstypisches Verhalten.) Bunda gender stereotipi jins stereotiplaridan farqli o'laroq gender roli atamasini ham umumlashtiradi. Gender rolining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ijtimoiy jihatdan ajratilgan jinsi tufayli odamlarga yo'naltirilgan ijtimoiy mushtarak xulq–atvoriga bo'lgan e'tibordir.

Biz gender tilshunosligini o'rganar ekanmiz, albatta ikki til o'zbek va nemis tillaridagi "ayol" va "erkak" tushunchalariga doir xalq maqollaridan foydalangan holda, har ikkala xalqning ikki xil jins vakillari genderlik xususiyatlarini aniqlash, izlab topish va o'rganishni maqsad qildik.

Masalan, o'zbek xalqi hamma zamonlarda ham ayol kishiga katta bir hurmat, ehtirom sifatida qaragan. Ayniqsa, ayol kishi bu–mo'tabar ona, rafiqa, uy bekasidir. *Ayolning sarishtasi-ro'zg'orning farishtasi; Ona daraxt–bola meva; Ona olam faxridir; Xotin erga oyna; Ona mehribon–ota g'amguzor; Ayol tilini ayol bilar.*(7.Mirzaev T., Musoqulov B., Sarimsoqov., O'zbek xalq maqollari)

O'zbek xalqi erkak kishilarni har doim mardlik, jasorat, sadoqat, uy-ro'zg'orning ustuni, farzandlariga namunali ota timsoli sifatida tariflaydi. *Er bor erda zo'r bor; Erning ishin el bilar; Er yigit elga tortar; Ota g'ayratli bo'lsa, bola ibratli bo'lar; Erning otini el chiqarar; Eringga yoqding, elingga yoqding.*(7. Mirzaev T., Musoqulov B., Sarimsoqov., O'zbek xalq maqollari)

Bundan tashqari o'zbek xalq maqollarida erkak va ayol kishining oiladagi munosabatlari, ularning bola tarbiyasida tutgan o'rni haqida ham turli xil misollarni keltirishimiz mumkin. *Masalan: Erdan sadoqat, xotindan itoat; Er–xotin qo'sh qanot; Er avra, xotin astar; Er quyosh yo'ldoshi, xotin umr yo'ldoshi; Ota aql, ona idrok; Xotin bo'yin, er bosh; Onangni quyosh bilsang, onangni oy bil; Ona kulfatin ona bilar, ota kulfatin ota; Er daladan, xotin uydin; Onaga o'xshab qiz tug'ilmas, otaga o'xshab o'g'il; Onalik uyning ori bor, otalik uyning zari.*(7. Mirzaev T., Musoqulov B., Sarimsoqov., O'zbek xalq maqollari)

"Feminist olimlarning gender jihatidan farqlashning ijtimoiy jihatini ta'kidlashlari uchun kiritilgan" genderdan farqli o'laroq, erkak va ayolning farqlari haqida gaplashganda, ular biologik farqni bildiradilar, jins haqida gapirganda–ular ma'lum ijtimoiy–madaniy ta'riflardan ayollar va erkaklar konsepsiyasini belgilaydi va ularni ijtimoiy maqomidagi dastlabki farqni taklif qiladilar.(15. Hearnsey J. The Oxford Companion of Philosophy 305 b)

Misol uchun, "Ayollar huquqlarini himoya qilish" (2.Воронина О.А.Введение в гендерные исследование) nomli kitobning birinchi feministik ishlari, masalan, "Ayollar huquqlarini himoya qilish" kitobi, ijtimoiy tengsizlik va ta'lim tizimida bu tengsizlikni tushuntiradi; "Agar ayollar aslida jonli mavjudotlar kabi harakat qilsalar, unda ular qul yoki uy hayvonlari sifatida emas, balki odamlarning do'stlari deb hisoblash kerak" (10,24-39 b).

Nemis xalqi ayol kishini go'zallik, nafosat, noziklik timsoli sifatida xalq maqollarida gavdalandiradi. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin. *Das Haar einer Frau ist ihre krönende Schönheit; Hübsche Frauen altern nicht, denn sie können nur bis dreißig zählen; Frauen haben langes Haar und kurzen Sinn; Die gut aussehende Frau braucht keine Schminke; Des blinden Mannes Frau braucht keine Schminke.*(4. Duden 2002: Redewendungen. Band 11)

Erkak kishilar esa odatda maqollarda aql va tashqi ko'rinish jihatidan tasvirlanadi. Masalan: *Der Mann ist was er isst; Ein hässlicher Mann findet eine schöne Frau; Ein Mann braucht nur so schön zu sein, dass sein Pferd nicht scheut; Frage einen alten Mann, wenn du einen guten Rat brauchst; Lieber einen Mann ohne Geld als das Geld ohne einen Mann;* (6. Mieder, Wolfgang 2000: Aphorismen, Sprichwörter, Zitate von Goethe und Schiller bis Kemperer. Sprichwörterforschung)

Germaniyada ham ayol kishi erkak kishiga nisbatan ko'proq gapirishi xalq maqollarida ham o'z isbotini topgan. *Ein Mann ein Wort, eine Frau ein Wörterbuch; Frauen sind großartige Erzählerinnen; Wer eine Frau hat, hat Streit; Ein Mann ist nur so weise, wie seine Frau meint; Der Mann ist Kopf, die Frau hingegen das Genick; Männer regieren aber Frauen beherrschen; Frauen und Elefanten vergessen niemals.*(6.Mieder, Wolfgang 2000: Aphorismen, Sprichwörter, Zitate von Goethe und Schiller bis Kemperer. Sprichwörterforschung)

Bundan tashqari nemis tilidagi maqollarda erkaklarning ayollarga nisbatan yomon munosabatlarining tasviri kam uchraydi. Misol tariqasida *Wer seine Frau schlägt, der schlägt mit seiner linken Hand die rechte*(Mieder 1988.); *Weiber schlagen gibt schlechte Ehre* o'zbek tiliga *Kimki o'z ayolini ursa, uning chap qo'li o'ng qo'lini uradi;* yoki *Xotinlarni urish behurmatlik demakdir.* Yana bir misol nemis tilida: *Wer Weib und Kind nicht regieren kann, ist nicht einmal ein halber Mann* – o'zbek tilida *Ayoli va bolasini boshqara olmagan erkak, erkak emasdir* degan ma'nolarni bildiradi. Mazkur maqollarda *Weib und Mann* –ayol va erkak tushunchalari orqali ayollarga xos bo'lgan bo'ysunuvchanlik, eriga bo'lgan hurmatninig yashirin ko'rinishi namoyon bo'lsa, qattiqqo'llik, bag'rikenglik, oilani boshqaruvchanlik kabi erkak kishiga xos bo'lgan ijobiy fazilatlar o'z ifodasini topgan.

Bundan ayon bo'ladiki, genderlik xususiyatlari maqollarda har bir jins vakilining o'z xarakter ifodasi, turmush tarzi va tashqi ta'sirlar, erkak va ayol kishining ijtimoiy hayotda tutgun o'rnidan kelib chiqishi atijasida paydo bo'ladi.

Maqollarda ayol kishining oila, do'stlar davrasidagi o'rniga to'g'ri baho berish juda muhim hisoblanadi, ya'ni: ayol bu-ona, turmush o'rtoq, uy bekasidir. Nemis xalq maqollarida ayol kishi predikatsiya-ya'ni aniq bir asoslarga ega bo'lmagan, ammo go'zal xislatlarni o'zida jamlagan bir ob'ekt sifatida ifodalanadi. Misol uchun nemis tilidagi *Ein Weib ohne Tugend ist ein goldener Becher mit saurem Wein* yoki *Ein Weib ohne Tugend ist ein Buch ohne Register* o'zbek tiliga *Na'munaviy xulqi bo'lmagan ayol, bo'm-bo'sh kitobga o'xshaydi.* Ko'rinadiki, ayol kishi nafaqat o'zining jozibasi, go'zalligi bilan, balki go'zal na'munaviy xulqi bilan ham atrofda gilarining nazariga tushishi lozim. Maqollarda ayollarning xarakterlarini ochib berishda turli buyumlar, predmetlardan badiiy motiv sifatida foydalaniladi. Misol uchun yuqoridagi maqolda ayolning xulq-atvorini tasvirlashda *Wein-vino, ichimlik,* yoki *Becher-idish, ein Buch –kitob* kabi turli mavzularga oid so'zlar kishilarning genderlik xususiyatlarini turli badiiy o'xshatishlar yordamida yoritishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda nemis tilida "iqtiboslarni" anglatadigan maqollarni ham keltirib o'tsak. Masalan: nemis tilida *Eine kluge Frau macht den Mann vernünftig – Aqli ayol erini ham aqli qiladi; Ohne Frauen und Wein kann niemand fröhlich sein – Ayollar va sharobsiz hech kim baxtli bo'lolmaydi;*

Ma'lumki, o'zbek xalqi erkak kishilarni har doim mardlik, jasorat, sadoqat, uyning ustuni, namunali ota timsoli sifatida tariflaydi. *Er bor erda zo'r bor; Erning ishin el bilar; Er yigit elga tortar; Ota g'ayratli bo'lsa, bola ibratli bo'lar; Erning otini el chiqarar; Eringga yoqding, elingga yoqding* (7. Mirzayev T., Musoqulov B., Sarimsoqov., O'zbek xalq maqollari . 512 b.).

Yuqoridagi maqollar yordamida nemis va o'zbek tillarida uchraydigan "ayol" va "erkak" tushunchalarining gender xususiyatlari solishtirildi. Bunda maqollarda kelgan har ikkala tushunchaning genderlik jihatdan qo'llanilish uslubi, xususiyatlari o'rganildi. Maqollar yordamida har ikki jins vakillarining his-tuyg'ulari, shaxslararo o'zaro munosabatlari, xulq-atvori, axloq-odobiga tegishli bo'lgan barcha hislatlar genderlik tadqiqotlari yuzasidan tahlil qilindi.

Shuni aytish joizki, nemis va o'zbek tili xalq maqollarida *ayol va erkak* obrazlarining har ikki tilda uchraydigan genderlik xususiyatlari, ularning belgilari, o'xshash va farqli jihatlarini ochib berish gender lingvistikaning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalish germanistika sohasida hali ko'p o'rganilmaganligi sababli, ilmiy tadqiqotimizda shu mavzuni yoritishga harakat qildik.

Maqolada qiyoslanayotgan ikki tildagi maqollar gender xususiyatlaridagi o'xshash va farqli tomonlari o'rganildi va tahlil qilindi. Izlanishlar davomida ayol va erkakning xarakteri, ijtimoiy hayotda tutgan roli, ayollik motivlari, gender stereotiplari genderlik nuqtai nazaridan o'rganildi.

Xulosa qilib aytganda, gender tilshunosligida "ayol" va "erkak" tushunchalarining o'zaro genderlik xususiyatlari, o'xshash va farqli tomonlari haqida ko'plab fikrlar, qarashlar keltirib o'tilgan. Biroq, o'zbek va nemis tillarida ushbu soha yuzasidan hali ko'plab tadqiqotlar olib borish zarur bo'ladi. Bunda har ikki tilda uchraydigan gender frazeologik birliklar, iboralar va xalq maqollaridan foydalangan holda o'zbek va nemis tili tilshunosligida yangi sohalardan biri bo'lgan gender tilshunosligining rivojiga o'z hissamizni qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### Adabiyotlar

1. Ayolga ehtirom. – T.: 1999. – 143-144 betlar.
2. Воронина О.А. Введение в гендерные исследования (Тезисное изложение лекции) // Материалы первой российской летней школы по женским и гендерным исследованиям «Валдай - 96». М., 1997. – 31с.
3. Becker, Georg (Hg.) 2006: Nietzsche-Zitate. Leipzig: Buch Verlag für die Frau GmbH.
4. Duden 2002: Redewendungen. Band 11. Mannheim: Duden.
5. Dorothee Alfermann: Geschlechterrollen und geschlechtstypisches Verhalten. Stuttgart Kohlhammer Verlag, 1996.
6. Mieder, Wolfgang 2000: Aphorismen, Sprichwörter, Zitate von Goethe und Schiller bis Kemperer. Sprichwörterforschung. Band 22. Bern: Lang.
7. Mirzaev T., Musoqulov B., Sarimsoqov., O'zbek xalq maqollari, T: SHarq.2003.-512 b.
8. Попова Л. В. Гендерные аспекты самореализации личности. М., 1996. -17-18 с.
9. Scott J. Gender: A useful category of historical analysis // American Historical Review. 1986. № 1053-1075. Z. 1067.
10. Uollstonkraft M. В. Защиту прав женщин // Феминизм : проза , мемуары, письма.-М.,1992. - 24-39 с.
11. Shaburova O.V. Gender. Minsk: Panprint, 1998. – 178 b.
12. Шабурова О.В. Гендер//Современный философский словарь под редакцией В.Е.Кемерова. Минск, Панпринт, 1998. –183 с.
13. Xolmatova M. Jamiyatda ayollarning o'rni(tarixiy-falsafiy tahlil). / Ekologiya va ayol. Farg'ona. 2001. 109-110 betlar.
14. Egamberdieva T. Ayol va davr. T. Mehnat. 1994. -6-7 betlar.
15. Hearnshaw J. The Oxford Companion of Philosophy. N.Y: 1995. -305 b.
16. Thomas Eckes: Geschlechterstereotype: Mann und Frau in sozialpsychologischer Sicht. Pfaffenweiler Centaurus Verlag, 1997; Zitiert nach: Thomas Eckes: Geschlechterstereotype: Von Rollen, Identitäten und Vorurteilen.
17. Ruth Becker: Handbuch Frauen- und Geschlechterforschung: Theorie, Methoden, Empirie. 3. Auflage, Wiesbaden VS Verlag für Sozialwissenschaft, 2010, S. 178
18. Ursula Athenstaedt, Dorothee Alfermann: Geschlechterrollen und ihre Folgen. Eine sozialpsychologische Betrachtung. Stuttgart Verlag W. Kohlhammer, 2011, S. 22

#### UDK: 81

### NEMIS TILIDA HAYVON VA UNING A'ZOSI NOMI ORQALI VOQYELANGAN QO'SHMA TERMINLAR

**B. M. Mirsanov**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson psixikasiga xos tasavvurlarning o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan nemis tilida hayvon va hayvon a'zosi nomi hamda qush va qush a'zosi nomi bilan shakllangan qo'shma terminlarning nomlanishi va ularning motivlashuvi entsiklopedik lug'atlar asosida tadqiq etiladi. Ushbu tadqiqot ishida nomlash jarayonida tilshunoslikda nom ko'chirishning lingvistik va ekstralingvistik omillariga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** nomlash, tafakkur, termin, assotsiatsiya, motivlashuv, komponent, metafora, model.

### Названия растений сформирование имени животного и его членов в немецком языке

**Аннотация:** В данной статье исследуются сложные термины сформированные от имени животного и часть его тела, птицы и часть его телосложения на основе сравнительной ассоциации психического представления человека и их мотивация на основе энциклопедических словарей. В данной научной работе обращено внимание на лингвистические и экстралингвистические факторы переноса номинации лингвистики в процессе наименования.

**Ключевые слова:** название, мышление, термин, ассоциации, мотивация, компонент, метафора, модель.

### Names of a plant formation of named animal and its members in the german language

**Abstract.** This article explores complex terms formed on behalf of an animal and part of its body, bird and part of its physique on the basis of a comparative association of a person's mental representation and their motivation on the basis of encyclopedic dictionaries. In this scientific work, attention is paid to linguistic and extralinguistic factors of the transferring of linguistic nomination in the process of naming.

**Keywords:** name, thought, expression, association, motivation, component, metaphor, model.

Nemis tili terminsistemalarining barchasida qo'shma terminlar mavjud. Shunday ekan, bunday terminlarning nemis tili leksikologik tizimning o'ziga xos ichki tizimi ekanligini hisobga olsak, bu masalaning o'rganilishi ham qo'shma so'zlarning qanchalik o'rganilganligiga bog'liq ekanligi o'z-o'zidan ayon. Shuning uchun ham nomlash jarayoni juda murakkab jarayon ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu murakkab jarayonni amalga oshirishga insonga xos assosiativ tafakkur yordamga keladi. Ko'pincha bunday terminlar qo'shma tarzda shakllanadi.

Hayvon va uning a'zosi nomi o'xshashlik assotsiatsiyasi qonuniyati asosida kechib, nomini kutayotgan o'simlikning biror belgisini anglatadi. Bu jarayon metaforik ko'chim deb baholanadi.

Endi ensiklopedik tavsifga e'tibor bering:

Bärenklau (f) – lat. *Heracleum sphondylium*; *Heracleum mantegazzianum* – baumartiger Riesenbärenklau (m), Herkuleskraut (n) *Heracleum sphondylium* – deutscher Bärenklau (m), gemeiner Bärenklau (m), Bärenklaukraut (n), Wiesenbärenklau (m), Heilkraut (n), unechter Bärenklau (m) (Bolotina 2008: 874, 875). Bärenklau (f) = *Akanthus* [nach den mit einer Bärenklaue vergleichbaren Blättern] (Wahrig 1991). Der deutsche Name leitet sich von der Bärenklaue ab, daher bevorzugen manche die weibliche Form die Bärenklau; laut Duden ist sowohl die männliche als auch die weibliche Form erlaubt [*Heracleum URL*]. *Heracleum sphondylium* – die Wiesen-Bärenklau. Die Riesen-Bärenklau – lat. *Heracleum mantegazzianum* – Herkulesstaude. Bei Sonnenschein verursacht sein Saft auf der Haut Rötung und Blasen wie bei Verbrennungen. Diese heilen langsam, zurück bleibt oft eine langanhaltende braune Pigmentierung (Spohn, Aichele 2010: 170, 172). *Heracleum* «Bärenklau, Herkuleskraut»: die Benennung des Bärenklaus (*H. sphondylium L.*) geht aus von lat. *Hēraclēa herba* = *spondylium* «Bärenklau, *Heracleum sphondylium*» (Plin. 12, 128); unklar bleibt, welche Beziehungen tatsächlich zum Mythos des Herkules (gr. *Hēraklēs*) bestanden und wieso der antike Name auf den Bärenklau übertragen wurde, der ja nicht als Heilpflanze zu gelten hat (Genaust 2012: 286) [1: 45].

Tavsifda nomning motivlashuviga oydinlik kiritadigan ishora yo'q. Nomning nega shunday deyilishiga sababi ham aytilmagan.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin:

Nom o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obykti – o'simlik, o'xshatish obrazi – ayiqning panjasi, o'xshatma belgi – o'simlik bargining ayiq panjasiga o'xshashligi. Ellipsislashuv: bargi ayiqning panjasiga o'xshagan o'simlik > *Bärenklau*.

Bärentraube (f) – lat. *Arbutus uva-ursi* (*Arctostaphylos uva-ursi*); Echte Bärentraube (f), gemeine Bärentraube (f), immergrüne Bärentraube (f), Arznei-Bärentraube (f) *Arctostaphylos* «Bärentraube»: Name von *Adans.* aufgrund der Nebenbestimmung von *Arbutus uva-ursi L.* und so als Lehnübersetzung dieses Artepithetons gebildet zu gr. *árktos* «Bär»; das Sternzeichen des Grossen Bären; der (hohe) Norden «und *staphylé* = lat. *uva* «Traube»; zirkumpolar verbreiteter Kleinstrauch mit blauschwarzen, zu mehreren gehäuften Beeren (in dieser Hinsicht zunächst auf die Heidelbeere, die bei C. Bauhin, *Pinax* 470, noch *Vitis Idaea*, *fructu nigro* heißt, und sekundär auf die Traube des Weinstocks bezogen) (Genaust 2012: 73). Trivialnamen: Für diese Art gibt es, zum Teil nur Regional, auch die Trivialnamen: Bärbennerstaude (Bern), Bärentraube, Bewell (Pommern), Wilder Buchs (Berner Oberland), Jackaspapuk (Schlesien), Mehlbeere (Celle), Moosbeere (Frankfurt/Oder), Rausch (Tirol), Rauschgraben (Tirol), Sandbeere, Soltebeerenblätter (Redsburger Apotheke), Steinbeere und Wolfsbeere [*Arctostaphylos URL*] [1: 47].

Nom o'xshatish assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyekti – o'simlik, o'xshatish obrazi – ayiq mevasi, o'xshatma belgi – mevasi va barglarini ayiqning xush ko'rib yeyishi. Ellipsislashuv: bargi va mevasini ayiq xush ko'rib uyidigan o'xshagan o'simlik >Bärentraube

Bocksbart (m) – lat. *Tragopogon*; *Tragopogon* «Bocksbart»: Name von L. <lat. *tragopogōn* «Bocksbart»<gr. *tragopōgōn* zu *trágos* «Bock» und *pōgōn* «Bart, Kinn- und Backenbart»; der Vergleich mit dem Bart der Ziegen ergibt sich am ehesten bei *T. dubius*, wenn die Körbe abgeblüht sind und noch keinen Pappus entwickelt haben, sofern man nicht direkt die miteinander verflochtenen Fiedern der Pappushaare heranziehen will (Genaust 2012: 650, 651; Spohn, Aichele 2010: 340). [1: 60]

O'simlik nomi o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyekti – o'simlik, o'xshatish obrazi – takaning soqoli, o'xshatma belgi – qadimgi grek tilidan *tragos* – echki va pogon – soqol tarjima qilinishi hamda o'simlik gullarining shingilsimonligi takaning soqoliga o'xshatiladi. Ellipsislashuv: gul shingillari takaning soqoliga o'xshagan o'simlik >Bocksbart.

Gänseblümchen (n) – lat. *Bellis perennis*; *Bellis perennis* – ausdauerndes Gänseblümchen (n), Augenblümchen (n), Himmelsblume (f), Maiblume (f), Marienblümchen (n), Maßliebchen (n), Mondscheinblume (f), Regenblume (f), Samtröschen (n), Tausendschön (n), *Gänseblümchen* (*Bellis perennis*), auch «Mehrjähriges Gänseblümchen», Maßliebchen, Tausendschön oder schweizerisch Margritli («Kleine Margerite») genannt. Diese weitverbreitete Pflanzenart trägt eine Reihe von volkstümlichen Namen, die regional unterschiedlich sein können. Typisch sind Angelbleamerl, Augenblümchen, Himmelsblume, Marienblümchen, Maßliebchen, Mondscheinblume, Morgenblume, Osterblume, Regenblume, Sommerröschen, Sonnenblümchen und Tausendschön. In der Schweiz auch: Gisegisseli, Geissemeieli, Geisseblüemli, Geissenblümchen, Mülerblüemli oder Margritli. Die Bezeichnung Maßliebchen ist ab dem XIV. Jh. als Maßleben, Maßlieben, Maßlieblin belegt und wahrscheinlich vom mittelniederländischen *matelieve* ins Deutsche entlehnt. Carl von Linné wusste das Gänseblümchen ebenfalls zu schätzen: *Bellis* (lateinisch für schön, hübsch), *perennis* (lat.) für ausdauernd, mehrjährig nannte er diese Pflanzenart [*Bellis perennis* URL]. *Béllis* «Maßliebchen, Gänseblümchen, Tausendschön»: lat. *bellis*, Gen. *bellidis* Gänseblümchen, *Bellis perennis*»; Name wegen des relativ späten Auftretens unklar, viell. mit gräzisiertem Suffix von lat. *bellus* «hübsch» gebildet (Genaust 2012: 97) [1:94-95].

O'simlik nomi o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyekti – o'simlik, o'xshatish obrazi – chiroyli g'oz, o'xshatma belgi – o'simlik gullarining chiroyli g'ozga o'xshatiladi. Ellipsislashuv: guli chiroyli g'ozga o'xshagan o'simlik >Gänseblümchen.

Hahnenfuß (m) – lat. *Ranunculus*; *Ranunculus acris* – scharfer Hahnenfuß (m), Brennkraut (n), Butterblume (f), Gichtkraut (n), Gübrich (m), Hahnentritt (m), Schmalzblume (f) – lyutik yedkiy (Bolotina 2008: 1437). *Ranunculus bulbosus* – knolliger Hahnenfuß (m), Knollenhahnenfuß (m). *Ranunculus repens* – kriechender Hahnenfuß (m). *Ranunculus sceleratus* – Gifthahnenfuß (m); *Ranunculus auricomus* – Goldhahnenfuß (m) (Spohn, Aichele 2010: 294, 296). *Ranunculus flammula* – brennender Hahnenfuß (m) – Der Name bezieht sich auf den brennenden Geschmack und die hautreizende Wirkung der frischen Pflanze (Spohn, Aichele 2010: 292). *Ranunculus arvensis* – der Acker-Hahnenfuß (m) (Groß 2002: 165). Der botanische Gattungsname *Ranunculus* leitet sich vom lateinischen Wort *ranunculus* für «Fröschein» ab, entweder, da viele Arten besonders an feuchten Standorten gedeihen – dort, wo auch Frösche leben, oder wegen ihrer kaulquappenförmigen Früchte («Fröschein» = Kaulquappe). Der Trivialname *Hahnenfuß* bezieht sich auf die vogelfußähnlichen Laubblätter [*Ranunculus* URL]. *Ranunculus* «Hahnenfuß»: lat. *rānunculus* «Wasser-Hahnenfuß, R. *aquitalis*, bzw. Flutender Hahnenfuß, R. *fluitans*, identisch mit *rānunculus* «Fröschein» (Demin. zu *rāna*) und als solches Lehnübersetzung von gr. *batrāchion* «Name verschiedener Sippen von Wasserpflanzen, vor allem den Arten der Gatt. *Ranunculus* zu *bátrachos* «Frosch»; nach der schwimmenden Lebensweise dieser Arten (Genaust 2012: 527) [1:103-104].

O'simlik nomi o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyekti – o'simlik, o'xshatish obrazi – xo'roz oyog'i, o'xshatma belgi – o'simlik gullarining xo'rozning oyog'iga o'xshatiladi. Ellipsislashuv: guli xo'rozning oyog'igao'xshagan o'simlik >Hahnenfuß.

Hayvonning biror belgisi a'zosi nomi bilan shakllangan qo'shma terminlar ham anchagina bor. Ular odatda sifatlovchi – sifatlanmish modelida bo'ladi.

Huflattich (m) – lat. *Tussilago*; *Tussilago farfara* – gemeiner Huflattich (m), Brustlattich (m), Männerblume (f), Märzblume (f), Rosshuf (m), Sandblume (f). Die Pflanze enthält Schleimstoffe, die Husten und Heiserkeit lindern (lat. *tussis* = Husten, *agere* = vertreiben) (Spohn, Aichele 2010: 326). Der Huflattich (*Tussilago farfara*). Nach Madaus stammt der Name der Gattung aus dem lat. *tussis* «Husten» und Suffix -ago von *agere* «treiben» oder in diesem Zusammenhang «vertreiben». Das Art-Epitheton *farfara* ist ebenfalls lat. Ursprungs, von *far*, *farina* «Mehl» und *ferre* «tragen». Damit wird auf die flaumige Behaarung der Blumenunterseiten Bezug genommen, welche die Pflanze wie mehlig bestäubt aussehen



lässt. Der deutsche Name bezieht sich auf die hufförmige Gestalt der Blätter. Der Huflattich gehört nicht zur Gattung der echten Lattiche (*Lactuca*), deren Name vom hohen Gehalt dieser Pflanze an Milchsaft (lat. lac «Milch») herrührt. Der Name – lattich geht auf das lat. *lapaticum* zurück, mit dem man ursprünglich verschiedene großblättrige Pflanzen bezeichnete und das sich über *laptica* und *lattica* zu Lattich wandelte [Huflattich URL]. *Tussilágo* «Huflattich»: lat. *tussilágo* «Huflattich, schon antik als Arzneipflanze gegen Husten und Heiserkeit eingesetzt», Ableitung von *tussis* «Husten» und so Lehnübersetzung von gr. *bēchíon* «Huflattich», zu *béx* «Husten» (Genaust 2012: 666) [1:115-116].

Nom o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyektı – o'simlik, o'xshatish obrazi – hayvonning tuyog'i, o'xshatma belgi – o'simlik bargining hayvon tuyog'iga o'xshashligi. Ellipsislashuv: bargi hayvon tuyog'iga o'xshagan o'simlik >Huflattich.

Lerchensporn (m) – lat. *Corydalis*; *Corydalis remota* – auseinanderstehender Lerchensporn (m). Das obere Kronblatt bildet an seiner Basis einen Sporn. Wegen dieses Sporns, der den Lerchensporn-Arten eine gewisse Ähnlichkeit mit der Haubenlerche (*Galerida cristata*) verschafft, haben die Pflanzen den deutschen Namen «Lerchensporn» erhalten [Lerchensporn URL]. *Corydalis cava* – Hohler Lerchensporn. *Corydalis solida* – Gefingertes Lerchensporn – Tragblätter fingerförmig geteilt. *Corydalis lutea*, *Pseudofumaria lutea* – Gelber Lerchensporn (Spohn, Aichele 2010: 352). *Corydalis* «Lerchensporn»: Name von Vent. nach gr. *korydálion* «eine nicht näher bestimmte Sippe» zu *korydallís*, *korydallós*, *korydalos* usw. neben *kórydos* «Haubenlerche, *Galerida cristata*) zu *kórys* «Helm» (nach der spitzen Federhaube); die gespornte Blüte wird mit der Federhaube von *Galerida cristata* verglichen (Genaust 2012: 180) [1: 145]

Nom o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyektı – o'simlik, o'xshatish obrazi – to'rg'ayning shporasi, o'xshatma belgi – o'simlik bargining to'rg'ay shporasiga o'xshashligi. Ellipsislashuv: bargi to'rg'ay shporasiga o'xshagan o'simlik >Lerchensporn.

Löwenmaul (n) – lat. *Antirrhinum*; Die Löwenmäuler oder Löwenmäulchen (*Antirrhinum*) [Antirrhinum URL]. *Antirrhinum* «Löwenmaul»: lat. *antirrhīnum*, auch *anarrhīnon* «wildwachsendes Löwenmaul» < gr. *antirrhīnon* «Gauchheil» zu *anti* im Sinne von «gleich» und *rhís*, Gen. *rhinós* «Nase»; nach der eigentümlichen Form der Blütenkrone (Genaust 2012: 68). *Anarrhīnum* «Lochschlund»: lat. *anarrhinon* «Wildes Löwenmaul» < gr. *anarrhinon* «eine scharfe, beißende Pflanze»; zu *aná* «hinauf», *rhís*, Gen. *rhinós* «Nase», weil der Geruch in die Nase steigt (Genaust 2012: 60) [1: 151-152].

Nom o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyektı – o'simlik, o'xshatish obrazi – sherning og'zi, o'xshatma belgi – o'simlik gullarining sher og'ziga o'xshashligi. Ellipsislashuv: guli sher og'ziga o'xshagan o'simlik >Löwenmaul.

Löwenzahn (m) – lat. *Taraxacum*; *Taraxacum officinale* – gemeiner Löwenzahn (m), gemeine Kuhblume (f), echter Löwenzahn (m), Butterblume (f), gemeine Hundebblume (f), Milchblume (f), Pfaffenohrlein (n), Pustebblume (f), Schmalzblümchen (n). *Taraxacum platycarpum* – breitköpfiger Löwenzahn (m). *Taraxacum officinale* – Wiesen-Löwenzahn (Spohn, Aichele 2010: 340); der Hundslattich, die Kettenblume (Wahrig 1991); der Gewöhnliche Löwenzahn, die «Pustebblume» oder «Butterblume» [Taraxacum URL]. *Pustebblume* [wegen der sehr losen Fruchtstände, die Kinder gern wegpusten] (Wahrig 1991). *Taraxacum* «Löwenzahn, Kuhblume»: obwohl eine der verbreitetsten und bekanntesten Gatt. überhaupt, ist ihre Benennungsgeschichte und Etymologie weitgehend unerklärt; es ist nicht einmal sichergestellt, wer den jetzt regelhaften Gatt.N. (aufgrund der Neubestimmung von *Leontodon taraxacum* L.) geprägt hat, da die Angaben in den Handbüchern divergieren. – Einleuchtender scheint es mir aber, wegen der allbekannten harntreibenden Wirkung des Gewöhnlichen Löwenzahns, die auch in frz. *pissenlit* zum Ausdruck kommt, von arab. *tarak* «lassen» und *šahha* «pissen» auszugehen (Genaust 2012: 629, 630) [1: 152].

Nom o'xshashlik assotsiatsiyasi asosida shakllangan. O'xshatish obyektı – o'simlik, o'xshatish obrazi – sherning tishi, o'xshatma belgi – o'simlik barglarining sher tishiga o'xshashligi. Ellipsislashuv: bargi sher tishiga o'xshagan o'simlik >Löwenzahn.

Taubenkropf (m) – lat. *Silene*; [1: 245] Lichtnelke (f) – lat. *Silene*; *Silene alba* (*Melandrium album*) – weiße Lichtnelke (f), weiße Nachtnelke (f). *Silene noctiflora* (*Melandrium noctiflorum*) – Ackerlichtnelke (f), Ackernachtnelke (f). Die Leimkräuter (*Silene*) bilden eine Pflanzengattung in der Familie der Nelkengewächse. Einige Arten der Gattung sind als *Lichtnelken* oder *Taubenkropf* bekannt. Rote Lichtnelke oder Tag-Lichtnelke. Der botanische G.Name *Silene* ist die weibliche Form von *Silenus*, einer Gestalt in der griechischen Mythologie [Lichtnelke URL]. Rote Lichtnelke – *Silene dioica*, *Melandrium rubrum*; Kuckucks Lichtnelke *Silene flos cuculi*. Die Blütezeit im Frühling führte zur Namensgebung, da der Kuckuck das Frühjahr ankündigt. Auch der häufig an der Pflanze zu findende Schaum der Schaumzikaden, den man im Volksmund «Kuckucksspeichel» nennt, kann mit dazu beigetragen haben. Weiße Lichtnelke – *Silene latifolia*, *Melandrium album*, *Silene alba* (Spohn, Aichele



2010: 30, 140). Nickendes Leimkraut – *Silene nutans*; Stengelloses Leimkraut – *Silene acaulis* (Wahrig 1991). Taubenkropf-Leimkraut – lat. *Silene vulgaris*. Der wissenschaftliche Name «*Silene*» geht auf Silen zurück. Dieser war in der griechischen und römischen Mythologie ein dickbauchiger, kahlköpfiger Begleiter des Weingottes Dionysos bzw. Bacchus. Die bauchigen, an einen Kropf erinnernden Kelche umgeben später auch die reifen Kapsel Früchte und dienen als Windfang (Spohn, Aichele 2010: 142). *Silene* «Leimkraut»: Name von L., der eine offensichtlich Neuprägung von Lobelius 1576 aufgreift, zu lat. *Silēnus* «Silen, wie der Satyr meist betrunken, fettbäuchig und aufgedunsen dargestellter Begleiter des Bacchus/Dionysos» < gr. *Silēnōs*, mit unbekannter, vielleicht thrakischen Etymologie». Der Vergleich zielt auf den aufgeblasenen Kelch von *S. vulgaris* «Taubenkropf» (Genaust 2012: 584). *Melandrium* «Lichtnelke»: Name von Röhl. 1796 für eine Gattung der Caryophyllac, deren Arten heute meist der Gattung *Silene*, früher der Gattung *Lychnis* zugerechnet wurden bzw. werden. – Auszugehen ist von der Roten Lichtnelke, die Röhling *Melandrium silvestre* (spätere Taxa: *Melandrium rubrum*, *M. dioicum* und *Silene dioica*) nannte; dieses Taxon scheint nun offenbar eine Kontamination zweier älterer, ja antiker Pflz. Namen zu sein, nämlich: 1) lat. *melanthium* = gith. «Schwarzkümmel, *Nigella sativa*»; 2) *malundrum* «eine Sippe», bislang mit erheblichen Bedenken als eine der Lichtnelke ähnliche Sippe gedeutet, aber aus den beschriebenen Gründen sich als Korn-Rade zu identifizieren. Die Etymologie dieses Namens ist bislang unerklärt, aber wahrscheinlich von lat. *malus* «böartig» abzuleiten, wegen der üblen Folgen, die das mit den Samen der Korn-Rade verunreinigte Mehl für den Menschen darstellt(e), sofern nicht schon antik ein Vergleich mit dem Schwarzkümmel vorliegt und das lat. Wort nach dessen Benennungen umgebildet oder sogar entlehnt ist (Genaust 2012: 375, 376). [1: 146-147]

Shu bilan birga Brennessel (*Urtica dioica*), Eselsdistel (*Onopordum acanthium*), Ferkelkraut, gewöhnliches (*Hypochoeris radicata*) Klee, Hasen- (*Trifolium arvense*), Schafgarbe (*Achillea millefolium*), Taubnessel, gefleckte (*Lamium maculatum*), Taubnessel, Gold- (*Lamium galeobdolon*), Taubnessel, rote (*Lamium purpureum*), Taubnessel, stängelumfassende (*Lamium amplexicaule*), Taubnessel, weiße (*Lamium album*), Bärlauch (*Allium ursinum*), Hundspetersilie (*Aethusa cynapium*), Kälberkropf (*Chaerophyllum temulum*), Ochsenzunge (*Anchusa officinalis*) Wolfsmilcharten (*Euphorbia* sp.) kabi hayvon va uning a'zosi bilan ifodalangan o'simlik nomlari mavjud.

Ko'rib o'tilganlardan ayon bo'ldiki, hayvon va uning a'zosi nomi bilan shakllangan qo'shma nomlarda assosiativ tafakkurning o'xshatish assotsiatsiyasi qonuniyati muhim rol o'ynaydi. Shunga muvofiq tarzda o'xshatish obyekti, o'xshatish obrazi va o'xshatish belgi munosabati orqali kechgan jarayon ta'sirida o'xshatish oborotiga teng keladigan aniqlovchi komponentdan va o'simlik nomidan iborat murakkab nom yuzaga keladi. Keyingi bosqichda ro'y beradigan ellipsislashuv jarayoni natijasida o'xshatish obrazining nomidan iborat komponentlar o'simlikning qo'shma nomiga aylanadi.

#### Adabiyotlar

1. Spiridonova G. J. Das Blumen-ABC oder deutsch-russisches etymologisches Wörterbuch der botanischen Pflanzennamen. Ischewsk. "Udmurtische Staatliche Universität" Institut für Fremdsprachen und Weltliteratur. 2015. – 302 S.
2. Odil Rahmonov, Ro'zi Rahmonova. Deutsch-Usbekisches Wörterbuch. 18000 so'z va iboralar. Akademnashr. – Toshkent. 2017.
3. [http://www.schildkroeten-brandenburg.de/straeucher\\_pflanzen.html](http://www.schildkroeten-brandenburg.de/straeucher_pflanzen.html)

UDK: 491.3:49

### O'ZBEK VA XITOIY MIFOLOGIYASIDA BOSH TOTEMISTIK TUSHUNCHALAR TALQINI

E. Musurmanov

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada qadimgi o'zbek mifologiyasidagi totemistik qarashlar, muqaddas bilingan bo'ri, bars kabi jonivorlarning mifologik talqinlari haqida so'z yuritildi. Bu xil tushunchalarning paydo bo'lishida ma'lum bir tarixiy va migratsion jarayonlar o'z ta'sirini o'tkazgan. Garchi o'zbek xalqi orasida totem hayvonlar ko'plab uchrasada, ularning hech biri bo'ri kabi muhim o'rin tutmaydi.

**Kalit so'zlar:** Totemistik qarashlar, bo'ri, bars, ilon totemlari, bo'ri va Panguning mifologiyadagi o'rni.

**Интерпретация главных тотемистических понятий в узбекской и китайской мифологии**

**Аннотация.** В статье рассматривается вопрос о древних узбекских тотемистических взглядах, о мифологических интерпретациях священных поэтических образов волка, барса. Изучается главное китайское божество Паньгу который перевоплощается в собаку. Эти понятия возникли благодаря историческим и миграционным процессам. Среди узбеков есть тотемы разного вида животных, но они по своей значимости не могут сравниться с образом волка.

**Ключевые слова:** Тотемистические взгляды, тотемы волка, барса, змеи, роль волка и Паньгу в мифологии.

**Interpretation of the main totemic concepts in Uzbek and Chinese mythology**

**Abstract.** The article considers the issue of ancient Uzbek totemic views, mythological interpretations of the sacred poetic images of the wolf and leopard. The main Chinese deity Pangu, which is being transformed into a dog, is studied. These concepts have arisen due to historical and migration processes. Among the Uzbeks, there are totems of various types of animals, but they cannot be compared with the image of a wolf in their importance.

**Keywords:** Totemistic views, totems of a wolf, a leopard, snakes, the role of the wolf and Pangu in mythology.

O'zbeklarning qadimgi ajdodlari totem jonivorlar sirasida tuya, bo'ri, ho'kiz, ilon, burgut, bug'u, arslon, qaldirg'och kabilarni bilishgan va ularga topinishgan. Xitoy manbalariga asoslansak, ularning orasida, ayniqsa, bo'ri ajralib, u ma'lum bir elning ajdodi sifatida talqin qilingan. O'zbek xalqi orasidagi hovliga faqat mevali daraxt ekish, unga odam kabi munosabatda bo'lish, hosili yaxshi bo'lmasa, bolta bilan qo'rqitish, yog'ochning rivojlanishiga qarab qut kelayotganligini bilish, dardlashish kabi tushunchalar hali ham mavjud.

Qadimgi ajdodlarimiz – «turkiy qavmlarda bo'ri bilan bog'liq ilohiy, ijtimoiy, etnik tushunchalar kengaygan. Bo'ri — turkiy qavmlarning etnik jihatdan ma'naviy hayotiga rahnamo hisoblangan. SHuningdek, qator yirtqich hayvonlarga, qushlarga nisbatan shamanizm ruhida qarash ham kengaygan» [1].

Bu tushunchalar qadimgi ellarning mifologik ajdodlari, homiylik va kuch-qudrat timsollari sifatida talqin qilingan. Xitoy mifologiyasida bo'ri siymosida odatda ma'bud Panguning qayta evrilgan g'aroyib it obrazidagi ko'rinishi tushunilgan. Pangu-it obrazi ko'p jihati bilan turkiy mifologiyadagi tengri-bo'ri obraziga o'xshaydi.

Ayrim urug'-elatlar o'zlarining birinchi ajdodi bo'ri va odam bo'lganligi bilan bog'liq bir qancha asotirlarga ega. Bo'ri qadimda barcha turkiy xalqlarning bosh totemi bo'lib kelgan. Ashin urug'i o'zlarini bo'ridan tarqalgan deb hisoblashlari to'g'risida ko'plab afsonalar mavjud «Qo'rqut ota kitobi»da Boybo'rak obrazi, «O'g'uznoma»da bo'ri turkiy qavmlarning yo'l boshlovchi qahramoni darajasiga ko'tarilishi qadimiy e'tiqodlar ifodasidir. Firdavsiy «SHohnoma»asarida turklar yurtini «Keshvare go'rgosar» («Keshvar-e qorqosar») - bo'ri boshlilar mamlakati, deb tasvirlashida ham shu kabi tushunchalar aks etgan [2, 158-159; 3, 73].

N. Rahmonov keltirgan asotirga ko'ra G'arbiy dengiz qirg'og'ida yashagan turkiylarning otabobolari qo'shni qabilalar tomonidan qirib tashlangan. O'sha erda yashaydigan urg'ochi bo'ri tirik qolgan o'n yoshli bolaga unga xotin bo'ldi. Ochlikdan qutqarish, dushmanlardan yashirinish uchun bo'ri o'sha bolani olib, Turfon tog'lariga qochib ketdi. Tog'da bir g'or bor edi. U erda urg'ochi bo'ri o'nta bola tug'di. Bolalarning otasi o'sha qutqarilgan turk edi. Bo'ri bolalari Turfondagi ayollarga uylandi. Har bir boladan bir urug' kelib chiqdi [4, 42].

Xitoy miflarida keltirilgan ham yaratuvchi, ham karomatli it obrazi – Pangu (Panxu) ko'p jihatlari bilan qadimgi turklar tasavvuridagi ilohiy bo'ri obrazini yodga soladi. Itga aylangan xitoy miflogiyasi personaji Pangu turkiy ellar totemi bo'ri kabi inson bilan turmush quradi.

«Islomdan ilgari qadimgi turk davrida Buyuk turk xoqonligi davlati o'zining ramziy ifodasini aks ettirish uchun ma'lum ramziy belgilar qabul qilgan. Bu belgilar qadimgi turk davlatining bayrog'ida o'z ifodasini topgan. Ushbu yashil bayroq o'rtasiga bo'ri boshi tasviri tushirilgan, bayroq eni bo'yiga nisbatan uzunroq bo'lgan» [5]. Bu bayroqlarda nafaqat bo'ri so'rati aks etgan, balki bo'ri boshli ajdarho qiyofasi mol terisidan yasilib, shamolda tovush chiqaradigan qilib ishlangan.

Bayroqlarida bo'rining boshi tasviri tushirilgan qadimgi turon elini saklar yoki shaklar deb atashgan, ayrimlar yalovdagi bo'ri suratini esa it deb qabul qilishgan. Turkiylar totemi bo'rining oltin boshli tasviri turk xoqonlari tug'larida aks etgan. Hatto xoqonlar o'z shaxsiy tan soqchilarini «bo'rilar» deb atashgan [6 22]. Bunday holat qadimgi xitoy mifologiyasida ham bor. Enasoy yodnomalaridagi Chuchuk

Bo'ri Sangun ismi ham totemlik belgisi bo'lib, u qadimgi turkiy dostonlar bilan yodnomalar o'rtasidagi yaqinlikni ko'rsatadi [7]. "Qadimgi turkiylarning ba'zi qabilalarida ismlar shunday qo'yilgan: agar u jangda qahramonlik ko'rsatsa, shunga monand ism tanlangan. Ayniqsa, Enasoy yodnomalarida o'sha xususiyat ko'zga tashlanadi. Masalan, Chuchuk bo'ri Sangun, Tuz bay kuch Bars kulug-Tuz bay-kuchli Bars, mashhur. Har ikki ism — Bo'ri va Bars hayvonlar nomidan olingan. Qadimgi turkiylar ai'anasiga ko'ra, bunday qahramonlar qabilada katta mavqega ega edi. Shu bois urug' nomi o'sha odam ismiga ko'chgan: Bo'ri qabilasi, Bars (yo'lbars) qabilasi"[4, 112].

Samarqand shahrining qurilishida tog'dan tushgan barsning sababchi bo'lganligi, kentning joyini belgilab, yana tog'ga qaytib ketganligi haqidagi rivoyat ham bnjiz yaratilmagan.

Italyanlarning "Romul va Rem" haqidagi afsonada egizaklarni sut bilan boqqan ona bo'ri lotin versiyasida canis deb atalgan, bu termin turkiycha kanis / kancik (bo'ri, it-xotin) ma'nosiga mos keladi [8, 284]. Turkiylar orasida yosh bolaning kichik deyilishida kuchuk (bo'ri, it-bola) nazarda tutilganligi, yoshi kattaning ulug' deb atalishida ham asli kekxa bo'rining uvlashi sabab bo'lganligi haqida tasavvurlar mavjud [3, 73].

Qadimgi xitoyliklar turkiylarning ajdodlarini bo'rilaridan tarqaganligi haqidagi mifni yaxshi bilishgan va bu haqdagi dastlabki ma'lumotlarni o'z manbalarida keltirilgan. Qadimgi xunlarning Ashina deb ataluvchi tarmog'iga mansub el qo'shni hukmdor tomonidan tor-mor etilib, xalqi to'liq qirilgan. Faqat bir o'n yashar bolakay tirik qolgan. "Jangchilar, uning yoshligini inobatga olib o'ldirmasdan, oyoq qo'lini chopishib, o'tloqli ko'lga tashlashibdi. Bo'ri xotin uni et bilan boqibdi. Hukmdor bolaning tirikligini bilgach, uni o'ldirishga jangchilarini qaytadan yuboribdi. Bolaning yonida bo'rini ko'rishgach, uni ham yo'q qilishmoqchi bo'lishibdi, biroq ona bo'ri g'arbiy dengizdan sharqda, Gaochandan shimoliy-g'arbiy tarafdagi tog'larda paydo bo'libdi. Tog'larda g'or bor ekan ... Shu erda berkingan ona bo'ri o'n o'g'ilni ochunga keltiribdi. Ular ulg'ayishib, uylanishdi va barchasi bolali bo'lishdi. Keyinchalik ularning barchasi alohida urug'ga bosh bo'ldi. Ularning orasida ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan Ashina ham bor edi, uni xon qilishdi: u o'zining kelib chiqishini esda tutishi uchun bo'ri boshli bayroqni turar joyi qopasiga ilib quydi" [9, 220–221]. Qadimgi xitoy manbasi bo'lgan "Jou shu" asariga asosan N. Bichurin keltirgan ushbu rivoyatni E. Kichanov quyidagi tarzda davom ettiradi: "Szinshan (Oltoy) tog'ining kungay tepaliklarida qo'nim topishib, temir erituvchi va temirchi bo'lib ishlay boshlashdi. Szinshan tog'ining ko'rinishi dubulg'aga o'xshagan edi. O'zlarining odaticha dubulg'ani tutszyue (turluk, turdan yasalgan-E.M.), deb atashdi, shuning uchun, (Ashina o'g'lonlarini) tutszyue (turuk, turk-E.M.) deb atashdi" [10, 287]. Sinolog Yu.A. Zuevning keltirishicha, qadimgi turklarning mazkur genealogik rivoyati birinchi tahririda turklarning yurti "So ulusi" deb atalgan. S. Yaxontov maslahaticha, so ieroglifi o'rtaxitoy ohangiga mansub variantda — sak hosil bo'ladi [11, 62].

Taniqli turkolog olim Nasimxon Rahmonov keltirishicha: "Ashin urug'ining kelib chiqishi haqidagi afsona asosida o'z afsonalarini yaratdilar. Uyg'urlarning shunday afsonasi bor.

Xun xoqonining ikki go'zal qizi bor edi. Xun amaldoru alplari bu qizlarni tengri kabi hurmat qilardilar. Xoqon «bunday go'zal qizlarimni odam bolasiga bermayman. Men ularni tengriga bag'ishlayman», dedi. Beshbaliqning shimolida katta saroy qurdirdi va qizlarini u saroyga berkitdi. «Tengrim, bu qizlarni qabul et!» deb tengriga yolvordi. Bir muddat o'tgach, saroy atrofida bo'ri paydo bo'ldi. Kichik qiz shu bo'riga turmushga chiqdi va bir o'g'il tug'di... Uyg'ur sulolasi shu boladan tarqaldi. Xoqon tengriga qizini nazr etdi, bo'riga turmushga chiqdi. Bunga hayron bo'lmaslik kerak. Bo'ri osmondan, ya'ni tengridan jo'natilgan. Bo'rilar tengrining erdagi elchilaridir.

Afsonaga shomonlik oqimi ta'sir etgani, shubhasiz. Bo'ri obrazi va uning xoqon qiziga uylanishi bunga dalil. Ashin urug'ining kelib chiqishi haqidagi afsonaning aksi, ya'ni unda bola bo'riga uylangan [4,98].

"Irg bitigi"dagi mazkur asotir turkiylarning kelib chiqishini ramziy tarzda aks ettiradi: "Baj ar qony urkupan barmish, borika soqishmish, bori aghzi amsimish, asan tukul bolmish, tir. Ancha bilinglar: adgu ol! (XXVII) —Boy odamning qo'yi hurkib, qochib ketgan, (u) bo'riga duch kelgan, bo'ri emishni xohlagan, (bo'ri) sog'-salomat qolgan, deydilar. Shunday bilinglar:yaxshidir bu! Parchadagi bo'ri timsoli xitoy yilnomalarida qadimgi turkiylar haqida saqlangan bo'rining aynan o'zidir (Bichurin N.YA. (Iakinf). Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. — M.—L. Izd. Akademii Nauk SSSR, 1950. — S. 221-222, va boshq.). Bu — Gerodot o'z asarida keltirgan skiflarning paydo bo'lishi haqidagi afsona bilan hamohanglik kasb etadi" [12, 20].

Dostonlarimizda qahramonlarning sherga, bo'riga o'xshatilishining o'zidayoq xalqimizning qadim mifologik tasavvur izlarini ko'ramiz. Xususan, bo'ri juda ko'p turkiy qabilalarning totemi bo'lib, u bilan bog'liq ko'pgina inonchlar o'zbeklarda XX asrda ham ma'lum darajada mavjud edi [13, 224]. "O'g'uznoma"da bo'ri asar syujetini rivojlantiruvchi asosiy obrazdir. U qabilaga madadkor, g'amxo'r, ularni o'z panohida asrovchi

kuch sifatida ko'ringan. Bunday tasvir o'zlarini bo'ridan kelib chiqqan deb hisoblovchi ashin urug'i bilan bog'lanadi. Hozirgacha xalqimiz o'rtasida aytilib kelingan "Cho'loq bo'ri", "Bo'ri qiz", "Bo'ri" kabi afsonalar va ertaklarda ezgulik g'oyalari ifodalangan.

Xalqimizning qadimgi totemistik tushunchalariga ko'ra mahalliy hayvonlardan ayrimlarini muqaddas bilish, ularga topinish doim bor bo'lib, ularning ayrim ko'rinishlari hozirga qadar yashab kelmoqda. Farzandlarga quyilayotgan Bo'ritosh, Lochin, Shunqor, Arslon, Qaldirg'och kabi ismlar shular jumlasidandir. Bunday totemistik tushunchalarni keng miqyosda o'rganish ma'lum bir xalqning o'tmishi, madaniyati va ruhiyatini to'g'ri tushinishda yordam beradi.

#### Adabiyotlar

1. Маҳмудов Қ. Туркий байроқлар рамзи. "Фан ва турмуш" журнали, 1991 йил, 12-сон. [Электрон ресурс]: URL <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/qozoqboy-mahmudov-turkiy-bayroqlar-ramzi/> (мурожаат вақти: 01. 09. 2018).
2. Алекперов А. Этимология некоторых названий тюркско-албанского происхождения // *Dirçelış XXI*.
3. Алекперов А. Журна и Джанги (К этимологии названий в свете проблем этногенезиса). // *Türkologiya*, №4, 2005.
4. Раҳмонов Н. Турк хоқонлиги.—Т: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
5. Маҳмудов Қ. Туркий байроқлар рамзи. "Фан ва турмуш" журнали, 1991 йил, 12-сон. [Электрон ресурс]: URL <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/qozoqboy-mahmudov-turkiy-bayroqlar-ramzi/> (мурожаат вақти: 01. 09. 2018).
6. Brough H. Comments on Third Century Shanshan and History of Buddhism // *BSOAS*. 1965. V. 28/3. P. 587
7. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимий қатламлари. Бешинчи қисм. [Электрон ресурс]: URL <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdurashid-abdurahmonov-beshinchi-qism.html> (мурожаат вақти: 9. 02. 2016).
8. Ibn Khordadbeh. *Kitab al-masalik va-l-mamalik*. —Leyden: M. de Gouye, 1889.
9. Бичурин [Иакинф] Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена— Т. I. Изд. АН СССР, М.—Л., 1950.
10. Кычанов Е.И. История приграничных с Китаем древних и средневековых государств (от гуннов до маньчжуров) / 2-е изд., испр. и доп. — СПб.: Петербургское лингвистическое общество, 2010. — 364 с.
11. Зуев Ю.А. Древнетюркские генеалогические предания как источник по ранней истории тюрков: дис. канд. ист. наук. — Алма-Ата, 1967. - 200 с.
12. Алламбергенов Ҳ. Қадимги туркий адабиётда ғайритабиий тимсоллар таракқиёти: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. — Т:2019.
13. Эшонкулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. - Тошкент, Ўз. Р. ФА, «Фан» нашриёти, 2011.

УДК: 891.709

#### "ORZIGUL" DOSTONIDAGI MA'NAVIY VA LAFZIY SAN'ATLAR

T. Sobitova

*Chirchiq davlat pedagogika institute*

*sobitovatojixon@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ko'lamli keng epik merosimizni doston kuylash sirlarini mukammal egallagan yetakchi dostonchilarsiz tasavvur etolmaymiz. O'zining individual uslubiga ega bo'lgan baxshi-shoir Islom Nazar o'g'lining sevib kuylagan "Orzigul" dostoni odob-axloq, ishq-muxabbat, sevgi-sadoqat, go'zal vafo talqinlariga boy poetik san'at ramzidir. Asarda ma'naviy va lafziy san'atlardan mohirona foydalanilgan.

Tarixiy an'analarga ko'ra badiiy san'atlar ikki guruhga ajratib o'rganiladi:

1. Ma'naviy-so'zning ma'nosi bilan bog'liq san'atlar.

2. Lafziy-so'zning tovush jihati bilan bog'liq san'atlar.

Manaviy san'atlarga asar g'oyasi mazmuni bilan bog'liq san'atlar: mifologik o'rinlar, mubolag'a, o'xshatish irsoli masal, ya'ni maqollar qo'llash, talmih, jonlantirish va boshqalar kiradi.

Lafziy san'atlarga saj', qofiya, radif va ritm kiradi. Dostonlardagi bu san'at turlarini tahlil etishning o'ziga xos ahamiyati barkamol yosh avlodning fol'klor asarlariga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi.

**Kalit so'zlar:** Qadriyat, san'at, badiiy-tasviriy vositalar, poetik, mubolag'a, irsoli masal, saj', qofiya, ritm, artikulyasiya, radif.

### Духовное и сферическое искусство в поэме "Орзигул"

**Аннотация.** Мы не можем представить наше масштабное эпическое наследие без ведущих поэтов-эпиков, овладевших секретами эпического пения. Эпическая поэма «Орзигул» в исполнении поэта Ислама Назар оглу, обладающего собственным индивидуальным стилем, является символом поэтического искусства, богатого толкованиями морали, любви, преданности, прекрасной верности. В пьесе умело используются духовные и словесные искусства.

Согласно историческим традициям, искусство делится на две группы:

1. Духовные искусства, связанные со значением слова.
2. Искусство, связанное с фонетическим аспектом слова.

Духовное искусство включает в себя искусство, связанное с содержанием идеи произведения: мифологические отрывки, риторика, притчи, то есть использование пословиц, талмих, анимации и так далее.

Вербальные искусства включают саж, рифму, радиф и ритм. Специфическая важность анализа этих видов искусства в эпосах еще больше повышает интерес гармонично развитого молодого поколения к произведениям фольклора.

**Ключевые слова:** ценность, искусство, художественные средства, поэтика, риторика, притча, сай, рифма, ритм, артикуляция, радиф.

### Spiritual and spherical art in the poem "Orzigul"

**Abstract.** We cannot imagine our massive epic legacy without leading epic poets who have mastered the secrets of epic singing. The epic poem "Orzigul" performed by the poet of Islam Nazar oglu, who has his own individual style, is a symbol of poetic art, rich in interpretations of morality, love, devotion, beautiful fidelity. The play skillfully uses spiritual and verbal arts.

According to historical traditions, art is divided into two groups:

1. The spiritual arts associated with the meaning of the word.
2. Art associated with the phonetic aspect of the word.

Spiritual art includes art related to the content of the idea of the work: mythological passages, rhetoric, parables, that is, the use of proverbs, Talmich, animation and so on.

Verbal arts include sage, rhyme, radioph and rhythm. The specific importance of analyzing these forms of art in epics further enhances the interest of a harmoniously developed young generation in folklore.

**Keywords:** value, art, artistic means, poetics, rhetoric, parable, sai, rhyme, rhythm, articulation, radioph.

Respublikamizning mustaqilligi tufayligina ma'naviy qadriyat va urf odatlarimiz tiklandi. Kulami keng asarlarimizni keng va atroflicha chuqur urganish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Ildizlari qadim zamonlarga borib taqaluvchi nodir xalq og'zaki badiiy ijodi na'munalari, jumladan dostonlar o'zida mehnatkash ommaning yuksak ideallari-yu, dunyoqarashlarini mujassamlashtiradi.

Og'zaki ijod hazinalarini egallagan va uni yurt, ona-Vatan uchun sarflagan talant egasi xalqning yaratuvchanlik qudratini oshiradi. Vatanga bo'lgan muhabbat, xalqqa, millatga bo'lgan ulug' muhabbatdir. Biz-o'zbek xalqi o'tmishda yashagan tabarruk bobokalonlarimizning ibratli xayoti va buyuk me'rosi bilan faxrlansak arziydi. O'zbek xalqining dostonlar buyicha juda ko'p va boy me'rosi bor. Zero, xalq ijodi qaynar buloq. O'zbek fol'klori janrlari orasida dostonlar hajm va poetik san'at darajasiga ko'ra alohida o'rin tutadi. Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan Islom shoir Nazar o'g'lining repertuariga xos bo'lgan "Orzugul" dostoni odob-axloq, ishk-muxabbat, sevgi-sadokat, go'zal vafo talqinlariga boy poetik san'at ramzidir. Asar zolim xon, dabdabali saroy muhitining jirkanch qilmishlari zamirida noinsoniy illatlar, adolatga begona, zamonaning zayliga ko'ra murakkab taqdir girdobiga tushib qolgan ayolning ruhiy xolati va o'zining ozodligi, erkinligi, yoriga bo'lgan vafodorligi yo'lida kurash olib borgan jasorati haqida kuylanadi.

"Orzigul" dostonining diqqat markazida, asosan dostonning bosh qaxramoni Orzigulning xayoti va baxt yo'li tasvirlanadi, ancha kurash ketadi va bu kurash o'z davrining ijtimoiy masalalari bilan bog'liq ravishda ifodalanadi.

Dostonda qaxramonlik motivi, chin muhabbat, vafodorlik xislatlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Asardagi ijobiy qaxramonlar haqsizliklarga, qattiq qiyinchiliklarga duchor bo'lsalar ham chidab o'z irodasini bukmay, or-nomusini saqlab, oxir pirovardida zolim kuchlarni yengib, murodu-maqsadlariga yetadilar va g'alaba qozonadilar. Haq, adolat karor topadi.

Xalq og'zaki ijodiga oid janrlarning har biriga xos, shu jumladan, dostonlarga ham xos badiiy-tasviriy vositalar mavjudki, ularsiz ana shu janrlarning poetik tabiatini to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Umuman o'zbek xalq dostonlarida, xususan biz fikr yuritayotgan "Orzigul" dostonida xalq og'zaki poetik ijodiyotiga xos turli usullar, xilma-xil badiiy ifoda vositalari, ya'ni ma'naviy va lafziy san'atlardan moxirona foydalanilgan.

Islom shoir Nazar o'g'li o'zbek xalq baxshilarining eng xofizasi kuchli bo'lgan shoirlardan biri hisoblanadi. U poetik usullardan katta maxorat bilan foydalangan. Ana shuning uchun ham u kuylagan dostonlar g'oyaviy-badiiy jihatdan aloxida mohiyat kasb etgan. Asarni badiiy aks ettirish uchun xar bir san'atkordan ayni paytda uning badiiy so'z ustasi ekanligi va doston mazmunini har-xil badiiy shakllarda qay darajada ifodalab olishida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, Islom shoir ijodida muhim o'rin tutgan "Orzigul" dostoni badiiy jixatdan puxta, mukammal ishlangan, go'zal asardir. Dostonda o'zbek xalqining urf-odati, estetik va axloqiy qarashlari o'z aksini topgan bo'lib, asarlarning asosiy qaxramoni Orzigul or-nomus uchun xarakter kiladi va zolim qahramon otasi bilan oxirigacha kurashadi. Islom shoir Nazar o'g'li "Orzigul" dostonini ijro etar ekan, uni yangi g'oya, mazmun va ma'naviy-lafziy san'atlar bilan jilolaydi va bularning badiiyligini oshirish maksadida xilma-xil tasviriy vositalardan o'z o'rnida, ma'lum maqsadga bo'ysundirilgan xolda unumli va moxirlik bilan foydalana olgan.

Dostonning kompozitsion tuzilishi o'zbek xalq dostonlari uchun umumiy bo'lgan andoza-o'rni bilan o'zaro almashib turadigan nasriy va nazmiy mazmunlar tashkil kiladi. Bunday o'rin almashishlar asarning g'oyaviy-badiiy qimmatini oshiradi. Dostondagi voqyealar va tasvirlarning jonli ko'rsatilishi jarayonida tinglovchida kuchli taasurot, qiziqish ortib boradi. Undagi voqyealar ruhiga qarab qaxramonlarning harakati o'zgarib turadi.

Islom shoir dostonidagi obrazlarni yaratishda katta muvaffaqiyatga erishgan san'atkor bo'lib, u har bir timsolni o'ziga xos xususiyat bilan gavdalandira olgan. U obrazlar talqinini berar ekan, ularning xarakterlarini anik va yorqinroq ko'rsatish uchun qator badiiy-tasviriy vositalar, psixologik lavxalar, jonli kartinalar yaratadi. Asarda shoir personajlarning o'ziga xos xususiyatlarini, tashqi ko'rinishlarini tasvirlar ekan, juda ustalik bilan san'atkorlarcha ish tutadi. Chiroyli va nozik o'xshatishlar, sifatlash va mubolag'alar, mifologik ko'rinishlar, xalq maqollari va iboralardan o'z o'rnida foydalanganki, bu asarni yanada jozibali chiqishida katta rol o'ynagan. Ijodkor ayniqsa diolog va monologlarni o'z o'rnini topib, shunday sayqal bilan kuylaganki, bu narsa dostonning badiiy qimmatini yanada oshirgan. Asarning tili boy va tarbiyaviy axamiyati ancha yuksak.

Xalq o'zining qaxramonini har doim qo'rqmas, or-nomusli, dovyurak, o'zining maqsadi yo'lida hamma narsaga tayyor ekanligini go'zal lavhalarda tasvirlab beradi. Orzigul xam ana shunday qahramonlardandir.

Badiiy, ya'ni she'riy san'atlar sharq mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xosligi, milliyli, latofati, nazokati va rango rangligi, jozibadorligi va ta'sirchanligini ifodalovchi tasvir vositasidir.

Xalq og'zaki ijodiyoti asarlari, ayniqsa, dostonlar badiiy san'atlarga boy-u nixoyatda xilma-xil va nafisdir.

Tarixiy an'analarga ko'ra badiiy san'atlar kuyidagi guruharga ajratib o'rganiladi:

1. Ma'naviy-so'zning ma'nosi bilan bog'liq san'atlar;
2. Lafziy-so'zning tovush jihati bilan bog'liq san'atlar;

Ma'naviy san'atlarga asar g'oyasi va mazmuni bilan bog'liq san'atlar kiradi. Jumladan, mifologik o'rinlar, mubolag'a, o'xshatish, irsoli-l-masal, ya'ni maqollar qo'llash, talmih, ya'ni ishor qilmoq, jonlantirish va boshqalar kiradi.

"Orzigul" dostonida mifalogik o'rinlar bir nechta joyda uchraydi. Jumladan, tush ko'rganda hazrat Xizrning Orzigul va Suvonxonga yordam berishi, Qo'shqanot qo'rg'onini ajdarning quriqlab yotishi va tilsimli joy ekani, qushlarning odam tilida gapirishi boshqalar.

Dostonda

mubolag'a ham ancha o'rin olgan.

. . . Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi,

Mardlarni ingratar nayza yarasi. . .

Qushqanot qo'rg'onining tasviri va boshqalar. Shuningdek, "Olmako'z otning tasviri:

. . . Minadi Suvon ajdaxor. . .

Suvonxonning mingan oti,

Umirovi zur daraday,

Sovrisi qo'rg'on kal'aday

Qubbasini yarqillatdi.

yoki:

Ko'zimdan oqqani yoshu jalami. . .

yoki:

Suvonxonning qaddi sher xaybatli,

Balo bo'lib ko'rindi. . .

yoki:

Shu yerda kelgandir Suvonning kuchi,

Tolmosning qo'lini sug'irib oldi. . .

yoki:

Terak butaganday qilib,

Bir-biriga yaqinlashdi,

O'q otib, qilich chopishdi.

Durji lashkar bir-biriga

Xayqirishib qichqirishdi.

yoki:

Oralatib dol bedovni,

Yotganini u qiyratdi.

Orzigul xam qilich siltab,

Qanchasining boshin kesdi. . .

Uch kechayu kundo'zda

Orzigul dushmani qirdi,

Oldi dushmanidan o'chdi.

Tog'ni juda gumburlatdi,

Ulardan chiqqan dud,

Quyoshning betini tutdi. . .

Suvonxon balandga chiqib qarasa ikki yulbars dushmanlar bilan olishayotir. Asarda anchagina o'rinlarda mubolag'a tasvirlanganki, bu dostonni yanada jozibali chiqishida katta o'rin tutadi.

Ma'lumki an'anaviy dostonlarda obraz yaratishning muhim vositalaridan biri tashbih-o'xshatishdir. O'xshatishlar xam baxshi- shoir kandy g'oyani ilgari surgani, kimni yoqlash yoki qoralashiga ko'ra ijobiy va salbiy ma'nolarda qo'llaniladi. Dostonlarda ijobiy qaxramonlarga har doim sherday, arslonday, ajdarxoday, go'zal ayol qaxramonlarga esa o'n besh kunlik o'zday, gul yuzli dilbar, mushku-anbar ipor sochib, sunbul sochini tarab, zarafshon kokilini tishlab kabi chiroyli so'zlar, dushmanlar, ya'ni salbiy obrazlarga nisbatan zolim, ko'zgunday, itday, olako'z, xayvonday o'xshatishlar xarakterlidir. Qahramonlar xarakterini ochish, ularning ichki-tashqi dunyosini tinglovchiga to'laroq yetkazishda o'xshatishlarning mosligi, ularni o'z o'rnida ishlatish katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Masalan, quyidagi o'xshatishlar Suvonxon Qoraxonning son-sanoqsiz lashkarlariga qarshi bitta o'zi kurashishi uning botirligini nihoyatda obrazli qilib tasvirlaydi.

Yovning ko'zi Suvonga tushdi. Suvonxonning qaddi sher xaybatli bo'lib, Qoraxonga ko'rindi. Shunda Qoraxon: "U qanday balo ekan?"-deb, Tolmos polvonni yubordi. . . Ikki polvon bir-birining belidan tutishdi, choshkadan to peshingacha olishishdi.

Suvon bilmay u Tolmosning tilini

Mahkam ushlab oldi uning belini,

Shu yerda kelgandir Suvonning kuchi,

Tolmosning qo'lini sug'irib oldi.

yoki:

Terak bushaganday kilib

Bir-biriga yaqinlashdi,

O'q otib qilich chopishdi. . .

Parangi miltiq tapira-tupur

Suvonga lashkar bo'shatdi

Suvonxonning mingan oti

Xo'p jonivor xunarvandi,

Otgan uqqa qilib raddi,

Omon-eson asraydi.

Ustidagi vallahatti. . .

yoki:

Qo'lida dastgir qilichdi,  
G'ayrat keldi yurak toshdi.  
Zarbin ko'rgin, Suvon yoshdi. . .  
G'am chekishsin endi dushman,  
Kushandang boshinga yetdi,  
O'n ming kishi buni eshitib,  
Parangi miltiq qo'llarida  
Tapira-tupur uqqa tutdi.

Suvonxon urushning birinchisida dushmanni yengib, ularning iltimosiga ko'ra uch kun muhlat beradi. Ikkinchi marta Suvon yovning ustiga yurish qiladi. U qilichini qo'lga olib, dushman ichiga kiradi. Uning urishayotganda aytgan so'zi:

O'z-o'zinga bo'l mehribon,  
Muxlat to'ldi-keldi Suvon,  
Boshinga solarman to'pon  
Hargiz qolma, mendan omon,  
Tanti bulinglar bu zamon,  
Qutulsanglar bo'lib omon,  
Men solarman bugun tuman,  
Kolmaysan qo'limdan omon.  
Bugun sizga oxir zamon  
Omon qolib sursam davron,  
Men bilmayman erta-kech. . .

Suvonxonning jangga kirish oldidan aytayotgan bu so'zlaridan uning ko'tarinki ruhiy dunyosi aniq. Mard yigit xech yov oldida mag'lub bo'lmaydi.

Mani Suvon ajdarxo der,  
Kallanga isnixon solay,  
Mardni kurgan u lashkarlar,  
Hay-haylashib bundan qochar.

Suvonxon o'zini ajdarga o'xshatar ekan, ayni vaktida sonsiz qo'shin ustidan g'alaba qozonishiga ishonadi. O'xshatish orkali yuzaga kelgan parallelizm asarda muhim poetik vazifani bajarib, ijobiy va salbiy kuchlarni kanday ekanligini, qahramon kayfiyatini tinglovchi ko'z o'ngida gavdalantiradi.

Islom shoir Nazar o'g'li portret yaratishda erkak va ayol personajlarning o'ziga xos xususiyatlarini, ajoyib go'zal fazilatlarini ta'riflaydi. U Orzigulni gul yuzli, jodu ko'zli, sunbul sochli, bol labli nihoyatda go'zal qilib tasvirlaydi. Suvonxonni esa ajdarxoga o'xshatadi, mard, so'zining ustidan chiqadigan, sher xaybatli, urushda hych kim teng kelmaydigan paxlavon deb tasvirlaydi.

Ularning farzandi Dilmurodni esa oy yuzli, o'tkir ko'zli, sertamizli, saraton yuzli, shirin so'zli, yulbars bilakli, qoplon yurakli qilib tasvirlaydi. Chunki xalq idealidagi qahramonlar nihoyatda kelishgan, kuchli, dovyurak bahodir bo'lishini, qiyinchiliklar oldida dovdiramadan, behisob dushmanni yolgiz o'zi yengishini istaydi. Suvonxon xam makkor Qoraxon qo'shinini shunday yengadi.

Ma'naviy san'atlardan yana biri irsolu-l-masal bo'lib, u maqol qo'llash san'atidir. Irsolu-l-masal nazmda xam, nasrda xam qo'llanilaveradi. Bu xalq og'zaki ijodida o'ziga xos o'rin tutadi.

Islom shoir ijodiga xos muxim xususiyatlardan biri xalq maqollari va iboralardan umumli foydalanganligidadir. U xalq maqollarini yangi mazmun bilan boyitib, misralar ichiga singdirib yuboradi.

Ma'lumki, xalq maqollari va iboralari asarning mazmun va g'oyasini ochish, unda aks ettiriladigan ayrim xodisalarni umumlashtirish va tasvirni badiiy jihatdan ixchamlashtirish uchun xizmat kiladi, xalqning orzu-umidlarini, ichki his-tuyg'ularini aks ettiradi. Xalq yaratgan ijobiy qahramonlar xamma vakt xam xalq bilan birga, xalqning manfaati, baxti, saodati uchun kurashadilar.

Islom shoir Nazar o'g'li o'zining "Orzigul" dostonida asarni badiiy jihatdan puxta ishlashda xalq maqollari va aforistik iboralardan to'la ravishda foydalanganligini ko'ramiz. Masalan: "Elga el qo'shilsa-davlat, eldan el ketsa-mexnat", "Ilon chaqqan kishi ola arqondan qo'rqr", "Tirikka to'y yarashar", "Sovchi bo'lmasa kuyov kelin topishmas, donokor bo'lmasa temir yopishmas", "Ot aylanib axir topar qoziqni", "Mehnat roxatsiz bo'lmas" kabilarni ishlatganki, bular asarda juda o'rinli ishlatilib, dostonning mazmunini yanada chiroyliroq ochishga yordam bergan.

"Orzigul" dostoni badiiy tasvirga boy va rang-barangdir. Ma'naviy san'atlar uni yanada go'zal tasvirlanishida yanada muhim rol uynagan. Asarni qanchalik chuqur tahlil qilsak, undagi badiiy xususiyatlarning jilosi shunchalik namoyon bo'ladi.



Bizga ma'lumki, saj' o'zbek eposining eng qadimgi poetik vositalaridan sanaladi. O'zbek xalq maqollari, ertaklari va dostonlaridagi saj' san'atining o'ziga xos tomonlari taniqli folklorshunos olim B. Sarimsoqov tomonidan atroflicha o'rganilgan. Olimning qator maqolalarida 1978 yilda e'lon qilingan monografiyasida o'zbek folklori va klassik nasrida saj' san'atining tutgan o'rni, qo'llanish doirasi, saj'ning o'zbek adabiyotidagi genezisini ochib bergan.

"Saj'" so'zi arabcha bo'lib, lug'aviy ma'nosi qumri, bulbul, to'ti kabi xushovoz qushlar tovushining bir-biriga qo'shilib, jo'r bo'lib ketishini anglatadi. Saj' san'ati fikrni ravon, oxangdor ifodalashda, o'quvchi yoki tinglovchiga zavk berishda, tasvir va ayrim xolatlarning yodda qolishini osonlashtirishda juda qo'l keladi. Saj' san'ati dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lib, o'zbek xalq ertaklari, dostonlaridagi an'anaviy o'rinlar, ya'ni boshlanma, personajlar tavsifi, ruhiy xolatlar, peyzaj, afsonaviy qasrlarda u qo'llanilgan. Saj' tafsiurning ta'sirchanligini oshiradi, tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tortadi. Shuningdek, saj' o'z xususiyatlari jihatidan ma'naviy-lafziy san'at hisoblanib, dostonidagi mazmuni ifodalabgina kolmay, balki nozik so'z o'yinlari, ifodaning ohangdorligini ta'minlashda ham muhim rol uynaydi.

O'zbek xalq dostonlaridagi nasriy parchalardagi saj'lanuvchi so'zlar o'ziga xos rishtalik parallelizmni yuzaga keltirib, uslubiy ravonlik tug'diradi. B. Sarimsoqov dostonlarda saj' asosan 14xil xolatda kelishi mumkinligini aniqlagan.

"Orzigul" dostonida quyidagi parchalarda ko'rishimiz mumkin:

". . . Bu tillani olaylik, qo'yli, echkili bulaylik, mardumdan kam edik, el qatori bo'laylik. Bizlarga tagi o'g'il berar, keling, shu o'g'ilni momamizga beraylik. "

Yoki: "Bir kun Orzigul bog'da gullar orasida sochini urib, ekilgan nihol gullarni ko'rib, yakka-yakka oyog'ini bosib, mushku anbar-iyor sochib, tilla xaykallarni osib, gul yuziga ular munosib bog'ning ichida yurgan vaktida Qoraxon podsho saltanatli beklar bilan tilla jig'asi boshida, jonkuyar beklar qoshida, podsholik yuzi xotiri bilan, soya pardali chotiri bilan, necha nayzadast botiri bilan, jilovdor shotiri bilan bog'ning ustidan kelib qoldi"

Yana quyidagi misol: "Shunda podsho o'g'liga:-Qo'sh kokilim, suyanganda Askarday belim, qatordagi norim, Suvonxon ajdaxorim, senikidir ushbu shahrim!"

Yoki: "Otasi Suvonxonga bir so'z dedi:"-Ol doim-oldirmagin, to'l doim-to'kilmagin, nomardga yolvorib sig'inmagin, ichingdagi siringni nomardga bildirmagin. Mabodo boshingga dushman yovlab kelsa nomardni o'ldir ayamagin"

Yana bir misol: "Oy yuzli, o'tkir ko'zli, sertamizli, saraton yuldo'zli, shirin so'zli, yulbars bilakli, qoplon yurakli Dilmurod bilan ko'rishdi. "

Demak, "Orzigul"dostonida saj'lanuvchi so'zlar qahramon kiyofasi, turli xolat va xarakatlari, maqsad intilishlari tasvirida keng qo'llanilgan. Ayniqsa ijobiy qahramonlar portreti chizilganda saj'dan o'rinli foydalanilganligini yukoridagi misollarda ko'rdik.

Dostonning muhim xususiyatlaridan yana biri she'riy bandlarning turli-tuman qo'llanilishi, ketma-ket almashinib kelishidir.

Dostonni o'qir ekanman, sahifalar o'zra to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, o'n bir va undan ortiq she'riy bandlar qullanilganligini va ular uyg'unlashib shoirning ichki xis-tuygularini oydinlashtirib berganiga guvoh bo'ldim. Eng muhimi, vazn dostonning ijro etilishiga zamin xozirlab berar ekan.

She'r vazni va turoq birgalikda va har biri alohida olingan she'riy parchadagi ritmning bir tomonini tashkil qilar ekan, ritmning yuzaga kelishida qofiya ham yordamchi qismlardan biridir. Qofiya xalq og'zaki ijodi asarlarining she'riy matnlarga ohangdorlik, uyg'unlik va ravonlik bag'ishlaydi.

"Orzigul" dostonining kompozitsion tuzulishi epik an'analarga monand bo'lib nasriy va she'riy matnlardan iborat. Doston o'zining badiy go'zalligi, xalqchil ruxi, tili, vazn va ritm imkoniyatlariga boyligi bilan boshqa dostonlardan ajralib turadi. Doston asosan 7, 8 va 11 hijoli barmok vaznida bo'lib, turoqlarining o'zgarib turishi, band tuzulishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega. "Orzigul" dostoni asosan 11 xijolik vazn asosiga egadir.

"Orzigul" dostonidagi she'riy parchalar tuzulish jihatdan rang-barang bo'lib 6, 7, 9, 10 misrali bandlardan tashkil topganlari ham bor. Misralarning muayyan bandiga birlashuvdagi o'ziga xoslik Islom shoir Nazar o'g'lining poetik mahorati benazir bo'lganligini ko'rsatadi. Shu jihatdan qofiya qo'llash san'ati borasida ham baxshi shoir mahorati yaqqol ko'rinadi. 9, 7, 6 xijoli:

Alla deyman, Dilmurod,  
Jonim olsin farog'at,  
Orom olib bir soat,  
Alla, qo'zim, allayo-alla.  
Alla, bolam, alla,  
Jonim, bolam, alla.

Ikki ko'zim, alla,  
Shirin so'zim, alla.

O'zbek folklorshunosligida qofiya masalasi haligacha maxsus tekshirish ob'ekti bo'lmagan. Ammo F. Rayxonovning ayrim maqolalarida Fozil Yuldosh o'g'lidan yozib olingan "Murodxon", "Rustamxon" dostonlari misolida qofiya san'ati birmuncha urganilgan edi.

Qofiya-shoir badiiy iqtidorining ko'zgusi bo'lib, Islom shoir she'riy matnda turli xil qofiya formalaridan foydalanishi baxshining o'ta nozik estetik dididan dalolat beradi.

Asosan, to'rtlik formasidan foydalangan ajoyib so'z san'atkori she'riy bandlarni shunday qofiya tartibini keltiradi:

Uch kun buldi men uynab-kulmayman,  
Shundan beri men to'ramni ko'rmayman,  
Suvonjonni bukun sizdan so'rayman,  
Mard yigitning hasratida yig'layman.

"Orzigul" dostonining she'riy parchalari personajlarning badiiy olamini haqqoniy aks ettiruvchi to'rtlik, beshlik, oltilik, yettilik, sakkizlik va boshqa shakllardan iboratdir.

Qofiya baxshi fikrini yakunlovchi semantik nuqta bo'lib, poetik mazmunni go'zallashtiradi. "Orzigul" dostonidagi qofiya xarakteri haqidagi ayrim kuzatishlar xalq she'riyatida, dostonlarida, ayniqsa Islom shoir Nazar o'g'li kuylagan dostonlarda qofiya va vazn masalasini keng tadqiq etish zarurligini kursatyapti. Zeroki, xalqimizning boy og'zaki ijodiyoti shu qadar jozibaliki, uning nafosatini elga yetkazmoq uchun baxshining ijro maxorati asarlarining poetik tabiatini urganish juda zarurdir.

"Orzigul" dostonida ko'pincha 37 qofiyalar to'liq, unda qofiyalarning ko'pi artikulyasiya, ya'ni baxshining kuylashida nutq organlarining xolati, xarakati, usuli jihatidan yaqin tovushlarning oxangdoshligi asoslanadi. Qofiya to'liq bo'lsa, shu misradagi fikr tugallangan bo'ladi.

Bog'imda ochilgan gul bilan gulzor,  
Ularning ichida bo'ldim beqaror.  
Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi,  
Mardlarni ingratar nayza yarasi.

Bu she'rda qofiyali so'zlar gulzor, beqaror, darasi, yarasi, ya'ni a-a-b-b. Bunda xar bir misrada qofiya bo'lganligi uchun xam xar misrada tugallangan fikr bor, a-a-a-b, a-a-b-b, a-b-a-b kabi qofiyalanish xam to'liq qofiyaga kiradi. Agar misralarning birortasida qofiya bulmasa, fikr tugallanmay koladi. Masalan:

Xar bir joyda quna-tusha,  
Yigirma uch kun deganda,  
Avvalgi qochgan bosh kiyik  
Boshlab ketdi Suvon mardni.

Bunday qofiyasiz she'rlar dostonida kam uchraydi. Qofiyalar qancha to'la bo'lsa, she'rning ohangdorligi shuncha kuchayadi.

Dostonida qofiya bilan bir qatorda radiflardan ham moxirona foydalanilgan. Ba'zi o'rinlarda radif ishlatilgan, ba'zi o'rinlarda esa yuk.

"Radif misralar so'ngida qofiyadan keyin keladigan so'z yoki so'z birikmasining hyech o'zgarishsiz-aynan takrorlanishadir. "

Radif she'r ritmi va musiqiyiligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan:

Ol-ol bo'lsin, jonim bolam, ol bulsin,  
Bu dunyoda sening kuning mo'l bo'lsin,  
Oqtoshning egasi, bolam, yul bulsin?  
So'zlar senga bu kun bolam til bo'lsin.  
Xarajating g'aznadagi kul bo'lsin.

Bu she'rda qofiya ol, mul, yul, pul, a-a-b-a-b-a. Radif esa "bo'lsin". Ushbu dostonida radif ko'p takrorlanmagan, chunki tinglovchini zeriktirib ko'yishi mumkin bo'lganligi uchun.

Xalq dostonlari ko'p asrlik yo'lni bosib o'tgan va avloddan-avlodga o'tib pardoatlanib, silliqatlanib kelmokda. Shuning uchun dostonidagi qofiya masalalarini qunt bilan puxta urganib kitobxonlarga yaxshi material berish mumkin. Chunki xalq og'zaki ijodiyotida bu masala xozirgacha to'la xolda tekshirilgan emas.

Xulosa kilib aytganda, "Orzigul" dostoni o'zbek xalq eposining g'oyaviy badiiy jihatdan mukammal ishlangan namunasi bo'lib, dostonning barcha mavjud variantlarini poetik jihatdan qiyosiy urganish o'zbek dostonchiligining badiy xususiyatlarini har tomonlama tekshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, dostonlardagi ma'naviy va lafziy san'atlarni tahlil etishning o'ziga xosligi xam ana shundadir.

**Adabiyotlar**

1. Халк оғзаки ижоди. Куп томлик. Орзигул достони. Нашрга тайерловчи: М.Афзалов.Айтувчи: Ислом шоир.-Т.:Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.1975 й. – 364 б.
2. Жирмунский В. , Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. -М. : ГИХЛ. 1947, с. 377.
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.
4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - T. : MUMTOZ SO'Z, 2010. – 228 b.

УДК: 895.375:8-31

**ISAJON SULTON NASRI POETIKASI**

**N. N. Sultonova**

*Qarshi davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola modifikatsiyaning badiiylik mezonlari uning adabiyotimizdagi o'ziga xosligini adabiy asarlar orqali tahlil etadi. Isajon Sultonning individual uslubi, u yaratgan obrazlar tizimi odam va olamga daxldor, bir iqtidorli olimning boshidan kechgan voqelikni, qalbidagi nozik insoniy tuyg'ularini o'ziga xos uslubda ifoda qilish jarayoni aks etgan.

**Kalit so'zlar:** Modus, atribut, modifikatsiya, mezon, o'lchov.

**ИСАЖОН СУЛТОН ПОЭЗИЯ ВЕКА**

**Аннотация.** В данной статье анализируется художественный критерий модификации через литературные произведения его уникальности в литературе. Индивидуальный стиль Исажона Султана, образ его творений, отражает реальность талантливого ученого, который связан с миром, и процесс выражения чувствительных человеческих чувств в его сердце.

**Ключевые слова:** модус, атрибут, модификация, критерии, измерение.

**ISAJON SULTAN'S POETRY OF THE AGE**

**Abstract.** This article analyzes the artistic criterion of modification through literary works of its uniqueness in literature. The individual style of Isajon Sultan, the image of his creations, reflects the reality of a talented scientist, one that is related to the world, and the process of expression of the sensitive human feelings in his heart.

**Keywords:** Modus, attribute, modification, criteria, measurement.

Isajon Sultonning asarlari uchun hamisha insonning ma'naviy dunyosi, ma'rifat yo'lida yurgan qahramonlarning ruhiy-psixologik kechmishlari muhim sanaladi. Isajon Sulton o'zining "Ozod" romanini ana shunday aniq ma'naviy maqsad yo'lida yozganini asar boshidagi epigraf va "Bag'ishlov"dan ham bilsa bo'ladi.

Adib romanini bag'ishlovidagi "Bu asar So'z aytishga jazm qilgan va aytgan so'zining mohiyatiyu oqibatini sezgan iste'dod ahliga, shoirlarga, yozuvchilarga, ya'ni, ma'naviy dunyolarni hosil qiluvchi barcha kishilarga bag'ishlanadi" degan qismida ham katta ma'no bor. Yozuvchi uchun insonning ma'naviy dunyosi muhimdir. Ma'naviy dunyo esa hamisha tafakkur bilan, yozuvchilar tomonidan yozilgan asarlar va ular ichida harakat qiladigan insonlarning saviyasi bilan bog'liq bo'ladi. Dunyoni toptamaslik, balki uning holidan aynan shu zaminda yashayotgan insonlar boxabar bo'lib turish lozim. Shuning uchun ham romanning bosh g'oyasi inson ruhining yuksalishi hamma zamonlar uchun muhim bo'lib keladi, degan ulkan bir umuminsoniy g'oya ilgari suriladi.

Isajon Sultonning "Ozod" romani barcha ichki nazariy unsurlariga – o'ziga xos syujeti, obrazlari, bayon usul, kompozitsion qurilishi, hatto hajmiga ko'ra o'zbek adabiyotida mavjud bo'lgan an'naviy romanlardan nisbatan farq qiladi. Aslida yozuvchi dunyo romanlari va o'zbek mumtoz adabiyotini o'qib o'rgangani natijasida shunday o'ziga xos uslubni tanlagan ko'rinadi. Chunki "Ozod" romani ifoda tarzida modifikatsiya – bu o'rinda janrlararo uyg'unlik va mushtaraklik kuzatiladi. Bu esa Isajon Sultonning o'zbek romani imkoniyatlarini o'z ijodi orqali namoyon qilayotgani hamda badiiy tafakkuri imkoniyatlari doirasida kengaytirayotganini anglatadi. To'g'risi, roman janrining imkoniyatlari katta bo'lib, uning tarkibida turli adabiy tur va janrlarga xos jihatlar, shu bilan birga xalq og'zaki ijodi namunalari yoki boshqa bir mualliflarning asarlaridan olingan parchalar ham o'rin olishi mumkin. Dunyo adabiyotshunosligida roman tarkibida kelgan bunday unsurlarga ba'zida – agar asar tarkibiga folklorning

qadimdan kelayotgan an'anaviy mashhur obrazlari singdirilgan bo'lsa mifologik va agar adabiy matn tarkibida turli mualliflarning asarlaridan olingan iqtiboslar mavjud bo'lsa postmodernistik asar sifatida baholab kelinmoqda. Postmodernizm uchun "olamning mavjud qiyofatida faqat fragmentlargagina ishonish mumkin", shuningdek, "badiiy asar ijodiy niyat ijrosining natijasi, ya'ni oldindan belgilangan niyat asosidagi ijodiy jarayon mahsuli emas, balki uning o'zi jarayondir" degan qarashlar muhim sanaladi [1; 230]. Amerikalik tadqiqotchi Kristofer Fort Isajon Sulton ijodi xususida fikr yuritgan bir maqolasini "Isajon Sulton va postmodernizm" deb nomlar ekan, "Meni hammadan ham ko'ra, I.Sulton ijodidagi postmodernizm, bu zamonaviy estetik yo'nalish uning asarlarida qanday qiyofa va shaklda namoyon bo'lishi qiziqtiradi", degan mulohazalar asosida adibning shu "estetik yo'nalish"ga aloqadorligi xususida fikr yuritadi [2; 350]. Shu bilan birga qatorda o'zbek adabiyotshunos olimlari ham Isajon Sulton asarlarining ichki ruhida postmodernizmga yaqin holatlarni kuzatgani ham mavjud faktir. Taniqli adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov yozadi: "Ozod" romanidan va hikoyalaridan anglashiladiki, Isajon Sulton milliy o'zlik deb atalgan ma'naviy xazinaning – konning mohiyatini anglab etmoqda, sharq-musulmon falsafasi, nafosatshunosligi, adabiyotshunosligining vorisi sifatida o'zining postmodernistik asarlarini yaratmoqda" [3; 52]. Haqiqatan ham Isajon Sulton o'z asarlarida murojaat etgan turli hikoyat, rivoyat, folklor obrazlari, shuningdek ayrim ijodkorlar asarlaridan olingan parchalar yoki ularning asarlariga ishoralar aynan ijodiy jarayonda obrazlarning shakllanayotgan dunyoqarashi ifodasi uchun xizmat qiladi. O'tgan shiru adiblarga murojaat bilan yozuvchi o'z qahramonlarining ma'naviy bir robita bilan ularga bog'langanig urg'u bermoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham Isajon Sulton romanining bosh qahramoni bo'lmish Ozod ma'naviy-ruhiy olamda, salaflarining purma'no hikmatlari dunyosida yashashga intilib boradi. O'z tevarak-atrofidagi olamni o'z salaflari tomonidan qoldirib ketilgan bebaho hikmatlar yig'indisi, haqiqiy ma'naviy yuksalishni insoniyat tomonidan qoldirilgan ma'naviy merosdan bahramandlik sifatida tushunadi. Aynan "Ozod" romanida o'tgan salaflar ijodidan, zamonaviy adiblar asarlaridan olingan yoki ularga ishora qilingan o'rinlar ham bevosita duyoning mavjud holati, Ozoddek qahramonning obraz sifatida shakllanish jarayonini namoyon qiladi. Yozuvchi Isajon Sulton o'ziga tengqur bo'lgan adib Ulug'bek Hamdam bilan qilgan "Musaffo bolalikning orzumand xayollari" deb nomlangan suhbatida "Ozod" romani tabiatiga to'xtaladi: "Aytmoqchimanki, yana bir dunyo bor va u biz bilgan dunyodan ko'ra go'zalroq, ranginroq, chunki u salaflarimizning bizga qoldirgan hikmatlaridan tarkib topgan, istasangiz bir qadam qo'yib, o'sha dunyo ichiga bemalol kira olasiz" [4; 236]. Roman qahramoni o'sha dunyoda yashaydi. Qaysidir ma'noda shu o'rinda roman boshidagi bag'ishlov egasi – Ozod Sharafiddinovning turmush tarzi, juda ko'plab o'zbek va jahon adabiyoti namunalarini mutolaa qilgani ham o'quvchi xayoliga keladi. Buning oqibatida romanning ko'lamdorligi yana ham kengaygandek bo'ladi.

Bunday ko'lamdorlik va kengayish Isajon Sulton asarlari tarkibida uchraydigan Xizr (a.s.), Muso (a.s.) yoki Iskandar Zulqarnayn kabi turli tarixiy obrazlarning turli epizodlarida kelishi evaziga ham yuz beradi. To'g'ri, adibning katta-kichik hajmli boshqa asarlarida ham turli mumtoz va zamonaviy adiblar asarlaridan olingan iqtiboslar uchraydi. Ammo "Ozod" romani adibning boshqa asarlariga ko'ra aynan badiiy parchalar va boshqa ijodkorlarning asarlariga ishora nuqtai nazaridan ajralib turadi. Shuning uchun bu o'rinda roman tarkibida kelgan parchalar va ularning roman tarkibidagi funktsiyasiga alohida to'xtalish lozim bo'ladi. O'tgan bobda bu parchalarning qaysi mualliflarga tegishli ekani yuzasidan ro'yxat keltirilgan bo'lsa, bu o'rinda ayrim iqtiboslarni maxsus tahlil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Alisher Navoiy ijodiga bugun nafaqat har bir o'quvchi, ayni choqda ijod ahli ham, hatto ularning qahramonlari ham ko'p bora murojaat etishmoqda. "Ozod" romanida Alisher Navoiy bir necha marta esga olinadi. Uncha katta bo'lmagan "Toshkesar" bo'limida yo'lga chiqqan Ozod toshkesar bilan gaplashadi. Toshkesarga Iskandar devoriga tomon ketayotganini so'zlagach, toshkesar unga shunday firklari orasida Alisher Navoiy dostonidan olingan quyidagi mulohazalarni aytadi: "*Bu yo'lda xunobadan iborat daryolar bor, xunoba emas, balki zahar-zaqqum, devilsa, yanada to'g'riroq bo'lar. Tog'lari ham osmonga tig' tortgan, u tig'larning barchasi shafqatsiz ravishda qon to'kaman, deb turibdi. Har tomonida o't tutashgan dashtlar yolqinlanib, osmonga bosh uradi. O'rmonlari har xil dahshatli balolar bilan to'la, undagi har bir daraxtning shoxi g'aman, bargi esa balodan iborat. Osmonda charx urib yuruvchi bulutlar kishi boshiga yomg'ir o'rniga tosh yog'diradi. Bulutlaridan chaqnagan chaqmoqlar olovidan olamga o't tushadi. U erda bir tun qo'nish uchun maskan yo'q. Tanga mador beruvchi suv ham, don ham topilmaydi. Ming tuman qush u tomonga safar qilib, havoda ming yil qanot qoqsa ham, bu yo'lni bosib o'tmog'i va maqsadiga etmog'i ma'lum emas...*" Aynan mana shu qo'shtirnoq ichida keltirilgan mulohazalar toshkesarning fikrlari bilan modifikatsiya qilinadi. Parcha "Lisonut tayr" dostonining "Qushlar diqqat bilan so'rganlaridan so'ngra Hudhud Simurg'dan nishonlar aytgani" deb nomlangan o'n ettinchi faslidan olingan [5; 22]. Bu fikrlar Isajon Sulton romanida diologga kirishgan toshkesarning Ozodning yo'li va manzilida uchraydigan lola, baxt qushi, shamol, qir, chechaklar to'g'risida berilgan ma'lumotni to'ldirib keladi. Eng muhim toshkesar

maslahati “Assalomu alaykum, ey ahli ma’ni” deb qichqir” degan tarzda tugallanadi [1; 230]. Ozodning maqsadi “ahli ma’ni”larni topish. Shu e’tibordan “Ozod” romani syujeti Hudhud boshchiligida Simurg’ni izlab yo’lga chiqqan “Lisonut tayr” syujetini esga soladi. Dostondan olingan parchalarning roman matnida modifikatsion uyg’unlashuvi roman mazmunini boyitadi.

Isajon Sultonning Alisher Navoyi ijodiyotga muhabbati juda kuchli ekani seziladi. Shuning uchun ham u o’z romanlaridan Hazrat Navoiyning “Mezonul avzon” (“Boqiy darbadar” romanida), “Xazoyinul maoniy” (“Ozod” romanida) kabi asarlari nomidan o’rinli foydalanadi. Shu bilan birga Isajon Sulton o’z asarlari tarkibida zaruratga qarab, Alisher Navoiyning “Lisonut tayr” dostonidan tashqari genial shoir g’azallaridan, “Farhod va Shirin” doston hamda oxirida “Munojot” asaridan iqtiboslar oladi.

Romanning bosh qahramoni Ozod tevaragidagi narsa-predmetlar, tabiat hodisalari, xususan, shamol ham asarda o’ziga xos obraz sifatida keladi. Ba’zan shamol bilan Ozod o’rtasida turlicha suhbatlar bo’lib o’tadi. Ozodning safarida, yo’lda ko’rgan-kechirganlariga shamol ham guvoh bo’ladi.

Isajon Sulton o’z romanlarida diqqat qaratadigan o’zbek mumtoz shoirlaridan yana biri – bu Boborahim Mashrabdir. “Ozod” romanida adib Mashrab g’azallariga ham murojaat qiladi.

“Yukingni yukla, ey darvish, ko’p qattig’ safar bordir,  
Rabote ko’hnaga ho’ qilma, gar ro’ze batar bordir.  
Rohi duru darozingni mudom andisha qil, tolib,  
Borurda boxabar bo’l, yo’lda chandon uqbalar bordur.”

Boborahim Mashrabning “Bordur” radifli bu g’azil ham safarga chiqqan Ozodning ruhiyatiga mos keladi. Ayniqsa, “yo’lda chandon uqbalar bordur” deyilishi bilan Ozod o’z safari davomida uchraydigan turli tuman to’siqlar va sarguzashtlarga ishora qilinadi. Darvoqe, qahramonlarining Mashrab ijodiga mehri Isajon Sultonning birinchi qissasi bo’lgan “Munojot”da ham kuzatilgan edi. Qissaning bosh qahramoni G’arib “Boborahim Mashrabning yuqqagina devoni”ni doimo o’zi bilan olib yuradi. G’arib ma’nan Mashrabga yaqinligi seziladi. Bunday ma’naviy yaqinlik yozuvchining “Boqiy darbadar” romanida ham kuzatiladi. Jumladan unda Mashrabning “Istaganlar bizni sahroi balodan istangiz, Vodiyyi hijron ila dashti fanodan istangiz...” degan misralari keltiriladi. Bunday xayollarga berilish va yo’l azoblari tufayli turli mashaqqatlarni boshidan kechirish, albatta, Isajon Sulton romanlarining o’ziga xos xususiyatini namoyon qiladi.

“Ozod” romanida boshqa shoir va yozuvchilarning asarlaridan olingan iqtiboslar nafaqat mumtoz o’zbek adabiyoti, balki zamonaviy adabiyotining Hamid Olimjon, Zulfiya, Mirtemir, Erkin Vohidov Abdulla Oripov Shavkat Rahmon, Tilak Jo’ra Muhammad Yusuf, Xurshid Do’stmuhammad, Nazar Eshonqul, Iqbol Mirzo, Ulug’bek Hamdam kabi qator namoyandalari ijodidan olingan bitta so’z, jumla yoki she’riy misraning o’ziyoq Isajon Sultonning barcha qalam ahlini bitta ma’naviyat muammolari atrofida birlashtirishga urinayotganini anglatadi.

Masalan, ishoralar jamlagan bir sahifada “...o’shshaygan qoyalar labida o’sgan bir tup na’matakning shoxchalarini shamol yulqilay boshladi”, degan gap Oybekning beg’ubor she’riy olamini esga soladi. Xususan, XX asr o’zbek she’riyatining beqiyos durdonasi bo’lgan “Na’matak” she’rini xayolda paydo bo’ladi:

“Nafis chayqaladi bir tup na’matak,  
Yuksakda, shamolning belanchagida!...” [6; 30-31].

Bunday misralar Ozodning qalb kechinmalaridan o’tadi. Shunda Oybek siymosida Ozod va ozodning ko’rinishida Oybek va boshqa ijodkorlarning obrazlari namoyon bo’ladi.

Romanning boshqa bir epizodida shunday bir ifoda-bayon keladi: “Bu dalani yoqtiraman. Naridagi toshloqda jilg’a oqadi. Toshlar ustida bitta majnuntol o’sgan, barglari shitiraydi.

*Bu majnuntol tagida ba’zan yoshi ulug’ bir odam o’tirgan bo’ladi. U juda olislardan, nima uchundir yig’lab-yig’lab keladi, soyasida tin oladi. Shunda majnuntol uning elkalariga, boshiga ko’zyoshlarini to’kadi.. Uzoq o’tiradi, keyin horg’in-horg’in qadam bosib, quyosh botadigan taraflarga jo’nab ketadi”* [8; 159].

Bu tabiat tasviri bilan bog’liq liro-epik parchaning avvalida kelgan “majnuntol” so’zi, so’ngra “*Bu majnuntol tagida ba’zan yoshi ulug’ bir odam o’tirgan bo’ladi*” degan gapi, qolaversa shu yoshi ulug’ odamning yig’layotgan vaziyatlari – barchasi Mirtemirning she’ri va uning lirik qahramonini esga soladi. Shunda ma’rifatli kitobxon beixtiyor talantli shoir Mirtemirning “Betobligimda” degan she’rining to’liq mazmunini, xususan uning:

*Majnuntol tagiga o’tqazing meni,  
Shu kungacha o’zni men cheklab bo’ldim.  
Majnuntol tagiga o’tqazing meni,  
Men uchun yig’lasin, men yig’lab bo’ldim.* [7; 54],

degan misralari xayolga keladi.

Bunday iqtiboslar roman matnini badiiy jihatdan jozibadorligini oshirish bilan birga, o'zbek adabiyotidagi turli obrazlar bilan mashtarak ravishda roman muallifning ma'naviy dunyosi o'zidan oldin o'tgan salafllari dunyosiga yaqinligini namoyon qiladi.

Romandagi ishqiy liniya bayoni, Diloromga Ozodning oshiqligi berilgan sahifalarda o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga yarasha o'rin qoldigan ikki ajoyib shoir va shoira – Hamd Olimjon bilan Zulfiyaning taqdiri kitobxon ko'zi oldida namoyon bo'ladi. Bunda ham usha adiblardan oligan quyidagi parchalar poetik vazifani bajaradi:

“Har bahor kelganida qirdagi bir tup o'rik oppoq bo'lib gullaydi. Ko'klam elimga Dilorom bo'lib, gul ochib-ko'rklanib kirib keladi. Qarshisiga boraman-u, undan “Baxtim bormi?” deb shivirlab so'rayman.

Kimdir javob beradi:

*Yuzlarimni silab-siyपालab,  
Baxting bor, deb esadi ellar  
Etgan kabi go'yo bir talab,  
Baxting bor, deb qushlar chiyillar ...”* [8; 166-167].

Eng asosiysi Ozodning yo'l-yo'lakay ko'rib borayotgan manzaralari unga oshiqona, shoirona kayfiyat bag'ishlaydi. Xususan, “bir tup o'rik oppoq bo'lib” gullashi xususida gap borganida Hamid Olimjonni har qanday o'quvchi esga oladi. Shu bilan birga o'z yoridan ajralib umr bo'yi hijronda o'tgan Zulfiyaning Hamid Olimjon sog'inchi munosabati bilan yozgan she'rlari, ayniqsa, “*Seni izlar ekan bo'lib shabboda*” deb yozg'irishlari kitobxon qalbiga ko'chib o'tadi.

Aslida lolani izlab yo'lga chiqqan Ozodning butun borlig'iga Muhammad Yusufning “Lolaqizg'aldoq” she'ri juda mos tushadi. Shuning uchun ham Isajon Sulton shoirning 11 bilandli uzun she'ridan besh misralik:

*“Buni hayot derlar, unutm aslo,  
Bir kun ochilasan, bir kun so'lasan.  
Qalbimda-ku, faqat sen eding tanho,  
Qabrim ustida ham o'zing bo'lasan.  
Sen bizning sevgidan xotira – bayroq,  
Lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq...”*

degan bir bandini keltiradi. Muhammad Yusufning she'riy matnida kelgan “Menga esa HAVO etmaydi xolos”, yoki “Sen o'pib, O'shni quchoqlab o'lsam” kabi misralari Shavkat Rahmon qismatni esga soladi. Bu alamli va mahzun she'r haqiqatan ham Shavkat Rahmon hayotidan so'zlayotgandek bo'ladi. Aslida romanda barcha “ahli man'ni” badiiy dunyoda birlashadilar. Ularning dunyosi Ozodning yuksak ma'naviy olami bilan uyqash keladi. Shu bilan birga adib romanida inson va tabiat o'rtasidagi birlikni ham bayon qiladi. Shuning uchun Ozod yo'lida uchragan har bir giyoh, daraxt, qush va shu kabi boshqa tabiat hodisalari bilan ham suhbatlashadi. Isajon Sulton shu jihati bilan ham o'zbek romanchiligida o'ziga xos uslubiy yangilikka intilayotgani seziladi.

Roman kompozitsiyasida “Ko'za”, “Bo'ri bilan qush”, “Toshbaqa bilan Chayon” “Qarg'a”, “Aravaga qo'shilgan otlar hikoyasi” kabi hikoyat va rivoyatlar ham keladiki, bular ham Ozodning ma'naviy olamini teranlashtiradi. Yana aytdilarki, u erda beshinchi kishi ham bor edi. Uning so'zidan biz bexabarmiz. Chunki, u sukut saqlagan edi...”. Bu kichikna rivoyat aslida Isajon Sultonning romanini anglash uchun kalit vazifasin ham o'taydi. Uni adabiyotshunoslar turlicha izohlaydi. Ammo bir toifa nglab, huzurlanib sukut saqlaydi.

Har bir rivoyat tarkibida kelgan mitti obrazlar jonli yoki jonsiz bo'lishidan qat'iy nazar so'zlaydi, o'zaro muloqotga kirishadi. Shu bilan birga insonning, dunyoning, borliqning mohiyati xususida falsafiy mulohazalar yuritadi.

Umuman olganda, Isajon Sultonning “Ozod” romanidagi “ahli ma'ni”lar qiyofasi tavsifiga uchun professor A.Rasulovning ushbu mulohazasi juda mos keladi: “Tevaragimizdagi dunyo sobitdir va o'zgarasdir, undagi voqea-hodisalar senda akslanadi, chunki sen ularga qiymat berasan, deydi yozuvchi. Sen qiymat bergan narsa qadrlil, qiymat bermaganing esa beqadru kambahodir. “Ozod” romani boshdan-oyoq mana shu asosga qurilgan” [3; 32]. Haqiqatan ham, Isajon Sultonning “Ozod” romani tarkibida kelgan rivoyat va iqtiboslar shu yuqoridagi asosning isboti yo'lida adabiy dalillar sanaladi.

“Ozod” romani tarkibida keladigan qadim rivoyatlarga, mashhur ijodkorlarning asarlariga bo'lgan ishora roman mazmun-mohiyatini teranlashtirishga, turlicha ezgu tushuncha doirasini kengaytirish tomon etaklashga xizmat qiladi.

Romanda kelgan ishoraviy ramzlar o'quvchining xayolini bepoyon adabiy-badiiy kengliklar sari boshlaydi. Eng asosiysi, bugungi globallashuv jarayonida, har qanday m'naviy qadriyatlardan turli tuman

texnikalar o'zib ketayotgan bir mahalda "Ozod" romani tegzaminida ma'naviyatning ulug'lanishi har qanday ma'rifatli odamni quvontiradi.

Tarkibida turli adabiy parchalar, yangicha talqindagi rivoyatlar kelgan "Ozod" romani adabiyotshunos olimlarning fikrini charxlashga, roman tabiatining o'zgarib borish jarayonlari xususida fikr aytishga yordam beradigan asarlar sirasiga kiradi.

#### Adabiyotlar

1. Д.Қуронов ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. Тошкент. "Академнашр" нашриёти. 2010 йил, 230-бет.
2. Кристофер Форт. Исажон Султон ва постмодернизм. Исажон Султон насри бадийати. Тошкент. "Turon zamin ziyo" нашриёти, 2017 йил, 350-бет.
3. Расулов А. Акслар фалсафаси. Исажон Султон насри бадийати. Тошкент. "Turon zamin ziyo" нашриёти, 2017 йил, 52-бет.
4. Мусаффо болаликнинг орзуманд хаёллари. Исажон Султон насри бадийати. Тошкент. "Turon zamin ziyo" нашриёти, 2017 йил, 236-бет.
5. Алишер Навоий. Лисонут тайр. Тошкент. Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1984 йил. 22-бет.
6. Ойбек. Наъматак. XX аср ўзбек шеърляти антологияси. Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2007 йил, 30-31-бет.
7. Миртемир. Бетоблигимда. XX аср ўзбек шеърляти антологияси. Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти.. – Тошкент, 2007 йил, 54-бет.
8. "Ozod" романи. Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент. 2018.

UDK: 809

#### SAYQALIYNING "BAHROM VA GULANDOM" DOSTONIDA TASHBIH SAN'ATI

M.R. Mamatqulov

Guliston davlat universiteti

mamatqulov73@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqola Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostoni badiiyati masalalarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda shoirning tashbih san'atidan foydalanish mahorati tahlil etilgan. Ushbu masalaning hal qilinishi, birinchidan, tadqiq qilinayotgan romantik doston mohiyatini yanada yaqqolroq ochilishini ta'minlasa, ikkinchidan, uning o'ziga xos tomonlarini yoritishga ham xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** doston, obraz, tashbih, tashbihning turlari, doston badiiyati, shoir mahorati

#### Ташбих в эпосе сайкали "Бахрам и Гуландом"

**Аннотация.** Данная статья посвящена вопросам изучения художественности эпоса "Бахрам и Гуландом" Сайкали, в котором анализируются мастерство использования ташбиха поэтом. Решение этой проблемы, во-первых, обеспечивает более четкое понимание сути исследуемого романтического эпоса, а во-вторых, служит для раскрытия его особенных сторон.

**Ключевые слова:** эпос, образ, ташбих, виды ташбиха, художественность эпоса, поэтическое мастерство

#### The art of tashbeh in the epic saikali "Bahram and Gulandom"

**Abstract.** This article is devoted to the study of the artistry of the epic "Bahram and Gulandom" Saikali, which analyzes the skill of using tashbih by the poet. The solution to this problem, firstly, provides a clearer understanding of the essence of the romantic epic under study, and secondly, serves to reveal its special aspects.

**Keywords:** epic, image, tashbih, types of tashbih, artistry of the epic, poetic skill

Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostonidagi badiiy tasvir vositalarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki bu masalaning hal etilishi dostonning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishi bilan birgalikda shoirning she'riy san'atlardan foydalanish mahoratini ham chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Biror predmet, narsa yoki hodisaning belgi xususiyatini xuddi shunday belgi, xususiyatga ega bo'lgan boshqa predmet, narsa yoki hodisa orqali ifodalash, solishtirish, o'zaro qiyoslash va shu tariqa tasvirlanayotgan narsa, hodisa yoki voqeaning ayrim xususiyatlarini kitobxonga jonliroq, yorqinroq hamda ta'sirchan yetkazib berish tashbih san'atining mohiyatini tashkil qiladi. Tashbih o'tmish adabiyotda

qo'llanilgan badiiy san'atlar ichida alohida o'rinni egallaydi. Chunki "shoirning mahorati, xususan, uning tasavvur va xayol olamining boy yoki qashshoqligi" [3, 1979] tashbih orqali namoyon bo'ladi.

Tashbih asosida yaratilgan misra yoki baytlar "Bahrom va Gulandom" dostoni poetikasida ham muhim rol o'ynaydi. Sayqaliy doston tarkibidagi har bir janrda tashbihning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga harakat qiladi. Dostonda qo'llanilgan tashbihlarni janrlarda uchrashiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Masnaviy tarkibidagi tashbihlar.
2. G'azallardagi tashbihlar.
3. Muxammaslarda uchraydigan tashbihlar.

Masnaviyda qo'llanilgan tashbihlar dostonida nisbatan ko'proq uchraydi. Ular voqealar tasvirining turli jarayonlarini va qahramonlarga aloqador ayrim xususiyatlarni jonliroq ochishga xizmat qiladi:

Ki ul taxt ustiga bir qizni ko'rdi,  
Yuzi gul lablari qirmizni ko'rdi [8, 1960].

Suratga chizilgan qizning tasviri Bahromda jonlidek taassurot uyg'otadi. Lablari qirmizdek gulday chiroyli bo'lgan malika Gulandom ishqiy sarguzashtlarning boshlanishiga sababchi bo'ladi. Baytda yuzning gulga o'xshatilishi tabiiy hodisa sifatida Gulandomning go'zalligini ta'riflashda asosiy vosita hisoblanadi.

Doston qahramonlariga xos ayrim xususiyatlar tasvirida Sayqaliy an'anaviy tashbihlarni keng qo'llaydi. Bunday tasvirlar nafaqat Gulandom obrazi bilan bog'liq jarayonlarda, balki Bahromga xos bo'lgan ayrim jihatlar talqinida ham davom ettiriladi:

Chiqib o'turdi sufa uzra shahzod,  
Base ul orazi gul, qadi shamshod [8, 1960].

Malika Gulandom ishqida Chin yurti tomon safarga chiqqan Bahrom yo'lda chiroyli bir qasrga duch keladi. Birinchi misrada aynan shahzodaning bog'dagi supaga kelib o'tirishi ifodalangan. Keyingi misradagi qiyosiy sifatlar ham Bahromga tegishli. Chunki Bahrom nafaqat kuch-qudratda, balki insoniy fazilat va go'zallik bobida ham tengsiz edi. Shu sababli ham ikkinchi misradagi o'xshatishlarni shahzoda obraziga xos sifatlar tarzida qabul qilish lozim.

Obrazlarning turli holatlarini berishda ham tashbih san'atining imkoniyatlari cheksiz. Sayqaliy Bahromdagi visol umidida ko'tarinki ruhning paydo bo'lishi bilan bog'liq vaziyatlar talqinida shu imkoniyatlarni ishga soladi:

Olib Bahrom ochibon ko'rdi chun gul,  
O'qurdi zavqi birlan misli bulbul [8, 1960].

Baytning mazmunini to'liq anglash uchun undan oldingi voqealardan xabardor bo'lish lozim. Gulandomda shahzodaga nisbatan qiziqish paydo bo'lgach, uning kimligini aniqlashga kirishadi. Kanizagi Davlatni ishga soladi. Bundan hech qanday naf chiqmagach, maktub yozadi. Davlat maktubni olib borib, Bahromga topshiradi. Yuqoridagi baytda shahzodaning nomani qo'lga olgan paytdagi hayajonli holati tasvirlangan. Bahromning maktubni bulbul kabi zavq bilan o'qishi bejiz emas. Chunki noma oshiq uchun katta quvonch. Bu orqali unda Gulandom bilan aloqa qilish imkoniyati paydo bo'lgan edi.

Oshiqlar doimo hijron azobida qiynalib yashaydilar. Ayriliq ularni ne ko'ylarga solmaydi. Bahrom uchun ham bu dard begona emas:

Alifdek qomatim hajringda nundur,  
Chu nukta dardi pinhonim darundur [8, 1960].

Baytdagi o'xshatish vositalari arab imlosidagi harflar. Alif – tik, go'zal qomatning belgisi. Nun esa egilgan bo'y-bastning obrazli ko'rinishi. Bahromning kelishgan qaddi-qomati hijron azobida egildi. Bu uning ichki yashirin dardidir.

Bu kabi o'xshatishlar bosh qahramonlarning ichki dunyosini berishda, ayniqsa, muhabbat bilan bog'liq jarayonlar ifodasida yuksak ta'sirchanlikni ta'minlaydi:

Shikasta shishadek ko'nglum sinig'dur,  
Buzulgan kishtidek jismim buzuqdur [8, 1960].

Ko'ngilning shishaga qiyoslanishi ko'p uchraydigan adabiy hodisa. Shishada ham ko'ngilda ham musaffolik bor. Shisha sinza ham ko'ngil darz ketsa ham tiklanishi qiyin. Ammo mahruh ko'ngilning siniq shishaga o'xshatilishi lirik qahramondagi azoblanishdan darakdir. Undagi dard jism, ya'ni vujudagi majruhlikka olib kelmoqda, bu esa buzulgan kemaga o'xshaydi.

Biror hodisa yoki obrazga xos bo'lgan o'xshatishning bir necha misra yoki baytlarda davom etishi "Bahrom va Gulandom" dostonida ham kuzatiladi. Sarvosoning ta'rifiga bag'ishlangan misralar fikrimizga dalil bo'la oladi:

Ko'rarkim, bir ajab sohib jamoli,



Yuzi gul, qadi chun gulni niholi.  
 Qalam tortgan qoshi ser mashqi ustod,  
 Terilgan kifriki, paykoni fo'lod.  
 Parishon iki yondin zulfi sunbul,  
 Tili og'zinda so'zlar misli bulbul.  
 Dahoni g'unchadek bir-bir ochilur,  
 So'zidin shahdu shakarlar sochilur [8, 1960].

Sarvoso – Sayfur boshchiligidagi aka-ukalarning yolg'iz singlisi. U haqiqatan ham go'zallikda tengsiz. Shoir baytda o'xshatishni ikki xil ko'rinishda ishlatishning uddasidan chiqqan. Birinchisida tashqi go'zallik bilan bog'liq tasvirlar ifodalangan bo'lsa, ikkinchisida sohibjamolning so'zlash holati bilan bog'liq jarayonlar aks ettirilgan. Yuzning gulga, qadning gul niholiga, qoshning ustozning yozuv mashqiga, terilgan kipriklarning po'lat o'qlarga, sochning esa sunbulga qiyoslanishi Sarvosoning qay darajada latofatli ekanligidan darak bersa, bulbul kabi zavq bilan so'zlashi, gapirayotganda lablari bir-bir ochilib, yoqimli so'zlar ifodalanishi uning ma'naviy qiyofasiga ham bir ishoradir.

Bu kabi obrazlarning turli holatlari aks etgan tashbihlar dostonida o'ziga xos o'rin tutadi. Chunki ular qahramonlarning tabiiy go'zalligidan tashqari ularning yurishi, so'zlashi, qarashi, kulishi, noz-u ishvalarini ham obrazli tasvirlash imkoniyatini yaratadi:

Qadi sarv-u xol xand-u anbarin mo',  
 Yuzi gul, sochi sunbul, zulfi har so',  
 Qoshi yoy, kifriki o'q, g'amzasi cho'q,  
 Jahonda xublig'ig'a hech taraf yo'q.  
 Labi la'lu Badaxshon, tishlari dur,  
 Kulushi chaman pari, boqishlari hur.  
 Hama boshdan ayog'i nozi g'amza,  
 Suxan ustodidur har qaysi ramza [8, 1960].

Bu tavsiflar Gulandom haqida yozilgan. Uning ta'rifi dostonning bir necha o'rinlarida tasvirlanishiga qaramasdan bunday kengaytirilgan o'xshatishlar malikaning go'zalligi to'g'risidagi tasavvurlarni yanada boyitadi. Ayniqsa, "g'amzasi cho'q", "boqishlari hur", "kulushi chaman pari", "suxan ustodidur" kabi birikmalar uning "kishvari husn ichra sarvar" ekanligidan dalolat beradi.

G'azal janrini o'xshatishsiz tasavvur qilish qiyin, albatta. Tashbihlar g'azallardagi obrazlilik va ta'sirchanlikni yanada oshiradi. Tasvirlanayotgan hodisaning jonli, yorqin ifodalanishini ta'minlaydi. Sayqaliy g'azallarida ham bu xususiyatlar kuzatiladi:

Chun alif qaddim egildi doldek ta'zimingga,  
 Rashk tubi qomati nozuk niholingni ko'rub [8, 1960].

O'tmish adabiyotimizda noziklik ham go'zallikning belgilaridan biri hisoblanadi. Bu tushunchadan ma'shuqaning tasviri bilan bog'liq jarayonlarda foydalaniladi. Gulandom qomatining niholga o'xshatilishi mumtoz poetika qoidalariga zid emas. Niholning nozik ekanligi ham tabiiy hodisa. Nozik nihol degan tushunchaning zamirida aslida go'zallik mujassam. Shunday ekan, alifdek qaddi-qomatga ega bo'lgan oshiqning bunday go'zal qoshida doldek egilishi, ya'ni ta'zim qilishi Sayqaliyning bu badiiy tasvir vositasi imkoniyatlarini yaxshi anglay olganligini ko'rsatadi.

Oshiqning ma'shuqa qoshida ta'zim qilish orzusi boshqa g'azallarda ham uchraydi. Ta'zim etish – oshiqlikning bir belgisi. Go'yoki oshiq bu orqali ma'shuqaga o'z muhabbatini izhor qilish taraddudida bo'ladi. Shoir bu hodisani ifodalashning eng yaxshi yo'li sifatida yana o'xshatishga murojaat etadi:

To'lon oydek yuzingni ko'rgali aylab tamannosi,  
 Hiloli mag'ribidek ta'zimingga xam bo'lo keldim [8, 1960].

To'lin oy birikmasi ma'shuqaning go'zalligiga ishora. Xam – egilish, bukilish ma'nosini anglatadi. Kun botgandan keyin ko'ringan yangi oyda ham egiklik xususiyati bor. Shu sababli ham xam tushunchasiga nisbatan "hiloli mag'ribidek" birikmasi ishlatilib, obrazli ifoda hosil qilmoqda: To'lin oyday yuzingni ko'rish orzusi bilan egilib ta'zimingga keldim. Chunki hilol ham sening go'zalliging qoshida ta'zimdadir.

Tashbih – aslida ijodkor uchun bir vosita. Har qanday shoirning asosiy maqsadi badiiy yetuk ijod namunalari yaratish bo'lsa, vazifasi badiiy barkamollikni ta'minlovchi omillardan biri bo'lgan she'riy san'atlardan mahorat darajasida foydalanishdan iborat. Buni yaxshi his qilgan Sayyodiy badiiylik talablari asosida yuqori saviyadagi g'azallar yaratishga harakat qiladi. Muhabbat dardiga yo'liqqan oshiq uning tasvir ob'ektiga aylanadi:

Otashi ishqingni to siynamg'a mehmon ayladim,  
 Rishtai jon o'rgulur tan ichra ulkan mordek [8, 1960].

Siyna, ya'ni ko'ngilning mehmoni haqiqatan ham ishq. Ishq bu dargohga oddiy mehmon emas. Uning "yondirish", "kuydirish" va bu orqali azob berish kabi "fazilatlarini" ham bor. Azoblanishning qurboni esa har doimgidek – jon. Tanadagi jon rishtasining katta bir ilondek to'lg'onishi ishq otashida kuyayotgan oshiqning holatini obrazli tasvirlashning bir ko'rinishidir.

Ilondan o'xshatish vositasi sifatida foydalanish shoirning boshqa g'azallarida ham uchraydi. Ilon ruhiy jarayonlar bilan bog'liq tasvirlardan tashqari oshiqning tashqi ko'rinishiga aloqador holatlarni ifodalashda ham o'ziga xos vazifa bajara olganligi quyidagi bayt orqali namoyon bo'ladi:

Turg'oli toki g'amingdin chola o'lgan mordek,

Bir yo'li boshim chopib, korim tamom etsang netar [8, 1960].

Darmonsizlik, yurishga madorning yo'qligi – chala o'lik ilonning ahvoli. Shoirning fikricha, ishq dardida g'amdan cho'kib qolgan oshiqning holati ham aslida chala jon ilondan kam emas. Bu dardning sababchisi – ma'shuqa. Shu bois baytda sevimliga bo'lgan murojaat bor: Sening g'amingda chala o'lgan ilondek holga tushib qoldim. Bir yo'la boshimni chopib, bu ishlarimning oxiriga yeta qolsang nima qiladi?

Tashbihlar muxammaslarga ham o'z gacha joziba bag'ishlaydi. Sayqaliy muxammaslari ham bundan mustasno emas:

Mani rasvo qilankim turfa bir shakli shamoildur,

Qilichday qoshlari suratda bir xunrezi qotildur,

Kamandi zulfidin bo'ynung'a chirmashg'on salosildur,

Aningchun telba ko'nglum azmgohi Ching'a moildur,

Badal qildim bu savdog'a asosi shon-u shavkatni [8, 1960].

Muxammas muhabbat mavzusida yozilgan. Unda ishqqa oshufta ko'ngilning kechinmalari aks ettirilgan bo'lib, go'yoki oshiqning maqsadi bayon qilingandek taassurot uyg'otadi. Badda qo'llanilayotgan o'xshatishlar esa ma'shuqaning ozor beruvchi, jafu qiluvchi sifatidagi tasvirini ta'minlaydi. Ma'shuqaning qilichday qoshlari ko'rinishidan xuddi bir rahmsiz jon oluvchi qotilga o'xshaydi. Soch o'rimi esa go'yoki sirtmoq kabi bo'yinga yopishga zanjirdir. Undan qutulish juda qiyin. Shu bois oshiqning ko'ngli sevimlining yurti bo'lgan Chin tomon borishga moyildir. Butun shon-u shavkatini bu savdo evaziga almashganining sababi ham shunda.

Dostondagi muxammaslar orasida Rum podshohining farzandi qayg'usidagi aytgan muxammasi alohida ajralib turadi. Bahrom ovda g'oyib bo'lgach, navkarlari uni topolmay Rumga qaytadi va ota-onasini bu voqeadan xabardor qiladi. Podshohning o'y-fikrlari muxammasda beriladi:

Ey, hayotim bog'ida yangi ochilg'on bir gulim,

Oshyoni ro'zg'orimda g'azalxon bulbulim,

Qarchig'oy boqishlig'im, ey, arslon ko'zlugum,

O'rtadi so'nyuklarim hajringda ey, jon gulim,

Vey, ziyo bergan charog'u ro'zgorim bir bolam [8, 1960].

Haqiqatan ham farzand ota-ona uchun ziyo beruvchi, ularning hayotini yoritib turuvchi chiroqqa o'xshaydi. Farzandsizlik esa turmushni zimistonga aylantiradi. Badda "yangi ochilg'on bir gulim", "g'azalxon bulbulim", "qarchig'oy boqishlig'im", "arslon ko'zlugum" kabilar o'xshatishning ta'sirchan chiqishini ta'minlagan.

Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostoni badiiyatida tashbih san'atining o'rni juda muhim. Tashbih dostonida masnaviy, g'azal va muxammaslar tarkibida keng qo'llanilib, obrazli tafakkur taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ayniqsa, dostonidagi obrazlar tavsifiga aloqador misralardagi o'xshatishlar o'ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi. Xususan, Gulandomning go'zalligi tasviri aks ettirilgan o'rinlar fikrimizga dalil bo'la oladi. Shuningdek, bosh qahramonlarning ruhiy holatlarini berishda ham mazkur she'riy san'at shoir uchun eng asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. "Bahrom va Gulandom" dostonida an'anaviy tashbihlar bilan birgalikda shoir badiiy tafakkuri mahsuli sifatida yaratilgan tashbihlarning uchrashi Sayqaliyning bu badiiy tasvir vositasi imkoniyatlarini yaxshi angelay olganligini ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar

1. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog'a. –T.: Xazina, 1996. – 212 b.
2. Husayniy A. Badoyi'u-s-sanoyi'. –T.: Adabiyot va san'at, 1981. – 400 b.
3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T.: Adabiyot va san'at, 1979. – 214 b.
4. Rahmonov V. She'r san'atlari. –T.: Sharq, 2020. – 237 b.
5. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. –T.: Zarqalam, 2006. – 128 b.
6. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. –T.: Sharq, 1998. – 160 b.
7. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. –T.: 2001. – 121 b.
8. Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. –T.: Fan, 1960. – 223 b.

УДК: 491.7

## ПЕРСИЗМЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Н.А. Вохидова

*Самаркандский государственный университет*

**Аннотация.** В статье рассмотрены закономерности комплексного освоения слов русского и персидского происхождения путем описания механизмов вхождения лексем из одного языка в другой в течение длительных русско-персидских языковых контактов. Сопоставлены данные лексем в обоих языках и выявлены их расхождения.

**Ключевые слова:** персизмы (фарсизмы), индоевропейские праязыки, генетическое родство, этимология слов, заимствованные слова.

**Rus tilida forsizmlar**

**Annotatsiya.** Maqolada bir oilaga mansub rus va fors tillarining kelib chiqish yo'llari, ularni o'xshash tomonlari kompleks ravishda o'rganilgan. Uzoq davr davomida ikki til orasidagi aloqalar natijasida bir tildan ikkinchi tilga o'zlashtirilgan leksemalarini taqqoslangan.

**Kalit so'zlar:** forsizmlar, qadimiy hind-yevropa tillari, genetik o'xshashlik, so'zlarning kelib chiqishi, o'zlashtirma so'zlar.

**Persian words in Russian language**

**Abstract.** The article discusses the laws of the integrated mastery of words of Russian and Persian origin by describing the mechanisms of the entry of tokens from one language into another during long Russian-Persian language contacts. The given tokens in both languages are compared and their discrepancies are revealed.

**Keywords:** Persisms (Farsisms), Indo-European parent languages, genetic kinship, etymology of words, borrowed words.

Персизм (от лат. *Persia* — Персия, древнее название Ирана) — слово или выражение, заимствованное или происходящее из персидского языка [1]. Пласты персизмов несколькими волнами проникли в языки многих народов Евразии. Что касается происхождения данного языка, то необходимо знать, что персидский язык также, как и русский, исходит из большой, самой распространенной на земле, семьи индоевропейских языков. Несмотря на то, что прошло уже несколько тысячелетий после распада индоевропейской группы, когда языки сгруппировались по разным ветвям, русский (балто-славянская ветвь) и персидский (иранская группа арийской ветви) языки до сих пор хранят некоторые схожие черты. В течение многих веков произошли огромные фонетические и семантические изменения, которые разделили индоиранские и славянские языки, однако в современном русском и современном персидском языках сохранились корни общего происхождения. Эти слова в настоящее время, как правило, совершенно не похожи, но по фонетическим законам перехода одних звуков в другие, их можно возвести к общей реконструируемой форме.

Стоит отметить, что интерес к изучению персидско-русских языковых отношений появился давно, а ученые-языковеды начали рассматривать этот аспект уже в начале XIX в. О генетическом родстве этих двух языков заявляли многие ученые, такие, как А. А. Зализняк, В. И. Абаев, В. Н. Топоров, О. Н. Трубочев, Д. И. Эдельман, Х. Бирнбаум.

Термин персизмы или фарсизмы (персидские заимствования, персидские слова) используется как слова персидского происхождения, пришедшие в русский язык в результате торговых, культурных, политических связей на протяжении многовековой истории. Вследствие языковых контактов между персидским и славянским, а позднее, русским языками, в обоих языках появились заимствованные лексические элементы. Торговые контакты между славянскими и персидскими купцами имели место ещё в IX в. С середины XV в. экономические и политические контакты между Московской Русью и Персией значительно усиливаются, и в XVII в. торговля между двумя странами переживает свой расцвет [2]. Товары из Ирана в обилии попадают на русский рынок, а вместе с ними в русский язык попадает и персидская лексика. На данный момент лингвисты выявили более двухсот персидских заимствований. Можно выделить целый ряд тематических групп, по которым распределилась колоритная лексика. Например, к наиболее ранним иранским заимствованиям в русском языке можно отнести перс. *саг* и рус. *собака*; рус. *хата*,

займствованное из древнеиранского *kata* (комната, кладовая, погреб), откуда современное персидское *kađe* «дом» (напр., в слове *dāneškađe* «факультет», букв.: «дом знаний»). Другие древние иранские заимствования включают в себя предположительно такие чрезвычайно употребительные и в современном русском языке слова, как: бог, рай, топор, чаша, чертог, хмель, медь, ровный. Без всех этих ранних иранских заимствований современный русский язык просто немислим.

Если говорить о словах общей этимологии в персидском и русском языках, то к ним можно отнести следующие слова, например: перс. *dānestān* (знать) — рус. *знать* (родственны корни «*dān*» - «*зна*» из индоевропейского \*ǵen; \*ǵnē; \*ǵno “знать”); перс. *xašt* и рус. *восемь* (родственны корни «*xašt*» и «*восемь*» из индоевропейского \*oktō (u), откуда авест. *aštāu*); перс. *daš* (*десять*) — рус. *десять* (родственны корни «*daš*» - «*дес*» из индоевропейского *dek-m-t* “десять, десяток”); перс. *āsmān* (*небо*) и рус. *камень* (родственны корни «*ās*» и «*ка*» - от индоевропейского корня \*ak; \*ok “острый, остроконечный”); классич. перс. *meš* (*овца*) и рус. *мех* (из индоевропейского \*moiso- “баран, овца; кожа, шкура”); перс. *xāxar* (*сестра*) и рус. *сестра* (из индоевр. \*suesor- “сестра”); перс. *Ki* (*кто*) и рус. *кто* (родственны корни «*ки*» и «*к*»; из индоевр.: \*kwo; kwe — вопросительное местоимение), «*звено*» (с перс. *kolano*, *zānu*), «*темный*» (перс. *temnāy*, *tārik*), *шесть* и (перс. *šest*, *šeš*), «*стоять*» (перс. *istādan*), «*просить*» (перс. *sporsidan*), «*спасибо*» (перс. *sepās*), «*мать*» (перс. *mādar*), *новый* (перс. *now*) и (перс. *novin*), «*мышь*» (перс. *miš*), «*мозг*» (перс. *maqz*), *шаль* (перс. *šāl*) и т. д.

Вернемся к заимствованиям. В словаре любого современного языка не может не встретиться хоть одно слово, когда-либо вошедшее в него из другого языка. Каким же образом это происходит? Для того, чтобы это понять, не обязательно нужно быть историком. Достаточно вспомнить важные исторические события в жизни того или иного народа. Заимствование, по словам Л. П. Крысина, это процесс перемещения различных элементов из одного языка в и другой. Под различными элементами понимаются единицы различных уровней структуры языка – фонологии, морфологии, синтаксиса, лексики, семантики [3].

Заимствования иностранных слов — один из способов развития современного языка. Язык всегда быстро и гибко реагирует на потребности общества. Заимствования становятся результатом контактов, взаимоотношений народов, государств. Основной причиной заимствования иноязычной лексики признается отсутствие соответствующего понятия в когнитивной базе языка-рецептора. Другие причины: необходимость выразить при помощи заимствованного слова многозначные русские понятия, пополнить выразительные средства языка и т. д. [4].

В русский язык, в основном, попадали слова из других языков, обозначающие названия предметов быта, домашней утвари, орудий труда, обозначения продуктов питания, названия предметов одежды и туалета, ткани и сырья, слова, описывающие различные характеристики предметов и абстрактные понятия, растительный и животный мир, названия плодов. Во время военных походов лексика русского языка пополнялась наименованиями военного снаряжения, названиями сооружений и их частей, хозяйственно-экономическими терминами.

Лексика русского языка также обогащалась словами, выражающими религиозные понятия, обычаи и обряды разных народов, спортивными терминами, названиями минералов и химических веществ. Культурный обмен между народами привел к расширению словарного запаса за счет литературных терминов, слов, обозначающих предметы искусства и названия музыкальных инструментов.

Иранизмы, заимствованные русским языком напрямую или посредством тюркских и европейских языков, имеют давнюю историю: первое появление иранских заимствований в русском языке, судя по исследованиям лексикологов, относится к I тыс. до н.э. - эпохе древнеирано-общеславянских контактов, с XII в. н.э. иранские заимствования в большом количестве оказываются в русском языке через тюркские, а с XVIII в. - через европейские языки Немаловажной вехой в этом отношении является XIX век, в течение которого дважды - в 1804—1813 и 1826-1828 гг. - вспыхивали русско-персидские войны [5]. Последовательную цепочку языков-посредников в процессе заимствования большинства таких слов проследить практически невозможно.

Рассмотрим несколько заимствований.

«Амбар»: это слово пришло, вероятнее всего, из древнеиндийского «*sambhara*», затем перешло в древнеиранский язык и переключилось в русский. Есть оно и в турецком в виде «*anbar*».

«Арбуз»: слово заимствовано из татарского, а восходит к персидскому “*harbuza*” — буквально означающему «ослиный огурец».

«Базар»: слово заимствовано из персидского, где означает «крытый рынок».

«Балаган»: слово заимствовано из тюркских языков, где балаган означает «деревянная коробка». Тюркское слово восходит к персидскому «балахана» - высокий дом.

Слово «бахча»: заимствовано из турецкого, где означает «огород в поле». Восходит к персидскому «багча» - «небольшой садик».

«Диван»: согласно этимологическому словарю Н.М. Шанского «диван» в русский язык попал из французского, а там появился благодаря иранскому *divan*, что значит «возвышение, покрытое коврами и подушками».

«Чемодан»: в Россию это слово попало не позднее XVII века из татарского языка, а туда, в свою очередь, из персидского. На персидском слово пишется как *jāmādān*, что значит «место для хранения одежды» (от соединения *jāmā* – «одежда» и *dān* – «хранилище»).

«Булат»: слово в персидском звучит «фулад» - сталь.

«Кишмиш»: это слово тоже вошло в русский из персидского, что означает сорт винограда и в оригинале звучит «кешмеш». В русском языке это сорт мелкого винограда без косточек.

Слово «персик»: хотя оно происходит из греческого языка, но дословно означает «персидское яблоко».

«Сарафан»: слово, по мнению ученых, заимствовано через тюркский язык из персидского «сарапа» - женская одежда в виде платья без рукавов.

Слово «стакан» произошло от слова «дустган» («дустгани» - пить один бокал вина с другом, в знак дружбы, за здоровье). Сегодня же персы используют слово «эстекан», уже перенятое из русского.

«Изыян»: это слово восходит к персидскому «зиян» - вред, ущерб. Оно было заимствовано через тюркский язык.

Слово «тахта»: означает широкий диван без спинки, который часто покрывают ковром или материей. Слово заимствовано из общетюркских языков, куда оно попало из персидского языка, там оно обозначает «доска».

«Пижама»: слово пришло из языка хинди. Оно первоначально происходит от персидского слова «пежама» которое означает «одежда для ног». Изначально слово означало легкие, свободные штаны с затягивающим шнурком вокруг талии

«Нефть»: слово попало в русский язык из греческого “*nafta*” через турецкое посредство, но оно восходит к персидскому слову «нафт», что означает «влажный».

«Нарды»: все знают, что это название известной игры, и, по мнению многих этимологов, игра возникла в Персии, во времена царствования Хосрова Аноширвана (VI век), а игру назвали «Нав-Ардашир», в честь Ардашира, основателя династии Сасанидов.

Иранскими по происхождению являются некоторые специальные речные термины: «карка» - в значении «каменистая гряда», «каменистое дно»; «багор»; древнерусское «ровнь» — из авестийского «раван» - «ровное место, долина». Существуют иранские термины для элементов степного ландшафта. Некоторые лингвисты считают, что само слово «степь» - индоиранского происхождения. Иранское происхождение имеют названия некоторых предметов быта, одежды, напитков, жилищ, а также социальные термины: «топор» (персидское «*tabar*»); «гуня» (шерстяная куртка) – из иран. «*gauna*» («цвет, цвет шерсти»); штаны (авестийск. «*paiti-stana*»); «сапог» (авестийск «*safa*» - «копыто») [6].

Как видим, долгая история российско-иранских отношений отражается на всех уровнях и языковое пространство не исключение. К сожалению, за сотни лет лексика обоих языков сильно преобразовалась, хотя отголоски их родства можно обнаружить, вникнув глубже в изучение происхождения того или иного слова. В итоге, в двух языках действительно много общей лексики — на это повлияла и древняя общность языков, и точки соприкосновения истории России и Ирана.

Современные славянские и ираноязычные народы связаны друг с другом общим происхождением, что находит неоспоримые подтверждения в области языка и культуры. Тысячелетние взаимные связи взаимно обогащали наши цивилизации. Столь близкие этимологические связи существуют не только у русского и персидского языков, но и у других индоевропейских языков, и задача лингвистов – изучать их историю, что, на мой взгляд, является кропотливой, но очень интересной работой.

#### Литература

1. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд.-М.: «Большая Российская энциклопедия»; СПб: Норинт, 2002.

2. Славянская энциклопедия век: в2-х томах. Автор-составитель Владимир Вольфович Богуславский. ОЛМА Медиа Групп. М., 2004. Стр 782.
3. Крысин Л.П. Русское слово, свое и чужое: Исследования по русскому языку и социолингвистике. – М.: Языки славянской культуры, 2004. Стр.25
4. Мохаммади, Мохаммад Реза. Персидские следы в лексике русского языка / Мохаммад Реза Мохаммади, Халида Сиями. — Молодой ученый. — Казань, 2012. — № 8 (43). — С. 195-199.
5. Преображенский А., Этимологический словарь русского языка: в 3 т. – М.: Академия наук СССР, 1914-1949
6. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка: В 4 т. Т. 4 (Т– Ящур)\ Пер. с нем. и доп. О. Н. Трубачева . 2-е изд., стер.-М.: Прогресс, -1987.

UDK:491.3

## TETRALOGIYADA POETIK G'OYA VA PAFOS UYG'UNLIGI

Z. R. Yaxshiyeva  
TATU Qarshi filiali  
zebo\_tigeress@mail.com

**Annotasiya.** Mazkur maqolada Muhammad Ali qalamiga mansub “Ulug’ saltanat” tetralogiyasining uchinchi juzvi xususida so’z yuritiladi. Ya’ni poetik g’oyani yuzaga chiqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi pafos tushunchasiga oydinlik kiritiladi. Badiiy pafos – tasvir uslubining bir uzvi. Unda liro-romantik kayfiyat zuhur topadi. Yozuvchi ijodiy g’oya va niyati pafos bilan bevosita bog’liq holda kechadi. Aynan ushbu jihat tetralogiyaning mazmuniy ko’lamiga borib taqalishi nazariy jihatdan dalolatlanadi.

**Kalit so’zlar:** pafos, g’oya, motirovka, motiv, syujet, kompozisiya, uslub, poetika, xarakter, psixologizm, intensiv, badiiy to’qima.

**Сочитание пафоса и поэтической идеи в тетралогии**

**Аннотация.** В этой статье речь идет о третьей главе “Великое Королевство” тетралогии Мухаммеда Али. Проясняется концепция пафоса, которая создает и координирует поэтическую идею. Художественный пафос является частью художественного стиля. На нём отображает лиро-романтическое настроение. Творческие идеи и замыслы писателя неразрывно связаны с пафосом. Теоретически доказано, что этот аспект связан с осмысленной областью тетралогии.

**Ключевые слова:** пафос, идеи, матировка, мотивы, сюжеты, композиция, стиль, поэзия, характер, психология, интенсивность, художественная текстура.

**Combining paphos and the poetic idea in tetralogy**

**Abstract.** This article is about the third chapter, “The Great Kingdom” tetralogy of Muhammad Ali. That is, the concept of pathos, which creates and coordinates the poetic idea, being clarified. Artistic pathos is part of the artistic style. It displays the lyre-romantic mood. Creative ideas and ideas of the writer are inextricably linked with pathos. It is theoretically proved that this aspect is associated with the meaningful area of tetralogy.

**Keywords:** pathos, ideas, motivation, motives, plots, composition, style, poetry, character, psychology, intensity, artistic texture.

**Kirish:** Har bir badiiy g’oyaning yuzaga chiqishida muayyan darajada pafosning ham o’rni beqiyosdir. Negaki, pafos badiiy so’z qudratini, obrazlilikni, maqsadni, iste’dodni xuddi marjon kabi bir tizmada biriktira olish xususiyatiga ega. Pafossiz asar ham bo’lmaganidek, g’oyasiz pafos ham bo’lmaydi. U xoh tarixiy, xoh zamonaviy, xoh fantastik yo’sinda ifodalanmasin albatta, pafos o’z tiynatini namoyon qiladi. Muhammad Alining “Ulug’ saltanat” tetralogiyasining har bir kitobida tarixiy haqiqatni poetik nuqtai nazardan “qayta kashf etish” malakasi o’ziga xos mavqiyeni namoyish qilgan. Natijada, yozuvchi dastavval xarakterlarni saralaydi, hayotiy muammolarni jaholat va ezgulik o’rtasida kechayotgan mislsiz kurashlar negizida qayta idrok qilishning uddasidan chiqadi.

Asosiy qism: Badiiy pafosning sehri, jozibasi shundaki, muayyan ijodiy g’oyaning izchil va shakllanib borshiga, mantiqiy tartiblanishiga keng yo’l ochadi. U har bir xarakterni kashf qilishda muhim ahamiyatga ega. “Gegel estetikasida pafos juda muhim o’rin tutadi, u san’atning o’zagi, “san’at saltanatining” asosi sifatida talqin qilinadi. Gegelga ko’ra pafos inson mohiyatini tashkil etuvchi obyektiv mavjudlik, qalbn harakatlantiruvchi qudratli kuch bo’lib, ijodkor o’z asarida uni ifodalashni maqsad qiladi,

ya'ni muayyan pafosni ifodalash san'at asarining muddaosi, ijodning motividir. Shu asosda Gegel ijodga turtki beruvchi motivlar, pafos ko'rinishlari sifatida "oila, vatan, davlat, cherkov, shon-sharaf, do'stlik, g'urur, nomus, muhabbat" kabilarni ko'rsatadi"[1]. Haqiqatdan ham, tetralogiyadagi yetakchi motiv Sohibqiron shaxsi va uning saltanat ishlaridagi eng asosiy nuqtalarni tasvirlash bo'lsa. Uning o'g'illari, qizlari, ayollari, yaqinlari, sarkarda-yu, din peshvolari to'g'risidagi teran mushohadalari, "azmu shijoati"ni yanada jonli tasvirlashdan iboratligi sir emas.

Prof. I.Yoqubov qayd etganidek: "Adib axloqiy-estetik pozitsiyasi g'oyatda ravshan bo'lgani bois, u qahramon xatti-harakatini sinchkovlik bilan nazorat qilib boradi. Hodisalarga jiddiy poetik munosabat bildiradiki, bu ham badiiylikning muhim shartlaridan biridir. Aslida noir Sharqona gumanistik pafosni o'tkazishga intiladi. Yozuvchi ajdodlarimizning bizga o'rnak va ibrat bo'la oladigan yorqin va betakror obrazlarini yaratish, yaxshi insonlarga xos olijanoblik, kurash va jasoratning Sharqona manbalarini tahlil etishga intiladi"[2]. Binobarin, keltirilgan lavhadagi nazariy-ilmiy talqinlarni yanada to'ldiradigan bo'lsak, quyidagi mushohadani yuzaga chiqaradi: birinchidan, tarixiy haqiqat pafosga evrilganligi badiiy to'qimani bir qadar sun'iy lashtirgan, ikkinchidan, yozuvchi ijodiy g'oyasining negizida "Ulug' salatanat" homiysi Amir Temur xarakteri fonida ochib berish turadi, uchinchidan, badiiy niyatning butun asar qismlarini yaxlitlashtirishda tizimli "liro-romantik" kechinma (ezgulik va yovuzlik kurashi) barqarorlashgan, to'rtinchidan, adib badiiy xronologiyaga vaqt va makon kechmishlarini joylashni maqsad qilganligida ko'rinadi.

Tetralogiyaning har bir kitobidagi badiiy g'oya va uni yuzaga chiqaruvchi pafos yozuvchiga benihoya ilhom bag'ishlay olgan. Asarda tush, xat, monolog, munozara singari qoliplash motivlari borki, ularning har biri muayyan bir maqsadning nihoyalinishiga, yangi ijodiy niyatning tug'ilishiga zamin hozirlaydi. Munozara motivi haqida so'z yuritganda Amir Temur va uning xos soqchilari, maslahatgo'ylari, davlat ishlarida qo'l-ko'mak beruvchi din peshvolarining teran falsafiy qarashlari yozuvchi qalbidan shaloladek otilib chiqqan:

"Saltanat yo'li shunday to'g'ri bo'lmog'i kerak! Nechog'lik to'g'ri ekan-a? – kutilmaganda xayolidan kechdi sohibqironning. – Lekin to'g'ri yo'lda yurg'onlarning ko'ngillari ham to'g'rimikin?.. Bandasi bamisli sahrodagi yakka daraxt emish, qalbi o'sha daraxtdagi bir yaproq, bir lahzada chapga qayriladur, bir lahzada o'ngga... Saltanat, millat ishi deb kuyib-yonasan... Ammo yoningga kirib yonguvchilar kam... Sen o'ylag'andek o'ylamaydurlar. Saltanat mulkiga ko'z olayturg'uvchilar bor... Yolg'iz o'zi uchun dunyoga kelg'on, nafsiga qarshi ermas, nafsini yoqlab qilich ko'torg'onlar... Rishvaxo'rlar, talonchilar, o'g'rilar, xoinlar... Ikki qo'lini kessang tili bilan pora olg'aylar...

– Ha, Amir sohibqiron, maqsudingiz ulug'dir, bilamen, barchasini bilamen... - bilamen... – bosh tebratdi Muhammad Churog'a dodxoh"[3].

Mazkur lavhada yozuvchi ijodiy niyati (pafos) asar voqyeligining umumiy syujetini tashkil qilishni tipiklashtiradi. Asarda munozara (motiv) sifatida yozuvchi tomonidan o'ylab topilgan usul tarixiy haqiqatni yanada ishonarli poetik talqin qilishga keng imkon tug'diradi. Bir qarashda ham yozuvchi maqsad-muddaosi, ham xarakterlararo munosabat tig'izligi, ham bosh qahramon xatti-harakati, ham jamiki ishtirok etuvchilarni bir maxraj (g'oya)da jipslashuviga, yordamchi, epizodik obrazlarning individual (ovozi)ga g'oyat chambarchas bog'liqlikni yuzaga keltiradi. Vaholanki, adib syujet qismlarida shartli ravishda (sun'iy to'qima)ni reallashtirishga badiiy chizgilar berar ekan, eng munosib usuldan istifoda etishni ma'qul ko'radi. Yuqoridagi kabi Amir Temurning harb yurishlari-yu, saltanat ichki yumushlaridagi teran mushohadalari zamirida adolatli podshohning olijanob fazilatlarini bilan birgalikda odamlarga bo'lgan munosabati, hurmati, har bir ishni adllik negizida tashkil qilishga odatlanishini ko'rsatishga qaratilganligi e'tiborga molikdir.

**Tasvirda me'yor masalasi:** tarixiy asar yozishda ba'zi o'rinlarda voqyelik qisman buzilgan bo'lsa-da, yozuvchi Amir Temur shaxsi va uning qudratli saltanatidagi dushmanlar tomonidan fitnalar uyushtirishi manzaralariga falsafiy-estetik jihatdan yondoshgan. Ayrim o'rinlarda voqyelik atayin to'xtatilib, bob boshiga "qaytib tasvirlash" usuliga murojaat qilinadi. Lekin bir qarashda tasvir intensiv tarzda yumshatiladi. Ong osti tuyg'ulari, ruhiy bosim to'lg'onishlarida har qanday sarkarda ham ilojsiz qolishi xilma-xil epizodik lavhalarda turli darajadagi qahramonlar fe'lida, ahvolutida yorqin tasavvur qilish imkonini yaratadi. Demak, pafos va g'oya tig'izligi ruhiy kechinma zalvorini oshirishga xizmat qiladi[4].

**Tasvirda motirovka masalasi:** tarixiy haqiqat (fakt)larni motirovka qilish san'ati yozuvchi ijodiy niyati bilan chambarchas bog'liqdir. Realistik tendensiyalar rivojlanib borgani sayin motirovkaning vazifaviy ahamiyati ham ortib boradi. Unda muallif-qahramon-xarakter-xotima birligi syujet liniyalarini jipslashtiradi. Muhammad Ali tarixiy jarayonni qalbu shuurida qayta ishlab, xarakterning xatti-harakatini faqatigan kuzatuvchi emas, uni dalillash, tahlillash negizida ish tutadi. Masalan, har doim ikkilanish orasida qolgan Muhammad Sulton xarakteri yozuvchiga – motirovka negizida ochib berish uchun qulay imkon

tug'diradi. Xonzoda xonimning qalbidagi armonlari-yu, bo'lg'usi kelini Sog'inch bika iztiroblari (sog'inch, muhabbat) lirik ifoda yanglig' poetik tarixni barqarorlashtiradi.

**Tasvirda muallif chekinishlari masalasi:** yozuvchi Amir Temur shaxsini, irodasini yuksak mahorat bilan tasvirlash fonida muallif chekinishiga ko'plab murojaat qiladi. Muallif asosiy voqyelikni taxmin bilan haqiqat o'rtasida isbotlashga harakat qiladi. Muallif chekinish qilishida tarixiy faktlarning nechog'li haqiqatga mosligini dalolatlash bilan bir qatorda, muayyan o'z shaxsiy-intim kechinmalarini o'quvchiga yetkazish (asar pafosining umumiy ruhi)ga diqqat qaratganligidadir. Masalan "Har yerning o'z bo'risi bor, degan hikmatni sal o'zgartirib, har zamonning o'z zo'rlari bor, deyish mumkin. Zamona zo'rlarining lat yegan izzat-nafs va iddaolari tufayli urushlar yuz beradi. Bu yerda kuch-qudrat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bir jihati, bari tarixning hych kimga bo'ysunmas, o'ziga xos qonuniyatlariga bog'liq"[5].

Ko'rinadiki, tasvirni muvofiqlashtiruvchi syujetdan tashqari unsurlar ham muhim rol o'ynaydi. Yuqoridagi tasvirda muallif chekinishi Mironshoh Mirzo va uning xatti-harakatlari, toju taxt vorisi bo'lish istagi, ota va farzand munosabatlari qabariq tasvirni muvofiklashtirgan. Yozuvchi qalbining hasratlarini zamona zayli bilan bog'laydi. U joriy kun taqdiriga mutanosib tarzda ifodani suratlaydi. Modomiki, gap hikoya qilish vaqti bilan syujet vaqti haqida borayotgan ekan, davr ziddiyatida aks ettirilgan konsepsiya tugal yaxlitlikni namoyish etadi.

Xulosa: Umuman, Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasida – g'oya va badiiy pafos o'zaro yaxlitligi yozuvchi ijodiy niyatining barkamolligini to'laqonli dalolatlaydi. Tasvirdagi me'yor bilan muvofiq motirovka adabiy pafos darajasini poetik jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarixiy jarayonning uzil-kechil voqyeligi pafosni yozuvchi iste'dodining bir uzvi sifatida asoslaydi. Natijada, yozuvchi badiiy vaqt me'yorlarini qiyoslash, qata hikoyalash, qoliplash usullarida vazifadoshlikni birlashtiradi. Dalil va isbot talab qiladigan tasvirlash usulida voqyelik sinkretik boshqaruvini qo'lga oladi. Amir Temur kabi chuqur mulohazaga ega shaxs ruhiyatini aniq-ravshan yoritish uchun ijodkor ana shunday tasvir usullariga murojaat qilishi ayni haqiqatdir. Bir tomondan – voqyelik tabiiy, ishonarli, ta'sirli va barcha uchun tushunarli bo'lishga keng yo'l ochganligi shubhasizdir.

#### Adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T., Akademnashr. 2013. –B. 220.
2. Yoqubov I. Muhammad Ali ijodida tarixiy jarayon konsepsiyasi va liro-romantik talqin. –T., Fan. 2007. –B.70.
3. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. –T., Sharq. 2010. –B. 228.
4. Muhammad Ali. Jahongir Mirzo. Tetralogiya. –T., Navr'yz. 2019 yil, -B.87-88
5. Фром Э. Гуманистический психоанализ. Спб.: Питер, 2002. С.32.

#### УДК. 82

### РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СТРУКТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЕЖДОМЕТНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Г. М Атаева, О. С. Умарова

*Самаркандский государственный университет*

**Аннотация.** Данная статья посвящена структурным особенностям междометных фразеологических единиц и моделям формирования новых междометных фразеологических единиц.

**Ключевые слова:** структура, модель, фразеогнездо, существительное, прилагательное, формирование, эмоция, чувства.

#### Undov frazeologik birikmalarning ingliz tilida aks ettirilishi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola so'z birikmalarning strukturasi bag'ishlanib, unda undov so'z birikmalarning yangi modellari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** struktura, model, ot, sifat, tuzilish, his-hayajon.

#### The representation of structural peculiarities of interjectional – phraseological units in the English language

**Abstract.** This article is about the representation of structural peculiarities of interjectional phraseological units.

**Keywords:** structure, modal, phraseological nest, noun, adjective, formation, emotion, feelings.



Одной из ведущих тенденций современного языкознания является детальная разработка «проблем человеческого фактора в речевой деятельности» (Степанов 1985, с.11) Главное предназначение языка – это осуществление коммуникативной функции, а именно накопление и передача знаний, сведений, информации и т.д. Роль коммуникативной функции в процессе создания языка огромна. Можно без преувеличения сказать, что система материальных средств, начиная от фонемы и её конкретных реальных манифестаций и кончая сложными синтаксическими конструкциями, возникла и оформилась в процессе употребления языка как средства общения. Многие специфические особенности языка, как – то: наличие специальных дейктических и экспрессивных средств, средства локальной ориентации, различных средств связи между предложениями можно объяснить только исходя из нужд функции общения. То же справедливо и к образованию в языке междометных фразеологических единиц (МФЕ).

Одним из экспрессивных средств языка является междометная фразеология. Изучение междометной фразеологии с позиции семантики, структуры, стиля, коммуникативной реализации позволяет с большей точностью и достоверностью раскрыть её лингвистическую природу.

В данной статье, изучив фразеографический статус МФЕ, мы попытаемся показать активную моделирующую способность слов – компонентов МФЕ.

Основная особенность междометных фразеологических единиц заключается в её специализации на передаче различных оттенков волеизъявлений, эмоций, чувств, что обуславливает стабилизацию релевантных семантических, структурно-композиционных и функциональных признаков междометных фразеологических единиц. Только при их последовательном учёте и может быть разработана подробная классификация МФЕ. Один из интересных подходов к решению этой задачи выдвинул и обосновал А.В.Кунин. Он предлагает выделять 1) МФЕ только нарицательными компонентами; *Hear, hear!* Правильно! Правильно! возглас, выражающий согласие с выступающим (А.В.Кунин 2004. с 336) 2) МФЕ, фразеформа которых состоит только из имен собственных: *Jesus Christ!* Боже!, *Чёрт возьми!* (А.В.Кунин 2004. с 435)

За основу другой классификации принимается синтактико-композиционное выражение структуры МФЕ. Например, это МФЕ, фразеформа которых имеет предикативную структуру: *Draw it mild!* Не преувеличивай!, *Queen Ann's dead!* Открыл Америку! – ответ сообщившему устарелую новость (Кунин 2004 с 234, с 323)

МФЕ могут содержать в фразеформах такие стержневые образно-несущие компоненты, которые выступают в роли общего символизирующего характеристизатора: положительного или отрицательного. Например: *Good show!* Замечательно! В этой функции устойчиво выступают адъективный компонент.

Из имен существительных, активно реализуемых в МФЕ-благожеланиях, следует в первую очередь отметить высокую степень фразеобразования слов «God», «бог» и их синонимов: *God forbid!* Боже упаси!; *By God!* Ей богу! *God's sake!* Ради бога! !; *God forbid!* Избави бог! *God bless me!* Господи помилуй!; *Thank God!* Слова богу!; *God bless you!* Будьте здоровы! (чихнувшему); *Honest to God!* Честное слово!; *In God's name!* Во имя всего святого!; *Ye God's!* Боже правый! (А.В.Кунин. с. 236)

Активную моделирующую способность обнаруживают в начальной позиции междометных фразеформ и некоторые глаголы высокой степени десемантизации. Приведём в качестве образца фразеогнездо группы фразеологических единиц (ФЕ) с глаголом “get” доставать, добывать: *Get along!* Проходите!; *Get along with you!* Проваливай!; *Get away!* Прочь!, *Get out!* Иди ты!, *Get off it!* Хватит!, *Get out of my sight!* Кончай!; *Убирайся!* С глаз долой! (А.В.Кунин. с. 275)

Следует сказать, что в английской междометной фразеологии фразеогнездообразование МФЕ строится следующим образом: например фразеогнездо МФЕ с начальным наречным моделирующим компонентом “how” как?, каким образом?: *How did do it?* Как вы всё это сделали?; *Как это получается?*, *Почему так выходит?* *How so?* Как так?; *How funny!* Как смешно!, *Как странно!*; *How now?* Что это такое?, *Что это значит!*; *How exciting!* Как интересно! и др. Или другое гнездо МФЕ с вопросительным местоимением “what” какой?, что? В начальной позиции фразеформ: *What next?* Ну а дальше что?; *What of it?* Что из того?, *Ну, так что ж?*; *What are we the better for it all?* Что нам от того?; *What matter?* Это несущественно!; *What gives!* Что я вижу!, *Да ну!*; *What fun!* Как весело!; *What a game!* Какая потеха!, *Вот потеха!*; *What do you know!* *Никогда бы не подумал!*, *Удивительно!*, *Удивительное дело!*. (А.В.Кунин. с. 537)

Фразеобразовательной активностью в английской междометной фразеологии отличается также указательное местоимение “that” тот, та, то в функции подлежащего: *That's your little game!* Так вот чего вы хотите!, *Так вот в чём делом!*; *That's the giddy limit!* Это уж слишком!; *That's a good*

one [un]! Какая ложь!, Какой вздор!, Надо же такое придумать!; That's great! Вот здорово!; That's great story! До чего же интересно!; That's the idea! Вот именно!, Вот это я приветствую!, Это то, что нужно!. (А.В.Кунин. с. 437)

Необходимо отметить, что обычно местоимение “that” используется при формировании ответных реплик на чужие слова, ср.: That's right!, Whats that you are saying?

Активная моделиобразующая функция показательна и для ряда предлогов английского языка. Особенно характерным в этом отношении является предлог “by” “у”, около, рядом, возле, при”. Ср. фразеогнездо: By God!, By Jingo!, By golly! Ей – богу!, Право!; By ginger! Чёрт возьми!, Вот те на!; Вот так так!; By gosh! Чёрт возьми!, Вот те на!; By gravy! Чёрт возьми! Вот те на!, Вот так так!; By Jesus! Чёрт побери! и др.

Самостоятельной моделью, по которой формируются многие МФЕ, является комбинация «имя прилагательное + имя существительное», ср.: Great God!, Good God! Боже мой! и др. МФЕ, построенные на основе адъективно-субстантивной синтагмы, весьма продуктивны в английском языке. Например: Great snakes! Вот те на!, Вот так так!, Не может быть!.

Let... + инфинитив глагола!”, ср.: Let it be! Оставь его в покое!, Пусть всё остаётся как есть!. В подобный фразеобразовательный процесс активно вовлекаются и словные междометия: “Gee!” Вот так так!, Вот это да!, Вот здорово!, Ого! – Gee whizz!, Gee whillikins! Вот так так!, Вот здорово!, Вот так штука! и т.д.

Из регулярных моделей английских МФЕ можно выделить следующие: It's...: It's a go! Идет!, По рукам!, Решено!; Договорились!; It's no go! Не подёт!, Невозможно!; It's a great shame! Какая жалость!; It's a natural! Превосходно!, Как раз то, что нужно!.

Here's...: Here's a pretty go! Веселенькая история!; Here's my hand on it!

Вот вам моя рука!, Даю вам слово!; “Don't...”: Don't go doing that! Не смей делать этого!; Don't go on like that! Перестаньте вести себя так!; Don't make it too hot! Не переувеличивай!, Не загибай!; Don't interfere! а) Не мешайте! б) Не вмешивайтесь!; Don't tell me! Что вы говорите!, Не может быть! “go...”: Go easy! /slow!/ Осторожнее! Потише!; Go while the going's good! Убирайся подобра-поздорову! Go on! Не болтай глупостей!; Go in and win! Покажи им!, Задай им!; Go along with you! Проваливайте!, Убирайтесь!; Go to grass! Убирайся к черту!; Go to Jericho! Пошел ты!; “Be...”: Be good! Ведите себя прилично!; “won't ...”: Won't I just give it him! Вот я ему задам! и др.

Из сказанного очевидно очевидна основополагающая роль позиционной закреплённости одного или нескольких компонентов МФЕ в начале структуры их фразеоформы, ср. ещё: a pretty business! Хорошенькое дельце!; A pretty piece of business, isn't it! Хорошая история – нечего сказать!, Вот так история! Стабильность модели МФЕ и её предрасположенность к построению серии сходных образований усиливает тенденцию к клишированности компонентного состава, что способствует эллиптическому сжатию исходных фразеоформ: By living jingo! – By jingo! Ей богу!, Боже мой!, Черт возьми!

В пределах отдельных семантических групп междометная фразеология пополняется за счет синонимических МФЕ: Nob a nob!= Nob and nob!= Nob or nob! За ваше здоровье! Точно так же и многие МФЕ – реплики нередко имеют при себе ещё синонимические параллели: Be yourself!= Be your age! Не глупи!, Не валяй дурака!.

#### Литература

1. А.В.Кунин. Английская фразеология. –М.: Высшая школа. 2000. с.344
2. А.В.Кунин. Фразеология современного английского языка. – М.: Международные отношения. 2006. с. 288
3. И.А.Степанов. Лексическое значение слова и речи. Воронеж: ВТУ, 1985. – 170 с.
4. А.В.Кунин. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 4-е, переработанное и дополненное. – М.: Русский язык. 2004. с. 942

UDK:37.018.4:004

**«INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANIDAN ELEKTRON DARSLIK LARNI YARATISH BOSQICHLARI****U.K.Taylakov***T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti  
taylakov1687@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada maktab ta'limida Informatika va axborot texnologiyalari fanidan elektron darsliklarni yaratish bosqichlari, elektron darslikni foydalanishga tayyorlash jarayonida bajariladigan ishlarining mazmuni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Elektron darslik, multimedia, modul, vizuallashtirish, texnologiya, virtual standlar, metama'lumotlar.

**Этапы создания электронных учебников по дисциплине «информатика и информационные технологии»**

**Аннотация.** В статье дается представление об этапах создания электронных учебников по предмету Информатика и информационные технологии в школьном образовании, содержании работы, проводимой в процессе подготовки электронных учебников к использованию.

**Ключевые слова:** Электронные учебники, мультимедиа, модули, визуализация, технологии, виртуальные стенды, метаданные.

**Stages of creation of electronic textbooks on the subject "Informatics and information technologies"**

**Abstract.** The article discusses the stages of creating electronic textbooks on the subject of Informatics and Information Technology in school education, the content of the work carried out in the process of preparing electronic textbooks for use.

**Keywords:** Electronic textbook, multimedia, module, visualization, technology, virtual stands, metadata.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" elektron darsligini yaratishdan oldin quyidagilarni aniqlab olamiz:

1. "Informatika va axborot texnologiyalari" kursiga oid manbalarni tanlab olish, bunda asosiy amaldagi 10-sinf "informatika va axborot texnologiyalari" darsligi va o'qituvchilar metodiq qo'llanmasi mualliflari va nashriyot bilan shartnoma tuzish;
2. Manbalardan foydalanish va qayta ishlash huquqi to'g'risida shartnoma tuzish;
3. Mundarija va tushunchalar ro'yxatini ishlab chiqish;
4. Modullardagi matnlarni elektron darslikka mos qayta ishlash;
5. Elektron darslikda ishlash tartiblari haqida yordam moduli;
6. Elektron shaklda giperbog'lanishlarni amalga oshirish;
7. Kompyuterli qo'llab-quvvatlanishini ishlab chiqish;
8. Materiallarni multimediyali ob'ektlarga keltirish uchun tanlab olish;
9. Tovush hamrohligida amalga oshirishini ishlab chiqish va tadbqiq etish;
10. Materialni vizuallashtirish uchun tayyorlash.

"Informatika va axborot texnologiyalari" elektron darsligini quyidagi yaratish bosqichlarida olib boramiz: boshlash jarayoni; maqsadlarni aniqlash; mundarija tuzish-rejalashtirish; elektron darslik yaratish; tahrir qilish; foydalanishga topshirish.

Elektron darsliklar yaratishda bu ketma-ketlikdan foydalanish shart emas. Shunday bo'lsada, ko'pchilik mualliflar bu tizimdan foydalanishadi. Ular xususida to'xtalib o'tamiz.

1. Elektron darslik yaratishdan oldin muallif, ya'ni elektron darslik yaratuvchisi quyidagi savollarga javob topishi zarur:

- qaysi fandan va kimlar uchun elektron darslik yozayapman;
- tasdiqlangan o'quv dasturi bilan tanishish va ajratilgan soat hajmini aniqlash;
- o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari va jamiyat darajasini inobatga olish;
- "Informatika va axborot texnologiyalari" darsligi va o'quv qo'llanmasi bilan tanishish;

- boshqa fanlar bo'yicha mavjud elektron darslik bilan tanishish, talab va mezonlarini aniqlash.
- Elektron darslikdan o'quvchi foydalanilgandan so'ng qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, ya'ni o'quvchi kutayotgan natijalar – bilim, malaka va ko'nikmalarni aniqlanadi; Aniq tushuncha, atama, ta'rif, qoidalar bilan birgalikda g'oya va asosiy mavzuni yoritish uchun manbaga aniqlik kiritish;
  - Bo'limlar va mavzular mazmunini rejalashtirish. Elektron darslikning umumiy tarkibiy tuzilishini aniqlab, undan kelib chiqqan holda bo'lim va uning qismlari ro'yxatini tuzish.
  - Mavzularning ichki mazmunini aniqlashdagi dastlabki matn va elektron variant sxemasini tuzish uchun uning mazmuni va tarkibiy tuzilishi boshqa mutaxassislarga ko'rsatiladi hamda ular bildirgan fikr-mulohazalar o'rganiladi. Dastlab elektron darslikning variant yaratiladi, odatda bu variant ma'lum bir muddat ichida sinovdan o'tkaziladi, so'ngra elektron darslikning tayyor oxirgi ko'rinishi yaratiladi. U foydalanuvchiga qulay variantda disk(SD)da topshiriladi.
  - Yakuniy variant odatda ikki usulda mazmuniy va texnik tahrir qilinadi.

*Mazmunni tahrirlashda* mutaxassis – taqrizchi yoki mazkur sohaning chuqur biladigan mutaxassis tomonidan matn mazmuniga va elektron darslik tizimiga o'zgartirishlar kiritadi.

*Texnik tahrirlashda* elektron darslikni texnik tomondan takomillashtirish, chiroyli shakl – interfeys berish, ya'ni harflar shakli, o'lchami, mazmun ketma – ketligi, tasvirlarga izoh berish, diagramma va jadvallar tushunarligi, multimediya ovoz bilan uyg'unlik va boshqa zaruriy tomonlari tahrir qilinadi.

Elektron darslik yaratuvchilar imkon darajasida texnik tahrirga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishga harakat qilishlari lozim, binobarin texnik tahrir qilish jarayoni keyin kechadi.

- Foydalanishga topshirish bosqichida elektron darslik o'quvchi qo'lga o'tadi.

Elektron darsliklarni yaratish jarayoni quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi.

Dastlab, mavjud elektron nashrlarni manbalar sifatida tanlab olinadi, agar ular Davlat ta'lim standartlari bo'yicha tuzilgan dasturlarga mos kelsa hamda gipermatnlar yaratish uchun qulay bo'lsa, ko'p sondagi amaliy mashq va topshiriqlardan tashkil topgan bo'lsa, qulay bir tizimga keltirilgan bo'lsa ular ajratiladi. So'ngra to'plangan manbalardan narx va sifat nisbati optimal bo'lganlari tanlab olinadi.

Keyingi jarayonda elektron darslikning mundarijasi ishlab chiqiladi, ya'ni: materialni hajmi bo'yicha kichik bo'lgan mavzulardan tashkil topgan bo'limlarga ajratib chiqiladi hamda mazmuni bo'yicha mujassamlashgan hamda fanni o'zlashtirish uchun zarur va yetarli bo'lgan tushunchalarning ro'yxati tuzib chiqiladi. Manbalarning matni tuzilgan mundarijaga, bo'lim tuzilmasiga mos ravishda qayta ishlashdan o'tkaziladi; ro'yxatga kiritilmagan matnlar olib tashlanadi va manbalardan topilmagan ma'lumotlar yoziladi, bo'limlar o'rtasidagi aloqalar va boshqa gipermatnli bog'lanishlar aniqlanadi. Demak, gipermatnning loyihasi kompyuterli amalga oshirilishi uchun tayyorlanadi. [1].

Navbatdagi jarayonda gipermatnlar elektron shaklda amalga oshiriladi, pirovard natijada o'quv maqsadlariga erishish uchun foydalanishga mo'ljallangan oddiy elektron nashr yuzaga keladi. Bundan oddiy elektron nashrlarni "elektron darslik" deb ham atash mumkin emas, chunonchi u amalda hech qachon elektron darslik talablariga javob bermaydi.

Keyingi jarayonda kompyuterli qo'llab quvvatlanishi ishlab chiqiladi ya'ni elektron darslikning intellektual yadrosi loyihalanaadi va amalga oshiriladi; foydalanuvchi uchun elektron darslik intellektual yadrosini qo'llash bo'yicha ko'rsatma ishlab chiqiladi. Kompyuterdan javob qanday shaklda olinishi kerakligi aniqlanadi;

Ayrim tushunchalar va fikrlarni tushuntirish yo'llari o'zgartiriladi va multimediyali ob'ektlar bilan almashtirish uchun matnlar tanlab olinadi.

Natijada o'quvchilar uchun kutilgan zaruriy vositaga aylantiruvchi xossalarga ega bo'lgan, auditoriya mashg'ulotlari uchun foydali bo'lgan va o'qituvchilar uchun qulay foydalanishga tayyor bo'lgan elektron darslik yaratiladi. Demak elektron darslik multimediya vositalari yordamida yanada takomillashtirish, hususan ovoz berish va vizuallashtirish uchun tayyor bo'ladi.

Alohida modullardagi matnlarni ekranda ovoz bilan uyg'unlikda berish orqali o'quvchilarning o'rganilayotgan materiallarni yengillashtiradi, ya'ni ovoz jo'rligida ishlab chiqilgan matnlar diktofonga yozib olinadi va kompyuterda amalga oshiriladi. [2].

Elektron darslikni yanada ko'rgazmali bo'lishiga erishish uchun, ekranni matnli ma'lumotlardan maksimal tozalash va o'rganilayotgan materiallarni tushunishini yengillashtirish uchun vizuallashtirish ssenariylari ishlab chiqiladi hamda matnlarni vizuallashtirish, ya'ni yaratilgan ssenariyalarni rasmlar, grafiklar va animatsiyalar bilan kompyuterli gavdalantirish ishlari bajariladi.

Ushbu jarayonda elektron darslik yaratish nihoyasiga yetadi va uni foydalanishga tayyorlash boshlanadi. Elektron darslikni foydalanishga tayyorlashda uning tarkibiy va multimediyali tashkil etuvchi hadlariga ba'zan ayrim o'zgartirish yoki tuzatishlar kiritish mumkin.

Elektron darslikni foydalanishga tayyorlash jarayonida bajariladigan ishlarning mazmuni quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Elektron darslikni sinovdan o'tkazish.
2. Elektron darslikdan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma yozish.
3. Uslubiy ta'minotini ishlab chiqish.
4. Respublika davlat patent idorasiga elektron darslikni rasmiy qayd ettirish uchun kerakli

hujjatlar mazmunini tayyorlash.

5. Elektron darslikni Respublika davlat patent idorasidan rasmiy ro'yxatdan o'tkazish.
6. Foydalanishga topshirish.

Umumta'lim fanlari bo'yicha elektron darslikni yaratish texnologiyalarini yetarlicha mehnat hajmiga ega bo'lib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Elektron darslikni yaratish maqsad va vazifalarini aniqlash.
2. Elektron darslikning tuzilmasini ishlab chiqish.
3. Darslikning modullar va mavzular bo'yicha mazmunini ishlab chiqish.
4. Elektron darslikning alohida tuzilma sahnalarini tayyorlash.
5. Dasturlashtirish.
6. Sinovdan o'tkazish.
7. Elektron darslik mazmunini sinov natijalari bo'yicha tahlil etish va takomillashtirish.
8. Foydalanish uchun uslubiy qo'llanma tayyorlash.

O'quv maqsadlariga bog'liq ravishda umumta'lim fanlari yoki maxsus fanga mo'ljallangan elektron darslikni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

- umumta'lim fanlari yoki maxsus fanga mo'ljallangan elektron darslik;
- kompyuter o'quv xonasida alohida fanlarni o'qitish uchun mo'ljallangan elektron darslik;
- biror fanning alohida modullarini o'rganish uchun mo'ljallangan elektron darslik;
- o'quv materiali bilan hamohang tarzda elektron trenajerlar, virtual stendlar, multimediyalar berilgan aniq bir fanga mo'ljallangan elektron darslik;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan elektron avtomatlashtirilgan tizimlar.

O'quv materiallari alohida ajratilgan modullarda beriladi. Umumta'lim fanlaridan elektron darslik tarkibiy tuzilishini modulli tizim asosida tashkil etish maqsadga erishishni osonlashtiradi. Elektron darslikning modulli tuzilmasi an'anaviy o'qitish tizimida qo'llaniladigan modulli texnologiyaga, darslik va o'quv qo'llanmalar modulli tuzilishiga asoslanadi. Modullar avtonom ko'rinishdagi o'quv materiali bo'lib, u mazmuniy va metama'lumotlar qismlaridan tashkil etiladi. Modulli darslikni boshqaruv tizimini hosil qilish uchun modullar orasida o'zaro bog'lanishlar bo'lishi mumkin. [3].

Elektron darslikni yaratishda birinchi navbatda uning tarkibiy tuzilmasini, o'quv materialini izlash tartibini, modullar tarkibini ishlab chiqish, yaratiladigan darslikning asosiy mazmuniy bazasini yaratish lozim bo'ladi.

|  | Nomlanishi                                | Mazmuni   |
|--|---|---|
|  | <i>Fanni o'qitish metodikasi</i>          | O'qituvchi uchun fanni o'qitishda kerakli shart sharoitlarni tashkil etish, o'quv maqsadlarini belgilash, o'qitish tamoyillari, har bir bo'limni o'qitish vaqti, kerakli kompyutor vositalarini ta'minlash va o'quv jarayonidagi o'qituvchining ishtiroki va o'quvchilarning fanni o'zlashtirishlarini doimiy taxlil qilib borish, o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar beriladi |
|  | <i>Nazorat savollari va testlar</i>       | Har bir bo'lim bo'yicha nazorat savollariga va yozma topshiriqlarga bo'lish, ularga o'quvchi mustaqil ravishda javob yozib, uni qog'ozga printerdan chiqarilgan ko'rinishda o'qituvchiga taqdim qilishi imkoniyati mavjud bo'lishi lozim. Test savollariga javob berib o'quvchi har bo'lim bo'yicha o'zining bilimini tekshirib ko'radi   |
|  | <i>Amaliy mashg'ulotlar</i>               | Har bir bo'lim uchun alohida topshiriqlar va amaliy mashg'ulotlar va ularni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar beriladi   |
|  | <i>Virtual stendlar va video lavhalar</i> | Bunda mexanizmlarning alohida ko'rinishlari, ularning harakatlari, animatsiyasi, mashinalarda bajariladigan texnologik jarayonlar bajarilishi   |

|  |                      |  |
|--|----------------------|--|
|  |                      | videolavhalari beriladi  |
|  | <i>Izohli lug‘at</i> | Soha bo‘yicha texnik terminlar, atamalar, nomlanishlar va soha standartlari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlar va tushunchalar beriladi  |
|  | <i>Ma‘lumotnoma</i>  | Elektron darslikdan foydalanuvchi uchun ko‘rsatmalar, foydali dasturlar va ma‘lumotlar beriladi  |
|  | <i>O‘quv dasturi</i> | Davlat ta‘lim standarti asosida tuzilgan va ushbu fanning tarkibiy mazmunini to‘liq qamrab olgan o‘quv dasturi beriladi. Dasturda fanni o‘rganish maqsadi, boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, tarkibi va hajmi o‘quvchining fanni o‘zlashtirish vaqtining davomiyligi, bo‘limlar va mavzular nomi, fanni o‘zlashtirgandan hosil qilinadigan bilim, malaka va ko‘nikmalar, hamda adabiyotlar ro‘yxati beriladi |

Elektron darslik foydalanuvchi uchun qulay muddatda butun mavzuni interfaol tartibotni egallash, o‘zlashtirish va o‘z bilimini mustaqil tekshirish imkonini berish lozim.

Elektron darslik ko‘rsatilgan mavzu bo‘yicha fanning o‘quv dasturiga tayanadi, an’anaviy bosma darsliklarni qo‘llab quvvatlaydi, o‘quv materialini o‘rganishning samarali usulini joriy qiladi.

Elektron darslikning mazmuni deganda, unda beriladigan bilimlar, ko‘nikmalar, mahoratlar tizimi nazarda tutiladi.

Elektron darslikning mazmunini umumta‘lim maktablarida bir necha yildan beri ta‘lim berib kelayotgan tajribali fan pedagogi, yangilik kirituvchi pedagoglar amaldagi darslik yoki qo‘llanma asosida ishlab chiqishi mumkin. Mavzularning mazmunini ishlab chiqishda o‘quv materialini tanlash va uzatish murakkabligi darajasi inobatga olinadi, bunda:

- o‘quv materialining asosiy yadrosini ajratish;
- o‘quv materialini tanlashda ikkinchi darajali vaziyatlarni ajratish;
- o‘quv materialining boshqa mavzular bilan aloqasini o‘rnatish;
- barcha mavzular bo‘yicha turli darajadagi ko‘p variantli amaliy topshiriqlarni tanlab olish;
- tushunchalar, jarayonlar, voqealar va hokazolarga mansub illyustratsiyalar, grafiklar, namoyishlar, animatsion va videolavhalarni tanlab olish.

#### Adabiyotlar

1. Тайлаков Н.И. Основы информатики и вычислительной техники. Учебник 9–класса. – Т.: Издательский дом «Ижод дунёси», 2002. –152 с. (ИД «Ижод дунёси». –2004, 2–изд.).
2. Матросов В.Л., Абдуразаков М.М. Современное педагогическое образование в условиях информатизации и компьютеризации общества. Махачкала: ДГПУ, 2000. –С. 50-60.
3. У.Тайлаков, On the introduction of information technology tools in the educational process of secondary schools // ACADEMICIA An International Multidisciplinary research Journal South Asian Academic Research Journals A Publication of CDL College of Education, Jagadhri (Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India) 2020 yil 20 may 42-46 betlap
4. LEBARON, JOHN F., and COLLIER, CATHERINE. 2001. Technology in Its Place: Successful Technology Infusion in Schools. San Francisco: Jossey-Bass.

UDK 372.854

#### UMUMIY O‘RTA TALIM MAKTABLARIDA ORGANIK KIMYONI O‘QITISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

X.N.Xasanova

*Navoiy viloyat Xalq talimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi  
x\_xurshida1989@inbox.uz*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda organik kimyoni o‘qitishda o‘quvchilar bilimida bo‘shliqlar aniqlanmoqda. Ana shu bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan didaktik materiallardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** darslik, o‘quv dasturi, bo‘shliq, faoliyat, metodika, didaktika, pedagogika, kichik guruh, dars, o‘qitish.

**Проблемы преподавания органической химии в общеобразовательных школах и пути их преодоления**

**Аннотация.** В настоящее время в процессе преподавания органической химии выявляются пробелы в знаниях студентов. Исходя из этого в данной статье приведены примеры дидактических материалов, которые могут быть использованы для устранения пробелов в обучении органической химии.

**Ключевые слова:** учебник, учебная программа, пробелы в знаниях, деятельность, методология, дидактика, педагогика, небольшая группа, урок, обучение, преподавание.

**Problems of teaching organic chemistry in secondary educational schools and ways to overcome**

**Abstract.** The article provides examples of didactic materials that can be used to bridge the gaps in student knowledge of organic chemistry. The article provides examples of didactic materials that can be used to eradicate gaps.

**Keywords:** textbook, syllabus, gap, activity, methodology, didactics, pedagogy, small group, lesson, teaching, education.

Taraqqiyotning eng yuqori darajaga ko'tarilishida mamlakatda yangi bilim va yangicha yondashuvlarning vujudga kelishiga ehtiyojning paydo bo'lishi juda muhimdir. Barcha sohalar kabi kimyo fanini o'qitishda mavjud bo'lgan muammolarning bartaraf etilishi ham ertangi istiqboldagi yutuqlarimizdan biridir. Kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish uchun sohada faoliyat yuritib kelayotgan umumiy o'rta talim maktablarining kimyo fani o'qituvchilarining bilimi va kasbiy mahoratini zamon talablariga moslashtirish va xalqaro miqyosda talimda ro'y berayotgan yangiliklar va islohotlardan xabardor bo'lib borishlari va ulardan eng samaralilarini o'z faoliyatlarida qo'llab borishlarini taminlash nihoyatda muhimdir.

Talim-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi malum. Chunki aynan yaxshi talim o'zining qadr-qimmatini anglagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalashga yordam beradi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan talim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda taraqqiyot yo'lida borayotgan mamlakatimizning talim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, uning uzluksizligini taminlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish hamda talim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo'lish, darslarda va darsga tayyorgarlik jarayonida ana shu resurslardan olinayotgan ma'lumotlardan foydalana olish juda muhimdir. Ayniqsa, kimyo fanini o'qitishda aksariyat kimyoviy jarayonlarni tajribalarda ko'rsatib borilishi, nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar yordamida mustahkamlab borilishi nihoyatda muhimdir.

Organik kimyo fanidan o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan tushunchalar nihoyatda ko'p bo'lib, ularni to'liq o'quvchiga yetkazib berish uchun o'qituvchidan katta kuch va mashaqqatli mehnat talab etiladi. O'quvchining diqqatini tortish, darsda uning zerikmasligini taminlash, mavzuga bo'lgan etiborini orttirish - samarali darsning asosiy maqsadi sanaladi. Kimyoning barcha tarmoqlari qatori organik kimyoni o'qitishda interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalar yordamida yangicha bilim berish usullarini qo'llagan holda, qiziqarli darsni tashkil etib, o'quvchilarga saboq berish bugungi kun kimyo fani o'qituvchilarining asosiy vazifasidir. Organik kimyo fanini o'qitishda fanning har bir bo'limining xossalari, ishlatilishi, olinishi va boshqa jihatlarini eslab qolishni yaxshilash uchun noanaviy usullar va vositalardan foydalanish dars sifatini oshirishda yangicha mezon sanaladi. Organik kimyoning murakkab mavzularini tushuntirishda, o'smirning psixo-fiziologik jihatlarini etiborga olgan holda darsni tashkil etish, topshiriqlar va didaktik texnologiyalarni o'quvchi yoshi va dunyoqarashini inobatga olgan holda tanlash zarurati, o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish va o'z ustida ishlashi uchun o'qituvchi tomonidan unda motivatsiyaning shakllantirilish holatlari ushbu maqolada yetarlicha chuqur tadqiq etilgan.

Fanni o'qitish samaradorligini oshirish uchun birinchi navbatda maqsadni aniq qo'yish va kutiladigan natijani aniq erishiladigan qilib belgilab olish ham muhimdir. Ananaviy o'qitish usullariga tayangan umumiy o'rta talim maktablari hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalariga to'la mos keladigan bitiruvchilarni tayyorlash imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun, o'quv jarayonini takomillashtirish, o'quvchilar qiziqishini oshirish, o'qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo'llarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda.

Kimyo fanini va uning bo'limlarini o'qitishda didaktik materiallarni ishlab chiqish va qo'llash haqida, kimyo talimi didaktik tizim sifatida, kimyo talimini boshqarish va tashkil qilish usullari, kimyo fanini o'qitishda algoritmlar va dasturlardan foydalanish, kimyo talimini tashkillashtirish shakllari, kimyo o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi, kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish bo'yicha chet el olimlaridan E.G.Polupanenko, V.A.Kuzurman, I.V.Zadorojniy, E.Ye.Minchenkov, M.S.Pak, D.K.Bondarenko, S.S.Kosmodemyanskaya, S.I.Gilmanshena kabilarning ishlari diqqatga sazovordir [1;3-4].

Organik kimyo asoslarini o'qitishning o'ziga xos jihatlari, organik kimyoni o'qitishning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanishni respublikamiz olimlaridan N.G'.Rahmatullayev, H.T.Omonov, Sh.M.Mirkomiloilar tomonidan, chet el olimlaridan esa O.S.Gabriyelyan, F.G.Mann, B.Ch.Saunders, M.S.Paklar tomonidan o'rganilgan [2;9-10].

Kimyo o'qitish metodikasiga oid dastlabki ilmiy g'oya va qarashlar XVIII-asrga kelib paydo bo'lgan. Rus olimi M.V.Lomonosov kimyoviy bilimlarni egallashda kimyoviy tajribalardan foydalanish muhim ekanligini ta'kidlaydi. M.V.Lomonosov kimyo didaktikasini metodologiya, nazariya va tajribalarning yig'indisidan iborat bo'lgan fan sifatida ilk bora tarifladi. U kimyo tarixida ilmiy kimyoning asoschisi va birinchi uni fan sifatida o'qitgan o'qituvchi sifatida qoladi. U 1748-yili ilk ilmiy-o'quv kimyo laboratoriyasini tashkil qiladi. Shu laboratoriyada u talabalar uchun fizik-kimyodan maruzalar o'qiydi, "Asl fizik-kimyoga kirish" nomli asarini yozadi. Ushbu kitobda va olimning ko'plab boshqa asarlarida kimyo didaktikasi haqidagi fikrlari va qarashlari keltirilgan. Lomonosovning fikricha o'qitish jarayonida yutuqqa erishishning birinchi omili – bu so'zni to'g'ri qo'llay olishdir. O'qitishda muvaffaqiyatga erishish uchun darsda turli ovoz intonatsiyalaridan foydalanishni, o'z so'zlariga mutanosib holda tana qismlarini harakatlantirish kerakligini aytib o'tadi. Uning fikricha asosiy ma'lumotni qisqa va lo'nda tushuntirish, so'ng albatta, daftarga yozdirish kerak.

Zamonaviy kimyo fani va uning bo'limlarini o'qitish jarayoniga quyidagi rossiyalik metodist - olimlar o'z hissalarini qo'shganlar: V.N.Verxovskiy, P.P.Lebedeva, L.M.Smorgonskiy, Ya.L.Goldfarb, Yu.B.Xodakov, S.G.Shapovalenko, L.A.Svetkova, I.N.Chertkova, V.S.Polosina, V.P.Garkunova, N.Ye.Kuznetsova, D.M.Kiryushkina, G.I.Shelinskiy, M.S.Pak, O.S.Gabriyelyan va boshqalar. Ushbu metodist olimlar o'quv-metodik materiallar komplekslari, o'quv darsliklari, mashq daftarlari va boshqalarni tuzishda ko'p mehnat qilganlar[3;19-20]. P.A.Orjekovskiyning fikricha: "Rivojlanish-faol va ongli faoliyat natijasida paydo bo'ladigan qabul qilish, fikrlash, tasavvur qilish, xotira kabi shaxsning bilish jarayonining ijobiy o'zgarishlaridir."

Kimyo fani uning bo'limlarini o'qitish metodikasining O'zbekistonda o'rganilish jarayonini tahlil qilar ekanmiz, 1990-2012-yillar davomida professor H.T.Omonov kimyo fanini o'qitish metodikasi sohasini rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Qolaversa, O'zbekistonlik olimlardan A.Mamajonov, J.Fayozov, T.Gulboyev, G'.Boymurodov, M.Umarov, A.Azimov, Sh.Quvvatov, J.Mamajonov, F.Alimova va L.Zaylobovlar kimyo fanini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlarni olib borganlar.

Talim jarayonlarini modernizatsiya qilish bugungi kunning talabi ekanligini hisobga olgan holda umumiy o'rta talim maktablarida *organik kimyoni* o'qitishda o'qituvchi ish tizimi metodikasini yaratildi. Dars jarayonini takomillashtirishga va o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, o'quvchilarning xalqaro talablarga moslashtirish prinsiplarini ishlab chiqildi. O'quvchida ijodkorlikni rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantira oladigan yangicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgan, 10-sinflarda organik kimyoni o'qitish samaradorligini oshirishga ijobiy tasir qiladigan, o'zida o'quv dasturining har bir mavzusini o'qitish bo'yicha didaktik ko'rsatmalarni mujassamlashtirgan metodik tizimi multimediali talim vositalarini pedagogik texnologiya va yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgan elektron axborot talim resursi ishlab chiqildi.

Organik kimyo kimyo fanining muhim bo'limlaridan biri bo'lib, uni o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, ushbu muammolarni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish uchun Navoiy viloyati Karmana tumanidagi 5-sonli maktabda 2016 – yildan buyon kimyo fani o'qituvchilarining darslari tahlil qilib borilmoqda va ishlab chiqilgan yangicha metodologik yondashuvlar amaliyotga tadbiiq etib kelinmoqda. Sinflar kesimida ananaviy va noanaviy usullarda darslar o'tilib, ushbu darslarning samaradorligini aniqlash uchun nazoratlar tashkil qilinmoqda. Bugungi kunga qadar ushbu tadqiqotda shu maktabning jami 187 nafar o'quvchilar ishtirok etishdi.

Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy, metodik adabiyotlar, elektron talim resurslarini qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik kuzatish, test, tashxislash va tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanil

Olib borilgan kuzatuvlar va tahlillar natijasida organik kimyoni o'qitishda quyidagi muammolar



aniqlandi:

1. O'quvchilar umumiy o'rta talim maktablarida kimyo fanini o'qishni 7-sinf dan boshlaydilar. 7-8-9-sinflarda o'quvchilar dastlab asosiy kimyoviy formulalar va tushunchalarni, kimyoning asosiy qonuniyatlarini, davriy jadval, kimyoviy qonuniyatlar, anorganik moddalarning xususiyatlarini o'rganadilar. Xullas, uch yil mobaynida o'quvchilar faqat anorganik kimyoni o'qiydilar. Biroq, 10-sinf ga o'tgach, ular o'zlari uchun butunlay yangi bo'lgan, ilgari kimyoni o'qish jarayonida sira duch kelmagan malumotlar bilan tanisha boshlaydilar. O'quvchilarning organik kimyoni o'rganishda yuzaga keladigan birinchi qiyinchiliklari, ularning birdaniga yangi, ilgari duch kelmagan bo'limni o'zlashtira boshlaganliklaridir.

2. Organik kimyoning maktab dasturida o'qitiladigan mavzulari juda ko'p, katta hajmdagi malumotlar majmuini o'z ichiga oladi. Har bir mavzuda moddalarning biror sinfi vakillari haqida malumotlar to'liq o'rganilib chiqiladi. Malumotlarning nihoyatda ko'pligi o'quvchilarning ularni eslab qolishini qiyinlashtiradi.

3. Har bir mavzu o'zaro uzviy ravishda bir-biri bilan bog'liq bo'lib, bitta mavzuni tushunmay qolgan o'quvchi keyingi mavzuni o'zlashtirishga qiynaladi. O'quvchilar bilimida yuzaga keladigan bo'shliqni, pazl bo'laklariga o'xshatish mumkin. Agar yaxlit rasmi pazlning birorta qismi tushib qoladigan bo'lsa, garchi pazlning boshqa qismlari to'liq yig'ilsa ham surat ko'rinishi ko'ngildagidek bo'lmaydi.

4. O'quvchilar o'zi tanlagan mutaxassislik uchun topshiradigan imtihonlari mavjud bo'lgan fanlar bo'yicha yaxshigina tayyorgarlik ko'radilar, o'sha fanlar o'qitiladigan darslarga diqqat qiladilar, lekin aynan boshqa fanlarga bee'tibor bo'ladilar. Umumiy o'rta talim maktablarida kimyo fanini o'qitishda yuzaga keladigan to'rtinchi muammo sifatida turli boshqa sohalardagi talim muassasalariga o'qishga kiradigan o'quvchilarning kimyo fanini o'zi uchun keraksiz deb hisoblab, fanga qiziqmay qo'yishlaridadir.

5. Organik kimyoni maktabda o'qitishda yuzaga keladigan beshinchi muammo sifatida men aynan yuqori sinf o'quvchilari uchun darsni qiziqarli tashkil etishga yordam beradigan metodlarni tanlaganda, yosh xususiyatlarini inobatga olish kerakligini aytishimiz mumkin. Bu esa o'qituvchidan ko'proq tayyorgarlikni va izlanuvchanlikni talab qilganligi sababli o'qituvchilar darsda metodlar va didaktik o'yinlardan kam foydalanadilar. Natijada o'quvchilar fanni qiyin va zerikarli fan sifatida biladilar va unga qiziqmay qo'yadilar.

6. Organik kimyoni o'qitishda yuzaga keladigan oltinchi muammo mavzularda nazariy malumotlarning ko'pligi o'quvchilarning mavzular yakunida masalalar yechishlariga imkon bermasligidadir.

7. Organik kimyoni o'qitishni qiyinlashtiradigan yana bitta muammo – bu shu sohadagi malumotlarni o'z ichiga olgan elektron darsliklar va multimediali ilovalarning yetarli emasligidadir.

8. O'qituvchilarning yoshi kattaroq o'quvchilarga dars o'tishda ularni tartibga chaqira olmasliklari, buning natijasida dars sifatining pasayishini kuzatishimiz mumkin.

9. Kuzatuvlar, tahlillar va amaliyot shuni ko'rsatdiki, navbatdagi muammo o'quvchilarga organik kimyoni o'qitishda hayot bilan bog'langan bilimlarning yetarlicha berilmasligidadir. O'qituvchi o'z o'quvchilariga o'rgatayotgan bilimlarining aynan qaysi sohada qo'llanishini yetarlicha tushuntira olmasligidadir.

10. Organik kimyoni o'qitishni yaxshilashda yuzaga keladigan yana bir muammo, maktablarda laboratoriya reaktivlari va jihozlarning yetarli emasligidadir.

Ushbu bir necha yillik tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- organik kimyoni o'qitish jarayonida kimyo fani o'qituvchilari kundalik joriy nazoratlarni ko'proq olib, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlash va bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan darslardan so'ng shug'ullanib, bu muammoni bartaraf etishlari lozim.

- o'quvchilarga bilim berar ekanmiz, ularning kelajak hayotda ana shu bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarini ham inobatga olishimiz kerak bo'ladi. Ayniqsa, kimyo fani o'quv dasturida o'quvchilar bilan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlariga, har bir mavzuga tegishli savol va topshiriqlarni yechishga katta ahamiyat berish lozim, tegishli bo'limlar tugatilgandan so'ng olingan nazariy bilimlar test sinovlarini bajarish orqali mustahkamlab borilishi kerak. Laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy mashg'ulotlarni faqat daftarda nazariy jihatdan emas, amaliyotda bajarib ko'rsatib berish kerak bo'ladi. Kimyo fanini o'qitar ekanmiz, organik kimyoning asosiy mohiyatini tashkil etadigan muhim tushunchalar, nozik organik sintez muammolari, respublikamizda organik kimyo sanoati erishgan yutuqlari, tabiat va jamiyatga kimyoviy ishlab chiqarishning ekologiyaga tasiri haqidagi bilimlar bilan tanishtirib borish o'qituvchilarga o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishga yordam beradi[4;80-92].

- chet el xorij tajribasini o'rganar ekanmiz, ularning davlat talim standartlarida ham asosan hayotda qo'llaniladigan bilimlar berilganini ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarga beradigan bilimlarimizni hayot

bilan bog'langan holda berishimiz o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirishga yordam beradi[5;15-22].

- hozirgi kunda o'quvchilarda o'quv predmetlari bo'yicha faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligi malum bo'lmoqda. Bugungi kunda fanning ko'chkisimon rivoji va shu qonuniyat bilan o'suvchi ilmiy-texnikaviy axborot, axborotni uzatish va qayta ishlash tezligini oshirishga olib keladi, uning asosida esa kompyuter texnikasi yotadi. Zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish umumiy o'rta talim maktablarida organik kimyoni o'qitish samaradorligini oshirishga yordam beradi[6].

Yuqoridagi xulosalarga asoslangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- O'zida organik kimyoni o'qitishni yaxshilash va o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladigan mantiqiy topshiriqlar ishlab chiqildi:

**“Kontekst matnli topshiriq”.** Ushbu topshiriqda moddaning reaksiyon xususiyatlari beriladi, o'quvchilar ushbu xususiyatlarga qarab moddani aniqlashlari kerak bo'ladi.

1. Anvarning oldiga uch nomalum modda kelib, ular o'zaro aka-uka ekanligini aytdilar. Oralaridagi asosiy farq 2 tadan vodorod ekanini takidladilar. Bunda akasiga nisbatan ukalarida vodorodlar soni 2 tadan kamayib boradi. Uchchalasining ham nomining o'zagi bir xil bo'lib, oxiridagi qo'shimcha bilan farq qiladi. Eng kattasiga birikish reaksiyasi xos emas, ikkita kichigiga esa birikish reaksiyasi xos. Harorat va Ni katalizatorligida ular bir-biriga aylanishi mumkin. Aka-uka uglevodorodlarni nomini aniqlang.

**Javob: etan, eten, etin.**

2. 10-“A” sinf o'quvchisi Sadridin darsdan so'ng laboratoriyaga kirib, laborantga reaktivlarni yig'ishtirishga yordam bermoqchi bo'ldi. Laborant fenol va etil spirti turgan idishlarning yorlig'ini eskirib yozuvi xiralashib qolganligini aytdi. Sadridin buni aniqlashni oson usuli borligini aytdi. Bitta reaktiv yordamida laborantga moddalarni aniqlab, yorlig'larni yangilashga yordam berdi. U qanday reagentdan foydalangan?

**Javob: U fenolning NaOH bilan tasirlashib, etanolni esa tasirlashmasligidan foydalanib moddani aniqlab bergan.**

3. Barcha organik moddalarda uglerod atomi tO'rt valentli boladi. Organik moddalarning formulalarini tuzishda bu narsa inobatga olinadi. Faqat benzolning formulasini tuzishda olimlar ancha vaqtgacha ikkilanib turadilar. Mashhur kimyogar olimlardan biri tushida dumini tishlab turgan ilonni koradi. Shundan so'ng benzolning eng aniq formulasini tuzishga muvofaq bo'ladi. Olim kim edi?

**Javob: Kekule**

4. Yorlig'siz idishda nomalum organik modda bor. Laborant uni spirtida, efirda va benzolda yaxshi erishini, teriga tushsa kuydirishini aniqladi. Moddaga  $\text{FeCl}_3$  tasir ettirilganda, binafsha rangli cho'kma hosil bo'ldi. Moddani aniqlang. Uning binafsha rangli cho'kmasining molekulyar massasini toping.

**Javob: Modda fenol. Uning cho'kmasi  $(\text{C}_6\text{H}_5\text{O})_3\text{Fe}$  Mr=335**

**Organik kimyoni O'qitishni takomillashtirish uchun quyidagi bir necha didaktik o'yinlardan foydalanishimiz mumkin bo'ladi:**

**1-topshiriq. Uchinchisini topish kerak.**

Bu o'yinda o'quvchilar kerak bo'lgan uchinchisi qismni yozadilar. Ushbu tenglikdan so'ng ikkita monomerning qo'shilishidan olingan polimerning nomini yozish kerak bo'ladi.

a) fenol + formaldegid = ...

b) monomer + temperatura = ...

c) mochevina + formaldegid = ...

**2-topshiriq. Raqamlar so'zlaganda usuli.** Bu usulda doskada muayyan sonlar yoziladi. O'quvchi ana shu sonlarga bog'liq kimyoviy tushunchalarni keltiradi.

10,50,500

0, 3,28....

1.10-bu oligomerlar tarkibidagi aminokislotalar soni. 2. 50-bu peptidlar tarkibidagi aminokislotalar soni. 3.5000-bu yuqori molekulyar birikmalarning molekulyar massasi. 4.3-bu yuqori molekulyar birikmalarning turlari. 5. 28-bu etilening molekulyar massasi...

Xuddi shunday ushbu qatorni yana davom ettirishimiz mumkin. Usulning afzallik tomoni shundaki, bunda O'quvchi raqamlarni va ularga bog'liq tushunchalarni eslashi, xotirasidan aynan shu raqamlar bilan bog'liq tushunchalarni topishi kerak bo'ladi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6-aprel 2017-yildagi 187-sonli "Umumiy O'rta va O'rta maxsus, kasb-hunar talimining davlat talim standartlarini tasdirlash to'g'risida"gi qarori 5-ilovasiga muvofiq umumiy O'rta va O'rta maxsus, kasb-hunar talim muassasalari uchun umumtalim fanlaridan o'quv metodik majmualarining yangi avlodini ishlab chiqish belgilangan. Shundan kelib chiqib, "**Organik kimyoni o'qitishda innovatsiyalardan foydalanish**" nomli o'zida organik kimyoni o'qitish bo'yicha barcha nazariy ma'lumotlarni va ushbu mavzularni o'qitish bo'yicha didaktik O'yinlar va innovatsion usullarni birlashtirgan multimediali elektron talim resursi yaratilgan (O'z.R. malumotnoma DGU 2019 1385 sonli 30.10.2019). Ushbu elektron multimediali talim resursidan organik kimyoni o'qitishda foydalanish natijasida darslarning pedagogik samaradorligi ortgan.

Yuqorida umumiy o'rta talim maktablarida organik kimyoni o'qitishda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini pasayishiga sabab bo'layotgan muammolar haqida to'xtalib o'tdik. Har bir muammoni chuqur tahlil qilar ekanmiz ularning yechimini topish va bartaraf qilish uchun o'qituvchi pedagoglarimiz muayyan tizimli yondashuvlarni ishlab chiqishlari va o'z faoliyatlarida qo'llab borishlari lozim ekanligini takidlamasdan ilojimiz yo'q. Ishlab chiqilayotgan yondashuvlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ular yashab turgan muhit, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, qiziqishlarini inobatga olgan holda yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy dunyo zamonaviy bilimga ega bo'lgan yoshlarni talab qilar ekan, hayotimizning barcha jabhalari uchun kerakli bo'lgan soha hisoblangan kimyo fanini o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda har bir mavzuni o'quvchiga yuqori darajada o'zlashtirish uchun yordam beradigan ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda darslarni o'tilishni talab qiladi.

#### Adabiyotlar

1. Касаткина, Градусова «Современные образовательные технологии в учебном процессе вуза»- Кемерово: (I drug), 2011
2. Рахматуллаев Н.Ф., Омонов Х.Т., Миркомиллов Ш.М. Кимё ўқитиш методикаси. – Тошкент: (Иқтисодиёт – Молия), 2013.
3. Пак М.С. Теория и методика обучения химии. - Санкт-Петербург: (РГПУ имени Герцена), 2015.
3. Габриелян О.С. «Теория и методика обучения химии» - Москва: (Академия), 2009.
4. Рахматуллаев Н.Ф., Омонов Х.Т., Миркомиллов Ш.М. Кимё ўқитиш методикаси. – Тошкент: (Иқтисодиёт – Молия), 2013.
5. Каримова Г.Қ., Алиходжаева Г.С. Илғор таълим-тарбия технологиялари ва жаҳон тажрибаси. Ўқув-услугий мажмуа.-Тошкент, 2017.
6. Омонов Х.Т., Хаттабоев М.Б. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент: (Иқтисод - Молия), 2016.

UDK.138.37

### TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (BLENDED LEARNING TEKNOLOGIYASI MISOLIDA)

I.Y.Madatov

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotasiya.** Maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarining mustaqil ta'lim olish jarayoni va uni samarali tashkil etish bo'yicha innovatsion texnologiyalardan xususan, Blended learning texnologiyasidan foydalanishning asosiy imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim olish jarayonida talabalarining kompetentlik ko'nikmalari shakllantirishga doir ma'lumotlar ham o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, Blended learning, texnologiya, kompetensiya, modul, mustaqil ta'lim, mustaqil ish, kompetentlik, moslashish, masofaviy ta'lim.

#### Использование инновационных технологий в организации самостоятельной работы студентов (на примере технологии blended learning)

**Аннотация.** В статье рассмотрены основные возможности использования инновационных технологий в процессе самостоятельной работы студентов и её продуктивной организации, в том числе использование технологии blended learning. Также в статье размещены сведения о формировании компетентности студентов в процессе самообразования.

**Ключевые слова:** обучение, технология, компетенция, модуль, самообразование, самостоятельная работа, компетентность, адаптация, дистанционное обучение.

**Use of innovative technologies in organizing independent work of students (*on the example of blended learning technology*)**

**Abstract.** The article discusses the main possibilities of using innovative technologies in the process of independent work of students and its productive organization, including the use of blended learning technology.

**Keywords:** training, technology, competence, module, self-education, independent work, competence, adaptation, distance learning.

Ta'lim – uzluksiz va harakatdagi jarayon bo'lib, ta'lim muassasasining bosh vazifalaridan biri – hammabop ta'lim muhitini yaratish, bilim olishga bo'lgan individual qiziqishni, ularni kundalik turmushda qo'llash ko'nikmasini ta'minlashdan iboratdir.

Belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda xorijiy OTM tomonidan qo'llanilib kelinayotgan innovasion texnologiyalarni qo'llash va milliy ta'lim tizimimizga strategik reja asosida puxta har tomonlama chuqur o'rgangan holda ta'lim texnologiyalarni joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim *dolzarb masalalardan* biri hisoblanadi.

XXI asr – yuqori texnologiyalar asri hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli vositalardan samarali foydalana oladigan va uni boshqara oladigan yangi avlod yetishib chiqmoqda. Muvaffaqiyatli ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan yana biri talabalarning mustaqil tarzda bilim olishga hamda o'z bilimlarini oshirishga tayyor emasligidadir. Albatta, bu holatda eng katta rol pedagogning zimmasiga yuklatiladi. Uning missiyasi faqat bilim “berish”da emas, balki talabani ularni mustaqil tarzda “topish va olishga” o'rgatishdadir. Aynan shu missiyani amalga oshirish uchun Blended learning konsepsiyasining o'rni kattadir.

Xususan, OTM da Blended learning konsepsiyasi asosida elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkillashtirish ta'lim sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi jamiyatning tezkor rivojlanishi, globallashuv jarayonida oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini qanday ko'tarish mumkin degan savol turadi. Bu savolga javob berish uchun mazkur magistrlik dissertasiyasida bugungi kunning dolzarb masalarini yechish maqsad va vazifalari qo'yilgan.

Hozirda turli xalqaro tashkilotlarning ta'lim sohasidagi tadqiqot loyihalarining aksariyati bilimlar iqtisodini shakllantirish uchun zarur bo'lgan, texnologiyalarga asoslanadigan XXI asrning chuqur bilimlariga, omilkorligiga bag'ishlangan. Bu tadqiqotlar ta'lim standartlarining mezon va etalonlarini; axborot-kommunikasiya texnologiyalarining (keyinchalik AKT) ta'lim tizimiga ta'sirini xalqaro talablar darajasi kontekstida aniqlashga qaratilgan [4].

Ko'pchilik nashrlarda ta'limda va o'qitishda innovasion strategiyalarni qo'llash muhimligi ta'kidlanadi, zamonaviy ish beruvchilar va mehnatga layoqatli aholi tomonidan talab qilinadigan ko'nikmalarga, shu jumladan, san'at va tabiiy fanlar borasidagi ta'lim yo'nalishiga katta e'tibor qaratiladi [4].

So'zsiz, texnologiyalar XXI asr o'qitish tizimining muhim tarkibiy qismlaridan sanaladi. Aynan yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llash samarali yangi bilimlarni egallashga, hozirgi paytda o'ta zarur bo'lgan maxsus ko'nikmalarni olishga ko'mak beradi. Bugungi kunda texnologiyalar kundalik hayotimizni to'liq qamrab olganini hisobga olgan holda, shunga javoban, yoshlarimiz ta'lim sohasidan interaktivlikni kutmoqdalar.

Hozirgi paytda ta'lim jarayonida bir vaqtning o'zida bir necha omillar ishtirok qilmoqda. O'quv jarayonining muvaffaqiyati ularning o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lgani sababli, bugungi kunda axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliy qo'llash sohasida oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari tarkibini qayta tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Zamonaviy oliy ta'limni elektron ta'lim vositalarisiz va turli masofaviy ta'lim texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jahon amaliyoti o'qitish jarayonining metodologiyasiga elektron texnologiyalarni faol tatbiq etmoqda. Ko'plab ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoniga AKTni faol tatbiq qilish kuzatilmoqda hamda ularni ta'lim jarayonida amaliy qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish yuzasidan allaqachon ishlar olib borilmoqda, shuningdek, o'quv-ta'lim resurslarining elektron bazasini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda yangi avlod elektron ta'lim resurslari yaratildi. Ular interaktiv, audiovizual va multimedia kontentining barcha yutuqlarini o'zida jamlagan bo'lib, ta'lim jarayonida tarmoq orqali yoyish hamda to'laqonli qo'llash imkoniyatlari ham ko'zda tutilgan. Bunday ta'lim kontentini yaratish o'qitishning yangi sifat ko'rsatkichiga o'tish demakdir, bunda elektron o'qitish resurslari ta'lim berish faoliyatining to'la-to'kis vositasiga aylanadi.

Ta'limda elektron o'qitish resurslarini keng qo'llash davr talablaridan kelib chiqib, ta'lim jarayonining "yangi arxitekturasini" ishlab chiqishni talab qiladi. O'qitishning kompyuter texnologiyalarini qo'llash o'qitish jarayonini butunlay o'zgartirib yuborishga, shaxsga mo'ljallangan o'qitish modelini amalga oshirishga, mashg'ulotni jadallashtirishga va muhimi, o'quvchilarning mustaqil tayyorgarlik ko'rishini yanada takomillashtirishga imkon yaratadi. So'zsiz, zamonaviy kompyuter va interaktiv dasturiy-uslubiy ta'minot o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqot qilish shaklini o'zgartirishni taqazo etadi. O'qitish jarayoni amaliy hamkorlikka aylanadi, bu esa o'qitish motivasiyasini kuchaytiradi, mashg'ulotlarning yangi modellarini qidirish zaruratiga olib keladi, individuallikni hamda ta'limning intensivligini oshiradi.

Ta'limda ko'p qo'llaniladigan **kompyuter vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin:** taqdimotlar, elektron ensiklopediyalar, didaktik materiallar, trenajyor-dasturlar, virtual eksperiment tizimlari, bilimni nazorat qilishning dasturiy tizimlari, elektron darsliklar va o'quv kurslari, ta'limiy o'yinlar va rivojlantiruvchi dasturlar.

Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini kiritish, ta'lim jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorgarlik va malaka oshirish o'quv jarayonini yangi sifat ko'rsatkichiga olib o'tish imkonini beradi, chunki o'qitish jarayonini tashkil etish bo'yicha pedagog ishining tizimini qurish uchun yangi imkonlar yuzaga keladi.

Kundalik pedagogik jarayonda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan malakaviy foydalanish ko'nikmasi, axborot madaniyati va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini pedagogik qo'llash texnikasi ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan uslubiy ko'makni yaratishga kerak.

Ta'limni axborotlashtirish o'qitish jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llashga yo'naltirilgan usullar, jarayonlar va dasturiy-texnik vositalar tizimidan iborat. O'quv jarayonida yangi axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini o'z intellektlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratish imkoniyatini beradi. Kompyuter texnologiyalarini bilim berishning akademik tizimiga integratsiya qilish ta'limga yondashuvning yangi shakllarini ishlab chiqish, uni yanada mobillashtirish, zamonaviy jamiyatning talablariga moslashganroq bo'lish imkonini beradi.

**Mustaqil ish** — 1) o'quvchilar faoliyati sezilarli darajada mustaqil, ustaga bog'liq bo'lmagan tavsifga ega bo'lgandagi ishlab chiqarish ta'limi davriga xos bo'lgan mashqlar. Bunda asosiy maqsad o'quvchilarda kasbiy mustaqillikni shakllantirish hisoblanadi; 2) nazariy o'qitishni tashkil qilish shakli, uning mohiyati mustaqil bilish faoliyatidan iboratdir. O'quvchilarni faol mustaqil o'qish ishiga tayyorlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi; ham dars vaqtida, ham darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladi. Kasbiy maktablarda darsdan tashqari mustaqil ishlarning quyidagi shakllari keng o'rin egallaydi: o'quv va ma'lumotnoma adabiyotlari bilan ishlash; fan turkumlari buyicha mashqlar bajarish; topshiriqlarni tanlov asosida bajarish; tayanch korxonalarda, laboratoriyalarda yangi texnika va texnologiyalarni o'rganish.[1]

Oliy ta'lim muassasasi (OTM) da mustaqil ishning auditoriya va auditoriyadan tashqari o'qitish jarayonini tashkil qilish ta'lim berish asosi hisoblanadi. Ta'lim muassasasida talabalar davom etadigan mustaqil ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak. Mustaqil ishlar shu maqsadga erishishning vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil o'qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday faoliyat malakali mutaxassislar tayyorlashda ustuvor vazifa hisoblanadi. Berilayotgan axborot talaba tomonidan bilim olishga qiziqish uyg'otadi, zarurat bo'lganda faol qabul qilinadi. O'rganilayotgan fanning murakkablik darajasi bir xil bo'lgan tarkibi talabaning tasavvur qilish uslubi, qabul qilish motivi va qiziqishi bo'yicha turlicha o'zlashtirilishi mumkin. Talabaning aniq bir fanga qiziqishi, o'qish va ilmiy faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Elektron ta'limda tinglovchilar mustaqil, erkin va ixtiyoriy bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi bevosita aloqa bo'lmaganligi uchun talabalarning o'zlashtirish darajasi bevosita uning intellektual tomonlariga bog'liq, ko'rgazmalilikning keng imkoniyatlaridan foydalanish, ya'ni eshitish, ko'rish, idrok qilish, esda saqlab qolish, tushunish fikrlashda texnik jarayonlarning faol ishtiroki yordamida egallanayotgan bilim mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma

berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashkarida o'zlashtirishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

O'qishning boshlang'ich bosqichlarida TMI ni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta'limning navbatdagi turi - oliy ta'lim talabalariga ko'nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, kanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o'z vaqtlarini tug'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga karab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

- o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestr-ga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarining topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 05.06.2018 yildagi PQ – 3775 sonli **“Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”** qarori asosida ishlab chiqilgan yangi nizom bo'yicha 2018-2019 o'quv yilidan boshlab qabul qilingan 1-kurs talabalariga haftasiga 5 kunlik dars mashg'ulotlari o'tkazilishi va 1 kun talabalarining mustaqil izlanishlari uchun ajratilgan bo'lib, talaba mustaqil izlanishga vaqtini samarali sarflashi va o'z ustida yanada ko'proq ishlashi uchun joriy qilingandir.

Shuni o'zi ham talabalarda mustaqil ta'lim olish jarayoni, adabiyotlar bilan ishlash, vaqtni teng taqsimlash kabi masalalarga aloxida e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatadi.

Bu masalani yechish yo'llaridan biri, mos keladigan o'quv modelini tanlashdir. Bu modelni amalga oshirish shartlari bo'yicha mos keluvchi maqsadli guruhga maksimal darajada yaqin bo'lishi shart hamda ta'limiy dasturlarni metodik-resursli ta'minotini optimalashtirishdir [2].

**Kompetensiya** (lot. *competentia* — huquq bo'yicha taalluqlilik) — 1) muayyan davlat idorasining vakolati, huquq va majburiyatlari doirasi; 2) masalalar doirasi, bunda muayyan amaldor shaxs bilimlar, tajribalarga ega bo'ladi.[1]

**Kompetentlik** (lot. *competens* — tegishli, layoqatli), **vakolatlilik** — 1) muayyan ijtimoiy kasbiy mavqeyga ega shaxslarning ular bajarayotgan vazifa va hal etayotgan muammo- lari mavjud murakkablik darajasiga bilimlari, layoqatlari va tajribalarining mos kelganlik darajasi. «Malaka» ter- minidan farqli o'laroq u malakani tavsiflovchi sof kasbiy bilim va layoqatni o'z ichiga olishdan tashqari, yana sifat, tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlay bilish qobiliyati, kommu- nikativ uquv, ta'lim olish, baholash uquvi, mantiqiy fikr- lash, axborotni tanlash va foydalanish layoqatlari kabi sifatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi; 2) boshqaruv organi, amaldor shaxsning vakolat sohasi; ular qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan masalalar doirasi. U yoki bu idora hamda shaxsning vakolat doirasi qonunlar, boshqa huquqiy hujjatlar, nizomlar, yo'riqnomalar, ustavlar bilan belgilanadi.[1]

Kompetensiyali yondashuv hozirgi kunda nafaqat oliy ta'limning qonun sohasiga o'rnashib olgan, balki oliy ta'lim muassasalarining lokal normativ hujjatlarini (umuman ta'limiy dasturlarni ishlab chiqishdan boshlab, alohida fanlar bo'yicha biror-bir yo'nalishning ishchi dasturlarigacha qamrab olgan.

Ta'limni modernizatsiya qilishning kompetensiyali yondashuv masalasida ko'p ilmiy ishlar chop yetilgan [3].

Turli xildagi o'quv modellarni (*Model* (lot. *modulus* — o'lchov, namuna) — pedagogikada, asl nusxa-tizim ba'zi muhim xossalarni aks ettiruvchi obyektlar yoki belgilar tizimi; u hodisaning umumlashgan ifodasi, amaliy tajribaning abstrakt natijasi hisoblanadi, eksperimentning natijasi bo'lmaydi. Psixologiya va pedagogikada qo'zg'atuvchi kuch va his etish intensivligi o'rtasidagi bog'lilikni tasvirlash uchun lo-gorifmik funksiya modeli, «unutish egri chizig'i» modeli va «mashqlar (yoki takrorlashlar) soni bilan bilim va malaka-larning o'zlashtirilish hajmi (yoki miqsori) o'rtasidagi miqsoriy bog'lilik» modeli ma'lum. Matrisa va graflar nazariyasi vosita hisoblanadi, bular yordamida o'quv materiali tuzilishini tahlil qilish, uning turli unsurlari orasidagi o'zaro aloqalarni tasavvur etish mumkin. Ta'limning ayrim tomonlarini matematik modellashtirishga, shuningdek, ta'lim mazmunini ijtimoiy buyurtmaning ko'pbosqichli pedagogik modeli sifatida tasavvur etishga harakat qilinmoqda.) va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qituvchilar va o'quv jarayonini rejalashtiruvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratadi [4]. Masalan, bir tomondan o'quv jarayonini talabalarning sonidan qat'iy nazar reglamentlashtirish va chuqurlashtirishga olib kelsa, boshqa tomondan yesa ta'limda tinglovchilarga individual yo'nalish berishga imkon beradi. Agarda darsni elektron tarzda o'tish qarori qabul qilinsa, bunda oliy ta'lim muassasasining dasturi, olinadigan bilim turi va darajasiga qarab mos keluvchi o'quv modeli tanlanadi. Yuqoridagi keltirilgan masalalarga oydinlik kiritishga blended learning kombinatsiyalashgan o'quv modeli mos keladi. U odatiy o'quv jarayonini o'zida shakllantirgan, ya'ni talabaga individual ta'sir ko'rsatish bilan birga yelektron o'quv jarayonining qulayligi va arzonligini o'zida mujassamlashtirgan [4].

Blended Learning, ya'ni aralash ta'lim tushunchasiga Clayton Christensen Institute tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: aralash ta'lim (blended learning) - zamonaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, o'qituvchi ishtirokidagi ta'lim olishni (Brick and Mortar Education) onlayn ta'lim (eLearning) olish bilan birlashtiradi va ta'lim oluvchi tomonidan o'quv jarayonining tezligi, joyi, vaqti mustaqil nazorat qilinishini hamda o'qituvchi bilan birga va onlayn o'qish tajribasi integratsiyasini faraz qiladi [5].

Aralash ta'lim an'anaviy va masofaviy ta'lim texnologiyalarini birlashtiradi. Ushbu ta'lim texnologiyasi an'anaviy (Brick and Mortar Education) ta'limdan voz kechishni talab qilmaydi, chunki to'liq ta'lim (qatnab o'qish) muhim bo'lgan nutq va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni beradi. Ingliz tilida Brick and Mortar (g'isht va eritma) deb atalishi an'anaviy", "uzoq vaqt ichida qo'llaniladigan" ma'nosini bildiradi. Brick and Mortar Education to'liq ta'limning an'anaviy modelini bildiradi.

Ta'lim oluvchi (talaba) auditoriyalarda o'tkaziladigan darslarda qatnashadi, ammo shu bilan birga Computer – Mediated Activitiyes vositalaridan ham foydalanadi. Ya'ni, ta'lim faolligi mediator vazifasini kompyuter, onlayn-rejim, mobil devayslar hamda maxsus o'rgatuvchi dasturlar (platformalar) resurslar bajaradi.

Blended Learning ta'lim texnologiyasi turli xil auditoriyalarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Jumladan, ta'lim oluvchi va talabalarni o'qitish, treninglar, xodimlarni korporativ malakasini oshirish va boshqalar. Aralash ta'limning quyidagi sinonimlari qo'llaniladi: Blended Learning, Habrid Learning (gibrid ta'lim), Technology-Medialed Insruction (texnologiyalar orqali nasihat qilish), Web-Yenhanced Instruction (veb-kengaytirilgan o'qitish) va Mixed-Model Instruction (aralash rejimda o'qitish).

Tarixan olib qaraydigan bo'lsak, 1920 va 1930-yillarda AQSh maktablarida o'qituvchilar va o'quvchilar elektron yozishuvlar orqali muloqot qilishni boshlashgan. 1970-yillarda esa ta'lim jarayonining qatnashchilarini ushbu shakldagi o'zaro munosabatlari ko'pgina ochiq jahon universitetlar amaliyotida qo'llanila boshlagan. Bu harakatlarni hozirda "Aralash ta'lim" tushunchasiga misol qilish mumkin. "Aralash ta'lim texnologiyasi" termini birinchi bor 1999-yilda AQShning Interactive Learning Center precc-relizida keltirilgan va ular tomonidan YePIC Learning deb yuritilishi taklif etilgan. Mediamateriallarda: «...Biz o'zimizning Blended Learning nomli metodologiyani qo'llab, internet orqali ta'lim olish uchun dasturiy ta'minotni taqdim etamiz» deyilgan [5].

Bugungi kunda Blended Learning deganda internet va sinfdagi raqamli media ta'lim imkoniyatlarining birlashishini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda Blended Learning (aralash ta'lim, an'anaviy va elektron ta'lim) texnologiyasi rivojlanmoqda, natijada o'quv materialining bir qismi elektron kurs shaklida, qolgani esa, auditoriyadagi mashg'ulot shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bunday ta'lim talabalardan o'z o'quv jarayonini boshqarishni, yuqori darajada tashkilotchilikni, ma'lum qobiliyatlarni, o'quvlarni, ta'lim olish jarayoni natijalarini baholashni talab etadi. Bundan tashqari, talaba o'quv materialini o'zlashtirish uchun uni mustaqil ravishda umumlashtirishi, bajarilgan o'quv ishlari va topshiriqlarni bajarishdagi faoliyatini tahlil qilishi va baholashi kerak. Shunday qilib, talaba o'qituvchi bilan birga nazorat ishlarini bajarishga qay darajada tayyor ekanligini mustaqil baholashi lozim.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni tug'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

#### Adabiyotlar

1. M. X. Saidov, L. V. Peregudov, 3. T. Tohirov. Oliy ta'lim (lug'at-ma'lumotnoma). —T.: «Moliya» nashriyoti, 2003, 456 b.
2. Лопаткин В.М., Каракозов С.Д., Куликова Л.Г., Скурыдина Е.М. Образовательные возможности электронной обучающей системы в подготовке бакалавров преподавательского образования // Мир науки, культуры, образования. 2013 № 3 (40).
3. O'roqov Sh.R Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish. Dissertasiya avtoreferati. Samarqand – 2018 y.
4. Xamidov V.S. Talim tizimida keskin burilishga sabab bo'lgan 4 dastur haqida <http://uz.infocom.uz/2009/12/21/talim-tizimida-keskin-burilishga-sabab-bolgan-4-dastur-haqida/>
5. Григорев С.Г., Андрюшкова О.В. Критерии эффективного использования Blended Learning. Информатика и образование. 2016. №8 с. 16-19

UDK: 378.2

### BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA REFLEKSIV YO'NALTIRILGAN TA'LIM MUHITINING ILMIY-METODIK JIHATLARI

**Sh. B. Nurboboyev**

*Samarqand davlat universiteti  
shokir.nurboboyev@mail.ru*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada refleksiya tushunchasining mazmun mohiyatini yoritish orqali pedagogik refleksiyaning zamonaviy kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, reflektiv yo'naltirilgan ta'lim modeli ishlab chiqilgan hamda reflektiv yo'naltirilgan ta'lim muhitiga oid usul va yondashuvlar aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** refleksiya, reflektivlik, pedagogik refleksiya, reflektiv ta'lim modeli, reflektiv ta'lim metodlari.

#### Научно-методические аспекты рефлексивно- ориентированной образовательной среды при подготовке будущих специалистов

**Аннотация.** В данной статье изучены социальная значимость педагогической рефлексии в подготовке современных кадров на основе сущности категории рефлексии, разработана рефлексивно-ориентированная модель образования, определены методы и подходы рефлексивно-ориентированной системы образования.

**Ключевые слова:** рефлексия, рефлексивность, педагогическая рефлексия, рефлексивная модель образования, рефлексивные методы обучения.

#### Scientific and methodological aspects of the reflexively oriented educational environment in the training of future specialists

**Abstract.** This article examines the social significance of pedagogical reflection in the training of modern personnel on the basis of the essence of the reflection category, develops a reflective-oriented education model, defines methods and approaches of a reflective-oriented education system.

**Keywords:** reflection, reflexivity, pedagogical reflection, reflective model of education, reflective teaching methods.

Pedagogika va psixologiya sohasida pedagogik refleksiya bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarning alohida yo'nalishi aniqlangan bo'lib, mazkur tadqiqotlarda o'qituvchi pedagogik faoliyatida reflektivlik va kreativlik aloqadorligi, pedagogik mahoratni shakllantirish, shuningdek, kasbiy ko'nikma va kompetensiyalarni takomillashtirishda refleksiyaning ahamiyati o'rganilgan.

Pedagogik refleksiyaning kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, o'z-o'zini tarbiyalash va o'qituvchining innovasion faoliyat bilan bog'liqligi muammolari zamonaviy pedagogika sohasida alohida



dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini anglash, o'zini tanqidiy baholash orqali kasbiy takomillashuvda pedagogik releksiyaning vazifalari muhim o'rin tutadi.

Refleksiya tushunchasi pedagogik va psixologik adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida talqin qilingan. Jumladan:

Refleksiya – (lot. reflexio – orqaga qarash) – 1) mulohaza, o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini anglash; insonning o'z-o'ziga ichki dunyosiga e'tiborni qaratishi, ruhiy sifat va holat; o'z-o'zini tahlil etishga moyillik; 2) *psixologiyada*, harakatlanuvchi individ tomonidan o'zini muloqot bo'yicha sherigi tomonidan qanday qabul qilinishini idroklash. Kishilarning bir-birini ayni bir paytda tasavvur etishi muayyan o'zaro ta'sirdir, uning ikki tomoni bor: bir-birini baholash va bir-birining xususiyatini o'zgartirish [1].

Refleksiya – (lot. reflexio – orqaga qaytish) – “har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin xislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir” [2].


“Refleksiya – bu insonning uzluksiz hayot jarayonini go'yo bir daqiqaga to'xtatib, uzib quyadi va insonni xayolan uning sarhadlaridan olib chiqib ketadi, shu vaziyatda insonning har bir harakati hayot haqidagi falsafiy fikr-mulohazalari muayyan bir xarakter aks etadi” [3].

“Refleksiya – ichki tasavvurdan tashqi tasavvurga va aksincha, biridan boshqasiga o'tish, fikrlash jarayonida ushbu jarayonlarning intenorizatsiyasi (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) haqidagi fikrlarni shakllantirish asosi... Refleksiya asosida nafaqat psixologik bilimlar, balki xotira, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi va amalda qo'llash usullari takomillashtiriladi” [4].

Keyingi yillarda pedagogik faoliyatda o'qituvchilar duch kelayotgan muammolar, jumladan o'z mutaxassislik fani bo'yicha belgilangan natijalarga erisha olmayotganligi, o'quvchilar, shuningdek pedagogik jamoa bilan muloqot jarayonidagi ziddiyatlarda o'z-o'zini tahlil qilmasligi, xususan shaxsiy refleksivlik ko'nikmalari mavjud emasligi holatlari yuzaga kelmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ularning refleksiv kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri bo'lib, bunda oliy ta'limning me'yoriy mazmuni, ta'lim jarayonlarini tashkil etishning shakl, metod va vositalari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy faoliyati obyektiga professiografik, shaxsiy faoliyatli, kompetent va akmeologik yondashuvlarni hamda bo'lajak o'qituvchi modeli, refleksiv faoliyatga yo'naltirilgan tamoyillarni aniqlash asosida refleksiv yo'naltirilgan pedagogik ta'lim modelini yaratishni taqozo etadi.

Refleksiv yo'naltirilgan pedagogik ta'lim modeli o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:



1. **Ta'limning formal-didaktik konsepsiyalari.** Mazkur komponent ta'limning tarixiy davrlarida didaktik konsepsiyalarning mazmuni, kognitiv funksiyasi va shaxs kamolotiga oid nazariyalar majmuini aks ettiradi. Uning vazifasi shaxsning ijtimoiylashuvida didaktik konsepsiyalarning mazmunini davr nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni aniqlab berishdan iborat bo'ladi.

2. **Ta'limning jarayonli tarkibiy tuzilmasi.** Ushbu komponent ta'limni tashkil etishning an'anaviy va zamonaviy shakl, metod va vositalarini jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi va shaxs rivojlanishining qonuniyatlaridan kelib chiqib aniqlab beradi.

3. **Ta'limda professiografik yondashuv.** Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ularning kasbiy faoliyati obyekti bilan bog'liq kompetensiyalar va ularni takomillashtirish mexanizmlarini belgilab beradi.

4. **Akmeologik yondashuv.** Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy takomillashuvi, ularda pedagogik mahoratni shakllantirish, shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash orqali kasbiy va shaxsiy rivojlanishining omillari va mexanizmlarini o'zida mujassamlashtiradi.

5. **Mutaxassis modeli.** Bu komponent o'z ichigabo'lajak mutaxassisning o'z faoliyatini nazorat qilish qobiliyati, ularda "Men" konsepsiyasini shakllantirish qonuniyatlari, pedagogik faoliyatga nisbatan refleksiv ko'nikmalari, pedagogik muloqotga tayyorlik, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini baholash hamda anglash layoqatlari, shuningdek ijtimoiy va kognitiv kompetensiyalari mazmunini tasniflaydi.

6. **Tamoyillar.** Ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini baholash, kasbiy ehtiyoj va yo'nalganlik, refleksiv muhitning mavjudligi, mutaxassislik fanlarini o'qitishda refleksiya kabi tamoyillarga amal qilishni nazarda tutadi.

Mazkur model bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning refleksiv faoliyatga yo'naltirilgan muhitini aniqlashga xizmat qiladi.

Modelda ko'rsatib o'tilgan komponentlarning mazmuni va funksiyalari har bir umumkasbiy fanlar doirasida aniqlanishi maqsadga muvofiqdir.

Biz pedagogik faoliyatimiz davomida egallangan tajribalardan kelib chiqib, refleksiv yo'naltirilgan ta'lim muhitiga oid usul va yondashuvlarni joriy etdik. Bunda har bir talabaning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usul va vositalardan foydalanishini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Masalan, mutaxassislik fanlarini o'rganishda har bir dars bo'yicha talabalar uchun quyidagi vazifalarni bajarishlarini ta'minlash lozim:

#### 1-usul:

\_\_\_\_\_ fanidan ma'ruza mashg'ulotlarida  
 \_\_\_\_\_ tushunchalarining mohiyatini tushundim,  
 \_\_\_\_\_ larning mohiyatini anglab yetdim,  
 \_\_\_\_\_ larni to'liq o'zlashtirdim.  
 Seminar va amaliy mashg'ulotlar davomida menda \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_ ko'nikmalar,  
 \_\_\_\_\_ larni bajarishda esa qiyinchiliklar yuzaga keldi. Men uchun  
 faoliyatning quyidagi turlari va ta'lim shakllari muammolarni hal etish usullari samarador bo'ldi:  
 \_\_\_\_\_.

Mustaqil ta'lim jarayonida berilgan topshiriqlar mening kasbiy tayyorgarligimda quyidagi o'zgarishlarni yuzaga keltirdi: \_\_\_\_\_.

**2-usul.** Mazkur usul "Tugallanmagan fikrlar" deb nomlanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, bunda talabalar mutaxassislik fanlari bo'yicha har bir darsda ushbu metoddan foydalanib, o'z-o'zlarini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Usulning mazmuni quyidagicha:

Bugun men \_\_\_\_\_ kabi tushunchalarning mohiyatini bildim.  
 \_\_\_\_\_ lar menga qiziqarli bo'ldi.  
 \_\_\_\_\_ larni tushunishda qiyinchiliklar yuzaga keldi.  
 Men \_\_\_\_\_ vazifalarini bajardim.  
 Men tushundimki, \_\_\_\_\_  
 Endi men \_\_\_\_\_ kabi vazifalarni bajara olaman.  
 Men \_\_\_\_\_ ni anglangan holda o'zlashtirdim.  
 Mazkur dars davomida \_\_\_\_\_ larni bildim,  
 \_\_\_\_\_ bo'yicha ko'nikmalar yuzaga keldi.  
 Men xohlar edimki, \_\_\_\_\_.

Agar har bir darsda talabalarga mazkur usullarni qo'llash taklif etilib, ularning bajarilishi talabalar bilimni baholash mezonlarida hisobga olinsa, talabalarda dars va o'quv predmetining ahamiyatini anglash orqali bilim olish motivatsiyasi yuzaga keladi. Natijada hosil bo'lgan motivatsion ehtiyojlar bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayoni samaradorligini oshishiga, shuningdek talabalarning o'z-o'zini tahlil qilish va baholash, ya'ni refleksiv kompetentligining shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning bilan birgalikda refleksiv kompetentlikning tarkibiy tuzilishi va xususiyatlarini aniqlash orqali adaptiv ta'lim muhitini yaratish pedagogik-psixologik fanlar sohasidagi tadqiqotlarning muhim yo'nalishlari sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish. H.T.Omonov, B.M. Xattaboyev; T.: "Iqtisod-moliya", 2016 – 200 b.
2. Oliy ta'lim Lug'at-ma'lumotnoma, akademik S.S.G'ulomov umumiy tahriri ostida. Toshkent: "Moliya" 2003 y. – 253 b.
3. Философская энциклопедия. – М.: Советская энциклопедия. 1967. – 4-т. 499 б.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – С.-Пб Питер, 2001. – С.221.
5. Ладенко И.С. Роль рефлексии в структуризации интеллектуальных систем //Рефлексивные процессы творчество: тез. Докл. Всесоюз. Конф./ Под ред. И.С.Ладенко – Новосибирск, 1999 – СН. 1 С.5-7.

UDK: 377.111.3.016:338

### PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV XODIMLARINING RAQAMLASHTIRILGAN IQTISODIY FAOLIYATDAGI KOMPETENTLIGI

**B. I. Ilxomov**

*Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti t*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kompetentlik, iqtisodiy kompetentlik va ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligi tushunchalari tahlil qilingan. Shuningdek, malaka oshirish jarayonlarida professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'rilgan. Raqamlashtirilgan moliyaviy boshqaruv masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, iqtisodiy kompetentlik, raqamlashtirilgan moliyaviy boshqaruv, iqtisodiy faoliyat.

#### Компетентность руководителей профессиональных образовательных учреждений в цифровой экономической деятельности

**Аннотация.** В статье анализируются понятия компетентности, и экономической компетентности управленческого персонала образовательной системы. Также в процессе повышения квалификации рассматриваются вопросы развития экономической компетентности управленческих кадров системы профессионального образования. Проанализированы вопросы цифрового финансового управления.

**Ключевые слова:** компетентность, экономическая компетентность, цифровая финансовая управления, экономическая деятельность

#### Competency of leaders of professional education and training in digital economic activity

**Abstract.** The article analyzes the concepts of competence and economic competence of management personnel of the educational system. Also, in the process of professional development, the issues of developing the economic competence of managerial personnel in the professional education system are considered. The issues of digital financial management are analyzed.

**Keywords:** competence, economic competence, digital financial management, economic activity.

**Kirish.** 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish orqali mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Mehnat bozorining

zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida 2019-yil 6-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan professional ta'lim dasturlarini YuNYeSKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirgan holda tashkil etish va mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish kabi vazifalar ham belgilandi. Shuningdek, professional ta'lim muassasalari faoliyatni yuritish, joriy saqlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari - tegishli vazirlik, idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari, o'quvchilarni davlat buyurtmasi, to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutildi.

Ma'lumki, ta'lim muassasalari rahbar xodimlari vazifalari qatorida o'quv jarayoni ishlarni tashkil etish bilan birgalikda, ta'lim muassasasining moliyaviy xo'jalik faoliyatini boshqarish vazifalari ham yuklatilgan. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga faol o'tish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, tahlil qilish, ularga yechim topish va mazkur jarayonlariga kreativ yondashishni rivojlantirish kabi masalalar ham professional ta'lim muassasalari boshqaruv xodimlari iqtisodiy kompetentligiga zamonaviy talablarni keltirib chiqarmoqda.

Tizimda zamonaviy fikrlaydigan, raqamli texnologiyalarni egallagan, iqtisodiy bilimga ega rahbar xodimlarga talab ortib borar ekan, bu o'z navbatida malaka oshirish o'quv jarayonlarida iqtisodiy kompetentlikni rivojlantirishga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Professional ta'lim muassasalarini budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish darajasining pasayishi va natijada moliyaviy resurslar bilan ta'minlash borasida yangi tamoyillarning yuzaga kelishi shuningdek, moliyaviy resurslarni tasarruf etish, davlat xaridlarini tashkil etish kabi raqamli dasturiy majmualarning takomillashib borayotganligi ham bugungi kunda professional ta'lim boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

**Maqsadimiz** professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligi tushunchasining tuzilishi, mazmun-mohiyati va tarkibiy komponentlari darajalari va rivojlantirish bosqichlarini ilmiy asoslash hamda ularni rivojlantirishning andragogik asoslarini, tashkiliy-pedagogik shartlari va o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirish va amaliyotga tadqiq etishdan iboratdir. Iqtisodiy kompetentlik o'z navbatida tizim boshqaruv xodimlariga professional ta'limda moliyaviy resurslar mobilligi, moliyaviy oqimlarni jalb qilish, moliyaviy boshqaruv funksiyalari, budjet va budjetdan tashqari manbalar hisobidan shtat-smeta xarajatlarini shakllantirish, samaradorlik mezonlari asosida va turli mehnatga oid munosabatlarda mehnatga haq to'lashni tashkil etish, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida moliyaviy boshqaruv dasturiy majmualaridan foydalanish, professional ta'lim xizmatlarini tashkil etishda narxlar va ularga ta'sir qiluvchi omillar va shu kabi ko'rsatkichlarni iqtisodiy jihatdan tahlil qila olish va samarali qarorlar qabul qilishiga imkoniyat yaratib beradi. Chunki kelgusida professional ta'lim muassasalari moliyaviy-iqtisodiy jihatdan nafaqat o'zini o'zi ta'minlashi balki o'zining ilmiy potentsiali, ilmiy tadqiqotlari va ishlanmarlari bilan barqaror iqtisodiy o'sishga erishishlari lozim.

**Mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy asarlar tahlili** asosida aytishimiz mumkinki kompetensiyaviy yondashuv borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuningdek, pedagogika, psixologiyaga doir o'quv adabiyotlar va boshqa taaluqli bo'lgan manbalar tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari turli kontekstlarda turlicha ta'riflanib, olimlar tomonidan berilgan tushunchalar mazmunida ham ma'lum darajada farqlar mavjud.

Masalan "O'zbek tilining izohli lug'ati" da kompetensiyaga quyidagicha tushuncha berilgan (lot.competere-layoqatli, munosib bo'lmoq, munosibman, loyiqman) - 1) Muayyan organi yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat; 2) Shaxsning biror bir sohadan habardorlik, shu sohani bilish darajasi.[2]

Oliy ta'lim lug'at-ma'lumotnomasida "kompetensiya" (lot. competentia - huquq bo'yicha taalluqlilik) - 1) muayyan davlat idorasining vakolati, huquq va majburiyatlari doirasi; 2) masalalar doirasi, bunda muayyan amaldor shaxs bilimlar, tajribalarga ega bo'ladi, deb ifodalangan. [3]

O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi

Kompetentlik atamasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha no'anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o'zini qanday tutish, muloqatga kirishish, tomonlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to'g'risida nazariy bilimlar zarurligini ko'rsatadi [4].

I.A.Zimnyaya "...kompetentlik - bu odamning faoliyati, xulq-atvori, turli muammolarni hal qilish jarayonida boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladigan integrativ, bilimga asoslangan, intellektual va ijtimoiy-madaniy jihatdan aniqlangan sifati" deb ta'riflagan. Uning fikricha "kompetentlik" bu shaxsiy xususiyat bo'lib, tarkibiga kiritilgan kompetensiyalar asosida shakllantiriladi [5].

Kompetentlik deganda, ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi bilim va tajribalariga asoslangan integratsion siflat nazarda tutiladi [6].

Mavzu yuzasidan olib borilgan tahlillarda kompetentlik tushunchasi bilan birga iqtisodiy kompetentlik tushunchasi, mohiyati, uning negizida qanday siflat aks etishi kabi masalalar ham tadqiq qilindi.

Ye.A.Varkinaning ilmiy ishlarida "iqtisodiy kompetentlik - bu shaxsning integrativ sifati bo'lib, maxsus kompetensiyalar (marketing, tadbirkorlik, xujalik-huquqiy) majmui bilan tavsiflanadi shuningdek, egallangan iqtisodiy bilim, ko'nikma va tajribalarni va ma'lum faoliyat usullarini qo'llay olish qobiliyatini aks ettirib, ustuvor qadriyatlar va motivlar bilan tartibga solinadigan doimiy shaxsiy rivojlanish asosida ta'lim muassasasi faoliyatini ta'minlashdir" deb ta'riflagan [7].

Ye.N. Xamaturova o'zining ilmiy ishida iqtisodiy kompetentlik tushunchasini iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, shaxsning iqtisodiy muhim siflatlarini shakllantirish, iqtisodiy fikrlash va hulq avtovorni shakllantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirisha olishi natijasi sifatida ko'rib chiqqan va bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining iqtisodiy kompetentligi tarkibining motivatsion, kognitiv, faoliyatli va shaxsiy komponentlarini izohlagan [8].

O.N.Tkacheva tomonidan iqtisodiy kompetentlik quyidagicha ta'riflangan: Iqtisodiy kompetentlik - shaxsning integrativ sifati bo'lib, u inson bilan iqtisodiy muhit o'rtasidagi munosabatlarning xarakteri va siflat darajasini belgilaydi va sub'ektning iqtisodiyotga, uning ob'ektlariga, vositalariga, natijalariga munosabati bilan shakllangan yuqori darajadagi tegishli bilim va ko'nikmalar bilan tavsiflanadi hamda motivatsion, kognitiv, faoliyatli va shaxsiy komponentlar majmui bilan tavsiflanadi [9].

**Maqolada tadqiqot ob'ekti.** Turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda "iqtisodiy kompetentlik" mazmuni, tushunchasi va tarkibiy komponentlari ham o'rganilgan bo'lsada, professional ta'lim tizimi boshqaruvi bilan bog'liq iqtisodiy kompetentlikning mazmuni, tuzilishi va tarkibiy komponentlari, zamonaviy talablar jumladan, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida yetarlicha o'rganilmagan.

Professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining zarur kasbiy fazilatlar bilan bir qatorda, turli murakkablik darajasidagi iqtisodiy vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradigan kasbiy mahoratni biz professional ta'lim muassasalari boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligi sifatida tahlil qilib, uning mohiyatini, tarkibiy komponentlarini aniqlashni zarur deb belgiladik.

Ta'lim muassasasi rahbarining iqtisodiy kompetentligi masalasi ham muhim omil sifatida ko'plab olimlar tomonidan ilmiy o'rganilgan. Jumladan, I.I.Juklinets o'zining ilmiy ishlarida ta'lim muassasasi rahbarining iqtisodiy kompetentligini quyidagicha ta'riflagan: "Ta'lim muassasasi rahbarining iqtisodiy kompetentligi - shaxsiy siflatlar tavsifi bo'lib, kompetensiyalar tizimidan iborat bo'lgan, bilimlar, ko'nikmalar, ish tajribalari asosida oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qilishga harakatlarni safarbar qilish va rahbarning muayyan iqtisodiy muammolarni hal qilishga tayyorlik darajasi" [10].

**Maqolaning ilmiy yangiligi.** Professional ta'lim muassasasi rahbarining iqtisodiy faoliyati, muassasa moliyaviy faoliyatini rejalashtirish, ijro etish, nazorat va boshqarishdan iborat bo'lar ekan, ta'lim muassasasining iqtisodiy barqarorligini, moliyaviy mustaqilligini ta'minlash faoliyatida, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish (mobilizatsiya), moliyaviy resurslarni rejalashtirish va boshqarish (taqsimlash), moliyaviy resurslar ijrosini ta'minlash va nazorat (samarali foydalanish) kabi funksiyalarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, tahlil qilish, ularga yechim topish va mazkur jarayonlariga kreativ yondashish talab etilar ekan, bu borada ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy sohadagi raqamli texnologiyalardan foydalana olish malakalarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Oddiy iqtisodiyotda moddiylik asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda uzatiladigan, tahlil qilinadigan, qayta ishlanadigan va boshqariladigan tezkor ma'lumotlar asosiy resurs sifatida qaraladi.

Rivojlangan davlatlar qatorida mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotga faol o'tish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, budget tashkilotlarida moliyaviy resurslarni boshqarish funksiyalarining deyarli har bir bosqichi raqamlashtirilgan dasturlar asosida olib borilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki oxirgi yillarda Davlat xaridlarini tashkil etish, moliyaviy resurslar hisobini yuritish borasida dasturiy majmualarni amaliyotga joriy kilish va yanada rivojlantirishning me'yoriy-hukukiy asoslari yaratilgan va muntazam takomillashtirilib borilmokda. Budget tashkilotlari tomonidan budget hisobi va hisobotlari kompleks avtomatlashtirilgan «UzASBO» dasturiy majmua asosida yuritilib, muassasaning barcha birlamchi moliyaviy hujjatlaridan boshlab ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, tovar moddiy zahiralalar, asosiy vositalar, xizmatlar va to'lov hujjatlari elektron hujjat shaklda, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda amalga oshiriladi. Barcha to'lov hujjatlari so'rov va hisobotlarni taqdim qilish, rahbor tomonidan elektron imzo orqali ruxsat berilgandan so'ng amalga oshiriladi. Shuningdek, davlat xaridlarini tashkil etish ishlari ham maxsus axborot portalining dasturiy-texnik kompleksi orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida olib boriladi. Mazkur jihatlar professional ta'lim muassasalari rahbar hodimlarining iqtisodiy kompetentligiga qo'shimcha talablarni yuzaga keltirib, raqamlashtirilgan iqtisodiy tizimga integratsiyalashuv uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligini taqazo etmoqda.

Shu nuqtai nazarlardan kelib chiqqan holda biz, Ye.A.Varkina tomonidan ta'lim muassasalari rahbarlarining iqtisodiy kompetentligini tashkil etuvchi maxsus kompetensiyalar majmuyiga qo'shilgan holda professional ta'lim tizimi rahbar hodimlarining iqtisodiy kompetentligini tashkil etuvchi kompetensiyalarni quyidagi tarkibda belgiladik, bular "marketing-tadbirkorlik", "ho'jalik huquqiy" va "axborot-tahlil" kompetensiyalari.

Taklif etilayotgan mazkur "axborot-tahlil" maxsus kompetensiya turi, qo'llanilgan ob'ektlari doirasi, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati, qo'llanish ob'ektlari tizimi haqidagi bilimlarning jamlanganligi, ko'nikmalar majmui, namoyon bo'lishi uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlar majmuiga ko'ra tavsiflanadi:

**Kompetensiya:** Axborot taxlil kompetensiyasi.

**Turi:** Maxsus kompetensiya.

**Voqelik ob'ektlari doirasi:** Muassasasa iqtisodiy samaradorligi masalalari, elektron moliyaviy faoliyat.

**Ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati:** Ijtimoiy ahamiyati ta'lim muassasasini iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, moliyaviy risklarni oldindan to'g'ri baholash. Shaxsiy ahamiyati iqtisodiy boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida moliyaviy axborotning sifatli tahlili muhimligini anglash bilan belgilanadi

**Voqelik ob'ektlari tizimi haqidagi bilimlar majmuyi:** tashkiliy o'zgarishlarni to'g'ri amalga oshirish, biznes jarayonlarni modellashtirish va qayta ko'rib chiqishni bilish; axborot tahlilining miqdoriy va sifatli usullarini bilish; tashkilotni moliyaviy boshqarish asoslarini bilish; investitsiya mexanizmlarini bilish; risklarni boshqarishni bilish; prognozlash bosqichlari va usullarini bilish.

**Ko'nikmalar majmui:** Tashqi muhit ta'sirini aniq baholay olish; tashkiliy tizimning iqtisodiy holatini tahlil qila olish; iqtisodiy axborotlarni qayta ishlash uchun dasturiy vositalardan foydalana olish; miqdoriy va sifatli iqtisodiy axborotlarni tahlil qila olish; boshqaruv qarorlarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qila olish; investitsiya loyihalari va risklarni baholash qobiliyati; iqtisodiy o'sishni prognoz qilish qobiliyati.

**Shaxsiy fazilatlar majmui, qadriyat yo'nalishlari:** boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida axborotning sifat tahlili rolini anglash; samarali boshqarish uchun biznes-jarayonlarni o'zgartirish, qayta qurish va moslashtirish rolini bilish; tashkilotning tashqi muhitini dominant sifatida ifodalash tashkiliy tizimga ta'sir ko'rsatish omili; iste'molchi fikrining ahamiyatini ye'tirof yetish va uni har tomonlama o'rganish va ko'rib chiqishga e'tibor qaratish.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, professional ta'limni modernizatsiya qilishi va raqamli iqtisodiyot sharoitida professional ta'lim muassasalari boshqaruv hodimlarining iqtisodiy kompetentligini malaka oshirishning turli shakllarida rivojlantirish muhim masala hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Professional ta'lim tizimi rahbari faoliyatining asosiy xususiyati boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'lib, iqtisodiy boshqaruv qarorlarni qabul qilishda u nafaqat axborotlarni ko'ra olishi, balki tuzish, saqlash, sifatli tahlil qilish, rivojlanish tendensiyalarini bashoratlash kabi qobiliyatlarini ham talab qilib, iqtisodiy kompetentlikning axborot-tahlil kompetensiyasini rivojlantirishni talab etadi.

Shuningdek, professional ta'lim tizimi muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tizim boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini malaka oshirish kurslarida rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

-professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy faoliyatlari sohasiga oid seminar-treninglar, vebinarlar, boshqaruvning iqtisodiy muammolariga oid konferensiyalar, mustaqil iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish, qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish asosida malaka oshirish uzluksizligini ta'minlash;

-bevosita malaka oshirish kurslarida, o'quv dasturlari va tegishli modullar mazmunlarini tizim boshqaruv xodimlarining real iqtisodiy faoliyatlarini natijasida yuzaga keladigan o'quv ehtiyojlari va talablariga moslashtirish. Muammoli, keys stadi, loyihaviy metodlar elementlarini o'z ichiga olgan andragogik shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslangan ta'lim jarayonlarini keng joriy etish;

-professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlari malaka oshirish jarayonlarining turli shakllarida, iqtisodiy kompetentlik tarkibini tashkil etuvchi kompetensiyalarni faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish;

-professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlari iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etilishi muhim sanaladi.

### Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони. Професионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. № ПФ-5812. 06.09.2019. <https://lex.uz/>

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, “К” ҳарфи, 110 б. <https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/lugatlar/>

3. Олий таълим (Луғат-маълумотнома). М.Х.Саидов, Л.В.Перегудов, З.Т.Тоҳиров Т.: “Молия” нашриёти, 2003, 145 б.

4. Каримова Н.Н. Бўлажак касб-таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш //Дисс..п.ф.ф.д. (PhD), -Тошкент, 2018 -136.

5. Зимняя И.А. Компетентный подход в образовании // Видео-интервью // [www.pirao.ru/community-projects/text/kompetentnostnyu-podkhod-v-obrazovanii/](http://www.pirao.ru/community-projects/text/kompetentnostnyu-podkhod-v-obrazovanii/)

6. Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларнинг тадқиқотчилик компетентлигини ривожлантириш. // “Замонавий таълим” журнали 2018, 2-сон.

7. Варкина Е.А. Формирование экономической компетентности руководителя образовательного учреждения в системе повышения квалификации//Дисс. .... канд.пед. наук.- Оренбург, 2009 С.41.

8.Хаматнурова Е.Н. Становление экономической компетентности будущего педагога проф. обучения // Диссертация, Москва, 2007 С.27.

9. Ткачева О.Н. Формирование экономической компетентности специалиста в системе дополнительного профессионального образования // Диссертация, Ивановская, 2009. С.95-96.

10. Жуклинец И.И. Формирование экономической компетентности руководителей образовательных учреждений в системе повышения квалификации//материалы межрег. науч.-практ. конф., СПб., 19 апр. 2012 г.

УДК: 378.015.3.005.32-057.873

## О'QITUVCHINING PEDAGOGIK TEXNIKASI VA INNOVATSION FAOLIYATINING О'QUVCHILAR BILAN MULOQOTIDAGI ROLI

**Е.О.Sharipov<sup>1</sup>, S.Yu.Shodiyev<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,*

<sup>2</sup>*Qarshi davlat universiteti*

**Аннотасија.** Ushbu maqolada o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va akademik litseyi muassasalari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida pedagogik mahoratini rivojlantirishda pedagogik texnikaning roli keltirilgan. Shu bilan birga noan'anaviy dars usullarini takomillashtirib borish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab berilgan.

**Калит со'злар:** педагогик техника, педагогик mahorat, innovatsion faoliyat, noan'anaviy dars, muammoli vaziyat, nostandart test, teorema.

**Роль педагогических методов и инновационной деятельности преподавателя в общении со студентами**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль педагогических приемов в развитии педагогических навыков в педагогической деятельности учителей среднего специального, профессионального образования и академических лицеев.

**Ключевые слова:** педагогическая техника, педагогическое мастерство, инновационная деятельность, нетрадиционное занятие, проблемная ситуация, нестандартный тест, теорема.

**The role of the teacher's pedagogical methods and innovative activities in communication with students**

**Abstract.** This article discusses the role of pedagogical techniques in the development of pedagogical skills in the pedagogical activities of teachers of secondary special, vocational education and academic lyceums.

**Keywords:** pedagogical technique, pedagogical skill, innovative activity, non-traditional occupation, problem situation, non-standard test, theorem.

Barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning maqsadi, yoshlarni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalash, ta'lim va tarbiya jarayonini zamon talabiga mos ravishda tashkil etishga qaratilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va akademik litseyi muassasalari o'qituvchilari va ishlab chiqarish ustalaridan yuksak darajada bilim, pedagogik mahorat va albatta mas'uliyat talab etiladi.

Ayniqsa o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va akademik litseyi muassasalari o'qituvchilarining pedagogik maxoratini rivojlantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha o'qituvchilarning dunyoqarashi, iqtidori va qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya uslublarini takomillashtirish ustida tadqiqotlar va izlanishlar olib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchilar ta'lim berish jarayonini bir maromda va bir xil o'xshash usullarda olib borgani natijasida o'quvchilarda zerikish hamda boshqa narsalarga chalg'ish holatlari kuzatilmoqda. Bunday holatlarni bartaraf etish yo'llaridan biri, bu o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi usullar ya'ni, noan'anaviy darslarni tashkil etish hamda o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Har bir mashg'ulotda bir necha noan'anaviy dars usullaridan foydalangan holda o'quvchilarning fanga qiziquvchanligini, mustaqil izlanuvchanligini, o'z bilimini namoyish etishda o'zaro raqobatlashish muhitini vujudga keltiradi va bu esa dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ijodiy fikrlashini rivojlantirish va o'zlari tanlagan kasblariga qiziqish uyg'otishning yo'llaridan ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni tashkil etish, berilgan topshiriqlarni har tomonlama muhokama qilishga doir misollar bilan boyitish, o'quvchilarni masalaga ijodiy yondoshuvlarini keltirib chiqaradi. Ijodiy fikrlashning rivojlanishi o'quvchilarda o'zlari tanlagan kasblari yuzasidan mavjud muammolarni tanqidiy-tahliliy fikrlash, ularga nisbatan sinchkov bo'lishlari va masalani har tomonlama muhokama qilishlariga o'rgatadi, natijada yangi fikrlar va turli xildagi bahs-munozaralarga sabab bo'ladigan yangi gipotezalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi amaliyotidan ma'lumki, kollej o'quvchilarini yoshlik davridan tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki mazkur yoshda ularda turmushda o'z o'rnini topish, o'zi tanlagan kasbni egallash, istiqbolli rejalar tuzish va kelajakka jiddiy munosabatda bo'lish xususiyatlari shakllanadi. Shu o'rinda o'quvchilarga ijtimoiy-iqtisodiy me'yorlar, ularning umumjamiyat va fuqarolik shaxsiy hayotini tashkil etishdagi muxim masalalar to'g'risida ma'lumot berish o'qituvchilar zimmasiga yuklatiladi. Bundan tashqari tanlagan kasbidan qat'iy nazar o'quvchilar uchun tadbirkorlikka doir qiziqarli masalalarni tanlash usul va vositalarini ishlab chiqish, ularni iqtisodiy fikrlashga o'rgatish, bozor iqtisodiyoti, marketing, menejment kabi tushunchalarni va mehnat faoliyati bilan o'z imkoniyatlarini namoyish etishga oid bo'lgan iqtisodiy tarbiya berish jamiyatda o'zlarining munosib o'rinlarini topishga yordam beradi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarining *mustaqil fikrlashiga ta'sir etish usullariga* - dolzarb masalalarni va muammolarni hal qilishda noqulay sharoitlarda mustaqil ishlash shuningdek, mumkin bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish, oldindan mustaqil fikrlash va ilgarilab ketishga harakat qilishga tayyorligi va qobiliyatini yetarli darajada rivojlantirishini kiritish mumkin.

O'qituvchi shaxsining o'z-o'zini rivojlantirish faoliyatida mustaqil o'qish va o'rganish negizida o'zining dunyoviy ehtiyojlarini, ijodkorligini va shaxsiy salohiyatini boyitib oladi. O'z-o'zini rivojlantirish



va mustaqil o'qish eng avvalo uzluksiz mustaqil ishlashni hamda uzluksiz ma'lumotlar olishni amalga oshirish g'oyasini ilgari suradi.

*O'qituvchining pedagogik texnikasi* – bu malakalar yig'indisi bo'lib, u o'quvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalari orqali, ularga o'z fikrlari va takliflarini yetkazish imkonini beradi. Uning tarkibiy qismi sifatida o'qituvchining nutq madaniyatini, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli, ravon, tushunarli va ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalaridan iborat bo'ladi. So'z, gap, ohang, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o'tkir va kutilmagan vaziyatlarda osoyishtalikni va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini saqlab qolish imkonini yaratadi.

O'qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirish va takomillashtirish masalalarini yechish borasida e'tiborni o'qituvchilar pedagogik texnikasini jarayoniga qaratish, jumladan pedagogik mahoratni oshirishga bag'ishlangan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni mazmunli tashkil etish nazarda tutiladi.

O'qituvchining pedagogik texnikasi oshirish jarayonida o'qituvchilarning pedagogik maxoratini rivojlantirishiga oid bir qancha omillarni ya'ni, o'qituvchining pedagogik texnikasi, innovatsion faoliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish qobiliyati, notiqligi, aktyorlik mahorati va ulardan amalda foydalana olish ko'nikmalarini chuqurroq egallashlari maqsadga muvofiqdir[1].

Ta'lim mazmuni va sifatini oshirishga qaratilgan e'tibor kuchaygan bir paytda, o'qituvchilarning pedagogik texnikasini oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni belgilash taqazo etiladi:

1. pedagogik texnikasini oshirishga qaratilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish;
2. mashg'ulotlarda o'qituvchilarga pedagogik texnikasini va pedagogik mahoratning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirish yo'llarini ochib berish;
3. o'qituvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning pedagogik malakalarini rivojlantirish;
4. o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga doir turli sohada bilimlar berish va malaka va kunikmalarni egallashlariga erishish;
5. o'qituvchi faoliyatida sahna pedagogikasining tutgan o'rnini, aktyorlik faoliyatini va xar xil treninglar tashkil etish yo'llarini tushuntirish;
6. o'qituvchida o'z-o'zini rivojlantirish va o'z ustida ishlash malakasini shakllantirish.

Yuqorida bayon qilingan fikr va vazifalarga o'qituvchilarning amal qilishi, davriy ravishda malakasini oshirib borishi, mustaqil holda o'z metodik bilimlarini mustahkamlashi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishi va ulardan foydalanishi, o'z shaxsiy pedagogik tajribasini tahlil etishi va umumlashtirishi, uslubiy kengash va birlashmalar ishlarida ishtirok etishi, ochiq darslarga kirishi va ularni tahlil etishi, o'zaro pedagogik o'qishlar, konferensiyalar va seminarlarda ishtirok etishi hamda murabbiylik ishlarini a'lo darajada o'zlashtirishlari orqali pedagogik faoliyati sifatining yanada yaxshilanishiga, buning pirovardida o'qituvchining pedagogik maxoratini oshirishida dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan tashkil etiladigan har bir nazariy, amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan noan'anaviy dars usullarini ta'lim sifati va samaradorligini ko'tarishdagi natijalarini tahlil etgan holda uni takomillashtirib borishga e'tiborni qaratishi lozim.

Matematika fani darslarida nostandart testlarni yechish va teoremlarni isbotlashda o'quvchilar mustaqil ishlashini tashkil qilishga oid o'qituvchining innovatsion faoliyatiga quyidagi namunalarni keltirish mumkin.

Yangi mazmunini ifoda etuvchi matn ssenariysidan oldin takrorlash maqsadida bahs-munozara o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Bahs-munozara savollarining tarqatma materiallari kichik guruhlar (har bir parta)ga tarqatiladi, ya'ni nostandar testlar beriladi:

1-jadval

**Berilgan bahs-munozara savollarining to'g'ri javobi bilan juftlang**

| 1-guruhga savol.   | 2-guruhga savol.   |
|--|--|
| 1.Savol. $y = f(x)$ funksiyaning $x = a$ nuqtadagi chap limiti ta'rifini ayting.         | A. Javob. $\forall \varepsilon > 0, \exists \delta > 0, \forall x:  x - a  < \delta,  f(x) - A  < \varepsilon \stackrel{def}{\Leftrightarrow} \lim_{x \rightarrow a} f(x) = A.$  |
| 2-guruhga savol. $y = f(x)$ funksiyaning $x = a$ nuqtadagi o'ng limiti ta'rifini ayting. | B. Javob. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun $a$ dan kichik shunday $N$ son topilib, $(N; a)$ oraliqdan olingan $x$ larda tengsizlik $ f(x) - b  < \varepsilon$ bajarilsa, $b$ son $y = f(x)$ funksiyaning $a$ nuqtadagi chap limiti deyiladi va $f(a - 0) = \lim_{x \rightarrow a-0} f(x) = b$ kabi yoziladi. |

|   |  |
|---|--|
| <p><b>3-guruhga savol.</b> Savol. <math>y = f(x)</math> funksiyaning <math>x = a</math> nuqtadagi limiti ta'rifini ayting.</p>                                | <p>V. Javob. Agar ixtiyoriy <math>\varepsilon &gt; 0</math> son uchun <math>a</math> dan katta shunday <math>M</math> son topilib, <math>(a; M)</math> oraliqdan olingan barcha <math>x</math> larda tengsizlik <math> f(x) - b  &lt; \varepsilon</math> bajarilsa, <math>b</math> son <math>y = f(x)</math> funksiyaning <math>a</math> nuqtadagi o'ng limiti deyiladi va <math>f(a+0) = \lim_{x \rightarrow a+0} f(x) = b</math> kabi yoziladi.</p>  |
| <p><b>4-guruhga savol.</b> Savol. <math>y = f(x)</math> funksiyaning <math>x = a</math> nuqtadagi cheksiz chap limiti ta'rifini ayting.</p>                   | <p>G. Javob. <math>y = f(x)</math> funksiya <math>x = a</math> oraliqda aniqlangan. Agar <math>\forall \varepsilon &gt; 0</math> son uchun, shunday <math>M \in (T; +\infty)</math> son mavjud bo'lib, <math>\forall x \in (M; +\infty)</math> sonlar uchun <math> f(x) - A  &lt; \varepsilon</math> tengsizlik bajarilsa, <math>A</math> son <math>f(x)</math> funksiyaning <math>+\infty</math> dagi limiti deyiladi va <math>\lim_{x \rightarrow +\infty} f(x) = A</math> ko'rinishda belgilanadi.</p>  |
| <p><b>5-guruhga savol.</b> Savol. Funksiyaning cheksizlikdagi limitini ayting.</p>  | <p>D. Javob. Agar ixtiyoriy <math>E &gt; 0</math> (<math>E &lt; 0</math>) haqiqiy son uchun shunday <math>N, M</math> haqiqiy sonlari topilib, barcha <math>x \in (N; a) \cup (a; M)</math> lar uchun <math>f(x) &gt; E</math> (mos ravishda <math>f(x) &lt; E</math>) tengsizlik bajarilsa, <math>f(x)</math> funksiyaning <math>a</math> nuqtadagi limiti <math>f(x)</math> (mos ravishda <math>-\infty</math>) ga teng deyiladi va <math>\lim_{x \rightarrow a} f(x) = +\infty</math> (mos ravishda <math>\lim_{x \rightarrow a} f(x) = -\infty</math>) ko'rinishda belgilanadi.</p>  |
| <p><b>6-guruhga savol.</b> Savol. <math>y = f(x)</math> funksiyaning <math>x = a</math> nuqtadagi cheksiz limiti ta'rifini ayting.</p>                        | <p>Ye. Javob. Agar ixtiyoriy <math>E &lt; 0</math> (<math>E &gt; 0</math>) haqiqiy son uchun shunday <math>a &lt; M</math> haqiqiy son topilib, barcha <math>x \in (a; M)</math> lar uchun <math>f(x) &lt; E</math> (mos ravishda <math>f(x) &gt; E</math>) tengsizlik bajarilsa, <math>f(x)</math> funksiyaning <math>a</math> nuqtadagi o'ng limiti <math>-\infty</math> (mos ravishda <math>+\infty</math>) ga teng deyiladi va <math>\lim_{x \rightarrow a+0} f(x) = -\infty</math> (mos ravishda <math>\lim_{x \rightarrow a+0} f(x) = +\infty</math>) ko'rinishda belgilanadi.</p> |
| <p><b>7-guruhga savol.</b> Savol. <math>y = f(x)</math> funksiyaning <math>x = a</math> nuqtadagi cheksiz o'ng limiti ta'rifini ayting.</p>                   | <p>Yo. Javob. Agar funksiyaning <math>a</math> nuqtadagi bir tomonlama limitlarini biri <math>+\infty</math> ga ikkinchisi esa <math>-\infty</math> ga teng bo'lsa, <math>f(x)</math> funksiya <math>x = a</math> nuqtada aniqlanmas ishorali cheksiz limitga ega deyiladi.</p>  |
| <p><b>8-guruhga savol.</b> Savol. <math>y = f(x)</math> funksiyaning <math>x = a</math> nuqtadagi aniqlanmas ishorali cheksiz limiti deb nimaga aytiladi?</p> | <p>J. Javob. Agar ixtiyoriy <math>E &lt; 0</math> (<math>E &gt; 0</math>) haqiqiy son uchun shunday <math>N &lt; a</math> haqiqiy son topilib, barcha <math>x \in (N; a)</math> lar uchun <math>f(x) &lt; E</math> (mos ravishda <math>f(x) &gt; E</math>) tengsizlik bajarilsa, <math>f(x)</math> funksiyaning <math>a</math> nuqtadagi chap limiti <math>-\infty</math> (mos ravishda <math>+\infty</math>) ga teng deyiladi va <math>\lim_{x \rightarrow a-0} f(x) = -\infty</math> (mos ravishda <math>\lim_{x \rightarrow a-0} f(x) = +\infty</math>) ko'rinishda belgilanadi.</p>  |
| <p><b>9-guruhga savol.</b> Savol. <math>y = f(x)</math> funksiyaning <math>x = a</math> nuqtadagi limiti ta'rifini matematik simvollar orqali yozing.</p>     | <p>Z. Javob. Agar <math>f(a-0) = \lim_{x \rightarrow a-0} f(x) = f(a+0) = \lim_{x \rightarrow a+0} f(x) = b</math> ya'ni, <math>y = f(x)</math> funksiyaning <math>a</math> nuqtadagi chap va o'ng limitlari <math>b</math> songa teng bo'lsa <math>y = f(x)</math> funksiyaning <math>a</math> nuqtadagi limiti <math>b</math> songa teng deyiladi va <math>\lim_{x \rightarrow a} f(x) = b</math> kabi yoziladi.</p>   |

2-3 daqiqa tayyorlanib, so'ng javoblar eshutiladi. Javoblar eshutilgandan so'ng savollarning to'g'ri javoblari e'lon qilinadi:

**Berilgan bahs-munozara savollarining to'g'ri javobi bilan juftlangan javobi**

|  |  |  |  |  |  |   |   |  |
|--|--|--|--|--|--|---|---|--|
|  |  |  |  |  |  |   |   |  |
|  |  |  |  |  |  | e | o |  |

Kichik guruh o'quvchilari o'zlarini-o'zi baholaydi. Kichik guruh o'quvchilari o'zlarini-o'zi baholaydi. O'qituvchi tavsiyasi asosida o'quvchilarning darsda mustaqil topshiriqlarni bajaradi. o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ishlashini nazorat qiladi va baholaydi.

Teoremaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida mantiqiy isbotlash sxemasini keltiramiz:

**Teorema.**  $y = f(x)$  funksiya grafigi  $y = kx + b$  og'ma asimptotaga ega bo'lish uchun  $\lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{f(x)}{x} = k (k \neq 0)$ ,  $\lim_{x \rightarrow +\infty} (f(x) - kx) = b$  munosabatlarning o'rinli bo'lishi zarur va yetarli.

O'qituvchi ning faoliyati (kordinatorlik, yo'naltiruvchilik, hamkorlik, maslahatchilik)

Teorema sharti.  $y = f(x)$  funksiya grafigi  $y = kx + b$  og'ma asimptotaga ega bo'lishi.

Teorema shartidan: funksiya  $f(x) = kx + b + \alpha(x)$  ko'rinishda ifodalansa ( $\lim_{x \rightarrow \pm\infty} \alpha(x) = 0$ ), u holda  $y = kx + b$  to'g'ri chiziq funksiya grafigining og'ma asimptotasi. Tayanch tushunchalar. Cheksiz kichik miqdorlar.

Misol shartiga mos chizmani chizish va uni izohlash. Tayanch tushunchalar tizimi. 1. Funksiya grafigining og'ma asimptotasi ta'rifi. 2.  $x \rightarrow \infty$  intilganda cheksiz kichik miqdor ta'rifi. 3. Ifodalarni soddalashtirish.

O'quvchini ng dars jarayonidagi mustaqil faoliyati

Teoremaning mantiqiy isbotlashda tayanch tushunchalarning qo'llanishi. Isbot. Ta'rifga ko'ra  $f(x) = kx + b + \alpha(x) \Rightarrow f(x) - kx - b = \alpha(x)$  (\*) bo'lib,  $\lim_{x \rightarrow \pm\infty} \alpha(x) = 0$  bo'ladi. (\*) ning  $x$  ga bo'lib  $\frac{f(x)}{x} - k - \frac{b}{x} = \frac{\alpha(x)}{x}$  bundan  $x \rightarrow +\infty$  da limitga o'tsak,  $\lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{f(x)}{x} = k$  bo'ladi. (\*) tenglikdan  $b = f(x) - kx - \alpha(x)$  bundan  $x \rightarrow +\infty$  da limitga o'tsak,  $b = \lim_{x \rightarrow +\infty} (f(x) - kx)$  tenglik kelib chiqadi.

Teoremaning xulosasi. Demak,  $y = kx + b$  to'g'ri chiziq og'ma asimptota.

Teorema isbotlandi.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarga tayangan holda talabalarning faolligini oshirish mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur masalan, har bir o'quvchi o'zi tanlagan kasbi doirasida o'zi yashaydigan hududdagi mavjud muammolarni izlab topishi va u yoki bu muammolarning yechimiga qaratilgan takliflarni tavsiya etishga o'rgatish. Bu esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, manbalar bilan ishlashga o'rgatish bilan bir vaqtda mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda o'qituvchilarda tashabbuskorlik bildirilgan takliflarni tahliliy o'rgangan holda ularni ruhlantirish qabul qilingan qarorlarni maqsadga muvofiqligini asoslay bilishi va bajarishga yo'naltirilgan vazifalarni bajarishlari kerak bo'ladi.

**Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. -104 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
3. Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. T.: “Lider Press”, 2009. 104 bet.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari, T.: “O'qituvchi”, 2004.
5. Tojiyev M., Alimov A.Ya., Qo'chqarov D.U. Pedagogik texnologiya – ta'lim jarayoniga tatbiq'i: o'quv mashg'ulotlarining loyihasi, I qism., “TAFAKKUR”, -2010. 148 bet.
6. Yo'ldoshev J., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. – T. – 2008. 147 b.
7. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. - T.: O'qituvchi. - 1992.

**UDK: 378.018.43****MASOFAVIY O'QITISHNING ZAMONAVIY MODELLARI****A. Y. Ibraymov***Bosh prokuratura Akademiyasi*

**Annotatsiya.** Maqolada xalqaro tajribalar asosida masofaviy o'qitish modellarining klassifikatsiyasi, komponentlari, o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va uzluksiz ta'lim tizimi amaliyotida qo'llash masalalari atroflicha tahlil qilingan hamda har bir modelni o'zaro integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** masofaviy o'qitish, xalqaro tajribalar, modellar, klassifikatsiya, komponentlar, amaliyotda qo'llash.

**Современные модели дистанционного обучения**

**Аннотация.** В статье на основе международного опыта подвергнуты подробному анализу классификация, компоненты, специфические особенности, преимущества и вопросы практического применения моделей дистанционного обучения, освещены возможности повышения эффективности через взаимную интеграцию данных моделей.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, международный опыт, модели, классификация, компоненты, практическое применение.

**Modern distance learning models**

**Abstract.** Based on international experience, the article analyzes in detail the classification, components, specific features, advantages and issues of practical application of distance learning models, highlights the possibilities of increasing efficiency through the mutual integration of these models.

**Keywords:** distance learning, international experience, models, classification, components, practical application.

Hozirgi kunda masofaviy o'qitish modellaridan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inida foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim turlarining xususiyatlari turlicha bo'lib, ularda ta'lim-tarbiya, o'qitish jarayonini bir xil usul va yondashuvlarda amalga oshirib bo'lmazligi ma'lum. Masofaviy o'qitish jarayonida o'qitishning barcha komponentlari maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalari hamda eng asosiysi o'qitish modellari amaliyotda qo'llanilishi nazarda tutiladi. Shuning uchun ham masofaviy o'qitish modellarini aniqlashtirish va ulardan uzluksiz ta'lim tizimida ta'limning turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda fanlarni o'qitishda to'g'ri foydalana olish zarur. Bu fikrlarning naqadar to'g'riligini masofaviy o'qitish sohasi bo'yicha yetakchi mutaxassis Ye.S.Polat “Fanlar spetsifikasi o'qitish mazmuni va strukturasi belgilabgina qolmay, balki o'qitishning tanlangan modelida ham o'z aksini topadi” deb bildirgan [3; 14-b.] fikrlar bilan asoslash mumkin.

Xalqaro tajribalarda masofaviy o'qitish modellari bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7]. Mazkur tadqiqotlar jarayonida mutaxassislar tomonidan masofaviy o'qitish modellarining xususiyatlari, afzalliklari va boshqa modellardan farqlari va ularni integratsiyalash imkoniyatlari, amaliyotda qo'llash orqali erishiladigan samaradorlik darajalari va boshqa masalalari bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar berilgan. Jumladan, masofaviy o'qitish sohasida yetakchi mutaxassislardan biri I.Ibragimov

modellar bevosita o'qitishda qo'llaniladigan texnologik, pedagogik va tashkiliy komponentlarga bog'liqligini ta'kidlaydi [4].

Bunda **birinchi komponent** bevosita o'quv materiallarni yaratish, uzatish, tizimlashtirishda qo'llaniladigan axborot texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Ularni shartli ravishda ikkita toifaga bo'lish mumkin:

- interfaol (elektron darsliklar, o'rgatuvchi dasturlar, ma'lumotlar, bilimlar bazasi, web-saytlar, audio, video vositalar va boshqalar);

- nointerfaol (bosma materiallar, audio, video fayllar va boshqalar).

**Ikkinchi komponent** o'qitish jarayonida foydalaniladigan usul va uslublarni qamrab oladi. Masofaviy o'qitishda qo'llaniladigan uslublarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tyutor ishtirokisiz o'qitish metodikasi yoki mustaqil o'qish (o'qitishda tyutor faoliyatini minimallashtirish yoki o'quv resurslaridan foydalanib o'qitish metodikasi);

- individuallashtirilgan o'qitish va o'qish metodikasi (yakka ta'lim usulida o'qitish: tyutor - ta'lim oluvchi yoki ta'lim oluvchi - ta'lim oluvchi);

- tyutor yoki ekspert yordamidan foydalanib o'qitish metodikasi (o'qitishda asosiy vazifani o'quv materiallarini yetkazib beruvchi axborot texnologiyalari orqali bajariladi);

- o'quv jarayonida ishtirok etuvchilarning faol hamkorligiga asoslangan o'qitish metodikasi (hamkorlikda o'qitish: tyutor - ta'lim oluvchilar va ta'lim oluvchilar - ta'lim oluvchilar).

**Uchinchi komponent** esa, ta'lim muassasasi tashkiliy tuzilmasining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Jumladan, universitetda tashkil etilgan masofaviy o'qitish bo'limlari, universitetlar konsorsiumi, ochiq universitetlar, virtual universitetlar va boshqalar.

Mazkur komponentlardan ko'rish mumkinki, masofaviy o'qitishda modellar turlicha bo'lib, ta'lim jarayonida turli maqsadlarga erishish uchun foydalanish mumkin. Shunday bo'lsa ham masofaviy o'qitish tizimiga oid modellarni amalda mavjud bo'lgan tajribalar asosida quyidagicha batafsil ko'rib chiqish mumkin. O'qitish modeli haqida fikr yuritilganida dastlab an'anaviy o'qitish modeliga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir [2].

**An'anaviy model** o'qitishning kunduzgi mashg'ulotlarga qatnab o'qiladigan sinf-dars tizimini nazarda tutadi. Ushbu an'anaviy model, ya'ni Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan sinf-dars shaklining ahamiyati hozirgi kunda pasayib borayotganligi sezilmoqda. Chunki sinf-dars shaklining o'quv jarayoni qat'iy o'rnatilgan dars jadval, nazorat, davomat asosida olib borilishi, bu o'qitishni individuallashtirish, ijodiy potensialni kuchaytirish, ta'lim oluvchilarning shaxsiy qiziqish va individual xususiyatlarini amalga oshirishga o'zgarish qiladi.

**Masofaviy model** tyutor bilan ta'lim oluvchilar orasidagi munosabatlar masofadan turib amalga oshiriladigan va o'quv jarayoniga xos bo'lgan internet texnologiyalarining spetsifik vositalari yoki interfaollikni ko'zda tutadigan boshqa vositalar bilan amalga oshiriladigan barcha komponentlar maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalarini o'zida aks ettiradigan ta'lim shakli hisoblanadi. Masofaviy o'qitish asoslanadigan texnologiyalar turli bosqichlardan o'tib kelmoqda, jumladan, telefon, faks, oddiy pochta, televideniye va boshqalardan foydalaniladi. Hozirgi kunda masofaviy ta'lim modeli ko'proq internet-texnologiyalarga asoslanadi.

**Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOS)** masofaviy ta'lim modelining boshqa ko'rinishi bo'lib, ularni MOOS – Massive open online courses deb nomlanadi. Bu jahon ta'lim tizimidagi ommalashgan tendensiyalardan biri hisoblanadi.

Agar elektron o'qitishda ta'lim oluvchi mustaqil ravishda, ya'ni tyutorning ishtirokisiz materialni o'zlashtirishga qodir bo'ladigan elektron axborot-ta'lim muhiti mavjud bo'lishi jiddiy shart hisoblanishidan kelib chiqadigan bo'lsak, shunday ta'lim aynan ommaviy ochiq onlayn kurslarni o'zlashtirishga misol bo'ladi.

MOOSning dastlabki maqsadi ta'limni ochiq qilish, turli mamlakatlardan bo'lgan ko'p sonli ta'lim oluvchilarning bepul oliy ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratishdan iborat. MOOSni universitetlarning an'anaviy onlayn kurslaridan quyidagi ikkita asosiy belgilari ajratib turadi:

- 1) ochiqlik – istalgan kishi onlayn kursning ishtirokchisi bo'lishi mumkin;

- 2) masshtab – kursda cheklanmagan sondagi odamlar ishtirok etishi mumkin.

MOOS istalgan fanni va sohani qulay vaqtda va ta'lim oluvchi uchun mos jadallikda o'rganish imkonini beradi. Bu modelda muayyan ta'lim oluvchi amalda tyutor bilan yuzma-yuz aloqada bo'lmaydi, ammo bu kamchilikni ta'lim oluvchilar jamoasi bilan elektron axborot-ta'lim muhitidagi muloqot to'ldiradi. Shuning uchun bu modeldan malaka oshirish, mustaqil ta'lim olish uchun foydalanish qulay.

MOOS shartli ravishda ikkita sinfga ajraladi: sOOOK (konnektivistik kurslar) va xOOOK (ko'rinishidan, "X" avlod bilan tug'ilgan kurslar) [1].

sO'OK boshqa yo'nalishga ega. Masalan, ta'lim oluvchilar (tyutor emas) ta'lim maqsadlarini qo'yadilar, individual o'quv yo'nalishini belgilaydilar. Ularning birgalikdagi faoliyati, albatta, yangi ta'lim loyihasini yaratish bilan davom etadi. Bunday loyiha, ehtimol, tyutorga ham noma'lum bo'lishi mumkin.

xO'OK kunduzgi ta'lim faoliyatidan Internet muhitidagi ayrim xususiyatlari bilan nusxa ko'chiradi (imitatsiya qiladi). Masalan, xO'OK mashg'ulotlarining asosiy turlari bu – ma'ruzalar, seminarlar, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar va boshqalar. Dasturlar kursning muallifi tomonidan tuziladi, uning o'zi ta'lim maqsadlari (natijalari)ni belgilaydi. Umuman olganda, bu an'anaviy kunduzgi ta'limga o'xshash bo'ladi.

Keyingi vaqtlari masofaviy bilan an'anaviy o'qitish usullarini integratsiya qilish orqali o'qitish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu o'z navbatida ilm-fanda aralash o'qitish modeli sifatida yuzaga kelmoqda.

**Aralash model** yuqorida aytib o'tilgan ikkita model o'rtasidagi ma'lum ma'nodagi o'zaro kelishuvga o'xshaydi. Uning mohiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchilar birlamchi bilim va ko'nikmalarni elektron kurslarda mustaqil oladi, auditoriya mashg'ulotlarida ular qo'shimcha, yanada chuqurroq bilimlar olish hamda olingan bilimlarini tyutor rahbarligida qo'llashga o'rganish imkoniga ega bo'ladilar. Ushbu modelni qo'llash tyutor tomonidan ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganishlari uchun materiallarni jiddiy tayyorlash, nazorat tizimini batafsil o'ylab chiqish, auditoriyadagi va tarmoqdagi o'zaro faoliyatni samarali qo'shib olib borish va boshqalarni nazarda tutadi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida ta'kidlangan an'anaviy, masofaviy, aralash va ochiq shaklda o'quv jarayonini tashkil etishga oid modellarni ta'lim tizimida qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida juda keng foydalanish mumkin va ulardan foydalanishda albatta an'anaviy, masofaviy, aralash o'qitishlarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xalqaro tajribalarda umumiy ravishda yuqorida ta'kidlangan modellar va boshqa yondashuvlar asosida amalga oshiriladigan masofaviy o'qitishning quyidagi turli xil modellarini ko'rish mumkin [1, 3, 6].

**Birlamchi.** Bu modelda o'quv jarayoni asosan masofaviy o'qitish sharoitida tashkil etiladi va kunduzgi shaklda o'qitish jarayonini tashkil etish nazarda tutilmaydi. Bu jarayonni amalga oshirishda tegishli yo'nalishlar bo'yicha tyutorlar va ta'lim oluvchilarning o'zaro aloqalari o'rnatiladi.

**Ikkilamchi.** Bu modelda o'quv jarayonini kunduzgi ta'limda tashkil etilishi, shuningdek, aralash shaklda, ya'ni bir qismi kunduzgi yana bir qismi masofaviy shaklda tashkil etilishi nazarda tutiladi. Bunda o'quv dasturlari va o'zlashtirilgan bilimlarini baholash, monitoring qilish usullari bir xillikda amalga oshiriladi.

**Konsorsium.** Konsorsiumda ikki ta'lim muassasasi birgalikda, hamkorlikda ish olib boradi, bunda kurs o'quv-metodik materiallarini ishlab chiqish va masofaviy o'qitish jarayonidagi vazifalarni o'zaro bo'lib olgan holda amalga oshiriladi.

**Franchayzing.** Bunda ikkita ta'lim muassasasi o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv materiallarni bir-biri bilan almashishi nazarda tutiladi. Bunda masofaviy o'qitish bo'yicha tajribasi mavjud ta'lim muassasalari boshqa tajribasi kam bo'lgan ta'lim muassasalariga kurs o'quv materiallarini taqdim etishi mumkin.

**Validatsiya.** Bu modelda ta'lim muassasalari masofaviy o'qitishni tashkil etish bo'yicha ishlarni teng bo'lishib olish bo'yicha kelishuvlarni amalga oshiradi. Masalan, qaysidir ta'lim muassasa o'quv kurslarini ishlab chiqsa, qaysidiri hujjatlarini ishlab chiqish va boshqalar.

**Uzoqlashgan auditoriya.** Bu modelda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan, televizor ko'rsatuvlardan keng foydalanish nazarda tutiladi. Istalgan ta'lim muassasasida tashkil etilgan kurs sinxron shaklda videokonferensiya, vebinar, televizion ko'rsatuvlar orqali uzoqda joylashgan auditoriyalarga mashg'ulotlar olib boriladi. Bunda ta'lim oluvchilar kunduzgi o'qitish jarayonida qatnashishi nazarda tutilmaydi.

**Loyihalar.** Ushbu modeldan davlat miqyosidagi yirik loyihalarni joriy qilishda foydalaniladi. Bunda asosiy ish soha mutaxassislari tomonidan ilmiy-metodik markazlarda bajariladi. Bunda asosiy belgilangan ishlar amalga oshirilganidan so'ng loyiha ishlari to'xtatiladi.

Mazkur modellardan birlamchi va ikkilamchi sifatida masofaviy va aralash shakllarda o'qitish, ta'lim muassasalarining turlicha hamkorligi va yondashuvlari asosida konsorsium, franchayzing, validatsiya modellari asosida hamda turli xil loyihalarni ijodiy hamkorlikda amalga oshirish maqsadida foydalanish mumkin.

Soha mutaxassisi Ye.S.Polatning ilmiy tadqiqot ishlarida yuqoridagi ta'kidlangan modellardan farqli ravishda quyidagi 6 ta modelni keltirgan va ularning har birining mazmun-mohiyati ochib berilgan [3].

**Eksternatga o'xshashlikdagi ta'lim.** Ta'lim dasturlari davlat ta'lim standartlariga muvofiq va ta'lim muassasasida statsionar ta'lim olish imkoniga ega bo'lmagan shaxslar uchun yo'naltirilgan.

**Bitta oliy o'quv yurti negizidagi universitet ta'limi.** Bu modelni kunduzgi bo'limi bor bo'lgan oliy o'quv yurti tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bu model bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llanadigan masofaviy ta'lim, asosiy – kunduzgi ta'limga nisbatan qo'shimcha hisoblanadi.

**Bir nechta ta'lim muassasasi hamkorligiga asoslangan o'qish.** Bir kompaniya a'zosi bo'lgan tashkilotlar xodimlari birgalikda umumiy metodik va ta'limiy materiallardan foydalanib masofaviy ta'limning o'quv rejalarini yaratadilar. Kompaniya a'zolari sifatida faqat oliy o'quv yurtlari va ularning tarkibiy bo'linmalari emas, balki radio va telekompaniyalar, boshqa jamoatchilik, axborot va ta'lim tashkilotlari ham bo'lishi mumkin.

**Ixtisoslashtirilgan tashkilotlar negizidagi masofaviy o'qitish.** Bu model faqat masofaviy ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun maxsus ta'xis qilingan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

**Avtonom o'qitish tizimlari.** Bu model kompyuterli tashuvchilardagi materiallardan hamda radio va teledasturlardan, qo'shimcha bosma mahsulotlardan foydalanishga asoslanadi.

**Multimedia komplekslari qo'llaniladigan noformal o'qitish.** Bunda ta'lim jarayonlarini amalga oshirish uchun asosiy vosita mustaqil ta'limga yo'naltirilgan dasturlar hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarning malakali konsultatsiyalar olishlari uchun imkoniyatlarni ta'minlanadi.

Ushbu modellarning asosiy vazifalari ta'lim oluvchilarga mavjud o'quv dasturlar doirasida turli sohalar bo'yicha bilim berish, turli xil kurslar yakunida tegishli malaka darajasini egallaganlik to'g'risida hujjat olish, uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlarida turli ta'lim dasturlari asosida sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, xorijiy davlatlarda mavjud masofaviy o'qitishning quyidagi modellarini ko'rish mumkin [7].

**Konsultatsion.** Bu modelni tashkil qilish ta'lim oluvchilar muntazam bo'ladigan maxsus konsalting markazlarida ular bilan tyutorlar birgalikda faoliyat olib boradigan sharoitlarda amalga oshiriladi. Tyutorlarning vazifasiga masofaviy ma'ruzalarni tinglashni tashkil qilish hamda ta'lim oluvchilarga konsultatsiyalar berish, ularga tavsiyalar taqdim qilish va tushuntirishlar berish kiradi. Nazorat mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqlarning bajarilishini tekshirish orqali amalga oshiriladi.

**Yozishma.** Bu model ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida shaxsiy aloqa bo'lmasligini nazarda tutadi. O'quv materiallarini almashtirish, shuningdek, topshiriqlarni berish hamda konsultatsiya jarayoni pochta, fakslar, telefonlar yoki kompyuter tarmoqlari resurslari orqali amalga oshiriladi.

**Boshqariladigan ta'lim.** Bu modelda ta'limiy materiallar mustaqil o'rganiladi, o'zlashtirish darajasi esa test sinovlari tizimi orqali nazorat qilinadi.

Soha mutaxassisi A.A.Andreyev masofaviy o'qitish modellari sifatida korrespondentlik, keysli, vaxtali, teleishtirokchilik, televizion o'qitish, tarmoq orqali o'qitish modellarini keltirgan [1]. Bularning har birining mazmun-mohiyati quyidaiglardan iborat.

**Korrespondentlik.** Tyutorlar va ta'lim oluvchilar orasidagi o'zaro faoliyat to'lig'icha pochta orqali yozishmalar vositasida o'tadi va yuzma-yuz muloqot ham va video yoki audio aloqa vositalari yordamidagi muloqot ham bo'lmaydi.

**Keysli.** Metodik-dasturiy to'plamni o'z ichiga olgan, barcha bilimlar strukturalashtirilgan va o'zaro mantiqiy bog'langan holdagi ta'lim materiallari komplekslarini ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil o'zlashtirishga asoslanadi. Mashg'ulotlar va sessiyalar ("o'qib chiqishlar" ham) asosan ta'lim muassasasida va uning hududiy tarkibiy bo'linmalarida o'tkaziladi.

**Vaxtali.** Ta'lim jarayonini tashkil qilishning vaxtali metodi masofaviy o'qitish texnologiyalari bilan qo'shilgan holda ta'limning iste'molchiga tomon harakati va ta'lim xizmatlarini tarmoqli tashkil qilish tamoyillarini amalga oshiradi.

**Televizion o'qitish.** Ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun radiotranslyatsiya tarmoqlari va televideniyeining quvvatlari, imkoniyatlari va resurs potensialini qo'llashni nazarda tutadi.

**Teleishtirokchilik.** Foydalanuvchiga, masalan, maxsus qurilmalar (teleboshqariluvchi robotlar) yordamida o'zining jismoniy mavjud joyidan boshqa joyda bo'lishi va ta'sir o'tkazishi taassurotini olish imkoniyatini beradi.

**Tarmoq orqali o'qitish.** Ta'lim jarayoni faqat Internet imkoniyatlari yordamida amalga oshiriladi.

Mazkur modellar masofaviy o'qitish deyarli barcha jihatlarini qamrab oladi va masofaviy o'qitish kurslarini amaliyotga joriy etishda samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Shuningdek, keyingi vaqtlari mobil o'qitish juda keng tarqalmoqda va bo'yicha V.A.Kuklev bir qator ishlarni amalga oshirgan va uning ishlarida **mobil o'qitish** ta'lim oluvchilar masofaviy o'qitish

jarayonida o'zlarining shaxsiy mobil telefonlaridan foydalangan holda o'qishlari nazarda tutilishi ta'kidlangan [5].

Bizning fikrimizcha, mobil o'qitish modeldan ham hozirgi kunda kichik hajmdagi masofaviy kurslarni joriy etishda foydalanish mumkin. Shuni aniqlashtirish kerakki, albatta, masofaviy kurslar tegishli o'quv rejalar asosida tashkil etiladi. Mobil o'qitishda esa ta'limga oid ma'lum bir parchalarni o'qish bilan tegishli fanlar o'quv rejasi bilan barcha komponentlar (mazmun, shakl, metod, vosita, nazorat) asosida tashkil etiladigan kurslarni aralashtirib yubormaslik kerak.

Shuningdek, yuqorida tanlangan modellar asosida masofaviy o'qitish kurslarini sinxron va asinxron rejimida amalga oshirish mumkin.

**Sinxron o'qitish rejimi** — real vaqtda masofaviy o'qitish. Bunday o'qitishni tashkil etish vositalariga videokonferensiya, chat, vebinarlar asosida real vaqtda xabarlarini almashishlar kiradi. Sinxron o'qitishda tegishli modullar bo'yicha mas'ul tyutorlar real vaqt ichida videokonferensiya, chat, vebinar kabi vositalar yordamida masofaviy mashg'ulotlar olib borish, mashg'ulotlar jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi.

**Asinxron o'qitish rejimi** — har bir ta'lim oluvchining o'zi uchun qulay bo'lgan turli vaqtlarda mustaqil o'qish shaklida amalga oshiriladi. Bunday o'qitishda ta'lim muassasasidan uzoqda bo'lgan ta'lim oluvchilar mustaqil shaklda o'quv-metodik materiallar asosida ta'lim olishadi. Asinxron o'qitishda har bir ta'lim oluvchining o'zi uchun qulay bo'lgan turli vaqtlarda maxsus o'quv portalga joylashtirilgan o'quv-metodik materiallarini mustaqil o'zlashtiradi va o'zlashtirilgan bilimlari turli xil interfaol va amaliy topshiriqlar orqali nazorat qilinadi.

Shunday qilib, masofaviy o'qitishning modellari turlicha bo'lib, ulardan masofaviy o'qitishni tashkil etishning maqsad va vazifalariga ko'ra istalgan bir model yoki bir vaqtning o'zida bir nechta modeldan paralel ravishda foydalanish mumkin. Mazkur modellardan uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim turlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib samarali foydalanilganida masofaviy o'qitishga jalb qilingan ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga erishish mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Андрейев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях: дис. ... док. пед. наук. – М.: 1999. – 289 с.
2. Вайндорф-Сысойева, М.Ие. Методика дистанционного обучения: учеб. пособие для вузов // М.Ие.Вайндорф-Сысойева, Т.С.Грязнова, В.А.Шитова; под общ. Ред М.Ие.Вайндорф-Сысойевой. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 194 с. – Серия: образовательный процесс.
3. Дистанционное обучение. / Под ред. Ие.С.Полат.–М.:Владос,1998. -192 с.
4. Ибрагимов И.М. Информационные технологии и средства дистанционного обучения. – М: Академия, 2008. – 329 с.
5. Куклев В.А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании: Автореф. дис. ... док. пед. наук. - Ульяновск, УлГТУ, 2010. – 46 с.
6. Теория и практика дистанционного обучения / Под редакцией Ие.С.Полат. – М.: Академия, 2004. – 416 с.
7. Туинга Р. С. Ж., Сеинен И. Б. Ж. Тхе суппль анд деманд оф дистансе едусатион ин Руссия // Тхе Ворлд Банк Репорт. Н. Й., 1995.

УДК: 371.38

#### TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SFERIK TRIGONOMETRIYA FANINI FUZIONIZM G'OYASI ASOSIDA O'QITISH USULLARI

**М.Х.Егамов**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti*

**Annotatsiya.** Maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga “sferik trigonometriya” fanini fuzionizm g'oyasi asosida o'qitishda, tekislikdagi Yevklid geometriyasi va sferik trigonometriyada uchraydigan “analog” tushunchalaridan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan. Bunday “analog” tushunchalar tahlil qilinib, ular uch guruhga ajratilgan. Birinchi guruhda har ikkala fanda ham uchraydigan bir xil talqin qilinadigan tushunchalar; ikkinchi guruhda bir biridan farq qiladigan, aslida bir biriga yaqin ma'noga ega bo'lgan tushunchalar; uchinchi guruhda birida uchraydigan, ikkinchisida ishlatilmaydigan tushunchalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Fuzionizm g'oyasi “analog” tushunchalar, tekislik, sfera, uchburchak, sferik uchburchak, planimetriya, sferik geometriya.



### Методы обучения сферической тригонометрии в технических ВУЗах на основе идеи Фузионизма

**Аннотация.** В статье рассмотрено использование аналогических понятий в процессе преподавания предмета «Сферическая геометрия» студентам высших технических учебных заведений, используя понятия Евклидовой геометрии и сферической геометрии, основанные на идее фузионизма. Проанализированы аналогические понятия и они разделены на три группы. В первой группе одинаковые интерпретирующие понятия, которые встречаются в обоих предметах. Во второй группе понятия, которые отличаются от аналогичной другом предмете, но на самом деле имеют близкое значение. В третьей группе понятия, которые используется в одном предмете, а в другом не используются.

**Ключевые слова.** идея фузионизма, аналоговые понятия, плоскость, сфера, треугольник, сферический треугольник, планиметрия, сферическая геометрия.

### Methods of teaching spherical trigonometry in technical universities based on the idea of Fusionism

**Abstract.** The article discusses the use of analogous concepts in the process of teaching the subject "Spherical geometry" to students of higher technical educational institutions, using the concepts of Euclidean geometry and spherical geometry, based on the idea of fusionism. Analyzed similar concepts and they are divided into three groups. The first group contains the same interpretative concepts that are found in both subjects. In the second group, concepts that differ from those similar to another subject, but in fact have a similar meaning. In the third group, concepts that are used in one subject and are not used in another.

**Keywords.** The idea of fusionism, analog concepts, plane, sphere, triangle, spherical triangle, planimetry, spherical geometry.


Jahonda jamiyat sub'ektlarining hudud va tabiiy osmon jismlarini qo'shgan holdagi kosmik fazo bilan bog'liq geodeziya va kartografiya mahsulotiga bo'lgan ehtiyojlarini ortib borishi natijasida soha mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirish, o'quv jarayonida talabalarni mantiqiy, fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishga qaratilgan usullardan foydalanishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ilg'or texnika oliy ta'lim muassasalari tomonidan amaldagi o'quv reja va fan dasturlari mazmuni sferik trigonometriya fani uchun ajratilgan soatlar hisobiga kengaytirish orqali mutaxassislik fanlari va matematikani o'qitish o'rtasidagi bog'liqlik va aloqadorlikni ta'minlash, matematikaning tadbirlarini kengaytirish asosida takomillashtirilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini ishlab chiqarish bilan bog'lab o'qitishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda fanlarni o'rganishda talabalardan fundamental bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Xususan, mutaxassislik fanlarini yaxshi o'zlashtirish uchun talabalar puxta matematik bilimga ega bo'lishlari zarur. Matematikani maxsus bo'limlaridan biri sferik trigonometriyani o'rgatishda esa elementar geometriya va trigonometriyani bilish talab etiladi. Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarni aksariyati tekislikdagi geometriyadagi asosiy tushunchalar, hamda trigonometriyaning asosiy formulalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'ladi. Shundan kelib chiqib, talabalarining mutaxassislik fanlaridan o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishning omili sifatida sferik trigonometriya fanini fuzionizm g'oyasi asosida o'qitish takomillashtirilgan.

Oliy ta'limda sferik trigonometriya fanini o'qitishda fuzionizm g'oyasiga asoslanib, ya'ni uni tekislikdagi Yevklid geometriyasi va trigonometriyadan olingan bilimlarga asoslangan holda o'qitishda "analog" tushunchalar katta ahamiyatga ega.

Bizga ma'lumki o'qitishda "fuzionizm" g'oyasi asosida o'qitish deganda bir vaqtning o'zida ikkita fanni yoki bitta fanni ikkita bo'limini parallel ravishda o'qitish tushuniladi. Mualliflar tomonidan bu g'oya boshqacharoq talqinda, ya'ni oliy ta'limda "sferik trigonometriya" fanini o'qitish jarayonida uchraydigan atamalar, formulalar va teoremlar tekislikdagi geometriya va trigonometriyadagi xuddi shunday atamalar, formulalar va teoremlardan foydalanib o'qitish ma'nosida ishlatilgan. Bunda atamalar, formulalar va teoremlar "analog" tushunchalar degan umumiy nom bilan atalgan. Bunday "analog" tushunchalar tahlil qilinib, ular uchta guruhga ajratilgan. (1-rasmga qarang)

Birinchi guruhda planimetriya va sferik geometriyada aynan bir xil ma'noda ishlatiladigan tushunchalarni kiritish maqsadga muvofiq. Bunday tushunchalardan namunalar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadvalga qarang):



1-rasm. Planimetriya va sferik trigonometriya fanini analogiyasi

1-jadval

## Planimetriya va sferik geometriyada aynan bir xil ma'noda ishlatiladigan tushunchalar

| Yevklid planimetryasida  | Sferik geometriyada   |
|--|---|
| 1. Nuqta   | 1. Nuqta  |
| 2. Uchburchakda 3 ta tomon va 3 ta ichki burchaklar mavjud         | 2. Sferik uchburchakda 3 ta tomon va 3 ta ichki burchak mavjud.           |
| 3. Uchburchak burchaklari graduslarda yoki radianlarda o'lchanadi. | 3. Sferik uchburchak burchaklari graduslarda yoki radianlarda o'lchanadi. |

Ikkinchi guruhda bir xil nom bilan atalsada, ikki xil ma'noga ega bo'ladigan aslida bir biriga yaqin, bir birini to'ldiradigan tushunchalarni kiritish maqsadga muvofiq. Bunday tushunchalardan namunalar quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadvalga qarang):

2-jadval

## Planimetriya va sferik geometriyada ikki xil ma'noda ishlatiladigan tushunchalar

| Yevklid geometriyasida  | Sferik geometriyada  |
|---|--|
| 1. To'g'ri chiziq (chegaralanmagan).  | 1 Sferada to'g'ri chiziq-sferaning katta aylanasi, (uzunligi $2\pi r$ ga teng)   |
| 2. Kesma (to'g'ri chiziqni ikki nuqtasi orasidagi qismi).   | 2. Sferada kesma (katta aylana yoyining ikki nuqtasi orasidagi kichik qismi).  |
| 3. Uchburchak (uchta yopiq sinq chiziq bilan chegaralangan tekislik qismi)  | 3. Sferik uchburchak (sferaning uchta katta aylana yoylari bilan chegaralangan qismi).   |
| 4. Tekislikda faqat bitta burchagi to'g'ri bo'lgan to'g'ri burchakli, o'tkir va o'tmas burchakli uchburchaklar mavjud | 4. Sferik geometriyada kamida bitta burchagi to'g'ri bo'lgan to'g'ri burchakli kamida bitta tomoni $90^0$ li bo'lgan uchburchaklar mavjud. |

Uchinchi guruhda birida ishlatiladigan, ikkinchisiga ishlatilmaydigan tushuncha, qoida va formulalarni kiritish mumkin. Bunday tushunchalardan namunalar quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadvalga qarang):

3-jadval

## Planimetriya va sferik geometriyada birida ishlatiladigan, ikkinchisiga ishlatilmaydigan tushunchalar

| Yevklid geometriyasida                          | Sferik geometriyada                              |
|---|--|
| 1. Nur  | 1. Bunday tushuncha mavjud emas.                 |
| 2. Tekislikdagi trigonometriyadagi formulalarda | 2. Sferik trigonometriyada formulalarni yozishda |

|   |  |
|---|--|
| ularning soni kamligi uchun formulalardagi hadlarni aylana bo'ylab almashtirish usulidan foydalanish shart emas.                                  | (ularning soni ko'pligi sababli), ko'p hollarda hadlarni aylana bo'ylab almashtirish usulidan foydalaniladi. Ya'ni<br>$a \rightarrow b, b \rightarrow c, c \rightarrow a; A \rightarrow B, B \rightarrow C, C \rightarrow A$<br>almashtirishlar amalga oshiriladi. |
| 3. Parallellik aksiomasi To'g'ri chiziqda yotmaydigan nuqtadan berilgan to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan yagona to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin. | 3. Sferada parallellik aksiomasi mavjud emas. Chunki sferada cheksiz ko'p juft nuqtalarni ko'rsatish mumkin, ulardan ko'plab to'g'ri chiziq o'tadi.  |

«Geodeziya kartografiya va kadastr» ta'lim yo'nalishi ta'lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qo'yildi. Shundan kelib chiqib, geodeziya kartografiya va kadastr ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil oladigan talabalarda o'qitiladigan sferik trigonometriya fanini o'qitish jarayonida ularning mantiqiy, abstrakt fikrlash, matematik va fazoviy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishni, ularni fikr-mulohazalarini, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga hamda geodezik masalalarni nazariy va amaliy yecha olishga, yetarli matematik bilimlarni egallash va uni qo'llashga va tahlil qilishga o'rgatishni ko'zda tutildi. Natijada, sferik trigonometriya fani bo'yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko'nikma, malakalari va tasavvurini rivojlantirishda sferik trigonometriya fanining o'rni va ahamiyati ko'rsatib berilgan.

#### Adabiyotlar

1. Aliqulov T.A., Egamov M.X. Sferik trigonometriya. O'quv qo'llanma. Voris nashriyoti., 2019 y. 140 b.
2. Aliqulov T.A., Egamov M.X. Ta'lim uzluksizligini ta'minlashda "analog" tushunchalaridan foydalanish. Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta'lim: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar to'plami. Chirchiq. 2019 y. 69-70 betlar.
3. Volinskiy B.A. Sfericheskaya trigonometriya. Moskva, 1977.
4. Ventsel M.K. Sfericheskaya trigonometriya. Moskva, 1948.
5. Egamov M.X. Sferik trigonometriya fanini loyihalab o'qitish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. – Qarshi, 2018 y. – 160 b.
6. Egamov M.X. Texnika oliy ta'lim muassasalarida sferik trigonometriya fanini o'qitish metodikasi.: Ped.fan.fals.d-ri. ... dis. – Samarqand .CamDU. 2020. – 144 b.

UDK: 78:371.3

### BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

G.M.Davronova

Samarqand davlat universiteti  
shux-sam@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishda o'ziga xos o'qitish texnologiyalarining ilmiy-nazariy jihatlarini yoritilgan. Ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda zamonaviy o'qitish texnologiyalarining ahamiyati, afzalliklari misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijod, ijodkorlik, ijodkorlik qobiliyati, ijodkorlik faoliyati, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, ta'lim texnologiyasi, pedagogik maxorat.

#### Формирование творческих способностей будущих учителей музыки как педагогическая проблема

**Аннотация:** В статье рассматриваются научные и теоретические аспекты специфических технологий обучения в формировании творческих способностей будущих учителей музыки, анализируются значение и преимущества современных педагогических технологий в формировании творчества на основе примеров.

**Ключевые слова:** творчество, творческие способности, технология совместного обучения, технология образования, педагогическое мастерство.

**The formation of creative abilities of future music teachers as a pedagogical problem**

**Abstract.** The article discusses the scientific and theoretical aspects of specific teaching technologies in the formation of creative abilities of future music teachers; analyzes the importance and advantages of modern pedagogical technologies in the formation of creativity based on examples.

**Keywords:** creation, creative abilities, co-educational technology, educational technology, pedagogical skills.

Rivojlanib borayotgan davlatimizning yanada rivojlanib, taraqqiy topishi, ta'lim-tarbiya jarayoni, yuqori intellektual salohiyatga va keng dunyoqarashga ega kadrlar tayyorlash, ta'limdagi muammolarini samarali usulda hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkor shaxslarni tarbiyalash bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda, muvafaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, ta'lim-tarbiyada ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish dolzarb masalalardandir.

Jamiyatimizning ma'naviy yuksalib borishi, bugungi avlodning o'qimishli, bilimdon, badiiy estetik jihatdan shakllangan insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Bu o'rinda inson ma'naviyatini va ruhiyatini rivojlantiruvchi musiqa fanining o'rni benihoya kattadir.

Musiqiy ma'rifat, tinglovchilar auditoriyasini, sanat, jahon musiqa madaniyatining durdonalari va yutuqlari bilan tanishtiradi [1. 10 b].

Biroq, bugungi kunda ayrim musiqa fani o'qituvchilarining pedagogik-psixologik qobiliyatlar, ayniqsa, ijodiy qobiliyatlar yetarli darajada rivojlanmaganligi pedagogik muammo sifatida qolmoqda.

Dars, o'quvchi-talabalarining tarbiyalashning uzluksiz jarayonidagi muayyan bir bosqich hisoblanadi. O'z navbatida ularni tarbiyaviy vazifalari musiqa o'quv ishini tashkil etishga va uning metodikasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Masalan: talabalarda bilim olish faoliyatini shakllantirish, darsda ijrochilik maxoratini oshiruvchi topshiriqlarini, ijodkorlikka yo'naltiruvchi vositalarni mustaqil ravishda ishlashning har - xil turlariga ko'proq e'tibor berilishini taqozo etadi. Musiqa darsining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, darsda musiqa ta'limi vazifalaridan tashqari, badiiy ijodkorlik vazifalari ham qo'yiladi. Ijodkorlik-o'quvchi-talabalarining xotirasini faollashtiradi, fikrlashni, kuzatuvchanlikni, maqsadga intilishni rivojlantiradi [2. 43 b].

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini yangilangan sharoitlarda faoliyat ko'rsatish uchun tayyorlash bo'yicha turli xil tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo, bu sohada hali muammolar mavjud. Birinchidan:

- Oliy o'quv yurtlarida musiqa o'qituvchilarini tayyorlaydigan ta'lim yo'nalishlarini bitirayotgan yosh mutaxassislarining kasbiy mahoratlari darajalari bilan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va qo'shimcha ta'lim muassasalaridagi (musiqa va san'at maktablaridagi va ta'lim muassasalaridagi) musiqa ta'lim-tarbiyasi jarayonining mos tushmayotganligi;

- musiqa san'atida professional ijrochi, ijodkor xodimlarini tayyorlovchi musiqa ta'limi bilan, musiqa yo'nalishlarida pedagog tayyorlaydigan musiqa ta'limi o'qituvchi - pedagoglarining pedagogik va kasbiy mahoratlari o'rtasida;

- musiqa san'atining turli yo'nalishlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bilan musiqa ta'limi va tarbiyasi pedagogikasi, o'qitish metodikasi o'rtasidagi munosabatlar;

- musiqa san'ati asarlarini ijro etish mahorati bilan ularni yoshlarga o'rgatish, o'qitishni ta'minlaydigan pedagogik, metodik mahoratlarni, shakllar, majmualar o'rtasida;

- musiqa asarlarini ijro etish va ularni o'rgatish, o'qitishning an'anaviy uslublari bilan, zamon talablariga mos holda yangidan kirib kelayotgan innovasion o'qitish, o'rgatish uslublari, metodikalari, texnologiyalari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish, musiqa ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifalaridir.

Yuqoridagi muammolarning mavjudligidan va oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning takomillashtirish to'g'risidagi islohotlar dolzarbligidan kelib chiqib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarda ta'limdagi har qanday muammoli vaziyatlarni aql-idrok bilan yechishga qodir, iqtidorli va ijodiy qobiliyatiga ega bo'lgan pedagoglarni shakllantirish juda muhim hisoblanadi.

Ijodkorlik – turli faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi.

Ijodkorlik qobiliyati - sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda ta'lim

samaradorligi, o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq.

Musiqqa ta'lim-tarbiyasini yuqori saviyada tashkil etishda o'qituvchining ijodiy qobiyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Musiqqa darslarining spesifik xususiyatlarining 4- bandida "Musiqqa bolaga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar ug'otadi. Yaxshi, mazmunli qiziqarli musiqqa darslaridan bolalar badiiy va ma'naviy ozuqa oladilar. Musiqqa darsi o'zining faol psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. [3. 28-b]

Bugungi kunda bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishda o'ziga xos o'qitish texnologiyalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, uning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun:

- bo'lajak musiqqa o'qituvchilarini ijodiy qobiliyatini shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlarini takomillashtirish.

- bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining zamonaviy o'qitish texnologiyalari vositasida ijodiy qobiliyatini shakllantirish modelini ishlab chiqish.

- bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishning samaradorlik darajasini belgilash.

- bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish kabi vazifalar qo'yiladi.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchilari ta'lim-tarbiyani to'g'ri tashkil etishni bilishi lozim. Eng asosiysi, musiqqa fanining o'ziga xos xususiyati bo'lgan, faoliyat turlarini ijodkorlik bilan, faol, mustaqil, zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim sifatini yaxshilash ko'p jihatdan o'qituvchilar va talabalarning intellektual saviyasini, kognitiv va ijodiy salohiyatini oshirish muammosini hal qilish zarurati bilan bog'liq.

Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayoni, shart-sharoiti deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi.

Ular quyidagilardan iborat :

1. Bolajak musiqqa o'qituvchilarida ijodiy qobiliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari.

2. Ijodiy qobiliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi.

3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir amaliy mashg'ulotlar, sahna ko'rinishlari, ijodiy tadbirlar tashkil etish, muammoli vaziyatlar yaratish va ularni yechimini topish.

4. Bolajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishga pedagogik - texnologik yondashuv.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda ular egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarga quyidagi talablar qo'yiladi.

-dastur materiallarni, berilgan topshiriqlarni, qay darajada o'zlashtirganligi ;

-mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o'zlashtirganligi;

-tanlagan mavzu va ajratilgan topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;

-o'rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi ;

-topshiriqlarni bajarishda o'quv qurollari va texnika vositalari, axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi ;

- o'z qobiliyatini erkin namoyon etishi va uni rivojlantira olishi ;

-mavzu bo'yicha topshiriqlarni loyihalash, maqsadlarni qo'ya olishi, rejalar tuzishi, dars ishlanmalar tayyorlash, kutiladigan natijaga erishish va natijalarni tahlil qilish va baholay olishi;

Yuqoridagi talablarni amalga oshirishda, ta'lim texnologiyalari vositasida muammoga doir ta'limni maqsadga muvofiq tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olish lozim bo'ladi.

Kuzatishlar natijasida ta'kidlash lozimki, darsda samarali pedagogik texnologiyalar, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarni qo'llash, o'qish-o'rganish jarayonini faollashtirishga yo'llab, bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining didaktik mohiyati, ta'lim va uni tashkil etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari- komandada o'qitish, kichik guruhlarda o'qitish, hamkorlik shakllari, taqlid harakatlari, madad harakatlari, o'zini-o'zi boshqarish, interaktiv harakatlar.

Hamkorlikda o'qitish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr - qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabning tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam ko'rsatishga zamin tayyorlaydi.

Kuzatishlar natijasida shuni aytish mumkinki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyolashda, musiqa o'qitish metod va texnologiyalari fanini o'rganish jarayonida, guruhning amaliy daslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanish, talabalarda ijodkorlik faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

- ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- talabalarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- bo'lajak o'qituvchilarda ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishiladi.

Guruhlarda ishlash texnologiyasida, talabalar teng sonli ikki guruhga ajratiladi. Har ikkala guruhga bir xil topshiriq beriladi.

Masalan: Har ikkala guruhga 5-sinf musiqa darsligi bo'yicha "Sahnaviy musiqa asarlari" mavzusi bo'yicha topshiriq beriladi. Topshiriqda talabalar berilgan mavzu asosida, musiqa faniga qo'yilan talablar asosida taqdimot tayyorlashlari va shu taqdimot bo'yicha umumta'lim maktabi o'qituvchisi qiyofasini yaratib berishlari talab etiladi. Topshiriq bo'yicha tayyorlangan guruh, mavzuni qanchalik o'zlashtirganliklarini ko'rsatadilar.

Topshiriqni bajarilishiga qo'yilgan talablar.

1- guruh: topshiriqni bajaruvchi guruh bo'lib, berilgan mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlash va shu taqdimot bo'yicha dars o'tib berishlari lozim;

- Auditoriyada o'qituvchilik qiyofasini zamon talablari darajasida namoyon eta olishlari;

2- guruh: topshiriqni bajaruvchi guruhning faoliyatini tahlil qilish vazifalari belgilanadi.

Bunday topshiriq orqali:

- guruh a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir talaba mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

- Guruh a'zolarida topshiriqni bajarish jarayonida, o'z aro muomala, birdamlik tushunchalari, jamoani muvaffaqiyati uchun kurash tuyg'usi shakllanadi.

- Bo'lajak o'qituvchilarda axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan, talab qilingan darajda ishlash ko'nikma malakasiga ega bo'lishadi.

- Talabalarda kelgusi kasbiy faoliyati bo'yicha tasavvur hosil qilinadi.

- Ta'lim jarayonida olgan nazariy bilimlar, amaliyot bilan mustahkamlanadi

- Talabalarda pedagogik mahoratning barcha tarmoqlari shakllanib boradi.

- Bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish, o'z ustida ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi

- talabalarda mustaqil va tanqidiy tafakkuri rivojlanib boradi.

- Talabalarda bir - birini tahlil qilish orqali, bilimlari yanada sinovdan o'tkaziladi. Talaba, talabani tahlil qilib, baholash uchun, mavzuni chuqur o'zlashtirishi talab etiladi.

- Darsdan bo'sh vaqtlarda faol ijodiy faoliyatga yo'naltirishga sabab bo'ladi.

Darslarda bu kabi samarali ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, bo'lajak musiqa o'qituvchilarda bugungi ta'lim-tarbiya jarayonini san'at darajada tashkil etishga qodir ijodkor pedagoglarni shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni pedagoglarga yuqori talablarni qo'ymoqda. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ijodkor insonga talab ortib bormoqda.

Mutaxassislik fanlarini amaliy mashg'ulotlari jarayonida kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorlanuvchi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim. Zero, aynan shu jarayon davomida bo'lajak o'qituvchilar olgan bilim, ko'nikmalarini qo'llash va asoslash, shaxsiy motivatsiyani rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bunday kadrlar, kelgusi faoliyatlarida maktab o'quvchilarini o'qitish jarayonida ijodiy qobiliyatlaridan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unimli foydalanishga tayyor bo'lishadi.

#### Adabiyotlar

1. Xalilov F. N. Cholg'u ijrochiligi mahoratini oshirishning didaktik asoslari. O'quv qo'llanma T. 2002 yil. [1. 10 bet]
2. D. Karimova Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik. T. 2012 yil. [2. 43 bet]
3. G.Sharipova, G.Najmitdinov, Z.Xodjayeva "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari". Darslik. Toshkent, Turon-iqbol, 2018 yil. [3. 28 bet.]

4. Innovasion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – Toshkent: 2015. [ 4. 45- bet]

UDK: 796.34

## BADMINTON BO'YICHA SPORT TAYYORGARLIGI BOSQICHLARI VA UNING MAZMUNI

**B.B. Kipchakov, F.I. Ismoilova**  
*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada badminton bo'yicha tayyorgarlik bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari muhokama etilgan. Tayyorgarlik bosqichlari mazmuni va ularga qo'yiladigan talablar o'rganilgan va muallif nuqtai nazari bo'yicha talqin etilgan. Tayyorgarlik bosqichlarining yoshga bog'liq xususiyatlari va ularni tashkil etish bo'yicha fikrlar umumlashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** badminton, tayyorgarlik bosqichlari, yosh xususiyatlari, rejalashtirish.

### Этапы спортивные подготовки по бадминтон и его содержание

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются этапы подготовки к бадминтону и их особенности. Содержание подготовительных этапов и требования к ним изучены и интерпретированы с точки зрения автора. Возрастные особенности подготовительных этапов и идеи их организации обобщены.

**Ключевые слова:** бадминтон, этапы подготовки, возрастные характеристики, планирование.

### Badminton sports training stages and its content

**Abstract.** This article discusses the stages of preparation for badminton and their specific features. The content of the preparatory stages and the requirements for them have been studied and interpreted from the author's point of view. Age-specific features of the preparatory stages and ideas for their organization are summarized.

**Keywords:** badminton, preparation stages, age characteristics, planning.

Sport bilan shug'ullanish odatda sportchining yosh jihatdan o'sishidagi bir qator davrlarni o'z ichiga oladi [1]. Xususan, badminton ham bundan mustasno emas. Bunda mashqning mazmuni va tuzilishi, sportchining yosh xususiyatlari va sportda kamolotga erishish mantig'iga muvofiq ancha o'zgaradi. Sport bilan ko'p yillar davomida shug'ullanishning asosiy bosqichlarini quyidagicha keltirish mumkin:

- dastlabki sport tayyorgarligi bosqichi;
- boshlang'ich ixtisoslashish bosqichi;
- chuqur takomillashish bosqichi;
- sportda «uzoq yashash» bosqichi.

Mazkur bosqichlarning yosh jihatdan chegaralanishi sport turlarining xususiyatlariga [2], sportchilarning shaxsiy xususiyatlariga va boshqa shart-sharoitlarga qarab anchagina o'zgarishlarga uchraydi [3]. 1970-yillargacha va undan keyingi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda sportda yosh chegaralarining ma'lum davrlari aniqlangan edi. Ammo bugungi kunda bu chegaralar qaysidir ma'noda o'z ahamiyatini yo'qotdi. Sportda yosh chegaralarining parametrlari o'zgardi. (Masalan, O.Chusovitina 41 yoshida 7 karra Olimpiya o'yinlarida qatnashdi va rekord o'rnatdi).

Endi bosqichlar to'g'risida gapirish va ularni tushuntirish lozim.

**Dastlabki sport tayyorgarligi** bosqichi odatda kichik maktab yoshidan (ayrim hollarda undan ham erta) boshlanadi va sport ixtisosi predmetini tanlash bilan birga keyingi bosqichga o'tadi. O'z ma'nosidagi sport mashqi haqida bu yerda g'oyat shartli ravishda gapirish mumkin, chunki uning xarakterli belgilari hali deyarli ifoda etilmagan bo'ladi. Mashg'ulotlar har tomonlama - jismoniy ta'lim va tarbiya berishni uddalasa bo'ladigan vositalaridan nihoyatda keng foydalangan holda, asosan, umumiy tayyorgarlik tarzida tashkil etiladi. Boshlovchi sportchilar har xil sport mashqlarida o'z kuchini sinab, murabbiy rahbarligida o'z qobiliyatiga eng muvofiq keladigan bo'lajak ixtisosi predmetini aniqlaydi.

**Boshlang'ich ixtisoslashish bosqichida**, ayniqsa, sport ixtisoslashishi o'smirlilik yoshidan va undan ham ilgari boshlangan hollarda, umumiy tayyorgarlikdan keng foydalanish asosiy o'rinni

egallashda davom etadi. Maxsus bosqichdagi eng asosiy vazifa bo'lg'usi yutuqlarga ishonchli poydevor qo'yishdan, ya'ni organizmning har tomonlama hamohang (gormonik) rivojlanishini ta'min etishdan, uning funksional imkoniyatlari darajasini ko'tarishdan, xilma-xil harakat, malaka va mahoratlarini boyitishdan, sport mahoratining asoslarini egallashdan iborat. Mumkin qadar yuksak sport ko'rsatkichlarini mo'ljallash bu yerda cheklanibroq, uzoq istiqbol sifatida amalga oshirilishi kerak.

Tajribalar va kuzatishlar boshlang'ich ixtisoslashish «ko'pkurash» nomi bo'lishi ma'qul ekanini ko'rsatadi.

Masalan, badmintonda dastlab umumiy ixtisoslashuv yuzaga keladi. Boshqa sport turlarida, xususan, yengil atletikada, yengil atletikachilar esa uchkurashda, beshkurashda ixtisoslashadi va hokazo. Bu sport mashqining mazkur bosqichdagi umumiy yo'nalishga muvofiq keladi va shu bilan birga tor ixtisoslashtirish predmetini uzil-kesil belgilash vaqtidagi xatolarga qarshi qo'shimcha zamin (kafolat) yaratadi. Ba'zi hollarda sportchi asosiy ixtisoslashish predmetini uddalash osonroq mashqlar bajariladigan yaqinlashtiruv ixtisoslashishi orqali tanlaydi (masalan, bo'lajak stayer boshlang'ich ixtisoslashishda ancha qisqa masofalarga yuguradi). Bunday yo'l yosh xususiyatlari imkon beradigan darajaga yetishini kutmay, zarur mashq qilish muddati va musobaqa tajribasini orttirish imkonini beradi. Shuning uchun tanlangan sport turi mashg'ulotlarida yoshga bog'liq shartlar qancha yuqori bo'lsa, bu yo'ldan shuncha keng foydalaniladi.

Boshlang'ich ixtisoslashish yillarida mashq qilish jarayoni sport mashqining barcha xarakterli belgilarini faqat asta-sekin egallab boradi. Dastlab maxsus tayyorgarlikning salmog'i nisbatan katta bo'lmaydi. Mashq yuklamalarining hajmi va jadalligi (shiddat) kelajakdagiga qaraganda ancha kam sur'atda o'sib boradi. Bu, ayniqsa, bolalar va o'smirlar sport mashqiga taalluqlidir, chunki ularda organizmning tabiiy ravishda o'sib borishi tufayli plastik almashinish nihoyatda yuksalgan bo'lib, buning o'zi ham bola uchun katta funksional yuklama hisoblanadi.

Mazkur bosqichda sport mashqini davrlashning ham o'z yo'li bor. Dastlabki vaqtlarda mashq qilish davrida deyarli butunlay tayyorlov davri asosiy o'rinni oladi. Musobaqa davri va o'tish davri go'yo «qisqargan» ko'rinishda bo'ladi. Shu bilan birga mashg'ulot vositalari, uslublari va shakllarini, yuklamalar kattaligi va eng yaqin yo'nalishi keng ko'lamda almashlab turiladi. Ko'p hollarda (ayniqsa, bolalar va o'smirlar mashqida) mashq davrlarining uzunligi qisqartirilgan bo'lishi kerak. Ko'rib chiqilayotgan bosqich oxiriga yaqinlashib qolganda, mashq jarayoni tobora ko'proq va to'liq sportda yuksak natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan qonuniyatlarga muvofiq o'zgartiriladi.

Boshlang'ich ixtisoslashish bosqichi taxminan 2-3 yilni o'z ichiga oladi. Bunda, avvalo, sportchining shaxsiy xususiyatlariga va sport turining xususiyatiga qarab mazkur muddatlar ancha o'zgarib ketishi ham mumkin. Mazkur bosqich oxiriga kelib sportchi yagona sport tasnifining (klassifikatsiyasi) taxminan ikkinchi darajasiga (razryad) erishmog'i kerak.

**Chuqur takomillashtirish bosqichi.** Bu bosqichdagi yosh chegaralari sport turlarining ko'pchiligida, taxminan, 17-20 yoshdan 35-40 yoshgacha diapazon o'rtasida bo'ladi. Bu vaqt sport bilan eng faol shug'ullaniladigan, sport qobiliyati eng yuqori darajasi qayd etiladigan va sport mahoratining cho'qqilari egallanadigan vaqt hisoblanadi.

Sport mashqining barcha o'ziga xos qonuniyatlari mazkur bosqichda o'zining to'liq ifodasini topadi. Mashq jarayoni juda chuqur ixtisoslashtirilgan bo'ladi. Maxsus jismoniy, texnik, taktik va iroda tayyorgarligining salmog'i ancha ortadi. Biroq bu umumiy tayyorgarlik uchun ajratiladigan vaqtni kamaytirish hisobiga emas, balki maxsus tayyorgarlikka ajratilgan vaqtni ancha ko'paytirish hisobiga ortishi kerak. Mashq yuklamalarining jamlangan hajmi va shiddatligi avvalgiga nisbatan ancha yuqori sur'atlar bilan orta borib, mazkur bosqich doirasida o'zining absolyut maksimum darajasiga yetadi. Shuningdek, musobaqa amaliyoti va mashg'ulotning tuzilishi hamda mazmuniga ta'siri ham ancha ortadi.

Sportchi yutuqlar cho'qqisiga yaqinlashgani sari sport natijalarining qo'shimcha o'sish darajasi kamayib boradi, 6-8 yil ixtisoslashtirilgan mashq qilingandan keyin esa ko'rsatkichlarning vaqtincha pasayishi kuzatiladi.

Sport yutuqlari ko'p yillik dinamikasidagi bunday pasayishiga, aftidan, quyidagi ikki xil sabab bo'lsa kerak: a) biologik sabab - yosh ulg'aygan sari organizm adaptatsiya imkoniyatlarining tabiiy ravishda pasayishi; b) ko'p yillik mashqni tashkil etishdagi hozirgi zamon uslubiyati yetarli darajada mukammal emasligi.

Mashq jarayonini yanada ratsionallashtirish bunday pasayishni minimumga keltirishi yoxud umuman ancha katta yoshga yetgunga qadar surib yuborishi mumkin bo'lsa kerak. Bunda eng



muhimi, jumladan, mashq vositalarini, uslubiyatlarini va formalarini maqsadga muvofiq ravishda yangilab turish, shuningdek, umumiy va maxsus tayyogarlikning har xil nisbatlari hamda yuklamalar hajmi va shiddatligining xilma-xil darajalari bilan xarakterlanadigan sikllarni optimal tartibda almashtirib turishdir.

Yuqorida aytilganidek, mashq yuklamalarining dinamikasi, shu jumladan, ko'p yillik dinamikasi ham to'liqsimon xarakterga ega bo'lishi kerak [4]. Yuklamalarning ko'p yillik «to'liq»lari masshtabida birinchi bo'lib ularning hajmi, undan keyin esa intensivligi o'zining maksimum darajasiga yetadi. Mana shu umumiylik shunday bo'lsa ham mashq jarayoni, yuksak darajadagi umumiy ish qobiliyatini, shuningdek, maxsus fazilatlar va malakalarni mumkin qadar uzoq vaqt saqlab turish uchun odatda 35-40 yosh orasida o'zgaradi. Ilgari erishilganlar ham (ayniqsa, texnik va taktik tayyorgarlik bo'limi bo'yicha) ma'lum miqdorda takomillashtiriladi.

Mazkur bosqichda mashqning mazmuni o'zining xarakteri jihatidan yildan yilga umumiy jismoniy tayyorgarlikka yaqinlasha boradi. Musobaqalarning roli va o'rni kamayadi. Yuklamalarning o'sa borish tendensiyasi endi faqat uncha ko'p bo'lmagan vaqt doirasida saqlanadi va faqat mashqlarning ayrim guruhlarigagina taalluqli bo'ladi. Shunga muvofiq mashq jarayonining tuzilmasi ham qayta quriladi [5]. Davrlar o'rtasidagi chegaralar go'yo yo'qolib ketgandek bo'ladi.

Yillik va ko'p yillik rejalashtirish sport murrabiysi uchun dastur hisoblanadi. Uning yordamida murabbiy mashg'ulotlarning butun strukturasi nazorat qiladi va boshqarib turadi. Yillik va ko'p yillik rejalarni tuzishda ularni o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish yoki takomillashtirish imkoniyati bo'lishi kerak. Chunki hozirgi vaqtga kelib sport natijalarining keskin o'sishi va sportchilarni tayyorlashda turli vosita va uslublarning qo'llanishi sportchining nazarda tutilgan rejadan ilgarilab ketishiga, ayrim hollarda, aksincha, sportchining rejadagi vazifalarni to'la o'zlashtira olmasligi ham rejani o'zgartirishni talab qiladi. Bundan tashqari, sportchi uchun kutilmagan jarohatlanish, ijtimoiy hayotdagi ayrim masalalar ham rejaga o'zgartirish kiritishni taqozo qiladi.

Mashq tuzilmasining maromiga va boshqa hollariga (momentlari) ko'proq mehnat faoliyatining rejimi ta'sir ko'rsata boshlaydi. Sport amaliyotida yillik va ko'p yillik rejalashtirish alohida ahamiyatga ega. Rejalashtirishning ushbu turi o'zida sportchini tayyorlashning umumiy ko'rinishini jamlab oladi. Bu jarayon o'z tarkibiga sportchi tayyorgarlik tomonlarining barcha yo'lanishlari va bo'limlarini birlashtiradi va keyingi rejalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yillik va ko'p yillik rejalashtirishda rejada nazarda tutilgan va sportchi o'zlashtirishi kerak bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar, mahorat, ko'nikma va malaka kabi zaruriy ko'rsatkichlar kiritiladi.

Sport turining xususiyatlari, sportchi imkoniyatlarining darajasi, iqlim sharoiti, moddiy-texnik ta'minlanganlik yillik va ko'p yillik rejalashtirishda e'tiborga olinishi lozim. Shuningdek, musobaqa taqvim rejasi ham alohida ahamiyatga molikdir. Musobaqalarning o'tkazilish vaqti, joyi va shartlariga binoan mashg'ulotlarni rejalashtirish yanada aniq va samarali bo'ladi.

Sport mashqning ko'p yillik jarayonidagi asosiy bosqichlarning umumiy belgilari shulardan iborat bo'lib bugungacha bu ko'rsatkichlar o'z tuzilishini mazmun va shakl jihatdan o'zgartirgani yo'q. Bosqichlar va ularda erishiladigan natijalar bugungi zamonaviy sportda yangilanib bormoqda. Shunga qaramay, bosqichlardagi vazifalar mazmuni o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Sport mashg'ulotlarini tashkil qilish va rejalashtirish murakkab pedagogik jarayon sanaladi hamda murabbiydan yuqori darajadagi bilimni talab etadi. Bu to'g'ridagi fikrlarni yoritishdan avval sportchining yosh xususiyatlariga binoan davrlashtirish kerak bo'ladi.

Pedagogik, psixologik va biologik bilimlarni inobatga olib, bolalar va o'smirlar yosh nuqtai nazaridan quyidagicha davrlashtiriladi:

- **kichik maktab davri.** 1-4 sinflar (6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha);
- **o'rta maktab davri.** 5-9 sinflar (11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha);
- **o'smirlik davri.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning talabalari (15-16 yoshdan 17-18 yoshgacha).

Umuman olganda murabbiy o'z shogirdlari bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi kerak. Sport amaliyotida mashg'ulotlarning o'ziga xos jihatlari farqlanadi. Mazkur farqlar mashg'ulotlar vaqtining qisqaligi, yuklamalar hajmining kamligi, mashqlarni o'rgatish usullarining o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi.

Har qanday sport faoliyatining asosida sport mashqini rejalashtirish yotadi. Rejalashtirishsiz hech bir natijaga erishish yoki sport faoliyatini yo'lga qo'yish mumkin emas.

Sport mashg'ulotlarini rejalashtirish bu bo'lajak sport natijalarini oldindan kafolatlash demakdir (Kerimov.F., 2004). Shu sababli murabbiylar yoki mutaxassislar mazkur jarayonga alohida ahamiyat berishlari maqsadga muvofiq.


Sport mashg'ulotlarini rejalashtirishda e'tiborga olinadigan eng asosiy mezon bu sportchining yoshi, shaxsiy xususiyatlari va malakasi. Har uchala ko'rsatkichlar bir-biriga yaqin bo'lganda sportchilarni umumiy reja asosida shug'ullantirish mumkin. Shu holatda ham ularga individual tarzda mashqlar berishni unutmash kerak.

Sport mashg'ulotlarini rejalashtirishning quyidagi turlari farqlanadi [6]:

1. Ko'p yillik rejalashtirish.
2. Yillik rejalashtirish.
3. Oylik (mezotsikl) va haftalik (mikrotsikl) rejalashtirish.
4. Ma'lum bir mashg'ulot uchun reja.

Rejalashtirishning har bir ko'rinishi ma'lum darajadagi vazifalarni nazarda tutadi. Ular o'rtasida konkret chegara bor deyish noto'g'ri. Har bir jarayon o'ziga xoslik kasb etadi va umumiy birlikka ega. Sport mashg'ulotlarini rejalashtirishda, ayniqsa, dastlabki sport tayyorgarligi bosqichida asosiy e'tibor sportchilarni har tomonlama rivojlantirish masalalariga qaratilishi lozim. Chunki endigina mashg'ulotlarni boshlagan, harakat formalari yetarlicha shakllanmagan yosh sportchilar sport uchun zarur bo'ladigan jismoniy sifatlarsiz texnikani mukammal tarzda o'zlashtira olmaydilar. Aytish mumkinki, yosh sportchilar bilan ko'p yillik mashg'ulotlarni rejalashtirayotganda sportchining kelgusi sport faoliyati uchun zarur bo'ladigan keng ko'lamli asos hosil qilishga erishish kerak.

Bu o'rinda umumiy va maxsus tayyorgarlik nisbatlari yillar davomida o'zaro o'rin almashadi (1-rasm).



**1-rasm. Uzoq yillik tayyorgarlik uchun umumiy va maxsus tayyorgarlikning o'zgarish dinamikasi**

Sport mashg'ulotlarini rejalashtirishda bir qator jihatlarga alohida ahamiyat berish lozim. Uzoq muddatga mo'ljalangan reja bo'ladimi yoki qisqa muddatli rejalar - bularning bari ma'lum tartib-qoidalar asosida, muayyan qonuniyatlar negizida tuzilish kerak. Bunda yosh sportchining kelgusi sport faoliyati, salomatligi, ma'naviy va ruhiy tarbiyalanishi va boshqa shu kabi masalalar inobatga olinadi. Ayniqsa, yosh sportchilar mashg'ulotlarini rejalashtirish va olib borishda ularning salomatlik darajasini yuksaltirish, gormonik rivojlantirish, funksional imkoniyatlarini yanada oshirish masalasi murabbiyning diqqat markazida turishi tavsiya qilinadi.

Sport mashg'ulotlarini rejalashtirish jarayonida tuzilajak rejaga katta hajmdagi yuklamalarni kiritish, murakkab vazifalarni reja oldiga maqsad qilib qo'yish mashg'ulotlardagi muammolarni yuzaga keltiradi.

#### Adabiyotlar

1. Портных Ю.И. Спортивные и подвижные игры. – М., 2011. С. 41-42
2. Шукин В.М. Новые правила в бадминтоне и их влияние на модернизацию учебно-тренировочного процесса. - Н. Новгород: ННГАСУ, 2009. С. 120-121
3. Жбанков О.В. «Специальная и физическая подготовка в бадминтоне». - М.: Изд-во МГТУ им Н.Э. Баумана, 2011. С. 77-78
4. Рыбаков Д.П., Штильман М.И. Основы спортивного бадминтона. - М.: ФиС, 2010. С. 45-47
5. Андриевская М.В. Вспомогательный материал для начинающих тренеров и учителей физкультуры. - СПб, 2010. С. 127-128
6. Погадаев Г.И. Настольная книга учителя физической культуры. - М.: ФиС, 2008. С.88-89

UDK: 37/022

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI****O. I. Yadgarova***Samarqand davlat chet tillar instituti  
yadgarovaozoda514gmail.com*

*Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!  
(Sharq donishmandlari bisotidan)*

**Annotatsiya.** Ta’limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to’liq javob beradigan innovatsion-pedagogik texnologiyalarni joriy etilish bugungi kunda Respublikamiz ta’lim tizimi oldida turgan ulkan vazifalardan biridir. Mazkur maqolada bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning ayrim nazariy-metodik asoslari, innovatsiya va innovatsion faoliyat mazmunining tahlili, bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash yo’nalishlari, psixologik-pedagogik shart-sharoitlari bayon etilgan. Shuningdek, xorijiy tillarni o’qitishga doir AQSH ta’lim tizimida qo’llaniladigan innovatsion metodlar ilova qilingan.

**Kalit so‘zlar:** xorijiy til, bo’lajak ingliz tili o’qituvchilari, innovatsiya, innovatsion faoliyat, sugestopedia, jigsaw reading, socratic seminar, philosophical chair

**Теоретические и методологические аспекты организации инновационной работы учителей английского языка**

**Аннотация.** Внедрение инновационных педагогических технологий на всех уровнях образования, полностью соответствующих международным стандартам, является одной из основных задач стоящих перед системой образования страны. В данной статье описываются некоторые теоретические и методологические аспекты организации инновационной работы учителей английского языка, анализируется сущность инноваций и инновационной деятельности, описываются направления подготовки будущих учителей английского языка к инновациям и их психолого-педагогические условия. Также рассматриваются инновационные методы используемые в системе образования США для преподавания иностранных языков.

**Ключевые слова:** иностранный язык, будущие учителя английского языка, инновации, инновации, сугестопедия, jigsaw reading, socratic seminar, philosophical chair

**Theoretical and methodological aspects of the organization of innovative work of English teachers**

**Abstract.** The introduction of innovative pedagogical technologies at all educational levels that fully comply with international standards is one of the main tasks facing the country's education system. This article describes some theoretical and methodological aspects of the organization of innovative work of English teachers, analyzes the essence of innovation and innovation, describes the areas for preparing future English teachers for innovation and their psychological and pedagogical conditions. It also discusses innovative methods used in the US education system for teaching foreign languages.

**Keywords:** foreign language, future English teachers, innovation, innovation, sugestopedia, jigsaw reading, Socratic seminar, philosophical chair

Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga xorijiy tillarni o‘rgatish, jamiyat hayotining turli sohalari uchun zamon talablariga javob bera oladigan etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Chunki, xorijiy tilni mukammal bilish dunyoga chiqish, chet davlatlardagi voqea-hodisalardan, ilmu fan va texnologiyalar sohasida erishilayotgan yutuqlardan, innovatsion ta’lim metodlaridan xabardor bo’lish bilan birga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlarini, qo‘lga kiritilayotgan ijobiy natijalarni keng jahon ommasiga tanitish imkoniyatini beradi.

2020-yil 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi mazmunida ta’kidlanganidek: “...biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va **innovatsiya** bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” [1]. Xozirda xorijiy

tillarni o'rgatishga ixtisoslashtirilgan OTMda tahsil olayotgan iqtidorli talabalar xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishlari uchun o'quv mashg'ulotlarini o'tish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, bo'lajak chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsianomalari (CEFR)ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqilmoqda.

Shunga ko'ra, bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa – bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatini rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan xolda zamon talablariga hamohang ravishda ta'lim sifatini ko'tarish va kadrlar tayyorlashda raqabotbardosh etuk mutaxassislarini tayyorlash masalariga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 20-apreldagi 2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3245-sonli "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 1 noyabrdagi PQ-3365-sonli "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264-sonli «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi qaror va farmonlari yurtimizda ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarishda dasturil amal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Adabiyotlarda innovatsiya muammolari ko'p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o'rganilib kelindi. Ammo vaqt o'tishi bilan jamiyat hayoti faoliyatining hamma sohalarida innovatsion o'zgarishlar yuzaga kela boshladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining innovatsion faoliyati yoki innovatsion ta'lim tug'risida fikr yuritishdan oldin, "**innovatsiya**" tushunchasiga kengroq to'xtalib o'tsak.

Lug'aviy jihatdan "**Innovatsiya**" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovationas") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovationas" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar;

2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi"[2].

I.Shumpater va N.Kondratevlar «Innovatsiya»tushunchasining ilk va ulkan nazariyachilari hisoblansalar, K.Angelovskiy, V.A.Slastenin va V.I.Slobadchikovlar [3] o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar, deb tan olinadilar.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

**Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni echishga qaratilgan faoliyat «Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkrtyanining bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: – «Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: *xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o'qituvchining innovatsion faoliyati*. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi» [4].

Bu tushunchani M.Ochilov qo'yidagicha izohlaydi, «Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yoring mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni echishga qaratilgan faoliyatdir [5] ».

V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar ta'luqli [6]:

**Shaxsning ijodiy-motivatsiyaga yo'nalganligi.** Bu- qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;

**Kreativlik.** Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;

**Kasbiy faoliyatni baholash.** Bu-ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

**O'qituvchining individual qobiliyati.** Bu - ijodiy faoliyat sur'ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat'iyatlik, o'ziga ishonch; mas'uliyatlilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- Yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish;
- Yangicha harakat qila olishga o'rgatish.

**Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari innovatsion faoliyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlari:**

**1.O'quv-metodik majmualar:**

- Innovatsion faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan mazmundagi ishchi dasturlar;
- innovatsion faoliyat bo'yicha ilmiy va o'quv-metodik adabiyotlarning katalogi;
- nazorat vositalari (pedagogik vazifalar, krossvordlar, testlar, kontrol ishlar);
- innovatsion faoliyatni shakllantirish muammolari bo'yicha loyiha ishlari

**2. Ta'limning faol shakl va uslublari:**

- pedagogik texnologiyalar;
- loyihalar;
- interfaol uslublari;
- o'yinli texnologiyalar;
- pedagogik treninglar;
- muammoli tasvir elementlari qo'shilgan ma'ruzalar;
- pedagogik holatlarning tahlili;
- pedagogik mahorat konkurslari;

**3. Psixologik-pedagogik diagnostika**

- diagnostik metodikalar majmui (testlar, anketalar so'rovnomalari,);
- innovatsion faoliyat rivojlanish darajasining tizimli diagnostikasi va baholash;
- innovatsion faoliyatni o'z-o'zida rivojlantirishning dasturini tuzish;
- psixologik-pedagogik diagnostika asoslari bilan tanishish.

Bizning fikrimizcha o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni 3 bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo'llashdan oldingi davrdagi o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish.
2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.
3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo'lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

T.M.Davidenko har qanday pedagogik innovatsiyani egallash uchun uchta zaruri shart "**tushunish, refleksiya va shaxsning tayyorligi**" bo'lishi kerakligini ta'kidlagan.

Bugungi kunda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Ularda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda amalga oshadi [7]. YA'ni:

- 1-bosqich: tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi.
- 2-bosqich: mavjud tizimga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritadi.
- 3-bosqi: yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.
- 4-bosqich: pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi.

Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, ingliz tilini o'qitish jarayonini innovatsion omilsiz mutlaqo tashkil etib bo'lmaydi. Shu sababli xorijdagi samarali metodikalarni o'rganish va ular asosida o'qituvchining innovatsion-pedagogik faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, mamlakatimizda chet tillarni o'qitishda yangi sifat o'zgarishlarini amalga oshirish bosqichida talaba-yoshlarni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida mamlakat iqtisodiyotini o'stirishga maqsadli tayyorlash bugungi kunning asosiy talabidir. Quyida AQSH ta'lim tizimida keng foydalaniladigan xorijiy tillarni o'rgatishning innovatsion metodlari bilan tanishamiz.

AQSHda chet tillarini o'qitishning bir qator metodlari mavjud bo'lib ular hozirgi kunda o'qituvchilar tomonidan uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi [8]. Shunday metodlardan ayrimlari quyidagilar:

- Tarjima metodi (asosan o'lik tillarni o'rganishda qo'llaniladi, so'zlar va grammatik qoidalar yod olinadi).
- Og'zaki metod (o'qituvchi monologini qayta so'zlash va matn bo'yicha savollarga javob berish tizimiga asoslanadi)
- Psixologik metod (so'z va so'z bildirgan tushuncha o'rtasida assotsiatsiyalarni topishga asoslanadi.)
- To'g'ridan-to'g'ri o'rgatish metodi (chet tili, ona tiliga yoki biror boshqa tilga murojaat qilinmasdan, umuman tarjimadan foydalanmagan holda foydalaniladi)
- O'qish metodi (talaba o'rganilayotgan tilda qancha ko'p matn o'qisa, u mazkur tilning hususiyatlari, grammatik qoidalari, gap qolillarini shunchalik ko'p o'zlashtiradi va shu tariqa tushunish, gapirish, yozish ko'nikmalari ham rivojlanadi)

Shu bilan birga AQSHda boshqa bir qator malakatlarda bo'lgani kabi “**sugestopedia**” nomi bilan tanilgan innovatsion metodika keng rivoj topgan [9]. Ta'limni intensivlashtirish va gipnoz bilan bog'liq bo'lgan bu metod turlicha baholangan, tanqid ostiga ham olingan, olqishlangan ham. Biroq uning natijalari hayratlanarlidir. Suggestopedia asosida dars o'tadigan pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tadi. Bunda ta'lim oluvchilarni yangi tilni tezkorlik bilan o'rganishlari uchun maksimal qulay sharoit yaratiladi. Har bir o'quvchi o'zining g'ayrioddiy lingvistik qobiliyatlari borligiga ishonitiriladi, dars harakatda va o'yinlar yordamida o'tkaziladi, shuningdek materialni qabul qilishni engillashtirish maqsadida musiqiy ta'sir ko'rsatiladi, doimiy ravishda multimedia vositalaridan foydalaniladi va hokazo. Mazkur metod qo'llanilganda tilni o'rganish tezligi 40-50 barobar oshadi, chunki kuniga yod olinadigan so'zlar va jumlar soni odatiy metodikadagi raqamlardan ancha ko'p (qayd etilgan rekord bir kunda mingga yaqin so'z va ibora).

“**Jigsaw reading**” [10] bu metod talabalarda o'qish, so'zlashish va xulosa qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalaniladi. Ayniqsa qisqa hikoyalar, matnlar va maqolalar bilan ishlashda bu usul juda samaralidir. U quyidagicha amalga oshiriladi. Talabalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga hikoyaning birinchi qismi, ikkinchi guruhga hikoyaning ikkinchi qismi beriladi. Talabalar o'zlariga berilgan hikoyaning qismini o'qib yaxshilab eslab qolishlari kerak bo'ladi. So'ng har bir talabaga narigi guruhdan juftliklar tanlanadi. Har bir juftlik bir biriga o'qigan hikoyasini so'zlab beradi. Ish yakunida har bir juftlikda to'liq hikoya paydo bo'ladi. Talabalar hikoyani eslab qolishlari uchun ayrim qaydlarni amalga oshirishlari mumkin. O'yin so'ngida mavzuni mustahkamlash uchun savol-javob qo'llash ham mumkin. Matn ustida ishlashning bu turini boshqacha ko'rinishda ham tashkil qilish mumkin. Birinchi guruh talabalariga matn undagi so'z yoki jumlar o'chirilgan xolda beriladi. Ikkinchi guruh a'zolariga butunlay boshqa so'z va jumlar o'chirilgan xolda beriladi. Har ikki guruh a'zolari savol berish yo'li bilan o'z matnini to'ldirib olishi kerak.

“**Socratic seminar**” [11] ushbu metod mashhur faylasuf Suqrotning bexisob savollar berish yordamida ta'lim berish usuliga asoslangan. O'qituvchi talabalarga kerakli mavzu yoritilgan matn va tayyorlanish uchun vaqt beradi. O'qituvchi ketma ket savollar berish natijasida talabalarning mavzuni qay darajada tushunganligini bilib oladi.

“**Philosophical chair**” [12] metodi debatga o'xshaydi. Talabalarga asosiy mavzu va savollar beriladi. Ular bildirilgan fikrga qo'shilishlari, norozi bo'lishlari yoki betaraf qolishlari mumkin. Bu metod talabalarning bir birlari bilan jonli munozara o'tkazishga bir-birlaridan yangi narsalar o'rganishlariga asoslangan. Har bir talaba markazda joylashgan stulda o'tirib navbatma-navbat o'z fikrlarini bildiradi. Keyin baxs – munozara boshlanadi.

“**CALL**” (**Computer Assisted Language Learning**) [13] til ta'limiga ko'maklashuvchi kompyuter resurslari deb nomlangan yo'nalish, unda istalgan bosqich uchun multimedia dasturlari ishlab chiqiladi.

“**BYKI**” va “**Edmodo**” [14] onlayn o'qitish tizimlari- hozirgi vaqtda ommaviy tus olgan ijtimoiy tarmoqlar andozasi bo'yicha dasturlashtirilgan ta'limiy tizimlar. O'qituvchi o'quvchilari bilan masofadan muloqot qiladi. Til o'rganish jarayonini boshqaradi, loyihalashtiradi, turli testlar o'tkazadi. O'rganuvchilar ham o'zaro muloqot qila oladilar, vazifalarini bajaradilar. O'qituvchining shaxsiy kutubxonasidan ham foydalana oladilar.

“**Global Stimulation**” [15] dasturi- turli tillar bo'yicha keys stadilar majmuasi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan jahon miqyosida til ta'limida qo'llaniladigan ta'limiy resurslar va innovatsion metodlardir. Ushbu til metodlaridan Respublikamiz OTMlarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar**

1. <http://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-olij-mazhlisga-murozhaatnomasi>
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil. /4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169 bet.
3. Слободчиков В.И. Инновационное образования. //Ж. Школьные технологии. -2005. -№2. - 4-12 с
4. Мкрытичян Г.А. Параметры педагогической экспериментальной деятельности. // Ж.. Педагогика. - 2001. -№5. –45-50 с.
5. Ochilov M. Pedagogik texnologiyalar.-Toshkent: O'qituvchi, 2006.-91-bet.
6. Слостенин Виталий Александрович, Подымова Людмила Степановна Готовность педагога к инновационной деятельности // Сибирский педагогический журнал. 2007. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gotovnost-pedagoga-k-innovatsionnoy-deyatelnosti> (дата обращения: 4.02.2020).
7. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – Toshkent: 2015. – 208 bet.
8. Костюк Н. О., Халилов А. Ш., Шип И. В. Особенности преподавания иностранных языков в школах и университетах США: [http://www.rusnauka.com/2\\_ANR\\_2010/Pedagogica/5](http://www.rusnauka.com/2_ANR_2010/Pedagogica/5)
9. Lozanov G. Suggestopedia – desuggestive teaching. – Vienna, 2005. – P. 23
10. Aronson E. The Jigsaw Classroom. – California: Sage view Edition, 2008. – P. 197
11. Moeller M., Moeller V. Socratic Seminars and Literature Circles. – New York, 2001. – P. 208.
12. Matthew C. H. Philosophical Methodology: The Armchair or the Laboratory? – New York, 2013. – P. 480
13. Plonsky L., Ziegler N. The CALL–SLA interface: insights from a second-order synthesis // Language learning & technology. June 2016. – Vol. 20. – No. 2. – P. 17-37
14. <http://www.edmodo.com>; [www.byki.com](http://www.byki.com)
15. Glenn S. L. Global Simulation: a student-centered, task-based format for intermediate foreign language courses // Foreign language annals. Spring, 2004. Vol. 37, -No. 1. –P. 26-35.

**UDK:004.02****MALAKA OSHIRISH TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI****T.B.Kadirov***T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti*

**Annotatsiya.** Maqolada Respublikamizda ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni va masofaviy ta'limni joriy etish va uni rivojlantirish masalalari: joriy etishdagi muammolar va tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, elektron resurslar, vebinar, QR-kod, IP protokoli.

**Вопросы внедрения и развития цифровых технологий в образовательный процесс повышения квалификации**

**Аннотация.** В статье рассмотрены вопросы внедрения и развития цифровых технологий и дистанционного образования в систему образования Республики Узбекистан: проблемы внедрения и способы использования цифровых технологий в организации.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, цифровые технологии, Цифровая экономика, электронные ресурсы, вебинар, QR-код, протокол IP.

**Issues of introduction and development of digital technologies in the educational process of professional development**

**Abstract.** In the article, the issues of introduction and development of digital technologies and distance learning into the education system in the Republic: problems of introduction and methods of using digital technologies in organization are discussed.

**Keywords:** distance learning, digital technology, digital economy, electronic resources, webinar, QR-code, IP protocol.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishga zamonaviy talablar asosida o'quv dasturlarini, o'quv-metodik adabiyotlar majmualarini yangilash, o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan ishlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida 2020 yilni «Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb nomladilar. Demak, axborotlar hajmi jadal ortib borayotgan bugungi sharoitda ta'lim tizimida raqamli axborotlarni yaratish va ulardan samarali foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish hamda bu texnologiyalarni amalda tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lim tizimida o'qitish bilan bog'liq juda ko'plab muammolar mavjud. Bu muammolar o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, o'qitish shakli va yo'nalishini to'g'ri shakllantirish va tanlash hamda joriy etishda namayon bo'lmoqda [1,2].

Xususan, ta'limning asosiy muammolaridan biri uni to'g'ri va o'z vaqtida modernizatsiya qilishdir, ya'ni o'quv materiallarini tezkorlik bilan yangilash va bilim oluvchi (o'quvchi, talaba, tinglovchi) larga onson hamda qulay taqdim etish yo'llarini joriy qilishdir.

Qayd etilgan muammolarni hal etishda quyidagi:

✓ raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

✓ zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

✓ ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

✓ ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutbxonalarda QR-kod (Quick Response code, ya'ni tezkor javob kodi deb tarjima qilsak bo'ladi. Bu shifrlangan kod bo'lib, bu kodda siz istalgan qisqa ma'lumotlarni saqlashingiz mumkin) yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

✓ zamonaviy AKT asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish talab etilmoqda.

Bu murakkab masalalarni hal qilishning yo'llaridan biri sifatida masofaviy ta'lim tizimidan foydalanish, O'zbekistonda masofaviy ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari [3] manbada atroflicha o'rganilgan.

Qator ilmiy manbalarni tadqiq qilish va tahlil qilish natijasida masofaviy o'qitish ta'limning xususiyatlari va muammolarini hisobga olgan holda, dolzarblik va yangilikni yo'qotmagan holda uzluksiz samarali ta'lim olish va axborot almashish imkonini yaratib berishini ta'kidlash mumkin. Masofaviy ta'lim faol rivojlanayotgan ta'lim shakli bo'lib, u har qanday ta'lim muassasasining rivojlanishini belgilab beradi.

Shu bilan birga, ushbu tizimning muhim afzalligi shundaki, istalgan masofadan har qanday hajmdagi axborotni (grafik, matnli, vizual, audio) uzatish; Internet orqali turli axborot manbalariga kirish va foydalanish; onlayn rejimida video va audio konferensiyalarni tashkil etish, ishtirokchilarning dunyoning ixtiyoriy joyidan turib o'zaro muloqot qilish kabi imkoniyatining mavjudligidadir. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida masofaviy o'qitish tamoyillari, modellari va muammolarini tahlil qilish natijasida o'quv jarayonini tashkil etishning quyidagi usullarini eng ilg'or va istiqbolli ekanligini ta'kidlash mumkin: 1. Interaktiv televideniye asosida tashkil etish; 2. Keng qamrovdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda o'qitish; 3. Internet tarmog'ida elektron darsliklardan foydalangan holda tashkil etish.

Hozirgi kunda interaktiv televideniye – televideniye mutlaqo yangi avlodi bo'lib, IP protokoli bo'yicha uzatiladigan raqamli, tijorat yondoshuviga moslashtirilgan televideniye texnologiyadir. Bu texnologiyadan foydalanib o'qitishning afzalligini o'qituvchidan yetarli masofada joylashgan auditoriya bilan bevosita ko'rgazmali muloqot qilish imkoniyatining mavjudligi.

Bilim berishning ushbu usulidan foydalanish yaxshi samara beradi va rivojlanish jarayonini tezlashtiradi, ammo o'qitishni tashkil etishda yuqori sifatli kanal, maxsus qimmatbaho qurilmalarni talab qilganligi sababli masofaviy o'qitishning boshqa usullariga nisbatan moliyaviy jihatdan birmuncha ko'proq mablag' talab etadi.



Masofaviy ta'limni tashkil qilishning navbatdagi usuli eng keng tarqalgan telekommunikatsiya texnologiyalaridan: elektron pochta, telekonferensaloqa, ijtimoiy tarmoq hamda hududiy tarmoqlarning axborot resurslaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ushbu ommabop texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil qilinsa, moliyaviy jihatdan arzon bo'ladi, ta'lim sifati va samaradorligi oshishiga ham olib keladi.

Uchinchi usulda elektron darsliklar va asosiy taqdimotlar bilan ifodalangan CD-ROMlardan nazariy baza sifatida foydalanish nazarda tutiladi. Materialni taqdim etishning didaktik imkoniyatlari nazariy bilimlar uchun asos sifatida ham, bo'shliqlarni to'ldirish shakli sifatida ham juda muhimdir. Bu esa masofaviy ta'limni optimallashtirish imkonini beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasining tarqalishini oldini olish va ta'lim muassasalarida sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash maqsadida 2020 yilning 16 mart kundan e'tiboran respublikamizda ta'lim muassasalarida qo'shimcha ta'til e'lon qilindi. Ta'til davrida vaqtdan unumli va maqsadli foydalangan holda ta'lim olish bo'yicha tavsiyalar va resurslar taqdim etilib amaliyotga joriy etildi.

Yaratilgan ta'lim resurslari oliy ta'lim tizimida: tube.edu.uz, audiobook.edu.uz, t.me/eduonline, dist.edu.uz, xalq ta'limi tizimida: Edu Market, Kitob.uz, Eduportal, Online Maktab, maktab.uzedu.uz, Utube.uz saytlarida ta'lim resurslari va videodarslar shakllantirilgan va joylashtirilgan.

Bundan tashqari videodarslar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda tasvirga olinib «Yoshlar», «Oilaviy», «Madaniyat va ma'rifati» va «Dunyo bo'ylab» telekanallari va Xalq ta'limi vazirligi internet resurslari orqali efirga uzatilmoqda. Shu bilan birga, videodarslar Xalq ta'limi vazirligi sayti (www.uzedu.uz) va ijtimoiy tarmoqlari orqali (t.me/uzedu va fb.com/uzedu) hamda (www.kundalik.com) onlayn ta'lim portallarida e'lon qilib borildi.

Shahar maktablarida (www.kundalik.com) platformasi orqali o'qituvchilar o'quvchilarning videodarslar orqali bilim olishlarini nazorat qilishlari hamda baholab borish imkoniyatlari yaratildi. O'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar uchun video yo'riqnomalar (www.mover.uz) va (www.youtube.com) saytlariga joylashtirilgan.

Shuningdek, maktabgacha talim vazirligining ta'lim resurslari telegram: (t.me/onlinebog'cha va t.me/aqlvoyuz; youtube.com/channel/...; instagram.com/mdo.uz; facebook.com/mtv.gov.uz sahifalariga joylashtirilgan hamda "Onlayn bolalar bog'chasi" loyihasi doirasida "Bolajon" telekanali orqali efirga uzatilib mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Xalq ta'limi tizimi pedagog xodimlari uchun ham viloyatlar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida qator yillar davomida yagona axborot ta'lim muhitining faoliyat yuritishiga uslubiy, konseptual va texnologik yondashuvlar ustida ish olib bormoqda va masofaviy ta'lim uchun o'quv resurslari (video darslar, o'quv metodik materiallar) masofa.sammoi.uz rasmiy sayti hamda telegramdagi kanallari orqali taqdim etilmoqda. 2020 yil may oyidan boshlab ZOOM da onlayn mahorat darslari, seminarlar, uchrashuvlar, videokonferensiyalar o'tkazishga mo'ljallangan platforma yordamida malaka oshirish o'quv kurslarida onlayn darslar tashkil qilinib pedagog xodimlar malakasini oshirib kelmoqdalar.

Xulosa sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Masofaviy ta'lim kompleksini ilg'or tajriba va texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish ta'lim muassasalarida oldiga qo'yilgan ko'p muammolarni o'z vaqtida hal etishga yordam beradi.

2. Pedagoglar kompyuterdan darsga metodik materiallarni tayyorlashdagina emas, balki fanni o'qitishda zarur kompyuter dasturlaridan foydalanishda, bilim oluvchilar bilan individual ishlash jarayonida ham foydalanadilar.

3. Ta'lim muassasalarida odatdagi ish formatiga qaytadi va masofadan o'qitish yutuqlaridan uyda o'qishga majbur bo'lgan bolalar uchun o'qishni tashkil etish uchun foydalanish mumkin.

4. Masofaviy ta'lim yutuqlari o'z-o'zini izolyatsiya qilish rejimi bekor qilinganidan keyin ham unga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qoladi. Masofaviy ta'limni joriy etish va rivojlantirishga oid to'plagan tajribalarimiz ta'lim sifati oshirish va ta'lim muhitini modernizatsiya qilish va optimallashtirishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" gi PF-5712-son farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" gi PF-5847-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni.

4. Azizova M.I., Djamalova G.S. O‘zbekistonda masofaviy ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari/“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2018 yil.

UDK 378.14

### INTEGRATSIYALASHGAN AXBOROT TA’LIM MUHITINI YARATISHNING DIDAKTIK- TEKNOLOGIK SHARTLARI

**T.J.Oqnezarov**

*Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy  
markazi*

*tulqin\_81@inbox.uz*

**Annotatsiya.** Hozirgi vaqtda uzluksiz ta’lim tizimida tatbiq etilayotgan ustuvor innovatsion texnologiyalardan biri – virtual ta’lim muhiti imkoniyatlaridan zamonaviy malaka oshirish tizimida foydalanish hisoblanadi. Mazkur maqolada ana shu virtual ta’lim muhitini tashkil etuvchi didaktik texnologik shartlar haqida atroflicha fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** didaktik, texnologik, axborot, kompetentlik, pedagogik, jarayon, shart.

#### Дидактические и технологические условия для создания интегрированной информационной образовательной среды

**Аннотация.** Одной из приоритетных инновационных технологий, используемых в настоящее время в системе непрерывного образования, является использование возможностей виртуальной учебной среды в современной системе в повышении квалификации. В этой статье подробно обсуждаются дидактические технологические условия, которые составляют эту виртуальную учебную среду.

**Ключевые слова:** дидактические, технологические, информационные, компетентностные, педагогические, процесс, условия.

#### Didactic and technological conditions for creating an integrated information learning environment

**Abstract.** One of the priority innovative technologies currently used in the system of continuing education is the use of the opportunities of the virtual learning environment in a modern system of professional development. This article discusses in detail the didactic technological conditions that make up this virtual learning environment.

**Keywords:** didactic, technological, information, competency, pedagogical, process, condition.

Didaktik-texnologik shartlar – maktab hamda o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti integratsiyalashgan axborot ta’lim muhiti barcha sub’ektlari faoliyatini maqsadli va tizimli ravishda muvofiqlashtirishni ta’minlaydigan, o‘qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq didaktik, texnologik, axborot tadbirlarining majmuidir.

Tinglovchilarni metodik nuqtai nazardan tayyorlash tarkibi va mazmunini takomillashtirish uchun didaktik-texnologik shartlarni aniqlashda: elektron va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan (MTT) zamonaviy ta’lim muammolarini kasbiy nuqtai nazardan hal qilishga qodir mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojlar; ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy-shaxsiy rivojlanishining yangi sifat ko‘rsatkichlari; o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti bilan umumta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligi asos sifatida yetakchi o‘rinni egallashi hisobga olindi.

“Maktab hamda o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti” integratsiyalashgan axborot ta’lim muhitining o‘ziga xosligi fan o‘qituvchilari, tinglovchilar, oliy ta’lim pedagogika yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilaridan iborat virtual metodik ijodiy guruhlarni tashkil etish hamda hamkorlik va zamonaviy kompyuter aloqa vositalari asosida elektron, masofaviy ta’limni o‘zlashtirish uchun mahsuldor o‘zaro axborot almashinuv aloqalarini o‘rnatishdir.

“O‘zaro axborot almashinuv” tushunchasi pedagogika fani tomonidan ta’limni axborotlashtirish davridan boshlab faol o‘rganila boshlandi va u Sh.A. Amonashvili, I.Ya. Lerner, N.F. Radionova va boshqalarning pedagogik tadqiqotlarida ishlab chiqilgan “pedagogik o‘zaro ta’sir” tushunchasini kengaytirilishi, boyitilishi deb qarashimiz mumkin.

Mazkur yo'nalishning dolzarbligi AKT vositalaridan foydalangan holda o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida hamkorlikning yangi shakllarini ishlab chiqish va uni ilmiy asoslashning zaruriyati bilan belgilanadi. Tinglovchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi mavjud ob'ektiv munosabatlar sifatida "o'zaro ta'sir" tushunchasini pedagogik talqin qilishda ikkita majburiy komponent ajratib ko'rsatiladi: faoliyat va muloqot. Shu bilan birga, ijtimoiy o'zaro ta'sir "atrofimizdagi olam bilan o'zaro ta'sir qiluvchi munosabatlar, bir-biri bilan amalga oshiriladigan jarayonlar to'plami" sifatida tavsiflanadi; "o'zaro tushunish, hamdardlik, hamjihatlik" va pedagogik o'zaro ta'sirlar "maxsus uyushgan ijtimoiy, maqsadli jarayonlar" sifatida birlashtirgan psixologik o'zaro ta'sir amalga oshishi davrida o'zaro munosabat ishtirokchilari va ularni "kengaytirish" shartlari ijobiy tomonga o'zgaradi. Pedagogik o'zaro axborot almashinuv natijasi sifatida o'qituvchilarni axborot-ta'lim muhitida o'zaro hamkorligining yangi turiga tayyorlashni talab qiladigan rivojlantirish deb qarash mumkin. Axborotlarning o'zaro bog'liqligi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish muammosi ta'lim tizimini axborotlashtirishni rivojlantirishning hozirgi zamonaviy bosqichi uchun tayanch sifatida belgilangan. Shu bilan birga, AKTdan foydalanishda axborotning o'zaro axborot almashinuv deyilganda, har qanday ko'rinishda amalga oshirilayotgan "axborotni uzatish va uni qabul qilishda (belgi, grafik, animatsiya, audio va video ma'lumotlar), aks aloqani amalga oshirishda, zamonaviy texnik vositalar bilan interfaol muloqot olib borishda, ma'lumotni qayta ishlashda, arxivlashda, tarqatishda va qabul qilishdagi jarayon tushuniladi" [5, 37-b.]. Ushbu ta'rifning ahamiyati shundaki, o'zaro axborot almashinuv ta'sirlarining texnologik tarkibiy qismi "interfaollik" tushunchasi bilan tavsiflanadi, u nafaqat ta'lim jarayonining sub'ektlari o'zaro munosabatlarida, balki ta'lim oluvchining axborot ta'lim muhiti bilan o'zaro munosabati jarayonida ham namoyon bo'ladi. Interfaollik deyilganda kommunikatsiya jarayonining borish tavsifi tushuniladi, uning asosiy xususiyati avvalgi xabarlar kontekstida xabar yoki ma'lumotlarning kelishiga tezkor javob qaytarish zaruriyati hisoblanadi. Keng ma'noda, interfaol o'zaro ta'sir, mavjud bo'lgan vositalar va usullardan hamda mavjud vosita va metodlardan foydalangan holda sub'ektlarning bir-biri bilan muloqotini nazarda tutadi: savol va javoblar almashinuvi, muloqot jarayonini borishini boshqarish, qabul qilingan qarorlar ijrosini nazorat qilish va shu kabilar. Mazkur so'zning tor ma'nosi (foydalanuvchining dasturiy ta'minot bilan ishlashiga nisbatan tadbiri) interfaol o'zaro ta'sir - matnli buyruqlar va javoblar almashinuvdir. Bunday holda interfaollikning yuqori darajasi dasturiy ta'minotni boshqarish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Axborot-ta'lim muhitida muvaffaqiyatli o'zaro aloqa qilish uchun uning ishtirokchilari kompyuter vositasida muloqot qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. Ta'lim jarayonida kommunikatsiya vositasi kompyuterdan foydalanish - ilmiy sohani namoyon etadi, unda ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan elektron (kompyuter) xabarlardan foydalanish axborot-kommunikatsion ta'lim muhitida tegishli o'quv, axborot va kommunikativ madaniyati sharoitida tushunishni shakllantirish tadqiq qilinadi [3, 44-b.]. Shuning uchun, eng muhimi, axborot almashinuv jarayonida ba'zi ishtirokchilar tomonidan kompyuter texnologiyalaridan boshqa kompetent bo'lgan ishtirokchilarni kuzatib, shu bilan ularning kommunikativ xatti-harakatlarini modellashtirish orqali muloqot qilish ko'nikmalarini egallash va o'rganish hisoblanadi. "Maktab hamda o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti" integratsiyalashgan axborot ta'lim muhitida foydalanuvchilarning interfaol axborot manbalari va ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir sharti bilan ta'minlanadi. Integratsiyalashgan axborot ta'lim muhiti ishtirokchilari uchun muhit: axborot resurslariga erishishning yaxlit usullari; muhitda ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlik ishtirokchilarining o'z-o'zini identifikatsiyalashi uchun birlashtirilgan vositalar; ta'limdagi o'zaro ta'sir oddiy ishtirokchilari bilan ham, tashkilotchilari bilan ham o'zaro aloqalarining shakl va metodlari; ta'lim axborotlari o'zaro ta'siri interfaolligini ta'minlaydi [2]. "Maktab hamda o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti" integratsiyalashgan axborot ta'lim muhitida o'zaro munosabatlarining yana bir muhim sharti bu ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning teng huquqli ishtiroki orqali faol ravishda izlanish va bilimlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladigan hamkorlikdir [7]. Elektron ta'lim kontekstida hamkorlik texnologiyalari Web 2.0, masofaviy ta'limning funksional tizimlari yordamida yaratilgan virtual auditoriyalarni ijtimoiy xizmatlaridan foydalanishni nazarda tutadi. "Maktab hamda o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti" integratsiyalashgan axborot ta'lim muhitida ishtirokchilarning o'zaro hamkorlikdagi aloqalari real vaqt rejimida yoki guruh bilan yoki bir kishi bilan kechiktirilgan aloqa tarzida amalga oshirilishi mumkin. Axborot ta'lim muhitida aloqa imkoniyatlari ikki parametr: vaqt va kommunikatsiya ishtirokchilarini virtual joylashuvi bilan tavsiflanadi. "Maktab hamda o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti" integratsiyalashgan axborot ta'lim muhitida muloqot ishtirokchilarining axborot o'zaro ta'sirining uchta ko'rinishi amalga oshiriladi:

1. "Muloqotning ikki ishtirokchisi". Muloqotning ikkala ishtirokchisi ham ma'lumot beruvchi hamda qabul qilib oluvchi hisoblanadi. Ushbu o'zaro aloqani tashkil qilish uchun quyidagi kompyuter aloqa texnologiyalari qo'llaniladi: chat, individual xabarlar xizmati, Internet telefoniya, elektron pochta xizmatlari. Masalan, masofaviy maslahat berish jarayonida o'qituvchi va tinglovchining o'zaro aloqasi, kasbiy faoliyatda

AKTdan foydalanish va o'zlashtirishlarida zarur bo'lgan yordamni amalga oshirish, tinglovchi va o'qituvchining o'zaro aloqasi uchun tarmoq ta'limi tashabbusi ssenariysini ishlab chiqish, predmet bo'yicha elektron o'quv kursi, mavzu bo'yicha konspektlar, tinglovchilarning o'zaro aloqasi, ilmiy-metodik ishlarini masofadan qo'llab-quvvatlash jarayonida, elektron o'quv kurslarini bajarishlarida individual maslahatlar berish ana shular jumlasidandir.

2. "Muloqotni bir kishidan - ishtirokchilari guruhiga o'tkazish". O'zaro axborot almashish, ma'lumotni yuboruvchi va ma'lumotni qabul qilib oluvchilar guruhi o'rtasida ta'lim axborot muhiti orqali sodir bo'ladi. Bunday holda, quyidagi ko'rinishdagi kompyuter kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi: kompyuterli audio yoki video konferensiyalari, yuborilgan xabarlar ro'yxati hamda telekonferensiyalar. Masalan, ta'lim tashabbusi tarmoq ishtirokchilarini boshqaruvi jarayonida tinglovchi va tinglovchilar guruhining o'zaro aloqalari, elektron o'quv kursida bir guruh tinglovchilarning bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlash, masofaviy master-klasslar davomida o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ochiq darslar, tarmoq ta'lim tashabbusi ssenariysini ishlab chiqish, o'qituvchi va o'qituvchilar, tinglovchilar guruhi bilan vebinarlarni o'tkazish jarayonida o'qituvchilar, tinglovchilar uchun telekommunikatsiya loyihalarida qatnashuvchilarga maslahat berish va boshqa o'zaro harakatlar shular jumlasidandir.

3. "Tarmoq hamkorligi". O'zaro axborot almashinishning har bir ishtirokchisi taqsimlangan axborot muhiti asosida alohida ishtirokchiga yoki ishtirokchilar guruhi bilan bog'lanish imkoniyatiga ega. Bunday holda ma'lumotlar odatiy shaklda (matnli, multimediya) ham, gipermedia vositalari ko'rinishida ham taqdim etilishi mumkin. Axborot uzatuvchi bir vaqtning o'zida uning iste'molchisi hamdir va o'zaro axborot almashinish axborot muhitini faol ravishda o'zgartiradi, u ishtirokchilar tomonidan o'zgartirilgan shaklda qabul qilinadi. Bunda quyidagi kompyuter kommunikatsion texnologiyalaridan foydalaniladi: kompyuter audio yoki video konferensiyalari, forumlar, chat guruhlari, Web 2.0 servis xizmatlari.

Yuqoridagi aytilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, xususan, o'qituvchi, tinglovchi, tinglovchilar guruhining ta'limi jarayonida masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda Internet texnologiyalaridan foydalanib tinglovchilarning loyiha, tadqiqot va ijodiy faoliyatini tashkil etish; bitiruv ishlari natijalarini sinovdan o'tkazish jarayonida o'qituvchi, tinglovchi, o'qituvchi va tinglovchilar guruhining o'zaro munosabati; masofaviy yoki aralash ta'lim uchun o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish; tarmoqda tinglovchilarning darsdan tashqari mustaqil ishlashlari uchun ularni o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash kabilar bunga namuna bo'la oladi.

#### Adabiyotlar

1. Бобиенко, О.М. Компетентностно-ориентированный подход в образовании взрослых: Учебное пособие для преподавателей. / О.М. Бобиенко, З.Н. Сафина - Казань: Издательский центр Академии управления «ГИСБИ», 2004. - 104 с.
2. Роберт, И. В. Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы; перспективы использования / И. В. Роберт. – М. : ИИО РАО, 2010. – 140 с.
3. Розина, И. Н. Педагогическая компьютерно-опосредованная коммуникация: теория и практика: монография / И. Н. Розина. – М.: Логос, 2005. – 460 с.
4. Прозорова, Ю. А. Принципы функционирования информационно-коммуникационной предметной среды, реализованной на базе авторских сетевых информационных ресурсов / Ю. А. Прозорова // Ученые записки. Вып. 40. – М.: ИИО РАО, 2012. – С. 3-12.
5. Толковый словарь терминов понятийного аппарата информатизации образования / Босова Л.Л., Данилюк С.Г., Кастиорнова В.А. и др. М. – ИИО РАО, 2006. – 40 с
6. Хуторской, А.В. Дидактическая эвристика: Теория и технология креативного мышления. / А.В. Хуторской. - М.: ЗАО «МТО ХОЛДИНГ». - 2004. - 216 с.
7. Ezekoka G. K. Maximizing the Effects of Collaborative Learning through ICT / G. K. Ezekoka // Procedia - Social and Behavioral Sciences. – 2015. – (176). – P. 1005-1011.

UDK: 37:004

#### MASOFAVIY TA'LIMDA O'QITUVCHILARNING KASBIY TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

J.T.Mannabov

*Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi  
mannabov@umail.uz*

**Аннотасија.** Аynи замондаги касбий муаммоларни ҳал қилиш о'қитувчиларнинг Интернет технолоҗиялари соҳасидаги компетентлигини шакллантириш билан бевоcита боғ'лиқдир. Бу еса Интернет технолоҗиялари соҳасидаги билим ва ко'никмаларини ривожлантириш ва такомиллaштириш асосида амалга оshirilishi мумкин.

**Калит со'злар:** технологик, компетентлик, интернет-технолоҗиялар, касбий, педагогик, фаолият, о'қитувчи.

**Педагогические условия формирования профессиональной технологической компетентности учителей в дистанционном образовании**

**Аннотация.** В настоящее время профессиональное решение проблем напрямую связано с формированием у учителей компетентности в области интернет-технологии. Это можно сделать путем развития и совершенствования знаний и навыков в области интернет-технологии.

**Ключевые слова:** технологический, компетентность, интернет-технологий, профессиональный, педагогический, деятельность, учитель.

**Pedagogical conditions of formation of professional technological competence of teachers in distance education**

**Abstract.** At present, professional problem-solving is directly related to the formation of teachers' competence in Internet technology. This can be done through the development and improvement of Internet technology knowledge and skills.

**Keywords:** technology, competence, Internet technologies, professional, school, activities, teacher.

Masofaviy ta'limda o'qituvchilarning kasbiy texnologik kompetentligini, shakllantirish jarayonida o'qituvchilar uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan tizim va qayd etilgan sohada texnologik kompetentlikni takomillashtirish uchun malaka oshirishni masofadan turib amaliyotga tadbiiq etish sharoitlariga mos keladigan aniq pedagogik shart-sharoitlar zarur.

O'qituvchilarning Internet texnologiyalari sohasidagi kompetentligini takomillashtirish muammolari bo'yicha mavjud nazariy tadqiqotlar, yuqoridagi qayd etilgan sohada muammoni qo'yish va hal qilish imkonini beradi.

Falsafiy lug'atda "shart" atamasi obyektning uning atrofidagi hodisalar bilan munosabatini izohlaydigan kategoriya sifatida ta'riflangan va ularsiz uning mavjudligi qabul qilinishi mumkin emas. Ya'ni, shartlar - o'rganilayotgan obyekt faoliyat ko'rsatadigan va rivojlanadigan muhitni tavsiflovchi so'zlar va omillardir. Buni mazkur muhitda faoliyat yuritishi va rivojlanishiga ta'sir qiladigan holatlar deb hisoblash mumkin.

"Shart" tushunchasining pedagogika sohasiga tadbiiq etilishi, shuningdek, "o'quv faoliyati shartlari" ga qo'shimcha ta'rif berilishi mumkin - vaziyatlarning umumlashirilgan to'plami, u amalga oshiriladigan muhit va uning subyektiv faoliyatini ta'minlovchi omillar mavjud. Ularning ikkalasi ham muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradigan yoki to'sqinlik qiluvchi mavjud holatlar prizmasidan kelib chiqadi".

Muayyan pedagogik shartlarga rioya qilish o'qituvchilarning Internet texnologiyalari sohasidagi yuqori darajadagi bilimlariga erishish uchun asosdir. Ushbu fikr bizning tadqiqotlarimizning mazmunini tashkil etadi.

Tahlillar asosida, biz "vaziyat" tushunchasiga, vaziyatga yoki muayyan vaziyatda sodir bo'layotgan narsaga har qanday bog'liqlik sifatida qaraymiz.

Nazariy pedagogikada o'quv jarayoni hozirgi vaqtda uning tarkibiy elementlariga, bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqiladi, ularni bir necha guruhlariga birlashtirish mumkin:

- talabalar va o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlarini tavsiflovchi shart-sharoitlar;
- o'qituvchi va tinglovchilarning o'zaro munosabatlari shartlari;
- pedagogik jarayonni tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan moddiy-texnik baza.

Masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning Internet texnologiyalari sohasidagi texnologik kompetentligini takomillashtirish malaka oshirish tizimiga aloqador bo'lmagan boshqa shartlar bilan ham belgilanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida o'rganilayotgan obyektga ta'sir qiladigan shartlarni taqdim etamiz.

Tahlil etilayotgan pedagogik shart-sharoitlar - kasbiy ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni uchun masofaviy ta'lim orqali o'qituvchilarning Internet texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan.

Tadqiqotimizning tayanch kategoriyasini mazmun va mohiyatini tahlil qilish, ya'ni, "internet texnologiyalari sohasidagi o'qituvchilarning texnologik kompetentligi", muammoning holati, masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning Internet texnologiyalari sohasidagi malakasini oshirish quyidagi shartlarda samarali bo'ladi:

- Internet texnologiyalari sohasida o'qituvchilarning doimiy va uzluksiz tarzda kasbiy malakasi va mahoratini oshirib borish;
- Internet texnologiyalari sohasida o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida loyihalashtirish

metodlaridan keng foydalanish;

- Internet texnologiyalaridan foydalangan holda o'qituvchini malakaasini oshirish uchun ta'limni o'ziga xosligini hisobga olgan holda blok-modulli tuzilmani ishlab chiqish.

"Mazmun" - obyektlarning asosini tashkil etadigan va ularning shakllari mavjudligi, rivojlanishi va o'zgarishi uchun shart bo'lgan jarayonlar elementlarining yig'indisidir.

Mazmun deyilganda talabalar egallashi kerak bo'lgan bilimlar va amaliy ko'nikmalarning jamlangan tizimi sifatida tushunish kerak, bu ularning qobiliyatlari va aql-idrokining har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Fikrimizcha, turli sohalarda o'qituvchilarning texnologik kompetentligini oshirishni tashkil etishni shakllantira turib, jumladan Internet texnologiyalaridan ham, birinchi navbatda o'qituvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, faqatgina kasbiy malaka oshirish ta'lim muassasalarining imkoniyatlariga asoslanmaslik kerak. Ushbu tamoyilga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimi mazmuni pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari va talablariga javob beradi.

Hozirgi vaqtda mavjud an'anaviy kunduzgi ta'lim shakllari faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar malaka oshirish kurslari tinglovchilari axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirishga qodir emaslar. Masofaviy ta'lim bilan birga, moslashuvchan ilg'or o'quv dasturlarini tuzish va amalga oshirish vazifalari, shuningdek o'qituvchilarning tegishli ma'lumotga bo'lgan ehtiyojlari, jumladan individual, bir vaqtning o'zida "amalga oshirilayotgan ish mazmuniga mos keladigan ma'lumotni olish zarurligini belgilaydigan shaxs yoki jamoaning mulki" degan ma'noni anglatuvchi Internet texnologiyalari sohasida muammolar o'z yechimini topishi mumkin.

Tabaqalashtirilgan yondashuvga bo'lgan ehtiyoj o'qituvchilarni malaka oshirish tizimidagi ko'p darajali mazmunida hamda ilmiy-uslubiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. O'qituvchilar malakasini oshirish kurslarining dasturiy tarkibini belgilaydigan tavsiyalar, ta'lim tuzilmalari xodimlariga tegishli bo'lgan kurslar dasturlarining mazmuniga qo'yiladigan quyidagi talablarni qarab chiqamiz:

- zamonaviy ta'limdagi asosiy konsepsiya va yo'nalishlarni, gumanitar fanlar, tabiiy bilim sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar natijalari, axborot texnologiyalarini joriy qilish uchun aloqa infratuzilmasini takomillashtirish shakllari hamda yo'nalishlarini yoritish;

- o'qituvchilarning axborot va tahliliy materiallarga bo'lgan ehtiyoj darajasini tashhislash, o'quv dasturlarini modulli tarkiblashtirilishi;

- mustaqil ta'lim olishni davom ettirish bilan bog'liq tadqiqotlar va muammolarni aniqlash;

- o'quv-tematik rejalar hamda dasturlarning modulli tuzilishi, variativ va invariant modullarning mavjudligi;

- o'quv guruhlari bo'yicha o'qituvchilarni shakllantirish va taqsimlashda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish [183].

O'qituvchilarning kasbiy texnologik kompetentligini shakllantirish va uning faoliyat yuritishi uchun yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda, Internet texnologiyalari sohasida bilimlari va mahoratini oshirish nuqtai nazaridan malakasini oshirish tizimi mazmunida modulli tarkib variantini taklif etamiz. Modulli dastur deyilganda - blokni o'rganish uchun batafsil jadvalning mavjudligi, u butun blokni o'rganishning umumiy maqsadi, o'rganilayotgan materiallarning ro'yxati va ta'lim oluvchilarning olgan bilimlari, ko'nikmalari va malakalariga qo'yiladigan talablar, bosqichma-bosqich o'ziga xos maqsadlar, ma'lum bir darsda talabaning faoliyati turini ko'rsatish, o'zini o'zi nazorat qilishi uchun nazorat savollari va topshiriqlar ro'yxati hamda o'qituvchilar nazorati tushuniladi.

Modul - dastur va masofaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u o'zida ta'lim metodikasi mazmunini namoyon etgani holda mustaqillik darajasi va bilish faoliyati intensivligini o'qitish metodologiyasining individual tarkibiy qismi sifatida o'qituvchilarni tayyorlashda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Masofaviy modulli ta'lim o'quv jarayonida aniq maqsadlarga erishishda to'liq mustaqillikni ta'minlaydi.

Mazmuni tayyorlashda zamonaviy ta'limni rivojlantirishning istiqbolli yetakchi yo'nalishlarini ta'kidlaydigan omillarni hisobga olingani holda, jumladan Internet texnologiyalaridan foydalanish asosida, ilg'or ta'lim metodikalari, shuningdek Internet-texnologiyalar sohasini mustaqil o'rganish, o'qitish mazmunini takomillashtirish va aniqlashtirish asosida qurilgan. Bunda axborotlashtirish va yaxlit ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari imkon qadar hisobga olingan.

Yuqorida aytilganlarga asoslangan holda quyidagi mazmuniy bloklarni tuzishimiz mumkin:

Birinchi - ilmiy-nazariy, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda bilim, ko'nikma, ta'lim tizimini axborotlashtirishning ilg'or yo'nalishlarini va Internet-texnologiyalar sohasidagi boshqa innovatsiyalarni o'zlashtirishni ta'minlaydigan nazariya va ta'lim metodikalari.

Ikkinchisi - ilmiy-uslubiy, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda ta'limni tashkil etish ko'nikmalarini o'zlashtirish, rivojlantirish va takomillashtirish.

Uchinchisi - amaliyot, olingan nazariy va metodik bilimlarni amalda tadbiiq etilishini ta'minlaydi.

Tarkibning modulli tuzilishi ushbu yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi.

Ta'lim faoliyatida Internet texnologiyalari sohasidan foydalanish o'qituvchilarning malakasini oshirishlari ustidagi mavjud ilmiy izlanishlari ularning ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi, shuning uchun ushbu sohadagi o'qituvchilar malaka oshirish dasturlarining modulli tarkibi modernizatsiya qilinishini talab qiladi.

Internet texnologiyalari sohasidagi mavjud malaka oshirish kurslarining tahlili shuni ko'rsatadiki, tarmoqda ishlash bo'yicha o'qituvchilarning tayyorgarligida dastlabki foydalanish ko'nikmalari ustunlik qiladi.

Shunday qilib, Internet texnologiyalari sohasida o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonining tarkibiy tomonini aniqlashda biz kursni tayyorlashning predmetga yo'naltirilgan tarkibiy qismiga e'tibor qaratamiz. Tarkibni tuzishda bunday yondashuv masofaviy ta'lim bilan birgalikda o'qituvchilarga o'quv jarayonida, shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlarda eng yuqori darajada o'z-o'zini boshqarish imkoniyatini beradi. Individual o'quv ma'lumotlari modullari guruhlarni birlashtirgan holda o'qitish mazmuniga tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshiradi. Bundan tashqari, malaka oshirish jarayoni tarkibidagi modulli asos masofaviy ta'limni rejalashtirish va rivojlantirishga imkon beradi.

Fikrimizcha, Internet texnologiyalari sohasidagi o'qituvchilar kasbiy texnologik kompetentligini shakllantirishda sezilarli darajada yaxshilanishiga mualliflik dasturlarini kiritish, masofaviy o'qitish kurslarining samaradorligini tahlil qilish yordam beradi. Mualliflik dasturlari orasida: "Malaka oshirish tizimi-umuiy o'rta ta'lim maktabi integratsiyalashgan axborot mahsulotidan zamonaviy o'quv jarayonida foydalanish", "Raqqamli ta'lim resurslaridan foydalangan holda darsda vakolatlarga asoslangan vazifalarni ishlab chiqish va ishlatish" va boshqalar. Internet texnologiyalari sohasidagi malaka oshirish o'qituvchilarning nazariy, uslubiy va amaliy tayyorgarligi jarayonida amalga oshiriladi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, modulli strukturada quyidagi muhim bloklarni ajratish tavsiya etiladi: nazariy, ilmiy-metodik va amaliy.

Birinchisi – nazariy blok bo'lib, o'qituvchilarning Internetdagi texnologik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha tushunchalarni o'z ichiga oladi va elektron vositalardan foydalangan holda fanni o'qitishning tizimli nazariy va uslubiy bilimlarini egallash, zamonaviy axborotlashtirish, modernizatsiyalash va elektron o'qitish vositalaridan foydalanish sohasidagi boshqa innovatsiyalar bilan tanishish, talabalarni o'qitishni nazariy bilimlar yig'indisini o'z ichiga oladi:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning so'nggi yutuqlari, ta'lim tizimida tobora kengayib borayotgan elektron xizmatlardan foydalanish, o'quv jarayonini dasturiy ta'minoti to'g'risida;

- zamonaviy axborot texnologiyalari haqida – tayanch va statistik funksiyalarni avtomatlashtirishga yo'naltirilgan yechimlar hamda dasturiy mahsulot, ta'lim sifatini oshirish uchun tarmoq resurslari va eng yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining imkoniyatlarini kengaytirish;

- jamiyatni boshqaruv va axborot jarayonlaridagi eng so'nggi konsepsiyalar haqida;

- bir qator fanlarni o'qitish jarayonida ham axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida, shuningdek, ota-onalarga ta'lim muassasalari xizmatlari, ularning ishlash tartibi va tarkibi, shuningdek, davlat-boshqaruv modeli to'g'risida xabardor qilinadigan ta'lim muassasalarining majburiy standart saytlari, ishlab chiqilgan va joriy qilingan portallar tizimlari.

Masofaviy o'qitishda o'qituvchilarning nazariy tayyorgarligi bir qator mazmun-mohiyat sohalarni o'z ichiga olishi kerak:

- masofaviy o'qitishning mazmuni va mohiyati, boshqa ta'lim shakllaridan tubdan farqlari, uning afzalliklari hamda yutuqlari;

- masofadan o'qitish jarayonining imkoniyatlari va xususiyatlari, uning tamoyillari.

Pedagogik lug'atni sharhlashda Internet texnologiyalari sohasida o'qituvchilarni metodik nuqtai nazardan tayyorlash, ta'lim va tarbiya metodikasi, qonunlari, omillari, tuzilishi, o'qitish usullari to'g'risidagi bilimlarni o'z ichiga oladi va quyidagilarga ega bo'lishni nazarda tutadi [160]:

- zamonaviy Internet texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishning ilg'or usullari;

- elektron vositalarning o'ziga xosligi, tarkibini ta'lim oluvchilar yosh xususiyatlari hisobga olgan holda fanni to'g'ri o'qitish uslubini aniqlashdagi qat'iy ko'nikmalar;

- elektron ta'lim resurslari tushunchalari, ulardan foydalanish ko'nikmalari.

Masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining metodik tayyorgarligi to'g'ridan-to'g'ri mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi, bu esa unga olgan bilimlarini kasbiy faoliyatida zudlik bilan ishlatishga va tinlovchilar bilan doimiy aloqada bo'lish imkoniyatidan foydalangan holda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Ta'kidlash joizki, masofadan turib o'qitish jiddiy interfaol faoliyat bo'lib, u maktablar va oliy o'quv yurtlari uchun ishlab chiqilgan hamda doimiy ravishda yangilanib turiladigan mutlaqo yangi texnologiyalar va texnikalarni talab qiladi. Masofaviy ta'lim - darsliklar skaneri yoki televideniye orqali ma'ruzalarni tomosha qilish, o'rganish emas, bu masofadan turib vazifalarni olish va ularni bajarish, o'qituvchi bilan doimiy aloqa o'rnatish imkoniyati, virtual "laboratoriya va o'quv xonalari"ga tashrif buyurishingiz mumkin bo'lgan tizimdir.

Aynan shu holat o'quv amaliyotida elektron ta'lim resurslaridan, axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga asoslangan, ko'nikmalarining muhim ro'yxati mavjudligini nazarda tutuvchi masofaviy ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligiga talablar oshib borishi bilan izohlanadi. Shaxsiy kompyuterdan elementar foydalanish ko'nikmalaridan tashqari o'qituvchilardan qo'shimcha ravishda quyidagilar talab qilinadi:

- turli matn muharrirlari bilan ishlash ko'nikmasi;
- elektron jadvallar, masalan, Excel tomonidan taqdim etilgan avtomatlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish;

- o'quv faoliyatida multimedia dasturiy va texnik vositalaridan foydalanish;

- Internetda turli xil, shu jumladan grafikali ma'lumotlarni qidirish;

- elektron pochta imkoniyatlaridan veb-texnologiyalar orqali foydalanish;

- masofaviy o'qitish muhitining turli xususiyatlaridan foydalana olish va h.k.

Masofaviy ta'lim ko'proq mustaqil faoliyatga qaratilganligi sababli, bu holat o'qituvchining metodik tayyorgarligida qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi, xususan:

- o'quv jarayonini optimallashtirish, ishda rejalashtirishga aniq rioya qilish, kundalik mustaqil ijodiy faoliyatga ichki ehtiyojni shakllantirish qobiliyati;

- axborotlar oqimida mo'ljalni o'z bilish ko'nikmasi, turli axborot tashuvchilarida kerakli ma'lumot manbalarini aniqlay olish qobiliyati;

- masofadan turib ishlash rejimida real vaqtda o'z-o'zini baholash ko'nikmasi, o'quv jarayonini aniq tashkil etish uchun qo'shimcha zaxira izlash, paydo bo'lgan ta'lim muammolarini hal qila olish qobiliyati;

- konspektlashtira olish ko'nikmasi, g'oyalarni shakllantirish, mavzuni ilmiy-ommabop taqdimoti, o'quv hujjatlari bilan ishlash ko'nikmalari.

O'qituvchilarning amaliy tayyorgarligi - metodik va nazariy mashg'ulotlar jarayonida olingan barcha bilimlarni rivojlantiradi, mukammallashtiradi, amaliy mustahkamlaydi, nazorat qiladi. Masofaviy ta'lim, olingan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llashda o'qitishning boshqa shakllaridan ustun turadi, shuning uchun quyidagi shakldagi muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish zarur:

- predmetini o'qitish jarayonida tarmoq manbalarini, Internet texnologiyalarini, turli elektron ta'lim mahsulotlarini joriy etish va ulardan ijodiy foydalanish;

- tabaqalashtirilgan o'qitish tamoyiliga amal qilgan holda, o'quvchilar bilimni baholash metodologiyasidan to'g'ri foydalanish;

- talabalar bilimni va shaxsiy faoliyatini real baholash.

Malaka oshirish, Internet texnologiyalari sohasida o'qituvchilarning texnologik kompetentligini shakllantirish, nafaqat o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining o'zgargan tuzilishini, balki uning tarkibiy qismlarining sifatiga ijobiy ta'sirni ham o'z ichiga oladi. Umuman olganda, intellektual kapitalning ko'payishi - kasbiy kompetensiyaga asoslangan ijodiy, nazariy, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarning butun majmuidir.

Xulosa o'rnida aytishimiz joizki, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog internet texnologiyalari sohasida yuqori darajada kompetentlikka ega bo'lishga majbur. Pedagog mazkur texnologiyalardan o'quv jarayonini optimallashtirishda, ta'lim oluvchilarda shaxsiy kompyuterdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda va o'quv vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda faol foydalanishi lozim.

### Adabiyotlar

1. Урсова О.В. Развивающий потенциал информационнокоммуникационных технологий в системе повышения квалификации учителей-предметников: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.08 / О.В. Урсова; Новгородский государственный университет имени Ярослава Мудрого. - Великий



Новгород, 2006. — 24с.

2. Смолянинова, О.Г. Формирование информационной и коммуникативной компетентности будущего учителя на основе мультимедийных технологий /О.Г. Смолянинова // Информатика и образование. - 2002. - № 9.С. 116-119.

UDK: 796.34

### SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARGA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN G'OYALARNI SINGDIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

F. Q. Axmedov<sup>1</sup>, Z. M. Utayev<sup>2</sup>

*Jizzax davlat pedagogika instituti, Samarqand davlat universiteti*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada o'quvchilarda sport mashg'ulotlari vositasida umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g'oyalarni singdirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Sportning ijtimoiy-pedagogik asoslari ta'sirida va uning g'oyaviylik, baynalminalchilik, insonparvarlik kabi tamoyillari asosida o'quvchi-yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** umuminsoniy qadriyatlar, sport, ijtimoiy-pedagogik ahamiyat, salbiy illatlar.

### Педагогическая основа улучшения идей на основе общечеловеческих ценностей для студентов в процессе спортивной тренировки

**Аннотация.** В данной статье анализируется педагогическая основа для внедрения в студентов идей, основанных на общечеловеческие ценности через спорт. Обсуждались педагогические возможности воспитания студентов в духе общечеловеческих ценностей под влиянием социально-педагогических основ спорта и его принципов - идеологии, интернационализма, гуманности.

**Ключевые слова:** общечеловеческие ценности, спорт, социально-педагогическая значимость, негативные аспекты.

### Pedagogical bases to support human values to students in sports exercises

**Abstract.** This article analyzes the pedagogical bases of students to instill ideas based on human values through sports. The authors emphasize the need to educate students in the spirit of universal values, influenced by the socio-pedagogical foundations of sport and based on its ideological, international and humanitarian principles.

**Keywords:** human values, sport, socio-pedagogical significance, negative examples.

**Dolzarblik.** Umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, xalqlar, davlatlar uchun umumiy qadrlash mezoni hisoblangan umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimi. Umuminsoniy qadriyat nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushunchadir. Bugunga kelib umuminsoniy qadriyat tushunchasi insonlar hayotida, ularni tarbiyalashda va ma'naviy dunyosini boyitib borishda o'zining yuksak darajadagi ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Tarixiy taraqqiyot jarayonidagi tajribalarga asosan, umuminsoniy qadriyatlarining namoyon bo'lishi nisbiy bo'lib, jamiyat rivojlanishi, taraqqiyotning xususiyatlariga ko'ra umuminsoniy qadriyatlarining u yoki bu shakli hayotning oldingi pog'onasiga ko'tariladi. Tarixan ma'lum bo'ladiki zamonlar va davrlar o'zgarishi sport tushunchasining ahamiyatini hych qachon pasaytirgan emas. Sport har doim insonlar ma'naviy va moddiy ehtiyojining ajralmas qismi sifatida, umuminsoniy qadriyatlar tizimida o'z o'rniga ega. Mamlakatimizda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash va ularni vatanparvarlik ruhida kamolga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi [1, 2, 3, 4]. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yosh avlodni ona vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash, yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamolga yetkazish, ularda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g'oyalarni singdirish o'z dolzarbligini oshirib bormoqda. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarga ta'sir etayotgan turli salbiy illatlardan ularni saqlash va ularning g'oyaviy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy immunitetini shakllantirish zurrati yuzaga kelmoqda. Yoshlar ongida umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g'oyalarni shakllantirish asnosida ularda ijobiy sifatlarni kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etadi [5, 6].

Turli mutaxassislar va olimlar yoshlar tarbiyasida, xususan, ularda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g'oyalarni singdirishda turlicha yondashuvlar va fikrlarni ilgari surishadi. Mutaxassislarning fikricha, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish yoshlik va o'smirlik davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu davrda o'quvchi-yoshlar turli ta'sirlarga beriluvchan bo'lishlari kuzatilgan. Shu sababdan ushbu davrda ularning har tomonlama tarbiyalanishi va yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishlarini oldini olish zurur.

Xalq orasida musobaqalarda tanilgan va g'olib bo'lgan sportchilarga nisbatan "sportchi", "g'olib", "champion" kabi tushunchalar keng ishlatiladi. Insonlar bu kabi sportchilarga havas bilan qaraydi, natijada, ulardek bo'lish istagi shakllanib boradi. Sportchilar har yerda e'zozlanadi va qadrlanadi. Aslini olganda, insonlar g'oliblar, chempionlar timsolida sportni qadrlaydilar. Sport vositasida insonlarni qadrlash va ulug'lash tom ma'nodagi mazmun kasb etadi. Mamlakat bayrog'ini xalqaro maydonlarda yuqori ko'targan sportchilar jamiyatda qadr topadi.

Sportni umuminsoniy qadriyat sifatida o'rganish uchun uning vazifalarini sanab o'tish lozim. Sport nazariyasidan ma'lum bo'lishicha sportning musobaqa vazifasi, sog'lomlashtirish vazifasi, g'oyaviylik vazifasi, estetik vazifasi, axloqiy-tarbiyaviy vazifasi, ijtimoiy-siyosiy vazifasi, baynalminalchilik vazifalari mavjud. Shuningdek, ayrim manbaalarda ko'rsatilishicha, sport vositasida vatanparvarlik, insonparvarlik tarbiyasini yosh avlodga singdirish masalalari bayon qilingan. Bu o'rinda mutaxassislar sport musobaqalari jarayonida yoshlarni vatanparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashning imkoniyatlari yuqori darajada ekanligini e'tirof etishadi. Sport faqatgina natijalarni aniqlash, jismoniy imkoniyatlarni namoyish qilish mezonini bo'libgina qolmay inson omili, uning har tomonlama tarbiyalanishi masalasiga ham aloqadorligi mazkur mavzu doirasida o'tkazilayotgan tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda.

Mazkur mavzu yuzasidan qator ilmiy izlanishlar va tadqiqot ishlari olib borilgan. Mutaxassislar mazkur masalaga doir o'zlarining qimmatli fikrlarini bildirib o'tganlar. Bu o'rinda R.Abdumalikov, T.Usmonxo'jayev, R.Salamov, P.Xo'jayev X.Rafiyev, K.Yarashev, B.Haydarov, T.Xoldorov, F.Axmedov, A.Atoyev, G'.Salimov, K.Abdumalikov, K.M.Maxkamjonov, O'.Ibrohimov, J.Toshpo'latov, K.Alimov kabilarning qarashlari o'ta ahamiyatlidir. Olimlar sportning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, uning ahamiyati va sportni yoshlar orasida yanada keng targ'ib qilishga doir fikrlarni har tomonlama yoritib berganlar.

Mutaxassislar sportning funksiyalarini sanab o'tar ekan, uning ijtimoiy ahamiyati o'ta yuqori ekanligini ko'rsatib o'tadilar (L.P.Matveyev, N.G.Ozolin, O.Yu.Massiyeva, J.K.Xolodov, V.S.Kuznesov N.I.Ponomaryov, R.S.Salamov, L.I.Lubysheva N.A.Ponomaryov, V.I.Stolyarov, V.M.Выдргын). Mualliflarning fikricha sportning jamiyatdagi funksiyalari shu qadar kengki, hatto u insonlar turmush tarzi va hayotiga singib ketgan.

Tadqiqot mavzusi xorijlik mutaxassislar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Elizabeth CJ Pike, Jay Coakley (2010) kabi olimlar mazkur masala yuzasidan o'zlarining qimmatli fikrlarini bildirib, jamiyatni sportsiz idrok etish mumkin emasligini ta'kidlashadi. Sportning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy ahamiyati haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunida (2015 yil 4 sentyabr) ko'rsatib o'tilishicha O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosining ajralmas qismi, alohida vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, xalqaro maydonda mamlakatning obro'-e'tiborini yuksaltirishga intilish tuyg'ularini tarbiyalash poydevoridir. Darhaqiqat, milliy sport turlarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti bevosita kishilarni vatanparvarlik g'oyalari ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi. Masalan, milliy sportimiz kurashni olaylik. Kurashda raqibni hurmat qilish, o'z sha'nini himoya qilish orqali vatani va xalqi or-nomusini, sha'nini himoya qilish masalalari ushbu sport turining falsafiy va ma'naviy g'oyalari negizini tashkil qiladi. Bu kabi misollarni dzyudo, tayekvondo, karate kabi tarixiy-falsafiy hamda ma'naviy asoslari insonlarning har tomonlama tarbiyalanishiga xizmat qilishga qaratilgan sport turlarida ham ko'rishimiz mumkin. Sport turlarining tarixiy shakllanishi, rivojlanishi zamirida aslida tinchlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi hislatlarni tarbiyalash g'oyalari mujassamlashgan. Zero, tinchlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik umuminsoniy qadriyat sifatida necha yillardan buyon e'zozlanib, qadrlanib kelinmoqda.

Umuman olganda mazkur mavzu turlicha yondashuv asosida talqin qilingan va ushbu bilimlar mavzu yuzasidan to'laqonli ilmiy tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi (Bailey, R. (2005), Barton, G.V., Fordyce, K., & Kirby, K. (1999), Fox, K.R., & Harris, J. (2003)).

Maqola mavzusiga doir bir qator manbaalarni tahlil qilish, tadqiqot mavzuning amaliyotdagi holatini o'rganish, sport vositasida o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g'oyalarni

singdirish masalasi to'la o'rganilmaganligini tasdiqlaydi. Mazkur mavzu yuzasidan yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan va muammoning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilmagan. Mavzuga doir mavjud nazariy va amaliy tajribalar yosh sportchilar tayyorlashning zamonaviy talablariga mos emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashning hozirgi shart-sharoitlarida sport vositasidan foydalanishning ilg'or tajribalariga tayanishning pedagogik imkoniyatlari biz tanlagan mavzuni ilmiy tadqiq etish zaruratini yanada oshiradi.

**Materiallar va metodlar.** Mavzuni yoritishda adabiyotlar tahlil qilindi va ulardagi ma'lumotlar umumlashtirildi. Adabiyotlar tahlil qilish jarayoni quyidagi talablar asosida tashkil etildi:

- a) o'zbek, rus va ingliz tilidagi manbaalarni o'rganish;
- b) Scopus, ScienceDirect, PubMed, Academia.edu, Research Gate, Springer Nature, Elibrary, RINS kabi ilmiy ma'lumotlar bazalaridagi materiallarni o'rganish;
- v) jismoniy tarbiya va sport, pedagogika, psixologiya, falsafa va tarbiya yo'nalishidagi manbalarni o'rganish;
- d) normativ-me'yoriy xujjatlar (Qonun, Qaror, Farmon, Nizom va yo'riqnomalar), dissertasiya, ilmiy maqolalar, darslik va o'quv qo'llanmalar, monografiyalar va boshqalarni o'rganish.

Manbalarning nashr yillariga muayyan chegeralar qo'yilmadi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirildi va tegishli xulosalar shakllantirildi.

**Natijalar va muhokama.** Sportning ijtimoiy ahamiyati, umuminsoniy qadriyat ekanligi uning insonparvar xarakterda ekanligida ham o'z aksini topadi. Bir qarashda sport tushunchasining mazmunini ma'lum darajadagi tayyorgarlikdan o'tgan sportchilar bellashuvi, ularning bir-birini jismonan, kuch ishlatib mag'lub bo'lishga majbur etishida ko'rish mumkin. Ammo, sport turining musobaqa qoidalari, sportning umume'tirof etgan normalari sportchilarga, murabbiylarga va hakamlarga shunday talablar qo'yganki, natijada, sport faoliyati ishtirokchilari mashg'ulotlar, musobaqalar va sport tadbirlari jarayonida umuminsoniy qadriyatlar mezoni doirasida tarbiyalanib, shakllanib boradilar. Zero, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari hamda sport musobaqalari ular ishtirokchilarining va tomoshabinlarning sog'lig'iga, sha'ni va qadr-qimmatiga ziyon yetkazilmaydigan tarzda o'tkazilishi kerak. Sportchilarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga olib keladigan, shuningdek ularning sport jarohatlari olishiga sabab bo'ladigan tayyorgarlik uslublaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Sport musobaqalari qoidalari ma'lum talablar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ishtirokchilardan ularga qat'iy amal qilishni talab etadi. Ayni shu holatda sport o'zining yuqori darajadagi insonparvarlik xususiyatini namoyish qiladi.

Inson, uning salomatligini saqlash va mustahkamlash butun dunyo tibbiyot sohasi oldida turgan asosiy vaziflardan hisoblanadi. Tibbiyot olamida "kasallikni davolagandan ko'ra uning oldini olgan yaxshi" tushunchasi mavjud. Texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonda kam harakatlilik insonlar uchun ma'lum darajadagi muammolarni, xususan, harakatsizlik bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni yuzaga keltirmoqda. Yuqorida sport faol jismoniy harakatlar majmui ekanligini aytib o'tdik. Insonlarning reja asosida sport bilan muntazam shug'ullanishi organizmning harakatga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi. Natijada, organizm sog'lom va baquvvat bo'lishiga erishiladi. Sportning umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilishining asosiy sabablaridan biri ham shundadir.

Bugungi globallashuv sharoitida yer yuzi aholisini alkogolizm, narkomaniya, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm kabi turli salbiy illatlar tashvishga qo'yayotgani barchamizga ma'lum. Xalq va davlatning ezgu maqsadlariga yot va begona bo'lgan g'oyalarga jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilishi muqarrar. Bunday salbiy illatlar va g'oyalarga qarshi kurashmoq, yoshlarda vayronkor g'oyalarga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish, ularni salbiy illatlar ta'siridan asrash chora-tadbirlarini yo'lga qo'yish lozim. Bu vazifa o'z navbatida jamiyatda yashayotgan har bir fuqaro, har bir kasb egasiga alohida talablar qo'yadi. Zamonaviy sport mashg'ulotlari o'z oldiga faqatgina sport natijalarini yuksaltirishni emas, balki, shug'ullanuvchini har tomonlama tarbiyalashni ham maqsad qilib qo'ygan. Zamonaviy Olimpiya o'yinlari targ'ibotchisi, fransuz davlat arbobi Pyer de Kuberten insoniyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan, har tomonlama tarbiya vositasi sanalgan Olimpiya o'yinlarini tashkillashtirgani bejiz emas. Keyinchalik, ikkinchi Jaxon urushidan so'ng Hindiston mamlakatining tashabbusi bilan Osiyo o'yinlari tashkil qilinishi ham aynan shu maqsadga – dunyoda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashga, xalqlar o'rtasidagi birdamlikni saqlashga qaratilgan edi.

Bugungi sport o'zining yuksak darajasiga ko'tarildi. Sportdan yoshlar tarbiyasida, mamlakatlar nufuzini oshirishda, salbiy illatlarga qarshi kurashishda hamda sog'lom-turmush tarzini targ'ib qilishda samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Tarixan inson, uning hayoti muqaddas qadriyat sifatida e'zozlanib kelinadi. Shu bilan birga tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tushunchalar umuminsoniy qadriyatlar tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Professor R.Salamovning fikricha (2005), zamonaviy sport mashg'ulotlari modeli hamda sport nazariyasi va amaliyoti tajribasida shug'ullanuvchini ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash masalasi alohida ko'rsatib o'tilgan [7]. Sport bilan shug'ullanish jarayonida shaxsiy axloqiy xususiyatlarni tarbiyalash, axloq normalari doirasida kamol topish masalalari mashg'ulotlar jarayonining tarkibiy qismi sifatida o'z aksini topadi. Murabbiylar, sport mutaxassislari mashg'ulotlar jarayonida shug'ullanuvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyalash ishlarini ham olib boradilar.

Tahlillar va kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi mavzu yetarlicha o'rganilmagan. Sport mashg'ulotlari vositasida o'quvchi-yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g'oyalar ruhida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlari to'la ishlab chiqilmagan. Turli darajadagi ma'lumotlar mavzuni ilmiy asoslash va uning amaliyotda qo'llanilishiga yetarlicha asos bo'lmaydi.

Ravil Kumar (2017) o'z tadqiqotlarida jismoniy tarbiya va sport orqali yoshlar o'rtasida qadriyatlarni shakllantirish zarurati va uning ahamiyatini tadqiq etadi. Uning fikricha yoshlarni turli salbiy illatlar ta'siridan saqlash va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport muhim rol o'ynaydi [8]. Shu o'rinda, u sportning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlarini yuqori baholaydi va uning musobaqa funksiyasidan ko'ra tarbiyaviy ahamiyati jamiyat uchun katta ahamiyatga egaligini alohida qayd etadi. Yuqori natijalar sportidan havaskorlik sportigacha bo'lgan barcha bosqichlarda, turli yosh va jins vakillari uchun sportning yuqoridagi ta'sir darajasini ijobiy baholaydi.

**Xulosa.** Sport mashg'ulotlari jarayonida o'quvchi-yoshlar bilan umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g'oyalarni singdirishning tashkiliy-pedagogik va ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish va uni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Sport mashg'ulotlari vositasida o'quvchi-yoshlarni har tomonlama tarbiyalash va sportning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlaridan to'laonli foydalanish zarurati mavjud. Mazkur mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishi va uning amaliyotga samarali joriy etilishi, birinchidan, sportning ijtimoiy funksiyasi amaliyotda o'z aksini topishiga xizmat qiladi, va ikkinchidan, yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning samarali va ta'sirchan mexanizmini takomillashtirishga imkon beradi.

#### Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг "Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги қонуни. 2015-йил 4-сентябр.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги кириш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқ. - Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори. 2017 й., 3-июн, ПҚ-3031.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2020-йил 24-январ. Халқ сўзи газетаси. 2020 йил 25 январ, № 19 (7521)
5. Назаров Қ. Қадрият тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси (аксиологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари): фалс..ф.д-ри дисс...-Т., 1996.-Б.105
6. Абдуллаев.Т. Турмуш соҳасида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг диалектикаси: фалс..ф.д-ри дисс...-Т.,1992.
7. Саломов Р.С. Спорт машғулотининг назарий асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент-2005.
8. Kumar.R. The Benefits of Physical Activity and Exercise for Health. RESEARCH REVIEW International Journal of Multidisciplinary. 2017, volume-02. P. 1-3.

UDK: 891.709:37

#### ADABIYOTDA SHARQONA O'QITISH USULLARI

**X. B. Tojiyeva**

*Samarqand davlat universiteti*  
*xolidatojiyeva.29@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqola ta'lim tizimi, o'qitish usullari tasniflariga bag'ishlangan. Sharh haqidagi ma'lumotlarda tajriba-sinov natijalariga tayanilgan. Shu bois maqolada sharh usulining muqobil shakllari haqida berilgan xulosalar nazariy, ilmiy, uslubiy jihatdan asoslangan. Muallif o'qitish usullari tarixi haqida ma'lumotlarni keltirgan, asosan mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishda keng qo'llanilgan sharhlab o'qish usuliga oid ma'lumotlarni manbalar asosida yoritib bergan.

**Kalit so'zlar:** Sharqona usul, asar sharhi, tahlil usuli, sharhi tarjima, Alisher Navoiy, tarjimon, "Tarjimai Hoja Hofiz".

**Восточные методы обучения в литературе**

**Аннотация.** Статья посвящена разделам системы образования, её методам. Автор приводит сведения об истории учебной методики, в основном взяты образцы классической литературы, прокомментированы в методике чтения, основываясь на источниках. Комментарии обоснованы на результатах экспериментальных тестов. Из этого следуют альтернативные формы комментариев основаны на теоретических научных, методологических формах.

**Ключевые слова:** восточный метод, сфера произведения, метод анализа, сфера перевода, переводчик, Алишер Навои, “Перевод Ходжи Хофиз”.

**Oriental teaching methods in literature**

**Abstract.** This article devoted to the system of education, classification of teaching ways. The author gives about history of teaching procedures, mainly applied to the learning classical literature paragon which is illustrated the unformation of reading exegesis ways through the source. About exegesis' informationis rely on the practice and results of the trail. The refore the conclusion og methods of exegesis' information is motevatedto theoretical scientific and methodical side.

**Keywords:** way of east, comment of novel, procedure of analyses, revive of translation, Alisher Navai, “Translation of Khoja Khofiz”.

Mustaqilligimiz sharofati bilan tariximizni, ta'lim tizimi tarixiy ildizlarini xolisona o'rganishdek ulug' ma'naviy ne'matga erishdik. Manbalarga e'tibor berar ekanmiz, o'lkamiz tarixi, ta'lim tizimi tarixi, qolaversa sharqona o'qitish usullari tarixini hali o'rganilmagan qirralari tobora ravshanroq namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarning va adabiyot o'qitishning bosh maqsadi bo'lmish barkamol shaxsni tarbiyalash ishida mumtoz adabiyotni bosh omillardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Yaralishidan to bugungi kungacha insonlarga komillik yo'llarida mayoq bo'lib kelayotgan, qadimiy qadriyatlarimiz, ma'naviy an'alarimiz hamda uzoq tarixga ega pedagogik amaliyotimiz bilan bevosita bog'liq bo'lgan tasavvuf ta'limoti g'oyalari to'lig'icha o'tmish adabiyotning sara namunlarida o'z ifodasini topgan.

Odatda kam qo'llaniluvchi so'zlar va atamalarning ma'no doiralari ancha tor bo'lib, nutqda ko'p ishlatiladigan so'zlar keng ma'no doirasiga egadir. Aynan, mumtoz adabiyot namunalarida uchraydigan so'z va atamalar iste'molda kam qo'llanilishi, bizning nihoyatda boy o'zbek adabiyoti tariximizni o'rganishda ayrim muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Tilshunos olimlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, biz kundalik nutqimizda 3 ming atrofida so'z ishlatar ekanmiz. Aslida eng boy, rivojlangan tillardan biri bo'lgan o'zbek tili zahirasi yuz mingdan ortiq ekan. Biz uchun tanish bo'lgan, nutqimizda qo'llanilgan so'zlar miqdori boy tilimizning bir qisminigina tashkil etar ekan. Qolgan iste'molda kam uchraydigan so'zlar miqdori qadimiy, go'zal mumtoz adabiyot namunalarida o'z aksini topganligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Jahon tillarida 400 ga yaqin yozuv mavjud bo'lib, shulardan biri Sharqda keng tarqalgan arab yozuvidir. Bu yozuv o'zining bebaho xazinasida arab, fors-tojik, qadimga turkiy tillarda yaratilgan asarlarni saqlab kelmoqda. Shular qatorida o'zbek adabiyoti tarixi namunalari ham salmoqli o'rin egallaydi. Tabiiyki arab yozuvi sabab, Sharq xalqlari tillaridagi ayrim arabiy, fors-tojik tilidagi so'zlar o'zbek mumtoz adabiyoti tilining boyib, go'zallashib borishiga sabab bo'ldi. Natijada bugungi yoshlarimiz, o'quvchilarimiz uchun tushunilishi qiyin bo'lgan murakkab matndagi asarni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shunday ekan, bu murakkab matnlardagi manbalarni o'quvchilarga talab darajasida yetkazish uchun muqobil usullarga egamizmi?

Mumtoz adabiyot millatimiz tarixida falsafa, pedagogika va ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'langan bo'lib, xalqning ma'naviy, ma'rifiy tarbiyasida o'ziga xos o'ringa ega edi. Bugungi kunda ham ana shu asriy tajribalardan foydalanish, xususan, yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish ishida bu an'analarga murojaat etish yaxshi samara berishi shubhasiz.

Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyotida ramziylik tasvirning yetakchi usuli sanaladi. Shuning uchun hayot voqealari epik ko'lamda hissiy munosabat tarzida tasvirlangan asarlarni o'qitishda syujet voqealarining zohiriy mazmunini bayon etish bilangina cheklanib qolmay, ular vositasida talqin etilgan, ramz tili bilan bayon qilingan mohiyat sharhlanishi lozim. Mumtoz adabiyot (umuman adabiyot) o'qitishdan ko'zlangan bosh maqsadni tarbiyalanuvchilar shaxsiyatida komillik sifatlarini muayyan darajada shakllantirishdan iborat tarzida ifodalash mumkin. Keltirilgan adabiyotning ushbu bosh maqsadidan kelib chiqib, mumtoz adabiyotni o'qitishga qo'yiladigan xos vazifani quyidagicha belgilash mumkin: mumtoz badiiy tafakkur tarzini anglaydigan, obrazlar tabiati va ular o'rtasidagi munosabatni idrok

etadigan, ramziy va majoziy tasvirni talqin va tahlil qila oladigan, mumtoz soʻz jozibasini his etadigan, mutolaani oʻzining hayotiy ehtiyojiga aylantirgan, adabiyotni olam va odamni tushunish vositasi deb biladigan yuksak maʼnaviyatga intiluvchi kitobxon oʻquvchini shakllantirish.

Maʼrifatparvar Abdurauf Fitrat taʼbiri bilan aytganda “maʼrifat dunyosining manbai sifatida tanilgan” yurtimiz oʻz taʼlim tizimiga, ularda amal qilingan sharqona oʻqitish usullariga ega ekanligini manbalar tasdiqlab turibdi. Mumtoz adabiyot namunalari asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan mehr-muhabbat bilan oʻrganib kelingan va maʼlum maskanlarning oʻquv dasturlariga kiritilgan. Adabiyotimiz qanchalik koʻhna tarixga ega boʻlsa, ularni oʻrganishning usullari ham shunchalik qadimiydir. Xoʻsh, ajdodlarimiz tomonidan kashf qilingan usullar qanday nomlangan? Har bir davrning uslubshunoslari asarlar davomida yaratilgan oʻqitishning sharqona usullari matndagi murakkabliklarni ochib berishga xizmat qilganmi? Shu masalani oʻrganish asnosida manbalarga murojaat qilar ekanmiz, turli –tuman oʻqitish usullari mavjudligiga guvoh boʻlamiz.

Maʼlumki, qadim zamonlardan buyon, ilm-fanni oʻrganishning maʼlum usullari kashf qilingan va amalda qoʻllanilgan. Bu usullar asosan murakkab matndagi asarlarni oʻrganishga moslashtirilgan boʻlib, ularning soni taxminan yigirmadan ortiqdir. Barcha oʻqitish usullari qatorida sharhlash usuli ham koʻp yillik amaliy tajribalar asosida maydonga kelganligining guvohi boʻlamiz. Oʻzbek adabiyoti tarixi namunalari qadimgi arab, turk va fors-tojik sheʼriyatida erishilgan yutuqlar zaminida rivojlangan. Ular tomonidan yaratilgan har bir bayt maʼlum bir maqsadni yoritib berishni nazarda tutgan. Bu oʻrinda, har bir soʻzni oʻz oʻrnida qoʻllash, badiiy sanʼat namunalari oqrali sayqal berish, ibora-yu ishoralar bilan bezash orqali tuygʻularni bayon qiladi. Shunday ekan, mumtoz adabiyot namunalari uchraydigan tushunilmagan soʻzlarni sharhlash urgʻuli soʻz gap, ibora, ishora, tarixiy maʼlumotlarni manbalar asosida izohlash lozim boʻladi.

Ushbu maqolada, asosan murakkab matnni oʻrganishda keng qoʻllanilgan sharhlab oʻqish usuli haqida maʼlumot berishni maqsad qildik. Sharq adabiyoti namunalari har satri chuqur falsafiy, irfoni, tarixiy, mantiqiy tushunchalar oʻrin olgan. Asarlardagi bu ilmiy ishtibohlarning mazmunini sharh va izohsiz anglab olishning iloji boʻlmagan. Shu bois murakkab matnlarning ehtiyojidan kelib chiqib sharhlab oʻqish usuli kashf etilgan. "Sharh"- asli arabcha soʻz boʻlib, ochish, bayon qilish, oshkor qilish, cheksiz kabi maʼnolarni bildiradi. Sharhlab oʻqish usuli tarixiy anʼanaga ega boʻlib, uning ilk namunalari Qurʼoni Karim nozil qilingandan soʻng, oyat va suralarni oʻrganishda qoʻllanilgan. Keyinchalik esa, tasavvufiy maʼnolar bilan boyitilgan badiiy adabiyot, xususan, sheʼriyat yaratila boshlangan. Ulardagi diniy va dunyoviy qarashlarning oʻzaro bir-biri bilan uzviy bogʻliqligini anʼanaviy sharhlash usuli orqali oʻz oʻquvchilariga yetkazib berilgan. Alisher Navoiy asarlariga oid lugʻatlarda "sharh" soʻzining maʼnosi "kengroq tushuntirish", "sharh aylamak", "sharh etmak" tarzida bayon etilgan. Baʼzi manbalarda sharh usuli "tadris" shaklida qoʻllanilgan.

Sharh haqida soʻz borar ekan, beixtiyor Alisher Navoiyning bolalikda sevib oʻqigan, uni hayratga slogan, Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” asari haqidagi quyidagi satrlari yodga tushadi:

Zavqi koʻp hushhol etar erdi meni,

Sharhi oning lol etar erdi meni

Maʼlumki, “Mantiqut-tayr” oʻrta asr falasafasining tasavvufga oid yoʻnalishini, taʼlimotini yoritib bergan noyob asarlardan biridir. Muallif asardagi qushlar sarguzashti keltirilgan hikoyatlarning rang-barangligi, goʻzal til bilan ifodalanishi Alisher Navoiyni “zavqi koʻp hushhol” etgani va “sharhi lol” qoldirgani bejiz emas. Eng muhimi, bu asarga boʻlgan oshuftalik shoirni bir umr tark etmaydi. Natijada, “tarjuma rasmi bilan”, boshqa joyda “sharh etgali”, “Mantiqut-tayr” yoʻlida oʻz “Lisonut-tayr” dostonini qogʻozga tushiradi.

Yuqorida shoir asardan foydalanganligi uchun oʻz asarini uning tarjimasini deb ataydi. Tarjima qilibgina qolmay balki uni sharhlaydi. Yaʼni muallifning mahoratini, unda yashiringan botiniy va zohiriy maʼnolarni oʻquvchilarga yetkazishni maqsad qiladi. Chunki, sharq adabiyotining oʻziga xos uslubi murakkab boʻlib, ularni tushunish, asar qatidagi timsilu tashbehlarga oʻralgan fikrlarning magʻzini chaqish uchun alohida nazariy bilim tajriba talab qilinadi. Farididdin Attorning asaridagi teran falsafiy va tasavvufiy fikrlarni yuksak badiiy usulda talqin etish ehtiyoji natijasida, ijodkor uslubi tilining murakkabligiga olib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, asardagi badiiy, falsafiy mushohadalar sirli olam qobigʻida boʻlib, bu ajoyibotlarni ochib berish uchun Alisher Navoiy darajasidagi sharhlovchi boʻlishi lozim edi. Shu bois, oʻzining “Lisonut – tayr” asarida, Farididdin Attor asaridagi yetti vodiy taʼrifini quyidagicha izohlaydi:

Kim necha vodiyu manzildur bu yoʻl,

Emdi men sharh aylayu sen voqif oʻl.

Gap “Lisonut- tayr” asarining tili, tasavvufiy diniy asarlar tili haqida borar ekan, H.Karamatovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir. “... diniy matn va jumladan Qurʼon birinchi oʻqishdayoq oʻz sir-

asrorlarini ochmaydi. Faqat qayta-qayta o'qish va har bir iboraning ma'nosini chuqur o'rganish asosida diniy-falsafiy haqiqatlar jilolanishi muqarrar. Bu borada tafsirning ahamiyati katta bo'lib, uning o'zham islom adabiyotining yorqin sahifalaridan hisoblanadi."

Chindan ham Farididdin Attorning asari tasavvufiy ma'noga yo'g'rilgan nodir asar sifatida mashhur bo'lib, diniy va dunyoviy qarashlarning bir-biri bilan bog'liqligi Qur'on oyatlari yordamida ifodalangan. Matnga sharh yozish namunalari qo'l yozma manbalarda ayniqsa ko'proq uchraydi. Shu o'rinda xorazmlik hattot, tarjimon Muhammad Yoqub Harrot tomonidan amalga oshirilgan "Tarjimon sharhi rumi devoni Hoja Hofiz" asariga yozgan sharhini misol qilib olishimiz mumkin. Sharhlovchi an'anaviy, uslubga amal qilgan holda Hofiz Sheroziyning g'azallaridan olingan namunalarning matla'sidan boshlab, g'azalning oxirgi baytiga qadar har baytni sharhini berar ekan, har bir so'z, ibora, tushunilmaydigan so'zlarga alohida e'tibor qaratadi.

Matndagi har bir satr muallifga tegishli ekanligini izohlash uchun alohida qizil rang bilan ajratib ko'rsatadi. Shundan so'ng, nasr bilan har bir baytga o'zbek tilida sharh berib, alohida murakkab so'zlarga o'quvchining e'tiborini tortish uchun turli ranglar bilan chegaralaydi. Eng ko'p berilgan izohlar har baytga o'ttiz qatordan oshib ketishi mumkin. Bu darajada keng tarzda berishda, tarjimon sharhlovchidan keng bilim, katta mahorat va iste'dod talab qilinadi.

Ba'zi bir o'rinlarda muallif baytlaridagi mashhur va ma'lum falsafiy, mantiqiy mohiyatga ega bo'lgan so'zlarga mukammal sharh berishga to'g'ri kelgan. Eng kam berilgan sharh to'rt-besh qatordan iborat bo'lishi mumkin. Alohida rang bilan ajratilgan izoh "hosili bayt" deb belgilangan jumladir. Eng e'tiborli tomoni shundaki, baytda keltirilgan noma'lum so'zlarning o'zbek tilidagi tarjimasi so'ngra ularning tahlillari va nihoyat "hosili bayt budurkim" qismida baytning yoki g'azalning to'la nasriy ma'no bayoni keltiriladi.

Bunday mas'uliyatli vazifani bajarishga har qanday sharhlovchi ham jur'at etmagan. Asar matnini mahorat bilan sharhlash adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov ta'biri bilan aytganda "Har qanday sharhda tarjima va har qanday tarjimada sharh xususiyati bor"ligi, o'zga tilga o'girilgan har qanday asar o'ziga xos ya'ni bir ijod namunasiga aylanishini inobatga olinsa, mahorat bilan o'girilgan ayrim asarlar o'ziga xos ijod mahsuli sifatida xalq orasida keng tarqalgan.

Ammo, murakkab matndagi asarlarni sharhlashning o'z talablari bor. Sharh esa, asarni anglash uchun yordamchi vosita hisoblanadi. U hech qachon asl matndagi asarning o'rnini bosa olmaydi. Balki, ma'lum bir asar yoki matnning kelib chiqish tarixi, muayyan bir sohaga mansubligi, o'rni, matnda tilga olingan turli voqealar, hikoyatlar, rivoyatlar, shaxslar haqidagi ma'lumotlarni sharhlab, izohlab beradi. Shuningdek, muallif ishora qilgan ba'zi voqea va hodisalar tafsiloti to'liq yoritilmagan o'rinlarni, asar mazmunidan kelib chiqib talqin qiladi. Barcha o'qitish usullari qatorida sharhlash usuli ham ko'p yillik amaliy tajribalar asosida maydonga kelganligining guvohi bo'lamiz. O'zbek adabiyoti tarixi namunalari qadimgi arab, turk va fors-tojik she'riyatida erishilgan yutuqlar zaminida rivojlangan. Ular tomonidan yaratilgan har bir bayt ma'lum bir maqsadni yoritib berishni nazarda tutgan. Bu o'rinda, har bir so'zni o'z o'rnida qo'llash, badiiy san'at namunalari oqrali sayqal berish, ibora-yu ishoralar bilan bezash orqali tuyg'ularni bayon qiladi. Shunday ekan, mumtoz adabiyot namunalarida uchraydigan tushunilmagan so'zlarni sharhlash urg'uli so'z gap, ibora, ishora, tarixiy ma'lumotlarni manbalar asosida izohlash lozim bo'ladi.

Sharh, talqin, izoh haqidagi ma'lumotlar manbalarda ko'plab uchraydi. Biz o'z maqolamizda muxtasar, ammo muhim tomonlariga e'tibor berishga harakat qildik.

Mazkur maqolada keltirilgan sharh talqin izoh usuli nazarimizda bugun umumta'lim maktablari, akademik litsey o'quv dasturlariga kiritilgan mumtoz adabiyot namunalarini ham, avlodlarimiz sinovidan o'tgan sharqona usullaridan biri sifatida foydalanishga ehtiyoj sezilmoqda.

Chunki, avlodlarimizdan qolgan har qanday madaniy, ta'limiy meros, yosh avlod ma'naviyatini oshiruvchi xazinasidir.

#### Adabiyotlar

1. Tursunova M. Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari. T., Mumtoz so'z. 2017-yil 15-b
2. Kattayev K. Samarqand madrasalari va ilm-u fan rivoji. Zarafshon. 2015-yil. 25-b.
3. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T. Fan. 1993. 45-be
4. Ziyoyeva N. H. Hofiz Sheroziy devonining o'zbekcha sharhi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy daraja olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T. 2002-yil. 17-bet.
5. Komilov N. Bir sharh xususida. "Tarjima nazariyasi masalalari" to'plami. T. 1989-yil. 87-bet.
6. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: "O'qituvchi", 1996. 35-bet. – 192 b.
7. To'xliyev B. Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 147 b.

8. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Fayz-media”, 2018 – 352.

UDK: 37

## BUYUK ALOMALARNING YOSHLAR TARBIYASIGA DOIR FIKRLARI

A. Azimov

*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola mumtoz adabiyotimizning buyuk vakillari XII-XIII asrning ulug' zotlari Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy singari buyuk zotlarning yoshlar tarbiyasiga oid fikrlari haqida ma'lumot beriladi. Yoshlarga aytilgan o'gitlar va ularning tarbiyasiga xos xislatlar asarlarida o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** qadimgi yozuv, yozma yodgorliklar, tarixiy hujjat, matn, fikriy iboralar, muhaddis olimlar, fikrlar ravshanligi, qaydnomalar, asotir xulosalar.

### Мысли великих ученых о воспитании молодежи

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о взглядах великих представителей нашей классической литературы, таких как великие деятели XII-XIII веков Ахмад Югнаки, Юсуф Хас Хаджиб, Наджмиддин Кубро, Ахмад Яссави на воспитание молодежи. Советы молодежи и особенности их воспитания отражены в его произведениях.

**Ключевые слова:** древняя письменность, письменные памятники, исторический документ, текст, интеллектуальные выражения, исследователи хадисов, ясность мысли, отчеты, мифические выводы.

### Thoughts of great scholars on the upbringing of young people

**Abstract.** This article provides information about the views of the great representatives of our classical literature, such as the greats of the XII-XIII centuries Ahmad Yugnaki, Yusuf Khas Hajib, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassavi on the education of youth. The advice given to young people and the peculiarities of their upbringing are reflected in his works.

**Keywords.** ancient writing, written monuments, historical document, text, intellectual expressions, hadith scholars, clarity of thought, accounts, mythical conclusions.

Mustaqillik sharofati tufayli milliy tarbiya gulshaniga keng yo'l ochildi. Bundan har bir ota-ona, har bir tarbiyachi-muallim, har bir rahbar, xullas, jamiyatning barcha a'zosi samarali foydalanishi lozim. Shu muhim muammoni hal qilishda, to'g'ri yo'lga quyishda har bir daqiqadan unumli foydalanish kerak. Zero tarbiya ishi qancha erta boshlansa, hosili shuncha erta ko'zga tashlanadi.

Buning uchun eng avvalo, tarbiyalanayotgan yoshlar o'z dinini, tilini, urf-odatini tarixini, madaniyatini va san'atini, milliy odobi, milliy an'anasi va milliy e'tiqod tushunchalarini yaxshi bilishi lozim.

Yoshlarini odobli va komil inson qilib tarbiyalash Davlat ta'lim standartining talabi hamdir. Bu o'z o'rnida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga ota-bobolarimiz ham alohida e'tibor berishgan. O'zidan oldingi o'tgan buyuk zotlar va ularning asarlarini o'rgangan va hayotga tadbiiq etgan. Biz ham ularga ergashib buyuk bobokalonlarimiz Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Imom Ismoil Buxoriylarning bizga me'ros qoldirgan asarlarini, xalq tarbiyashunosligi sharbati bilan yug'rilgan fikr mulohozalarini o'qib o'rganib yoshlar ongiga yetkazmoqdamiz. Bizga me'ros qilib qoldirilgan muqaddas asarlaridagi fikrlar yoshlarimiz tarbiyasida juda asqotmoqda.

Biz bu zotlarning fikrlarini dars jarayonida va darsdan tashqari jarayonda, mashg'ulotlarda, tugaraklarda va yig'inlarda ular ongiga singdirmoqdamiz, dars jarayonida shu mavzularga qayta –qayta murojaat qilmoqdamiz.

Hurmatli o'quvchi, mazkur qo'llanmadagi mualliflarning asarlaridan oilngan ba'zi o'rnlarni hech bir o'zgarishsiz aynan keltirib ularning izohini ham imkoni boricha berishga harakat qildik.

Mumtoz adabiyot vakillarining yozib qoldirgan durdona asarlari bolalarning tafakkur qilish, faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishga, o'zgalar fikrini anglashga, xulosa chiqarishga, og'zaki va yozma malakalarini ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi DTS dasturining talabi va maqsadi vazifalari shu yo'nalishga qaratilganligi ham bejiz emas. Insonni odobli qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga otabobolarimiz alohida e'tibor berishgan. Ular "bir yigitga qirq hunar ham oz" degan naqlga suyanishgan. Shu hikmat zaminida yuksak odob sifatlarini, rang-barang hunarlarni egalashlari zarur. Yusuf Xos Hojib, Ahmat Yugnakiy, Najmiddin Kubro, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Ismoil Buxoriy, Bobur singari allomalar asarlari xalq tarbiyashunosligi sharbati bilan uyg'unlashgan. O'tgan asrning oxiri, hozirgi asrning boshlariga yashab ijod etgan Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniyning tarbiyashunoslik borasidagi qarashlari ibratlidir.

Darhaqiqat, ular Qur'oni Karim va Muhammad payg'ambarimizning bizga meros qilib qoldirgan muqaddas Hadislaridan saboq olishgan. Natijada yuqorida zikr qilingan ulug' zotlarning tarbiyaga oid qimmatli majmualari yuzaga kelgan.

Muqaddas Qur'oni Karim va Hadislar haqida gap ketar ekan, yana bir narsani aytib o'tish joiz. Turikiston xalqi (ayniqsa, hozirgi o'zbek xalqi) Qur'on va Hadislarni targ'ib va tashviq etish borasida juda katta ishlarni amalga oshirishgan. Xorazmlik buyuk zot Zamahshariy, al-Buxoriy, at - Termiziyalar shul bois butun musulmon el-elatlar qalbidan abadiy o'rin olishgan.

Turkiston yurti Rossiya tomonidan zabt etilgandan so'ng, ayniqsa, kommunistik firqa rahbarlari tomonidan muqaddas Qur'oni Karim va Hadislarga nisbatan ayovsiz urush e'lon qilindi. Bu musulmon xalqlarining an'alariga, qadriyatlariga, urf-odatlariga, tarbiya yo'siniga bo'lgan shafqatsizlik edi. Natijada hozirgi zamon odamlari e'tiqod degan ulug' narsadan qisman bo'lsa-da mahrum bo'lib qoldi.

Endilikda mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqiga, jumladan, o'zbeklarga o'zligi qaytarildi, milliy tarbiya gulshaniga keng yo'l ochilmoqda. Bu, albatta, quvonarli hol. Bundan har bir ota-ona, har bir tarbiyachi-muallim, har bir rahbar, xullas, jamiyatning har bir a'zosi samarali foydalanishi lozim. Shu muhim muammoni hal qilishda, to'g'ri yo'lga qo'yishda har daqiqadan unumli foydalanish kerak. Zero, tarbiya ishi qancha erta boshlansa, hosili shuncha erta ko'zga tashlanadi.

Bola tarbiyasi kabi ma'sulyatli vazifa ota-onadan keyin birinchi navbatda bolalar bog'chalari xodimlari zimmasiga tushadi. Bolani tarbiyalashdan oldin tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi, tarbiyachilik sir-asrorlarini mukammal bilishi kerak.

Hozirgi bolani tarbiyalash juda qiyin. Buning turli-tuman sabablari mavjud. Ular milliy tarbiya tizimining izdan chiqqani, ko'pchilik ota-onalar hamda tarbiyachining loqaydligi, ma'sulyatsizligi oynai jahon orqali hamda kinoteatrlarda axloqsiz yoki uyatsiz ko'rsatuv hamda filmlarning namoyish etilishi va shu kabilar bilan bevosita bog'liq. Biror xalqni qul qilish yoki o'zligini unuttirish uchun tarixda hukmron mamlakat turli usullardan foydalanib kelgan. Eng avvalo, uning dinini, dilini tilini toptab olinadi. Qolaversa, tarixini, madaniyatini va san'atini. Shu mo'tabar narsalardan mahrum bo'lgan xalq o'zini doimo qul kabi his qiladi, talab etishini, erki uchun kurashishini unutadi. Shuningdek, milliy odob, milliy tarbiya va e'tiqod tushunchalaridan chalg'iydi. Bu esa og'ir yo'qotishdir.

Bundan yetmish yillar ilgari o'zbek farzandi kattami-kichikmi ota-onasi tugul o'zidan kattalar gapini ikki qilolmasdilar. Hozirga kelib, yoshlar kattalar tugul o'z ota-onasini ham hurmat qilmay qo'yishdi, o'z ota-onalarini qariyalar uylariga eltib qo'yishmoqda. Bu milliy fojidir. Shu fojiani bartaraf etish, tarbiyashunoslikning milliy usul va uslublarini qaytadan tiklash, takomillashtirish, to'g'ri yo'lga qo'yish, bugungi asosiy vazifadir. Shu muhim va mas'ul ish birinchi navbatda bolalar bog'chalari tarbiyachilari zimmasiga tushadi.

Biz texnika asrida yashayapmiz. Bugungi bolalar oynai jahon orqali turli yangiliklardan xabardorlar. Fikrlash ko'lami ancha keng. Barcha ro'znoma va oynomalardan bahramanddirlar. Shu sabab ular tarbiyasida boshqacha usullar talab etiladi. Biz o'ta aniqlik va to'g'rilikni nazarda tutayotirmiz.

Shu talablar tarbiya vositalarini yanada faolashtirishni, rivojlantirishni, mukammallashtirishni taqozo etadi. Ha, bugungi bolalar shunchaki pand-u nasihatlarini xush ko'rmaydi. Bu o'z navbatida yozuvchi va shoirlarga juda katta ma'suliyatlar yuklaydi. Bu ma'suliyat badiiy barkamol, bolani o'ylantirishga, o'zicha fikrlashga, ba'zi hayotiy tugunlarni ochishga unday bilishga o'rgatadigan asarlar ijod qilish bilan bog'liq. Ha, bugungi yozuvchi va shoirlar ham bolalarning bugungi va kelgusi axloqiy tarbiyasi uchun to'la javobgardirlar. Demak, bolalarni yuksak e'tiqodli, ma'naviy barkamol, ajib fazilatlarini, xushfe'l, yoqimtoy mehnatkash, samimiy, rahm – shafqatli kishilar qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni ham belgili. Badiiy so'z ustasi, ya'ni badiiy ijodkor hayot va turmush voqealari - yu hodisalarini haqqoniy tasvirlashlari lozim. Shundagina bola shu asar qahramonlariga ishonadi.

Bolalar bog'chasi tarbiyachilari esa o'sha asarlar orqali tarbiya maqsadlariga erishishga muvaffaq bo'lishlari mumkin. Zero, badiiy asarning tarbiya borasidagi kuch – qudrati, salmog'i o'tmish tarbiyachilik tariximizdan ma'lum. Zotan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari juda ko'p mamlakatlarda axloq va tarbiya sabablari uchun muhim qo'llanma vazifasini o'tagan.

Xullas, milliy axloq, urf – odat, odobning barcha tomonlarini bolaning joniga singdirib, qoniga aralastirib yuborish kerak. Bunda takror aytamizki, sof milliy adabiyot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tarbiyachining xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanishi yaxshi natijalarni qo'lga kiritishda yordam beradi.

Yoshlar tarbiyasida ilm – fanning ahamiyati juda kattadir. yoshlikdan ilm – ma'rifatga qiziqqan bola ulg'ayganda ham insofli – diyonatli, vijdonli bo'lib yetishadi.

Shuning uchun ulug' zotlar bola tarbiyasida limning ahamiyati g'oyat muhimligini alohida ta'kidlaganlar. Mazkur risolada ilm – fanning bola tarbiyasidagi ahamiyatlari mumtoz adabiyot vakillarining ijodlaridan keltirilgan fikrlar asosida yoritishga rag'bat qildik.

Mumtoz adabiyotning vakillaridan biri Ahmad Yugnakiy o'zining “Hibat-ul Haqoyiq” asarida ilm-fanning turli sohalariga oid dunyoviy fanlar bilan birga diniy ilmlar rivojiga ham katta e'tibor berganlar:

\*\*\*

Biliktin ayurman, so'rumga ula,  
Biliklik, yo do'st, o'zungni ula.  
Bilik birla bilinur saodat yo'li,  
Bilik bil saodat yo'lini bo'la. [1]

Fikrning izohi: Bilim haqida so'zlayman, so'zimga quloq sol, ey do'st, ilmli kishiga o'zingni yaqin tut. Bilim bilan soadat yo'li ochiladi, (shunga ko'ra) ilmli bo'l, baxt yo'lini izla. Yoki yana,

Baholiq dinor ul biliklik kishi,  
Bu johil biliksir-bahosiz bishi.  
Biliklik biliksiz qachon teng bo'lur,  
Biliklik tishi-er, johil er-tishi.

Bilimli kishini qimmatli dinnor-oltinga qiyos qilinadi. Bilimlik kishi baholik dinordir. Ilmsiz johil kishi qadr-qimmatsiz buyum-yemishdir. Ilmli kishi bilan ilmsiz odam qachon teng bo'ladi. Bilimlik xotin kishi-er kishidir, bilimsiz erkak-xotin kishidir.

Bu muqoyasa va taqqoslash orqali o'quvchilarga aytadigan gapi-ilmni egallash va uni qadriga yetishni targ'ib qilmoqda.

Sharq xalqlariga xos insoniy fazilatlarining avloddan-avlodga, asrdan-asrga qariyib o'zgarishsiz kelayotganligining sababi ulug' allomalar - daholarning borligidir. Ular o'z ijodlarining samarasi tufayli kelajak avlodga hayotning turli sohaları bo'yicha pand-nasihatlarni qoldirmoqda.

Ilm haqida gapirar ekan, ilmni egallash har bir kishining muqaddas burchi ekanligini alohida ta'kidlaydi. Xalq orasida shunday maqol bor: “ Ilmni Xitoydan bo'lsa ham izlab top". Shu aqidaga amal qilgan ma'rifatparvar shoir ilmni juda qadrlaydi. Hatto iliksiz suyak bo'lmaganidik, ilmsiz erkak bo'lishni tasavvur ham qilolmaydi.

\*\*\*

So'ngakka yiliktak eranga bilik,  
Eran ko'rki-aql (ul) so'ngakning-yilik.  
Biliksiz-yiliksiz so'ngaktak qoli,  
Yiliksiz so'ngakka sunulmas alik.

Shoirning ta'kidlashicha; So'ngakda (ustuxonada) ilik bo'lishi lozim ekanligi kabi er kishiga bilim kerakdir. Er kishining ko'rki aqlidir, so'ngakning ko'rki esa ilikdir. Ilmsiz kishi iliksiz so'ngak kabi bo'shdir, iliksiz so'ngakka esa qo'l urilmaydi. Darhaqiqat, hayot haqiqati ham shuni taqozo etadi. Iligi bo'lmagan suyak-ustuxon oshga solinmaydi.

Ilmi bor kishi o'tirish davralarda to'rga o'tadi, hammaning e'tiborida bo'ladi. Aytgan so'zida ma'no va ta'sir bo'ladi deb ta'riflaydi.

\*\*\*

Bilik bilti bo'lti eran belguluk,  
Biliksiz tirik-la yituk ko'rkuluk.  
Biliklik er o'ltiv-oti o'lmatu,  
Biliksiz esan erkan oti o'luk.

Bu she'rning mazmuni-kishilar ilmni qancha ko'p egallasa, shuncha uning nomi ulug'lanadi. Ya'ni, ilmli kishilarning nomi mashhur bo'ladi, bilimsiz kishilar esa, tiriklayin o'ladi hisob va bu unga ko'rgulik. Bilimli kishi o'lsa ham uning nomi o'lmaydi, ilmsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham oti o'likdir.

Ilk mutafakkirlardan bo'lmish Adib Ahmad Movarounnahr va Xurosonda turkiy elatlar madaniyatini yuksaltirishda katta xizmat qildi. XI-XII asrlarda ijod etgan Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy kabi nafaqat o'zbek xalqi, balki, butun turk olami, hatto islom mintaqasining

buyuk allomalari ichida Adib Ahmad muhim o‘rin egallaydi. Adib Ahmadning “Qutadg‘u bilig” asarida yuzlab turkiy to‘rtliklar uchraydi. Bu to‘rtliklarda yoshlar tarbiyasi, ularning kelajakdagi faoliyati haqida batafsil fikrlar bayon qilingan. Ilm ma‘rifatni egallashga chorlov yaqqol ko‘rinib turadi.

Asarda saxovat, qo‘li ochiqlik, tavoze, insonlarga mehrlilik bo‘lish, vafoli, shavkatli, halim tabiatli, kechiruvchan, kamtar bo‘lish targ‘ib qilinadi. Baxil va ochko‘zlik, zulm va zo‘ravonlik, safsatabozlik qattiq qoralanadi.

Xalqimizda shunday hikmatli gap bor: “ Ilmsiz odam birni yiqar, ilmli odam mingni yiqar”. Shu maqolga adib Ahmad ijodiy yondoshib, yozadi:

Biliklik biringa biliksiz mingin,  
Tengakli tengadi bilikning tengin.  
Boqa ko‘rgil emti uqa sinayu  
Nonang bor biliktin asig‘liq o‘ngin.

Bilimlikning biri bilimsizning mingiga teng. Ilmli kishilar ilm-ma‘rifatning qadriga yetadi. Endi o‘zing sinab ko‘r, o‘qib, boqib ko‘r, bilimdan foydaliroq qanday narsa bor?

Fikrimizcha, hayotning turli sohalariga oid ilm-ma‘rifat, urfonga doir hikmatli, e‘tiborli so‘zlar o‘sha davralarda yaratilgan bo‘lsa ajab emas. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida bayon etilgan bu fikrlar zamon, davr va sharoitlar o‘tib, silliqlashib, ixchamlanib bizga qadar yetib kelgan bo‘lsa kerak.

Asarlarining mazmuni, tili va uslubidan kelib chiqib aytish mumkinki, adib Ahmad Yugnakiy va Yusuf Xos Hojib arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, badiiy adabiyot bilan chuqur tanish bo‘lgan. Bundan tashqari shoir qadim turk yozma adabiyoti, turkiy xalqlar og‘zaki ijodini ham yaxshi bilgan, ular muhitida tarbiya olgan. SHoir turkiy elatlarning qadimiy qo‘shnilari xitoy, mo‘g‘ul, hind, eroniy xalqlar madaniyati, yunon falsafasi boshqa o‘sha davr manbaya hayotining turli tomonlari haqida mukammal ma‘lumot egasi bo‘lgan. O‘sha davr an‘anasiga ko‘ra, arab, fors tillarida ham she‘r ijod qilgan bo‘lishi kerak turkiy adabiy tilda, balki devon ham tuzgandir. Afsuski, bizgacha shoirning yagona dostonidan boshqa asari yetib kelmagan.

Bir asrda yashab o‘tgan ikki ulug‘ zot xalq og‘zaki ijodi namunalari yaxshi bilgan va puxta egallaganlar. Chunki, ularning asarlari mazmun va mohiyatiga e‘tibor bersak, ularda xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog‘lanishi insonlarga xos axloqiy va ma‘naviy yo‘ldosh bo‘lib kelishini yaqqol ko‘ramiz. Xalq og‘zaki ijodida yaratilgan namunalar e‘tibor bersak, ularda ham el-yurt mulkini ko‘z qarochig‘idek asraguvchi qahramonlar ulug‘lanadi, e‘tirof etiladi, targ‘ib qilinadi; uzoq masofalar yaqin qilinadi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma‘qul illatlar tanqid ostiga olinadi; mardlik, ephillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g‘oyalari olg‘a suriladi. Ayniqsa, yoshlarni ilm egallashga rag‘batini alohida ta‘kidlaydi. Bilim, o‘qish va izlanish tufayli inson olim bo‘ladi. Olim kishi ilmi bilan yuqoriga ko‘tariladi. Ilmsiz kishi esa kishining tubanlashtiradi. Bilimli kishi ilmning qadriga yetadi va uni farqlaydi. Ilm qadrini ma‘rifatli insonlar yaxshi biladi.

#### Adabiyotlar

1. Muhammad Ali, Begali Qosimov, Ra‘no Nurmatova “ Navoiyning nigohi tushgan...” Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1986 – yil.( bundan keying misollar ham shu kitobdan olindi).
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standarti. – T.: Yangiyo‘l poligraf service, 2010. – 42-46 b.
3. Uzviylashtirilgan o‘quv dasturi. – T.: Yangiyo‘l poligraf service, 2010. – 46-68 b.
4. Muhammad Ali, Begali Qosimov, Ra‘no Nurmatova “ Navoiyning nigohi tushgan...” Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1986 – yil.( bundan keying misollar ham shu kitobdan olindi).
5. Abdullayeva Q. va boshq. O‘qish kitobi (2-sinf uchun darslik). –T.: O‘qituvchi, 2010. – 192 b.
6. Abdullayeva Q. va boshq. 2-sinfda o‘qish darslari. –T.: O‘qituvchi, 2009. – 266 b.
7. Matchonov S. va boshq. O‘qish kitobi (4-sinf uchun darslik). –T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2009. – 266 b.
8. Husanboeva.Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. Toshkent. Sharq.2013. 346 b.
9. Хусанбоева.Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.2009.-368 б

UDK: 15:37

**YOSHLAR O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI PSIXOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI****A.I.Saidov***Samarqand davlat universiteti*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada sog'lom turmush tarzining psixologik muammolari, ularning shakllanishi, shuningdek ushbu muammolarni hal etishning imkoniyatlari va ijtimoiy psixologik yo'llari o'rganilgan. Shaxsning sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq tadqiqotlarning ilmiy-amaliy natijalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'lom avlod, sog'lom turmush tarzi, sog'lom turmush tarzi psixologiyasi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari.

**Социально-психологические проблемы формирования психологии здорового образа жизни среди молодежи**

**Аннотация.** В статье рассмотрены психологические проблемы здорового образа жизни, её формирования, возможности и социально-психологические пути решения этих проблем. Освещены, научно-практические результаты исследований связанных со здоровей образа жизни личности.

**Ключевые слова:** Здоровое поколение, здоровый образ жизни, психология здорового образа жизни, социально-психологические факторы формировании здорового образа жизни.

**Socio-psychological problems formation of psychology of a healthy lifestyle among youth**

**Abstract.** The article deals with the problems of the psychology of a healthy lifestyle in the family, its formation and possible social and psychological ways to solve these problems. Illuminated, scientific and practical results of research related to healthier lifestyle of the individual.

**Keywords:** Healthy generation, healthy lifestyle, psychology of a healthy lifestyle, socio-psychological factors in the formation of a healthy lifestyle.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda adolatli demokratik jamiyat bunyod etish bosh maqsad qilib belgilandi va bu maqsad sari izchil qadamlar qo'yildi. Bunda inson manfaatlari va haq-huquqlarini to'liq hisobga oladigan, uning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan eng adolatli ijtimoiy makon bo'lmish fuqarolik jamiyatini qurish borasida ham muhim natijalarga erishildi. Jamiyatda sog'lom turmush tarzini yanada shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismoniy sog'lom va ma'naviy boy yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug'ullanishiga keng jalb etilishini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol islohatchilik siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzi haqida so'z borar ekan, uning eng avvalo inson tani va vujudining betob bo'lishiga sabab bo'luvchi zararli odatlardan forig' bo'lishni tasavvur qilishga o'rganib qolganmiz. Bu atama, eng avvalo, sog'liqni saqlash xodimlari faoliyati bilan bog'liq tarzda tushuntiriladi. Ammo, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda - tan va vujud, aql hamda idrok bevosita odamniki, unga bog'liq bo'lgani uchun ham inson ruhiyati qonuniyatlari va sirlarini o'rganuvchi fan bo'lmish psixologiyaning unga aloqasi bor. Shuning uchun ham psixologiya fanida sog'lom turmush tarzi psixologiyasi tushunchasi mavjudki, u sog'lom turmush tarziga eng avvalo, inson ongi va tafakkurining in'ikosi sifatida qaraydi. Demak, har birimiz uchun suv va havodek zarur bo'lgan sog'ligimizni ta'minlash va bunga erishish uchun sog'lom turmush tarziga odat qilish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki psixologlarning, psixologiya fanining ham izlanish predmeti sifatida namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, psixologiya sog'lom turmush tarzini shakllantirishda inson fe'li, xulq-atvori va turli psixologik holatlari nuqtai nazaridan o'rganganda: asosan, har birimiz guyoki sirdek tuyulgan ruhiyatimizning o'zimizni sog'-salomat, beshikast va tetik his qilishimizga aloqador qanday jihatlari borligini, uni boshqarish orqali o'z boyligimiz - salomatligimizni saqlash borasida qo'limizda qanday imkoniyatlar mavjudligini va sog'lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish har birimizga o'z ruhiy holatimizni boshqarish, ongu-shuurimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarni vaqtida ilg'ash orqali

uni mo'tadil tutish, o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashish yo'llarini, bu boradagi profilaktikani o'rganadigan fan hamda foydali amaliyot sifatida tobora hayotimizga dadil kirib kelmoqda [1].

Manbalarda qayd etilishicha, sog'lom turmush tarzi psixologiyasi – bu kundalik turmushni muayyan qonuniyatlar asosida tashkil etib, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turmushimiz ekan, turmushning qanday bo'lishi, o'z hayotini qay yusunda va shaklda tashkil etishga bog'liq, buning uchun har bir inson yashash madaniyatiga va ma'naviyatiga, dunyoqarashiga ega bo'lishi kerak.

Salomatlikni, kishining o'z salomatligiga bo'lgan munosabatini shaxsning muhim komponenti sifatida ko'zdan kechirish lozim. Aytish mumkinki, mazkur soha jamiyat o'z kuchi bilan salomatlik muammolarini hal etishga ojiz ekanini anglay boshlashi sharofati tufayli vujudga kelgan. “Xavf-xatar omillari” kasallik va o'lim bilan bog'liq, demakki uni o'rganish va baholash ham psixologiyaga ham tibbiyotga dahldordir [2]. Ammo ko'plab tadqiqotlar natijalariga asoslanadigan bo'lsak, shuni alohida e'tirof etish kerakki, bugungi kunda tibbiyot sohasi vakillari salomatlik muammosini pedagog va psixologlarga murojaat etmasdan, o'z kuchiga tayangan xolda xal eta olmayapti. Zotan tibbiyot sohasi xodimlarining o'zlarida ham salomatlik bilan bog'liq muammolar yildan-yilga ko'paymoqda [3].

Aholi o'rtasida va ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishda qator ijtimoiy-psixologik muammolarga duch kelinadi. Quyida sog'lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishdagi ana shunday ayrim ijtimoiy-psixologik muammolar borasida fikr yuritishga harakat qilamiz.

**Birinchi**dan, sog'lom turmush tarzining negizi hisoblangan psixik salomatlik sohasi qisqa muddat davomida yirik tadqiqotlar sohasiga aylanib ulgurani ayni haqiqatdir. Mazkur holatni quyidagi raqamlar isbotlab turganini qayd etishimiz lozim. Agar 1975 yili AQShda psixik salomatlikni muhofazasiga oid 200 dastur tatbiq etilgan bo'lsa, 1990 yilga kelib bunday dasturlar 5000 ga ortgan. Hozirgi kunda ular salmoqli iqtisodiy samaradorlikni ko'rsatmoqda. Ayni paytda AQShdagi psixologlarning har o'n nafaridan bittasi psixik salomatlikning u yoki bu muammosi bilan shug'ullanmoqda, shuningdek, ingliz zabon psixologik jurnallarda chop etilayotgan har uchta maqoladan bittasi ushbu sohaning turli jihatlari bilan bog'liqligini e'tirof etish joiz [4].

Shu yo'nalishga doir maxsus jurnallar, kitoblar va monografiyalar chop etilyapti. Uning kengqamrovli amaliy ifodasi turli tashkiliy qarorlar yordamida mustahkamlanmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada “Millat salomatligi” hujjati qabul qilingan bo'lsa, Yevropadagi populyasiyaning psixik va jismoniy salomatligini yaxshilashga qaratilgan bunday tashabbus “Salomatlik barcha uchun” nomini olgan.

Butun G'arb mamlakatlari bo'ylab faoliyat yuritayotgan psixik salomatlik markazlari va klinikalari, xususiy salomatlikni mustahkamlashga yordam ko'rsatish guruhlarini soni kundan-kunga ko'payib bormoqda.

Salomatlik psixologiyasi sohasi mutaxassislari nafaqat umumpsixologik tayyorgarlikka, balki psixogigiyena, psixoprofilaktika, shuningdek, psixosomatik salomatlik va psixoterapiya masalalari bo'yicha ham chuqur bilimga ega bo'lishlari lozim.

**Ikkinchi**dan, biz ko'pincha shahar va qishloqda yashovchi insonlarni bir-biriga taqqoslaymiz, solishtiramiz va turmush tarzidagi ba'zi kamchiliklarni “e, bu qishloqchilikda, imkoniyati yo'q”, - deb qo'ya qolamiz. Ammo insonning yashash tarzini bunga, menimcha hych bir aloqasi yo'q. Har qanday odam qayerda, qanday sharoitda yashamasin, birinchi novbatda o'ziga qulaylik yaratish uchun harakat qiladi. Chunki bu qulaylik uning kundalik hayoti, uning hayot tarzi va salomatligini belgilab beradi. Oddiygina kundalik turmushimizda asqatadigan, kun davomida bir necha bor kirib chiqadigan hojatimiz uchun yaratilgan xonani olib qaraylik. Ba'zi insonlar ana shu hojatga boradigan joyini noqulay, har tomondan shamol esib turadigan, o'tirishga qulay bo'lmagan, hattoki atrofini sholcha bilan o'rab qo'yadigan xonadonlarni ham guvohi bo'lamiz. Qishli-qirovli kunlarda borishga qiynaladigan joylardan tanlab qurilishini aytmaymizmi? Loy va qorning ustidan bolalarning oyoq bosib, borib kelishi esa, ularning kasalga chalinishiga sabab bo'ladi. Xo'sh, bu shunchalik katta mablag' talab etadimi? Yoki kishining e'tiborsizligimi, yoyinki, uning oqibatlarini nimalarni keltirib chiqarishini bilmaslikmi? Shunga o'xshash insonlarning qimmatboho mebellar, jihozlar bilan bezatilgan uylari borligi, to'y-hashamlarni me'yoridan ortiq bo'lishiga pul sarflaganligini ko'rib, “nohatki, oddiygina xo'jayonini risoladagidek qilib qo'yishga imkoni yetishmasa” deb o'ylaysiz. Shuningdek haftada bir bo'lsada kirib yuvib chiqadigan xammomning yo'qligini aytmaymizmi. Agar mahallada yoki qishloqda xammom bo'lmasachi? Bularning hammasi yana takror bo'lsada, insonda

turmush tarzi madaniyatining yetishmasligi, ma'naviyatining pastligi deb baxolash mumkin. Oqibatda ayniqsa, turli ayollarga xos kasalliklarni kelib chiqishiga, kasallikni tarqatuvchi omilga aylanishiga yo'l ochib beramiz va o'zimizning madaniyatsizligimizni oshkor namoyon etamiz. Biz hamma qishloqda yashovchilar shunday ahvolda deydik, ba'zi xonadonlarda yaratilgan imkoniyat, shaharliklarnikidan a'lo desak bo'ladiganlarni uchratish mumkin.

**Uchinchidan**, sog'lom turmush tarziga amal qilib yashash ko'nikmasi insonda birdan paydo bo'lib qolmaydi, u o'ziga xos malaka ham talab etgan bois ilk bolalik chog'laridanoq, unga oilada o'rgatib borish lozim. Bu ota-ona zimmasidagi eng muhim, mas'uliyatli vazifalardan biridir. Barcha ota-onalar farzandlarini tarbiyalar ekanlar, doimo ogoh bo'lishga, sergak turishga intiladilar. Bu e'tibor bolaning barcha narsalari yetarli bo'lishi, sihat-salomatligi joyidaligi, darslariga muntazam qatnashishini nazorat qilish kabi me'yorlar bilan chegaralanib qolishi mumkin. Masalan, uyqudan uyg'onamiz, fikrimiz bugungi kun rejaları va ularni amalga oshirish bilan band, katta-kichik, yoqimli-yoqimsiz, lekin bugun bajarilishi zarur va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar. Eng muhim "tashvishimiz" – farzandimiz. Uyg'otish, yuvintirish, qornini to'ydirish, kiyintirish va o'z vaqtida bog'chasi yoki maktabiga eltib qo'yish, kundalik yumushlarimiz asnosida u yana yodimizga tushadi, maktabdan keldimikin deb o'ylaymizu, qo'ng'iroq qilib odobli bola bo'lib, darslarini qilib o'tirishi lozimligini ta'kidlaymiz. Ishdan qaytgach, tuganmas uy yumushlariga sho'ng'iyimiz, ular orasida bolaning darslarini tekshirgan bo'lamiz, u bilan ozgina vaqt ajratib suhbat qura olamiz yoki yo'q... ertasiga yana shu zayl takrorlanadi. Bunga shu qadar ko'nikib keganimizki, xatti-harakatlarimiz haqida deyarli o'ylab ko'rmaymiz, aksincha shu ishlar asnosida miyamiz butunlay boshqa xayollar bilan band bo'ladi. Bola uyqudan qay ahvolda uyg'ondi? Nonushta tayyorlashga, dasturxonni yig'ishtirishga ko'maklashdimi? Maktabga qanday kayfiyatda ketdi? Qanday xayrlashdi? Oxirgi tanbehingizga qanday javob qaytardi? Vaqtini qanday o'tkazaypti? Uni to'g'ri taqsimlay olyaptimi? Umuman shaxs sifatida qanday shakllanyapti? Shu va shunga o'xshash minglab savollar balki erish tuyulishi mumkin, ammo bularning barchasi jamiyatning bo'lg'usi a'zosi kelajakda qanday shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratuvchi muhit hisoblanadi.

Kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish muammosini hal etishga xizmat qiladigan quyidagi ijtimoiy-psixologik muammolarga yechim topish talab etiladi:

- sog'lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning ijtimoiy - psixologik jihatlarini pedagogik va psixologik nuqtai-nazardan ochib berish;
- sog'lom turmush tarzi psixologiyasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish va yoshlarning tarbiya tizimida qo'llanilish ko'lamini, mazmunini ochib berish;
- yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi psixologiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini nazariy jihatdan asoslanib uning samaradorligini amaliy tajribalarda aniqlash;
- yoshlarning sog'lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning ta'lim tizimi o'quv-tarbiyaviy jarayonidagi o'rnini va mavqiyeni aniqlash va samarador tizimini ishlab chiqish;
- yoshlarning sog'lom turmush tarzi psixologiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik treninglar ishlab chiqish, ularning mazmuni va samaradorligini baholash.

Yuqoridagilarni muhtasir qilib qayd etish mumkinki, sog'lom turmush tarzi psixologiyasi bir tomondan, insonning jismoniy salomatligi va kamolotini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, inson ma'naviy, mafkuraviy va ruhiy salomatligi, uning shaxs sifatida barkamol voyaga yetishining asosini tashkil qiladi. Nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy, ruhiy jihatdan o'zini sog'lom xis qilgan odamgina jamiyatning faol a'zosi bo'lib, o'ziga va atrofidagilarga naf keltirishi mumkin. Zero, oila va yosh avlod sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir.

#### Adabiyotlar

1. Oila psixologiyasi. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik. /Prof. F.B.Shoumarov tahriri ostida. - Toshkent, 2008.
2. Allen, I. (1988) Doctors and their Careers. London: Policy Studies Institute.
3. Bennet, G. (1987) The Wound and the Doctor: Healing Technology and Power in Modern Medicine. London: Seeker & Warburg.
4. Borril, C. S., Wall, M. A., West, G. E., et al (1996) Mental Health of the Workforce in NHS Trusts. Leeds: Institute of Work Psychology, University of Sheffield & Department of Psychology, University of Leeds.

UDK: 15:37

**ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA  
TAYYORGARLIGINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI****G.A.Xalbayeva***Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligining psixologik muammolariga bag'ishlangan bo'lib, maqolada bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishi, ularni bilim olishga bo'lgan qiziqishlari va motivatsiyasini oshirishda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, maqolada o'yin faoliyati, rasm chizish, buyumlar yasash va turli xil faoliyatlarda vujudga kelgan kundalik muloqot ham bolaning bilim va ko'nikmalarini kengaytirib borishi, turli interfaol mashqlar orqali bola tafakkurini o'stirish yo'llari va bunda yuzaga keladigan muammolar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'z:** maktabgacha ta'lim, bola, shaxs, intellekt, innovatsiya, motivatsiya, bilim, ko'nikma.

**Психологические проблемы подготовки детей к школьному образованию в  
современной психологии**

**Аннотация.** Данная статья посвящена психологическим проблемам подготовки детей дошкольного возраста к школьному образованию, в статье представлена информация о роли дошкольных образовательных учреждений в формировании здорового, всестороннего развития ребенка, повышении его интереса и мотивации к получению знаний. Кроме того, в статье были рассмотрены вопросы игровой деятельности, рисования, изготовления предметов и повседневного общения, возникающие в различных видах деятельности, а также пути расширения знаний и навыков ребенка, развития детского мышления посредством различных интерактивных упражнений и возникающие в этом проблемы.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, ребёнок, личность, интеллект, инновация, мотивация, знания, умения

**Psychological problems of preparing children for school education in modern psychology**

**Abstract.** This article is devoted to the psychological problems of preparing preschool children for school education. The article provides information about the role of preschool educational institutions in the formation of a healthy, comprehensive development of a child, increasing his interest and motivation to acquire knowledge. In addition, the article discussed the issues of play activities, drawing, making objects and everyday communication that arise in various activities, as well as ways to expand the knowledge and skills of the child, the development of children's thinking through various interactive exercises, and the problems that arise in this regard.

**Keywords:** preschool education, child, personality, intelligence, innovation, motivation, knowledge, skills

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Hozirgi kunda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo'yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy nazariy va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimining eng muhim vazifasi bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirish va bolalarni maktabga tayyorlashdir. Bolalarni maktabga tayyorlash – bu oz-o'ziga yangi muammo emas, chunki bu muammolarni hal qilish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida barcha chart-charoitlar mavjud.

Biroq, bolalarni maktabga tayyorlash masalalarini hal qilish, boshlang'ich maktabning to'rt yillik o'qish muddatiga o'tishi bilan bog'liq bo'lib, u bolalar bog'chasi va maktab ishida uzluksizlikni tashkil etishda muvofiqlashtirilgan o'zgarishlarni talab etadi.

Shu o'rinda "maktabga tayyorgarlik" to'plamiga kiritilgan tarkibiy qismlar qanday degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu, birinchi navbatda o'quvchilarning "ichki holati", kuchli intellektual tayyorgarlik, shuningdek vizual vositalarga muvofiqlashtirish, jismoniy tayyorgarlikning yetarli darajasini o'z ichiga olgan motivatsion, shaxsiy tayyorgarlikdir. Ajralmas qism – keng qamrovli ta'lim, shu jumladan aqliy, ma'naviy, estetik va mehnatdir.

Shunday qilib, maktabga kirib borayotgan bola bilish manfaatlarining rivojlanish darajasini, ijtimoiy mavqei o'zgartirishga, o'rganish istagiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, u vositachilik, ichki axloqiy vakolatlar, o'z-o'zini hurmat qilishi kerak. Ushbu psixologik xususiyatlar va fazilatlarining kombinatsiyasi olimlar fikriga ko'ra maktabga psixologik tayyorgarlikka ko'maklashadi.

Bir qator xorijiy olimlarning ishlarida, bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligining rivojlanish muammolari bilan bog'liq ko'plab savollar tadqiq qilingan. Jumladan, katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini umumnazariy jihatlari (P.P. Blonskiy, 1997; L.S. Vigotskiy, 1983; V.V. Davidov, 1986; E. Erikson, 1993; J. Piaje, 1969; va boshqalar); bolalarni maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligining mazmundor va tarkibiy jihatlari (M.R. Bityanova, 1998; A.L. Venger, 1988; N.I. Gutkina, 1996; I.V. Dubrovina, 1991; va boshqalar), katta maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi shakllanishining tarkibiy amaliy asoslari (M. Donaldson, 1985; A.N. Leontev, 1975; S.L. Novoselova, 1978; S.L. Rubinshteyn, 1989; va boshqalar); bolalarni rivojlantiruvchi ta'limning gumanistik asoslari (Ye.N. Volkova, 1992; N.F. Vinogradova, 2000; M. Montessori, 1997; K. Rodjers, 1995; va boshqalar)[6].

Ushbu mavzulardagi ilmiy ishlarning keng qamrovli bo'lishiga qaramay, bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligi muammosi yuzasidan hali ko'plab savollar maxsus o'rganish doirasidan chetda qolgan.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan bolalar bog'chasida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda (A.B. Zaparajets, A.A. Venger, G.M. Lyamina, G.G. Petrogenko, J.V. Taruntayeva va boshqalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsini rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlarda: "Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik" va "Maxsus tayyorgarlik" tarzida ko'rib chiqiladi.

N.Gutkina bolalarni maktabga tayyorlashda g'ayratli rolni ta'kidlaydi. Muallif o'z boshimchalikga alohida e'tibor beradi, uning kam rivojlanishi maktab ta'limida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning asosiy sharti hisoblanadi. Maktabga tayyorlanadigan birinchi sinf o'quvchilari ta'limning bilim va ijtimoiy sabablaridan tashkil topgan ta'lim motivatsiyasiga ega bo'lishlari kerak. O'quv maqsadi, yozuvchining fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolaning ruhiy rivojlanishining eng yuqori cho'qqisiga aylandi, shuning uchun eng keng ma'noda ta'lim olish uchun kerakli va yetarli darajadagi razvedka mavjudligini nazarda tutadi [5]. A.L.Venger nuqtai nazaridan maktabga tayyorgarlik intellektual, motivatsion, hissiy va boshqa yutuqlarning oddiy summasi emas, balki komponentlarning shartli ajratilishi mumkin bo'lgan yaxlit ta'lim sifatida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan muayyan faoliyatni tartibga solish bilan tavsiflanadi. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bolani kattalarning ko'rsatmalariga yo'naltirilganligi va vazifaning holati, muayyan vaziyatni tahlil qilish mexanizmlari va ehtimoliy harakatlar rejasini ishlab chiqish, rejani belgilangan me'yorlarga rioya qilish mexanizmlari, ushbu rag'batni aks ettiruvchi me'yorlar va hissiyotlarga rioya qilishni rag'batlantirish [4]. Shunga qaramay, ta'kidlanganidek, maktab ta'limi uchun psixologik tayyorgarlikni ko'rib chiqishda, zamonaviy psixologiyani o'rganishda muayyan yondashuvlarga qaramasdan, ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha yagona va aniq fikr yo'q.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish shakllari natijalarga erishish emas, balki bilim, mahorat va ko'nikmalar hosil qilish o'quv faoliyatining maqsadidir. Bu maqsad uning asosiy xususiyatini belgilaydi.

Bola rasm chizish jarayoniga qiziqsa va chiroyli chizishga harakat qilsa, bunday jarayon o'yin yoki samarali harakat hisoblanadi. Lekin qachonki bola rasm mashg'uloti vaqtida o'z oldiga ma'lum



maqsad qo'ysa, bu harakatlar ta'lim ko'rinishiga ega bo'ladi. Masalan, avvalgilardan yaxshiroq rasm chizish, tasvirni to'g'ri bo'yash yoki tekis chiziqlar chizish ham shunday harakat turlariga kiradi.

Ta'lim olish vaqtida va bolaga oldingi avlod tomonidan qoldirilgan tajribani yetkazib berishda bolaning psixik rivojlanishi amalga oshsada, bilim va ko'nikmalarni aksariyat qismini u kattalar bilan muloqotda, ularning talablarini, maslahatlarini va ko'rsatmalarini bajarish davomida o'zlashtiradi. Shuningdek o'yin faoliyati, rasm chizish, buyumlar yasash va turli xil faoliyatlarda vujudga kelgan kundalik muloqot ham bolaning bilim va ko'nikmalarini kengaytirib boradi. Kattalarning bola bilan bo'lgan har xil uslubdagi muloqot negizida ta'lim yotadi.

Ammo u bolaning rivojlanishiga qarab sistematik xarakterga ega bo'ladi. Bolalar ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida muayyan dasturlar asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ta'lim oladilar. O'yin usullari va samarali topshiriqlardan foydalanish bunday hollarda muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga mashg'ulotlar vaqtida bolalarga tanish bo'lgan talablar qo'yiladi: to'liq va sifatli bilim va ko'nikmalar hosil qilish, tarbiyachini tinglash va uning ko'rsatmalarini to'g'ri bajarish. Mashg'ulotlar orqali bilim berish o'quv faoliyatini boshlang'ich qoidalarini egallashda muhim ahamiyatga ega. O'quv faoliyatini boshlang'ich qoidasi bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllanishini va o'rganish qobiliyatini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Atrof-muhit haqida yetkazilgan xilma-xil ma'lumotlar bolada qiziquvchanlik paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Kattalar tomonidan gapirib berilgan va ko'rsatilgan narsalar, yoki bolaning o'z ko'zi bilan ko'rganlari ham unda yangiliklarga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi mumkin. Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda qiziquvchanlikning o'sishi, aksariyat hollarda ular tomondan berilayotgan savollar soni va ularning turini o'zgarishida namoyon bo'ladi. Uch-to'rt yoshli bolalar savollari yangi bilim olishga, tushunarsiz narsalarni aniqlashtirishga qaratilgan bo'lsa, maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar savollarini aksariyat qismini shunday savollar tashkil qiladigan bo'ladi. Turli xil hodisa sabablariga, ular orasidagi bog'liqlikka qiziqadilar. «Nimaga yomg'ir yog'yapti?»; «Nima uchun o'simliklarni sug'orish kerak?»; «Nimaga doktor kasalni urib, eshitib ko'radi?»; «Yulduzlar qayerdan paydo bo'ladi?»; «Traktorga kichik uyni joylashtirsa olib keta oladimi?»; «Agar barcha suvlar dengizga quyilsa, keyin ular qayerga g'oyib bo'ladi?». Bu olti yoshlik bolaning doim berishi mumkin bo'lgan savollarining kichik ro'yxatidir.

Shunday bo'lsada qiziquvchanlik bolani o'qishga, sistematik tarzda bilim olishga hali tayyorligini ta'minlay olmaydi. U yoki bu hodisaga qiziqish bolada tez sodir bo'ladi va shuningdek tez yo'qoladi ham, yoki boshqa bir qiziqishga aylanadi. Yuqorida keltirilgan savollar ro'yxatidan ko'rinib turibdiki, bolani turli xil voqelik sohaslariga oid bo'lgan hodisalar qiziqtiradi. Rivoj topgan uslubga ko'ra esa, hodisalarni aniq turlariga va jihatlariga bo'lgan barqaror qiziqish ta'lim tomonidan talab qilinadi. Bunday hodisalar matematika, ona tili, biologiya kabi o'quv fanlarini mazmunini tashkil etadi.

Ayrim hollarda maktabgacha yoshdagi bolalarda aniq va barqaror qiziqish erta namoyon bo'ladi va ular bolalarni bilim olishda hayratlanarli natijalarga erishishlariga sabab bo'ladi. Izlanishlarga ko'ra mashg'ulotlar vaqtida bolalarga alohida, tarqoq ma'lumotlar emas, balki aniq tartibdagi bilimlar berilsa, barcha bolalarda matematikaga, tilga, jonli va jonsiz tabiat hodisalariga bo'lgan qiziqish kerakli me'yorda shakllanadi. Bu bilimlar bolalarga voqelikni barcha sohasiga xos bo'lgan hodisalarni asosiy bog'liqligini tushuntirib berishi kerak. Matematika sohasida bu o'lchovni o'lchanuvchiga, qismni butungacha, birlikni ko'plikga bo'lgan bog'liqligidir. Til sohasida esa so'z tuzilishini uning ma'nosiga bog'ligligi, jonli tabiat sohasida hayvonlarni va o'simliklarni tuzilish xususiyatlarini yashash sharoitiga bo'lgan bog'liqligidir va h.k..

Bunday obyektiv qonuniyatlarga asoslangan hodisalar bilan tanishuvdan so'ng bolalar ularni ayrim hollarda namoyon bo'lishini katta qiziqish bilan kuzatib boradilar. Bolalar ko'z o'ngida atrof-muhitning notanish qirralari ochiladi va ular ta'limni ajoyib kashfiyotlarga yo'l ekanligini tushunadilar.

O'qish va doimo yangi bilimlarga ega bo'lish istagi bolalarda barqaror va aniq qiziqish uyg'otadi. O'qish qobiliyati avvalo o'quv topshirig'ini bilim olish uchun bajarilayotgan topshiriq sifatida tushunishni, bu topshiriqlarni amaliyotdan, xayotiy vaziyatlardan ajrata olishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagi bola ba'zida matematik masalani eshitgach, uni yechish yo'llariga emas, balki masaladagi tavsiflangan vaziyatga qiziqish bildiradi. Shu sababli u masalani yechishdan bosh tortadi: «Oyisi to'rtta konfet yeb, ikkitasini o'g'liga bersa, birgalashib nechta konfet yeyishgan bo'ladi?». Bunday «adolatsiz» tasvirlangan masaladan achchiqlangan bola: «Nimaga Valiga buncha oz konfet

beradi? Teng bo'lishishi kerak edi», – degan savolni beradi. Boshqa hollarda bola tezroq javob olish ilinjida o'ziga tanish bo'lgan taxminiy qo'shuv va ayiruv amallaridan foydalanadi. Ikkala holda ham bilim olishga intilish yo'qligi ko'rinadi. Masala shartlarida tasvirlangan vaziyat, xayotiy vaziyatni tasviri bo'lganligi uchun muhim emas, balki masalalarni to'g'ri yechishni o'rganish uchun oddiy material ekanligini bola tushunishi kerak. Masalani yechish mazmuni uni javobini tez topishda emas, balki shartlardan kelib chiqqan holda, qaysi arifmetik amalni qo'llash lozimligini aniqlashda va bu mahoratdan keyinchalik ham foydalana olishidadir.

Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar odatda berilayotgan bilim va ko'nikmalar o'yinda, rasm chizishda yoki boshqa ularni o'ziga jalb qiluvchi harakatda darhol qo'llansagina, o'quv topshiriqlarini qabul qiladilar. Maktab yoshiga yaqinlashgan bolalarda maxsus tashkillashtirilgan o'quv sharoitida o'quv topshiriqlarini o'zlashtirilgan materiallarni darhol amalga oshirish imkoniyati bilan bog'lamsdan qabul qilish qobiliyati paydo bo'ladi. Bilimni kelajakda «foйда keltiradigan» qilib o'zlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yin (loto, rasmlı kubiklardan har turli ko'rinishlar chiqara bilish, son-sanoq, mozaika, shashka, topishmoqlar kabi) maktabgacha yosh davrida oddiy o'quv topshiriq usuliga ko'ra bilim olishning samaraliroq yo'lidir, didaktik o'yinlar ko'pincha turli vazifalar bilan bog'liq bo'lgan qobiliyatlar va tafakkurlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bu jihatdan didaktik o'yinlar katta guruh bolalarini maktabdagi o'qish faoliyatiga tayyorlash vositalaridan biridir. Biroq shu narsani eslatib o'tish kerakki, bolalarning o'qish faoliyati bevosita didaktik o'yinlardan kelib chiqmaydi. Ammo kichik va o'rta maktab yoshida didaktik o'yin asosiy o'rin egallasa, katta bog'cha yoshi davrida bu farq ancha pasayadi. Bu bolalarni o'quv topshiriqlarini qabul qilish qobiliyati oshayotganini bildiruvchi ko'rsatkichdir. Bu bolalarni amallarning bajarilish usullariga e'tibor bera boshlashi, ularni o'quv topshiriqlarini mazmunini tushuna boshlaganini bildiradi. Ular ongli ravishda bu usullarni egallashga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar biror maqsadga qaratilgan kuzatuvlarni, predmetlarni tasvirlashni, qiyoslashni va ularni guruhlarga bo'lishni, hikoya va suratlarni mazmunini bir-biriga bog'lagan holda gapirib berishni, arifmetik masalalarni hisob va yechim yo'llarini topishni va hokazolarni o'rganadilar. Masalalarni to'g'ri bajarilishi va kattalar tomonidan qo'yilgan talablar amalga oshishi muhim ma'noga ega bo'ladi. Bunday hollarda bolalar kattalarga bajarilgan u yoki bu o'quv topshiriqlarini to'g'riligini baholashlarini so'rab tez-tez murojaat qiladilar. Masalan, maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar masofaviy aloqani aniq tasvirlashni o'rganish jarayonida, bir necha marta tarbiyachiga murojaat qiladilar: «Meni chizayotganim o'xshayaptimi, iltimos, ko'rib bering?»; «Burchagi burchagiga to'g'ri kelishi kerak, bu uchburchak narigisini to'g'risida bo'lishi kerak. To'g'rimi?».

Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida uning erkin harakat qilish maydoni kengayadi. Bu esa tafakkurning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'z tajribalarida ancha narsalarni bilib olganlaridan so'ng narsalarning ichki xususiyatlari bilan ham qiziq boshlaydilar. Shu sababli ularda juda ko'p savollar (Bu nima? Nega bunaqa? Kim qilgan? Qayerdan kelgan? Nima qiladi? kabi) paydo bo'ladi. Bu tafakkurning aktiv va jadal rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi.

Bolalarning savollariga doimo ahamiyat bilan qarash kerak. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki katta odamlar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik, sinchkovlik susaya boshlaydi. Bolalarning savollariga javob berish qiyin, chunki ular o'zlari hali mutlaqo tushunmaydigan narsalar va hodisalar haqida ham savol beraveradilar. Tarbiyachi bolalarning son-sanoqsiz savollariga ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda javob berishi va tushuntirishi lozim.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsaga tushuna olmaslik, biron narsadan taajjublanish, hayron qolish natijasida hosil bo'ladi. Juda ko'p ota-onalar va ayrim tarbiyachilar bolalar ortiqcharoq savol bersalar, ularni «Ko'p mahmadona bo'lma», «Sen bunday gaplarni qayerdan o'rganding», deb jerkib tashlaydilar. Bola bir necha marta ana shunday pand yegandan so'ng, kattalarga savol bermaydigan, ayrim murakkab narsalarni o'z bilganicha yoki afsonalardagi kabi xato tushunadigan bo'lib qoladi. Masalan, 7 yoshli bola «Yomg'ir qayerdan yog'adi?» degan savol berdi. Bu bolaga yomg'irning yuzaga kelishi juda sodda va tushunarli qilib gapirib berildi (hatto sovuq oynaga issiq par bilan ta'sir qilganda suv zarrachalarining yuzaga kelishi misol qilib ko'rsatildi). Bola biroz qarab turib, yo'q unaqa emas deb javob berdi. Bo'lmasa, qani sen tushuntirib ber, deb so'raldi. Shunda bola quyidagicha tushuntirib berdi: «Yomg'ir osmonda yashaydi, uning uyi bulutlardan ham

balandda. Bulutlar ochilib ketgan paytda yomg'ir yiqilib ketadi...», – deb tushuntirdi. Bolaning ana shunday afsonaviy tushunchasidan voz kechib, to'g'ri, ilmiy tushunchani yuzaga keltirguncha ancha vaqt ketadi.

Bolalarning beradigan savollari juda qiziq bo'lishiga bir necha sabablar bor:

1) bolalar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni qanday bo'lsa, shundayligicha, ya'ni yaxlit holda, xuddi rasmdagidek aks ettiradilar;

2) narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik va sababiylikni chuqur analiz va sintez qila olmaydilar;

3) ularda turli tabiat va jamiyat hodisalariga doir ilmiy tushunchalar tarkib topmagan va yetilmagan bo'ladi;

4) bolalarda ularning turmush tajribalari juda oz bo'ladi.

Ayrim bolalar haddan tashqari ko'p savol beradilar, boshqa bir bolalar esa deyarli hech savol bermaydilar. Bolalarning juda ko'plab savollar berishlari ijobiy xarakterga ega bo'lib, bu ularning qiziquvchanligi, faolligi va mustaqilligidan darak beradi. Odatda, juda passiv va tortinchoq bolalar savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va ekskursiyalar vaqtida tarbiyachining o'zi savol berishi, shu bilan ularni faollashtirib borishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar fikr yuritish jarayonida ayni shu chog'da idrok qilayotgan narsalargina emas, balki ilgari idrok qilgan narsalariga ham tayana oladilar. Masalan, bolaga ilgaridan ma'lum bo'lgan biron topshiriq yoki savol berilsa, u o'z tasavvuriga asoslanib, qiynalmay, darhol javob qaytaradi. Chunonchi 6 yoshli bir boladan «Yong'oq suvda cho'kadimi yoki oqadimi?» deb so'ralganda, u «oqadi» deb javob bergan. Bolaning to'g'ri javob berganligiga sabab shundaki, u o'z tajribasida yong'oqni suvga tashlab ko'rgan. Bu bolalarda induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning eng sodda shakllari yuzaga kela boshlaganini ko'rsatadi.

Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkurining xarakterli xususiyatlaridan biri ular tafakkurining hamon obrazli bo'lishidir. Ular o'zlarining mulohazalarida mavhum tushunchalarga emas, balki aniq faktlarga asoslanadilar. Shuning uchun ular mavhum tusda berilgan oddiy vazifalarni hal qila olmaydilar. Biroq, katta guruh bolalarida, ayrim narsa va hodisalarning muhim belgilariga qarab, umumlashtirish qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Masalan, bola olma, o'rik, nok, olcha, olxo'ri, uzum, anor, behi va anjirlarning rasmlarini to'plab, meva deb ataydi. Ular endi meva degan umumiy tushunchadan o'z nutqlarida erkin foydalana oladigan bo'ladilar. Bolalar xilma-xil rasmi lotolar bilan o'ynash jarayonida ana shunday umumlashtirishga o'rgana boshlaydilar. Bunday o'yinlarda ba'zan tarbiyachining aralashuvi va bolalarga umumlashtirish yuzasidan (masalan, hayvonlar, hasharotlar, gullar, qushlar, o'yinchoqlar va hokozolar) berilgan topshiriqlarni bajarilishiga yordam beradi. Bola narsalarni bir-biriga taqqoslab, o'xshash va farq tomonlarini ajrata boshlaydi. Masalan: «Kvadrat va to'rtburchakni taqqoslab, kvadrat va to'rtburchakni to'rt tomoni bor, shuning ushuni ular o'xshash. Lekin farqi shundaki, kvadratni to'rtala tomoni va to'rt burchagi teng, to'rtburchakning esa qarama-qarshi tomonlari teng». Bolalarning oddiy masalalarni yechish haqida fikr yuritishga va u haqida so'zlab berishga imkoni bo'ladi. To'rt-besh yoshli bola masalani amaliy harakat bilan yechadi va u haqida nutqi orqali so'zlab beradi. Masalan: 4 yoshli bola kuch bilan quvurga ilinib qolgan bayroqchali tayoqchani tortadi, lekin chiqara olmaydi. Shunda bola quvur ichiga yuqoridan qarab tayoqchani ehtiyotkorlik bilan aylantiradi va bayroqchani chiqarib oladi. Masala hal etildi. Demak, kichik guruh bolalari masalani amaliy harakat orqali yechadilar va bajarilgan ishga nutqlari bilan yakun yasaydilar. 5-6 yoshli bolalar oldiga qo'yilgan masalani oldindan o'ylab, uning rejasini tuzib oladilar. Bu ichki, ovozsiz nutq orqali amalga oshiriladi. Masalani og'zaki yechadilar: Masalan: «Daraxtga 7 ta qushcha qo'nib turibdi. Ulardan ikkitasi uchib ketdi, daraxtda nechta qushcha qoldi?» Demak, bola tafakkurini o'stirishda turli xil ta'limiy mashg'ulotlarning roli katta. Mashg'ulotlar bola aqlini o'stirishda, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bolaning tafakkurini o'stirishda birinchi navbatda tushunchalar hosil qilishdan boshlanadi.

Mashg'ulotlar yordamida elementar matematik tasavvurlarni o'stirish bolalarda taqqoslash qobiliyatini o'stiradi: ularni xulosalar chiqarishga va sodda masalalarni yechishga o'rgatib boradi. Kubiklar, doirachalar, kvadratlar va poloskalar yordamida bolalarga narsalarni taqqoslashga, o'xshatish va farq tomonlarini ajrata olishga, ayrim narsalardan guruh to'zish va guruh orasidan bittasini ajratib olishga narsalarni bir necha teng qismga, ya'ni 2 ga va 4 ga bo'lishga o'rgatish va ularni taqqoslashga o'rgatib borish zarur.

Tayyorlov guruhlariga borganda o'n ichida tartib bilan sanashga va og'zaki masalalar yechishga o'rgatish bilan bola tafakkurini o'stirish mumkin. Bolalarning ekskursiya va sayllar paytida kuzatuvchanligi ortadi, ular turli narsalarni taqqoslashga, analiz-sintez qilishga o'rganadi. Masalan: boqqa ekskursiyaga chiqqan bolalar bog'ning bir chekkasida yer kovlayotgan toshbaqaning oyoqlarini belkurakka o'xshatsa, ikkinchi bola ekskavatorning kovushiga o'xshatadi. Bunday taqqoslovchi mulohazalar bolalar tafakkurini o'stirishga aktiv ta'sir etadi.

Bugungi kunda bog'cha yoshidagi bolalarning keng tarqalgan muammolari quyidagilardir.

1. Bola psixik taraqqiyoti darajasining yosh normasiga mos emasligi, ya'ni rivojlanishdagi qiyinchiliklar: xotira, diqqatning yomonligi va boshqalar.

2. Maktabda o'qishga tayyorgarlik. Bu yerda muammo ota-onaning bolani 6 yoshdan o'qitishga qaror qilganligi va bu bilan bog'liq holda bolaning maktabda yaxshi o'qib keta olishi yoki o'qiy olmasligi.

3. Shaxsiy rivojlanishning salbiy ko'rinishlari va odamlar bilan kirishib ketishlik muammolari.

4. Bolaning o'z harakatlarini rejalashtira, boshqara va baholay olmasligi. Ota-onaning bola bilan nizolashishi.

5. Bolaning bolalar muassasasiga ko'nikishi.

Yuqoridagi keng tarqalgan muammolarni tuzatish masalalariga to'xtalsak agar, unda bog'cha yoshidagi shaxsni mukammal o'rganishimiz kerak. Chunki bog'cha yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotini korreksiya qilish sezgi va idrok qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Barcha bolalar uchun rasm chizish, plastinadan har-xil narsalar yasash, aplikatsiya va qurilish faoliyatlari keng qo'llaniladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkurini tuzatishda bilish motivlarini rivojlantirish, obrazli tafakkurini rivojlantirishda esa syujetli va rolli o'yinlar, qoidali o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

Bolaning maktabga yetuklik darajasini aniqlash, ya'ni uni ta'lim olishga tayyormi yoki tayyor emasligini bilish lozim. Buning uchun esa alohida metodikalar mavjud, masalan, bolalar bilan dastlabki tanishish uchun Kern Yerasik testi, "Uycha", "Grafik diktant", "Torens" metodikalari va boshqa metodikalardan foydalanish ancha qulaydir. Masalan, Kern Yerasik testiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu test 3 ta topshiriqdan iborat:

1. Erkak kishining rasmini chizish.
2. Gapni ko'chirish.
3. Nuqtalarni ko'chirish.

Har bir topshiriq 5 baholi sistema bilan baholanadi va topshiriq natijalari qo'shib umumiy baho chiqariladi. Agar bola barcha topshiriqlarni bajarishda 3-5 ballgacha olgan bo'lsa, demak bunday bolalarning taraqqiyoti yuqori ya'ni maktab ta'limiga tayyor deb hisoblanadi. Topshiriqni bajarish jarayonida bola 6-7 ballgacha to'plagan bo'lsa unda maktab ta'limiga tayyorgarlikning o'rta darajasi hamda 8-9 ballgacha to'planganda maktab ta'limiga tayyorgarlikning o'rtadan past darajasi deb olinadi. Bunday bolalar bilan tarbiyachi qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazishi talab etiladi. Agar bola tadqiqot jarayonida 10 va undan ortiq ball olsa, bunday bolalarning psixomotor sohasi to'liq rivojlanmagan deb baholanadi. Biroq, Yerasikning fikri bo'yicha bolalarda test o'tkazilganda yaxshi natija olish bu maktabda yaxshi o'zlashtirishning nisbatan ishonchli asosidir, lekin, yomon natija maktabga tayyor emaslik, yomon o'zlashtirish haqida xulosa chiqarish uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas [9].

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha tarbiya muassasalarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Maktabga tayyorgarlik muayyan darajada aqliy rivojlanishni, shuningdek, insonning zarur xususiyatlarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, olimlar bolaning maktabga bo'lgan intellektual va shaxsiy tayyorgarligini farqlaydilar. Ikkinchidan, bola shaxsning xulq-atvori va axloqiy xususiyatlarining ijtimoiy motivlarini rivojlantirishning ma'lum darajasi talab etiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar va ekspertlarning fikricha, maktabga psixologik tayyorgarlik bolalarning asosiy mentalitetini shakllantirishda namoyon bo'ladi: motivatsion, ma'naviy, kuchli, aqliy, umuman ta'lim materiallarini muvaffaqiyatli o'qitishni ta'minlaydi.

Ta'limni modernizatsiyalashtirish ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. Bolani maktabga tayyorlashning diapazoni ancha keng va innovatsion bo'lishi zarurdir. Ushbu diapazonga qo'yidagi tendensiyalar shakllanib turishi va ulardan barpo etilgan ijobiy jarayonlar bolaning boshlang'ich maktabdagi nafaqat pedagogik (ijtimoiylashuv) muammolar balki psixologik muammolardan muvaffaqiyatli chiqishiga kafolat beradi:

- Ota-onalarning innovatsion yondashuvi;
- MTTda ta'lim-tarbiyaviy jarayonlari innovatsion tizimda sistematik bo'lishi;

Albatta, MTTning psixologi o'z faoliyatini kichik shaxsga yo'naltirganida ijtimoiy ko'nikmalardan foydalanishi kerak.

Ota-onaning innovatsion yondashuvi quyidagilardan iborat:

- ota-onalarni bolani maktabga tayyorlashda internet materiallari bilan tanishtirishi;
- maxsus adabiyotlar bilan chuqur tanishishi va foydalanishi;
- psixolog bilan maslahatlashishi;
- oilada sog'lom turmush tarzini yaratishi va h.k.

MTTda ta'limiy-tarbiyaviy jarayonlarning innovatsion tizimda sistematik (doimiy) bo'lishi quyidagi pedagogik shakllarni nazarda tutadi:

- MTTda bolalarni maktabga tayyorlashda mashg'ulotning eng yaxshi va innovatsion ssenariysini ko'rib chiqish va rag'batlantirish;

- Eng foydali va innovatsion texnologiya bo'yicha MTTning xodimlari o'rtasida ko'rik-tanlov o'tkazish;

- Ota-onalarning fikrlari bilan tez-tez yaqindan tanishish;

- Ota-ona, psixolog, tarbiyachi, ma'muriyat ichki konsepsiyasini innovatsion asosida boyitish;

- Ota-onalar bilan treninglar o'tkazish va h.k.

Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Bolaning psixologik tayyorgarligini o'rganish uchun uning turli jihatlarini: motivatsion, intellektual va psixologik tayyorligini aniqlash, bolaning maxsus ijtimoiy funksiyalari bo'lgan kattalardek o'qituvchiga bo'lgan munosabati hamda tengdoshlari bilan muloqotning zarur shakllarini rivojlantirish lozim.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" PF-5198-son farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Богданова Т.Г. Диагностика когнитивной сферы ребенка. - М.: рос педагогическое, 1994. 54 стр.
3. Венгерская Л.А. Диагностика учебной деятельности и социального развития детей. - Ну и что?- Академия, 1981. 75 стр.

4. Гуткина Н.И. Психологическая подготовка к школе. - М. НПО "Образование", 1996. 67 стр.
5. Дошицина З.В. Оценка уровня образования детей в школе с разной степенью дифференциации. - Ну и что?- Новая школа, 1994. 42 стр.
6. Нижегородцева Н. Развитие познавательных процессов и личности в старшем дошкольном возрасте: учеб. пособие. Ярославль, 1996. 35-36 стр.
7. Алферов, А.Д. Психология развития школьников /А.Д. Алферов.— Изд-во: Феникс, 2001. — 384 с. ISBN: 5-222-01226-3
8. Венгер, А.Л., Поливанова, К.Н. Особенности принятия учебных заданий детьми шести лет // Вопросы психологии: науч. жур. — М.: 2003. — №4. — С.46-48.
9. Бабкина, Н.В. Оценка психологической готовности детей к школе: учебное пособие для психологов и специалистов коррекционно-развивающего обучения / Н.В. Бабкина. — М.: Айрис-пресс, 2005.-144с. ISBN:5-8112-1315-8

UDK: 370.153+15

### DAVLAT BOSHQARUVI VA SHAXS RUHIY SALOMATLIGI

**M. T. Isakova**

*Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ruhiy salomatlik jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan psixologik va ijtimoiy farovonlik holatidir. Ushbu maqolada shaxs ruhiy salomatligi va davlat boshqaruvi haqida nazariy ma'lumotlar keltirildi. Amaliy tadqiqotda shaxsning psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi faktorlar qatorida boshqaruvning shaxs ruhiy salomatligiga ta'siri o'rganildi. Natijalar tahliliga ko'ra xulosalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Salomatlik, ruhiy salomatlik, davlat boshqaruvi, ijtimoiy farovonlik, psixologik farovonlik.

### Государственное управление и психическое здоровье личности

**Аннотация.** Психическое здоровье - это состояние психологического и социального благополучия, которое способствует развитию общества. В этой статье приводятся теоретические сведения о психическом здоровье человека и государственном управлении. В практическом исследовании изучалось влияние управления на психическое здоровье человека среди факторов, влияющих на психологическое здоровье человека. По результатам анализа были сделаны выводы.

**Ключевые слова:** Здоровье, психическое здоровье, государственное управление, социальное обеспечение, психологическое благополучие.

### Public administration and mental health of person

**Abstract.** Mental health is a state of psychological and social well-being that contributes to the development of society. This article provides theoretical information about mental health and public administration. The practical study examined the impact of management on human mental health among the factors that affect human psychological health. Based on the results of the analysis, conclusions were made.

**Keywords:** health, mental health, government administration, social well-being, psychological well-being

Salomatlik tushunchasi nimani anglatishi hammaga ayon. Bu eng ixcham tushuncha "kasallikning yo'qligi" iborasini bildiradi. Odatda biz ushbu iborani tana a'zolari, organlar va tizimlar faoliyatida buzilishlar bo'lmagan sog'lom odamga nisbatan qo'llaymiz. Biroq ruhiy salomatlik bilan bog'liq holda uning ma'nosi o'zgaradi. Ruhiy salomatlik - inson o'z salohiyatini ro'yobga chiqaradigan, hayot qiyinchiliklari va stresslariga samarali qarshilik ko'rsatadigan, samarali ongli faoliyatni amalga oshiradigan va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan psixologik va ijtimoiy farovonlik holati. Ruhiy salomatlik bizning hissiy, psixologik va ijtimoiy farovonligimizni o'z ichiga oladi. Bu bizning fikrlash, his qilish va harakat qilishimizga ta'sir qiladi. Shuningdek, u stressni


qanday yengishimiz va tanlov qilishimizga yordam beradi. Ruhiiy salomatlik hayotning har bir bosqichida, bolalikdan va o'smirlikdan to balog'at yoshiga qadar muhimdir. Shuningdek, ruhiy salomatlik – bu ruhiy farovonlik darajasi yoki ruhiy kasallikning yo'qligidir. Ruhiiy sog'lom insonda hissiy soha va xulq-atvor birligi darajasi qoniqarli ishlaydigan holatda bo'ladi. Pozitiv psixologiya nuqtayi nazaridan, ruhiy salomatlik insonning hayotdan zavq olish va hayot faoliyati bilan psixologik barqarorlikka erishish harakatlari o'rtasida muvozanatni yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shunday ekan, jisim salomatligida ham ruhiy salomatlikning o'rni beqiyos. Agar, insonning ruhiy olami kasallik va illatlardan holi bo'lsa, u har qanday jismoniy kasalliklarni yengib o'ta oladi.

Oxirgi paytlarda jahon sog'liqni saqlash tizimida inson ruhiy salomatlik muammosi dolzarb muammolar sirasiga kirdi. Chunki, ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir etuvchi omillar ko'p va ularning soni kundan kunga ortib bormoqda. Bunga global o'zgarishlar: tabiiy ofatlar - suv toshqinlari, zilzilalar, yong'inlar, azon qatlamining emirilishi hamda ijtimoiy ofatlar - urushlar, informatsion hurujlar, madaniy to'qnashuv va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shaxs ruhiy sog'lomligini yemiruvchi hamda uni mustahkamlovchi omillar va vositalarni o'rganish orqali uning ko'p tomonlama muvaffaqiyatga erishishiga yordam berish mumkin. Ular qatoriga davlat boshqaruvini ham kiritishimiz mumkin. Davlat boshqaruv tizimi shaxs ruhiy salomatligida ham ijobiy ham salbiy rol o'ynaydi. Har bir shaxs albatta qaysidir bir jamiyat yoki davlat ta'siri ostida bo'ladi. Jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar va voqealar insonlarga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shunday ekan, davlat boshqaruvidagi har bir amalga oshirilayotgan ishlar uning fuqorolarining ma'naviy va ruhiy olamiga ahamiyatli ta'sir etadi.

Boshqarish - xo'jalik ob'ektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo'naltirish jarayoni; sub'ektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy ob'ektlarga ongli maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo'naltirish va ko'zlangan natijalarga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Boshqaruvning iqtisodiy, mamuriy va ijtimoiy usullari mavjud. Boshqaruvning iqtisodiy usulida kutilgan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy vositalardan foydalaniladi. Bu vositalar (rejalashtirish, texnik iqtisodiy tahlil, foyda, rentabellik, narx, kredit, moddiy rag'batlantirish, soliq va boshqalar)dan to'g'ri foydalanish muhim o'rin tutadi, ishlab chiqarish jamoasini tashkil etadigan kishilarning shaxsiy va guruhiiy manfaatlarini yuzaga chiqarish orqali ularning samarali ishlashi taminlanadi (masalan, ishchilarga qo'shimcha ish haqi to'lash, mukofotlar berish, bir yo'la katta pul bilan takdirlash va boshqa rag'batlantirish choralari). Boshqaruvning mamuriy usuli buyruq va farmoyishlar asosida olib boriladi. Mamuriyat o'z xo'jaligi doirasida bo'limlar, guruhlarni, shuningdek, xodimlarni tabaqalashtirib, ularning vazifalari, mas'uliyati va huquqini belgilaydi. Unda rejalashtirish, resurslarni, foydani, tayyor mahsulotni taqsimlash, mablag'lardan foydalanish markazlashtirilgan tartibda olib boriladi. Boshqaruvning ijtimoiy usuli esa jamiyatdagi davlat va shaxslar orasidagi o'zaro ta'sirlar, aloqalar va bog'lanishlarni tizimlashtirishdan iborat. Ana shu uch usulning har birida faoliyat yuritayotgan shaxslarga davlat olib borayotgan eng kichik tadbir ham yoki qilinayotgan o'zgarishlar ham salbiy yoki ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa, bugungi kunda davlat va uning fuqorolari orasidagi munosabatlar har tomonlama mustahkamlanayotgan bir paytda shaxslarning o'zgarishlarga reaksiya qaytarishi ham tezlashadi. Yuqoridagi fikrlarimizni amaliy o'rganish maqsadida tadqiqot olib bordik. Tadqiqot davomida Farg'ona viloyatining ayrim xududlarida istiqomat qilayotgan oilalarda ruhiy salomatlikka ta'sir etuvchi omillarni o'rganish maqsadida bandlik, shaxsiy moliyaviy ahvol, sog'liqni saqlash, ishdan bo'sh vaqt, oilaviy do'stlar, uy sharoitida ta'lim olish, madaniy dam olish, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, din va diniy e'tiqod, shaxsiy erkinlik (xuquqlar), qo'shnihilik, shaxslararo munosabatlar, kundalik turmush (yashash sharoiti), to'g'ri ovqatlanish kabi omillar shaxsning psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi faktorlar sifatida tanlab olindi va so'rovnomaga o'tkazildi. Ushbu maqolada boshqaruvning shaxs ruhiy salomatligiga ta'siri borasidagi respondentlardan olingan ma'lumotlar tahlilini berishlikni vazifa qilib belgiladik. Tajribada 432 nafar turli ijtimoiy mavqedagi respondentlar ishtirok etdi.

Tadqiqot o'tkazilishi jarayonida dastlab, respondentlarga shaxs salomatligi va unga ta'sir etuvchi omillar, salomatlikni buzilishiga olib keluvchi faktorlar haqida ma'lumotlar berildi. Hamda ulardan inson sog'-salomat bo'lishi uchun boshqaruv faktorining qay darajada (asosiy, yordamchi, ahamiyatsiz) ta'sir etishini aniqlab berishliklari so'raldi. Shuningdek, fikr bildirish uchun taklif berilgan faktor bo'yicha qo'shish mumkin bo'lgan shaxsiy fikrlarini bildirishliklari ham so'raldi.

Davlat boshqaruvi (1 - rasm)




1-rasm. Davlat boshqaruvinin ruhiy salomatlikdagi o'rni

Boshqaruvni shaxs ruhiyatiga qanday ta'siri borligini ushbu rasmdan ko'rsak bo'ladi. Respondentlarning 48,8 foizi davlat boshqaruvinin ta'sirini asosiy omil deb, 38,4 foizi yordamchi omil deb, 11,3 foizi ahamiyatsiz omil deb, belgilagan bo'lsalar, 1,4 foiz ishtirokchilar hech bir javobni belgilamaganlar. Erkin va demokratik jamiyat davlat tizimi, jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat uchun sharoit yaratib beradi. Bu esa har bir shaxsga ta'sir qiladi va yashash uchun sharoit yaratadi. Davlat boshqaruvi shaxs erkinligi bilan bog'liq bo'lib, korrelyasiya natijasi  $r=0,1418$ , ishonchlilik darajasi  $P < 0,01$ ga teng. "Agar men biron-bir iqtisodiy yoki siyosiy cheklolarga ega bo'lgan jamiyatda yashagan bo'lsam, menda hech qanday hotirjamlik, osoyishtalik bo'lmasdi yoki yashay olmasdim"deb, bildirilgan javoblar bejizga emas. Qonun ustuvorligi salomatlikning qo'shimcha omili sifatida ko'rildi, shuningdek, ijtimoiy xavfsizlik esa hamma uchun aniq va rioya qilinadigan birgalikda yashash qoidalariga bog'liq. Shaxsning huquqlari hurmat qilinishini va kimdir ma'lum darajada hukumat tomonidan himoya qilinishini his qilishi ularning ruhiy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat boshqaruvi din va diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lib, korrelyasiya natijasi  $r=0,2326$ , ishonchlilik darajasi  $P < 0,001$ ga teng. Kishilarni diniy-ruhiy ehtiyojlarini qondirish uchun davlatimiz tomonidan dinga bo'lgan munosabatlar natijasida diniy o'quv markazlari, diniy oliy o'quv yurtlari tashkil etilganligi fikrimizning dalilidir.


Biroq ommaviy axborot vositalari yomon xabarlar va salbiy voqealar to'g'risida, shuningdek bizning mentalitetimizga zid bo'lgan xorij madaniyatini targ'ib qiluvchi, saviyasi past xorij kinofilmlarini namoish etishi ba'zi respondentlarning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi sezildi. Boshqa mamlakatlarning yangiliklari yoki dunyodagi voqealar (masalan, umuman olganda dunyoga xavf solayotgan, odamlarni xavotirga solayotgan pandemiya, zilzila, suv toshqinlari, boshqa tabiiy ofatlar va hokazo) shu kabilar respondentlarning xavotirligini oshirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Respondentlar davlatning xavfsizligi va uning tinchligi, jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlik odamlarning ruhiy salomatligi uchun juda muhimligini ta'kidlashgan.

Shuningdek, tadqiqotda davlat boshqaruvinin ruhiy salomatlikdagi ahamiyatini aniqlashda respondentlarning jins va ma'lumotlilik darajasiga ko'ra ham so'rovnomani olindi va ularning javoblari tahlil qilindi. Davlat boshqaruvi jinslar kesimida berilgan javoblarda deyarli katta farqlar sezilmaydi (rasm 2 va 3). So'rovnomani natijasiga ko'ra, erkaklarning 50,8 foizi davlat boshqaruvinin ruhiy salomatlikka ta'sir etishini asosiy omil sifatida tanlagan. Ma'lumotlilik darajasiga ko'ra esa 51,4 foiz oliy ma'lumotli respondentlar boshqaruvni asosiy omil sifatida belgilagan.





**2-rasm.** Davlat boshqaruvining ruhiy salomatlikdagi ahamiyati jinsiy tafovutga ko'ra



**3-rasm.** davlat boshqaruvining ruhiy salomatlikdagi ahamiyati ma'lumotlilik darajasiga ko'ra

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, shaxs ruhiy salomatligi faqat shaxsning o'zigagina bog'liq emas. Unga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p va uni qanday qabul qilish hamda yengib o'tish esa har bir individning o'z imkoniyatlariga bog'liq. Qaysi omil kimga qanday ta'sir etishi ham turlichadir. Lekin, tadqiqotimiz natijalariga ko'r, davlat boshqaruvini respondentlarning ko'pchilik tanloviga ko'ra asosiy omil sifatida belgilangan. Buning boisi deb har bir shaxsning ongli jihatdan boshqaruvni his etishlari va unga tayanishlari deb qarashimiz mumkin. Chunki, inson o'zi ustun deb tan olgan boshqaruvga suyanadi va ergashadi. Jamiyat faoliyatining jadallashuvi yoki sustlashuvi ham unda olib borilayotgan boshqaruv tizimiga bog'liq hisoblanadi. Bu o'rinda aholining ma'lumotlilik, ziyolilik darajasi ahamiyati beqiyos. Shuning uchun ham davlat boshqaruvidagi har qanday qarorlar va harakatlar shaxslarning ruhiy olamiga qanday ta'sir etilishi inobatga olinadi va olinishi ham zarur bo'lgan asosiy jihatdir.

#### Adabiyotlar

1. Abulkhanova - Slavskaya, K. A. Life Strategy [Text] / K.A. Abulkhanova - Slavskaya. - M.: Thought, 1991. -- 299 p.
2. Aleksandrovsky, Yu. A. Through the eyes of a psychiatrist [Electronic resource]: Electronic journal "Psychological science and education." - 2012. No. 4. Access to the magazine

3. Aleshina, Yu. E. Family development cycle: research and problems [Text] / Psychology of the family. Reader: textbook. manual for the departments of psychology, sociology, economics and journalism. - Samara: Publishing house "Bahrah-M". - 2002. -- 356 p.

4. Isakova M.T., Yuldesheva N.Sh. The role of traditions in the cognitive and behavioral development of the child. // Bulletin of integrative psychology 2019. April 5 №.04. 89-91 p. 112.

5. Isakova M.T., Yuldesheva N.Sh. Thinking or intellect. // Scientific Bulletin 2018 № 06 issue. 173-175 p. 113. As the beginning of imitation knowledge.//Scientific Journal of Psychology 2019 № Issue 4.

6. M.Isaqova., N.Yuldasheva. Views of European Scholars on the Psychology of Religion Printed Psychology. Scientific journal. 4 (32) / 2018 Bukhara. 2018.ISSN: 2181-5291

7. Orekhova I.L., Shurupova M.V. The pedagogical system of health-saving activity of the correctional educational organization: managerial aspect: monograph. Chelyabinsk: Publishing House of the South Ural State Humanitarian Pedagogical University, 2018.174 s

8. Perepelkina T.V. The role of family education in shaping the health of younger students // Kazan Pedagogical Journal. 2013. No4 (99). S. 80-85. ]

9. Pavlov B.S. Family and self-preserving behavior of youth // Economy of the region. 2008. No2. S. 109-121. p. 11

**UDK: 159.92**

### **KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING XARAKTER XUSUSIYATLARIGA PSIXOLOGIK TASNIF**

**M. U. Toxirova**

*Samarqand Davlat Universiteti.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ko'rishda nuqsoni bor shaxslar xarakter xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan sog'lom shaxslar xarakteri bilan solishtirgan holda ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** individual psixologik xususiyatlar, xarakter, ijtimoiylashuv, muloqot.

#### **Психологическая классификация личностных качеств лиц с нарушением зрения**

**Аннотация.** В данной статье описываются личностные особенности людей с нарушениями зрения в сравнении с характером теоретически и практически здоровых людей.

**Ключевые слова:** индивидуальные психологические особенности, характер, социализация, общение.

#### **Psychological classification of personal qualities of persons with visual impairment**

**Abstract.** This article describes the personal characteristics of people with visual impairments in comparison with the nature of theoretically and practically healthy people.

**Keywords:** individual psychological characteristics, character, socialization, communication.

Har bir inson tug'ilganidan beqiyos tuhfaga ega. Ushbu maqolani o'qiyotgan har bir kishi rang-barang dunyo jilosidan rohatlana oladi. Tabiat go'zalligidan, erta tongda yoki oqshomda oynalarda oftob nurlarining o'yinidan, bizni qamrab olgan minglab turli tuman go'zal va so'lim narsalarga nazar solib ko'zlari quvnaydi. Qisqa qilib aytganda ushbu maqolani o'qiyotgan har bir kishi ko'rish kabi ulug' ne'matga ega. Ammo aytish lozimki, bu baxt hammaga ham nasib etmagan, ayrim shaxslar to'liq yoki qisman zulmatda yashaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 45 mingdan ortiq ro'yhatga olingan ko'zlari butunlay yoki qisman ojiz fuqorolar istiqomat qilib kelmoqda. Ularning hayoti siz ko'nikkan dunyodan butunlay farq qiladi. Siz kun davomida hatto o'ylamay bajaradigan vazifalar ular uchun katta qiyinchilik tug'dirishi yoki umuman bajarib bo'lmaydigan vazifaga aylanishi mumkin. Buning sababi sog'lom kishilar hayot tarzi, atrof – muhiti ko'zi ojizlar uchun butunlay moslashtirilmagan.

Ko'rishda nuqsoni bor bolalarni jamiyat uchun kerakli, ruhiy sog'lom shaxs qilib shakllantirish maxsus psixologlar, pedagoglar, diffektologlar va boshqa mutasaddi xodimlar oldida turgan dolzarb masaladir.

Tiflopsixologiyaning bugungi kunga qadar turli xil baxs va munozaralarga sabab bo'layotgan masalalaridan biri sog'lom kishilar va ko'zi ojizlar psixologiyasidagi o'xshashlik va tafovutlardir. Defektologiya fani asoschilaridan L.S.Vigotskiy sog'lom va nuqsonli bolalar ruhiy rivojlanishini taqqoslab tekshirishga katta e'tibor berdi. «Nuqsonli rivojlanishga to'g'ri ta'sir va tasnif berish mumkin, qachonki normal rivojlanish bilan uni taqqoslab o'rganilganda», degan edi olim [3].

Ko'zi ojizlar psixologiyasini o'rganinsh uchun ularning individual psixologik xususiyatlarini, hissiy emotsional sohasini, bilish jarayonlarini sog'lom shaxslar bilan solishtirish lozim. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz ushbu maqolamizda ko'rishda nuqsoni bor shaxslar va sog'lom shaxslar xarakter xususiyatini solishtirishni maqsad qildik.

Maqola uchun aynan xarakter mavzusini tanlaganimizning sababi - "har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor xarakter muammosiga qaratiladi. "Xarakter" so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib "tamg'a, belgi" degan ma'noni anglatadi" [2]. Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatayotgan har qanday shaxs o'zining individual psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter hislatlarida o'z ifodasini topadi. Shu boisdan insonning barcha individual xususiyatlarini xarakter hislati tarkibiga kiritib bo'lmaydi. Chunonchi aqlning topqirligi, xotiraning barqarorligi, ko'rishning o'tkirligi kabi individual psixologik xususiyatlar bunga misoldir. Psixologiya fanida xarakterga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari ta'kidlanganligi bilan bir-biriga muvofiq tushadi. Masalan, shaxs xulqining tipik usullar bilan bog'liq faoliyat muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi uning barqaror xususiyatlari majmuasi xarakter deyiladi. Shaxsning jamiyatga nisbatan munosabatlari uning asosiy belgisi hisoblanadi".

Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlari yig'indisi tushuniladi. Xarakterda hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'sirida tarkib topgan va uning irodaviy faoliyatida, atrof-dagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarni tushunamiz. Xarakterning juda ko'p xususiyatlari odamning ish harakatlarini belgilovchi chuqur va faol moyillik hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakter hislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha obyektiv sharoitlarga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi. Xarakter hislatlari ma'lum tarzda harakat qismlariga, ba'zan esa sharoitga qarama-qarshi harakat qilishga undar ekan, ular hayotiy qiyin daqiqalarda yaxshiroq namoyon bo'ladilar va bu xarakterni, shuningdek barkamol avlodni tarbiyalashning muxim vazifasidir. Shaxsning qat'iyatlilik, tanqidiylik, fahm-farosat, kuzatuvchanlik kabi hislatlari intellektual, quvnoqlik, mehribonlik hissiy-irodaviy sifatlarga kiradi.

Yuqorida aytib o'tilgan xarakter haqidagi ma'lumotlar umumiy psixologik qonuniyatlarga tayangan holda bayon qilindi. Keling endi biz ko'zi ojiz shaxslarda mavjud xarakter hislati haqida to'xtalamiz. Ko'rishda nuqsoni bor shaxslarning shaxsiy xususiyatlaridan biri xarakter va uning hislatlaridir. Xususan, ko'zi ojiz shaxslar ham bir-birlaridan xarakter hislatlari jihatidan farq qiladilar. Xarakter deb, xar bir insonning yashash sharoiti, ta'lim-tarbiyaning ta'sirida tarkib topgan, atrof-muhitdagi odamlarga, narsalarga, o'ziga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan yakka xususiyatlarga aytiladi. Ko'zi ojiz shaxslarning xarakter xususiyatlari doimiy, mustahkam bo'ladi. Har bir shaxsning o'ziga xos hislatlari bo'lib, ularda xarakterning irodaviy, axloqiy hislatlari aks etadi. Ko'zi ojiz bolalar xarakterining irodaviy hislatlariga iroda kuchi, mustaqillik, qat'iylik, chidamlilik, matonat, o'zini tuta bilish hislatlari kiradi. "Xarakter hislatlari tug'ma ravishda berilmaydi" [1] - ko'zi ojiz bolaning yashash sharoiti, ta'lim-tarbiyaning, ota-onaning munosabatlari, o'qituvchi-tarbiyachilarning muomala, munosabatlari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xarakter hislatlarini tarkib toptirishda namuna bo'lishning ahamiyati katta. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» maqoli bejiz aytilmagan. Ko'zi ojiz bolalar o'zlarining atrof-dagi boshqa bolalardek jismoniy jihatdan ojizliklarini yaxshi sezadilar, o'zlarini boshqalardan chetga tortishga ham harakat qiladilar. Bolalar maxsus maktabga kelganlaridan so'ng, moslashish jarayoni ham ko'zi ojiz bolalar uchun turlicha kechadi. Bu ko'zi ojiz bolaning xakteri, temperamenti bilan bog'liq yakka xususiyatlariga bog'liqdir. Ta'lim-tarbiya faoliyatida xuddi o'zidek imkoniyatlari cheklangan bolalarni ko'rib, ular bilan birgalikda barcha faoliyatlarda ishtirok etib, o'zlarinnng yakka xususiyatlarini bemalol namoyon etadilar. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarga qabul qilingan ko'zi ojiz bolalarning ota-onalari ba'zan o'zlari ham xayron bo'lishadi. Uyda doim bir joyda o'tirar edi, bu yerda juda faol, sho'x bo'lib ketibdi, kabi

fikrlarni bildiradilar. Bu bolalarning yakka xususiyatlari hisobga olinib ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilsa, ko'zi ojiz bolaning mavjud qobiliyatlari, hislatlari rivojlantirilsa, ko'zi ojiz shaxslar ham yuqori natijalarga erisha oladilar. Ko'zi ojizlik shaxslarning biologik, ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qila olmaydi. O'z vaqtida ko'rsatilgan yordam, ta'lim-tarbiyaniig to'g'ri yo'lga qo'yilishi ko'zi ojiz bolalardagi turli ijobiy hislatlarni tarbiyalashga, shakllantirishga asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Tiflopsixologik adabiyotlarda qayd qilinishicha ko'zi ojiz shaxslar ruhiyatini o'lchovchi mezonlar sog'lom shaxslarniki bilan bir xil. Shuni inobatga olgan xolda biz ko'rishda nuqsoni borlar va sog'lom shaxslar xarakter hislatlarini o'rganish maqsadida kichik tatqiqot o'tkazdik. Ushbu tatqiqotimiz uchun Syuzn Dilengirning psixogeometrik testidan foydalandik. Ushbu metodika shaxsga aloqador bir qancha muhim o'ziga xos xulq-atvor sifatlarini qisqa muddatda aniqlashga yordam beradi.

Metodikaning qisqacha sharti quydagilardan iborat: qatnashuvchilar tavsiya etilgan geometrik shakllar ya'ni, kvadrat, to'rtburchak, uchburchak, aylana va zig-zak kabi beshta geometrik figuralardan qaysi biri o'ziga ma'qul kelganligini aytadi va tanlangan figura asosida psixologik tavsif beriladi. Tatqiqotda 20 ko'zi ojiz o'spirinlar va 20 ta sog'lom o'spirinlar qatnashdi.

Natijalar: dastlabki shakl kvadrat bo'yicha ko'rishda nuqsoni bor o'spirinlar qisman ustunlik qilmoqda. Ya'ni: umumiy hisobda 4 taga 5 ta. Ikkinchi shakl uchburchakda ham 1 ga 3 ta natija bilan ko'zi ojizlar ustunlik qilmoqda. Uchinchi shakl aylana. Bu shakl tanlovi bo'yicha 10 taga 7 ta natija bilan sog'lom o'spirinlar oldinda. To'rtinchi shakl to'g'ri to'rtburchak tanlovi 3 taga 4 ta ko'zi ojizlar 1 taga ortiq. Beshinchi shakl zig-zak tanlovida sog'lom o'spirinlar nisbatan ustunlik qilishdi, 2 ga 1 ta. Ko'rib turganingizdek metodika natijasini matematik tahlil qilganimizda farqlar nisbati katta emas. Ammo ba'zi bir kichik bo'lsada psixologik farqlar bizning e'tiborimizni tortmasdan qolmadi. Keling shularni bayon qilishga harakat qilib ko'ramiz.

Natijalarning psixologik tahlili: biz natijalarni psixologik tahlil qilishga harakat qildik va quyidagicha yakuniy mulohazaga keldik. Amerikalik mashhur bolalar shifokori Benjamin Spok: «Agar bolalar muloqot va munosabat tajribasini maktab yoshigacha egallay olmasa, u bu bilim va tajribani hech qachon, hatto umrining oxirigacha ham egallay olmaydi» [3], -degan edi. Ko'r va zaif ko'ruvchilar orasida yuqori sinflarda va hatto mehnat jamoalarida faoliyat ko'rsatayotganlarning o'zaro munosabatlaridagi sustligi, yangi jamoaga qiyin kirishib ketishining asosiy sababi kichik yoshlardagi oilaviy va boshqa tarbiya muassasalarida yetarli muloqot tajribasini to'play olmaganligi ya'ni muloqotchanlik va kirishimlilik kabi xarakter hislatlarning yo'qligidir. Bola tengdoshlari va kattalar jamoasida o'ziga zarur hayotiy malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirib boradi. Jamoadagi o'zaro munosabatlar, ijtimoiy omillar bolaning ko'rish nuqsoni va uning asoratlarini kompensatsiya qilishda va ruhiy kamchiliklarni, xarakter hislatlarini korreksiyalashda, to'g'rilashda yetakchi kuchdir. 1931-yildayoq L.S.Vigrtskiy «Jamoat tafakkuri - ko'rlik asoratlarini kompensatsiya qilishda asosiy manbadir» deb ko'rsatgan edi. L.S.Vigotskiy «Jamoat tafakkuri» deb bolaning faqat tengdoshlari va kattalardan oladigan intellektual malaka va ko'nikmalarini emas, balki jamoadagi qadriyatlar va qonunlar, o'zaro munosabatlardagi har kimning o'rni va vazifasi, jamoaga munosabati va jamoaning unga munosabatini ko'zda tutgan edi. Zero, jamoadagi va oiladagi shaxslararo munosabat ko'zi ojiz shaxs xarakteriga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Shuni ham aytib o'tishimiz lozimki xarakter individual xususiyat va u har bir shaxsda o'ziga xos bo'lishi mumkin. Bundan tashqari u shaxslarda ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Biz yuqorida ko'zi ojiz shaxslar xarakterining irodaviy hislatlariga iroda kuchi, mustaqillik, qat'iylik, chidamlilik, matonat, o'zini tuta bilish hislatlari kirishini aytib o'tdik va tatqiqot davomida yanada amin bo'ldik. Ayniqsa bunday shaxslardagi xarakterning irodaviy hislatlari kuchli va muhim o'ringa ega.

Ko'zi ojiz shaxslar o'zgarimas tartibni yaxshi ko'radilar, har bir narsa o'z joyida bo'lishi va o'z vaqtida bo'lishi zarur. Ayrim ko'rishga nuqsoni mavjud shaxslar «stoldagi tartibsizlik – miyadagi tartibsizlikdir» degan maqolga amal qilishga harakat qiladilar. Ko'rishda nuqsoni bor shaxslar hayoti mo'tadil bir maromda bo'lishlarini xohlaydilar. Ularni keskin o'zgarishlar, turli xil yangiliklar, jumladan yangi shaxslar bilan tanishuvlar, yangi joyga borishlar cho'chitishi mumkin. Ular doimo odamlarni va narsalarni o'z atrofiga «tartiblashtiradi» va tashkil etishga harakat qiladilar. Buning asosiy sabablaridan biri, ular o'z nuqsonlari tufayli noqulay sharoit va holatga tushib qolmaslik. Ammo yaxshi tashkillashtirilgan, ma'lumotlar va asbob-uskunalar ular uchun tushunarli, berilgan vazifalarga tushungan bo'lsalar ular faoliyati samaradorligi sog'lom shaxslarniki bilan teng bo'ladi.

Qachonki, qaror qabul qilish vaqti kelsa, ayniqsa bu qaror tavakkalchilik bilan yoki o'zi uchun noqulaylik tug'diradi deb o'ylasa, ko'zi ojiz shaxs xohlab yoki xohlamay bu qarorni qabul qilish muddatini cho'zaveradi.

Ko'rishga nuqsoni mavjud shaxslar uch toifaga bo'linadilar; birinchisi, o'z nuqsonlaridan kuchli uyaladigan va shu sababli bor imkoniyatlarini ochiq nomoyon qilmaydigan. Ikkinchisi, nuqsonlariga bo'lgan real munosabat. Bunday toifadagi ko'zi ojiz shaxslar faqat o'zlari imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda biror faoliyatga kirishadilar. O'zlarini ortiqcha qiynamaydilar. Uchunchisi esa imkoniyatlariga qaramasdan harakat qiladiganlar. Bular ham xarakter shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Ko'zi ojiz shaxslarda o'z-o'zidan qoniqmaslik, natijada muntazam o'zlari uchun qulay sharoit qidirish holatlari tez-tez uchrab turadi. Yoki aksincha egosentrizm holatlarini ham uchratishimiz mumkin. Buning sababi o'z-o'ziga bahoning qay darajada shakllangani ham bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ko'rishda nuqsoni mavjud bolalarga ilm berish uchun maxsus kitoblar, asbob-uskuna va yuqori malakaga ega mutaxassislar zarur. Voyaga yetgan vatandoshlarimizni yangi sharoitga ko'nikib, ijtimoiy moslashishlari va yangidan hayot boshlashlari uchun qulay shart-sharoitlar bo'lishi lozim. Bundan tashqari ko'rishda nuqsoni bor shaxslarning oliy ta'lim muassasalarida o'qish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalarini ishlab chiqish lozim.

#### Adabiyotlar

1. E.G'oziyev. "Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik". I-II kitoblari. Toshkent - "Universitet" – 2002.
2. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Darslik Toshkent -2009.
3. D. M. Sultonova, L. SH. Nurmuxamedova, SH. M. Amirsaidova. Tiflopedagogika O'quv qo'llanma. Toshkent – 2007.
4. A.G.Litvak "Tiflopsixologiya" M. 1985 y.
5. A.G.Litvak "Praktikum po tiflopsixologii". M. 1989 y.

UDK: 15:316.6

#### МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПРОФИЛАКТИКИ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ (СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ)

А. Ш. Урунов

*Самаркандский государственный университет  
azzeqa.085@mail.ru*

**Аннотация.** В статье раскрываются основные понятия метода моделирования в социальной психологии, построение структурно-функциональной модели профилактики девиантного поведения подростков в специализированных школах-интернатах. Большое значение придается коррекционной работе с несовершеннолетними, имеющих определенные отклонения в поведении.

**Ключевые слова:** девиантное поведение, профилактика, модель, моделирование, психологический подход, структурно-функциональная модель, полисубъектный подход, комплексный подход, содержательный компонент, психологический комфорт.

#### Deviant xulqning oldini olish jarayonini modellashtirish (ijtimoiy-psixologik jihatlar)

**Annotasiya.** Maqolada ijtimoiy psixologiyada modellashtirish usulining asosiy tushunchalari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda o'spirinlarning deviant xulq-atvorining oldini olish uchun tarkibiy-funksional modelning qurilishi ochib berilgan. Xulq-atvorida ma'lum og'ishlar bo'lgan voyaga etmaganlar bilan tuzatish ishlariga katta ahamiyat beriladi.

**Kalit so'zlar:** deviant xulq, profilaktika, model, modellashtirish, psixologik yondashuv, tarkibiy-funksional model, multisubyektiv yondashuv, murakkab yondashuv, tarkibiy qism, psixologik qulaylik.

**Modeling the process of preventing deviant behavior (socio-psychological aspect)**

**Abstract.** The article reveals the basic concepts of the modeling method in social psychology, the construction of a structural-functional model for the prevention of deviant behavior of adolescents in specialized boarding schools. Great importance is attached to corrective work with minors with certain deviations in behavior.

**Key words:** deviant behavior, prevention, model, modeling, psychological approach, structural-functional model, multisubjective approach, a complex approach, content component, psychological comfort.

Основным понятием метода моделирования в социальной психологии является модель, которая определяет его содержание. В психологической литературе к понятию модель существует несколько подходов (Психоаналитический подход, Поведенческий подход, Когнитивный подход и т.д.) [2]. Модели отражают в упрощенном, уменьшенном виде структуру, свойства и отношения между элементами исследуемого объекта, позволяя тем самым увидеть наглядно компоненты системы, представить их целостно, в развитии, упорядоченности и сопоставить концептуальные подходы для анализа [1]. Исследователи в области моделирования отмечают, что модели сходны, но не идентичны с оригиналом. Модель отражает предмет не непосредственно, а через совокупность следующих целенаправленных действий субъекта [3]:

- конструирование модели;
- экспериментальный и (или) теоретический анализ модели;
- сопоставление результатов анализа с характеристиками оригинала;
- обнаружение расхождений между ними; корректировка модели;
- интерпретация полученной информации, объяснение обнаруженных свойств, связей;
- практическая проверка результатов моделирования.

Изучив результаты исследования, мы сочли необходимым разработать структурно-функциональную модель исследуемого процесса. Основное назначение такой модели заключается в раскрытии связи строения изучаемого объекта с выполняемыми функциями. Данный тип моделей предполагает обязательное представление структурного и функционального компонентов и игнорирование всех остальных. Построение структурно-функциональной модели начинается с выявления структуры изучаемого объекта, т.е. выделяются его компоненты и устанавливаются связи между ними, а уже затем определяются и исследуются функции, выполняемые каждым компонентом [4].

Для построения функционально-структурной модели определяется внешняя, общая функция изучаемого объекта, которая декомпозируется на несколько частных, а затем в объекте выделяются и фиксируются только те структурные компоненты, которые непосредственно обеспечивают осуществление данной функции. Данный вид модели позволяет раскрыть внутреннее строение исследуемого феномена и его назначение, а также показать природу получения сущностных характеристик.

Построение структурно-функциональной модели профилактики девиантного поведения подростков в специализированных школах-интернатах необходимо начинать с выявления структуры изучаемого объекта, то есть с выделения его компонентов и с установления связей между ними. Целостность модели обеспечивается единством выделенных структурных (цель, содержание процесса, результат) и функциональных компонентов (педагогические условия, критерии эффективности профилактики девиантного поведения). Структурные компоненты модели раскрывают внутреннюю организацию профилактики девиантного поведения подростков в учреждениях дополнительного образования и отвечают за постоянное взаимодействие между элементами данного процесса.

Функциональные компоненты, то есть способы организации работы модели, обеспечивают функционирование, развитие и совершенствование образовательного процесса.

Важнейшей составляющей разработки модели профилактики девиантного поведения подростков в специализированных школах-интернатах является выбор теоретико-методологических оснований исследования.

В нашем исследовании значимыми в общенаучном плане являются системный и личностно-деятельностный подходы. В качестве практико-ориентированной тактики исследования чаще всего выбирают подходы, составляющие конкретно-научную методологию, назначение которых заключается в раскрытии особенностей практического использования изучаемого феномена, определении механизмов и процедур достижения научной цели. В этом направлении мы рассматриваем полисубъектный и комплексный подходы.

Системный подход предполагает четкую постановку проблемы, определения средств ее решения, способствует улучшению организации исследования и анализа систем и подсистем, направленных на решения исследуемой проблемы. Реализация системного подхода предполагает изучение объекта с точки зрения его внутренних и внешних системных свойств и связей, а именно выявление:

- а) элементов изучаемого объекта;
- б) компонентов, причастных к достижению главной цели его функционирования и развития;
- в) внешних и внутренних системообразующих факторов;
- г) связей;
- д) структуры объекта.

Поэтому обязательным результатом использования системного подхода является описание указанных характеристик исследуемого феномена, в нашем исследовании - профилактика девиантного поведения.

Системный подход применительно к профилактике девиантного поведения подростков в специализированных школах-интернатах проявляется в его рассмотрении как системы, обладающей целостностью.

Личностно-деятельностный подход гармонично объединяет основные положения личностно-ориентированного и деятельностного подходов.

Личностный подход в психологической науке означает признание субъективности и уникальности каждого обучающегося, создание условий для формирования у каждого позитивной Я-концепции и обеспечивает пребывание в позиции сотрудничества, снятие педагогического давления и принуждения.

Деятельностный подход дает возможность рассмотреть основные компоненты деятельности педагога и его воспитанника с единых методологических позиций и тем самым раскрыть природу их взаимодействия; позволяет изучить специфические особенности деятельности всех участников педагогического процесса через проекцию общих концептуальных положений теории деятельности на педагогическую область;

обязывает признать важнейшим фактором развития личности воспитанника специальным образом подобранную деятельность; определяет процесс образования как непрерывную смену различных видов деятельности; выстраивает педагогический процесс в соответствии с компонентами деятельности человека.

В целом личностно-деятельностный подход предполагает ориентацию на развитие творческого потенциала личности и позволяет учесть индивидуальные особенности каждого ученика посредством включения в рефлексивно-творческую деятельность, способствует самореализации и личностному росту учащихся. С позиции этого подхода личность и деятельность находятся в тесном и нерасторжимом единстве, но также и обладают относительной самостоятельностью и несводимостью друг к другу.

Полисубъектный подход предполагает необходимость учета влияния всех факторов социального развития (микрофакторы: семья, сверстники, школа; мезофакторы, макрофакторы).

Полисубъектный подход в нашем исследовании позволяет при организации профилактических мер учитывать особенности семейного воспитания подростков (климат семьи, традиции семейного воспитания и пр.); изучать сферу влияния социального окружения подростка; при построении моделирования профилактических мероприятий учитывать и распознавать в полной мере все факторы, оказывающие влияние на развитие личности подростка.

Комплексный подход, обеспечивающий взаимосвязь всех структурных компонентов, педагогической системы в специализированных школах-интернатах применительно ко всем звеньям и участникам образовательного процесса.

Комплексный подход позволяет в нашем исследовании рассматривать профилактику девиантного поведения как целостный процесс, как совокупность определенных принципов, установок, правил, отражающих специфику понимания, анализа, решения проблем девиантного подростка, как детерминацию профилактической позиции по отношению к девиантному подростку.

Следующий шаг в построении структурно-функциональной модели профилактики девиантного поведения подростков в учреждениях дополнительного образования – это выделение компонентов изучаемого объекта и установление связей между ними.

Структурные компоненты нашей модели, которые, как уже было сказано ранее, раскрывают внутреннюю организацию профилактики девиантного поведения подростков в учреждениях дополнительного образования и отвечают за постоянное взаимодействие между элементами данного процесса, включают следующие: целевой, содержательный, процессуальный, оценочно-результативный.

Целевой компонент обусловлен тем, что сознательная цель в деятельности педагогов в организации профилактики девиантного поведения подростков в учреждениях дополнительного образования определяет выбор способов, действия и выступает как средство управления, сверки результатов действий с прогнозируемым итогом.

Основная цель - профилактика девиантного поведения подростков, которая направлена на предупреждение поведенческих реакций и устойчивых форм отклонений в поведении, содействие исключения ситуаций, осложняющих их социализацию в обществе в целом.

Основная функция данного компонента - целеобразующая.

Содержательный компонент модели раскрывает сущность изучаемого феномена - девиантное поведение подростков, основная функция данного компонента - информативная.

Выделение процессуального компонента вызвано определением объекта нашего исследования и в котором учитывается тот факт, что девиантное поведение подростка нельзя предупредить насильственным воздействием, поэтому необходимо обеспечить возможность индивидуальной ориентированности процесса, учёта факторов, оказывающих влияние на отклонение от норм и правил поведения подростков. В связи с этим, деятельность педагогов должна быть направлена на создание среды, способствующей профилактике девиантного поведения, включенности личности в активный процесс по освоению норм и правил поведения, проявлению и развитию активности, готовности и стремления к её осуществлению.

Данная среда создается посредством разработки стратегии и тактики педагогической профилактики посредством адекватного отбора методов, приемов и средств осуществления этого процесса.

Особенностью процессуального компонента является:

соответствие используемых средств, форм и методов особенностям развития подростков;

оптимизация воспитательной возможности всех субъектов педагогического процесса;

поэтапность работы с подростками в процессе организации педагогической профилактики;

приобщение подростков к общечеловеческим ценностям и социальному окружению;

сбалансированность ценностей социального поведения и соотнесение их с возможностями подростков.

Основная функция данного компонента – формирующая.

Оценочно-результативный компонент модели профилактики девиантного поведения подростков в учреждениях дополнительного образования заключается в выявлении критериев и показателей эффективности результативности деятельности. Неотъемлемой в данном компоненте является своевременная и качественная диагностика результатов, определенность основных параметров, подбор адекватных диагностических методик, соотнесенность основных достижений в рамках подросткового периода.

Основная функция данного компонента – аналитическая.

Композиционная целостность теоретико-методологических подходов и компонентов модели педагогической профилактики девиантного поведения подростков в учреждениях дополнительного образования обеспечивается соблюдением принципов, которые условно



делятся на три группы, в зависимости от специфики организуемого процесса и категории подростков:

Первая группа принципов – доступности разных видов поведения и поступков; последовательности и концентричности в построении содержания педагогической профилактики девиантного поведения подростков; интеграции разных видов социальной деятельности; системности, культуросообразности;

Вторая группа принципов - субъектности; диалогичности; активности и самоактуализации; учета возрастных и половых особенностей; индивидуальной комфортности; признание человеческой сущности в каждом подростке;

Третья группа принципов - психологической комфортности; профессионально-педагогической компетентности педагогов; объективной определенности основных параметров педагогической профилактики; максимального учета всех социокультурных влияний.

Таким образом, необходимо отметить, что при построении модели профилактики девиантного поведения подростков в учреждениях дополнительного образования мы исходили из необходимости композиционной целостности и необходимости применения основных общенаучных подходов, на основе которых определяется цель, содержание и технология организации профилактики девиантного поведения подростков: системный, личностно-деятельностный, комплексный и полисубъектный.

#### Литература

1. Галагузова Ю.Н. Теория и практика профессиональной подготовки социальных педагогов / Монография. – М., 2001. – С.130.
2. Раймонд Корсини, Алан Ауэрбах Психологическая энциклопедия (Raymond Corsini, Alan Auerbach «Concise Encyclopedia of Psychology»). - Санкт-Петербург, 2002. - С.1524.
3. Рыков А.С. Модели системного анализа: принятие решений и оптимизация (учебное пособие для вузов). – М.: МИСИС, 2005.
4. Яковлев Е.В. Педагогическая концепция: методологические аспекты построения. – М.: ВЛАДОС, 2006. – С.123.

UDK 392.3:42/48

### SHARQ VA G'ARB XALQLARI TILIDA BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ MAROSIM VA URF-ODATLAR

**Z. R. Eshmurodova**

*Samarqand davlat universiteti  
eshmurodova.zarifa@mail.ru*

**Аннотация.** Maqolada butun dunyo mamlakatlarida bola tug'ilishi juda xursandchilik bilan kutib olinishi, ko'plab urf-odat va an'analar oilada farzand tug'ilishi bilan bevosita bog'liqligi xususida so'z boradi. Dunyoning ikki qit'asida ham bola tug'ilishi juda xursandchilik bilan kutib olinishi bejiz emas. Maqolada Sharq va G'arb xalqlari hayot tarzidagi bola tug'ilishi va unga ism qo'yish, chaqaloq bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analarga to'xtalib o'tiladi.

**Калит so'zlar:** marosim, urf-odat, chaqaloq, beshik, beshikkerti, sunnat to'yi, beshikka solish, kumush bola, ism qo'yish, antitrit.

#### Традиции связанные с рождением ребенка на языке восточных и западных народов

**Аннотация.** Многие традиции и обычаи напрямую связаны с рождением ребенка в семье. Неудивительно, что рождения в обеих частях мира приветствуются. Статья посвящена рождению и имени ребенка на Востоке и Западе, а также обычаям и традициям, связанным с ребенком.

**Ключевые слова:** ритуал, обряд, ребенок, колыбель, обряд колыбели, обрезание, ребенок в серебре, имя, антитрит.

**Events and ceremonies with the birth of a child in the eastern and western language**

**Abstract.** The article is about births in the world are welcome and that many traditions and customs are directly related to the birth of a child in the family. No wonder births in both parts of the world are welcome. The article focuses on the birth and first name of a child in the East and West, as well as the customs and traditions associated with the baby.

**Keywords:** ritual, ceremony, baby, cradle, cradle ceremony, circumcision ceremony, child in silver, first name, antitrite.

Millat tafakkurining o'ziga xos jihatlarini belgilashda muhim mezon vazifasini bajaradigan etnografik leksika zamirida ajdodlarimiz iqtidorining tarixiy ildizlari va tadrijiy rivoji mujassamlashgan. Ma'naviy qadriyatlarimizning siyosiy-ijtimoiy, falsafiy, ilmiy mohiyatini talqin qilish ajdodlarimiz iqtidorining sarchashmalaridan keng ko'lamda bahramand bo'lish imkonini beradi. Zero, «ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi» [1].

Darhaqiqat, urf-odatlar turli xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi muhim belgilar sirasiga kirishi bilan ularni chambarchas bog'lab turadigan jarayon hamdir. Etnografik leksika nomi ostiga birlashgan etnografizmlar sistemaviy tahlilga yetarlicha tortilmaganligi, leksik sistemada alohida maydonni tashkil etgan etnografizmlarni monografik planda tadqiq etish lingvistik birliklarning o'zaro munosabatini ochishga, ularni maydon sifatida o'rganishga qulay imkoniyat yaratadi. Demak, etnografizmlarning ichki tuzilishi va tuzilish birliklari o'rtasidagi xilma-xil munosabatlarni ochish ham hozirgi tilshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega.

Butun dunyo mamlakatlarida bola tug'ilishi juda xursandchilik bilan kutib olinadi. Ko'plab urf-odat va an'analar oilada farzand tug'ilishi bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, sharq mamlakatlarida farzand tug'ilishi va ulg'ayishi marosimlari tizimiga mansub "beshik to'yi", "sunnat to'yi", "aqiqa", nikoh to'yi marosimlari tizimiga mansub «kelin salom», «kuyov salom», «o'lan», «yor-yor» kabilar tilshunoslikda etnolingvistik birliklar til sistemasining tarkibiy qismi sifatida alohida o'rin egallaydi [8].

Bola (*go'dak, chaqaloq, nini* va boshq.) tug'ilishi bilan sharq va g'arb xalqlarining qadimiy an'analar vositasida bolani kelgusi hayotiga va jamiyatga tayyorlash jarayoni boshlab yuboriladi. Bunday jarayon *suyunchi, nom qo'yish, chaqaloqni cho'miltirish, beshikka solish, chillaqochdi, chilla tutish, tish chiqarish, tirnoq olish, soch olish, muchal* va shu kabi rasm-rusumlar bilan amalga oshirilib boradi hamda ularda etnografik an'ana va folklor tilining ta'siri sezilib turadi.

Jumladan, Sharq mamlakatlarida *beshik to'yi* – chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog'liq bo'lib, nishonlanadigan marosimli bayramdir. Bu yeng qadimgi va O'zbekistonda eng keng tarqalgan marosimlardan biri. Odatda bu to'yi chaqaloq tug'ilishining 7-, 9-, 11- kuni o'tkaziladi. Turli viloyatlarda marosim o'zigacha xususiyatlarga yega bo'ladi va oilaning boyligi darajasiga bog'liq bo'ladi: o'ziga to'q oilalar odatda bu to'yni katta ko'lamda o'tkazadi, kambag'al oilalar yesa uni kamtarona nishonlaydilar. Beshik va chaqaloq uchun barcha zarur anjomlar chaqaloq onasining qarindoshlari tomonidan beriladi. Dasturxonga non, shirinliklar va o'yinchoqlar o'rab beriladi. Chaqaloqning ota-onasiga, uning bobo-buvilariga sovg'alar tayyorlanadi. Chiroyli bezatilgan beshik, dasturxonlar va sovg'alar transport vositasiga qo'yilib, mehmonlar bilan birgalikda, karnay-surnay va nog'ora sadolari ostida chaqaloqning ota-onasi uyiga jo'natiladi. An'anaga ko'ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o'ng yelkasiga qo'yadi, keyin o'g'lining o'ng yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. O'tmishda mehmonlarning barcha niyatlari toza va yaxshi bo'lishi uchun ular yuziga oq un surar yedilar. Mehmonlar mehmonxonaga yasatilgan dasturxonga taklif yetiladi va mehmonlar ovqatlanib, sozandalarni tinglab, bazm qilib o'tirgan paytda qo'shni xonada kampirlarning ishtirokida bolani yo'rgaklash va beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko'rish uchun oldiga kiradilar, unga sovg'alarni beradi va beshikning ustiga parvarda yoki qand sepadilar. Shu bilan marosim tugab, mehmonlar uy-uylariga qaytadilar.

Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. [7]

Boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbiridir.

Biz quyida g'arb xalqlari hayot tarzidagi bola tug'ilishi va unga ism qo'yish, chaqaloq bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analarga to'xtalib o'tamiz.

**Aqiqa marosimi (Mag'rib)** - musulmon oilalarda chaqaloq tug'ilgandan keyingi yettinchi kun alohida ma'noga yega. Usha kuni chaqaloqqa qadimda ism qo'yilgan. Yangi chaqaloq tug'ilganligini ko'pchilikka ye'lon qilish uchun ham mana shu marosim tashkil qilinib, bu marosim Aqiqa deb nomlanadi. Hududlarga qarab bu marosim turlicha bo'ladi: ba'zi hududlarda chaqaloqni chumiltirishadi, ba'zilarida chaqaloqqa sovg'alar taqdim qiladilar, ona yaxshi ovqatlanib, bolani emizishi uchun chiroyli idishlar taqdim qiladilar, sochini oladilar, yoki bo'lmasa 1-2 ta qo'yni qurbonlik qiladilar.

**Chaqaloq qirol (Turkiya) yoki shox chaqaloq marosimi** - Turkiyada chaqaloq tug'ilishi katta quvonch bilan kutib olinadi va o'sha oilada alohida ziyofat tashkil qilinadi. Chaqaloqning tug'lishi qarindosh – urug', do'stlar va tanishlar orasida mehr-muhabbat, shirin so'z va xursandchilik bilan kutib oladilar. Notanish kishilar ham yangi tug'ilgan chaqaloqni kurishsa unga faqat yaxshi so'zlar aytib yerkalab qo'yadilar. Kichkina chaqaloqlari bilan yosh ota-onalar bemalol xijolatsiz biror joyga boradilar, chunki hamma joyda chaqaloqni iliq kutib oladilar. Shu sababli ham qahvaxona va restoranlarda chaqaloq kutargan kishilarni ovqatlanayotganlarini ko'rish odatiy holatdir. [10]

**Yovuz ruhlarga qarshi o'simlik (Eron) marosimi** - Eronda yangi tug'ilgan chaqaloqni yovuz ko'z va yovuz ruhlardan himoya qilish kerak, deb hisoblaydilar. Shuning uchun chaqaloq kutilayotgan xonadonda esfand o'simligi urug'i kuydiriladi. Qadimgi zardushtiylik dini odatlariga ko'ra, esfand o'simligi xonadonni ins-jinslardan tozalaydi va ruhlarni quvib chiqaradi. Chaqaloq xonasiga yoki beshigiga tumor osib qo'yiladi, usha xona moviy rang bilan va kumush bezaklar bilan bezatiladi.

Chaqaloq tug'ilishiga oid marosimlar g'arbda ham o'tkaziladi. Jumladan, **baxt lentasi (Italiya) marosimi** - Italiyada oilada yangi chaqaloq dunyoga kelganligini bildirish va shu xonadonda xursandchilik yekanligini quni-qushnilarga, yo'lovchilarga bildirish maqsadida o'sha uyning yeshigiga bog'ich (lenta) bog'lab qo'yiladi.

Qadimda bu bog'ich "fiocco nascita" ya'ni **tug'ilish arki** deb nomlangan. O'g'il bola chaqaloq uchun ko'k, qiz bola chaqaloq uchun esa pushti rangli bog'ich bog'langan. Bugungi kunda bog'lanadigan bog'ichlar ranglari farqli yemas. Ya'ni har xil ranglarda eshiklarga bog'lab qo'yiladi. An'anaga muvofiq bunday bog'ichlarni gulchilardan tayyor holatda sotib olishlari, yoki bo'lmasa oddiy ro'molchaga bolaning ismini yozib onalar, buvilar o'zlari qo'lda tikishlari ham mumkin. Yosh ota-onalar uchun baxtli ko'ylak tikish an'anasi ham bor, unga ko'ra bolaga baxt olib keladi degan ma'noda yengsiz oq yoki qizil rangli ko'ylakka kashta tikiladi. Haqiqatan ham Italiyada yangi tug'ilgan chaqaloq mana shunaqa ko'ylakni kiysa, u kelajakda baxtli bo'ladi deyiladi.

**Kumush bola (Shotlandiya, Irlandiya) marosimi** - bola tug'ilishi bilan bog'liq bu an'anani "Bolani kumush bilan uraymiz!" deb tarjima qilish mumkin, asosan Shotlandiya, Irlandiya va Buyuk Britaniyaning shimolida bu odat mavjud. Yangi tug'ilgan chaqaloqning kaftiga kumush tanga qo'yiladi. Bu tanga unga baxt va farovonlik keltiradi degan ma'noni anglatadi. Bu odat sovg'a berishning bir usuli ham desak bo'ladi. Bu odat hali tug'ilishni qayd yetmagan vaqtlardan buyon mavjud bo'lgan. Hozirgi kunga kelib chaqaloqlarga taqdim qilinadigan kumush tangalar o'rniga kumush buyumlar sovg'a tariqasida beriladi, masalan, kumush taqinchoqlar, kichkina kumush yesdalik narsalar.

**Soch oldirish (Peru) marosimi** - Peru aholisi o'rtasida agar chaqaloq soch bilan tug'ilsa, soch olish marosimi tashkil qilinadi. Bunday soch oldirish marosimi Janubiy Amerikaning ko'plab mamlakatlarida va hatto Hindiston va Pokistonda ham mavjud. Chaqaloqni sochi olingach, uning bosh suyagiga zarar yetmasligi uchun unga kichkina jun shapka kiygizib qo'yiladi.[10]

O'zbek va fransuz tilida bola tavalludi va uning parvarishi bilan bog'liq etnografizmlarni quyidagicha ta'riflash va tasnif etish mumkin:

a) ism qo'yish bilan bog'liq EL: *aqiqa* - arabcha so'z bo'lib, bolaning yetti kunligida qo'y so'yib ziyofat beriladigan marosim va shu ziyofatda bolaga nom qo'yiladi. Bolaga qo'yiladigan otlar asosan "O'zbek ismlari lug'ati"ga kirgan ismlar bo'lsa-da, ba'zan qiz bolalarning ismlari o'g'il bolalar nomiga **-a**, **-oy** suffikslarini qo'shish bilan etnografik xarakterga ega antroponimlar yasalishi kuzatiladi. Masalan: *Amir - Amira, Aziz - Aziza*. Ba'zan bolaning qaysi oyda tug'ilganligiga qarab ham nomlaydilar: *Rajab - Bibirajab, Asho'r, Barot*, Muharramoy, Qurbon - Qurbonoy. [8]

Fransiyada ism qo'yish marosimi va odatlari biroz boshqacha. Ism qo'yish juda muhim bir jarayondir. Qo'yiladigan ism kelajakda bolaning xarakteriga ta'sir qiladi deb o'ylashadi. Shuning uchun yaxshi xarakterli va xushfe'lli kishilarni ismlarni qo'yishni afzal ko'rishadi. Ism qo'yishda qadimda katolik ruhoniylar ham ishtirok etishgan va ular ism tanlashni birmuncha soddalashtirishgan. Shu o'rinda bir misol keltrib o'tishni joiz deb bildik. Xristianlar Kengashi (1545-1563) katolik oilalardagi bolaga avliyolar ismini qo'yishni tavsiya etishgan, agar qaysidir avliyoni ismini qo'yishsa usha avliyo bu chaqaloqni o'z himoyasiga oladi deb ishonirishgan. Shuning uchun bu odat ham ma'lum darajada hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan bo'lib, bir qator mashhur fransuz yozuvchi va shoirlari, mashhur shaxslar va joy nomlarida bu ismlarni uchratishimiz mumkin. masalan: Антуан Де Сент-экзюпери (Antoine de Saint Exupery (1900-1944)), saint-avliyo, demak avliyo Ekzyuperi, Sent Mishel (Avliyo Michel) saroyi (Saint Michel Bordoda joylashgan). [11]

Ammo ko'pincha bolaga ikkita yoki uchta ism qo'yishadi. Chaqaloqqa ikkinchi ism sifatida ota yoki onaning ismi ham qo'yiladi. Ayniqsa Bibliyadagi ismlar, Yuhanno, Jozef va Meri (Ioxannes, Sepp, Mariya) ismlari juda ko'p qo'yiladi. Shuningdek, juda hurmatli bo'lgan ota-bobolarini ismini ham ikkinchi ism sifatida qo'yadilar. Ammo ismlar ham o'zgarishi mumkin. 1850 yilda shoir mashhur Xartmann: " Afsuski, eski ismlar asta-sekin yo'qolib bormoqda" deb qattiq tanqid qilgan edi.[11]

Alzasliklar ko'pincha ismlarni qisqartirishni yoqtirishadi. Masalan, Gretele (Grete), Karlilinele (Karolin), Salmel (Salome), Barbara (Berwel), Marikel (Mari), Martel (Mart) kabi qizlarning ismlarini ko'rsatishimiz mumkin. Eulali, Octavie, Melani va Leoni ismlari bundan ellik yil oldin juda ko'p qo'yiladigan ismlardan bo'lgan. Hozirgi kunda esa, ko'proq klassik ismlar qo'yilmoqda. O'g'il bolalar uchun Fredel (Alfred), Fritzel (Fritz), Gyushtel (Gustave), Mishel (Mishel), Shang (Jan) va Dannel (Doniyor) kabi ismlar qisqartirib aytilgan.

b) *beshikka solish, beshketti, soch olish* marosimlariga doir EL: bu toifaga mansub etnografizmlarda *beshikka solish, beshik, alla* kabi leksemalar dominant pozitsiyada bo'ladi.

Ma'lumki, bolani beshikda parvarish qilish qadimdan O'rta Osiyo xalqlari orasida mavjud bo'lib, xalq orasida beshik bilan bog'liq juda ko'p urf-odatlar yuzaga kelgan va ularning tilda aks etishi alohida etnografik leksik qatlamni shakllantiradi: *beshikka belash, beshik boshi, beshik eltish, beshik yasash*. O'z navbatida *beshik yasash* konsepti kichik leksik-semantik guruhni (LSG) tashkil etadi: beshikning asosi o'q (*dasta*), bola yotqiziladigan *taxtacho'p*, *taxtacho'p*ning oyoq qismidagi teshik (*teshuk*) va unga qo'yiladigan tuvak (*tuvak*) kabi. "Beshik yasash" konsepti bilan bilvosita aloqador bo'lgan quyidagi ELni ham siralab ko'rsatish mumkin: usta (usto) – beshik ustasi; tol, yong'oq va tut – beshik yasash uchun taxta olinadigan daraxt nomlari; beshik oson tebratilishi uchun yengil yog'ochlardan yasalsa-da, uning oyog'i (*poy*) va tutqichi (*qush*) yong'oq va tut kabi mustahkam yog'ochlardan qilinadi.

Beshik jihozlarini ifodalovchi EL: ko'rpacha (*ko'rpacha*)-bu ko'rpachaning ichiga paxta emas, poxol, tariq yoki qovurilgan no'xatning po'sti – (ter va siydikni shimib olish uchun) solinadi; keyin paxtalik yupqa ko'rpacha va ro'yjoy yozadilar. Bular qatoriga *oyoq o'ragich (poypech), qavzdon (qavzdon), bosh va yelka o'ragich (sarpech, kitfpech), oyoq va qo'l bog'ichi, bolish-bolincha - yosti, beshik yopinchi* kabi ELni ham kirgizish mumkin. Bu marosimda quda tomondan ko'zi yorigan ayolning onasi, amma-xolalari va boshqa ayol qarindoshlar ham taklif qilinadi. Momo avval muborakbod duosini o'qiydi va cho'miltirilgan bolani bo'g'inlariga oq yog' surtib, beshikka belaydi. Duoning mazmuni: " *Bu xayrli amr, barchaning salomatligi, makon obodligi, xonadon xursandchiligi, bugungi murod kuni oila ahliga muborak bo'lsin. Alloh yangi tug'ilgan chaqaloqni umri va xayrli qadami bilan bergan bo'lsin, aqlli, hushli bo'lib voyaga yetsin, ota-onasi rohatini ko'rsinlar. Iloho bu dargohda va shu yerga yig'ilgan mehmonjonlar, har birimizning xonadonimizdan bolalarning shirin ovozlari uzilmasin*".

Bu jarayonlarni ifodalaydigan EL quyidagilardir: *muborakbod duosi, kulcha non (kulcha-bolaning rizqi butun bo'lishi uchun), qayroq tosh (bolaning sog'lom, "boshi toshdan bo'lishi" uchun), suyunchi puli (buviyar tomonidan bolalarga beriladi), pichoqcha (bolaning xavf-xatardan xoli bo'lishi uchun), qalampir (yomon ko'zdan asrash), qo'y go'shti (beshik to'yiga kelganlarga ziyofat) va bo'g'irsoq (beshik to'yiga kelganlarga ziyofat)*.

*Beshik* konsepti bilan bog'liq yana bir beshikkerti etnografik marosimi mavjud bo'lib, bu marosim ham alohida LSGni tashkil etadi. *Beshikkerti* - qiz va o'g'il bolalarni o'zaro beshik yoshidaligida atashtirib qo'yish.[4] Masalan, Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, *beshkirti* qilib: "Bu ikkovi er-xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin, omin ollohu akbar", — deb

fotihani betiga tortdi (Alpomish, 17). Bu marosimning mohiyati bolalarning kelajakda turmush qurishini istash, quda bo'lish niyatini ifodalaydi. Bu marosimning mintaqamizning boshqa xalqlarida uchrashi va turli atamalar bilan yuritilishi ma'lum. Jumladan, o'zbeklar *beshikkerti*, *beshikqudo*, qirg'izlar *belquda*, qozoqlarda *yejekabil*, turkmanlarda *adaglab qoyish* va hatto ruslarda *kolibelnoye svatovstvo* tushunchasi va iborasi mavjud.

Fransiyada ham bunaqa marosimlar biroz o'zgacha ko'rinishda. Ko'p ota-onalar kichkintoyning uxlashi uchun eng yaxshi joy nima ekanligi haqida qiziqishadi.

Dastlabki 3-4 oy ichida chaqaloqni beshikda uxlashiga imkon berish yaxshidir, chunki bu qulay va bu joy unga o'z onasining qornida bo'lgan hissiyotlarni eslatib, o'zini himoyalangan va xavfsiz his qilishiga imkon beradigan joydir. Fransiyada beshikni ota-onaning yotog'iga qo'yish tavsiya etiladi, bu yaqinlik har kimga ijobiy ta'sir qiladi va hatto to'satdan chaqaloq o'limi xavfini kamaytiradi. Buning uchun beshikdan (belanchak) foydalanish ayniqsa mos keladi. Ammo bolani ota-onalar yotog'ida uxlash tavsiya etilmaydi, chunki bu unga xavfli bo'lishi mumkin. Ko'p ota-onalar chaqaloq aravachasini chaqaloqni uxlash uchun ishlatadilar, chunki u mos o'lchamlarga ega. Biroq, u ochiq havoda yoki avtomobilda sayr qilishda ham ishlatilganligi sababli, ba'zida yetarlicha gigienik toza bo'lmasligi mumkin.

Keyinchalik, bola ma'lum bir harakat erkinligiga erishganda, uni o'z xonasida, Yevropa qonunchiligida belgilangan xavfsizlik standartlariga, xususan uning boshi qattiq tegmasligi uchun masofalar to'g'ri e'tiborga olinib joylashtirish tavsiya etiladi.

To'shakni ham ehtiyotkorlik bilan tanlash kerak. Kichkintoy qoqilib ketishi mumkin bo'lgan xavfli joylarni qoldirmaslik uchun to'shak bilan bir xil darajada bo'lishi kerak. U antitrit, gipoallergen va nafas oladigan bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ushbu turkum marosimlar o'ziga xosligi, tarixi bilangina farqlanib qolmay, balki etnomilliy va diniy marosimlarga boyligi jihatidan ham o'zga marosimlardan ajralib turadi.

Sharq va G'arb xalqlarining tarix sinovlaridan o'tgan bayramlari, marosimlari, urf-odatlarini ularning ajoyib fazilatlarini, milliy xususiyatlarini, qadriyatga aylangan xalqchilik ruhi bilan sug'orilgan jihatlarini, halollik, poklik, mehnatsevarlik xuslatlarini namoyon etadi. Xalqning o'ziga xos milliy, ruhiy ko'rinishlarining barchasi xalq etnografiyasida o'z ifodasini topadi.

#### Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 6 tomlik. Tom 1. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 80 bet.
2. Begmatov E. O'zbek ismlari. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1998. -608 b.
3. Hayitova F. Nikoh to'yi qo'shiqlarining lingvistik talqini: Filol.fanlari nomzodi... diss.avtoref. - Toshkent, 1998;
4. Mirzayev N. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. Toshkent: Fan, 1991.B.14.
5. Nurillayeva Sh.M. Turkiston karluq tip shevalarida to'y marosimi nomlari: Filol.fanlari nomzodi... diss.avtoref. - Toshkent, 2001 va boshqalar.
6. O.O. O'zbek to'y marosim folklorida «Kelin salom» janri: Filol.fanlari nomzodi ... diss.avtoref. - Toshkent, 1999;
7. Sarimsoqov B. Marosim folklori// O'zbek folklori ocherklari.-T.,1988.
8. Джурабаев А. Названия Свадебных церемоний на узбекском языке: Автореф.дисс.... канд.филол.наук. - Ташкент, 1971;
9. Хусаинова З. Ономаσιологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материале Бухарской говоров). Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. - Ташкент, 1984 г.; Ismanova
10. [www.lovapourrier.com/index.php?option=com\\_content&view=article&id=400:7-jolies-coutumes-traditions-et-pratiques-de-naissance-dans-le-mon...](http://www.lovapourrier.com/index.php?option=com_content&view=article&id=400:7-jolies-coutumes-traditions-et-pratiques-de-naissance-dans-le-mon...)
11. <https://www.accentfrançais.com/fr/blog/actualites-daccent-français/293/les-traditions-et-coutumes-françaises>

**MUALLIFLAR DIQQATIGA!**

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

**MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!**

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA  
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obykti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

**MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:**

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

# SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib  
Texnik muharrir

**X. Sh. Tashpulatov**  
**A. I. Inatov**

## Muharrirlar:

|                     |                      |
|---------------------|----------------------|
| <b>I.Sulaymonov</b> | - f.f.d., dotsent    |
| <b>E.Arziqulov</b>  | - f.-m.f.n., dotsent |
| <b>O.Yusupova</b>   | - fil.f.n., dotsent  |
| <b>A.R.Safarov</b>  | - PhD., dotsent      |

## Mas'ul muharrirlar:

|                            |                      |
|----------------------------|----------------------|
| <b>D. M. Aronbayev</b>     | - k.f.n., dotsent    |
| <b>A. Sh. Yarmuxamedov</b> | - f.-m.f.n.          |
| <b>X. S. Xaydarov</b>      | - f.-m.f.n., dotsent |

Muassis: Samarqand davlat universiteti  
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.  
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87  
e-mail: [axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz)

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.  
Bosishga 29.08.2020 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.  
Buyurtma raqami 277. Adadi 30 nusxa.

**Manzil:** 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.  
**SamDU bosmaxonasida chop etildi.**